O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KRIMINOLOGIYA TADQIQOT INSTITUTI

“Mintaqaviy jinoyatchilikning dinamikasi va tendensiyalari” nomli respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to‘plami

(2026-yil 15-aprel)

Toshkent – 2026-yil

UDK 343.97(575.1)
KBK 67.518.0(5Uз)

O‘zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot Instituti kengashining 2026-yil “15” may 5-sonli bayonnoma qarori bilan elektron va bosma shaklda nashrdan chiqarishga tavsiya etilgan.

Mas’ul muharrir
yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) **B.E. Berdialiyev**.

Ilmiy muharrir:
yuridik fanlar doktori, professor **X.T. Odilkoriyev**;
falsafa doktori (PhD), professor **R.O. Nigmatov**;
yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) **Sh.O. Azim**.

Tuzuvchilar:
yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent **Ya.Y. Ollamov**;
yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) **S.A. Isayev**.

Mintaqaviy jinoyatchilikning dinamikasi va tendensiyalari: respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to‘plami (2026-yil 15-aprel) / Mas’ul muharrir yu.f.b.f.d. B.E. Berdialiyev. – T.: O‘zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti, 2026. – 370 b.

Ushbu to‘plamda mintaqaviy (hududiy) jinoyatchilikning dinamikasi va tendensiyalarini o‘rganishga bag‘ishlangan ilmiy izlanishlar, tahliliy yondashuvlar va amaliy takliflar jamlangan. Unda jinoyatchilikning turlari, hududlar kesimidagi o‘zgarishlar, profilaktika tizimini takomillashtirish masalalari hamda huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy qarashlar o‘z ifodasini topgan.

To‘plam ilmiy jamoatchilik, tadqiqotchilar, huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari, shuningdek, mazkur sohaga qiziquvchi barcha o‘quvchilar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, u jinoyatchilikka qarshi kurashish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Maqolalarning mazmuni hamda faktlarning to‘g‘riligi uchun mualliflar mas’uldir.

© O‘zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti, 2026-y.

KIRISH SO‘ZI

Bugungi kunda jinoyatchilikka qarshi kurashish masalasi har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Globallashuv jarayonlari, axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning transformatsiyasi jinoyatchilikning yangi shakl va usullarini yuzaga keltirmoqda. Bu esa o‘z navbatida, jinoyatchilikni faqat umumiy ko‘lamda emas, balki aniq hududiy kesimda, har bir mintaqaning o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda chuqur va har tomonlama tahlil qilishni taqozo etmoqda.

Mintaqaviy jinoyatchilikning dinamikasi va tendensiyalarini o‘rganish nafaqat uning hozirgi holatini baholash, balki kelgusidagi ehtimoliy o‘zgarishlarni prognoz qilish imkonini ham beradi. Shu jihatdan, jinoyatchilikka ta’sir etuvchi omillarni — ijtimoiy, iqtisodiy, demografik, madaniy va boshqa ko‘plab faktorlarni kompleks tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, respublikamizning ayrim hududlarda jinoyatchilikning o‘sishi yoki kamayishiga ta’sir etuvchi sabablarni aniqlash orqali samarali profilaktika chora-tadbirlarini ishlab chiqish mumkin.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda qonuniylikni mustahkamlash, huquq-tartibotni ta’minlash hamda jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayonda jinoyatchilikning hududiy jihatdan tahlili, uning sabab va shart-sharoitlarini aniqlash, shuningdek, har bir mintaqaga xos bo‘lgan kriminogen omillarni chuqur o‘rganish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Mazkur respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to‘plamida mintaqaviy (hududiy) jinoyatchilikning dinamikasi va tendensiyalarini o‘rganishga bag‘ishlangan ilmiy izlanishlar, tahliliy yondashuvlar va amaliy takliflar jamlangan. Unda jinoyatchilikning turlari, hududlar kesimidagi o‘zgarishlar, profilaktika tizimini takomillashtirish masalalari hamda huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy qarashlar o‘z ifodasini topgan.

To‘plam ilmiy jamoatchilik, tadqiqotchilar, huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari, shuningdek, mazkur sohaga qiziquvchi barcha o‘quvchilar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, u jinoyatchilikka qarshi kurashish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Berdialiyev Baxtiyor Erkinovich
O‘zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti boshlig‘i,
polkovnik, yuridik fanlari bo‘yicha
falsafa doktori (PhD)

MINTAQAVIY JINOYATCHILIK DINAMIKASI VA UNING TENDENSIYALARI: IJTIMOIY PROFILAKTIKANING KRIMINOLOGIK AHAMIYATI

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada mintaqaviy jinoyatchilikning o‘ziga xos xususiyatlari, uning dinamikasi va zamonaviy tendensiyalari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Hududlardagi ijtimoiy-iqtisodiy, demografik va madaniy omillarning jinoyatchilik holatiga ta’siri yoritilib, ushbu salbiy ko‘rsatkichlarni kamaytirishda ijtimoiy profilaktikaning o‘rni asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: *mintaqaviy jinoyatchilik, kriminologik dinamika, tendensiya, ijtimoiy profilaktika, determinantlar, urbanizatsiya, viktimologiya, ijtimoiy nazorat.*

ДИНАМИКА РЕГИОНАЛЬНОЙ ПРЕСТУПНОСТИ И ЕЁ ТЕНДЕНЦИИ: КРИМИНОЛОГИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ СОЦИАЛЬНОЙ ПРОФИЛАКТИКИ

Аннотация. В данной научной статье проанализированы специфические особенности региональной преступности, её динамика и современные тенденции с научно-теоретической точки зрения. Освещено влияние социально-экономических, демографических и культурных факторов в регионах на состояние преступности, а также обоснована роль социальной профилактики в снижении этих негативных показателей.

Ключевые слова: региональная преступность, криминологическая динамика, тенденция, социальная профилактика, детерминанты, урбанизация, виктимология, социальный контроль.

DYNAMICS OF REGIONAL CRIME AND ITS TRENDS: THE CRIMINOLOGICAL SIGNIFICANCE OF SOCIAL PREVENTION

Abstract. This scientific article analyzes the specific features of regional crime, its dynamics, and modern trends from a theoretical perspective. It highlights the impact of socio-economic, demographic, and cultural factors in different regions on crime rates and substantiates the role of social prevention in reducing these negative indicators.

Keywords: regional crime, criminological dynamics, trends, social prevention, determinants, urbanization, victimology, social control.

Jinoyatchilik murakkab, o‘zgaruvchan va keng qamrovli ijtimoiy-huquqiy hodisa bo‘lib, u jamiyatdagi iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy jarayonlar bilan bevosita uzviy bog‘liqdir. Bugungi globallashuv, shiddatli demografik o‘zgarishlar, ijtimoiy qatlamlashuv va raqamli texnologiyalarning hayotimizga chuqur kirib borishi sharoitida jinoyatchilikning qiyofasi ham, uni keltirib chiqaruvchi omillar ham keskin transformatsiyaga uchramoqda. Shu boisdan, zamonaviy kriminologiya ilmida jinoyatchilikni faqatgina umumdavlat miqyosidagi abstrakt va umumiy ko‘rsatkichlar asosida emas, balki muayyan mintaqa yoki hudud kesimida o‘rganish tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ma’lumki, umummilliy statistika ko‘pincha joylardagi o‘ziga xos yashirin muammolarni va mahalliy kriminogen o‘choqlarni to‘laqonli aks ettira olmaydi.

Mintaqaviy jinoyatchilik o‘zining dinamikasi, ya’ni vaqt va makon nuqtayi nazaridan o‘zgarib borish qonuniyatlari hamda tendensiyalari bilan ajralib turadi. Har bir hududning o‘ziga xos geografiyasi, urbanizatsiya va sanoatlashish darajasi, aholisining bandlik ko‘rsatkichlari, ichki va tashqi migratsiya oqimlari, shuningdek, tarixiy shakllangan urf-odat va an’analari jinoyatlarning turi, soni va ijtimoiy xavflilik darajasiga turlicha ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, yirik iqtisodiy markazlarda mulkiy va kiberjinoyatlar tendensiyasi yuqori bo‘lsa, chekka hududlarda ishsizlik yoki ijtimoiy infratuzilmaning yetishmovchiligi sababli maishiy va zo‘ravonlikka asoslangan jinoyatlar salmog‘i ortishi kuzatiladi.

Ushbu mahalliy kriminogen jarayonlarni chuqur va tizimli anglash esa, o‘z navbatida, jinoyatchilikning faqatgina oqibatlari bilan emas, balki uning tub ijtimoiy-iqtisodiy sabablari bilan kurashishga xizmat qiluvchi ijtimoiy profilaktika

tizimini to‘g‘ri shakllantirishga zamin yaratadi. Bugungi kunda davlatning huquqni muhofaza qilish siyosati faqatgina jazolovchi xarakterga emas, balki aynan huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olishga, har bir mintaqaning “ijtimoiy kasalliklari”ga mos keluvchi “profilaktik immunitet”ni shakllantirishga qaratilmoqda.

Demak, mintaqaviy jinoyatchilikning dinamikasi va tendensiyalarini tadqiq etish hamda uni maqsadli ijtimoiy profilaktika institutlari bilan uzviy bog‘lash – nafaqat nazariy-kriminologik masala, balki hududlardagi ijtimoiy barqarorlikni saqlash, inson huquqlarini himoya qilish, mintaqaning investitsion jozibadorligini oshirish va pirovardida, mamlakat milliy xavfsizligini ta’minlashning eng ustuvor strategik yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur maqolaning bosh maqsadi ham aynan hududiy jinoyatchilik tabiatini ilmiy tahlil qilish orqali, joylardagi ijtimoiy muhitni sog‘lomlashtirishning zamonaviy profilaktik yechimlarini ochib berishdan iboratdir.

Mintaqaviy jinoyatchilikning real manzarasini baholashda mutlaq raqamlar bilan bir qatorda, dinamikadagi o‘sish sur’atlari va ijtimoiy determinantlar o‘rtasidagi funksional bog‘liqlikni o‘rganish fundamental ahamiyat kasb etadi. Kriminologik nazariyaga ko‘ra, jinoyatchilikning dinamikasi jamiyatdagi iqtisodiy barqarorlik, aholining ijtimoiy himoyalanganlik darajasi va huquqiy nazorat mexanizmlarining samaradorligini aks ettiruvchi ko‘zgudir. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 2025-yilning 12 oyi yakuni bo‘yicha respublikada aniqlangan jinoyatlar sonining 34 634 tani tashkil etib, o‘tgan yilga nisbatan 23,9 foizga [1] oshganligi, kriminogen vaziyatning ekstensiv rivojlanish bosqichiga o‘tganligidan dalolat beradi.

Bunday keskin o‘sish sur’ati, eng avvalo, mintaqalardagi ijtimoiy profilaktika tizimining makroiqtisodiy va demografik o‘zgarishlarga moslasha olmayotganini ko‘rsatadi. Ilmiy nuqtayi nazardan tahlil qilinganda, jinoyatchilikning 23,9 foizlik intensivligi zamirida bir nechta determinantlar majmui yotadi. Xususan, urbanizatsiya jarayonining jadallashishi natijasida aholi zichligi yuqori bo‘lgan hududlarda anonimlik va ijtimoiy begonalashish darajasi ortib bormoqda, bu esa o‘z

navbatida an’anaviy jamoatchilik nazorati. Ya’ni, mahalla, qo‘ni-qo‘shnichilik institutlarining jinoyatni tiyib turuvchilik funksiyasini zaiflashtirmoqda.

Yuqori dinamik o‘sish kuzatilgan hududlar: Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, eng yuqori o‘sish sur’atlari Samarqand (57,3%), Buxoro (49,0%) va Namangan (39,2%) viloyatlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda. Bunday keskin o‘sish ushbu hududlardagi ijtimoiy-iqtisodiy faollikning ortishi, urbanizatsiya jarayonlarining tezlashishi hamda migratsiya oqimlarining kuchayishi bilan izohlanishi mumkin. Ayniqsa, turizm va savdo markazlari hisoblangan Samarqand va Buxoroda jinoyatchilik dinamikasining bu qadar yuqoriligi, ushbu mintaqalarda viktimologik profilaktika (aholi va mehmonlarning jinoyat qurboniga aylanishining oldini olish) choralarini qayta ko‘rib chiqishni taqozo etadi. Ushbu hududlardagi ijtimoiy profilaktika choralarining mahalliy xususiyatlarni hisobga olmay, faqatgina an’anaviy shablon asosida olib borilayotganini tasdiqlaydi. Zamonaviy kriminologiyada kriminogen hududlar tushunchasi mavjud bo‘lib, unga ko‘ra iqtisodiy faollik va aholi harakatchanligi yuqori bo‘lgan hududlarda nazorat tizimi texnologik va ijtimoiy jihatdan jinoiy elementlardan bir qadam oldinda yurishi shart.

Intensivlik darajasi va aholi zichligi: Mutlaq ko‘rsatkichlar bo‘yicha Toshkent shahri (6 671 ta) va Toshkent viloyati (3 975 ta) yetakchi o‘rinlarni egallamoqda. Biroq, ushbu raqamlarni har 100 ming aholiga nisbatan koeffitsiyent asosida tahlil qilsak, poytaxt mintaqasida jinoyat sodir etish ehtimolligi boshqa hududlarga nisbatan yuqoriligicha qolayotgani ko‘rishimiz mumkin. Bu holat yirik megapolislarda anonimlik darajasining yuqoriligi va ijtimoiy nazoratning nisbatan sustligi bilan bog‘liqdir.

Mazkur raqamlarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy profilaktikaning istiqboldagi modeli faqatgina ma’muriy huquqbuzarliklar bilan kurashish emas, balki aholining ijtimoiy kayfiyatiga ta’sir etuvchi omillarni: ishsizlik, mulkiy tengsizlik, ta’lim sifati kabi tizimli ravishda bartaraf etishga qaratilishi lozim. Zero, jinoyatchilik dinamikasining bunday yuqori sur’atda saqlanib qolishi jamiyatdagi ijtimoiy kelishuv va huquqiy tartibotning barqarorligiga jiddiy xavf tug‘diradi. Shu boisdan, har bir hududning o‘ziga xos kriminologik pasportini yaratish va unga

asosan individual profilaktik strategiyalarni ishlab chiqish bugungi kunning kechiktirib bo‘lmas ilmiy-amaliy zaruriyatidir.

Mintaqaviy jinoyatchilikning o‘sish tendensiyalari bevosita ijtimoiy profilaktikaning manzilli emasligi bilan bog‘liq. Masalan, Andijon (34,4%) va Farg‘ona (14,0%) viloyatlaridagi o‘sish sur’atlarining farqi, ushbu qo‘shni hududlardagi bandlik siyosati va “mahallabay” ishlash tizimidagi turlicha yondashuvlar natijasi bo‘lishi mumkin.

Mintaqaviy jinoyatchilik dinamikasini tahlil qilishda nafaqat statistik ko‘rsatkichlarga, balki kriminologiya fanida tan olingan “jinoyatchilik geografiyasi” fenomeniga ham e’tibor qaratish lozim. Ilmiy adabiyotlarda ta’kidlanganidek, jinoyatchilik geografiyasi deganda, muayyan davrda davlat hududida sodir etilgan jinoyatlar yoki ularni sodir etgan shaxslar mutlaq miqdorining ma’muriy-hududiy birliklar bo‘yicha taqsimlanishi tushuniladi [2].

Ushbu geografik taqsimotni o‘rganish mintaqaviy jinoyatchilikning o‘ziga xos xususiyatlarini, uni keltirib chiqaruvchi sabab va sharoitlarni aniqlashga imkon beradi. Bu esa, o‘z navbatida, ijtimoiy profilaktika tizimi uchun quyidagi strategik ahamiyatga ega:

1. Profilaktik choralarni manzilli yo‘naltirish: Jinoyatchilik geografiyasi asosida hududlarning “kriminologik xaritasi”ni yaratish, ijtimoiy profilaktika subyektlariga qaysi mintaqada qaysi turdagi jinoyatlarga qarshi kurash resurslarini ko‘proq safarbar qilish kerakligini ko‘rsatadi.

2. Sabab va sharoitlarni mahalliylashtirish: Jinoyat sodir etilishiga zamin yaratuvchi omillar (ishsizlik, infratuzilmaning holati, madaniy muhit) har bir hududda turlicha bo‘ladi. I.Ismailov, Q.R. Abdurasulova, I.Yu. Fazilovlar ta’kidlaganidek, geografik tahlil jinoyatchilikka qarshi kurashda zarur bo‘lgan maxsus chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish uchun asos bo‘ladi [3].

3. Oqibatlarni minimallashtirish: Jinoyatchilik natijasida nafaqat moddiy, balki jamiyatning ijtimoiy munosabatlariga, ma’naviy qadriyatlariga ham zarar yetadi. Jinoyat sodir etilishi oqibatida jabrlanuvchiga yetkaziladigan moddiy,

jismoniy va ma’naviy zararlarning mintaqaviy ko‘lamini anglash, ijtimoiy himoya va reabilitatsiya ishlarini to‘g‘ri tashkil etishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, mintaqaviy jinoyatchilik dinamikasining (xususan, 2025-yil yakunlari bo‘yicha kuzatilgan 23,9 foizlik o‘sish sur’atining) geografik va statistik tahlili ijtimoiy profilaktika tizimini tubdan isloh qilish zaruriyatini asoslab beradi. Endilikda profilaktika ishlari faqatgina umumiy, shablon ko‘rinishidagi tadbirlardan iborat bo‘lib qolmasdan, balki har bir hududning o‘ziga xos “ijtimoiy-kriminal qiyofasi”ga va lokal determinantlariga moslashtirilgan bo‘lishi shart.

Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi ilmiy-amaliy takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq:

- Mintaqaviy kriminologik pasportlashtirish: Har bir viloyat va tumanning o‘ziga xos jinoyatchilik geografiyasini aks ettiruvchi raqamli xaritalarini yaratish. Bunda faqat jinoyatlar soni emas, balki hududdagi ishsizlik darajasi, migratsiya koeffitsiyenti va ijtimoiy infratuzilma holatining o‘zaro bog‘liqligi aks etishi lozim.

- Differensial ijtimoiy profilaktika: Jinoyatchilik intensivligi yuqori bo‘lgan Samarqand (57,3%), Buxoro (49,0%) va Namangan (39,2%) kabi mintaqalarda “viktimologik profilaktika” va “iqtisodiy rag‘batlantirish” choralarini kuchaytirish, jinoyatchilik nisbatan barqaror bo‘lgan Qoraqalpog‘iston (8,2%) yoki Sirdaryoda (8,0%) esa jamoatchilik nazoratining kommunitar modellarini qo‘llab-quvvatlash.

- Institutsional hamkorlikning yangi modeli: Profilaktikani faqat huquqni muhofaza qiluvchi organlar vazifasi sifatida emas, balki hududiy hokimliklar, bandlik markazlari va mahalla institutlarining o‘zaro muvofiqlashgan “ijtimoiy diagnostika” tizimi sifatida qayta tashkil etish.

Pirovardida, jinoyatchilik geografiyasi va dinamikasini ilmiy asosda o‘rganish, davlatga “kriminogen ofat”larni oldindan prognoz qilish va chekka hududlardagi ijtimoiy zaif nuqtalarni vaqtida sog‘lomlashtirish imkonini beradi. Bu

esa jamiyatda jinoyatchilikka nisbatan murosasiz muhitni shakllantirishning eng samarali mexanizmi bo‘lib xizmat qiladi.

Bundan tashqari, jinoyatchilik tendensiyalari jamiyatdagi global va lokal inqirozlar, ishsizlik darajasining tebranishi va migratsiya oqimlarining kuchayishi fonida shakllanadi. Iqtisodiy nomutanosiblik yuqori bo‘lgan mintaqalarda takroriy jinoyatchilik va voyaga yetmaganlar o‘rtasidagi huquqbuzarliklarning ortishi qonuniyat tusini oladi. Olimlarning ta’kidlashicha, hududiy jinoyatchilikning yana bir xavfli tendensiyasi – bu uning latent qismining, xususan, korrupsion va iqtisodiy jinoyatlarning tobora murakkablashib, intellektual tus olayotganidir [4]. Shu sababli, mintaqalardagi kriminogen vaziyatni faqatgina jazolovchi organlar faoliyati orqali emas, balki chuqur ijtimoiy tahlillarga asoslangan holda baholash talab etiladi.

Jinoyatchilikning mintaqaviy dinamikasi va undagi salbiy tendensiyalarni jilovlashda eng samarali va gumanistik yondashuv bu – ijtimoiy profilaktikadir. Ijtimoiy profilaktika jinoyat sodir etilgandan so‘ng emas, balki shaxsda jinoiy xulq-atvor shakllanishidan oldin jamiyatdagi iqtisodiy, ma’naviy-ma’rifiy va tashkiliy muammolarni hal etishga qaratilgan keng ko‘lamli chora-tadbirlar majmuini anglatadi.

Mintaqaviy darajada ijtimoiy profilaktikani amalga oshirish quyidagi fundamental yo‘nalishlarni qamrab olishi lozim. Birinchi navbatda, hududning o‘ziga xos kriminogen xususiyatlaridan kelib chiqib, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari (ishsiz yoshlar, muqaddam sudlanganlar, notinch oilalar) bilan manzilli ishlash tizimini yaratish zarur. Agar muayyan mintaqada ishsizlik sababli mulkiy jinoyatlar tendensiyasi o‘sayotgan bo‘lsa, bu yerda ichki ishlar organlarining patrullik faoliyatini kuchaytirishdan ko‘ra, yangi ish o‘rinlarini yaratuvchi investitsion loyihalarni jalb qilish, kasb-hunarga o‘qitish markazlarini ochish samaraliroq ijtimoiy profilaktika hisoblanadi.

Shuningdek, hududiy jinoyatchilikning oldini olishda norasmiy ijtimoiy nazorat institutlarining (mahalla, oila, ta’lim muassasalari va jamoatchilik tuzilmalari) rolini oshirish maqsadga muvofiqdir. Aynan shu institutlar orqali mintaqada sog‘lom ijtimoiy muhitni shakllantirish, aholining huquqiy ongi va

madaniyatini yuksaltirish mumkin. Kriminologik tadqiqotlar shuni tasdiqlaydiki, aholining ijtimoiy-madaniy infratuzilmaga (kutubxonalar, sport majmualari, madaniyat uylari) jalb etilish darajasi yuqori bo‘lgan hududlarda zo‘ravonlik va bezorilik jinoyatlarining dinamikasi keskin pasayadi.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, mintaqaviy jinoyatchilikning dinamikasi va tendensiyalari shunchaki statistik raqamlar yig‘indisi emas, balki muayyan hududdagi ijtimoiy-iqtisodiy sog‘lomlik darajasini ko‘rsatuvchi muhim indikatordir. Jinoyatchilik o‘z tabiatiga ko‘ra hududning zaif nuqtalariga zarba beradi. Shu boisdan, jinoyatchilikka qarshi kurashish siyosati har bir mintaqaning individual qiyofasini, uning demografik va iqtisodiy imkoniyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilishi kerak.

Shu bilan birga, ijtimoiy profilaktika samaradorligini oshirish uchun quyidagilarni inobatga olish zarur:

- Iqtisodiy determinatsiya: Jinoyatchilik dinamikasi yuqori bo‘lgan Samarqand va Namangan kabi hududlarda asosiy e’tiborni yoshlar bandligi va norasmiy sektorni qisqartirishga qaratish lozim. Chunki iqtisodiy beqarorlik mulkiy jinoyatlarning asosiy drayveridir.
- Demografik omil: Aholi soni jadal o‘sib borayotgan hududlarda ijtimoiy infratuzilma (maktablar, dam olish maskanlari) jinoyatchilikning oldini oluvchi bilvosita omil sifatida xizmat qiladi.
- Lokal profilaktika: Statistika shuni ko‘rsatadiki, har bir hudud uchun universal profilaktik model mavjud emas. Toshkent shahrida raqamli profilaktika (kiberxavfsizlik) ustuvor bo‘lsa, Surxondaryo (24,5%) yoki Qashqadaryoda (17,5%) an’anaviy oilaviy-maishiy munosabatlar profilaktikasiga urg‘u berish lozim.

Xulosa qilib aytganda, 2025-yil yakunidagi 23,9 foizlik umumiy o‘sish – bu hududiy ijtimoiy profilaktika organlari uchun “ogohlantirish” signalidir. Jinoyatchilikning mintaqaviy dinamikasini jilovlash uchun jazo choralarini kuchaytirish emas, balki har bir viloyatning ijtimoiy-iqtisodiy depressiv zonalarini sog‘lomlashtirishga qaratilgan kriminologik strategiyani amalga oshirish talab etiladi.

Shuningdek, mintaqaviy jinoyatchilikning o‘sish tendensiyalarini barqarorlashtirish faqatgina huquqni muhofaza qiluvchi organlarning vazifasi bo‘lib qolmasligi lozim. Unga qarshi qaratilgan eng kuchli qurol – bu tizimli, ilmiy asoslangan va uzluksiz ravishda olib boriladigan ijtimoiy profilaktikadir. Davlat va jamoat tashkilotlari hamkorligida hududlardagi ijtimoiy muammolarni vaqtida aniqlash va ularni bartaraf etish orqaligina jinoyatchilikning ildiziga balta urish va jamiyatda barqaror xavfsizlikni ta’minlash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Jinoyatchilik tendensiyalari va omillari davlat hisobotlari (2025-yilning 12 oyi bo‘yicha): Axborot-tahliliy hujjat. – T.: O‘zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti, 2026. – B. 17.

2, 3. Ismailov I., Abdurasulova Q.R., Fazilov I.Yu. Kriminologiya. Umumiy qism: IIV oliy ta’lim muassasalari uchun darslik / Mas’ul muharrir Sh.T. Ikramov. – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2015. – B. 68.

4. Inshakov S.M. Kriminologiya: Uchebnik. – M.: Yuniti-Dana, 2024. – S. 142-145., Ziyodullayev M.Z. Huquqbuzarliklar profilaktikasi tizimini takomillashtirishning tashkiliy-huquqiy masalalari. – T.: Adolat, 2021. – B. 54-58

Nigmatov Ruftullo Olimdjonovich
O‘zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti boshlig‘i o‘rinbosari, polkovnik, falsafa doktori (PhD), professor

BUYUK BRITANIYADA JAZO TAYINLASH SIYOSATINING ZAMONAVIY EVOLYUTSIYASI: INSTITUTSIONAL VA HUQUQIY TAHLIL

Annotatsiya. Mazkur maqolada Buyuk Britaniyada jazo tayinlash siyosatining tarixiy-huquqiy evolyutsiyasi, uning institutsional asoslari va zamonaviy rivojlanish tendensiyalari tahlil qilingan. Tadqiqotda jazo tayinlash institutining sud ixtiyoriga asoslangan dastlabki modeldan normativ mezonlar, yo‘riqnomalar, empirik monitoring va institutsional muvofiqlashtirishga asoslangan murakkab tizimga aylanish jarayoni yoritilgan. Shuningdek, magistratlar sudlari va Crown Court faoliyatining o‘rni, sentencing guideline tizimining shakllanishi, community order, suspended sentence, IPP, voyaga yetmaganlarga nisbatan reabilitatsiyaviy yondashuv hamda qamoq jazolarining qo‘llanish dinamikasi ko‘rib chiqilgan. Maqolada Buyuk Britaniya penal siyosatida izchillik va shaffoflik

kuchaygan bo‘lsa-da, ozodlikdan mahrum qilish jazosi qo‘llanishini kamaytirish borasida kutilgan natijalarga to‘liq erishilmaganligi asoslab beriladi. Muallif Buyuk Britaniya tajribasi jazo tayinlash siyosatini takomillashtirishda yo‘riqnomaviy yondashuv, mustaqil monitoring va ehtiyotkor dekarsaratsiya mexanizmlarining ahamiyatini ko‘rsatishini ta’kidlaydi.

Kalit so‘zlar: Buyuk Britaniya, jazo tayinlash siyosati, sud ixtiyori, sentencing guideline, Sentencing Council, community order, suspended sentence, penal siyosat, dekarsaratsiya, odil sudlovi.

СОВРЕМЕННАЯ ЭВОЛЮЦИЯ ПОЛИТИКИ НАЗНАЧЕНИЯ НАКАЗАНИЯ В ВЕЛИКОБРИТАНИИ: ИНСТИТУЦИОНАЛЬНО-ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ

Аннотация. В данной статье проанализированы историко-правовая эволюция политики назначения наказания в Великобритании, её институциональные основы и современные тенденции развития. В исследовании раскрыт процесс трансформации института назначения наказания — от первоначальной модели, основанной на судебном усмотрении, к сложной системе, базирующейся на нормативных критериях, руководящих принципах, эмпирическом мониторинге и институциональной координации. Также рассмотрены роль магистратских судов и Суда Короны, формирование системы руководств по назначению наказаний (sentencing guidelines), такие меры, как «community order», «suspended sentence», «IPP», реабилитационный подход к несовершеннолетним, а также динамика применения наказаний в виде лишения свободы. В статье обосновывается, что, несмотря на усиление последовательности и прозрачности в уголовно-исполнительной политике Великобритании, ожидаемые результаты в снижении применения лишения свободы достигнуты не в полной мере. Автор подчёркивает, что опыт Великобритании демонстрирует важность руководящих подходов, независимого мониторинга и механизмов осторожной декарсерации в совершенствовании политики назначения наказаний.

Ключевые слова: Великобритания, политика назначения наказаний, судебное усмотрение, sentencing guideline, Sentencing Council, community order, suspended sentence, уголовно-исполнительная политика, декарсерация, правосудие.

THE MODERN EVOLUTION OF SENTENCING POLICY IN THE UNITED KINGDOM: AN INSTITUTIONAL AND LEGAL ANALYSIS

Abstract. This article analyzes the historical and legal evolution of sentencing policy in the United Kingdom, its institutional foundations, and current development trends. The study examines the transformation of the sentencing institution from an initial model based on judicial discretion into a complex system grounded in normative criteria, guidelines, empirical monitoring, and institutional coordination. It also explores the role of Magistrates' Courts and the Crown Court, the development of the sentencing guidelines system, and measures such as community orders, suspended sentences, IPP, as well as the rehabilitative approach toward juveniles and the dynamics of the use of custodial sentences. The article substantiates that, despite increased consistency and transparency in the UK's penal policy, the expected outcomes in reducing the use of imprisonment have not been fully achieved. The author emphasizes that the UK experience demonstrates the importance of guideline-based approaches, independent monitoring, and cautious decarceration mechanisms in improving sentencing policy.

Keywords: United Kingdom, sentencing policy, judicial discretion, sentencing guidelines, Sentencing Council, community order, suspended sentence, penal policy, decarceration, justice.

Jinoyat huquqida jazo tayinlash instituti jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimining eng muhim va ta'sirchan mexanizmlaridan biri bo'lib, u nafaqat jinoyat sodir etgan shaxsga nisbatan adolatli javobgarlik chorasini belgilash, balki jamiyatda huquqiy tartibotni mustahkamlash, jinoyatlarning oldini olish hamda odillik prinsipini amalda ta'minlashga xizmat qiladi. Shu bois jazo tayinlash institutining turli huquqiy tizimlarda shakllanishi va rivojlanishini o'rganish jinoyat huquqi

nazariyasi hamda amaliyoti uchun alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, Buyuk Britaniya tajribasi ushbu institutning tarixiy evolyutsiyasi, sudlarning mustaqilligi, normativ mezonlar va institutsional boshqaruv elementlari qanday shakllanganini ko‘rsatishi bilan e’tiborga loyiqdir. Nazarimizda, aynan Buyuk Britaniya misolida jazo tayinlash siyosatining tarixiy-huquqiy taraqqiyotini tahlil qilish milliy qonunchilikni takomillashtirish uchun nafaqat qiyosiy, balki metodologik ahamiyatga ham ega.

Aytish joizki, Buyuk Britaniya jazo tayinlash nazariyasi va amaliyoti shakllangan hamda izchil rivojlangan yetakchi huquqiy maktablardan biri sifatida e’tirof etiladi. Mazkur yo‘nalishdagi dastlabki ilmiy qarashlar XIX asrda Edward William Cox [1] ishlarida namoyon bo‘lgan bo‘lsa, keyinchalik David A. Thomas va Rupert Cross tomonidan jazo tayinlashning zamonaviy nazariy asoslari shakllantirilgan[2]. Shu bilan birga, empirik yondashuv nuqtayi nazaridan Francis Galtonning kuzatuvlari alohida ahamiyatga ega: u sudlar tomonidan ayrim “an’anaviy” raqamlarning ortiqcha qo‘llanilishi jazoning jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasiga mutanosib taqsimlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatishini qayd etgan[3]. Vaholanki, aynan shu kuzatuv keyinchalik jazoni jinoyat og‘irligiga mos belgilash g‘oyasining ilmiy asoslanishiga turtki bo‘lib, Andrew von Hirschning “Doing Justice” asarida desert-based proportionality tamoyili sifatida konseptual darajada mustahkamlangan[4]. Bizningcha, mazkur ilmiy evolyutsiya keyinchalik Buyuk Britaniyada jazo tayinlash bo‘yicha yo‘riqnomalar tizimi shakllanishining nazariy poydevorini yaratgan.

Shuningdek, XIX asr oxiri va XX asr boshlarida ko‘plab tadqiqotchilar sud amaliyotida izchillik etishmasligi va bir xil jinoyatlar bo‘yicha sezilarli jazo tafovutlari mavjudligini tanqid qilganlar. Xususan, Leon Radzinowicz va Roger Hood tahlillarida sudlar tomonidan tayinlanayotgan jazolar o‘rtasidagi nomuvofiqlik tizimli muammo sifatida baholangan bo‘lsa[5], Montague Crackenthorpe shaxsning avvalgi sudlanganligini hisobga olishdagi turlicha yondashuv jazolarning mutanosibligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishini alohida ta’kidlagan[6]. Vaholanki, aynan shu davrda jazo tayinlashni tizimlashtirishga

bo‘lgan ehtiyoj kuchayib, 1901-yilda Lord Alverstone tomonidan tayyorlangan “Normal jazolar to‘g‘risidagi memorandum” ayrim jinoyatlar uchun odatiy jazo turi va miqdorini belgilashga urinish sifatida maydonga chiqqan[7]. Bizningcha, Crackenthorpe tomonidan taklif etilgan jazo tizimi hamda “boshlang‘ich nuqta”ga asoslangan yondashuv[8] keyinchalik Buyuk Britaniyada shakllangan sentencing guideline tizimining dastlabki nazariy prototipi sifatida baholanishi mumkin, chunki aynan shu fikrlar zamonaviy jazo tayinlash siyosatida qo‘llanilayotgan bosqichma-bosqich metodologiyaning tarixiy ildizlarini tashkil etadi.

Mazkur tarixiy evolyutsiya Angliyada shakllangan sud tuzilmasi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, jazo tayinlash amaliyotining institutsional xususiyatlarini tushunishda alohida ahamiyat kasb etadi. Xususan, Buyuk Britaniyada jazo tayinlash tizimi ikki pog‘onali sud modeliga asoslanadi: jinoyat ishlarining asosiy qismi magistratlar sudlari tomonidan ko‘rib chiqilsa, og‘irroq ishlar Crown Court vakolatiga kiradi. Shu bilan birga, magistratlar sudlarining o‘ziga xos jihati shundaki, ular asosan professional bo‘lmagan lay magistratlar faoliyatiga tayangan holda ishlaydi. Ushbu institut olti asrdan ortiq tarixga ega bo‘lib, hozirgi kunda taxminan 26 ming nafar magistrat uch kishilik hay’at tarkibida ishlarni ko‘radi, huquqiy masalalar bo‘yicha esa yuridik maslahatchilar ko‘magidan foydalanadi[9]. Bizningcha, aynan shu model Angliya jazo tayinlash siyosatining tarixiy-huquqiy barqarorligini ta’minlab kelayotgan omillardan biridir, chunki barcha jinoyat ishlari dastlab magistratlar sudlarida boshlanadi va faqat jazo vakolati yetarli bo‘lmagan hollarda Crown Court ga yuboriladi. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 2014-yilda barcha hukm chiqarilgan shaxslarning 93 foizi aynan magistratlar sudlari tomonidan jazolangan bo‘lib[10], bu sudlarning jazo siyosatidagi markaziy o‘rnini yaqqol ko‘rsatadi.

Mazkur institutsional barqarorlikka qaramay, so‘nggi o‘n yilliklarda Angliyada jazo tayinlash amaliyotida muhim sifat o‘zgarishlari kuzatilgan. Xususan, 1993-2015-yillar oralig‘ida qamoqxona aholisi 44 ming nafardan 86 ming nafargacha oshib, deyarli ikki baravar ko‘paygan bo‘lsa-da, keyingi yillarda o‘sish sur’ati nisbatan sekinlashgan[11]. Shu bilan birga, sudlangan ishlar soni

kamayganiga qaramasdan, jarima va darhol ozodlikdan mahrum qilish jazolari ulushi deyarli o‘zgarmagan, biroq *Suspended Sentence Order* instituti kengroq qo‘llana boshlagan. Vaholanki, ayni davrda jamoat ishlari kabi muqobil jazolar ulushining kamayishi va zo‘ravonlik hamda jinsiy jinoyatlar bo‘yicha ozodlikdan mahrum qilish jazolari muddatining oshishi penal siyosatning amalda yanada qat’iylashayotganini ko‘rsatadi. Natijada qamoqxonalarda ortiqcha to‘ldirilish muammosi yuzaga kelib, 2014-yilda ayrim penitensiar muassasalarda bandlik darajasi belgilangan sig‘imdan ancha yuqori bo‘lgan[12]. Nazarimizda, aynan shu tendensiya Buyuk Britaniya jazo tayinlash siyosatining tarixiy-huquqiy rivojlanishida tashqi barqarorlik ortida ichki mazmun jihatidan sezilarli penal og‘irlashuv jarayoni kechganini ko‘rsatadi.

Mazkur jarayonda *Suspended Sentence Order* instituti alohida tahlilni talab qiladi, chunki u huquqiy jihatdan ozodlikdan mahrum qilish jazosining bir turi hisoblansa-da, amaliyotda ko‘pincha jamoat jazosi qo‘llanishi mumkin bo‘lgan holatlarda ham tayinlanmoqda. Aytish joizki, ilmiy adabiyotlarda bu holat Richard Sparks va Anthony Bottoms tomonidan “up-tariffing” fenomeni sifatida izohlanadi[13], ya’ni dastlab qamoq jazosini cheklash yoki almashtirish uchun joriy etilgan institut vaqt o‘tishi bilan nisbatan yengilroq jinoyatlarga ham tatbiq etila boshlaydi. Bizningcha, aynan shu tendensiya muqobil jazolar instituti har doim ham ozodlikdan mahrum qilishni kamaytirishga xizmat qilmasligini, aksincha ayrim holatlarda jazolash doirasining kengayishiga olib kelishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, ayrim tadqiqotchilar ushbu tendensiyani “net widening”, ya’ni jazolash tizimining institutsional kengayishi bilan izohlaydilar[14]. Bunday yondashuvga ko‘ra, yangi jazo institutlari mavjud jazolarni qisqartirish o‘rniga sud amaliyotida qo‘shimcha nazorat mexanizmi sifatida shakllanib, umumiy jazolash doirasini kengaytirishi mumkin. Vaholanki, shartli jazolar shartlari buzilganda qay darajada qamoqqa olish jazosi tayinlanayotgani haqida ochiq statistik ma’lumotlarning cheklanganligi mazkur institutning qamoqxona aholisi soniga real ta’sirini to‘liq baholashni murakkablashtiradi. Bizningcha, aynan empirik monitoringdagi ushbu bo‘shliq Buyuk Britaniyada jazo tayinlash siyosatini chuqur

tahlil qilishda normativ baholash bilan amaliy natijalar o‘rtasida ehtiyotkor yondashuvni talab qiladi.

Mazkur holat jazo tayinlash amaliyotida kuzatilayotgan yana bir muhim tendensiya — ozodlikdan mahrum qilish jazosi muddatlarining uzayishi bilan ham bevosita bog‘liqdir. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 2003–2013-yillar oralig‘ida Buyuk Britaniya bo‘yicha barcha jinoyatlar uchun o‘rtacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi muddati 12,6 oydan 15,6 oyga oshgan[15]. Aytish joizki, ushbu o‘sish, asosan, ayblov asosida ko‘riladigan og‘ir jinoyatlar, xususan zo‘ravonlik va jinsiy jinoyatlar bo‘yicha jazolarning og‘irlashgani bilan izohlanadi. Shu bilan birga, jazolar muddatining ortishi ko‘proq Crown Court amaliyoti bilan bog‘liq bo‘lib, magistratlar sudlarida o‘rtacha jazo muddati aksincha biroz kamaygan[16]. Vaholanki, *Average Custodial Sentence Length (ACSL)* ko‘rsatkichlari real qamoqda o‘tkazilgan vaqtni to‘liq aks ettirmaydi, chunki ular muddatsiz ozodlikdan mahrum qilish jazolari bilan bog‘liq holatlarni qamrab olmaydi. Bizningcha, aynan shu tafovut rasmiy statistik ko‘rsatkichlarni sharhlashda ehtiyotkor ilmiy yondashuv zarurligini ko‘rsatadi.

Buyuk Britaniyada so‘nggi yillarda jazo siyosati bir necha muhim yo‘nalishlarda parallel ravishda rivojlangan bo‘lib, bu jarayon penal siyosatning ichki murakkabligini yaqqol namoyon etadi. Xususan, jamoat xavfsizligini ta’minlash maqsadida Imprisonment for Public Protection (IPP) instituti joriy etilgan[17], jamoat jazolari tizimi qayta shakllantirilgan, shuningdek 2008-yildan boshlab voyaga yetmaganlarga nisbatan jazo tayinlash siyosati qayta ko‘rib chiqilib, ularga ozodlikdan mahrum qilish jazosi qo‘llanishi sezilarli darajada qisqartirilgan[18]. Aytish joizki, mazkur yo‘nalishlar yagona siyosiy strategiyadan ko‘ra turli ijtimoiy xavf guruhlariga nisbatan differensial penal yondashuvni aks ettiradi. Fikrimizcha, aynan shu holat Buyuk Britaniya jazo tayinlash siyosatining zamonaviy davrda bir vaqtning o‘zida ham qat’iylashtiruvchi, ham liberallashtiruvchi elementlarni o‘zida mujassamlashtirayotganini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, Buyuk Britaniya jazo siyosatida qamoq jazolariga muqobil institutlarni kuchaytirishga qaratilgan parallel yo‘nalish ham shakllandi. Ayrim

ilmiy va rasmiy manbalar 2002-yilda hukumat jamoat jazolarini sudlar hamda jamoatchilik nazarida yanada ishonchli institutga aylantirish uchun ularning qat’iyligi va samaradorligini oshirish zarurligini ilgari surganini ko‘rsatadi. Aynan shu konseptual yondashuv asosida Criminal Justice Act 2003 bilan probation order va community service order kabi mustaqil jazo turlari bekor qilinib, ularning o‘rniga turli talablarni kombinatsiyalash imkonini beruvchi yagona *community order* tizimi joriy etildi. Mazkur tizim dastlab 12 ta, keyinchalik 15 ta talabni o‘z ichiga olib, sudlarga bepul jamoat ishlari, uy qamog‘i, davolanish dasturlari kabi choralarni tanlash vakolatini berdi. Aytish joizki, qonunchilikda shartlarni buzganlik uchun qat’iy javob choralarining nazarda tutilganiga qaramasdan, amaliyotda bu islohot jamoat jazolarining keng qo‘llanishiga kutilgan darajada ta’sir ko‘rsatmadi, chunki ayni davrda *Suspended Sentence Order* instituti faolroq qo‘llanildi. 2012-yildan boshlab esa jazo shartlari buzilganda sudlarning moslashuvchan choralar qo‘llash vakolati kengaytirildi[19], bu esa community order tizimini yanada differensial boshqarishga urinish sifatida baholanishi mumkin.

Mazkur yondashuvning nisbatan muvaffaqiyatli natijalari ayniqsa voyaga yetmaganlarga nisbatan jazo tayinlash tizimida yaqqolroq namoyon bo‘lgan. Xususan, Youth Justice Board faoliyati natijasida so‘nggi yillarda tizim jazolashdan ko‘ra ijtimoiy reabilitatsiya va profilaktikaga ko‘proq yo‘naltirildi. Criminal Justice and Immigration Act 2008 orqali referral order instituti mustahkamlanib, **voyaga yetmagan** huquqbuzarlar ularning ehtiyojlari va xulq-atvoriga mos choralarni belgilash maqsadida jamoa asosida faoliyat yurituvchi Youth Offender Panelga yuborilishi belgilandi. Shu bilan birga, nisbatan og‘ir jinoyatlar uchun *Youth Rehabilitation Order* joriy etilib, uning talablari huquqbuzarning ijtimoiy xavflilik darajasi va shaxsiy xususiyatlariga qarab belgilanadigan bo‘ldi[20]. Aytish joizki, eng og‘ir holatlarda kuchaytirilgan nazorat yoki ozodlikdan mahrum qilish jazosi saqlab qolingan bo‘lsa-da, sud bunday jazo tayinlashdan oldin boshqa choralar yetarli emasligi haqida asoslantirilgan xulosa chiqarishi shart etib belgilandi[21]. Nazarimizda, aynan shu mexanizm Buyuk Britaniya jazo tayinlash siyosatida

yoshlar bilan ishlashda reabilitatsiyaviy paradigma ancha izchil shakllanganini koʻrsatadi.

Mazkur islohotlarning jazo tayinlash boʻyicha yoʻriqnomalar bilan uygʻunlashuvi amaliy natijalarda ham sezilarli ijobiy oʻzgarishlarni yuzaga keltirdi. Statistik ma’lumotlarga koʻra, birinchi marta ogohlantirish yoki sud hukmini olgan voyaga yetmaganlar soni 2005–2007-yillarda 100 ming nafardan oshgan boʻlsa, 2013–2014-yillarga kelib 23 ming nafargacha kamaygan, qamoqda saqlanayotgan voyaga yetmaganlar soni esa 2002-yildagi 3 200 nafardan 2015-yilda 1 056 nafargacha tushgan[22]. Shu bilan birga, Youth Justice Board tomonidan restorativ odil sudlov, jamoat ishlari va individual nazoratga asoslangan muqobil mexanizmlarning joriy etilishi, magistratlarni tayyorlash jarayonida maxsus yoʻriqnomalarning qoʻllanishi bilan birga sud amaliyotining izchilligini kuchaytirdi. Biroq, vaholanki, qamoqdan ozod etilgan **voyaga yetmagan**lar orasida takroran jinoyat sodir etish darajasi hanuz yuqori boʻlib qolmoqda. Bizningcha, bu holat reabilitatsiyaviy modelning oʻzi yetarli emasligini, uning samaradorligi ijtimoiy moslashtirish institutlari bilan uzviy bogʻliq ekanini koʻrsatadi. Shunga qaramay, Angliya tajribasi jamoat jazolari koʻplab hollarda ozodlikdan mahrum qilish jazosining samarali funksional muqobili boʻlishi mumkinligini amalda namoyon etadi.

Ayni paytda, voyaga yetmaganlar sohasidagi ijobiy natijalar umumiy penal siyosat bilan toʻliq mos kelmadi. Xususan, 1993–2003-yillarda Buyuk Britaniyada mahbuslar sonining keskin oshishi qamoqqa olish darajasini Germaniya, Fransiya hamda Italiya kabi Yevropa davlatlariga nisbatan yuqori darajaga olib chiqdi[23]. Shu sabab hukumat va ilmiy doiralarda ozodlikdan mahrum qilish jazosi qoʻllanilishini kamaytirish, penitensiar yuklamani pasaytirish hamda muqobil institutlarni kengaytirish zarurligi kuchaydi. Jumladan, Howard League for Penal Reform tomonidan ilgari surilgan justice reinvestment yondashuvi resurslarni qamoq jazosi oʻrniga profilaktika va muqobil jazolarga yoʻnaltirish gʻoyasini mustahkamladi. Keyinchalik British Academy tahlillarida ham yuqori qamoqqa olish darajasini kamaytirish zarurligi asoslab berilgan boʻlsa-da, amaliy siyosatda

keskin burilish yuz bermadi. Xususan, Jean Corston tavsiyalarining to‘liq joriy etilmagani Buyuk Britaniyada jazo siyosati ko‘pincha ilmiy tavsiyalardan ko‘ra ehtiyotkor siyosiy yondashuv ta’sirida shakllanishini ko‘rsatadi.

Shu nuqtai nazardan, jazo siyosatini siyosiy ta’sirdan qisman xolislashtirib, uni mustaqil institut vakolatiga topshirish g‘oyasi Nicola Lacey hamda British Academy tahlillarida muhim nazariy yondashuv sifatida ilgari surildi; bunda moliya siyosatidagi Monetary Policy Committee tajribasi qiyosiy model sifatida keltirilgan[24]. Aytish joizki, ushbu konsepsiya jazo tayinlash bo‘yicha strategik qarorlarni qisqa muddatli siyosiy bosimlardan himoya qilishga qaratilgan bo‘lsa-da, amaliyotda Buyuk Britaniya hukumatlari penal siyosat ustidan nazoratni mustaqil organga topshirishga qiziqish bildirmagan. Shu bilan birga, Mike Hough va Julian V. Roberts tadqiqotlari jamoatchilik jazo masalasida odatda tasavvur qilinadigan darajada populistik emas, aksincha nisbatan muvozanatli va differensial qarashlarga ega ekanini ko‘rsatadi. Nazarimizda, bu holat penal siyosatda qat’iy jazolarni saqlab qolish ko‘proq siyosiy ehtiyotkorlik mahsuli ekanini anglatadi[25].

Buyuk Britaniyada jazo tayinlash siyosatining tarixiy-huquqiy evolyutsiyasi shuni ko‘rsatadiki, ushbu institut oddiy sud ixtiyoriga asoslangan dastlabki modeldan bosqichma-bosqich normativ mezonlar, metodologik yo‘riqnomalar, empirik monitoring va institutsional muvofiqlashtirish elementlari kuchli bo‘lgan murakkab tizimga aylangan. Mazkur evolyutsiya bir tomondan jazo tayinlashda izchillik, mutanosiblik, shaffoflik va bashorat qilinuvchanlikni kuchaytirgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, ozodlikdan mahrum qilish jazosi qo‘llanishini kamaytirish borasida kutilgan natijalarni to‘liq ta’minlay olmagan. Aynan shu ikki yo‘nalishning parallel mavjudligi Angliya penal siyosatining zamonaviy tabiatini belgilovchi asosiy xususiyat sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Mazkur tendensiya so‘nggi yillardagi islohotlarda ham yaqqol ko‘zga tashlanadi. Xususan, penitensiar tizim sig‘imi bilan bog‘liq muammolar fonida 2024-yilda ishga tushirilgan Independent Sentencing Review qisqa muddatli qamoq jazolarining samaradorligini qayta baholash, qamoqxona yuklamasini kamaytirish hamda muqobil jazolar ulushini kengaytirishga qaratildi. Shu asosda qisqa muddatli

ozodlikdan mahrum qilish jazolarini imkon qadar cheklash va ularni faqat jamoat xavfsizligiga real tahdid mavjud hollarda qo‘llash yondashuvi ilgari surildi. Ushbu yo‘nalish 2025-yilda qabul qilinib, 2026-yildan kuchga kirgan Sentencing Act 2026 bilan normativ jihatdan mustahkamlanib, 12 oygacha bo‘lgan jazolar bo‘yicha presumption of suspended sentence tamoyili joriy etildi[26]. Natijada sudlarga bunday hollarda jazoni ijrosini kechiktirish yoki community order qo‘llashga ustuvor ahamiyat berish belgilandi. Bu esa zamonaviy Britaniya penal siyosatida ozodlikdan mahrum qilish jazosini so‘nggi chora sifatida qo‘llash prinsipining yanada kuchayib borayotganini ko‘rsatadi.

Shu bois Angliya jazo tayinlash siyosatining tarixiy taraqqiyotini tizimli tahlil qilish maqsadida uni shartli ravishda bir necha bosqichlarga ajratish mumkin:

Birinchi bosqich - sud diskretsiyasi ustun bo‘lgan davr. Bu bosqichda jazo tayinlash asosan sud amaliyoti, sudyalarning professional tajribasi va ayrim an’anaviy yondashuvlarga tayangan. XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi ilmiy qarashlar aynan shu davrda jazolardagi tafovut, nomuvofiqlik va mutanosiblik muammolarini ochib bergan. Demak, ushbu bosqichning asosiy xususiyati — keng sud ixtiyori, ammo yetarli darajadagi yagona metodologiyaning mavjud emasligi.

Ikkinchi bosqich - yo‘riqnomaviy yondashuvning shakllanish davri. Bu bosqichda jazo tayinlashni tizimlashtirishga ehtiyoj kuchaydi. Magistrates’ Association tavsiyalari, Apellyatsiya sudi qarorlari, keyinchalik Sentencing Advisory Panel faoliyati jazo tayinlashda umumiy standartlarni ishlab chiqishga xizmat qildi. Mazkur davrning mohiyati — sud amaliyotini bir xillashtirishga bo‘lgan urinishlarning paydo bo‘lishi.

Uchinchi bosqich - normativ-institutsional mustahkamlash davri. 2003-yildagi *Criminal Justice Act* va undan keyingi islohotlar jazo tayinlash siyosatini qonunchilik darajasida qayta shakllantirdi. Jazo tayinlash maqsadlari, custodial threshold, jamoat jazolari, shartli qamoq, **voyaga yetmagan**lar bo‘yicha alohida institutlar va majburiyroq yo‘riqnomalar tizimi paydo bo‘ldi. Bu davrda jazo tayinlash siyosati faqat sud amaliyoti mahsuli bo‘lib qolmay, alohida davlat siyosati institutiga aylandi.

To‘rtinchi bosqich - metodologik va empirik boshqaruv davri. Coroners and Justice Act 2009 asosida Sentencing Council tashkil etilishi bilan jazo tayinlash bo‘yicha aniq algoritmlar, bosqichli metodika, monitoring, ta’sirni baholash va statistik kuzatuv tizimi kuchaydi. CCSS kabi ma’lumotlar bazasi sudlar qanday jazo tayinlayotganini chuqur tahlil qilish imkonini berdi. Bu bosqichning ustuvor belgisi — jazo tayinlashni ilmiy-empirik asosda kuzatish va boshqarishga intilish.

Beshinchi bosqich - cheklangan modernizatsiya va siyosiy qarama-qarshilik davri. So‘nggi bosqichda yo‘riqnomalar izchillik va shaffoflikni oshirgan bo‘lsa-da, qamoqqa olish darajasini kamaytirish, qisqa muddatli qamoq jazolarini qisqartirish, muqobil jazolarni faol targ‘ib etish borasida tizim ehtiyotkorligicha qolmoqda. Ya’ni tizim texnik va metodologik jihatdan rivojlangan, ammo penal siyosatning siyosiy omillarga qaramligi saqlanib qolgan.

Oltinchi bosqich - nazoratli dekarsaratsiya davri. Bu bosqichda penitensiar tizimdagi sig‘im muammosi hamda qisqa muddatli qamoq jazolarining samaradorligi yuzasidan kuchaygan bahslar fonida jazo siyosatini pragmatik qayta ko‘rib chiqish boshlandi. Xususan, 2024-2026-yillardagi islohotlar doirasida qisqa muddatli ozodlikdan mahrum qilish jazolarini cheklash, community sentence va suspended sentence institutlariga ustuvorlik berish tendensiyasi kuchaydi. Mazkur bosqichning asosiy belgisi — jazo tayinlash siyosatini penitensiar resurslarni boshqarish va qamoq jazolarini ehtiyotkor qisqartirish bilan bog‘lashdir.

Umuman olganda, Buyuk Britaniyada jazo tayinlash siyosatining tarixiy-huquqiy evolyutsiyasi ushbu institutning oddiy sud ixtiyoriga tayanuvchi dastlabki modeldan normativ mezonlar, yo‘riqnomalar, empirik monitoring va institutsional muvofiqlashtirishga asoslangan murakkab tizimga aylanganini ko‘rsatadi. Mazkur taraqqiyot jazo tayinlashda izchillik, mutanosiblik, shaffoflik va bashorat qilinuvchanlikni kuchaytirgan bo‘lsa-da, ozodlikdan mahrum qilish jazosi qo‘llanishini kamaytirish borasida kutilgan natijalarni to‘liq ta’minlamagan. Shu bilan birga, Buyuk Britaniya tajribasi penal siyosatda normativ takomillashuvning o‘zi etarli emasligini, uning samaradorligi siyosiy iroda, sud amaliyoti, muqobil jazolarni qo‘llash mezonlarining aniqligi hamda empirik nazorat tizimining

kuchliligiga bevosita bog‘liq ekanini namoyon etadi. Ayniqsa, so‘nggi yillardagi islohotlar jazo siyosatini qamoqxona resurslari, jamoat xavfsizligi va reabilitatsiya maqsadlari o‘rtasida muvozanatlashga qaratilgan yangi bosqich boshlanganini ko‘rsatadi. Shu jihatdan Buyuk Britaniya modeli jazo tayinlash siyosatini takomillashtirishda izchil yo‘riqnomalar, mustaqil institutsional monitoring va ehtiyotkor dekarsaratsiya yondashuvi muhim ahamiyat kasb etishini tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. E.W. Cox, Principles of Punishment (1877); T.B.L. Baker, “Is It Desirable to Adopt the Principle of Cumulative Punishment?,” Trans. NAPSS, 1872, pp. 191–198.
2. Cross, R. (1971). Punishment, prison and the public: An assessment of penal reform in twentieth century England by an armchair penologist. London: Stevens & Sons. https://law.exeter.ac.uk/v8media/facultysites/hass/law/hamlyn/Punishment_Prison_and_the_Public.pdf.
3. Galton, Francis. 1895. “Terms of Imprisonment.” Nature 52(1338): (2): 174–76.
4. Tonry, M. (2005). Obsolescence and immanence in penal theory and policy. Columbia Law Review, 105(4), 1233–1275.
5. Sir Leon Radzinowicz & Roger Hood, Incapacitating the Habitual Criminal: The English Experience, 78 MICH. L. REV. 1305 (1980).
6. Crackenthorpe, M. 1900. “Can Sentences Be Standardised?” Nineteenth Century (January):103–15.
7. Radzinowicz, L. and Hood, R. (1948–1986) A history of English criminal law and its administration from 1750, Imprint London: Stevens.
8. Roberts, J. V., & Ashworth, A. (2016). The evolution of sentencing policy and practice in England and Wales, 2003–2015. Crime and Justice, 45(1), 1–41.
9. Горшенева И.А., Соколова А.Б. Становление органов судебной власти в Великобритании // Вестник Московского университета МВД России. 2021. №1. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/stanovlenie-organov-sudebnoy-vlasti-v-velikobritanii (дата обращения: 09.03.2026).
10. National Audit Office. (2016). Efficiency in the criminal justice system. Ministry of Justice.
11. Глаголева О.С. Судебная власть в системе разделения властей великобритании: история и современность. Международный студенческий научный вестник. 2019. № 1 URL: https://eduherald.ru/ru/article/view?id=19540 (дата обращения: 09.03.2026).
O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 14-moddasi sharhida har qanday jinoyat - shaxs xulqining ayrim ko‘rinishi, ya’ni shaxsning ongi va irodasi nazorati ostidagi harakat yoki harakatsizlik ko‘rinishida sodir etiladigan qilmish sifatida izohlangan[10].

Jinoyat kodeksining “Maxsus” qismi norma va shartlaridan kelib chiqib:

birinchidan, obyektiv tomon – korrupsiya bilan bog‘liq sodir etilgan jinoyatning tashqi tomonini ifodalovchi element bo‘lib, jinoyatni qanday sodir etilishini ko‘rsatadi;

ikkinchidan, obyektiv tomonni ifodalaydigan belgilar korrupsiya bilan bog‘liq u yoki bu jinoyatning ijtimoiy xavfliligini va uning darajasini bildirib turadi;

uchinchidan, bu belgilar umumiy ifodaga ega, ya’ni real voqelikda sodir qilinadigan korrupsiya bilan bog‘liq jinoyatlardan kelib chiqadi;

to‘rtinchidan, korrupsiya bilan bog‘liq jinoyat tarkibining obyektiv tomoni yuridik ahamiyatga ega (u jinoyat qonunchiligida va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda blanket dispozitsiya sifatida nazarda tutiladi). Ta’kidlash joizki, Jinoyat kodeksining “Maxsus” qismi moddasi dispozitsiyalarida jinoyat tarkibi boshqa elementlarga nisbatan obyektiv tomonining belgilari ko‘proq ifodalangan bo‘ladi. Bu belgilar korrupsiya bilan bog‘liq jinoyatlarni bir-biridan farqlash, buning natijasi sifatida jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish mezoni hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, Jinoyat kodeksining “Maxsus” qismi har bir dispozitsiyasi obyektiv tomonini tashkil etuvchi belgilar yig‘indisidir. Shunday qilib, korrupsiya bilan bog‘liq jinoyat tarkibining obyektiv tomoni – ijtimoiy xavflilik va uning darajasini ifodalovchi tashqi, obyektiv, ijtimoiy va yuridik ahamiyatli belgilari majmuidir.

Qonun chiqaruvchi ba’zida korrupsiya bilan bog‘liq jinoyat tarkibidan bir yoki bir necha jinoyat elementlari tarkibini aniqlashtirgan holda uning mustaqil tarkibni ajratib ko‘rsatadi, masalan:

1) obyektiv tomoni:

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 2296-moddasida (“Sug‘oriladigan yer uchastkasiga yoki uning bir qismiga bo‘lgan huquqni sotish yoxud qonunga g‘ilof ravishda boshqacha tarzda o‘zga shaxsga berish”)da nazarda tutilgan jinoyatni sodir qilgan mansabdor shaxs tomonidan o‘z xizmat mavqeidan foydalanib yoxud uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko‘zlab noqonuniy harakatlar(ning aniq turini) sodir etish nazarda tutilgan;

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 210-moddasi (“Pora olish”)da “tamagirlik yo‘li bilan”, “bir guruh mansabdor shaxslar tomonidan til biriktirib” va “uyushgan guruh manfaatlarini ko‘zlab” [11] sodir etilgan pora olish jinoyatlari nazarda tutilgan. Ushbu jinoyatlar o‘z xususiyati va ijtimoiy xavflilik darajasiga ko‘ra: “uncha og‘ir bo‘lmagan” (1-qismi), “og‘ir jinoyat” (2-qismi) va “o‘ta og‘ir jinoyat”ga (3-qismi) tasniflanadi[12]. Ushbu jinoyatning sanksiyalari ijtimoiy zararli oqibatlarning ahamiyatli xususiyatlarini hisobga olishga imkon beradigan qilmishning hajmini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston Respublikasining “Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risida”gi kodeksining 61-moddasida (“Oz miqdorda talon-toroj qilish”) mol-mulkni o‘g‘irlash, o‘zlashtirish, rastrata qilish, mansab lavozimini suiiste’mol qilish yoki firibgarlik yo‘li bilan oz miqdorda talon-toroj qilganlik, shuningdek, ushbu Kodeksning 1931-moddasi (“Davlat organining, davlat ishtirokidagi tashkilotning yoki fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organining xizmatchisini pora evaziga og‘dirib olish”) va 1932-moddasida (Davlat organi, davlat ishtirokidagi tashkilot yoki fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organi xizmatchisining qonunga xilof ravishda moddiy qimmatliklar olishi yoki mulkiy manfaatdor bo‘lishi”) belgilangan huquqbuzarliklar uchun ma’muriy javobgarlik nazarda tutilgan.

Yuqorida qayd etib o‘tilgan korrupsiya bilan bog‘liq jinoyatlar va ma’muriy huquqbuzarliklarning sanksiyalari jinoyat sodir etilishi natijasida uning ijtimoiy

zararli oqibatlarining ahamiyati darajasidan kelib chiqqan holda ularning xususiyatlarini hisobga olishga imkon beradigan qilmishning hajmini ko‘rsatadi va ushbu hajm qilmishning jinoiyligi yoki ma’muriy tartibda javobgarlik yuzaga kelishini ko‘rsatadi;

2) obyekti:

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 2142-moddasi (“Sport musobaqalari ishtirokchilari va tashkilotchilarini pora evaziga og‘dirib olish”)da sport musobaqalari natijalarini yoki ularning borishini qasddan o‘zlashtirish maqsadida ushbu moddaning nomlanishida qayd etib o‘tilgan shaxslarga nisbatan ta’sir etish obyektini ko‘rsatadi;

3) subyekti:

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 212-moddasi (“Pora olish-berishda vositachilik qilish”)da “pora olish yoki berish xususidagi kelishuvga erishishga qaratilgan faoliyat, shuningdek manfaatdor shaxslarning topshirig‘i bilan porani bevosita berish” [13] subyektini, ya’ni jinoyatda ishtirokchining rolini ko‘rsatadi.

Shubhasiz, qonun chiqaruvchi huquqni muhofaza qiluvchi organlar korrupsiyaga qarshi kurashish uchun jinoyatlarning aniq shakllarini ajratadi, chunki amaliyotda cheklangan vaqt sharoitida muayyan harakatda sof korrupsiya bilan bog‘liq huquqbuzarlikning aniq belgilari mavjudligi haqida “falsafiy mulohazalar” bilan shug‘ullanish murakkab.

Shunday qilib, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 205-moddasida belgilangan “Hokimiyat yoki mansab vakolatlarini suiiste’mol qilish” jinoyati tarkibiga nisbatan aniq xatti-harakatlar, qilmishlar tahlil qilinganda, uning oqibatlari, ya’ni “... fuqarolarning huquqlariga yoki qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlariga yoxud davlat yoki jamiyat manfaatlari gap ko‘p miqdorda yoxud jiddiy ziyon yetkazilishiga sabab ...” [14] bo‘lgan oqibatlari mavjudligini isbotlash kerak.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining 168-moddasida (“Firibgarlik” (agarda ko‘chmas mulk aldash, ishonchni suiiste’mol qilish orqali egallab olingan bo‘lsa), 228-moddasi (“Hujjatlar, shtamplar, muhrlar, blankalar

tayyorlash, ularni qalbakilashtirish, sotish yoki ulardan foydalanish”)da ko‘chmas mulk bilan bog‘liq noqonuniy bitimlarni amalga oshirishning o‘zi jinoyat hisoblanadi. Bunday holatda, birovning manfaatlarini muhim darajada zarar yetkazilganligini isbotlashning hojati yo‘q, buni amaliyotda aniqlash juda mushkul.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 205-moddasi (“Hokimiyat yoki mansab vakolatini suiiste’mol qilish”), 209-moddasi (“Mansab soxtakorligi”), 2294-moddasi (“Yer berish tartibini buzish”), 2295-moddasi (“Yer uchastkasini noqonuniy olib qo‘yish”), 2296-moddasi (“Sug‘oriladigan yer uchastkasiga yoki uning bir qismiga bo‘lgan huquqni sotish yoxud qonunga xilof ravishda boshqacha tarzda o‘zga shaxsga berish”)da mansabdor shaxs tomonidan rasmiy hujjatlarga yolg‘on ma’lumot kiritishning o‘zi jinoyat hisoblanadi va qayd etib o‘tilgan shaxslarga nisbatan ta’sir etish subyektini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xizmati to‘g‘risida”gi qonunida intizomiy huquqbuzarlik tarkibi ko‘rsatilgan, javobgarlik O‘zbekiston Respublikasining “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi qonunida [15] davlat fuqarolik xizmatchisining intizomiy huquqbuzarliklari tarkibi ko‘rsatilgan bo‘lib, unda davlat xizmati manfaatlariga tahdid soladigan xatti-harakatlar ro‘yxati belgilangan [16]. Biroq, bu tahdid amalga oshirilganda, ijtimoiy zararli oqibatlar yuzaga kelganda, qoida tariqasida, jinoiy-huquqiy javobgarlik nazarda tutiladi. Intizomiy javobgarlik nazarda tutilgan korrupsiya shakllariga davlat fuqarolik xizmatchisining majburiyatlari bilan bog‘liq “manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymasligi, beg‘araz va xolis bo‘lishi”, shuningdek, davlat fuqarolik xizmatini o‘tash bilan bog‘liq cheklovlar, ya’ni “tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanishga”, “tadbirkorlik faoliyati subyektlarini tashkil etishga, ularning muassisi (ishtirokchisi) bo‘lishga, tadbirkorlik faoliyati subyektida tashkiliy-boshqaruv, ma’muriy-xo‘jalik vazifalarini bajarish ...” [17] da ishtirok etish va boshqalar kiradi.

Ushbu Qonunning 13-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan cheklovlarga rioya etmaganlik davlat fuqarolik xizmatchisini qonunga muvofiq intizomiy va boshqa javobgarlikka tortish uchun asos bo‘ladi.

Shuni alohida qayd etish joizki, hozirgi vaqtda O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida turli nomlarga ega bo‘lgan korrupsiya bilan bog‘liq qilmishlarning barcha shakllari uchun yuridik javobgarlik nazarda tutilmagan. Ba’zi mualliflar, masalan, ularni axloqsiz korrupsiya huquqbuzarliklari [18] deb, boshqalari – ommaviy huquqni suiiste’mol qilish [19], deb ataydilar. Yuqorida qayd etilgan shakllar orasida quyidagilarni alohida ajratib ko‘rsatish mumkin: favoritizm (bu nufuzli yoki yuqori martabali shaxsning “erkasi” bo‘lib uning homiyligi tufayli u yoki bu imtiyozlarga ega bo‘lishini nazarda tutadi) va nepotizm - qarindoshlar va do‘stlarning xizmatdagi homiyligidir [20].

Korrupsiyaning ushbu shakllarida jinoiy yoki ma’muriy korrupsiyaga oid huquqbuzarlik belgilari mavjud emas, chunki bular (subyektiv tomondan) mansabdor shaxslarning to‘g‘ridan to‘g‘ri g‘arazli maqsadlarini o‘z ichiga olmaydi. Bu ko‘rib chiqilayotgan ushbu shakllarni birlashtiradigan narsa shuki, mansabdor shaxs jamiyat va davlat manfaatlariga zid bo‘lgan xatti-harakatlarini (qilmishlarini) muayyan, aniq shaxslar foydasiga o‘zining shaxsiy (nomoddiy) manfaatlari asosiga sodir qiladi.

Ikkinchisini isbotlash juda murakkab. Agar-da bu mumkin bo‘lsa, davlat xizmatchisining shaxsiy manfaatlari (to‘g‘ridan to‘g‘ri yoki bilvosita) o‘z xizmat vazifalarini (vakolatlarini) xolisona amalga oshirishga ta’sir ko‘rsatadigan yoki ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan vaziyatga tushib qolishi, ya’ni u manfaatlar to‘qnashuvining oldini ololmaganligi uchun ishonchni yo‘qotishi bilan bog‘liq intizomiy huquqbuzarlikka tortilib ishdan bo‘shatilishi mumkin.

Shunday qilib, bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida korrupsiya nima ekanligi va u qanday shakllarda namoyon bo‘lishi to‘g‘risida ma’lum qonunchilik tushunchasi mavjud. Bu esa diqqatimizni yanada murakkab masalalarga – korrupsiyaga qarshi kurashish texnologiyalariga qaratish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Юқори коррупция – ҳокимият органларида ишловчи сиёсатчилар, олий мартабали амалдорларни қамраб олади ҳамда юқори баҳога эга бўлган қарорлар қабул қилиш (қонунларни, давлат буюртмаларини лобиллаш ва қабул қилиш, мулкчилик шаклларини ўзгартириш ва шу кабилар) билан боғлиқ. Аксарият ҳолларда коррупция битимидан

манфаатдор бўлган иккала томон битта давлат ҳокимияти органига мансуб бўлади. Масалан, қуйи турувчи давлат органининг амалдори юқори турувчи бошлиғига у пора берувчининг коррупциявий ҳаракатларини ёпиб туриши ёхуд қўшимча ресурслар, ваколатлар бериши кабилар эвазига пора бера беради.

2. Қуйи коррупция – ҳокимият ва бошқарув органларининг ўрта ва қуйи даражаларида энг кўп тарқалган бўлиб, амалдорлар ва фуқароларнинг доимий ўзаро муносабати (масалан, рўйхатдан ўтиш, жарималар, лицензия ва турли рухсатномалар олиш кабилар) билан боғлиқ.

3. Қаранг: Нечевин Д.К., Поляков М.М. Административно-правовые формы и методы противодействия коррупции: учеб. пособие для бакалавриата. - М., 2018. С. 17.

4. Государственая политика противодействия коррупции и теневой экономике а России: в 2 т. / под. общ. ред. С.С. Сулакшина. - М., 2008. С. 4.

5. Манфаатлар тўқнашуви – бу шахсий (бевосита ёки билвосита) манфаатдорлик шахснинг мансаб ёки хизмат мажбуриятларини лозим даражада бажаришига таъсир кўрсатаётган ёхуд таъсир кўрсатиши мумкин бўлган ҳамда шахсий манфаатдорлик билан фуқароларнинг, ташкилотларнинг, жамиятнинг ёки давлатнинг ҳуқуқлари ва қонуний манфаатлари ўртасида қарама-қаршилик юзага келаётган ёки юзага келиши мумкин бўлган вазият.

6. Волков В.Ф. Коррупция и ее особенности и институтах таможенного администрирования: учеб. пособие / под общ. ред. В.В. Макрусева. СПб., 2014. 5-с.

7. Ўзбекистон Республикасининг “Коррупцияга қарши курашиш тўғрисида”ги қонуни. - Т., “Адолат”, 2017. 3-б.

8. Ўзбекистон Республикасининг Жиноят кодекси. - Т., “Yuridik adabiyotlar publish”, 2025. 139-б.

9. Рустамбоев М.Х. Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодексига шарҳлар. Умумий қисм. – Т., “ILM ZIYO”, 2006. 96-97-б.

10. Рустамбоев М.Х. Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодексига шарҳлар. Умумий қисм. – Т., “ILM ZIYO”, 2006. 104-б.

11. Ўзбекистон Республикасининг Жиноят кодекси. - Т., “Yuridik adabiyotlar publish”, 2025. 197-б.

12. Қаранг: Ўзбекистон Республикасининг Жиноят кодекси. - Т., “Yuridik adabiyotlar publish”, 2025. 8-9-б.

13. Ўзбекистон Республикасининг Жиноят кодекси. - Т., “Yuridik adabiyotlar publish”, 2025. 199-б.

14. Ўзбекистон Республикасининг Жиноят кодекси. – Т., “Yuridik adabiyotlar publish”, 2025. 192-б.

15. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 09.08.2022 й., 03/22/788/0723-сон; 29.11.2023 й., 03/23/880/0905-сон; 21.09.2024 й., 03/24/963/0735-сон.

16. Давлат фуқаролик хизматчиси томонидан лавозим йўриқномасига ва Давлат фуқаролик хизматчиларининг одоб-ахлоқ қоидаларига, шунингдек ушбу Қонуннинг 13-моддасида белгиланган чекловларга риоя этмаганлик унга нисбатан интизомий жазо чораларини қўллаш учун асос бўлади.

17. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 09.08.2022 й., 03/22/788/0723-сон; 29.11.2023 й., 03/23/880/0905-сон; 21.09.2024 й., 03/24/963/0735-сон.

18. Нечевин Д.К., Поляков М.М. Административно-правовые формы и методы противодействия коррупции: учеб. пособие для бакалавриата. С. 18.

19. Селихов Н.В. Коррупция в государственном механизме современной России (теоретические аспекты): дис. … канд. юрид. наук. Екатеринбург, 2001, С. 31-34.

Maxsadov Maxsatullo Ismatovich
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
professori, yuridik fanlar doktori (DSc),
dotsent, podpolkovnik

HUDUDIY JINOYATCHILIKNING DINAMIKASI VA TENDENSIYALARI

(Toshkent shahri Uchtepa tumani misolida)

Annotatsiya. Maqolada Toshkent shahri Uchtepa tumani misolida hududiy jinoyatchilikning dinamikasi va zamonaviy tendensiyalari tahlil qilinadi. Jinoyatchilik urbanizatsiya, raqamlashtirish va demografik o‘zgarishlar ta’sirida shakllanuvchi ko‘p omilli ijtimoiy jarayon sifatida ko‘rib chiqiladi. «Mahallabay» tizimi, raqamli texnologiyalar, «aqlli shahar» konsepsiyasi va mahalliy darajadagi profilaktika mexanizmlarining ahamiyatiga alohida e’tibor qaratilgan. 2024–2026-yillar statistik ma’lumotlari asosida jinoyatchilikning miqdoriy va sifat jihatdan o‘zgarishi, jumladan an’anaviy jinoyatlarning kamayishi va kiberjinoyatchilikning o‘sishi aniqlangan. Hududiy xavfsizlikni ta’minlashda profilaktik, texnologik va ijtimoiy choralar integratsiyasining samaradorligi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: hududiy jinoyatchilik, kriminologik tahlil, jinoyatchilik dinamikasi, mahallabay tizimi, huquqbuzarlik profilaktikasi, raqamlashtirish, kiberjinoyatchilik, Smart City, jamoat xavfsizligi, kriminogen vaziyat.

ДИНАМИКА И ТЕНДЕНЦИИ ТЕРРИТОРИАЛЬНОЙ ПРЕСТУПНОСТИ

(на примере Учтепинского района города Ташкента)

Аннотация. В статье рассматриваются динамика и современные тенденции территориальной преступности на примере Учтепинского района города Ташкента. Преступность анализируется как сложный многофакторный социальный процесс, обусловленный урбанизацией, цифровизацией и демографическими изменениями. Особое внимание уделяется внедрению системы «махаллабай», цифровых технологий, элементов концепции «умного города», а также профилактических механизмов на уровне местных

сообществ. На основе статистических данных за 2024–2026 годы выявлены количественные и качественные изменения в структуре преступности, включая снижение традиционных преступлений и рост киберпреступности. Делается вывод о высокой эффективности интеграции профилактических, технологических и социальных мер в обеспечении общественной безопасности на территориальном уровне.

Ключевые слова: территориальная преступность, криминологический анализ, динамика преступности, махаллабай, профилактика правонарушений, цифровизация, киберпреступность, Smart City, общественная безопасность, криминогенная ситуация.

DYNAMICS AND TRENDS OF TERRITORIAL CRIME

(a case study of Uchtepa district, Tashkent city)

Abstract. This article examines the dynamics and current trends of territorial crime using the Uchtepa district of Tashkent city as a case study. Crime is analyzed as a complex, multi-factor social phenomenon influenced by urbanization, digitalization, and demographic transformations. Particular attention is given to the implementation of the “mahallabay” system, digital technologies, Smart City elements, and community-based preventive mechanisms. Based on statistical data from 2024–2026, both quantitative and qualitative changes in crime structure are identified, including a decrease in traditional crimes and a rise in cybercrime. The study concludes that the integration of preventive, technological, and social measures significantly enhances public safety at the territorial level.

Keywords: territorial crime, criminological analysis, crime dynamics, mahallabay system, crime prevention, digitalization, cybercrime, Smart City, public safety, criminogenic situation.

Zamonaviy kriminologiya fani jinoyatchilikni statik hodisa emas, balki jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, demografik va texnologik transformatsiyalari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan murakkab, ko‘p omilli jarayon sifatida ko‘rib chiqadi. Bugungi O‘zbekistonga xos bo‘lgan tezkor urbanizatsiya va raqamlashtirish

sharoitida jinoyatchilikning hududiy xususiyatlarini o‘rganish davlat ahamiyatiga molik ustuvor vazifaga aylanmoqda. Toshkent shahrining eng gavjum va jadal rivojlanayotgan ma’muriy birliklaridan biri bo‘lgan Uchtepa tumani joriy trendlarni tahlil qilish va preventiv ta’sir ko‘rsatish strategiyalarini ishlab chiqish uchun reprezentativ model bo‘lib xizmat qiladi.

Hududiy darajada jinoyatchilikni o‘rganish muayyan tumandagi kriminogen vaziyat mahalliy omillarning noyob kombinatsiyasi bilan belgilanishiga asoslanadi. Kriminologiyada ushbu yondashuv an’anaviy ravishda ekologik determinatsiya va ijtimoiy dezorganizatsiya nazariyasi bilan bog‘lanadi, bunda huquqbuzarliklarning fazoviy taqsimlanishi shahar muhiti prizmasi orqali ko‘rib chiqiladi. Uchtepa tumani uchun aholi zichligining yuqoriligi va rivojlangan infratuzilma xos bo‘lib, bu migratsiya oqimlari bilan birgalikda huquqbuzarliklarning o‘ziga xos profilini shakllantiradi. Uchtepa tumani misolida jinoyatchilik dinamikasi nafaqat miqdoriy, balki sifat jihatidan ham ijobiy tomonga o‘zgarib bormoqda. 2025-yil yakunlariga ko‘ra, tumanda jami 655 ta jinoyat sodir etilgan bo‘lib, bu 2024-yildagi ko‘rsatkichga (715 ta) nisbatan 8,4 % ga kamayganligini ko‘rsatadi. Ayniqsa, oldini olish mumkin bo‘lgan jinoyatlar 318 tadan 201 taga (36,8 % ga) qisqargan. 2026-yilning birinchi choragi yakunlari bo‘yicha (yanvar-mart) tumanda jami 319 ta jinoyat qayd etildi, shundan 123 tasi oldini olish mumkin bo‘lgan jinoyatlar toifasiga kiradi [1]. Hududiy jinoyatchilik dinamikasi nafaqat miqdoriy o‘zgarishlarni, balki huquqbuzarliklar tuzilmasidagi sifat siljishlarini baholash imkonini beruvchi statistik ko‘rsatkichlar tizimi orqali ifodalanadi. Tahlil uchun jinoyatchilik koeffitsiyenti asosiy vosita bo‘lib xizmat qiladi, u ro‘yxatga olingan jinoyatlar sonining aholi soniga nisbatini yuz mingga ko‘paytirish orqali hisoblanadi:

$$K = \frac{n}{N} \times 100,000$$

Bu yerda:

- K — jinoyatchilik intensivligi koeffitsiyenti;
- n — tumanda ro‘yxatga olingan jinoyatlarning umumiy soni;

- N — tuman aholisining umumiy soni.

Ushbu formula aholi sonidagi farqni inobatga olgan holda, Uchtepa tumanidagi kriminalizatsiya darajasini Toshkentning boshqa tumanlari bilan solishtirish imkonini beradi. So‘nggi yillardagi tahlillar jinoyatchilikning umumiy ko‘rsatkichlari bosqichma-bosqich barqarorlashayotganini ko‘rsatmoqda, bu esa mahalla darajasida huquqbuzarliklarni barvaqt oldini olish tizimi joriy etilishining bevosita natijasidir.

O‘zbekistonda jamoat xavfsizligini ta’minlash strategiyasidagi tub burilish 2025-yil 3-yanvardagi Prezident qarori[2]ning qabul qilinishi bilan yuz berdi, unda mahalla jinoyatchilikning oldini olish tizimining asosiy bo‘g‘ini sifatida mustahkamlandi. «Mahallabay» tizimi repressiv usullardan aholi bilan manzilli ishlashga asoslangan chuqur profilaktikaga o‘tishni nazarda tutadi. Uchtepa tumanida ushbu qaror ijrosini ta’minlash uchun 23 nafar sohaviy idora vakillaridan iborat tuman ishchi guruh shtabi tashkil etilib, zarur texnik vositalar bilan ta’minlandi.

«Mahallabay» tizimining samaradorligi raqamli platformalar orqali ta’minlanmoqda. 2025-yil yakuni bo‘yicha Uchtepa tumanida PQ-1 qarori [3] platformasiga 46 522 ta ma’lumot joylanib, Toshkent shahri miqyosida eng yuqori ko‘rsatkich qayd etildi. 2026-yilning 1-choragida esa huquqbuzarliklar bo‘yicha 799 ta avtomatlashtirilgan ijtimoiy profilaktik xulosalar berilgan [4].

Mahallalarning kriminogen toifalari bo‘yicha ham keskin ijobiy siljish kuzatilmoqda:

●2025-yil yakunida: 1 ta «qizil», 43 ta «sariq» va 16 ta «yashil» mahalla.

●2026-yil 1-aprel holatiga: «qizil» toifadagi mahallalar mavjud emas (0 ta), «sariq» mahallalar 14 taga kamaygan, «yashil» mahallalar soni esa 46 taga yetgan.

Profilaktika inspektori (profilaktika inspektorlari) xavf guruhidagi shaxslar bilan doimiy aloqani ta’minlash va nizolarga boshlang‘ich bosqichda o‘z vaqtida munosabat bildirish orqali asosiy muvofiqlashtiruvchi rolni bajaradi. Ularning Uchtepa tumanidagi 2025-yildagi faoliyati vaziyatni monitoring qilishning raqamli

vositalari bilan kuchaytirildi, bu esa ishni real vaqt rejimiga o‘tkazish imkonini berdi.

Tizim komponenti	Jinoyatchilik profilaktikasidagi roli	Kutilayotgan samara
Profilaktika inspektori	Huquq-tartibotni ta’minlash, ilgari sudlanganlar bilan ishlash	Retsidiv jinoyatchilikning kamayishi
Yoshlar yetakchisi	«Yoshlar daftari» dasturlari, yoshlarni ish bilan ta’minlash	Yoshlar jinoyatchiligining qisqarishi
Xotin-qizlar faoli	Oilaviy zo‘ravonlik holatlarini aniqlash, psixologik yordam	Oiladagi og‘ir jinoyatlarning oldini olish
Hokim yordamchisi	Kambag‘allikka qarshi kurash, imtiyozli kreditlar ajratish	Jinoyatchilikning iqtisodiy sabablarini neytrallashtirish

Ushbu modelning muvaffaqiyati statistika bilan tasdiqlanmoqda: 2025-yilning birinchi yarmida respublikaning 5200 ta mahallasida birorta ham jinoyat ro‘yxatga olinmadi, bu hududiy «yo‘l xaritalari» joriy etilishi tufayli mumkin bo‘ldi. Uchtepa tumanida ham xuddi shunday xaritalar har bir mahallaning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, faollik yuqori bo‘lgan zonalarni belgilab beradi va u yerga qo‘shimcha patrul resurslarini yo‘naltiradi.

«Aqlli shahar» konsepsiyasi doirasida Uchtepa tumanida videokuzatuv va texnik qo‘riqlash tizimlarini kengaytirish bo‘yicha misli ko‘rilmagan ishlar amalga oshirildi.

Indikator nomi	2025 yil (bajarilgan)	2026 yil 1-chorak
Aholi gavjum joylardagi kameralar	1248 ta (reja 137%)	80 ta
Yuzni va avto raqamni tanib oluvchi kameralar	114 ta (kirish-chiqishda)	55 ta
Bozor va savdo markazlaridagi kameralar	89 ta (reja 494%)	15 ta
Ko‘p qavatli uylardagi zamonaviy domofonlar	1040 ta	141 ta
Kirish yo‘laklaridagi tashvish tugmalari	262 ta	92 ta
Texnik qo‘riqlovga olingan xonadonlar	1109 ta	358 ta

Bundan tashqari, 2025-yilda tumanda 104 ta namunaviy xavfsiz ko‘cha va 260 ta xavfsiz yo‘lak tashkil etilgan bo‘lsa, 2026-yilning boshida yana 26 ta xavfsiz ko‘cha va 18 ta xavfsiz uy tashkil etildi [5].

Jinoyatchilikning oldini olishda «mahalla yettiligi» tomonidan amalga oshirilayotgan ijtimoiy chora-tadbirlar muhim o‘rin tutadi.

2025-yilda ijtimoiy ko‘makka muhtoj 1894 nafar xotin-qizning muammolari to‘liq hal etildi, 13 748 nafarining reproduktiv salomatligi bo‘yicha choralar ko‘rildi. 2026-yilning birinchi 3 oyida yana 177 nafar ayolning muammolari hal etilib, 21 ta nizoli oila yarashtirildi.

Yoshlar bilan ishlash yo‘nalishida 2025-yilda 2898 ta tadbir o‘tkazilib, 610 nafar yoshning bandligi ta’minlangan. 2026-yilning 1-choragida «og‘ir toifadagi» yoshlardan 42 nafari kasbga o‘qitildi va 39 nafari ishga joylashtirildi.

Tumandagi maktablarda davomat va xavfsizlikni ta’minlash maqsadida 2025-yilda 2634 marotaba, 2026-yil boshida esa 360 marotaba «O‘quvchi» va «O‘smir» tadbirlari o‘tkazildi. 2026-yilning 1-choragida maktablarda o‘tkazilgan «Tig‘» tadbirlari natijasida 2 ta holatda xavfli buyumlar olib qo‘yilgan va 30 nafar ota-onaga nisbatan ma’muriy choralar ko‘rilgan.

Tizimning samarali ishlashi uchun qat’iy nazorat va intizomiy javobgarlik yo‘lga qo‘yilgan. 2025-yil davomida kriminogen vaziyat 115 marotaba prokuror huzurida muhokama qilingan bo‘lsa, 2026-yilning boshida sektor rahbarlari tomonidan 174 marotaba o‘rganishlar o‘tkazildi. Sustkashlikka yo‘l qo‘ygan mas’ullarga nisbatan choralar ko‘rilmoqda: 2025-yilda 5 nafar «mahalla yettiligi» vakili lavozimidan ozod etilgan, 21 nafari esa intizomiy jazoga tortilgan [6].

Uchtepa tumanidagi 2025-yil yakunlari va 2026-yilning birinchi choragi ma’lumotlari shuni ko‘rsatadiki, «mahallabay» tizimi va raqamli texnologiyalarning integratsiyasi jinoyatchilikni jilovlashda sezilarli natija bermoqda. Jinoyatlarning umumiy kamayishi (8,4%) va «qizil» mahallalarning butunlay tugatilishi hududiy xavfsizlik modeli to‘g‘ri tanlanganidan dalolat beradi. Kelgusida asosiy e’tiborni kiberjinoyatchilikka qarshi kurash va aholining texnik qo‘riqlov qamrovini yanada oshirishga qaratish lozim.

Uchtepa tumanidagi tendensiyalar tahlili jinoyat olamining global transformatsiyasidan dalolat beradi. Videokuzatuv tarmoqlarining kengayishi tufayli an’anaviy mulkiy jinoyatlar (o‘g‘rilik, talonchilik) kamayish tendensiyasini ko‘rsatayotgan bo‘lsa-da, axborot texnologiyalari sohasidagi huquqbuzarliklarning keskin o‘sishi kuzatilmoqda.

Rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra, 2025-yil boshidan buyon kiberjinoyatlar mamlakatda ro‘yxatga olingan barcha jinoyatlarning 42 foizini tashkil etdi. Internet va raqamli moliyaviy xizmatlardan foydalanish darajasi yuqori bo‘lgan urbanizatsiyalashgan Uchtepa tumanida bu ko‘rsatkich ayniqsa dolzarbdir. Jinoyatchilar fuqarolarning mablag‘larini o‘g‘irlash uchun ijtimoiy muhandislik, fishing va bank ilovalaridagi zaifliklardan foydalanmoqda.

Ushbu chaqiriqqa javoban, 2025-yil 30-aprelda moliyaviy tizimlarning kiberxavfsizligini kuchaytirish va aholining raqamli savodxonligini oshirishga qaratilgan Prezident qarori [7] imzolandi. Tumanda onlayn-firibgarlar qurboniga aylanishi mumkin bo‘lgan eng zaif guruhlar — yoshlar va keksalar uchun targ‘ibot dasturlari ishga tushirildi.

Yana bir tashvishli tendensiya — giyohvandlik vositalari savdosi tuzilmasining o‘zgarishidir. An’anaviy giyohvandlik moddalari internet-platformalar va «zakladka» (yashirib ketish) tizimi orqali masofaviy usulda tarqatiladigan sintetik moddalar bilan almashtirilmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyev giyohvand moddalarni tarqatish tarmoqlarini aniqlash uchun sun’iy intellekt va intellektual kuzatuv tizimlaridan foydalanish zarurligini alohida ta’kidladi.

Uchtepa tumanida ushbu tahdidga qarshi kurashish uchun katta ma’lumotlarni (Big Data) tahlil qilish algoritmlari joriy etilmoqda, bu shubhali tranzaksiyalarni va tungi vaqtda shaxslarning harakatlanish modellarini kuzatish imkonini beradi, bu esa huquqni muhofaza qilish organlariga yashirin laboratoriya va omborlarni yo‘q qilishda yordam beradi.

Toshkentda «aqlli shahar» (Smart City) modeliga o‘tish Uchtepa tumanida politsiya ishi usullariga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Smart Policing texnologiyalaridan foydalanish huquqni muhofaza qilish faoliyatini reaktiv shakldan proaktiv shaklga o‘tkazish imkonini beradi.

Geografik axborot tizimlari (GIS) kriminologik xaritalash uchun asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Jinoyatlar haqidagi ma’lumotlarni tumanning fazoviy

xususiyatlari bilan integratsiya qilish «qaynoq nuqtalar»ni (crime hotspots) vizuallashtirish imkonini beradi.

Ushbu modellardan foydalanish kunning vaqti, hafta kuni va hatto ob-havo sharoitlariga qarab jinoyatchilik faolligining avj olishini yuqori aniqlik bilan bashorat qilish imkonini beradi. Bu patrul guruhlarini jinoyat sodir etilish ehtimoli eng yuqori bo‘lgan joylarga optimal taqsimlash imkoniyatini beradi.

Uchtepa tumanidagi zamonaviy videokuzatuv tizimlari oddiy videoqayd etish doirasidan chiqib ketmoqda. Yuzni tanish va transport vositalarining davlat raqamlarini aniqlash algoritmlari bilan jihozlangan ushbu tizimlar qidiruvdagi shaxslarni tezkor topish va jamoat joylarida shubhali harakatlarni monitoring qilishni ta’minlaydi. Sun’iy intellekt (SI) yordamida anomaliyalarni — masalan, odamlarning noqonuniy to‘planishini yoki qoldirib ketilgan buyumlarni avtomatik ravishda aniqlash va navbatchilik qismlarini zudlik bilan xabardor qilish mumkin.

Texnologiya	Qo‘llanish sohasi	Tuman uchun afzalligi
Video tahlil SI	Parklar, bozorlar, chorrahalar	Hodisalarga munosabat bildirish vaqtini qisqartirish
IoT-sensorlar	Ko‘cha yoritish, shovqin datchiklari	O‘q ovozi, qichqiriq, vandalizmni aniqlash
Prediktiv modellashtirish	IIV ma’lumotlar bazasini tahlil qilish	Xavfli hududlarda politsiyaning preventiv ishtiroki
Dronlar	Borish qiyin bo‘lgan joylar, ommaviy tadbirlar	Havodan tezkor monitoring

Uchtepa tumanida jinoyatchilikka qarshi kurash samaradorligini sifatli dalillar bazasisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. UNODC va AQSH Davlat departamenti tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan «O‘zbekiston ekspert-kriminalistika salohiyatini oshirish — III bosqich» loyihasi doirasida mamlakatda zamonaviy milliy DNK laboratoriyasi ishga tushirildi.

DNK tahlilining ilg‘or usullarini joriy etish Ichki ishlar vazirligi va Adliya vazirligi mutaxassislariga shaxsni misli ko‘rilmagan aniqlik bilan identifikatsiya qilish imkonini beradi. Litva politsiyasining kriminalistik tadqiqotlar markazi ekspertlari tomonidan o‘tkazilgan treninglar murakkab namunalardan DNK ajratib

olish, profillarni interpretatsiya qilish va ISO/IEC 17025:2017 standartlariga rioya qilish kabi muhim jihatlarni qamrab oldi.

Uchtepa tumani aholisi uchun bu tergov harakatlarining ishonchliligini oshirish, jabrlanuvchilar huquqlarini himoya qilish va sud xatolari xavfini minimallashtirishni anglatadi. DNK dalillaridan foydalanish shaxsga qarshi sodir etilgan og‘ir jinoyatlarni fosh etishda, an’anaviy guvohlik ko‘rsatmalari yetarli bo‘lmagan hollarda asosiy poydevorga aylanmoqda.

Zamonaviy kriminologiyaning eng muhim xulosalaridan biri — aholining politsiyaga bo‘lgan ishonch darajasi va jinoyatchilikning oldini olish samaradorligi o‘rtasidagi to‘g‘ridan to‘g‘ri bog‘liqlikdir. O‘zbekistonda ushbu tamoyil «Xavfsiz mahalla» konsepsiyasi orqali amalga oshiriladi, bunda politsiya jamiyat ehtiyojlariga yo‘naltirilgan servis xizmati (Community-oriented policing) sifatida qaraladi.

Ushbu modelni amalga oshirish uchun IIV Akademiyasi va Toshkent davlat yuridik universitetining Ixtisoslashtirilgan filiali profilaktika inspektorlarini muloqot va nizolarni hal qilish ko‘nikmalariga tizimli ravishda o‘qitmoqda. O‘quv dasturlari inson huquqlarini himoya qilishning xalqaro standartlarini va fuqarolar bilan o‘zaro hamkorlik etikasini o‘z ichiga oladi.

Xavfsizlikni ta’minlash tuzilmalariga yoshlar va xotin-qizlarni jalb qilishga alohida e’tibor qaratilmoqda. «Ijtimoiy uyg‘unlik uchun yoshlar» kabi loyihalar yoshlar islohotlar chetda qolmasdan, o‘z mahallalarida xavfsiz muhit yaratishda faol ishtirok etishlariga qaratilgan. Bu aholisi tarkibida yoshlar ulushi yuqori bo‘lgan Uchtepa tumani uchun juda muhimdir.

Uchtepa tumanining xavfsizlik strategiyasini shakllantirishda dunyoning yetakchi megapolislari tajribasi hisobga olinmoqda. Xususan, Niderlandiyaning demokratik boshqaruv doirasida repressiv va preventiv choralarni birlashtiruvchi «integral xavfsizlik rejalari» modellari o‘rganilmoqda.

Britaniyaning qo‘shnichilik patruli (Neighborhood Policing) tajribasi ham mahalla qo‘mitalari ishida o‘z ifodasini topmoqda, biroq bu milliy xususiyat — jamoaviy mas’uliyat va o‘zaro yordamning chuqur ildiz otgan an’analarini hisobga

olgan holda amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, Bryussel va Avstraliyada sinovdan o‘tgan «aqlli yoritish» (Smart Lighting) kabi texnologik yechimlarni joriy etish ko‘cha jinoyatchiligi darajasini pasaytirishda yuqori samaradorlik ko‘rsatmoqda. Aqlli chiroqlar nafaqat energiyani tejaydi, balki harakat aniqlanganda yorug‘likni oshirishi mumkin, bu esa potensial jinoyatchilar uchun psixologik to‘siq yaratadi.

Atrof-muhit dizayni orqali jinoyatchilikning oldini olish (Crime Prevention Through Environmental Design — CPTED) Uchtepa tumanida shaharsozlik siyosatining ajralmas qismiga aylanmoqda. Ushbu yondashuvning mohiyati huquqbuzarliklar sodir etilishiga tabiiy ravishda to‘sqinlik qiladigan shahar muhitini yaratishdan iborat.

Tumanda joriy etilayotgan CPTED’ning asosiy tamoyillari:

1. Tabiiy kuzatuv: hovlilar va jamoat joylarini turar joy binolari derazalaridan va trotuarlardan yaxshi ko‘rinadigan qilib loyihalash.

2. Hududiylik: shaxsiy, yarim shaxsiy va jamoat zonalarini aniq ajratish, bu aholining hushyorligini oshiradi.

3. Kirishni nazorat qilish: yo‘laklar va avtoturargohlarga kirishni cheklashning smart-tizimlaridan foydalanish.

4. Tartibni saqlash: «singan derazalar» konsepsiyasi — graffitilarni tezkor tozalash, yoritishni ta’mirlash va hududni tozalash, bu hudud jamoatchilik nazoratida ekanligi haqidagi signaldir.

Jazoni o‘tab qaytgan shaxslarni ijtimoiy reabilitatsiya qilish Uchtepa tumani huquq-tartibot tizimi uchun alohida chaqiriq bo‘lib qolmoqda. Prezidentning 2025-yilgi murojaatnomasida ushbu toifadagi fuqarolarga ishga joylashish va ijtimoiy moslashishda yordam berish vazifasi qo‘yilgan. Mahalla qo‘mitalari bandlikka ko‘maklashish markazlari bilan birgalikda ma’muriy nazorat ostidagi har bir shaxs uchun individual rejalar ishlab chiqmoqda.

Yoshlar borasida esa xavf omillarini barvaqt aniqlashga ustuvorlik berilmoqda. «Yoshlar daftari» dasturlari o‘qish uchun to‘lovni amalga oshirishdan tortib, tadbirkorlik faoliyati uchun asbob-uskunalar bilan ta’minlashgacha bo‘lgan

manzilli yordamni kafolatlaydi. Bu hayotiy istiqbollar yo‘qligi sababli yoshlarning jinoiy guruhlarga jalb qilinish ehtimolini kamaytirishga imkon beradi.

Uchtepa tumanidagi jinoyatchilik dinamikasi va tendensiyalari tahlili huquq-tartibotni yanada mustahkamlash uchun zarur bo‘lgan bir qator strategik xulosalarni shakllantirish imkonini beradi:

Birinchidan, «Mahallabay» tizimi o‘z hayotiyligini isbotladi, biroq uning salohiyatini to‘liq ochish uchun chuqur raqamli integratsiya zarur. «Mahalla yettiligi» uchun xavflar haqidagi ma’lumotlarni xavfsiz rejimda almashish imkonini beruvchi yagona tahliliy platforma yaratish zarur.

Ikkinchidan, jinoyatlarning deyarli yarmi raqamli makonda sodir etilayotganini hisobga olib, tuman darajasida tahdidlarni monitoring qiladigan va aholini himoya qilish usullariga o‘rgatadigan ixtisoslashtirilgan kiber-profilaktika markazlarini tashkil etish talab etiladi.

Uchinchidan, ekspert-kriminalistika bo‘linmalarini yanada mustahkamlash, DNK-profillari va barmoq izlarini solishtirishning avtomatlashtirilgan tizimlarini joriy etish jinoyatlarni ochish darajasini sezilarli darajada oshiradi va jazoning muqarrarligini ta’minlaydi.

To‘rtinchidan, politsiya servis tuzilmasiga aylanishda davom etishi kerak. Jamoatchilik fikrini muntazam o‘rganish va profilaktika inspektorlarining fuqarolar yig‘inlari oldidagi hisobdorligi yuqori ishonch va ijtimoiy sheriklikning garovidir.

Beshinchidan, Uchtepa tumanida Smart City infratuzilmasini yanada rivojlantirish IoT datchiklarini, prediktiv analitika tizimlarini va CPTED tamoyillarini yangi kvartallarni qurish va rekonstruksiya qilish rejalariga integratsiya qilish orqali amalga oshirilishi kerak.

Uchtepa tumanidagi jinoyatchilik tendensiyalari umumjahon jarayonlarini aks ettiradi, lekin shu bilan birga chuqur milliy xususiyatga ega. Bu yerda profilaktikaning muvaffaqiyati davlat va jamiyatning zamonaviy texnologiyalar qudratidan va an’anaviy o‘zini o‘zi boshqarish institutlari donishmandligidan foydalangan holda hamjihatlikda harakat qilish qobiliyatiga bog‘liq. Har bir mahallani «jinoyatchilikdan xoli hudud»ga aylantirish — bu tizimlilik, ilmiy

asoslanganlik va ish usullarini doimiy takomillashtirishni talab qiladigan erishish mumkin bo‘lgan maqsaddir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025 йил 5 январдаги ПҚ-1 сон қарори ва 2026 йил 5-январдаги “Республика маҳаллаларида хавфсиз муҳит яратиш йўналишида яхлит манзилли ишлаш тизимини жорий этишга қаратилган қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ–1-сонли қарори 6-иловасига кўра 12 та индикатор бўйича 2026 йил (1-чораги) 01-Апрель кунига қадар қуйидаги ишлар амалга оширилган ишлар тўғрисидаги маълумотномаси.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025 йил 3 январдаги ПҚ-1-сон “2025 йилда республика маҳаллаларида хавфсиз муҳитни яратиш ва ҳуқуқбузарликларнинг барвақт олдини олиш тизими самарадорлигини янада ошириш бўйича чора-тадбирлар тўғрисида”ги қарор // Lex.uz.

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025 йил 3 январдаги ПҚ-1-сон “2025 йилда республика маҳаллаларида хавфсиз муҳитни яратиш ва ҳуқуқбузарликларнинг барвақт олдини олиш тизими самарадорлигини янада ошириш бўйича чора-тадбирлар тўғрисида”ги қарор // Lex.uz.

4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025 йил 5 январдаги ПҚ-1 сон қарори ва 2026 йил 5-январдаги “Республика маҳаллаларида хавфсиз муҳит яратиш йўналишида яхлит манзилли ишлаш тизимини жорий этишга қаратилган қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ–1-сонли қарори 6-иловасига кўра 12 та индикатор бўйича 2026 йил (1-чораги) 01-Апрель кунига қадар қуйидаги ишлар амалга оширилган ишлар тўғрисидаги маълумотномаси.

5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025 йил 5 январдаги ПҚ-1 сон қарори ва 2026 йил 5-январдаги “Республика маҳаллаларида хавфсиз муҳит яратиш йўналишида яхлит манзилли ишлаш тизимини жорий этишга қаратилган қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ–1-сонли қарори 6-иловасига кўра 12 та индикатор бўйича 2026 йил (1-чораги) 01-Апрель кунига қадар қуйидаги ишлар амалга оширилган ишлар тўғрисидаги маълумотномаси.

6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025 йил 5 январдаги ПҚ-1 сон қарори ва 2026 йил 5-январдаги “Республика маҳаллаларида хавфсиз муҳит яратиш йўналишида яхлит манзилли ишлаш тизимини жорий этишга қаратилган қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ–1-сонли қарори 6-иловасига кўра 12 та индикатор бўйича 2026 йил (1-чораги) 01-Апрель кунига қадар қуйидаги ишлар амалга оширилган ишлар тўғрисидаги маълумотномаси.

7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025 йил 30 апрелдаги ПҚ-155-сон “Ички ишлар органлари тизимини рақамли трансформация қилиш бўйича комплекс чора-тадбирлар тўғрисида”ги қарори // https://www.lex.uz/docs/7511360

Kaxarova Munira Maxamadjanovna
O‘zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti yetakchi ilmiy xodimi, siyosiy fanlar doktori

AYOLLAR JINOYATCHILIGI HUDUDIY DETERMINATSIYASINING ILMIY-AMALIY ASOSLARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada ayollar jinoyatchiligining ijtimoiy-huquqiy tabiati, uning hududlar kesimidagi o‘ziga xos dinamikasi va mintaqaviy determinantlari ilmiy nuqtayi nazardan tadqiq etiladi. Muallif tomonidan O‘zbekiston Respublikasining turli ma’muriy-hududiy birliklarida ayollar tomonidan sodir etilayotgan huquqbuzarliklarning sabablari va shart-sharoitlari qiyosiy tahlil qilinib, mintaqaviy profilaktikaning ustuvor yo‘nalishlari belgilab berilgan.

Tayanch so‘zlar: Ayollar jinoyatchiligi, kriminologik portret, hududiy determinatsiya, urbanizatsiya, profilaktika, ijtimoiy nazorat, mintaqaviy xususiyatlar.

НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ТЕРРИТОРИАЛЬНОЙ ДЕТЕРМИНАЦИИ ЖЕНСКОЙ ПРЕСТУПНОСТИ

Аннотация. В статье исследуются социально-правовая природа женской преступности, её специфическая динамика в разрезе территорий и региональные детерминанты с научной точки зрения. Автор проводит сравнительный анализ причин и условий совершения правонарушений женщинами в различных административно-территориальных единицах Республики Узбекистан, а также определяет приоритетные направления региональной профилактики.

Ключевые слова: женская преступность, криминологический портрет, территориальная детерминация, урбанизация, профилактика, социальный контроль, региональные особенности.

SCIENTIFIC AND PRACTICAL FOUNDATIONS OF THE TERRITORIAL DETERMINATION OF FEMALE CRIME

Abstract. The article examines the socio-legal nature of female crime, its specific territorial dynamics, and regional determinants from a scientific perspective. The author provides a comparative analysis of the causes and conditions of offenses committed by women across various administrative-territorial units of the Republic of Uzbekistan and identifies priority areas for regional prevention.

Keywords: female crime, criminological profile, territorial determination, urbanization, prevention, social control, regional characteristics

Ayollar jinoyatchiligi zamonaviy kriminologiyaning eng murakkab va ko‘p qirrali obyektlaridan biri bo‘lib, u nafaqat huquqiy, balki chuqur ijtimoiy, psixologik va iqtisodiy ildizlarga ega. Umumiy jinoyatchilik tizimida ayollar segmenti o‘zining ijtimoiy xavflilik darajasi, shaxs xususiyatlari hamda jinoiy qilmishni sodir etish mexanizmi bilan erkaklar jinoyatchiligidan tubdan farq qiladi. So‘nggi yillarda olib borilgan kompleks kriminologik tadqiqotlar shuni tasdiqlamoqdaki, xotin-qizlar tomonidan sodir etilayotgan huquqbuzarliklarning geografik taqsimlanishi va dinamikasi shunchaki demografik zichlik yoki tasodifiy omillar mahsuli emas. Aksincha, bu jarayon har bir muayyan hududning o‘ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi, urbanizatsiya sur’atlari, shuningdek, mintaqaviy madaniy-maishiy an’analar va qadriyatlar tizimi bilan uzviy bog‘liqdir.

Mavzuning dolzarbligi birinchi navbatda ayol shaxsining jamiyatdagi strategik o‘rni — oila barqarorligi va avlodlar tarbiyasining asosiy bo‘g‘ini ekanligi bilan belgilanadi. Ayol tomonidan sodir etilgan jinoyat jamiyat uchun ikki karra ijtimoiy xavf tug‘diradi: birinchidan, huquqiy tartibotning buzilishi bo‘lsa, ikkinchidan, ijtimoiy institut sifatida oilaning inqiroziga va voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlikning keskin ortishiga sabab bo‘ladi. Shu bois, ayollar jinoyatchiligini hududlar kesimida tahlil qilish, har bir mintaqaning o‘ziga xos “kriminal manzarasi”ni aniqlash va shu asosda manzilli profilaktika mexanizmlarini ishlab chiqish bugungi kun huquqbuzarliklar profilaktikasi tizimi oldida turgan eng ustuvor vazifalardan biridir.

Hududiy determinatsiya omili urbanizatsiyalashgan markazlar va agrar viloyatlar o‘rtasidagi jinoyatchilik tarkibida keskin tafovutlarni yuzaga keltiradi. Yirik shaharlardagi ijtimoiy anonimlik, iqtisodiy mobillik va raqamli texnologiyalarning keng yoyilganligi ayollar orasida firibgarlik va intellektual jinoyatlarning ildiz otishiga xizmat qilsa, chekka hududlardagi nosog‘lom ma’naviy-ruhiy muhit va iqtisodiy qaramlik maishiy yo‘naltirilgan zo‘ravonlik jinoyatlarining asosiy turtkisi bo‘lib qolmoqda. Ushbu determinantlarni chuqur o‘rganish nafaqat jinoyatga jazo berish, balki ayolni jinoyatchiga aylantiruvchi hududiy va ijtimoiy sabablarni bartaraf etish, uning ijtimoiy reabilitatsiyasini ta’minlash orqali jamiyatdagi ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirishga xizmat qiladi.

Toshkent shahri va viloyat markazlari kabi yirik urbanizatsiyalashgan hududlarda ayollar jinoyatchiligining tarkibida intellektual va iqtisodiy yo‘naltirilgan qilmishlar ustuvorlik qiladi. Xususan, poytaxt misolida firibgarlik, o‘zganing mulkini o‘zlashtirish va raqamli texnologiyalar bilan bog‘liq jinoyatlarning yuqori ko‘rsatkichlari kuzatiladi. Buning asosiy sababi sifatida ushbu hududlarda iqtisodiy faollikning yuqoriligi, anonimlik darajasining kengligi va ijtimoiy nazoratning zaiflashuvini ko‘rsatish mumkin. Markaziy hududlarda yashovchi ayol jinoyatchilarning kriminologik portretida yuqori ta’lim darajasi va ijtimoiy mobillik kabi xususiyatlar namoyon bo‘ladi.

Statistik ma’lumotlarning hududiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, ayollar jinoyatchiligining mutlaq ko‘rsatkichlari aholi zich joylashgan va iqtisodiy faollik yuqori bo‘lgan hududlarda to‘plangan. Xususan, 2025-yil davomida Toshkent shahri (1 625 ta), Farg‘ona (1 079 ta), Toshkent viloyati (815 ta), Andijon (746 ta) va Samarqand (729 ta) viloyatlari ushbu yo‘nalishda yetakchilik qilmoqda. Biroq, jarayonning asl ko‘lamini tushunish uchun ushbu raqamlarni nisbiy ko‘rsatkichlarga, ya’ni har 100 ming aholiga to‘g‘ri keladigan koeffitsiyentga aylantirish kriminologik jihatdan muhimroq hisoblanadi.

Agar mazkur raqamlarni hududlardagi aholi soniga nisbatan tahlil qilsak, Toshkent shahri nafaqat mutlaq soni, balki intensivlik darajasi bo‘yicha ham eng yuqori ko‘rsatkichni qayd etadi. Poytaxtda har 100 ming aholiga to‘g‘ri keladigan

ayollar jinoyatchiligi koeffitsiyenti taxminan 54,1 birlikni tashkil etadi. Bu ko‘rsatkich Farg‘ona viloyatida 26,8, Toshkent viloyatida 27,1, Andijonda 22,6 va Samarqandda 17,3 ni tashkil etadi.

Bunday nisbiy farqlar hududlarning ijtimoiy-demografik tuzilishi bilan izohlanadi. Masalan, Samarqand va Farg‘ona viloyatlarida ayollar jinoyatchiligining mutlaq soni yuqori bo‘lsa-da, aholining umumiy soni ko‘pligi sababli “jinoiy intensivlik” koeffitsiyenti Toshkent shahriga qaraganda qariyb 2-3 barobar pastroqdir. Bu poytaxtda ijtimoiy nazoratning pastligi, migratsiya jarayonlarining kuchliligi va ayollarning iqtisodiy jinoyatlarga jalb etilish darajasi yuqoriligidan dalolat beradi.

Ushbu tafovutlar har bir hudud uchun individual profilaktika dasturlarini ishlab chiqish zarurligini asoslaydi. Toshkent shahrida asosiy e’tiborni tizimli firibgarlik va iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashga qaratish lozim bo‘lsa, aholi zich joylashgan vodiy viloyatlarida ijtimoiy-maishiy muhitni sog‘lomlashtirish va ayollarning bandligini ta’minlash ustuvor vazifa bo‘lib qolaveradi.

Qishloq xo‘jaligiga ixtisoslashgan mintaqalarda, jumladan, Surxondaryo, Qashqadaryo va Jizzax viloyatlarida ayollar jinoyatchiligining kriminologik manzarasi o‘ziga xos an’anaviy va ijtimoiy-iqtisodiy determinantlar ta’sirida shakllanadi. Ushbu hududlarda ayollar tomonidan sodir etilayotgan jinoyat yoki huquqbuzarliklarning asosiy qismi oila-turmush doirasidagi nizolar hamda past darajadagi mulkiy tajovuzlar, xususan, mayda o‘g‘rilik qilmishlari bilan xarakterlanadi. Bunday kriminal xulq-atvorning yuzaga kelishida mintaqaviy mehnat bozoridagi cheklangan imkoniyatlar, ayollar o‘rtasidagi ishsizlik darajasining yuqoriligi va natijada kelib chiquvchi iqtisodiy qaramlik muhim rol o‘ynaydi. Moliyaviy jihatdan erkaklarga yoki oilaning boshqa a’zolariga to‘liq qaram bo‘lish ayol shaxsida doimiy ruhiy zo‘riqish va ijtimoiy chorasizlik hissini uyg‘otib, uning mulkiy jinoyatlarga qo‘l urishiga yoki ichki nizolarning agressiv shaklda namoyon bo‘lishiga zamin yaratadi.

Shu bilan birga, ushbu hududlardagi patriarxal oilaviy munosabatlar tizimi ayollar jinoyatchiligining viktimologik jihatlarini belgilab beradi. Oiladagi

an’anaviy iyerarxiya va ba’zan kuzatiladigan qat’iy cheklovlar natijasida kelib chiqadigan maishiy keskinliklar ko‘p hollarda ayollarning o‘z hayoti va sog‘lig‘ini himoya qilish maqsadida sodir etadigan “reaktiv” jinoyatlariga turtki bo‘ladi. Bu yerda jinoyat nafaqat qonunbuzarlik, balki uzoq vaqt davomida to‘plangan ijtimoiy-psixologik bosimning oqibati sifatida namoyon bo‘ladi.

Chegara oldi hududlarida esa ayollar jinoyatchiligi mutlaqo boshqacha, transchegaraviy xarakterga ega bo‘lgan spetsifik xususiyatlarni kasb etadi. Bu hududlarda istiqomat qiluvchi ayollarning tovar-moddiy boyliklarni noqonuniy olib o‘tish yoki kontrabanda sxemalariga jalb etilishi ularning ijtimoiy holatidan jinoiy guruhlar tomonidan “niqob” sifatida foydalanish strategiyasi bilan bog‘liq. Ayollarning bojxona va chegara nazoratidan o‘tishdagi nisbiy “imtiyozlari” yoki ularga nisbatan huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan ko‘rsatiladigan ijtimoiy ishonch omilidan g‘arazli maqsadlarda foydalanish holatlari kuzatiladi. Ushbu hududlarda jinoyatchilik nafaqat iqtisodiy ehtiyoj, balki mintaqaviy geografik imkoniyatlardan kelib chiquvchi kriminal tadbirkorlik shakli sifatida shakllanadi, bu esa o‘z navbatida mazkur mintaqalar uchun alohida xavfsizlik va profilaktika choralarini ishlab chiqishni taqozo etadi.

Farg‘ona vodiysi mintaqasi, xususan, Farg‘ona, Andijon va Namangan viloyatlarida ayollar jinoyatchiligining kriminologik manzarasi demografik zichlik va an’anaviy ijtimoiy-diniy qadriyatlarning kuchli ta’siri ostida o‘ziga xos transformatsiyaga uchramoqda. Mazkur hududlarda aholi o‘rtasida ma’naviy-axloqiy nazoratning yuqoriligi hamda jamoatchilik fikrining ustuvorligi sababli, ayollar tomonidan ochiq shaklda sodir etiladigan g‘arazgo‘ylik niyatidagi jinoyatlar, xususan, o‘g‘rilik va firibgarlik holatlarining izchil kamayishi kuzatilmoqda. Bu holat mintaqadagi mahalla instituti va qarindosh-urug‘chilik aloqalarining jinoyatni tiyib turuvchi tabiiy to‘siq sifatida namoyon bo‘lishi bilan izohlanadi.

Biroq, ushbu ijtimoiy nazoratning kuchliligi ikki yoqlama xarakterga ega bo‘lib, u bir vaqtning o‘zida oila-turmush doirasidagi nizolarning yashirin (latent) qolishiga ham sabab bo‘lmoqda. An’anaviy qadriyatlar ta’sirida ayollar ko‘pincha oiladagi zo‘ravonlik yoki tazyiqlarni jamoatchilikka oshkor qilmaslikka intilishadi,

bu esa o‘z navbatida nizolarning surunkali tus olishiga va kelajakda og‘irroq oqibatli maishiy jinoyatlarning yuzaga kelishiga zamin yaratadi. Bunday hududlarda latentlik darajasining yuqoriligi kriminologik profilaktika jarayonida nafaqat huquqiy, balki psixologik va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirishni talab etadi.

Shu bilan birga, keyingi yillarda vodiy viloyatlarida ayollarning giyohvandlik vositalarining noqonuniy aylanmasi bilan bog‘liq jinoiy faoliyatga jalb etilishi xavotirli tendensiya sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ushbu holat ko‘pincha ayollarning iqtisodiy chorasizligi yoki jinoiy guruhlar tomonidan ayol shaxsiga nisbatan jamiyatdagi “ishonch krediti”dan niqob sifatida foydalanish istagi bilan bog‘liqdir. Bu mintaqada jinoyatchilikning oldini olishda mahalla va boshqa ijtimoiy institutlarning rolini faqatgina nazorat qiluvchi emas, balki muammoli oilalar va ijtimoiy himoyaga muhtoj ayollar bilan individual ishlovchi, ularning real ijtimoiy ehtiyojlarini qondiruvchi organ sifatida qayta ko‘rib chiqish strategik ahamiyatga ega.

Ayollar jinoyatchiligining hududiy xususiyatlarini tahlil qilish jarayonida kriminologiya fani uchun bahsli bo‘lgan bir nechta fundamental muammolar yuzaga chiqmoqda. Birinchi navbatda, urbanizatsiya va ijtimoiy nazorat o‘rtasidagi nisbat masalasi alohida munozarani talab etadi. An’anaviy qarashlarga ko‘ra, yirik shaharlarda jinoyatchilikning yuqoriligi ijtimoiy jilovlash mexanizmlarining zaifligi bilan izohlansa-da, zamonaviy raqamli nazorat (CCTV, biometrik identifikatsiya) sharoitida Toshkent shahri kabi megapolislarda ayollar jinoyatchiligining o‘sib borishi “anonimlik nazariyasi”ni qayta ko‘rib chiqishga undaydi. Bu yerda bahsli nuqta shundaki, texnologiya nazorati ortgani bilan, shaxslararo ijtimoiy mas’uliyatning sovishi (atomizatsiya) jinoiy prevensiyada texnikadan ko‘ra insoniy omil muhimroq ekanini ko‘rsatmoqda.

Ikkinchi munozarali jihat — iqtisodiy omil va jinoiy motivatsiya o‘rtasidagi bog‘liqlikdir. Tadqiqot natijalari qishloq joylarida ayollar jinoyatchiligini “chorasizlik va iqtisodiy qaramlik” bilan bog‘lasa, shahar muhitida “iqtisodiy farovonlikka intilish va g‘araz” yetakchi o‘ringa chiqmoqda. Bu esa

kriminologiyadagi klassik “muhtojlik” konsepsiyasining ayollar jinoyatchiligida transformatsiyaga uchrayotganini anglatadi. Shu o‘rinda savol tug‘iladi: ayolni jinoyatga yetaklovchi kuch obyektiv iqtisodiy qiyinchilikmi yoki subyektiv iste’molchilik psixologiyasimi? Hududlar kesimidagi tafovutlar shuni ko‘rsatadiki, jinoyatchilikning oldini olishda faqat moddiy yordam ko‘rsatish emas, balki ma’naviy qadriyatlar degradatsiyasiga qarshi kurashish birlamchi ahamiyat kasb etmoqda.

Shuningdek, Farg‘ona vodiysi misolida ko‘rilgan “ijtimoiy-diniy qadriyatlar va latentlik” muammosi ham ilmiy bahslarga sabab bo‘lmoqda. Bir guruh tadqiqotchilar kuchli mahalliy nazoratni jinoyatchilikni jilovlovchi omil sifatida baholasa, boshqalari bunday muhit ayollarning huquqlari poymol etilishini va oilaviy zo‘ravonlikni yashirishga xizmat qilishini ta’kidlaydilar. Bu yerda ziddiyat shundaki, tashqi statistik barqarorlik ortida ichki viktimologik jarayonlarning chuqurlashishi “ijtimoiy nazorat” institutini isloh qilish zaruratini tug‘diradi.

Nihoyat, chegara oldi hududlarida ayollarning kontrabanda va transchegaraviy jinoyatlarga jalb etilishi masalasida “aybdorlik va qurbonlik” chegarasi juda nozikdir. Ko‘p hollarda jinoiy guruhlar ayollarning ijtimoiy zaifligidan foydalanib, ularni vosita sifatida ishlatadi. Bu esa huquqni muhofaza qilish organlari oldida murakkab dilemmani qo‘yadi: ayolni og‘ir jinoiy jazoga tortish kerakmi yoki uni jinoiy ekspluatatsiya qurboni sifatida reabilitatsiya qilish lozimmi? Mazkur munozarali nuqtalar ayollar jinoyatchiligiga qarshi kurashda an’anaviy yondashuvlardan voz kechib, har bir hudud va vaziyatning kriminologik o‘ziga xosligini inobatga olishni taqozo etadi.

Ayollar jinoyatchiligining hududiy xususiyatlarini tahlil qilish natijasida sohadagi vaziyatni sog‘lomlashtirish va profilaktika samaradorligini oshirishga qaratilgan quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ilgari suriladi:

1. Hududiy determinatsiya tamoyili asosida “Kriminologik xarita”larni joriy etish. Bunda, har bir hududning (urban, agrar, chegara oldi) o‘ziga xos jinoyatchilik mazmunidan kelib chiqib, profilaktika choralarini individuallashtirish zarur. Masalan, Toshkent shahri va yirik markazlarda asosiy urg‘uni kiberjinoyatchilik va

moliyaviy firibgarlikka qarshi “raqamli gigiyena” targ‘ibotiga qaratish lozim bo‘lsa, qishloq hududlarida oilaviy-maishiy zo‘ravonlikning oldini oluvchi viktimologik himoya tizimini kuchaytirish talab etiladi.

2. Ayollar resotsializatsiyasida “Singapur modeli”ni (Yellow Ribbon) mahalliylashtirish zarur. Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan ayollarning qayta jinoyat sodir etishini oldini olish uchun ularni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning majburiy “post-penitensiar xaritasi”ni ishlab chiqish lozim. Bunda ayolni ijtimoiy tahqirlashdan himoya qilish, uni turar joy va mutaxassisligi bo‘yicha kafolatlangan ish bilan ta’minlash davlat va xususiy sektor hamkorligida amalga oshirilishi shart.

3. “Xogushi” (Yaponiya) tizimi asosida mahallabay individual murabbiylikni yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiq. Bunda, ijtimoiy xavfli ahvoldagi yoki jinoyat sodir etishga moyil ayollar bilan ishlashda faqat ma’muriy nazorat emas, balki ma’naviy-psixologik ko‘mak institutini shakllantirish lozim. Mahallalardagi xotin-qizlar faollari va psixologik xizmat vakillari ishtirokida “ijtimoiy kouch” tizimini joriy etish, ayolning oiladagi mavqeini tiklash va uning ruhiy barqarorligini ta’minlashga xizmat qiladi.

4. Iqtisodiy mustaqillik va “Ayollar klasterlari”ni tashkil etish kerak. Agrar va ishsizlik darajasi yuqori hududlarda ayollar jinoyatchiligining bosh omili bo‘lgan “iqtisodiy qaramlik”ni bartaraf etish uchun imtiyozli mikrokreditlash tizimini kengaytirish lozim. Qishloq joylarida ayollar uchun kichik sanoat zonalari va uy mehnatiga asoslangan “mikro-klasterlar” tashkil etish orqali ularning bandligini ta’minlash, mulkiy jinoyatlarning tabiiy ravishda kamayishiga olib keladi.

5. Latentlikka qarshi “Anonim himoya” raqamli platformasini kuchaytirish zarur. Ayniqsa Farg‘ona vodiysi kabi ijtimoiy nazorat kuchli hududlarda ayollarning oilaviy zo‘ravonlikni yashirish holatlarini kamaytirish uchun ko‘p bosqichli anonim yordam tizimini yaratish zarur. Bu tizim nafaqat huquqni muhofaza qilish organlari, balki mustaqil psixologik va yuridik markazlar bilan integratsiyalashgan bo‘lishi, ayolga “qurbon” statusidan chiqish va jinoyatga qo‘l urmaslik uchun xavfsiz muhit yaratishi lozim.

6. Viktimologik profilaktika va ta’lim dasturlarini kengaytirish lozim. Xotin-qizlarning huquqiy savodxonligini oshirish bo‘yicha hududiy o‘ziga xoslikni inobatga oluvchi ta’lim modullarini ishlab chiqish. Masalan, chegara oldi hududlarida ayollarni transchegaraviy jinoyatlarga jalb etilish xavfidan ogohlantiruvchi, shaharlarda esa firibgarlik sxemalarini fosh etuvchi maxsus treninglar tashkil etish maqsadga muvofiq.

Ushbu takliflarning amaliyotga tatbiq etilishi ayollar jinoyatchiligiga qarshi kurashda faqat jazo choralariga tayanishdan voz kechib, jinoyatning ildizi bo‘lgan ijtimoiy va iqtisodiy omillarni bartaraf etishga imkon beradi.

Xullas, ayollar jinoyatchiligining hududiy o‘ziga xosligini inobatga olgan holda, profilaktik chora-tadbirlarni “hududiy determinatsiya” tamoyili asosida tashkil etish lozim. Toshkent shahri va viloyat markazlarida firibgarlikka qarshi ijtimoiy-huquqiy targ‘ibotni kuchaytirish, chekka hududlarda esa ayollarning iqtisodiy mustaqilligini ta’minlash va oilaviy zo‘ravonlik qurbonlarini reabilitatsiya qilish ustuvor vazifa hisoblanadi. Jinoyatchilikning mintaqaviy manzarasini doimiy monitoring qilish ayollar jinoyatchiligiga qarshi kurashning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan manbalar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi (2026 yil 6 mart).

2. Jinoyatchilik tendensiyalari va omillari davlat hisobotlari (2025-yilning 12 oyi bo‘yicha): Axborot-tahliliy hujjat. – T.: O‘zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti, 2026.

3. Ministry of Justice, Japan: White Paper on Crime. moj.go.jp/en/housou/statistics/housou_statistics01.html.,

4. UNODC (United Nations Office on Drugs and Crime): Crime and Criminal Justice Statistics. unodc.org/unodc/en/data-and-analysis/crime-and-criminal-justice.html., Ruth Benedict: "The Chrysanthemum and the Sword"., Journal of Criminology: "Female Offending in Japan: Trends and Causes".

5. Singapore Police Force (SPF): Annual Crime Statistics Report 2023. police.gov.sg/Statistics/Crime-Stats.

6. Ministry of Home Affairs (MHA), Singapore: Singapore's Approach to Criminal Justice. mha.gov.sg/news-room/responses., Yellow Ribbon Singapore (YRS): Impact Reports on Rehabilitation. yellowribbon.gov.sg.

Payziyev Dilshat Yuldashbayevich
yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Abduqodirov Farhodjon Faxritdin O‘g‘li
yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

YANGI O‘ZBEKISTONDA GIYOHVANDLIK BILAN BOG‘LIQ JINOYATCHILIKKA QARSHI KURASHISH VA OLDINI OLISH MASALALARI

Annotatsiya. Maqolada Yangi O‘zbekiston sharoitida giyohvandlik bilan bog‘liq jinoyatchilikka qarshi kurashish va uning oldini olishning dolzarb masalalari tahlil qilingan. Giyohvandlikning jamiyat va yoshlar hayotiga salbiy ta’siri, uning tarqalish sabablari va omillari ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, mamlakatda mazkur illatga qarshi kurashish bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar, jumladan huquqiy, profilaktik va tashkiliy mexanizmlar yoritilgan. Muallif tomonidan giyohvandlikka qarshi kurashish samaradorligini oshirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: giyohvandlik, narkojinoyatchilik, profilaktika, yoshlar, psixotrop moddalar, jinoiy javobgarlik, huquqiy mexanizmlar, jamoatchilik.

ПРОБЛЕМЫ ПРОТИВОДЕЙСТВИЯ И ПРЕДУПРЕЖДЕНИЯ ПРЕСТУПНОСТИ, СВЯЗАННОЙ С НАРКОМАНИЕЙ, В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация. В статье рассматриваются актуальные вопросы борьбы с преступностью, связанной с наркоманией, и её предупреждения в условиях Нового Узбекистана. Анализируются причины и факторы распространения наркотических средств, их негативное влияние на общество, особенно на молодёжь. Освещаются реализуемые в стране меры противодействия наркопреступности, включая правовые, профилактические и организационные механизмы. Автор предлагает ряд рекомендаций, направленных на повышение эффективности борьбы с данным явлением.

Ключевые слова: наркомания, наркопреступность, профилактика, молодёжь, психотропные вещества, уголовная ответственность, правовые механизмы, общество.

ISSUES OF COMBATING AND PREVENTING DRUG-RELATED CRIME IN NEW UZBEKISTAN

Abstract. The article addresses current issues of combating and preventing drug-related crime in the context of New Uzbekistan. It analyzes the causes and factors of drug abuse, as well as its negative impact on society, particularly on youth. The study highlights the measures implemented in the country to counter drug-related crime, including legal, preventive, and organizational mechanisms. The author proposes recommendations aimed at improving the effectiveness of anti-drug policies.

Keywords: drug abuse, drug-related crime, prevention, youth, psychotropic substances, criminal liability, legal mechanisms, society.

Giyohvandlik mamlakatning, jamiyatning rivojiga to‘sqinlik qiluvchi ta’sirli omillardan biri hisoblanadi. Giyohvandlik vositalari, ularning analoglari, psixotrop va kuchli ta’sir qiluvchi moddalar hamda prekursorlarning qonunga xilof ravishda muomalaga kirishi jahon hamjamiyati oldiga jiddiy muammolarni keltirib chiqarmoqda. Xususan, so‘nggi yillarda ko‘plab mamlakatlarda ushbu og‘uni iste’mol qiluvchilar soni ortib bormoqda. Ayanchlisi, bu borada yoshlarning ulushi ancha katta. “World Population Review” ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekiston giyohvandlik moddalarini iste’mol qilish bo‘yicha mamlakatlar reytingida 95-o‘rindan joy olgan. Bu borada bugungi kunda Qozog‘iston - 8, Qirg‘iziston - 23, Turkmaniston - 41, Tojikiston - 76 o‘rinda turibdi. [1]

Butun dunyoda bo‘lgani kabi O‘zbekistonda ham giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar va kuchli ta’sir qiluvchi dorilarning yoshlar orasida keng tarqalayotgani yechimini topish zarur bo‘lgan muammolardan biri hisoblanadi. Ushbu illatning yoshlarimiz orasida ommalashishi o‘ta xavflidir. Chunki bu illat jamiyatimizning hozirgi va ertangi kuniga salbiy ta’sirini o‘tkazmasdan qolmaydi.

Jamiyatimizda bu kabi illatlarning tarqalishiga qarshi kurashishda faqat huquqni muhofaza qiluvchi organlar emas, balki barchamiz (oila, maktab, mahalla, OTM, jamiyatimiz va boshqa.) mas’ul bo‘lmog‘imiz lozim. Respublikamizda 2025-yilda tezkor tadbirlar natijasida jami 3 tonna 413 kg narkotik, psixotrop va kuchli ta’sir qiluvchi moddalarning noqonuniy muomalasiga chek qo‘yilib, iste’molga chiqib ketishining oldi olingan. Shuningdek respublikada huquq-tartibot idoralarining sa’y-harakatlari natijasida giyohvandlik vositalari, psixotrop va kuchli ta’sir qiluvchi moddalarning noqonuniy muomalasi bilan bog‘liq 15 412 ta jinoyat va 1 956 ta ma’muriy huquqbuzarlik aniqlangan.

Mazkur tadbirlar natijasida 3 tonna 413 kg narkotik, psixotrop va kuchli ta’sir qiluvchi moddalarning noqonuniy muomalasiga chek qo‘yilib, iste’molga chiqib ketishining oldi olindi. Narkojinoyatlarning 53 foizi Toshkent shahri (3 986 ta), Farg‘ona (2 178 ta) va Toshkent (1 954 ta) viloyatlari hissasiga to‘g‘ri kelgan. Giyohvandlik vositalarining eng ko‘pini “gashish” (48 foiz yoki 1 tn 470 kg) va “opiy” (27 foiz yoki 819 kg) moddalari tashkil etgan. Shuningdek, 14 ta yashirin narkolaboratoriyalar aniqlanib, ularda saqlangan jami 75 kg giyohvandlik vositalari va kuchli ta’sir qiluvchi moddalar musodara qilindi. Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, 2025-yilda O‘zbekistonda giyohvandlik vositalari bilan bog‘liq jinoyatlar bo‘yicha 3,8 ming nafar shaxs javobgarlikka tortildi. Rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra, ularning qariyb 93 foizi yoshlar hisoblanadi [2].

Narkojinoyat sodir etgan 11 049 nafar shaxslar javobgarlikka tortildi. Achinarlisi, jinoyatchilarning 59 nafarini maktab o‘quvchilari, 124 nafarini talabalar tashkil etgan” [3].

Bugungi kunda yoshlar o‘rtasida ushbu illatning ko‘payib, ortib borayotganligini quyidagilar bilan izohlash mumkin:

– o‘smirlarning turli narsalarga qiziquvchanligi;

– o‘smirlarning ta’sirga beriluvchanligi;

– ushbu illat tufayli kelib chiqadigan kasalliklarni yoshlarning bilmasligi;

– aholi, ayniqsa yoshlar orasida bu illat to‘g‘risidagi axborotning kamligi;

– yoshlarning huquqiy madaniyati yetarli darajada emasligi va boshqalar.

Narkologik hisobga olingan 14 yoshdan 30 yoshgacha bo‘lgan giyohvandlar 60 foizga ko‘paygan. Shuningdek, mamlakatimizda giyohvand moddalarni ishlab chiqarish va sotish bilan bog‘liq jinoyatlarning salmog‘i ham ko‘paygan.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi ma’lumotlariga ko‘ra 2025-yilda giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishdan iborat jinoyatlar uchun 10134 nafar shaxs sudlangan [4].

Ko‘rinib turibdiki, sanab o‘tilganlarning aksariyati insonning o‘zi bilan bog‘liq va bu illatga aralashib qolishning oldini olish, unga qarshi kurashishda yangi yondashuvlar, yangi usullar zarurligini ko‘rsatmoqda. Bu illatga qarshi kurashishda najot yo‘li bitta – muammoning oqibatlari bilan emas, balki sabablari bilan kurashishdir. Bu kurash esa kompleks choralar ko‘rish, targ‘ibot-tashviqot va media imkoniyatlaridan keng foydalanish, ushbu illatga nisbatan jamoatchilikda murosasiz muhitni shakllantirish orqali amalga oshiriladi. Mamlakatimizda bu borada bir qator chora-tadbirlar yo‘lga qo‘yilgan. Xususan, har yili fevral oyida huquqni muhofaza qiluvchi organlar “Yoshlar orasida giyohvandlik va psixotrop moddalarning tarqalishiga qarshi kurashish” oyligi o‘tkaziladi. Birgina 2025-yilda maktablar, o‘rta maxsus bilim yurtlari, litseylar, oliy ta’lim muassasalarida “Biz giyohvandlikka qarshimiz” mavzusida tashkil etilgan o‘n mingdan ortiq uchrashuv va targ‘ibotda minglab yoshlar qamrab olingan.

Ushbu tadbirlarda yangi turdagi sintetik giyohvandlik vositalari va “kuchli ta’sir qiluvchi yengil narkotik” sifatida ommalashib borayotgan dorilarning inson salomatligi bilan bir qatorda turmush tarziga, kelajagiga, yaqinlariga salbiy ta’siri to‘g‘risida yoshlarga mutaxassislar tomonidan tushuntirishlar berildi.

Mazkur muammoning ildizini quritish va yoshlarning turli xil aldovlarga ishonib qolmasliklarini ta’minlash uchun ushbu illatga qarshi kurashishda quyidagi choralarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Mazkur sohada jinoyatchilikka qarshi murosasiz kurashishni ta’minlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Aholi salomatligi va millat genofondini giyohvandlik va narkojinoyatlardan samarali himoya qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2025-yil 3-noyabrdagi PF-207-son Farmon

chiqarilib, unda O‘zbekiston aholisining salomatligi va millat genofondiga jiddiy tahdid solayotgan giyohvandlik illatiga qarshi kurashish hamda bunga sabab bo‘layotgan uyushgan narkojinoyatchilikka chek qo‘yishga qaratilgan normativ-huquqiy, tezkor-profilaktik va tashkiliy-tarbiyaviy choralar kompleksini belgilash, voyaga yetmaganlar va yoshlarimiz kelajagini giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalardan har tomonlama asrash — barcha darajadagi davlat organlari, tashkilotlari va muassasalarining dolzarb vazifasi ekanini alohida qayd etish hamda ularning bu boradagi mas’uliyatini tubdan oshirish asosiy maqsad sifatida belgilandi [5].

Ta’kidlash joizki, dunyoqarashi endigina shakllanib kelayotgan, bor kuch-g‘ayratini faqat bilim olishga, izlanishga, hunar o‘rganishga sarflashi lozim bo‘lgan o‘smirlarni aldov yo‘li bilan giyohvandlik qurboniga aylantirayotganlar oz emas. Ularning o‘z hamyonini to‘ldirish ilinjida og‘uni yoshlar orasida tarqatishiga jim qarab turib bo‘lmaydi, albatta. Shu bois yosh avlod ongida oqni qoradan ajrata oladigan o‘ziga xos immunitet shakllantirish dolzarb ahamiyatga ega. Bu borada e’tiborni giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilganlik uchun javobgarlik masalasiga qaratadigan bo‘lsak amaldagi O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 270-276-moddalarida giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilganlik uchun jinoiy javobgarlik belgilangan. Bu jinoyatlarni sodir etganlik uchun og‘ir jazo sifatida bir oydan yigirma yilgacha OMQ jazosi nazarda tutilgan [6].

Shu bilan birgalikda endilikda giyohvandlik vositalari yoki ularning analoglari va psixotrop moddalarni telekommunikatsiya tarmoqlari va internetda reklama qilish, namoyish etganlik uchun jinoiy va ma’muriy javobgarlik kuchaytirildi. Narkotik moddalarni o‘tkazish maqsadini ko‘zlamay noqonuniy saqlagan yoki tashigan shaxslar ham javobgarlikka tortilishi belgilandi. Xususan, Jinoyat, Jinoyat-protsessual kodekslariga hamda Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga giyohvandlik vositalarini, ularning analoglarini yoki psixotrop moddalarni telekommunikatsiya tarmoqlaridan va internetdan foydalanish orqali

qonunga xilof ravishda muomalaga kiritganlik, ushbu jinoyatlarni voyaga yetmaganlarni jalb qilgan holda sodir etganlik uchun javobgarlik choralari kuchaytirildi. Shuningdek giyohvandlik vositalar yoki psixotrop moddalarni, kuchli ta’sir qiluvchi va zaharli moddalarni o‘tkazish maqsadini ko‘zlamay qonunga xilof ravishda olganlik, saqlaganlik, tashiganlik yoki jo‘natganlik uchun ham ma’muriy va jinoiy javobgarlik belgilandi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, bu sohadagi islohotlarni izchil davom ettirish maqsadida, giyohvandlik vositalarini noqonuniy muomalaga kiritishga hokimiyat (mansab) vakolatlarini suiiste’mol qilish yo‘li bilan homiylik (rahnamolik) qilish yoki bunday jinoyatlar fosh bo‘lishining oldini olish maqsadida xabar berganlik, giyohvandlik vositalarini har qanday shaklda iste’mol qilishga jalb etish odam o‘limiga yoki boshqa og‘ir oqibatlarga sabab bo‘lgan holatlar uchun jinoiy javobgarlik choralarini kuchaytirish maqsadga muvofiqdir.

Фойдаланилган адабиётлар рўйҳати

1. https://worldpopulationreview.com/country-rankings/drug-use-by-country
2. https://zamin.uz/jamiyat/185222-ozbekistonda-narkotik-bilan-bogliq-jinoyatlarning-asosiy-qismi-eshlar-hissasiga-togri-kelmoqda.html
3. https://www.gazeta.uz/oz/2026/02/02/narkotik/
4. https://stat.sud.uz/criminal
5. Ўзбекистон Республикасида гиёҳвандлик воситалари ва психотроп моддаларнинг ноқонуний айланмасига чек қўйиш орқали уларнинг аҳоли саломатлиги ва мамлакатимиз генофондига салбий таъсирини бартараф этиш стратегик чора-тадбирлари тўғрисида»ги Президент Фармони https://www.lex.uz/uz/docs/6912475
6. Ўзбекистон Республикасининг Жиноят кодекси: https://www.lex.uz/acts/111453

Axmedov Farxod Saydaliyevich
Malaka oshirish instituti Kasbiy tayyorgarlik fakulteti Maxsus fanlar sikli o‘qituvchisi, podpolkovnik
+ 99899 822-63-27

VOYAGA YETMAGANLARGA IJTIMOIY YORDAM KO‘RSATISHNING HUQUQIY ASOSLARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasida voyaga yetmaganlarga ijtimoiy yordam ko‘rsatish tizimining huquqiy va institutsional asoslari tahlil qilingan. Tadqiqotda bolalarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, shuningdek, og‘ir hayotiy vaziyatga tushib qolgan voyaga

yetmaganlarga ijtimoiy yordam ko‘rsatish samaradorligini oshirish masalalari ko‘rib chiqiladi. Shu bilan birga sohaga oid milliy qonunchilik normalari va xalqaro huquqiy standartlar muvofiqligi o‘rganilib, voyaga yetmaganlarga ijtimoiy yordam ko‘rsatish mexanizmlarini yanada takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: Voyaga yetmaganlar, ijtimoiy yordam, huquqiy asos, davlat himoyasi, bola huquqlari, ijtimoiy himoya, qonunchilik.

ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ ОКАЗАНИЯ СОЦИАЛЬНОЙ ПОМОЩИ НЕСОВЕРШЕННОЛЕТНИМ

Аннотация: В данной статье анализируется правовая и институциональная основа системы социальной помощи несовершеннолетним в Республике Узбекистан. Рассматриваются вопросы защиты прав и законных интересов детей, а также повышения эффективности социальной помощи несовершеннолетним, оказавшимся в сложных жизненных ситуациях. Одновременно изучается соответствие в этой области национальных законодательных норм и международных правовых стандартов, а также предлагаются рекомендации по дальнейшему совершенствованию механизмов оказания социальной помощи несовершеннолетним.

Ключевые слова: Несовершеннолетние, социальная помощь, правовая основа, государственная защита, права ребенка, социальная защита, законодательство.

LEGAL FOUNDATIONS OF PROVIDING SOCIAL ASSISTANCE TO MINORS

Abstract: This article analyzes the legal and institutional framework for the system of social assistance to minors in the Republic of Uzbekistan. The study examines the issues of protecting the rights and legitimate interests of children, as well as increasing the effectiveness of social assistance to minors who find

themselves in difficult life situations. At the same time, the compliance of national legislative norms and international legal standards in this area is studied, and proposals and recommendations are made for further improvement of the mechanisms for providing social assistance to minors.

Keywords: Minors, social assistance, legal framework, state protection, child rights, social protection, legislation.

Butun kuch va salohiyatimizni yagona ulug‘ maqsadimiz – Yangi O‘zbekistonni barpo etishga qaratamiz.

Shavkat Mirziyoev

Mamlakatimizda sog‘lom va barkamol avlodni tarbiyalash, ma’naviy-axloqiy, jismonan yetuk, vatanparvar, milliy an’ana va qadriyatlarimizga sadoqatli yoshlarni voyaga yetkazish, ularni amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarning faol va jonkuyar ishtirokchisiga aylantirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Mustaqillikka erishganimizdan so’ng, davlatimizda voyaga yetmaganlarni tarbiyalash va ularning huquq va erkinliklarini himoya qilishning huquqiy asoslari shakllantirildi. Bularni biz O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun, Mehnat kodeksi, Fuqarolik kodeksi va “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi qonunlarimizda ko‘rishimiz mumkin.

Ushbu qonunlarda voyaga yetmaganlar to‘g’risida g‘amxo‘rlik qilish, huquqiy va ijtimoiy jihatdan himoya qilish, ularning tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash, o‘z manfaatlarini amalga oshirish yo‘llarini erkin tanlab olishga kafolat berish kabi munosabatlarda o‘zining huquqiy asoslarini topgan.

Bugungi kunda yoshlarimizni har tomonlama barkamol inson bo‘lishi uchun asosiy qomusimiz O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 50-moddasida: “Har kim bilim olish huquqiga ega. Bepul umumiy ta’lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi. Maktab ishlari davlat nazarotidadir” deb belgilab qo‘yilgan bo‘lib, voyaga yetmaganlarning ta’lim olish sohasidagi huquqlarini kafolatlaydi. Ta’lim

jarayoni voyaga yetmaganlarni intelektual salohiyatini, dunyoqarashini va bilimini shakllantirib, uning jamiyatga foyda keltiruvchi shaxs sifatida shakllantirishda o‘ta muhim ahamiyat kasb etadi.

Konstitutsiyaning aksariyat moddalari voyaga yetmaganlar huquqlari va manfaatlari bilan bog‘liq, jumladan konstitutsiyamizning muqaddima qismidan unga alohida urg‘u qaratiladi, ya’ni, “hozirgi va kelajak avlodlar oldidagi yuksak mas’uliyatini anglagan holda” degan iboraning keltirilishi konstitutsiya bugungi kun nuqtai nazaridan balki kelajak avlod, ya’ni voyaga yetmagan yoshlar oldidagi yuksak mas’uliyatni anglagan holda qabul qilinganligini anglatadi.

Voyaga yetmaganlarning huquq va erkinliklarini himoya qilish bilan bir qatorda ularga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi sabab va shart-sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etish choralarini ko‘rish, ular o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasini tashkil etish, huquqbuzarliklar sodir etgan va ijtimoiy himoyaga muhtoj bo‘lgan voyaga yetmaganlarni ijtimoiy moslashtirish va ijtimoiy reabilitasiya qilish choralarini ko‘rish bu yo‘nalishdagi muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasining 2008-yil 7-yanvardagi “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 3-avgustdagi “Voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko‘rsatishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 490-sonli Qarorlarining qabul qilinganligi voyaga yetmaganlarni har tomonlama yetuk, komil inson va sog‘lom farzandlar qilib tarbiyalashga qaratilgan ishlarni keng ko‘lamda amalga oshirilayotganligidan dalolatdir.

O‘zbekiston Respublikasining “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonunining 2-bobida Bola huquqlarining asosiy kafolatlari deb nomlanib unda bolaning yashash huquqi kafolatlari (9-modda), bolaning individuallikka va uni saqlab qolishga bo‘lgan huquqi kafolatlari (10-modda), bolaning erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqi kafolatlari (11-modda), bolaning himoyaga bo‘lgan huquqi kafolatlari (12-modda), bolaning oilaviy muhitga bo‘lgan kafolatlari (13-modda), bolaning o‘z fikrini ifoda etish huquqi kafolatlari (15-modda), bolaning axborot

olish huquqi kafolatlari (16-modda), bolaning fikrlash, so‘z vijdon va e’tiqod erkinligi kafolatlari (17-modda), bolaning dam olish va bo‘sh vaqtga bo‘lgan huquqi kafolatlari, (21-modda), bolaning sog‘lig‘ini saqlash huquqi kafolatlari (22-modda), bolaning bilim olish huquqi kafolatlari (23-modda) shaxsiy nomulkiy huquq sifatida belgilab quyilgan.

O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksining 81-86-moddalarida voyaga etmaganlar javobgarligining xususiyatlari ko‘rsatilgan, jumladan 81-moddada jazo tizimi sifatida jarima, axloq tuzatish ishlari, ozodlikni cheklash va ozodlikdan mahrum qilish belgilanishi mumkinligi keltirilgan hamda 82-85-moddalarida ularni ijrosi to‘liq belgilab qo‘yilgan. Demak mazkur kodeks va uning normalari voyaga etmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasi tashkil etishda alohida o‘rinni egallaydi va ushbu qoidalarga asoslanish shartligini belgilaydi.

Oila kodeksining 11-bobi voyaga etmagan bolalarning shaxsiy nomulkiy huquqiga bag‘ishlangan bo‘lib unda bolaning oilada yashash va tarbiyalanish huquqi (65-modda), bolaning ota-onasi va boshqa qarindoshlari bilan ko‘rishish huquqi (66-modda), bolaning himoyaga bo‘lgan huquqi (67-modda), bolaning o‘z fikrini ifoda etish huquqi (68-modda), bolaning ism, ota ismi va familiya olish huquqi (69-modda), shaxsiy nomulkiy huquq sifatida ham ko‘rsatib o‘tilgan.

Voyaga etmaganlar huquqbuzarliklarini oldini olish, ular o‘rtasidagi profilaktik ishlarni tashkil etish va amalga oshirish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi va asosiy yo‘nalishlarini belgilab beradi.

Voyaga etmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasining quyidagi asosiy tushunchalari ko‘rsatib o‘tilgan:

Voyaga etmagan - o‘n sakkiz yoshga to‘lmagan shaxs;

Voyaga etmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi - voyaga etmaganlarning nazoratsizligi, qarovsizligiga, ular tomonidan huquqbuzarliklar yoki boshqa g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir etilishiga imkon beradigan sabablar va shart-sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf

etishga qaratilgan, yakka tartibdagi profilaktika ishi bilan birgalikda amalga oshiriladigan ijtimoiy, huquqiy, tibbiy va boshqa chora-tadbirlar tizimi;

Ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo‘lgan voyaga etmagan - voyaga etmaganning nazoratsizligi yoki qarovsizligi oqibatida uning hayoti yoki sog‘lig‘i uchun xavf tug‘diradigan yoxud uni ta’minlash, tarbiyalash va unga ta’lim berish talablariga javob bermaydigan sharoitda bo‘lgan yoxud huquqbuzarlik yoki boshqa g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir etayotgan voyaga etmagan;

Ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo‘lgan oila - ota-ona yoki ota-ona o‘rnini bosuvchi shaxslar voyaga etmaganlarni ta’minlash, tarbiyalash va ularga ta’lim berish bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarishdan bo‘yin tovlayotgan yoki lozim darajada bajarmayotgan yoxud ularning xulq-atvoriga salbiy ta’sir ko‘rsatayotgan yoki ular bilan shafqatsiz muomalada bo‘layotgan oila;

Nazoratsiz - ota-ona yoki ota-ona o‘rnini bosuvchi shaxslar tomonidan voyaga etmaganni ta’minlash, tarbiyalash va unga ta’lim berish bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarishdan bo‘yin tovlaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik oqibatida xulq-atvori nazoratsiz qolgan voyaga etmagan;

Yakka tartibdagi profilaktika ishi - ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo‘lgan voyaga etmaganlar va oilalarni o‘z vaqtida aniqlash, shuningdek ularni ijtimoiy-pedagogik reabilitasiya qilish hamda voyaga etmaganlarning huquqbuzarliklar yoki boshqa g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir etishining oldini olishga doir faoliyat;

Qarovsiz - aniq yashash joyi bo‘lmagan nazoratsiz qolgan voyaga etmagan;

Voyaga etmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasini amalga oshiruvchi organlar hamda muassasalar tizimiga quyidagilar kiradi:

- voyaga etmaganlar ishlari bo‘yicha idoralararo komissiyalar;
- ichki ishlar organlari;
- ta’limni boshqarish organlari va ta’lim muassasalari;
- vasiylik va homiylik organlari;
- sog‘liqni saqlashni boshqarish organlari va sog‘liqni saqlash muassasalari;

- bandlik va mehnat munosabatlari organlari.Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan organ va muassasalar vakolati doirasida voyaga etmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshiradi hamda ushbu yo‘nalishda o‘zaro hamkorlik qiladi.

G‘ayriijtimoiy xatti-harakatlar - voyaga etmaganning muntazam ravishda spirtli ichimliklar, giyohvandlik vositalari, psixotrop yoki aql-iroda faoliyatiga ta’sir etuvchi boshqa moddalarni iste’mol qilishida, fohishalik, tilanchilik bilan shug‘ullanishida ifodalanadigan xatti-harakatlari, shuningdek o‘zga fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini buzadigan boshqa xatti-harakatlari.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 17-oktyabrdagi “Respublika o‘quv-tarbiya muassasalari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 880-sonli Qarori O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-maydagi “Ixtisoslashtirilgan o‘quv-tarbiya muassasalari faoliyatini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi RQ-4342-son Qarori ijrosini ta’minlash maqsadida, Respublika o‘quv-tarbiya muassasalariga 14 yoshga to‘lgan va 18 yoshdan oshmagan voyaga etmaganlar joylashtirilishi ko‘rsatib o‘tilgan.

Respublika o‘quv-tarbiya muassasalariga quyidagilar kiradi:

- ijtimoiy xavfli qilmishlar sodir etgan, lekin jinoiy javobgarlikka tortish mumkin bo‘lgan yoshga to‘lmagan yoxud ruhiy kasallik bilan bog‘liq bo‘lmagan holda rivojlanishda o‘z yoshiga nisbatan orqada qolishi oqibatida sodir etgan qilmishining ahamiyatini to‘liq anglab etishga qodir bo‘lmagan taqdirda;

- aybliligi to‘g‘risidagi masala hal qilinmay turib jinoiy javobgarlikdan ozod qilingan, materiallar voyaga etmaganlar ishlari bo‘yicha idoralararo komissiyaga ko‘rib chiqish uchun topshirilganda;

- Respublika o‘quv-tarbiya muassasalariga joylashtirish tariqasidagi majburlov chorasi qo‘llanilgan holda jinoiy jazodan ozod qilingan voyaga etmaganlarga nisbatan;

- yakka tartibdagi profilaktika ishi olib borilayotganligiga qaramay muntazam ravishda huquqbuzarliklar yoki boshqa g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir qilishni davom ettirayotgan voyaga etmaganlar sud qarori asosida joylashtiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-maydagi “Ixtisoslashtirilgan o‘quv-tarbiya muassasalari faoliyatini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi 4342-sonli qarori, O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi huzurida Respublika o‘g‘il bolalar o‘quv-tarbiya muassasasi hamda Respublika qiz bolalar o‘quv-tarbiya muassasasi jumladan, Respublika qiz bolalar o‘quv-tarbiya muassasasi Toshkent viloyati, Chinoz tumani, “Gulzorobod” mahallasi manzilida, Respublika o‘g‘il bolalar o‘quv-tarbiya muassasasi Sirdaryo viloyati, Sirdaryo tumani, Baxt shahri “Tadbirkor” mahallasi manzilida tashkil etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 17-oktyabrdagi “Respublika o‘quv-tarbiya muassasalari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 880-sonli Qarori O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-maydagi “Ixtisoslashtirilgan o‘quv-tarbiya muassasalari faoliyatini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi PQ-4342-son Qarori ijrosini ta’minlash maqsadida, Respublika o‘quv-tarbiya muassasalariga 14 yoshga to‘lgan va 18 yoshdan oshmagan voyaga yetmaganlar joylashtiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2010-yil 26-noyabrdagi “Ichki ishlar organlarining voyaga etmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko‘rsatish markazlari to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi 269-sonli qarori asosida markazning maqomi va asosiy vazifalari belgilangan.

Voyaga yetmaganni ijtimoiy-huquqiy yordam ko‘rsatish markaziga joylashtirishni talab qiluvchi holatlar aniqlangan taqdirda, profilaktika inspektori voyaga yetmagan ichki ishlar organlari yoki tayanch punktlariga olib kelishi mumkin, keltirilgan paytdan boshlab 48 soat ichida voyaga yetmaganni ijtimoiy-huquqiy yordam ko‘rsatish markaziga joylashtirish to‘g‘risida sudga iltimosnoma yuborish uchun materiallarni tayyorlashi shart.

Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki, O‘zbekiston Respublikasida voyaga yetmaganlarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, ularni jismonan sog‘lom va ma’naviy-axloqiy yetuk insonlar qilib tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Mamlakatimizda ushbu sohada mustahkam huquqiy baza shakllantirilgan bo‘lib, uning asosini Konstitutsiya, Oila, Jinoyat

kodekslari hamda “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”, “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida” va “Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi qonunlar tashkil etadi.

Voyaga yetmaganlar o‘rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshiruvchi organlar tizimi va ularning o‘zaro hamkorligi mexanizmlari yoritilgan. Shuningdek, ijtimoiy xavfli qilmishlar sodir etgan yoki muntazam ravishda g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlar qilayotgan voyaga yetmaganlarni reabilitatsiya qilish va jamiyatga moslashtirishga qaratilgan ixtisoslashtirilgan o‘quv-tarbiya muassasalari hamda ijtimoiy-huquqiy yordam ko‘rsatish markazlari faoliyatining huquqiy asoslari tahlil qilingan.

Umuman olganda, davlatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan kompleks chora-tadbirlar, jumladan, ta’lim olish huquqining kafolatlanishi, ijtimoiy himoyaga muhtoj yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi barkamol avlodni tarbiyalash hamda mamlakatda barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan asosiy adabiyotlar
va normativ huquqiy hujjatlar ro‘yhati

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T., 2023-yil
2. O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 16-sentyabrdagi “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-407-son Qonuni;
3. O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 14-sentyabrdagi “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi O‘RQ-406-son Qonuni.
4. O‘zbekiston Respublikasining 2010-yil 29-sentyabrdagi “Voyaga etmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to‘g‘risida”gi O‘RQ-263-son Qonuni;
5. O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 11-sentyabrdagi “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi 445-son Qonuni.
6. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 28-avgust kunidagi “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun xujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-558-son Qonuni
7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 3-avgustdagi “Voyaga etmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko‘rsatish markazlari to‘g‘risida”gi 490-son Qarori.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 2-apreldagi “Ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligini ta’minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi RQ-5050-son Qarori.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 11-avgust kunidagi «Ichki ishlar organlarining ozodlikdan mahrum etish bilan bog‘liq bo‘lgan jazoni ijro etish sohasidagi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 3200-sonli Qarori.

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 20-yanvardagi “Ichki ishlar organlarini xalqchil professional tuzilmaga aylantirish va aholi bilan yanada yaqin hamkorlikda ishlashga yo‘naltirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-10-son Qarori.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Qarorlari va O‘zbekiston Respublikasi vazirliklarining huquqiy-me’yoriy hujjatlari

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 15-avgust kunidagi «O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi huzuridagi jazoni ijro etish departamenti faoliyatini yanada samarali tashkil etish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida» gi 445-son Qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi IIVning 2012-yil 29-dekabrdagi «Ozodlikdan mahrum qilish turidagi jazoni ijro etish muassasalarining ichki tartib qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida»gi 174-sonli buyrug‘i.

3. O‘zbekiston Respublikasi IIVning 2012-yil 29-dekabrdagi «O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirligi tergov hibsxonalarining ichki tartib qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida»gi 175-sonli buyrug‘i.

4. O‘zbekiston Respublikasi IIVning 2023-yil 30-apreldagi «Ichki ishlar vazirligining jazoni ijro etish muassasalarida jazo muddatini o‘tayotgan mahkumlar bilan tarbiyaviy va ijtimoiy-psixologik ishlarni tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi yo‘riqnomani tasdiqlash haqida”gi 284-sonli buyrug‘i.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari

1. Sh.M. Mirziyoyev Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T., “O‘zbekiston”, 2016. – 56 b.;

2. Sh.M. Mirziyoyev Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T., “O‘zbekiston”, 2017. – 48.;

3. Sh.M. Mirziyoyev Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – T., “O‘zbekiston”, 2017. – 104 b.;

4. Sh.M. Mirziyoyev Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T., “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.

Darsliklar, O‘quv qo‘llanmalar

1. Ichki ishlar organlarida boshqaruvni tashkil etish: Ma’ruzalar kursi/ D.S.Muxamadaliev, J.S.Muxtorov, B.A.Saidov va boshq. – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2013. – 259 b.;

Internet saytlari

http://gov.uz /iiv/ (O‘zbekiston Respublikasi IIV);
http://ipkmvd.uz (O‘zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti);
http://akadmvd.uz (O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi);
http://lex.uz (O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi);

Ro‘ziyeva Gulsanam Sultonmurodovna
O‘zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti Maxsus-kasbiy fanlar kafedrasi dotsenti, s.f.b.f.d. (PhD), podpolkovnik

GIYOHVANDLIK MUAMMOSI VA UNING PROFILAKTIKASI

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy jamiyatda giyohvandlik muammosining dolzarbligi, uning jamiyat va yoshlar hayotiga salbiy ta’siri hamda ushbu illatning oldini olishga qaratilgan profilaktik chora-tadbirlar tahlil qilinadi. Shuningdek, giyohvandlikka qarshi kurashishda huquqiy mexanizmlar, davlat siyosati va profilaktika tizimining ahamiyati yoritiladi. Tadqiqot davomida giyohvandlikning oldini olish bo‘yicha samarali profilaktik choralarni kuchaytirish va takomillashtirish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: giyohvandlik, giyohvandlik muammosi, profilaktika, huquqiy choralar, yoshlar, jinoyatchilik, jamiyat, davlat siyosati.

ПРОБЛЕМА НАРКОМАНИИ И ЕЁ ПРОФИЛАКТИКА

Аннотация: В данной статье рассматривается проблема наркомании в современном обществе, её негативное влияние на общество и молодёжь, а также профилактические меры, направленные на предотвращение распространения данного явления. Особое внимание уделяется правовым механизмам борьбы с наркоманией, государственной политике и роли системы профилактики. В ходе исследования разработаны предложения и рекомендatsii по совершенствованию профилактических мер, направленных на предупреждение наркомании.

Ключевые слова: наркомания, проблема наркомании, профилактика, правовые меры, молодёжь, преступность, общество, государственная политика.

THE PROBLEM OF DRUG ABUSE AND ITS PREVENTION

Abstract: This article examines the problem of drug addiction in modern society, its negative impact on society and youth, as well as preventive measures aimed at preventing the spread of this phenomenon. Particular attention is paid to legal mechanisms in combating drug addiction, state policy, and the role of the prevention system. The study also develops recommendations for improving preventive measures aimed at preventing drug addiction.

Keywords: drug addiction, drug abuse problem, prevention, legal measures, youth, crime, society, state policy.

“Yurtimizdagi har bir bola, har bir yosh – bizning farzandimiz, ularni giyohvandlik changaliga tashlab qo‘yishga aslo yo‘l qo‘ymaymiz” [1].

Sh.M.Mirziyoyev

Giyohvandlik — insoniyat qarshisida turgan eng katta muammolardan biri. U nafaqat salomatlikka, balki iqtisodiyot va ijtimoiy munosabatlarga ham jiddiy zarar yetkazadi. U butun dunyo bo‘ylab keng tarqalgan global ofat bo‘lib, har qanday jamiyat uchun xavflidir. Hozirgi vaqtda giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning tarqalishi dunyodagi global tahdidlardan biriga aylanib, aholining sog‘lig‘iga, jamiyatdagi ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy barqarorlikka ham salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Zamonaviy jamiyatda giyohvandlik muammosi jamiyat salomatligi, huquqiy tartib va milliy xavfsizlik uchun jiddiy tahdid sifatida yuzaga kelmoqda. So‘nggi yillarda giyohvandlik moddalar tarqalishining global miqyosda ortib borayotgani va ularning yoshlar orasida kengayishi jiddiy ijtimoiy muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Ma’lumki, giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar inson sog‘lig‘i bilan birga uning aqliy, ruhiy va ijtimoiy holatiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi va ularga qaramlikni vujudga keltiradi.

Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma’lumotiga ko‘ra, giyohvand modda iste’mol qiluvchi shaxsning atrofidagi o‘rtacha 5–7 kishi ushbu moddalardan turli darajada jabr ko‘radi. Achinarli jihati, yashirin ravishda tarqatilayotgan psixofaol moddalar ko‘pincha yoshlarning hayotini barbod qilmoqda. Bu esa jamiyat kelajagi

uchun katta tahdid demakdir. BMT hisobotlariga koʻra, 2024-yilda dunyo boʻyicha 500 milliondan ortiq inson turli giyohvand moddalarni iste’mol qilgan, 200 mingdan ortiq kishi shu sababli hayotdan koʻz yumgan.

Giyohvand moddalar deganda insonning aqliy yoki jismoniy holatiga ta’sir qiladigan, muvaqqat ravishda eyforiya yoki boshqa oʻzgarishlarni keltirib chiqaradigan moddalar tushuniladi. Ayni paytda dunyoda ularning 20 ga yaqin turlari tayyorlanib, iste’mol qilinmoqda.

Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning qonunga xilof muomalasida raqamli texnologiyalar, Internet va darknetdan foydalanish tobora ommalashib bormoqda. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 27-yanvar kuni huquq-tartibot idoralari faoliyatini tanqidiy koʻrib chiqish, jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasida yangi vazifalarga bagʻishlangan yigʻilishida berilgan ma’lumotlarga koʻra, mazkur turdagi jinoyatlarning 68 foizi “telegramm” ijtimoiy tarmogʻi orqali, sintetik giyohvandlik vositalarining 95 foizi internet orqali sodir etilayotganligi hamda narkolaboratoriyalar mamlakat ichida ochilayotganligini ta’kidlagan [2].

Giyohvand moddalar ayniqsa 18-30 yoshlilar, xususan talabalar, ishsiz yoshlar va mehnat muhojirligida boʻlib qaytganlar orasida koʻp uchramoqda.

Giyohvandlik moddalari Oʻzbekistonga asosan kontrabanda yoʻli bilan Afgʻoniston, Tojikiston, Qirgʻiziston davlatlaridan kirib kelsa, sintetik dorilar esa ushbu davlatlar vositachiligida Rossiya va Yevropa davlatlaridan kirib kelmoqda.

Hozirgi vaqtda Oʻzbekistonda giyohvandlik vositalari, ularning analoglari va psixotrop moddalar hamda ularning qonunga xilof muomalasi uchun ma’muriy va jinoiy javobgarlik belgilangan.

Oʻzbekistonda giyohvandlikka qarshi kurashish davlat siyosati darajasiga koʻtarilib, huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan mazkur jinoyatlarni barvaqt oldini olish, aniqlash, fosh etish va chek qoʻyish hamda javobgarlik muqarrarligini ta’minlash borasida salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda.

Har yili 26 iyun —giyohvandlikka qarshi kurash kuni sifatida butun dunyoda nishonlanadi. Ushbu kun birinchi marta 1987-yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti

tomonidan jahon hamjamiyatini giyohvandlikka qarshi kurashishga jalb qilish, jamoatchilikni xabardor qilish va sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish maqsadida belgilangan. Kunni nishonlashning asosiy vazifasi — narkotik moddalarning salbiy oqibatlarini keng jamoatchilikka yetkazish, yoshlar va ularning oilalarini himoya qilish hamda profilaktik tadbirlarni kuchaytirishdan iborat. Har yili ushbu sanaga mos ravishda davlatimiz tomonidan ham giyohvandlik jinoyatlariga qarshi kurash, yoshlar va oilalarga profilaktika bo‘yicha ma’rifiy tadbirlar, jamoat uchrashuvlari va targ‘ibot-tashviqot ishlari amalga oshiriladi. Shuningdek, ushbu sana munosabati bilan O‘zbekiston bo‘ylab nafaqat rasmiy tadbirlar, balki yoshlar, o‘quvchi-talabalar, madaniy markazlar va sog‘lom hayot tarafdorlarining keng jamoatchilik tashabbuslari orqali giyohvandlikka qarshi “immunitet”ni oshirish va unga qarshi kurash strategiyasini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan tadbirlar olib boriladi [3].

Yurtimizda, avvalambor, giyohvandlik vositalarining qonunga xilof ravishda aylanishiga qarshi kurashish borasida salmoqli ishlar qilinmoqda. Bu to‘g‘risida to‘xtalganda, giyohvandlikka qarshi kurashish va uning oldini olishga qaratilgan mustahkam huquqiy baza yaratilganini alohida qayd etish lozim. Xususan, 1999-yil 19-avgustda “Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni qabul qilindi. Ushbu qonunning maqsadi giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning muomalada bo‘lishiga oid ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi hamda ularning qonunga xilof ravishda muomalada bo‘lishiga monelik qilish, fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash hamda davlat xavfsizligini ta’minlashdan iborat [4].

O‘tgan davr mobaynida O‘zbekiston Respublikasi giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanmasiga qarshi kurashish borasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratib kelmoqda. Shu maqsadda mamlakatimiz Birlashgan Millatlar Tashkilotining giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy muomalasini nazorat qilish hamda ularga qarshi kurashishga qaratilgan bir qator muhim xalqaro huquqiy hujjatlarini ratifikatsiya qilgan.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Birlashgan Millatlar Tashkilotining 1961-yildagi “Giyohvandlik vositalari to‘g‘risida”gi Yagona konvensiyasi, 1971-yildagi “Psixotrop moddalar to‘g‘risida”gi konvensiyasi hamda 1988-yildagi “Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy muomalasiga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi konvensiyasini ratifikatsiya qilgan [5].

Mazkur xalqaro hujjatlar giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning ishlab chiqarilishi, saqlanishi, tashilishi hamda tarqatilishi ustidan qat’iy nazorat o‘rnatish, ularning noqonuniy muomalasiga qarshi samarali kurashish hamda davlatlar o‘rtasida hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan. Ushbu konvensiyalarni ratifikatsiya qilish orqali O‘zbekiston Respublikasi xalqaro majburiyatlarni o‘z zimmasiga olgan holda, giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanmasiga qarshi kurashish bo‘yicha milliy qonunchilikni takomillashtirish, huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini yanada muvofiqlashtirish hamda xalqaro tajribadan keng foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ldi.

Shuningdek, ushbu konvensiyalar doirasida davlatlar o‘rtasida axborot almashish, qo‘shma operatsiyalar o‘tkazish, giyohvand moddalar kontrabandasiga qarshi kurashish hamda ularning noqonuniy muomalasi bilan shug‘ullanuvchi transmilliy jinoiy guruhlarga qarshi samarali choralar ko‘rish kabi masalalar ham nazarda tutilgan. Bu esa o‘z navbatida giyohvandlik vositalari bilan bog‘liq jinoyatlarning oldini olish, jamiyat salomatligini himoya qilish hamda mamlakat genofondini asrashda muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni ijrosini ta’minlash, shuningdek, mamlakatimizda giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanmasining barvaqt oldini olish, aholida ularni iste’mol qilishga qarshi “immunitet”ni shakllantirish orqali genofondimizga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni bartaraf etish maqsadida, Prezidentimiz tomonidan 2024-yil 6-may kuni “O‘zbekiston Respublikasida giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanmasiga chek qo‘yish orqali ularning aholi salomatligi va

mamlakatimiz genofondiga salbiy ta’sirini bartaraf etish strategik chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-73-son Farmoni imzolandi. Farmonga ko‘ra, giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurashish bo‘yicha 2024 — 2028 yillarga mo‘ljallangan milliy strategiya qabul qilindi [6].

Milliy strategiya doirasida quyidagi maqsadlarga erishish barcha davlat organlari va tashkilotlarning ustuvor vazifasi sifatida belgilandi:

aholi, ayniqsa, xotin-qizlar va yoshlarda «giyohvandlikka qarshi immunitet»ni, o‘quvchi va talabalar orasida kuchli ta’sir qiluvchi dorilarni iste’mol qilishga murosasiz munosabatni shakllantirish, ta’lim muassasalarida psixofaol moddalar tarqalishining oldini olishga qaratilgan yangi ta’sirchan targ‘ibot-tashviqot va tarbiyaviy-profilaktik mexanizmlarni joriy etish;

aholiga sifatli narkologik yordam ko‘rsatish tizimini yangi usullar asosida rivojlantirish, giyohvandlik va zaharvandlikning barvaqt profilaktikasi, diagnostikasi, davolash va tibbiy-ijtimoiy reabilitatsiyasi tizimini tubdan takomillashtirishga qaratilgan manzilli choralarni amalga oshirish;

giyohvandlik vositalari, psixotrop va kuchli ta’sir qiluvchi moddalar hamda prekursorlarning noqonuniy aylanmasining yangicha, ayniqsa, internet tarmog‘idagi usullariga barham berish, bu boradagi tezkor-qidiruv, tergov va ekspert-kriminalistik choralar kompleksini, birinchi navbatda raqamlashtirish orqali rivojlantirish;

davlat va xususiy tibbiyot muassasalari hamda dorixonalarning giyohvandlik vositalaridan tibbiyotda foydalanish amaliyotini nazorat qilish, shuningdek, farmasevtika korxonalari, giyohvandlik vositalarining ulgurji va chakana savdosi bilan shug‘ullanuvchi sub’ektlar mas’uliyatini oshirishning ta’sirchan mexanizmlarini yaratish;

giyohvandlikni davolash va narkojinoyatlarga qarshi kurashish sohasida ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish, bu yo‘nalishdagi ilmiy izlanishlar, xulosalar, yutuqlar va yangiliklarni amaliyotga joriy etish hamda ommaga yetkazishni ta’minlash [7].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 3-noyabrdagi “Aholi salomatligi va millat genofondini giyohvandlik va narkojinoyatlardan samarali himoya qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-207-sonli Farmoniga asosan, O‘zbekiston Respublikasida giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurashish bo‘yicha 2024-2028 yillarga mo‘ljallangan milliy strategiyaning ustuvor maqsadlariga erishish, giyohvandlik va uyushgan narkojinoyatchilikka qarshi kurashish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish orqali aholini, birinchi navbatda, yoshlar salomatligini hamda millat genofondini samarali himoya qilish bo‘yicha quyidagi asosiy maqsadli kompleks chora-tadbirlar belgilab berildi:

O‘zbekiston aholisining salomatligi va millat genofondiga jiddiy tahdid solayotgan giyohvandlik illatiga qarshi kurashish hamda bunga sabab bo‘layotgan uyushgan narkojinoyatchilikka chek qo‘yishga qaratilgan normativ-huquqiy, tezkor-profilaktik va tashkiliy-tarbiyaviy choralar kompleksini belgilash;

voyaga yetmaganlar va yoshlarimiz kelajagini giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalardan har tomonlama asrash – barcha darajadagi davlat organlari, tashkilotlari va muassasalarining dolzarb vazifasi ekanini alohida qayd etish hamda ularning bu boradagi mas’uliyatini tubdan oshirish [8].

Giyohvandlik nafaqat inson salomatligiga, balki ijtimoiy munosabatlar, iqtisodiy barqarorlik va huquqiy tizimlarga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Narkotik moddalar iste’moli insonning fikrlash qobiliyatini pasaytiradi, ijtimoiy faolligini kamaytiradi, oila buzilishi va jamiyatda izolyatsiya kabi muammolarni keltirib chiqaradi.

Giyohvandlikning oldini olish zamonaviy jamiyatda muhim ijtimoiy va huquqiy vazifalardan biri hisoblanadi. Mazkur muammoning oldini olish faqatgina huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyati bilan cheklanib qolmay, balki jamiyatning barcha qatlamlari – davlat organlari, ta’lim muassasalari, oilalar hamda jamoatchilikning hamkorligi asosida amalga oshiriladi. Chunki giyohvandlikning tarqalishi nafaqat shaxs salomatligiga, balki jamiyatning ijtimoiy barqarorligi va millat genofondiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Giyohvandlikning oldini olishda eng samarali usullardan biri bu profilaktika ishlari hisoblanadi. Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishdan iborat jinoyatlar profilaktikasi deganda, qonun hujjatlariga muvofiq huquq-tartibotni saqlash va mustahkamlash, giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishdan iborat jinoyatlarni aniqlash, bartaraf etish, oldini olish, ularning sodir etilishi sabablari va bunga imkoniyat yaratib berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, o‘rganish hamda bartaraf etish maqsadida davlat organlari va boshqa tashkilotlar, shuningdek fuqarolar tomonidan umumiy, maxsus, yakka tartibdagi va viktimologik profilaktika doirasida qo‘llaniladigan ijtimoiy, huquqiy, tashkiliy va boshqa chora-tadbirlar tizimi tushuniladi [9].

Profilaktika tadbirlari aholining turli qatlamlari, ayniqsa yoshlar o‘rtasida giyohvandlikning zararli oqibatlari haqida tushuntirish ishlari olib borish orqali amalga oshiriladi. Maktablar, akademik litseylar, kollejlar va oliy ta’lim muassasalarida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish, giyohvandlikning salbiy oqibatlari haqida ma’ruzalar, seminarlar va davra suhbatlarini o‘tkazish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, giyohvandlikning oldini olishda oilaviy muhit ham katta rol o‘ynaydi. Ota-onalarning farzandlar bilan muntazam muloqotda bo‘lishi, ularning qiziqishlari va muammolariga befarq bo‘lmasligi, sog‘lom hayot tarzini shakllantirishga e’tibor qaratishi yoshlarning turli zararli illatlarga berilib ketishining oldini olishga yordam beradi.

Bundan tashqari, davlat tomonidan giyohvandlikka qarshi kurashish bo‘yicha qator huquqiy va tashkiliy choralar amalga oshirilmoqda. Xususan, giyohvandlik moddalarning noqonuniy aylanmasiga qarshi kurashish, profilaktik tadbirlarni kuchaytirish, aholining huquqiy ongini oshirish hamda sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish bo‘yicha turli davlat dasturlari va strategik hujjatlar qabul qilingan [10].

Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishdan iborat jinoyatlar profilaktikasi sub’ektlari (o‘z vakolatlari

doirasida profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshiradigan organlar) profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshiradi.

Profilaktik chora-tadbir – giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishdan iborat jinoyatlar sodir etilishining oldini olish, ularning sodir etilishi sabablari va bunga imkoniyat yaratib berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etish maqsadida umumiy, maxsus, yakka tartibdagi va viktimologik profilaktika doirasida amalga oshiriladigan harakatlar yig‘indisidir. Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishdan iborat jinoyatlar profilaktikasi bo‘yicha faoliyatning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

shaxsning huquq, erkinlik va qonuniy manfaatlarini giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishdan iborat jinoyatlardan himoya qilish;

jamoat tartibni saqlash va jamoat xavfsizligini ta’minlash;

aholining huquqiy madaniyatini oshirish va fuqarolarda qonunga itoatkorlik xulq-atvorini shakllantirish;

giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishdan iborat jinoyatlar sodir etilishining oldini olish, ularning sodir etilishi sabablari va bunga imkoniyat yaratib berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etish;

giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishdan iborat jinoyatlar profilaktikasi sub’ektlarining faoliyati va hamkorligini muvofiqlashtirish.

Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishdan iborat jinoyatlar profilaktikasi sub’ektlari faoliyatini axborot bilan ta’minlash giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishdan iborat jinoyatlar profilaktikasi sub’ektlarining ixtisoslashtirilgan statistik hisobotlari tizimi, qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan jamoatchilik fikrini o‘rganish natijalari hamda ilmiy tadqiqotlardan foydalanish yo‘li bilan amalga oshiriladi. Davlat organlari va boshqa tashkilotlar

tahlil qilinayotgan jinoyatlar profilaktikasi sub’ektlarini tayyorlanayotgan yoki sodir etilgan giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishdan iborat jinoyatlar to‘g‘risida zudlik bilan xabardor qiladi. Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishdan iborat jinoyatlar profilaktikasini tashkil etish mazkur jinoyatlar profilaktikasi sub’ektlarining qonun hujjatlarida belgilangan vakolatlari doirasida amalga oshiriladi [11].

Giyohvandlikka qarshi kurashishda samarali natijalarga erishish uchun har tomonlama yondashuv zarur:

birinchidan, yoshlar o‘rtasidagi ma’rifiy va tarbiyaviy ishlar kuchaytirilishi lozim;

ikkinchidan, Internet orqali tarqatish holatlariga qarshi kiber-nazorat tizimlarini takomillashtirish zarur;

uchinchidan, har bir hududda sifatli va zamonaviy reabilitatsiya markazlari tashkil etilishi zarur;

to‘rtinchidan, ota-onalarni xabardor qilish, o‘qituvchilarni maxsus tayyorlov kurslaridan o‘tkazish;

beshinchidan, giyohvandlikka qarshi kurashda jazo choralaridan tashqari ma’rifatlilik, sog‘lom turmush tarzi targ‘iboti va ruhiy qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish;

oltinchidan, yoshlar uchun yanada keng ta’lim va ijtimoiy faollik imkoniyatlarini yaratish.

Xulosa qilib aytish mumkunki, O‘zbekiston sharoitida giyohvandlikka qarshi kurashda Prezident Shavkat Mirziyoyevning ta’lim, profilaktika va yoshlar salomatligini himoya qilishga qaratilgan tashabbuslari alohida ahamiyatga ega. Mazkur tadqiqotdan kelib chiqadigan xulosa shuki, giyohvandlikka qarshi kurashda profilaktika, huquqiy choralar va jamoatchilikning faol ishtiroki birgalikda qo‘llanilganda samaradorlik yuqori bo‘ladi.

Umuman olganda, giyohvandlikning oldini olish va uning salbiy oqibatlarini kamaytirish jamiyat, oila va davlatning birgalikdagi sa’y-harakatlari orqali amalga

oshirilishi mumkin. Shu bilan birga, ilmiy tadqiqotlar va xalqaro tajribalar asosida ishlab chiqilgan kompleks strategiyalar mamlakatda sog‘lom va barqaror jamiyatni shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 2025-йил 26-декабр.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2026-yil 27-yanvar kungi videoselektor yig‘ilishi. Huquq-tartibot idoralarining faoliyati tanqidiy ko‘rib chiqilib, jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasida yangi vazifalar belgilab berildi
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2024-yil 6-may kuni “O‘zbekiston Respublikasida giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanmasiga chek qo‘yish orqali ularning aholi salomatligi va mamlakatimiz genofondiga salbiy ta’sirini bartaraf etish strategik chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-73-son farmoni
4. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. “Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to‘g‘risida” 1999-yil 19-avgust
5. Single Convention on Narcotic Drugs (1961), New York, 30 March 1961; Convention on Psychotropic Substances (1971), Vienna, 21 February 1971; United Nations Convention against Illicit Traffic in Narcotic Drugs and Psychotropic Substances (1988), Vienna, 20 December 1988.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2024-йил 6-май куни “O‘zbekiston Respublikasida giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanmasiga chek qo‘yish orqali ularning aholi salomatligi va mamlakatimiz genofondiga salbiy ta’sirini bartaraf etish strategik chora-tadbirlari to‘g‘risida”ги ПФ-73-son farmoni
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2024-йил 6-май куни “O‘zbekiston Respublikasida giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanmasiga chek qo‘yish orqali ularning aholi salomatligi va mamlakatimiz genofondiga salbiy ta’sirini bartaraf etish strategik chora-tadbirlari to‘g‘risida”ги ПФ-73-son farmoni
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 3-noyabrdagi “Aholi salomatligi va millat genofondini giyohvandlik va narkojinoyatlardan samarali himoya qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-207-sonli Farmoni
9. О.С.Субанов. Гиёҳвандлик воситалари ёки психотроп моддалар билан қонунга хилоф равишда муомала қилиш жиноятларининг барвақт олдини олиш. Ўқув қўлланма. Ўзбекистон Республикаси ИИВ МОИ, 2023. Б-59.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2024-yil 6-may kuni “O‘zbekiston Respublikasida giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanmasiga chek qo‘yish orqali ularning aholi salomatligi va mamlakatimiz genofondiga salbiy ta’sirini bartaraf etish strategik chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-73-son farmoni
11. О.С.Субанов. Гиёҳвандлик воситалари ёки психотроп моддалар билан қонунга хилоф равишда муомала қилиш жиноятларининг барвақт олдини олиш. Ўқув қўлланма. Ўзбекистон Республикаси ИИВ МОИ, 2023. Б-62.

Mirzayev Jahongir Umirzoqovich
O‘zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti yetakchi ilmiy xodimi, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta ilmiy xodim, polkovnik

QAYTA JINOYATCHILIKNI KAMAYTIRISHGA QARATILGAN PROFILAKTIK CHORA-TADBIRLAR TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya: maqolada qayta jinoyatchilik (retsidiv jinoyatchilik)ning sabab va shart-sharoitlari tahlil qilinib, uni kamaytirishga qaratilgan profilaktik chora-tadbirlar tizimini takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, jinoyat sodir etgan shaxslar bilan individual ishlash, ijtimoiy reabilitatsiya, huquqiy tarbiya va institutsional hamkorlikni kuchaytirish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: qayta jinoyatchilik, profilaktika, retsidiv, reabilitatsiya, huquqiy tarbiya, kriminologiya, ijtimoiy xizmatlar, jazoni ijro etish, probatsiya, omillar, sabab va shart-sharoitlar.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ ПРОФИЛАКТИЧЕСКИХ МЕР, НАПРАВЛЕННЫХ НА СНИЖЕНИЕ РЕЦИДИВНОЙ ПРЕСТУПНОСТИ

Аннотация. В статье анализируются причины и условия рецидивной преступности, а также рассматриваются основные направления совершенствования системы профилактических мер, направленных на её снижение. Особое внимание уделяется вопросам индивидуальной работы с лицами, совершившими преступления, социальной реабилитации, правовому воспитанию и укреплению институционального взаимодействия между соответствующими органами и службами.

Ключевые слова: рецидивная преступность, профилактика, рецидив, реабилитация, правовое воспитание, криминология, социальные службы, исполнение наказаний, пробация, факторы, причины и условия.

IMPROVING THE SYSTEM OF PREVENTIVE MEASURES AIMED AT REDUCING RECIDIVISM

Abstract. The article analyzes the causes and conditions of recidivism and examines key directions for improving the system of preventive measures aimed at reducing it. Special attention is given to individualized work with offenders, social rehabilitation, legal education, and strengthening institutional cooperation among relevant bodies and services.

Keywords: recidivism, prevention, relapse, rehabilitation, legal education, criminology, social services, penal enforcement, probation, factors, causes and conditions.

Jamiyatda jinoyatchilikni kamaytirish davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, qayta jinoyat sodir etish holatlari jinoyatchilikning barqaror saqlanib qolishiga olib keluvchi muhim omillardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bois, qayta jinoyatchilikni oldini olishga qaratilgan samarali profilaktik mexanizmlarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Qayta jinoyatchilik — bu shaxs tomonidan ilgari jinoyat sodir etganidan so‘ng yana jinoyat sodir etishi holati bo‘lib, u kriminologiyada muhim o‘rin tutadi. Ushbu hodisa jamiyatdagi ijtimoiy muammolar, shaxsiy xususiyatlar va tashqi muhit ta’siri natijasida yuzaga keladi.

Qayta jinoyatchilikning darajasi jamiyatdagi huquqiy tizim samaradorligini baholashda muhim ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi.

Qayta jinoyatchilik ko‘p omilli ijtimoiy-huquqiy hodisa bo‘lib, uning kelib chiqishiga quyidagi omillar ta’sir ko‘rsatadi:

- ijtimoiy moslashuvning yetarli emasligi;
- ishsizlik va iqtisodiy qiyinchiliklar;
- ta’lim va kasb-hunarning yo‘qligi;
- muhit ta’siri (jinoyatchi muhitga qayta tushib qolish);
- jazoni ijro etish muassasalaridagi tarbiyaviy ishlar samaradorligining pastligi;

- jazo ijro etish muassasasidan qaytgan shaxslardagi “etiketlash” (tamg‘a bosish) oqibatida yuzaga keladigan depressiya va jamiyatdan ajralish;

- ozodlikdan mahrum qilish joylaridan qaytgan shaxslarni ish bilan ta’minlash va ularni ijtimoiy reabilitatsiya qilish mexanizmining yetarlicha ishlamasligi.

Mazkur omillar shaxsning qayta jinoyat sodir etishiga zamin yaratadi va ularni bartaraf etmasdan turib, jinoyatchilikni kamaytirish mushkul.

Qayta jinoyatchilikning kelib chiqishiga quyidagi sabab va shart-sharoitlar ta’sir ko‘rsatadi:

a) ijtimoiy omillar: ishsizlik; kam ta’minlanganlik; oilaviy muhitning nosog‘lomligi.

b) psixologik omillar: shaxsning ijtimoiy moslashuv qobiliyati pastligi; agressivlik va deviant xulq.

v) institutsional omillar: jazoni ijro etish muassasalarida tarbiyaviy ishlar samaradorligining pastligi; probatsiya tizimining yetarli darajada rivojlanmaganligi.

Qayta jinoyatchilikni kamaytirishga qaratilgan profilaktik chora-tadbirlar tizimi quyidagi yo‘nalishlarni qamrab olishi lozim:

a) individual profilaktika jinoyat sodir etgan shaxslar bilan manzilli ishlash muhim ahamiyatga ega. Bunda:

- psixologik yordam ko‘rsatish;

- huquqiy tushuntirish ishlari;

- har bir shaxs uchun alohida shaxsiy rivojlanish dasturlarini ishlab chiqish muhim hisoblanadi.

b) ijtimoiy reabilitatsiya jazoni o‘tab chiqqan shaxslarni jamiyatga qayta moslashtirish:

- ish bilan ta’minlash;

- kasb-hunar o‘rgatish;

- ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish orqali amalga oshiriladi.

v) ta’lim va huquqiy tarbiya aholi, ayniqsa yoshlar o‘rtasida huquqiy madaniyatni oshirish:

- jinoyatchilikning oldini olishda muhim omil;

- shaxsning huquqiy ongini shakllantiradi.

g) probatsiya tizimini rivojlantirish, ushbu xizmati orqali:

- nazorat va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni uyg‘unlashtirish;

- qayta jinoyatchilik xavfini kamaytirish mumkin.

d) institutsional hamkorlik qayta jinoyatchilikka qarshi kurashda:

- huquqni muhofaza qiluvchi organlar;

- mahalliy hokimiyat;

- ta’lim muassasalari;

- nodavlat tashkilotlar o‘rtasida hamkorlikni kuchaytirish talab etiladi.

Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, qayta jinoyatchilikni kamaytirishda:

- reabilitatsiya dasturlari;

- elektron nazorat vositalari;

- ijtimoiy xizmatlar tizimi muhim o‘rin tutadi.

Masalan, Yevropa davlatlarida probatsiya tizimi yuqori samaradorlikka ega bo‘lib, qayta jinoyatchilik darajasini sezilarli kamaytirishga xizmat qilmoqda.

Norvegiya va Shvetsiyada asosiy e’tibor jazolashga emas, balki mahkumni jamiyatga qaytarishga qaratiladi. U yerda mahkumlar qamoqda bo‘lgan davridayoq jamiyatda talab yuqori bo‘lgan kasblarga o‘qitiladi. Natijada, u yerda retsidiv (qayta jinoyat sodir etish) ko‘rsatkichi dunyodagi eng past ko‘rsatkich — 20% atrofida (solishtirish uchun, AQSHda bu ko‘rsatkich 60-70% ni tashkil etadi).

Singapur tajribasi: “Yellow Ribbon” (Sariq tasma) loyihasi orqali sobiq mahkumlarni ishga olgan ish beruvchilarga davlat tomonidan katta imtiyozlar beriladi va jamiyatda ularga nisbatan bag‘rikenglik muhiti yaratiladi.

So‘nggi uch yillikdagi statistik ma’lumotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, qayta jinoyat sodir etuvchilar orasida eng ko‘p uchraydigan yo‘nalishlar bu:

- mulkiy jinoyatlar: o‘g‘rilik va firibgarlik (jami jinoyatlarning asosiy qismini tashkil etadi);

- iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar: 2024-yilda eng ko‘p qayd etilgan soha hisoblanadi.

Hududiy koʻrsatkichlar: jinoyatchilik va retsidiv holatlari eng yuqori boʻlgan hududlar sifatida Toshken shahri, Fargʻona va Toshkent viloyatlari qayd etilgan.

Oʻrganishlar shuni koʻrsatadiki, ilgari sudlangan shaxslarning jamiyatga ijtimoiy moslashuvi masalasi hamon dolzarb boʻlib qolmoqda. Jazoni ijro etish tizimidan keyingi profilaktika va nazorat mexanizmini tubdan isloh qilish hamon zarurligicha qolmoqda.

Profilaktik chora-tadbirlar tizimini yanada samarali boʻlishi uchun quyidagilarni amalga oshirib borish lozim:

- raqamli monitoring tizimlarini joriy etish (shu jumladan: profilaktika inspektorlari uchun “xavf guruhi”ga mansub shaxslar bilan ishlashda zamonaviy IT-texnologiyalarni joriy etish);

- retsidiv xavfi yuqori boʻlgan shaxslarni erta aniqlash;

- probatsiya xizmatini rivojlantirish;

- jazoni ijro etish muassasalarida ta’lim va tarbiya ishlarini kuchaytirish;

- ijtimoiy reabilitatsiya, jumladan sobiq mahkumlarni kasbga yoʻnaltirish va ularni ishga qabul qilgan tadbirkorlar uchun soliq imtiyozlarini koʻpaytirish (bunda, ijtimoiy korxonalar tarmogʻi: faqat sobiq mahkumlar va ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslar ishlaydigan kichik ishlab chiqarish korxonalarini tashkil etish va ularni davlat buyurtmalari bilan ta’minlash yanada samarali hisoblanadi);

- jazoni ijro etish muassasasidan ozod etilishidan 3-6 oy oldin shaxs bilan individual psixologik tayyorgarlik ishlarini boshlash (shu jumladan, Bundan tashqari, har bir ozod etilgan shaxs uchun uning psixologik holati, ma’lumoti va jinoyat turidan kelib chiqqan holda “yoʻl xarita” (roadmap) ishlab chiqish).

- jamoatchilik nazoratini kengaytirish.

Shuningdek, “Ijtimoiy moslashtirish markazlari” faoliyatini tubdan qayta koʻrib chiqish va mahallabay ishlash tizimi orqali har bir shaxsga individual yondashish lozim.

Oʻzbekistonlik ayrim olim va tadqiqotchilar (professor Q.R. Abdurasulova, tadqiqotchilar X.I. Gʻozibekov, Sh.M. Rajabov, B.K. Adilov, B.A. Umirzakov) fikrlariga koʻra, “Qayta jinoyatchilikning oldini olishda shaxsning xulqini tuzatish,

ijtimoiy nazorat va huquqiy tarbiyani kuchaytirish asosiy omillardan hisoblanadi, qayta jinoyatchilikni kamaytirishda profilaktika hal qiluvchi ahamiyatga ega, ushbu tadbirlar ilmiy asosda tashkil etilishi kerak”.

Chet ellik ayrim olim va tadqiqotchilar (Travis Hirschi, Robert K. Merton, Michael Gottfredson, Travis Hirschi, James Q. Wilson, Cesare Beccaria, Émile Durkheim) fikrlariga ko‘ra, “Qayta jinoyatchilikni kamaytirishda profilaktika muhim ahamiyatga ega, jamiyat bilan bog‘lanish mustahkam bo‘lsa jinoyat kamayishi mumkin, ba’zan ijtimoiy tengsizlik jinoyatning asosiy sababi bo‘ladi”.

Bizning fikrimizcha, qayta jinoyatchilikni faqat ma’muriy nazorat va jazo choralarini kuchaytirish bilan hal etib bo‘lmaydi. Buning uchun ijtimoiy reabilitatsiya tizimini “ichki ishlar — mahalla — oila — ish beruvchi” zanjiri asosida qurish lozim. Profilaktik choralar shaxsning jamiyatda o‘z o‘rnini topishiga ko‘maklashishga yo‘naltirilgandagina kutilgan natijani beradi.

Xulosa o‘rnida qayd etish joizki, qayta jinoyatchilikni kamaytirish kompleks yondashuvni talab etadi. Faqat jazo choralari bilan cheklanib qolmasdan, profilaktika, ijtimoiy reabilitatsiya va tarbiyaviy ishlar uyg‘unligi ta’minlanishi lozim. Bu esa jamiyatda huquqiy tartibni mustahkamlashga xizmat qiladi hamda jinoyatchilik darajasini pasaytirish mumkin.

Foydalanilgan manbalar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. // https://www.lex.uz/acts/111453.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Probatsiya to‘g‘risida”gi Qonuni. // https://www.lex.uz/uz/docs/7050441
3. O‘zbekiston Respublikasining “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonuni. // https://www.lex.uz/acts/2387357
4. Kriminologiya: Darslik. – T.: TDYUU, 2023.
5. Abdurasulov Q. Jinoyatchilik profilaktikasi. – Toshkent, 2019.
6. Siegel L. Criminology: Theories, Patterns, and Typologies. – USA, 2018.
7. United Nations Office on Drugs and Crime (UNODC) Reports.
8. European Probation Rules.

Xaydarov Mirsaid Mirjabbarovich
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Narkotiklar va o‘qotar qurollarni nazorat qilish agentligi mas’ul xodimi, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

GIYOHVANDLIK VOSITALARINING NOQONUNIY MUOMALASIGA QARSHI KURASHDA JINOYAT-HUQUQIY CHORALARNI TAKOMILLASHTIRISH: O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QONUNCHILIGIDAGI MUAMMOLAR VA ISLOHOT YO‘NALISHLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasida giyohvandlik vositalari, ularning analoglari hamda psixotrop moddalar noqonuniy muomalasiga qarshi kurashish sohasidagi amaldagi jinoyat va ma’muriy qonunchilik kompleks tahlil qilinadi. Mavjud huquqiy bo‘shliqlar va qarama-qarshiliklar, xususan, jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishdagi muammolar, ayrim ijtimoiy xavfli qilmishlar uchun javobgarlikning mavjud emasligi (noqonuniy narkolaboratoriyalarni tashkil etish, jamoat joylarida giyohvandlik vositalarini iste’mol qilish va boshqalar), shuningdek, retsidiv jinoyatchilikning oldini olish mexanizmlarining yetarli darajada takomillashmaganligi yoritib beriladi. Shuningdek, qonun loyihasining asosiy yo‘nalishlari va ularning amaliy ahamiyati tahlil qilinadi. Muallif tomonidan jinoyat qonunchiligini tizimli ravishda takomillashtirish zarurati asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: jinoyat huquqi, narkojinoyatlar, noqonuniy muomala, giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar, jinoyatni kvalifikatsiya qilish, narkolaboratoriya, jinoyat javobgarligi, ma’muriy javobgarlik, retsidiv, qonunchilik islohotlari, O‘zbekiston.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ УГОЛОВНО-ПРАВОВЫХ МЕР ПРОТИВОДЕЙСТВИЯ НЕЗАКОННОМУ ОБОРОТУ НАРКОТИЧЕСКИХ СРЕДСТВ: ПРОБЛЕМЫ КВАЛИФИКАЦИИ И НАПРАВЛЕНИЯ РЕФОРМИРОВАНИЯ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Аннотация. В статье проводится комплексный анализ действующего уголовного и административного законодательства Республики Узбекистан в

сфере противодействия незаконному обороту наркотических средств, психотропных веществ и их аналогов. Выявляются существующие пробелы и противоречия в нормах права, включая вопросы квалификации деяний, связанных с незаконным оборотом наркотиков в различных количествах, отсутствием ответственности за отдельные общественно опасные деяния (организация нарколабораторий, потребление наркотических средств в общественных местах и др.), а также несовершенством механизмов предупреждения рецидива. Особое внимание уделяется анализу правоприменительной практики и разъяснений высших судебных органов. Рассматриваются основные положения разрабатываемого законопроекта, направленного на ужесточение ответственности за наркопреступления и устранение выявленных коллизий. Обосновывается необходимость системного совершенствования уголовного законодательства в целях повышения эффективности борьбы с наркопреступностью, защиты общественного здоровья и обеспечения безопасности общества.

Ключевые слова: уголовное право, наркопреступления, незаконный оборот наркотиков, психотропные вещества, квалификация преступлений, нарколаборатории, уголовная ответственность, административная ответственность, рецидив преступлений, законодательные реформы.

IMPROVEMENT OF CRIMINAL LAW MEASURES TO COMBAT ILLICIT DRUG TRAFFICKING: ISSUES OF LEGAL CLASSIFICATION AND DIRECTIONS FOR REFORMING THE LEGISLATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Abstract. This article provides a comprehensive analysis of the current criminal and administrative legislation of the Republic of Uzbekistan in the field of combating illicit trafficking in narcotic drugs, psychotropic substances, and their analogues. It identifies existing gaps and inconsistencies in legal norms, including issues related to the classification of offenses involving drug trafficking in various quantities, the absence of liability for certain socially dangerous acts (such as the organization of clandestine drug laboratories and the consumption of narcotic

substances in public places), as well as the imperfection of mechanisms for preventing recidivism. Particular attention is paid to the analysis of law enforcement practice and the interpretations of higher judicial authorities. The article also examines the key provisions of a draft law aimed at strengthening liability for drug-related crimes and eliminating identified legal conflicts. The necessity of systematic improvement of criminal legislation is substantiated in order to enhance the effectiveness of combating drug crime, protect public health, and ensure public safety.

Keywords: criminal law, drug-related crimes, illicit drug trafficking, psychotropic substances, classification of crimes, drug laboratories, criminal liability, administrative liability, recidivism, legislative reforms.

Bugungi kunda mamlakatimiz sud-huquq tizimida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarning asosiy yo‘nalishlaridan biri bu jinoyat qonunchiligini yanada liberallashtirish va takomillashtirish hisoblanadi. Amaldagi jinoyat qonunchiligi va sud-tergov amaliyotining tahlili, jinoyat qonunida o‘z yechimini kutayotgan muammolar mavjudligini ko‘rsatmoqda.

Xususan, bugungi kunda giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarning noqonuniy muomalasi bilan bog‘liq qilmishlar uchun jinoiy javobgarlik belgilangan normalarda quyidagi bo‘shliqlar va qarama-qarshiliklar mavjud:

1) **JK 273-moddasi 1-qismi**da giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni o‘tkazish maqsadini ko‘zlab ko‘p bo‘lmagan miqdorda qonunga xilof ravishda tayyorlash, olish, saqlash, tashish yoki jo‘natish, shuningdek ularni ko‘p bo‘lmagan miqdorda qonunga xilof ravishda o‘tkazish uchun javobgarlik belgilangan.

Oz, ko‘p bo‘lmagan, ozginadan ko‘p va ko‘p (**VMning-330-son qarori**, 12.11.2015)

MJtKning 56-moddasida esa giyohvandlik vositalarini, ularning analoglarini yoki psixotrop moddalarni o‘tkazish maqsadini ko‘zlamay oz miqdorda

g‘ayriqonuniy ravishda tayyorlash, olish, saqlash, tashish yoki jo‘natish uchun javobgarlik nazarda tutilgan.

O‘z o‘rnida savol tug‘iladi: shaxs giyohvandlik vositalarini oz miqdorda o‘tkazsa, uning qilmishi qanday kvalifikatsiya qilinadi?

Mazkur masala bo‘yicha Oliy sud Plenumining **2017-yil 28-apreldagi 12-son qarori 4-bandi ikkinchi xatboshisi**da giyohvandlik vositalari, ularning analoglari, psixotrop moddalar o‘tkazish maqsadini ko‘zlamay oz miqdorda qonunga xilof ravishda tayyorlash, olish, saqlash, tashish yoki jo‘natish uchun aybdorlar barcha hollarda ma’muriy javobgarlikka tortilishi, agar mazkur harakatlar o‘tkazish maqsadini ko‘zlab sodir etilsa, qilmish **JK 273-moddasi**ning birinchi qismi bilan kvalifikatsiya qilinishi bo‘yicha tushuntirishlar berilgan.

Biroq, ushbu tushuntirish **JK 273-moddasi 1-qismiga** zid hisoblanadi.

Umuman olganda, amaldagi qonunchilikda giyohvandlik vositalarini oz miqdorda o‘tkazganlik uchun javobgarlik belgilanmagan.

2) g‘ayriqonuniy narkolaboratoriya tashkil etganlik uchun javobgarlik belgilanmagan;

Amaldagi **JK 273-moddasi 4-qismi**da faqatgina giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni laboratoriyalarda yoxud o‘zganing mulki hisoblangan vositalar va asbob-uskunalardan yoki prekursorlardan foydalangan holda qonunga xilof ravishda tayyorlash yoki qayta ishlash uchun javobgarlik belgilangan.

Bugungi kunda ko‘p tarqalgan sintetik narkotiklar aynan yashirin laboratoriyalarda tayyorlanmoqda. **2021-2025** yillarda **33** ta, **2026-yilning 3 oyining** o‘zida 10 ta narkolaboratoriya aniqlangan.

3) giyohvandlik vositalari, psixotrop yoki kuchli ta’sir qiluvchi moddalarni jamoat joylarida iste’mol qilganlik uchun javobgarlik mavjud emas;

Amaldagi qonunchilikda jamoat joyida spirtli ichimlik iste’mol qilganlik uchun javobgarlik mavjud (**MJtK 187-m.**). Aholi ko‘z o‘ngida narkotik moddani iste’mol qilish bunday g‘ayriijtimoiy qilmishni targ‘ib qilishdek xavfli xususiyatga ega.

4) **JK 273-moddasi 5-qismi**da giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni ko‘p miqdorda faqatgina sotganlik uchun javobgarlik belgilangan bo‘lib, ushbu vosita yoki moddalarni ko‘p miqdorda boshqa usullarda (tekinga berish, qarzi evaziga berish va h.k.) o‘tkazish holatini normaning ushbu qismi bilan kvalifikatsiya qilib bo‘lmaydi;

5) **JK 73-moddasi 4-qismi “g” bandi**da jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish qo‘llanilmaydigan jinoyatlar keltirilgan bo‘lib, ushbu bandga narkojinoyatlar kiritilmagan.

Vaholanki, narkojinoyat uchun **7 yilga** ozodlikdan mahrum etilgan shaxs o‘rtacha 3 yil 4 oyda ozodlikka chiqmoqda. **So‘nggi 4 yilda** bu toifadagi jinoyatlarni takroran sodir etgan shaxslar soni **125 foizga** oshgan.

6) alohida toifadagi kuchli ta’sir qiluvchi moddalarni o‘tkazish maqsadini ko‘zlamay qonunga xilof ravishda tayyorlash, olish, saqlash, tashish yoki jo‘natish, ya’ni **251^2-modda**da nazarda tutilgan jinoyatning og‘irlashtiruvchi tarkiblari mavjud emas;

7) prekursorlarning qonunga xilof muomalasi uchun, shuningdek, qonuniy muomalasi tartibini buzganlik uchun javobgarlik belgilanmagan.

Yuqoridagi masalalarni hal etish maqsadida Agentlik tomonidan narkojinoyatlar uchun javobgarlikni kuchaytirishga qaratilgan Qonun loyihasi ishlab chiqilgan.

Loyiha bilan:

(a) Jinoyat kodeksiga:

narkotiklarning noqonuniy muomalasiga hokimiyat (mansab) vakolatlarini suiiste’mol qilish yo‘li bilan homiylik (rahnamolik) qilish yoki bunday jinoyatlar fosh bo‘lishining oldini olish maqsadida xabar berish (5 yildan 20 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish);

g‘ayriqonuniy narkolaboratoriya tashkil etish va uning faoliyat yuritishini ta’minlash (5 yildan 20 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish);

Amalda ushbu jinoyat uchun javobgarlik mavjud emas, bugungi kunda ko‘p tarqalgan cintetik narkotiklar aynan yashirin laboratoriyalarda tayyorlanmoqda. 2021-2025 yillarda 33 ta, j.y. 3 oyining o‘zida 10 ta narkolaboratoriya aniqlangan.

(b) Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksga giyohvandlik vositalari, psixotrop yoki kuchli ta’sir qiluvchi moddalarni jamoat joylarida iste’mol qilganlik uchun javobgarlik kiritilmoqda (15 sutka ma’muriy qamoq);

Amaldagi qonunchilikda jamoat joyida spirtli ichimlik iste’mol qilganlik uchun javobgarlik mavjud (MJtK 187-m.). Aholi ko‘z o‘ngida narkotik moddani iste’mol qilish bunday g‘ayriijtimoiy qilmishni targ‘ib qilishdek xavfli xususiyatga ega.

Shuningdek, bu turdagi jinoyatlar qayta sodir etilishining oldini olish maqsadida jinoiy javobgarlik choralari quyidagicha og‘irlashtirilmoqda:

ayrim narkojinoyatlar uchun jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish tartibi qo‘llanilmasligi belgilanmoqda;

narkotiklarni o‘tkazish maqsadini ko‘zlab ko‘p miqdorda tayyorlash, qayta ishlash, olish, saqlash, tashish yoki jo‘natish, shuningdek, ularni noqonuniy ravishda har qanday usulda o‘tkazish uchun 10 yildan 20 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi nazarda tutilmoqda (amalda 5 yildan 7 yilgacha);

kuchli ta’sir qiluvchi moddalarni ta’lim tashkilotlarida, ozodlikdan mahrum qilish joylarida, Internet tarmog‘idan foydalanib, xavfli yoki o‘ta xavfli retsidivist tomonidan muomalaga kiritish uchun 5 yildan 10 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi belgilanmoqda (amalda 3 yildan 5 yilgacha);

alohida toifadagi kuchli ta’sir moddalarning noqonuniy muomalasini (o‘tkazish maqsadisiz) ko‘p miqdorda va takroran sodir etish uchun 3 yildan 5 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi o‘rnatilmoqda (amalda 3 yilgacha);

narkotik moddalarni iste’mol qilishga jalb etish odam o‘limiga yoki boshqa og‘ir oqibatlarga sabab bo‘lganda 5 yildan 10 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi belgilanmoqda (amalda 3 yildan 5 yilgacha).

Bundan tashqari, voyaga yetmaganlar va talabalarni narkojinoyatlardan himoya qilish maqsadida quyidagi qilmishlar uchun javobgarlik og‘irlashtirilmoqda:

– talabalar yotoqxonalari, bolalar oromgohlarida yoki ta’lim tashkilotlariga tutash hududlarda kuchli ta’sir qiluvchi moddalarni o‘tkazish uchun 5 yildan 10 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosini belgilash (amalda 3 yildan 5 yilgacha);

– voyaga yetmagan shaxsni kuchli ta’sir qiluvchi moddani iste’mol etishga jalb qilganlik uchun to‘g‘ridan to‘g‘ri jinoiy javobgarlik (amalda ma’muriy jazo qo‘llaniladi, keyin jinoiy) belgilash, shuningdek, ularni ushbu moddalarni aynan ta’lim tashkilotlari, talabalar yotoqxonalari, bolalar oromgohlarida yoki ularga tutash hududlarda iste’mol qilishga jalb qilish uchun 5 yildan 10 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosini nazarda tutilmoqda (amalda mavjud emas).

Bugungi kunda loyiha Oliy Majlis Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilinib, Senatga yuborilgan.

Fikrimizcha, mazkur Qonunning qabul qilinishi aholi salomatligi va millat genofondini narkotahdidlardan ishonchli himoya qilish hamda narkojinoyatlarga qarshi kurashish faoliyati samaradorligi oshishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. – Toshkent: Adolat, oxirgi tahrir.
2. O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi. – Toshkent: Adolat, oxirgi tahrir.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 12-noyabrdagi 330-son qarori “Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va ularning prekursorlari miqdorlarini aniqlash mezonlari to‘g‘risida”.
4. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2017-yil 28-apreldagi 12-son qarori “Giyohvandlik vositalari, ularning analoglari va psixotrop moddalarga oid ishlar bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”.
5. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: 2023-yilgi yangi tahrir.
6. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilingan narkojinoyatlar uchun javobgarlikni kuchaytirishga oid Qonun loyihasi materiallari.
7. O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi va vakolatli organlarining 2021–2026-yillar davomida narkolaboratoriyalar aniqlanishi bo‘yicha statistik ma’lumotlari.
8. Kriminalistika va jinoyat huquqi bo‘yicha ilmiy adabiyotlar:
– Rustambayev M.H. Jinoyat huquqi. Maxsus qism. – Toshkent.
9. – Saidov A.X., Ochilov B. Jinoyat huquqi nazariyasi. – Toshkent.
10. BMTning giyohvandlik va jinoyatchilik bo‘yicha boshqarmasi (UNODC) hisobotlari: World Drug Report. – United Nations Office on Drugs and Crime, so‘nggi nashrlar.

Tulebayev Baxrom Raxmonberdiyevich
Toshkent shahar Ichki ishlar bosh boshqarmasi
JTSB nazorat litsenziya bo‘limi boshlig‘i, podpolkovnik

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA QUROL MUOMALASI SOHASINI HUQUQIY TA’MINLASHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATI

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasida qurol, o‘q-dorilar va portlovchi moddalar muomalasini huquqiy tartibga solishning o‘ziga xos jihatlari tahlil qilingan. Qurol muomalasi sohasidagi milliy qonunchilikning asosiy yo‘nalishlari, jumladan litsenziyalash, ruxsat berish tizimi, davlat nazorati va subyektlar doirasi yoritilgan. Shuningdek, qurol turlarining huquqiy tasnifi, fuqaroviy quroldan foydalanish shartlari hamda ushbu sohada huquqbuzarliklar uchun javobgarlik choralari ko‘rib chiqilgan. Tahlillar asosida mamlakatda qurol muomalasini samarali nazorat qilish jamoat xavfsizligini ta’minlash va huquqbuzarliklarning oldini olishda muhim ahamiyat kasb etishi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: qurol muomalasi, o‘q-dorilar, huquqiy tartibga solish, litsenziyalash, jamoat xavfsizligi, fuqaroviy qurol, xizmat quroli, jinoiy javobgarlik, ma’muriy javobgarlik, davlat nazorati.

ОСОБЕННОСТИ ПРАВОВОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ ОБОРОТА ОРУЖИЯ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН

Аннотация. В статье анализируются особенности правового регулирования оборота оружия, боеприпасов и взрывчатых веществ в Республике Узбекистан. Рассматриваются основные направления национального законодательства, включая лицензирование, разрешительную систему, государственный контроль и круг субъектов, имеющих право на оборот оружия. Освещаются вопросы правовой классификации видов оружия, условий использования гражданского оружия, а также меры ответственности за правонарушения в данной сфере. Обосновывается, что эффективное

регулирование оборота оружия играет ключевую роль в обеспечении общественной безопасности и предупреждении правонарушений.

Ключевые слова: оборот оружия, боеприпасы, правовое регулирование, лицензирование, общественная безопасность, гражданское оружие, служебное оружие, уголовная ответственность, административная ответственность, государственный контроль.

SPECIFIC FEATURES OF LEGAL REGULATION OF ARMS CIRCULATION IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Abstract: This article analyzes the specific features of legal regulation of the circulation of arms, ammunition, and explosive materials in the Republic of Uzbekistan. It examines the main directions of national legislation, including licensing procedures, permit systems, state control, and the range of authorized entities. The study also highlights the legal classification of weapons, conditions for civilian use, and liability measures for violations in this sphere. It is substantiated that effective regulation of arms circulation plays a crucial role in ensuring public safety and preventing offenses.

Keywords: arms circulation, ammunition, legal regulation, licensing, public safety, civilian weapons, service weapons, criminal liability, administrative liability, state control.

Jamoat tartibi va xavfsizlikni ta’minlash hamda huquqbuzarliklarning oldini olishda qurol, o‘q-dorilar hamda portlovchi moddalar muomalasini huquqiy tartibga solish hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Ayrim davlatlarda fuqaroviy qurol va portlovchi moddalardan noqonuniy foydalanish holatlari, jumladan terrorizm va ommaviy zo‘ravonliklarda qo‘llanishi, ushbu sohada davlat tomonidan doimiy nazoratni talab etilishini ko‘rsatmoqda.

Tahlillarga ko‘ra, mamlakatimizda 2020 - 2025-yillar oralig‘ida jami 12 ming 562 dona(2020 y. – 874 d., 2021 y. – 994 d., 2022 y. – 1 447 d., 2023 y. – 3 222 d., 2024 y. – 2 951 d. va 2025 y. – 3 074 d.) qurol hamda 57 ming 770 dona(2020 y. – 6 042 d., 2021 y. – 3 448 d., 2022 y. – 19 561 d., 2023 y. – 9 189 d., 2024 y. – 11 430

d. va 2025 y. – 8 100 d.) noqonuniy muomalada bo‘lgan o‘q-dorilari olinganligi ushbu yo‘nalishda olib borilayotgan chora-tadbirlarni doimiy amalga oshirish naqadar muhimligini ko‘rsatadi.



O‘zbekiston Respublikasida qurol muomalasini tartibga soluvchi asosiy 3 ta Qonun, 6 ta Vazirlar Mahkamasining qarorlari va 2 ta Ichki ishlar vazirligining buyrug‘lari bilan amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida fuqaroviy va xizmat quroli hamda uning o‘q-dorilari muomalasi ustidan davlat nazorati ichki ishlar organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Qonunga asosan, “Qurol to‘g‘risida”gi Qonun[1] qabul qilinib, qurol va uning o‘q-dorilar muomalasini tartibga soluvchi quyidagi asosiy masalalar huquqiy jihatdan belgilandi:

birinchidan, qurol muomalasiga oid asosiy tushunchalar, prinsiplar va subyektlar aniqlashtirildi;

ikkinchidan, qurol turlarining (“fuqaroviy”, “xizmat”, “jangovar”) huquqiy tasnifi ishlab chiqildi;

uchinchidan, litsenziyalash va ruxsatnoma berish tartibi, davlat organlarining vakolatlari belgilandi;

to‘rtinchidan, qurol va o‘q-dorilarni majburiy sertifikatlash tizimi joriy etildi;

[1] O‘zbekiston Respublikasining “Qurol to‘g‘risida” 29.07.2019-yildagi O‘RQ-550-son, Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 07.02.2024 y., 03/24/905/0106-son.

beshinchidan, ijtimoiy xavfi yuqori bo‘lgan ayrim qurol turlarining muomalasiga cheklovlar o‘rnatildi va harbiylashtirilgan tashkilotlarni qurollantirish tartibi belgilab qo‘yildi;

oltinchidan, chet el diplomatik vakolatxonalari va xorijiy fuqarolar qurol muomalasiga oid huquqiy qoidalar, shuningdek qurol va o‘q-dorilarni olib qo‘yishning huquqiy asoslari belgilandi;

yettinchidan, qurol ishlab chiqaruvchi va sotuvchi subyektlarning faoliyati huquqiy tartibga solindi.

Jumladan, “qurol muomalasi” deganda — qurolni va uning o‘q-dorilarini, o‘qotar qurolning asosiy qismlarini ishlab chiqarish, ta’mirlash, realizatsiya qilish, olish, hisobga olish, saqlash, olib yurish, tashish, kolleksiyalash, ko‘rgazmaga qo‘yish, ulardan foydalanish, ularni olib qo‘yish, yo‘q qilish, O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish va O‘zbekiston Respublikasi hududidan olib chiqish, shuningdek ularni O‘zbekiston Respublikasi hududi orqali tranzit qilish bilan bog‘liq huquqiy munosabatlar tushuniladi.

Qurol mo‘ljallanilgan maqsadi hamda asosiy parametrlari va tavsiflariga ko‘ra fuqaroviy qurol, xizmat quroli va jangovar qurol turlariga bo‘linadi.

Fuqaroviy qurol - ov va sport bilan shug‘ullanish uchun, shuningdek o‘zini o‘zi himoya qilish maqsadida foydalanish uchun mo‘ljallangan qurol fuqaroviy qurol jumlasiga kiradi.

Xizmat quroli - fuqarolarning hayoti va sog‘lig‘ini, mol-mulkni himoya qilishga, tabiatni va tabiiy resurslarni, qimmatbaho va xavfli yuklarni, maxsus xat-xabarlarni muhofaza qilishga doir vazifalarni bajarish chog‘ida yuridik shaxslarning (bundan buyon matnda maxsus xizmat vazifalariga ega yuridik shaxslar deb yuritiladi) xodimlari tomonidan, shuningdek davlat organlarining mansabdor

shaxslari tomonidan shaxsiy xavfsizlikni ta’minlash maqsadida foydalanish uchun mo‘ljallangan qurol xizmat quroli jumlasiga kiradi.

Jangovar qurol - O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat xavfsizlik xizmati, O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi, Davlat bojxona qo‘mitasi, Elektron texnologiyalarini rivojlantirish markazi, Favqulodda vaziyatlar vazirligining, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligining harbiy tuzilmalari (bundan buyon matnda maxsus organlar va harbiy tuzilmalar deb yuritiladi) qurollantirilgan yoki qurollantirishga mo‘ljallangan, jangovar harakatlarni olib borish hamda xizmat vazifalarini bajarish uchun mo‘ljallangan qurol jangovar qurol jumlasiga kiradi.

Qurolni va uning o‘q-dorilarini olish huquqiga ega bo‘lgan subyektlar:

1. Maxsus organlar va harbiy tuzilmalar;

2. Maxsus xizmat vazifalariga ega yuridik shaxslar;

3. Qurolni va uning o‘q-dorilarini ishlab chiqarish bilan shug‘ullanuvchi yuridik shaxslar;

4. Qurolni va uning o‘q-dorilarini realizatsiya qilish bilan shug‘ullanuvchi yuridik shaxslar;

5. Ovchilik va otish sporti sohasidagi faoliyat bilan shug‘ullanuvchi yuridik shaxslar;

6. Qurolni kolleksiyalash yoki ko‘rgazmaga qo‘yish bilan shug‘ullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslar;

7. O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari;

8. Chet el fuqarolari;

9. O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashovchi fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar.

O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari tomonidan quyidagi yoshda fuqaroviy qurol va uning o‘q-dorilarini olish huquqiga ega:

1) O‘zbekiston Respublikasining 25 yoshga to‘lgan fuqarolar fuqaroviy qurolni va uning o‘q-dorilarini.

2) O‘zbekiston Respublikasining 18 yoshga to‘lgan fuqarolari fuqaroviy sport qurolini va o‘zini o‘zi himoya qilish qurolini.

O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi fuqaroviy ov quroli va uning o‘q-dorilarini birinchi marotaba olishdan oldin, ovchilar jamoat birlashmasi tomonidan fuqarolarni hayvonot dunyosini muhofaza qilish va ov qilish, qurol bilan muomalada bo‘lish va undan xavfsiz foydalanish qoidalariga o‘qitish bo‘yicha tashkil etiladigan huquqiy-nazariy va amaliy o‘quv mashg‘ulotlari majmuasidan iborat “Quroldan xavfsiz foydalanish qoidalariga o‘qitish bo‘yicha qisqa muddatli maxsus o‘quv kurslari”da o‘qitilgandan va maxsus tekshiruvlardan o‘tkazilgandan so‘ng ruxsat beriladi.

O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi olgan, uning egaligida turgan soyli stvolli o‘qotar ov qurolining umumiy soni uchtadan, pnevmatik ov qurolining umumiy soni uchtadan, silliq stvolli o‘qotar qurolning umumiy soni beshtadan (jami 11 dona) oshmasligi kerak, bundan mazkur qurol turlari kolleksiyalash yoki ko‘rgazmaga qo‘yish obyektlari bo‘lgan hollar mustasno.

Chet el fuqarolari va O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashovchi fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar o‘z mulkidagi fuqaroviy qurolni hamda uning o‘q-dorilarini ichki ishlar organlarining fuqaroviy qurolni realizatsiya qilishga doir ruxsatnomalari asosida, fuqaroviy va xizmat qurolini hamda uning o‘q-dorilarini realizatsiya qilish uchun litsenziyaga ega bo‘lgan yuridik shaxslar orqali sotish huquqiga ega.

Javobgarlik masalalari bo‘yicha:

MJtKning 220-modda. Qurolning va uning o‘q-dorilarining muomalada bo‘lishi qoidalarini buzish

Ichki ishlar organlarining tegishli ruxsatnomasiga ega bo‘lgan jismoniy shaxslarning fuqaroviy, mukofot tarzida berilgan, kolleksiyalash, ko‘rgazmaga qo‘yish uchun mo‘ljallangan qurolni va uning o‘q-dorilarini realizatsiya qilish, olish, saqlash, olib yurish, tashish, kolleksiyalash, ko‘rgazmaga qo‘yish qoidalarini buzishi —

bazaviy hisoblash miqdorining besh baravaridan yetti baravarigacha miqdorda jarima solishga yoki haqini to‘lab shu qurolni va o‘q-dorilarni olib qo‘yishga sabab bo‘ladi.

Xuddi shunday huquqbuzarlik ma’muriy jazo chorasi qo‘llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etilgan bo‘lsa, —

qurolni va o‘q-dorilarni musodara qilib yoki musodara qilmay, bazaviy hisoblash miqdorining o‘n baravaridan o‘n besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.

Xizmat qurolini va uning o‘q-dorilarini saqlash, olib yurish hamda ulardan foydalanish qoidalarini xizmat qurolidan va uning o‘q-dorilaridan foydalanish huquqiga ega bo‘lgan davlat organlarining mansabdor shaxslari hamda maxsus xizmat vazifalariga ega bo‘lgan yuridik shaxslarning xodimlari tomonidan buzish, xuddi shuningdek qurolni va uning o‘q-dorilarini, o‘qotar qurolning asosiy qismlarini olish, berish, hisobga olish, realizatsiya qilish, tashish, saqlash, kolleksiyalash, ko‘rgazmaga qo‘yish qoidalarini ichki ishlar organlarining tegishli ruxsatnomalariga ega bo‘lgan yuridik shaxslarning qurol va uning o‘q-dorilari, o‘qotar qurolning asosiy qismlari but saqlanishini, ularning belgilangan tartibda berilishi-qabul qilib olinishini hamda hisobga olinishini ta’minlashga doir majburiyatlar o‘z zimmasiga yuklatilgan mas’ul xodimlari tomonidan buzish —

bazaviy hisoblash miqdorining besh baravaridan o‘n baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.

Ushbu moddaning uchinchi qismida nazarda tutilgan huquqbuzarlik ma’muriy jazo chorasi qo‘llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etilgan bo‘lsa, —

bazaviy hisoblash miqdorining o‘n baravaridan o‘n besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.

Qurolni va uning o‘q-dorilarini, o‘qotar qurolning asosiy qismlarini qabul qilish, hisobga olish hamda sotish qoidalarini fuqaroviy va xizmat qurolini hamda uning o‘q-dorilarini realizatsiya qilishga doir litsenziyaga ega bo‘lgan yuridik shaxslarning mansabdor shaxslari tomonidan buzish —

bazaviy hisoblash miqdorining o‘n besh baravari miqdorida jarima solishga sabab bo‘ladi.

Ichki ishlar organlarining tegishli ruxsatnomalari rasmiylashtirilgan fuqaroviy va xizmat quroliga tovushsiz o‘q uzish moslamalarini hamda tunda ko‘rish mo‘ljallagichlarini (bundan ov qilish uchun mo‘ljallagichlar mustasno) o‘rnatish —

tovushsiz o‘q uzish moslamalarini va tunda ko‘rish mo‘ljallagichlarini musodara qilib, bazaviy hisoblash miqdorining besh baravari miqdorida jarima solishga sabab bo‘ladi.

MJtKning 221-modda. Qurolni ro‘yxatdan o‘tkazish (qayta ro‘yxatdan o‘tkazish) qoidalarini yoki uning muomalasi sohasidagi ruxsatnomalarning amal qilish muddatini uzaytirish qoidalarini buzish

Fuqaroviy, xizmat qurolini, mukofot tarzida berilgan, kolleksiyalash, ko‘rgazmaga qo‘yish uchun mo‘ljallangan qurolni va uning o‘q-dorilarini ichki ishlar organlarida ro‘yxatdan o‘tkazish (qayta ro‘yxatdan o‘tkazish) qoidalarini, shuningdek ichki ishlar organlarining qurolni saqlashga va olib yurishga, saqlashga, kolleksiyalashga yoki ko‘rgazmaga qo‘yishga doir ruxsatnomalarining amal qilish muddatlarini uzaytirish qoidalarini buzish, —

bazaviy hisoblash miqdorining o‘ndan bir qismidan ikkidan bir qismigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.

MJtKning 185-modda. Quroldan belgilangan tartibni buzgan holda foydalanish

Pnevmatik, uloqtirish, signal beruvchi quroldan belgilangan tartibni buzgan holda otish, shuningdek tig‘li sovuq quroldan (ov pichoqlari, ov xanjarchalari va xanjarlardan, rapiralar, shpagalar va qilichlardan) belgilangan tartibni buzgan holda foydalanish —

qurolni va o‘q-dorilarni musodara qilib yoki musodara qilmay, bazaviy hisoblash miqdorining besh baravaridan o‘n baravarigacha miqdorida jarima solishga sabab bo‘ladi.

O‘qotar quroldan belgilangan tartibni buzgan holda otish —

qurolni va o‘q-dorilarni musodara qilib yoki musodara qilmay, bazaviy hisoblash miqdorining o‘n baravaridan o‘n besh baravarigacha miqdorida jarima solishga sabab bo‘ladi.

JKning 248-modda. O‘qotar qurolning, o‘q-dorilarning, o‘qotar qurol asosiy qismlarining, portlovchi moddalarning, portlatish vositalarining yoki portlatish qurilmalarining qonunga xilof muomalasi

Tegishli litsenziyalarsiz yoki ruxsatnomalarsiz o‘qotar qurolni, o‘q-dorilarni, o‘qotar qurolning asosiy qismlarini ishlab chiqarish, ta’mirlash, olish, saqlash, olib yurish, tashish, jo‘natish, ulardan foydalanish, shuningdek portlovchi moddalarni, portlatish vositalarini yoki portlatish qurilmalarini ishlab chiqish, ishlab chiqarish, olish, saqlash, tashish, ulardan foydalanish —

bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O‘sha harakatlar takroran yoki xavfli retsidivist tomonidan sodir etilgan bo‘lsa, —

besh yildan o‘n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O‘qotar qurolni, o‘q-dorilarni, portlovchi moddalarni yoki portlash qurilmalarini o‘tkazish, —

o‘n yildan yigirma yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Ushbu moddada nazarda tutilgan buyumlarni o‘z ixtiyori bilan topshirgan shaxs javobgarlikdan ozod qilinadi.

MJtKning 2201-modda. Qurolning qonunga xilof muomalasi

Pnevmatik, signal beruvchi, uloqtirish qurolini, o‘zini o‘zi himoya qilish qurolini ichki ishlar organlarining tegishli ruxsatnomalarisiz realizatsiya qilish, olish, saqlash, olib yurish, tashish, kolleksiyalash, ko‘rgazmaga qo‘yish, ulardan foydalanish, O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish yoki O‘zbekiston Respublikasi hududidan olib chiqish, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi hududi orqali tranzit olib o‘tish —

qurolni musodara qilib, fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining o‘n besh baravaridan o‘ttiz baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa — yigirma besh baravaridan ellik baravarigacha miqdorda jarima solishga yoki o‘n besh sutkagacha ma’muriy qamoqqa olishga sabab bo‘ladi.

Pnevmatik, signal beruvchi, tig‘li sovuq, uloqtirish qurolini, o‘zini o‘zi himoya qilish qurolini ichki ishlar organlarining tegishli litsenziyalarisiz ishlab chiqarish, ta’mirlash, realizatsiya qilish —

qurolni musodara qilib, fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravaridan yuz baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa — yuz baravaridan bir yuz ellik baravarigacha miqdorda jarima solishga yoki o‘n besh sutkagacha ma’muriy qamoqqa olishga sabab bo‘ladi.

Ushbu moddaning birinchi va ikkinchi qismlarida nazarda tutilgan harakatlarni sodir etgan shaxs, agar u pnevmatik, signal beruvchi, tig‘li sovuq, uloqtirish qurolini va o‘zini o‘zi himoya qilish qurolini o‘z ixtiyori bilan topshirsa, ma’muriy javobgarlikdan ozod qilinadi.

JKning 247-modda. O‘qotar qurolni, o‘q-dorilarni, o‘qotar qurolning asosiy qismlarini, portlovchi moddalarni, portlatish vositalarini yoki portlatish qurilmalarini qonunga xilof ravishda egallash

O‘qotar qurolni, o‘q-dorilarni, o‘qotar qurolning asosiy qismlarini, portlovchi moddalarni, portlatish vositalarini yoki portlatish qurilmalarini o‘g‘rilik yoki firibgarlik yo‘li bilan egallash —

uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki ikki yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O‘sha harakat:

a) takroran;

b) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib;

v) o‘zlashtirish, rastrata qilish yoxud mansab mavqeini suiiste’mol qilish yo‘li bilan;

g) talonchilik;

d) tamagirlik yo‘li bilan sodir etilgan bo‘lsa, —

besh yildan o‘n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O‘sha harakat:

a) bosqinchilik yo‘li bilan;

b) o‘ta xavfli retsidivist tomonidan;

v) uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko‘zlab sodir etilgan bo‘lsa, —

o‘n yildan yigirma yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

JKning 249-modda. Qurolni va uning o‘q-dorilarini saqlash, olib yurish, tashish qoidalarini buzish

O‘qotar qurolni va uning o‘q-dorilarini, shuningdek pnevmatik qurolni, tig‘li sovuq qurolni (ov pichoqlarini, ov xanjarchalari va xanjarlarni, rapiralar, shpagalar va qilichlarni), uloqtirish qurolini (kamonlar, arbaletlar va nayzalarni), signal beruvchi qurolni saqlash, olib yurish, tashish qoidalarini buzish odamning o‘limiga yoxud boshqa og‘ir oqibatlar kelib chiqishiga sabab bo‘lsa, —

bazaviy hisoblash miqdorining bir yuz ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki ikki yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Isayev Sardor Alisherovich
O‘zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti bosh ilmiy xodimi, yu.f.b.f.d. (PhD)

TRANSMILLIY NARKOTAHDIDLAR: ZAMONAVIY TENDENSIYALAR, MUAMMOLAR VA QARSHI KURASH MEXANIZMLARI

Annotatsiya. Maqolada jahon narkobozorining rivojlanishidagi zamonaviy tendensiyalar va narkotik vositalarning noqonuniy muomalasida uyushgan jinoiy guruhlarning roli ko‘rib chiqiladi. Narkotiklarni ishlab chiqarish, iste’mol qilish va tarqatish miqyoslari, shuningdek narkojinoyatchilikning o‘sishiga ta’sir etuvchi omillar, jumladan narkobozorning raqamlashuvi, kriptovalyutalardan foydalanish va

yashirin internet-platformalarning rivojlanishi tahlil qilinadi. Transmilliy narkojinoyatchilikning xususiyatiga, uning xalqaro xavfsizlikka davlatlar iqtisodiy barqarorligiga va jamoat salomatligiga ta’siriga alohida e’tibor qaratiladi. Uyushgan jinoiy guruhlarning faoliyat yuritish xususiyatlari, ularning tuzilmasi va faoliyat usullari ko‘rib chiqiladi. O‘zbekiston Respublikasidagi narkojinoyatchilikning hozirgi holatini tahlil qilish asosida davlatning antinarkotik siyosatining asosiy yo‘nalishlari belgilanadi va narkotik vositalarning noqonuniy muomalasiga qarshi kurash samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar taklif etiladi. Bular jumlasiga xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, operativ-qidiruv faoliyatini takomillashtirish, korrupsiyaga qarshi kurash va profilaktik dasturlarni amalga oshirish kiradi.

Kalit so‘zlar: transmilliy jinoyatchilik, uyushgan jinoyatchilik, narkotiklarning noqonuniy muomalasi, narkobiznes, narkobozor, narkojinoyatchilik, antinarkotik siyosati, giyohvandlik profilaktikasi.

ТРАНСНАЦИОНАЛЬНЫЕ НАРКОУГРОЗЫ: СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ, ПРОБЛЕМЫ И МЕХАНИЗМЫ ПРОТИВОДЕЙСТВИЯ

Аннотация. В статье рассматриваются современные тенденции развития мирового наркорынка и роль организованных преступных групп в незаконном обороте наркотических средств. Анализируются масштабы производства, потребления и распространения наркотиков, а также факторы, способствующие росту наркопреступности, включая цифровизацию наркорынка, использование криптовалют и развитие скрытых интернет-платформ. Особое внимание уделяется особенностям транснациональной наркопреступности, её влиянию на международную безопасность, экономическую стабильность государств и общественное здоровье. Рассматриваются структура, особенности функционирования и методы деятельности организованных преступных групп. На основе анализа текущего состояния наркопреступности в Республике Узбекистан определяются основные направления государственной антинаркотической политики и

предлагаются меры по повышению эффективности противодействия незаконному обороту наркотиков. К ним относятся развитие международного сотрудничества, совершенствование оперативно-розыскной деятельности, противодействие коррупции и реализация профилактических программ.

Ключевые слова: транснациональная преступность, организованная преступность, незаконный оборот наркотиков, наркобизнес, наркорынок, наркопреступность, антинаркотическая политика, профилактика наркомании.

TRANSNATIONAL DRUG THREATS: MODERN TRENDS, CHALLENGES AND COUNTERMECHANISMS

Abstract. This article examines modern trends in the development of the global drug market and the role of organized criminal groups in the illicit trafficking of narcotic substances. It analyzes the scale of drug production, consumption, and distribution, as well as the factors contributing to the growth of drug-related crime, including the digitalization of drug markets, the use of cryptocurrencies, and the development of hidden online platforms. Special attention is paid to the characteristics of transnational drug crime and its impact on international security, economic stability of states, and public health. The structure, operational features, and methods of organized criminal groups are also explored.

Based on an analysis of the current state of drug-related crime in the Republic of Uzbekistan, the main directions of the state anti-drug policy are identified, and measures to improve the effectiveness of combating illicit drug trafficking are proposed. These include strengthening international cooperation, improving operational and investigative activities, combating corruption, and implementing preventive programs.

Keywords: transnational crime, organized crime, illicit drug trafficking, drug business, drug market, drug-related crime, anti-drug policy, drug abuse prevention.

Kirish (Introduction). Jahon narkobozori so‘nggi yillarda barqaror o‘sish tendensiyasini namoyon etmoqda. Buni ishlab chiqarish, musodara qilish, iste’mol qilish hajmlari, tibbiy yordamga murojaatlar soni, shuningdek o‘lim darajasi

koʻrsatkichlari tasdiqlaydi. Xalqaro tadqiqotlar maʼlumotlariga koʻra, 2023-yilda dunyoda faqat kokainning noqonuniy ishlab chiqarilishi rekord darajaga — taxminan 3 708 tonnaga yetgan boʻlib, bu oʻtgan yilga nisbatan 34 % ga koʻpdir [1]. Bunda oʻsish barcha qitʼalarda kuzatilgan.

Musodara qilingan kokain miqdori 68 % ga (2019–2023) oshgan, isteʼmolchilar soni esa 2023-yilda taxminan 25 mln kishiga yetgan. Asosiy kontingent — 15–64 yoshdagi shaxslardir [2].

Bundan tashqari, soʻnggi yillarda jahon narkobozorining rivojlanishida quyidagi yangi tendensiyalar kuzatilmoqda: amfetamin, metamfetamin, fentanil kabi sintetik narkotiklarni ishlab chiqarish hajmlarining ortishi; narkobozorning faol raqamlashuvi; hisob-kitoblarni amalga oshirishda kriptovalyutalardan foydalanish; narkotiklarni sotish bozorlarining yangi hududlarga kengayishi; jinoiy tarmoqlarning transmilliy xususiyatining kuchayishi. Ushbu omillar narkotik vositalarning noqonuniy muomalasiga qarshi kurashning yangi strategiyalarini ishlab chiqishni talab etadi.

Shu bilan birga, huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan musodara qilinayotgan narkotiklar hajmi ham ortib bormoqda. Jumladan, 2025-yilda Oʻzbekistonda noqonuniy muomaladan qariyb 3,5 tonna narkotik vositalar musodara qilingan, 15,4 mingta narkojinoyat qayd etilgan, shuningdek narkotiklar bilan bogʻliq 1956 ta maʼmuriy huquqbuzarlik aniqlangan. 14 ta yashirin narkolaboratoriya fosh etilgan. Narkojinoyatlar sodir etgani uchun 11 mingdan ortiq shaxs javobgarlikka tortilgan (ular orasida 124 nafar talaba va 59 nafar maktab oʻquvchisi bor). Yoshlar orasida giyohvandlik holatlarining eng koʻp qayd etilishi Toshkent shahrida kuzatilmoqda [3].

Yoshlar orasida narkotik vositalarni isteʼmol qilishga turli sabablar taʼsir koʻrsatishi mumkin, masalan, nomaʼlum hissiyotlarni sinab koʻrish istagi yoki insonning xarakteri, odatlari, axloqiga taʼsir etuvchi oilaviy yoki mahalliy muhit boʻlishi mumkin. Ayrimlar uchun esa bu qiyinchiliklardan qochish, ruhiy ogʻriqni yengish vositasi sifatida qabul qilinadi. Biroq aslida bunday yoʻl vaziyatni yanada ogʻirlashtiradi va narkotikka qaramlikni shakllantiradi.

Narkotik vositalarning noqonuniy muomalasi transmilliy jinoyatchilikning eng keng ko‘lamli shakllaridan biri hisoblanadi. U xalqaro xavfsizlikka, davlatlar iqtisodiy barqarorligiga va millat genofondiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Narkotik savdosi uyushgan jinoiy guruhlar uchun asosiy daromad manbalaridan biri hisoblanadi. Ushbu turdagi jinoiy faoliyatning yuqori daromadliligi kriminal tarmoqlarning kengayishiga va transmilliy jinoiy tuzilmalarning rivojlanishiga xizmat qiladi.

Uyushgan jinoiy guruhlar narkotik vositalarning noqonuniy muomalasining turli bosqichlarini nazorat qiladi — narkotik moddalarni ishlab chiqarish va qayta ishlashdan tortib, ularni tashish, sotish hamda jinoiy daromadlarni legallashtirishgacha. Shu bilan birga, narkotiklarning noqonuniy muomalasi bilan bog‘liq zo‘ravonlik holatlari kuchayishi ham mumkin.

Globallashuv sharoitida narkobozor tobora integratsiyalashgan va murakkab tus olmoqda, bu esa huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini sezilarli darajada qiyinlashtiradi.

Mavzu bo‘yicha adabiyotlar tahlili (Literature review). Kriminologiyada uyushgan jinoyatchilik salbiy ijtimoiy-huquqiy hodisa sifatida qaraladi. U uyushgan guruhlar, jinoiy jamoalar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar majmuini, shuningdek ushbu guruh va jamoalar ishtirokchilari yig‘indisini o‘z ichiga oladi A.I. Dolgovaning fikriga ko‘ra, uyushgan jinoyatchilik — bu keng ko‘lamli jinoiy faoliyatni amalga oshiradigan hamda bunday faoliyat uchun eng qulay shart-sharoitlarni yaratadigan uyushgan jinoiy tuzilmalarning murakkab tizimidir. Ushbu tizim o‘z faoliyatini ta’minlash uchun boshqaruv va boshqa xizmat funksiyalarini bajaruvchi ichki tuzilmalardan, shuningdek davlat tuzilmalari va fuqarolik jamiyati institutlaridan ham foydalanishi mumkin. Narkobiznesdan olinadigan yuqori daromad uyushgan jinoyatchilik bilan narkotik moddalarning noqonuniy aylanmasi o‘rtasidagi bog‘lovchi bo‘g‘in hisoblanadi. Bu holat mazkur bozor segmentida jiddiy raqobatning yo‘qligi bilan ham izohlanadi. Narkobiznesning asosiy maqsadi — jinoiy faoliyat orqali noqonuniy ravishda foyda olish va boyishdir.

Narkotiklarni noqonuniy savdo qilish, daromadlarni taqsimlash va shu bilan bog‘liq harakatlar davlatga katta zarar yetkazadigan jinoiy iqtisodiyotning bir qismi hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research methodology). Jinoyatchilikning ushbu shaklini tadqiq etish hozirgi vaqtda ham dolzarbligicha qolmoqda. I.N. Seliverstov ta’kidlaganidek, uyushgan jinoyatchilik ko‘lamining kengayishi odamlarni jinoiy muhit bilan o‘zaro aloqaga kirishishga jalb qiladigan obyektiv omillar bilan bog‘liq bo‘lib, bu esa uning yanada rivojlanishiga qonuniy ravishda turtki beradi.

Hozirgi vaqtda kriminologlar uyushgan jinoiy faoliyatning quyidagi asosiy sohalarini ajratib ko‘rsatadilar, jumladan:

– narkotik moddalarning noqonuniy aylanmasi;

– qurol-yarog‘ning noqonuniy aylanmasi;

– noqonuniy migratsiyani tashkil etish;

– odam savdosi, inson a’zolari va to‘qimalari savdosi;

– avtotransport vositalarini o‘g‘irlash va kontrabanda qilish;

– tarixiy qimmatliklarni o‘g‘irlash va kontrabanda qilish;

– kompyuter axboroti sohasidagi jinoyatlar;

– jinoiy yo‘l bilan olingan mol-mulkni legallashtirish;

– mualliflik huquqlarini buzish bilan bog‘liq jinoyatlar;

– korrupsiyaviy jinoyatlar.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Uyushgan jinoiy guruhlar jahon narkobozorining faoliyat yuritishida muhim o‘rin tutadi. Ular narkotik moddalarni ishlab chiqarish, tashish va tarqatishni ta’minlaydigan murakkab logistik tarmoqlarni shakllantiradi. Uyushgan jinoyatchilik yuqori darajadagi latentlik (yashirinlik) bilan ajralib turadi va bu ko‘rsatkich 80 % gacha yetishi mumkin. Bu holat tabiiy hamda sun’iy omillar bilan izohlanadi.

Latentlikning tabiiy omillariga jinoyatchilarning yuqori darajada tayyorgarligi va professionalizmi kiradi. Bu esa jinoyatlarni fosh etishni ancha qiyinlashtiradi (ayniqsa narkotik moddalarning noqonuniy aylanmasi, firibgarlik va

iqtisodiy faoliyat sohalarida). Shuningdek, jabrlanuvchilar va guvohlarning erkinlikda yurgan jinoiy tuzilma vakillaridan ehtimoliy qasos olishidan qo‘rqishi ham muhim omil hisoblanadi.

Bundan tashqari, butunjahon Internet tarmog‘i orqali taqiqlangan moddalarni yetkazib berishga qaratilgan narkotrafik shakllangan. Ularning tarqatilishi nafaqat bir davlat doirasida, balki davlatlararo darajada ham amalga oshirilmoqda. Bu jarayonda «Darknet» (yoki «qora internet», «soyaviy internet») alohida ahamiyatga ega. U Internetning faqat maxsus brauzerlar orqali kirish mumkin bo‘lgan yashirin segmenti hisoblanadi. Uning yordamida narkosavdogarlar xavfsiz narkotik moddalarni anonim tarzda sotish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Shuningdek, kriptovalyutalar paydo bo‘lishi bilan moliyaviy tranzaksiyalarni kuzatish yanada qiyinlashmoqda. Bu esa xalqaro narkobiznesning rivojlanishiga va narkotik moddalarning noqonuniy aylanmasi muammosining keskinlashishiga sabab bo‘lmoqda.

Narkotik vositalarning davlatlararo darajadagi noqonuniy aylanmasi transmilliy jinoyatchilik turiga kiritiladi.

Baholashlarga ko‘ra, 2009-yilda uning aylanmasi 870 mlrd AQSH dollarini tashkil etgan bo‘lib, bu jahon yalpi ichki mahsulotining 1,5 %ga tengdir. Bu summa o‘sha yilda rivojlanish maqsadlari uchun ajratilgan rasmiy yordam hajmidan olti baravardan ham ko‘p va jahon tovar eksportining qariyb yetti foiziga teng bo‘lgan [7].

Transmilliy jinoyatchilikning asosiy funksiyalariga quyidagilar kiradi:

1. narkotik moddalar ishlab chiqarilishini nazorat qilish;

2. xalqaro tashish kanallarini tashkil etish;

3. milliy bozorlarda narkotiklarni tarqatish;

4. jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish.

Zamonaviy jinoiy tarmoqlar yuqori darajadagi moslashuvchanlikka ega. Ular markazlashmagan (detsentralizovan) tuzilmalardan foydalanadi, bu esa huquqni muhofaza qiluvchi organlar harakatlariga samarali moslashish imkonini beradi.

Transmilliy narkojinoyatchilik — bu bir nechta davlat hududida amalga oshiriladigan va narkotiklarning noqonuniy aylanmasidan katta moliyaviy foyda olishga qaratilgan uyushgan jinoiy faoliyat shaklidir. U ko‘lamdorligi va murakkabligi bilan ajralib turadi va shu sababli eng jiddiy global muammolardan biri hisoblanadi [8, 110-b.]. Bunday darajadagi jinoiy faoliyat murakkab, ko‘p bosqichli uyushgan tuzilmalarni yaratishni nazarda tutadi.

Transmilliy jinoyatchilik rivojlanishining salbiy tendensiyalarini tahlil qilar ekan, N.N. Dyachenko va S.P. Vayle zamonaviy sharoitda u shunday miqyosga yetganini ta’kidlaydilarki, bu unga tizim yaratuvchi xususiyat baxsh etadi. Ularning fikricha, transmilliy jinoyatchilik amalda jamiyat hayotining barcha muhim sohalariga — siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy sohalarga kirib borgan. Tadqiqotchilar eng ko‘zga tashlanadigan tendensiyalar sifatida jinoiy yo‘l bilan olingan daromadlarni legallashtirish jarayonlarining kuchayishini, tadbirkorlik faoliyatini qonuniy amalga oshirishga qarshi qaratilgan tajovuzlar sonining ortishini, uyushgan jinoiy guruhlarning yiriklashuvi va birlashuvini, shuningdek ularning ichki tuzilmasining murakkablashuvi hamda jinoiy faoliyat professionallik darajasining o‘sishini ko‘rsatadilar [9, 76-b.].

Transmilliy jinoyatchilikni quyidagi belgilari mavjud:

1. jinoiy birlashmalarning tuzilmalashganligi va yuqori darajada tashkil etilganligi;

2. moddiy bazaning mavjudligi;

3. qonuniy ko‘rinishga ega bo‘lgan faoliyat turlarining mavjudligi;

4. hokimiyat bilan korrupsion aloqalar va boshqalar.

Muhokama (Discussion). Transmilliy narkojinoyatchilik bir qator sabablarga ko‘ra jamiyat uchun jiddiy xavf tug‘diradi. Asosiy xavflardan biri — narkotik moddalar tarqalishi natijasida millat genofondiga yetkaziladigan halokatli ta’siridir. Narkosavdo bilan shug‘ullanuvchi tashkilotlar ko‘pincha zo‘ravonlik bilan bog‘liq faoliyatga ham jalb etilgan bo‘lib, bu esa oddiy fuqarolar xavfsizligiga tahdid soladi.

Bundan tashqari, jinoyatchilikning ushbu shakli davlatda korrupsiyaning rivojlanishiga sabab bo‘ladi, qonuniylik va huquq-tartibotni izdan chiqaradi, bu esa oxir-oqibat jamiyat barqarorligining buzilishiga olib keladi.

L.V.Glazkovaning fikriga ko‘ra, zamonaviy uyushgan jinoyatchilik murakkab tizimli tabiatga ega. Uyushgan jinoyatchilikning asosini tashkil etuvchi professional, iqtisodiy va korrupsiyaviy jinoyatchilik ko‘plab mutaxassislar — buxgalterlar, moliyachilar, huquqshunoslar va bankirlar ishtirokisiz faoliyat yuritishi va rivojlanishi mumkin emas. Ularning yordami faqat ayrim jinoyatlarni sodir etishni ta’minlash bilangina cheklanmaydi, balki noqonuniy yo‘l bilan olingan daromadlarni legallashtirish, moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish va jinoiy kelib chiqishga ega bo‘lgan pul mablag‘lari hamda mol-mulkka egalik qilish, ulardan foydalanish va tasarruf etishga qonuniy tus berishga qaratilgan bitimlarni tuzishda ham namoyon bo‘ladi.

Jinoiy va jinoyatga yaqin manfaatlarning chambarchas bog‘lanib ketishi natijasida uyushgan jinoiy guruhlar va jinoiy jamoalarga xizmat qiluvchi yashirin (teng) tizimlar shakllanadi. Bunday tizimlar doirasida narkojinoyatchilik jamiyat bilan o‘zaro aloqada bo‘lib, jamoatchilik ongiga ta’sir ko‘rsatadi va jinoiy mafkura hamda jinoiy xulq-atvor modellarining tarqalishiga sabab bo‘ladi [10, 84-b.].

Shuningdek, narkotik moddalarning noqonuniy savdosidan olingan mablag‘lar boshqa turdagi jinoiy faoliyatni, jumladan terrorizmni moliyalashtirishga ham yo‘naltirilishi mumkin.

Transmilliy narkojinoyatchilik jahon miqyosiga ega bo‘lib, davlatlar chegaralarini kesib o‘tadi va huquqni muhofaza qiluvchi organlarning ushbu hodisaga qarshi kurashish vazifalarini yanada murakkablashtiradi.

Narkotik moddalar va ularning prekursorlarining noqonuniy aylanmasi bilan bog‘liq transmilliy jinoiy guruhlar va tashkilotlar faoliyati rasman O‘zbekiston Respublikasining milliy xavfsizligiga tahdid sifatida e’tirof etilgan. Narkobiznes jamoat tartibiga, iqtisodiy xavfsizlikka hamda davlat boshqaruvi tizimiga jiddiy zarar yetkazadi.

Shuning uchun davlat va uning tegishli organlari oldida turgan ustuvor vazifalardan biri — narkobiznesga ixtisoslashgan jinoiy guruhlarni aniqlash va bartaraf etish, narkotik moddalar va ularning prekursorlarini ishlab chiqaruvchilar hamda tarqatuvchilarni javobgarlikka tortish, shuningdek o‘z vaqtida va samarali davlat antinarkotik siyosatini amalga oshirishdan iborat.

Xulosa (Conclusion). Bayon etilganlardan xulosa qilish mumkinki, uyushgan jinoyatchilik fenomeni kelgusida ham chuqur kriminologik tadqiqotlarni talab qiladi.

Bunday tadqiqotlarning asosiy maqsadi — uyushgan jinoiy guruhlar va jinoiy jamoalar faoliyatiga nisbatan yanada samarali profilaktik ta’sir mexanizmlarini izlab topish va ishlab chiqishdir. Faqat ilmiy yondashuvlarni takomillashtirish va profilaktika choralarini amaliyotga tatbiq etish orqaligina uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash tizimi uning hozirgi darajasi va rivojlanish xususiyatlariga mos ravishda samarali bo‘lishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasida 2024–2028-yillarga mo‘ljallangan Narkomaniya va narkojinoyatchilikka qarshi kurashish Milliy strategiyasining ustuvor maqsadlariga erishish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni belgilash, aholini, ayniqsa yoshlar salomatligi va millat genofondini samarali himoya qilish, shuningdek narkomaniya va uyushgan narkojinoyatchilikka qarshi kurash faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish maqsadida 2025-yil 3-noyabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Aholi salomatligi va millat genofondini narkomaniya va narkojinoyatlardan samarali himoya qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF–207-son Farmoni qabul qilindi [11].

Ushbu farmon bilan 2025–2026-yillarga mo‘ljallangan narkomaniya va narkojinoyatchilikni barvaqt oldini olish va unga qarshi kurashish bo‘yicha kompleks amaliy chora-tadbirlar Milliy dasturi tasdiqlandi.

Milliy dastur milliy xavfsizlikni ta’minlash sohasidagi strategik rejalashtirish hujjati hisoblanadi va davlatning antinarkotik siyosati amalga oshirilishini ta’minlashga qaratilgan.

Farmon va dasturning asosiy qoidalari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

— antinarkotik siyosatni takomillashtirish va narkotik vositalar aylanmasi ustidan davlat nazoratini kuchaytirish, jumladan qonunchilikni, texnologiyalarni va monitoring tizimini rivojlantirish;

— ta’lim dasturlari, ommaviy axborot vositalari bilan ishlash va ko‘ngillilar ishtirokini ta’minlash orqali narkotiklarni noqonuniy iste’mol qilishning oldini olish hamda uni erta aniqlash;

— davolash, reabilitatsiya va erta tashxis qo‘yish tizimini rivojlantirish orqali narkotikka qaramlar sonini kamaytirish;

— chegaralarda nazoratni kuchaytirish va uyushgan jinoiy guruhlarga qarshi kurashni faollashtirish orqali narkotik moddalar aylanmasi sohasidagi jinoyatlarni kamaytirish;

— narkotiklarning noqonuniy aylanmasiga qarshi kurashda xalqaro hamkorlikni rivojlantirish.

O‘zbekiston narkotik moddalar tarqalishiga qarshi kurash va ular ustidan nazoratni kuchaytirish sohasidagi xalqaro majburiyatlarni izchil bajarib kelmoqda. Xususan, 1995-yil fevral oyida respublika BMTning narkotiklar ustidan nazorat qilishga oid konvensiyalariga qo‘shildi, 1999-yil avgust oyida mamlakatda “Narkotik vositalar va psixotrop moddalar to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilindi [12], 2021-yil yanvar oyida esa “Narkologik kasalliklarni profilaktika qilish va davolash to‘g‘risida”gi Qonun kuchga kirdi [13].

Hozirgi vaqtda BMTning Narkotiklar va jinoyatchilik bo‘yicha boshqarmasi (UNP OON) bilan hamkorlikda O‘zbekistonda quyidagi mintaqaviy loyihalar amalga oshirilmoqda:

1. Mintaqaviy loyiha «Narkotik vositalar, psixotrop moddalar va ularning prekursorlarining noqonuniy aylanmasiga qarshi kurashish bo‘yicha Markaziy Osiyo mintaqaviy axborot-muvofiqlashtirish markazini (SARIKS) tashkil etish» (umumiy byudjeti — 15,4 mln AQSH dollari).

Loyiha doirasida SARIKSni tashkil etish to‘g‘risidagi kelishuv ishtirokchi davlatlarining milliy koordinatorlari Kengashining bir nechta yig‘ilishlari o‘tkazildi.

Ularda kelgusi 2-yil uchun faoliyatning asosiy yo‘nalishlari belgilandi hamda markaz faoliyatiga doir eng dolzarb masalalar ko‘rib chiqildi.

2. Mintaqaviy loyiha «Treatment II — narkologik qaramlikni va uning sog‘liqqa salbiy oqibatlarini davolash» (1 mln 490 ming AQSH dollari).

Loyiha doirasida sog‘liqni saqlash, mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirliklari mutaxassislari mintaqaviy treninglarda ishtirok etmoqda.

3. Mintaqaviy loyiha «Yoshlar o‘rtasida psixoaktiv moddalarni suiiste’mol qilish, OITS/VICH va jinoyatchilikning oldini olish — oilada hayot ko‘nikmalarini shakllantirish bo‘yicha ta’lim dasturlari orqali».

Hozirgi vaqtda mazkur loyiha doirasida «Oila va maktab birgalikda» dasturi Toshkent shahrida va respublikaning uchta hududida kichik maktab yoshidagi bolalar uchun amalga oshirilmoqda.

4. Mintaqaviy loyiha «Afg‘on opiatlarining shimoliy yo‘nalish orqali noqonuniy aylanmasiga qarshi kurashish — asosiy chegara punktlari salohiyatini kuchaytirish va chegara aloqa bo‘linmasini tashkil etish orqali» (umumiy byudjeti — 1,3 mln AQSH dollari) [14].

Transmilliy narkojinoyatchilik tahdidi sharoitida davlat antinarkotik siyosatini amalga oshirish O‘zbekiston Respublikasining milliy xavfsizligini ta’minlashda nihoyatda muhim ahamiyatga ega. Narkobiznesga qarshi samarali kurashish va transmilliy jinoiy guruhlarga qarshi ta’sirchan choralar ko‘rish uchun, bizning fikrimizcha, quyidagi amaliy chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur:

1. Narkokartellar va narkotik moddalarning noqonuniy aylanmasi bilan shug‘ullanuvchi jinoiy tashkilotlar faoliyatini aniqlash va bartaraf etish maqsadida operativ-qidiruv faoliyati usullari va texnologiyalarini takomillashtirish.

2. Narkobiznesga qarshi kurash samaradorligini pasaytirishi mumkin bo‘lgan huquqni muhofaza qiluvchi organlar hamda davlat tuzilmalari ichidagi korrupsion sxemalarni aniqlash va ularga chek qo‘yish, shuningdek nazoratni kuchaytirish.

3. Transmilliy narkojinoyatchilikka qarshi kurashish bo‘yicha axborot almashish, qo‘shma operatsiyalar o‘tkazish va xalqaro strategiyalarni ishlab chiqish maqsadida boshqa davlatlar bilan hamkorlikni kuchaytirish.

4. Narkotik moddalar tarqalishining oldini olish hamda narkologik qaram shaxslarga yordam ko‘rsatish maqsadida narkomaniya profilakti.

Foydalanilgan adabiyot (List of References)

1. UNODC. Global cocaine production statistics.
2. БМТнинг 2025 йилги гиёҳванд моддалар тўғрисидаги жаҳон ҳисоботи. UNODC Наркотиклар ва жиноятчиликка қарши кураш бошқармаси. Асосий хулосалар. Б.-14.
3. Более 11 тысяч человек привлекли к ответственности за наркопреступления в 2025 году // https://www.gazeta.uz/ru/2026/02/04/drug-crimes.
4. Михайлов А.Е., Семенов С.А., Тараканов И.А. Организованная преступность: состояние и тенденции // Гуманитарные, социально-экономические и общественные науки. 2020. №12-2. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/organizovannaya-prestupnost-sostoyanie-i-tendentsii (дата обращения: 06.03.2026).
5. Долгова А.И. Организованная преступность, ее развитие и борьба с ней II Организованная преступность-3. М., 1996. С. 20.
6. Селиверстов И.Н. Социальная опасность организованной преступности: новые тенденции в XXI веке // Юридическая мысль. 2019. № 4-5 (114-115). С. 108-120.
7. Транснациональная организованная преступность: глобализованная нелегальная экономика // URL: https://www.unodc.org/toc/ru/crimes/organized-crime.html.
8. Михайлов Алексей Евгеньевич, Семенов Сергей Александрович, Тараканов Илья Александрович Организованная преступность: состояние и тенденции // Гуманитарные, социально-экономические и общественные науки. 2020. №12-2. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/organizovannaya-prestupnost-sostoyanie-i-tendentsii (дата обращения: 06.03.2026).
9. Дьяченко Н.Н. Состояние и тенденции современной организованной преступности / Н.Н. Дьяченко, С.П. Вайле // Деятельность правоохранительных органов в современных условиях. Сборник материалов XXV международной научно-практической конференции. Саратов, 2020. С. 7582.
10. Глазкова Л.В. Взаимодействие систем организованной преступности и коррупции // Актуальные проблемы российского права. 2019. № 7(104). С. 77-86.
11. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 03.11.2025 йилдаги ПФ-207-сон Фармони «Аҳоли саломатлиги ва миллат генофондини гиёҳвандлик ва наркожиноятлардан самарали ҳимоя қилиш бўйича комплекс чора-тадбирлар тўғрисида» // URL: https://lex.uz/ru/docs/7818779.
12. Ўзбекистон Республикасининг 19.08.1999 йилдаги «Гиёҳвандлик воситалари ва психотроп моддалар тўғрисида» 813-I-сон Қонуни // URL: https://lex.uz/docs/86028?ONDATE2=02.06.2022&action=compare.
13. Ўзбекистон Республикасининг 27.10.2020 йилдаги «Наркологик касалликлар профилактикаси ва уларни даволаш тўғрисида» ЎРҚ-644-сон Қонуни // URL: https://lex.uz/uz/docs/5069150.
14. URL: https://www.uzbekistan.org.ua/ru/vneshnyaya-politika/uzbekistan-i-mezhdunarodnye-organizatsii/153-vneshnyaya-politika/uzbekistan-i-voprosy-mezhdunarodnoj-bezopasnosti.html.

Jamoldinov Xumoyun Baxtiyorbek o‘g‘li
O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi
Ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo‘limi boshlig‘i,
yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

KIBERJINOYATCHILIK: ZAMONAVIY TAHDID VA UNING MINTAQAVIY XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Maqolada kiberjinoyatchilikning zamonaviy jamiyat uchun global tahdid sifatidagi mohiyati, uning asosiy turlari hamda rivojlanish tendensiyalari tahlil qilingan. Kiberjinoyatlarning transmilliy xususiyati, texnologik murakkabligi va tezkor rivojlanishi alohida yoritilgan. Shuningdek, turli mintaqalarda kiberjinoyatchilikning o‘ziga xos jihatlari, rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlardagi farqli ko‘rinishlari ko‘rib chiqilgan. Kiberxavfsizlikni ta’minlashda texnik, huquqiy va profilaktik choralarning o‘rni asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: kiberjinoyatchilik, kiberxavfsizlik, axborot texnologiyalari, feyshing, zararli dasturlar, ransom, raqamli xavfsizlik, transmilliy jinoyatchilik, profilaktika.

КИБЕРПРЕСТУПНОСТЬ: СОВРЕМЕННАЯ УГРОЗА И ЕЁ РЕГИОНАЛЬНЫЕ ОСОБЕННОСТИ

Аннотация. В статье анализируется сущность киберпреступности как одной из наиболее значимых угроз современного цифрового общества. Рассматриваются основные виды киберпреступлений, их транснациональный характер, технологическая сложность и динамика развития. Особое внимание уделяется региональным особенностям киберпреступности в развитых и развивающихся странах. Обосновывается необходимость комплексного подхода к обеспечению кибербезопасности, включающего технические, правовые и профилактические меры.

Ключевые слова: киберпреступность, кибербезопасность, информационные технологии, фишинг, вредоносные программы, ransomware, цифровая безопасность, транснациональная преступность, профилактика

CYBERCRIME: A MODERN THREAT AND ITS REGIONAL CHARACTERISTICS

Abstract. The article analyzes cybercrime as one of the most significant threats to modern digital society. It examines the main types of cybercrimes, their transnational nature, technological complexity, and rapid development. Special attention is given to regional characteristics of cybercrime in both developed and developing countries. The study emphasizes the need for a comprehensive approach to cybersecurity, including technical, legal, and preventive measures.

Keywords: cybercrime, cybersecurity, information technology, phishing, malware, ransomware, digital security, transnational crime, prevention.

Insoniyat to‘rtinchi sanoat inqilobi davriga qadam qo‘yar ekan, global tarmoq — Internet hayotimizning ajralmas qismiga aylandi. Biroq, qulayliklar bilan birga, yangi turdagi xavf — kiberjinoyatchilik ham shiddat bilan rivojlanmoqda. Bugungi kunda kiberjinoyatchilik shunchaki «xakerlik» emas, balki trillionlab dollar zarar keltiruvchi global industriyadir.

Axborot texnologiyalari jadal rivojlanayotgan XXI asrda jamiyat hayotining barcha sohalari raqamlashmoqda. Internet, mobil aloqa, sun’iy intellekt va bulutli texnologiyalar insonlar uchun ulkan imkoniyatlar yaratmoqda. Biroq bu jarayon yangi turdagi jinoyatlar — kiberjinoyatchilikning paydo bo‘lishi va kengayishiga ham olib keldi. Kiberjinoyatchilik bugungi kunda nafaqat alohida shaxslar, balki davlatlar xavfsizligiga ham jiddiy tahdid solmoqda.

Kiberjinoyatchilik — bu kompyuter tizimlari, tarmoqlar va raqamli texnologiyalar orqali sodir etiladigan noqonuniy harakatlar majmuasidir. Ushbu jinoyatlar axborotni o‘g‘irlash, o‘zgartirish, yo‘q qilish yoki tizimlarni ishdan chiqarish maqsadida amalga oshiriladi.

Kiberjinoyatlarning asosiy xususiyatlari:

chegara bilmasligi (transmilliy xarakterga ega);

anonimlikning yuqori darajasi;

tezkorlik va keng qamrov;

texnik bilim talab qilinishi.

Zamonaviy kibertahdidlar texnik jihatdan murakkablashib, ijtimoiy muhandislik usullari bilan uyg‘unlashib ketmoqda. Asosiy tahdid turlari quyidagilardan iborat:

Fishing va ijtimoiy muhandislik: Foydalanuvchilarni aldash orqali shaxsiy ma’lumotlar va bank kartalari kodlarini qo‘lga kiritish.

Zararli dasturlar (Malware)

Viruslar, troyanlar va boshqa zararli dasturlar orqali qurilmalarga zarar yetkazish yoki ma’lumotlarni o‘g‘irlash.

Ransomware (Tovlamachi dasturlar): Tizimdagi ma’lumotlarni shifrlab qo‘yib, ularni ochish uchun pul talab qilish.

Kripto-jinoyatlar: Kriptovalyuta hamyonlarini buzish va noqonuniy mayning (kriptojekking).

Davlat darajasidagi kiberhujumlar: Strategik obyektlar (energetika, suv ta’minoti, harbiy tizimlar)ga qarshi yo‘naltirilgan hujumlar.

Kiberjinoyatchilikning mintaqaviy xususiyatlari

Kiberjinoyatchilik dunyo bo‘ylab bir xil emas, balki har bir mintaqada o‘ziga xos xususiyatlarga ega.

1. Rivojlangan davlatlar: AQSH, Yevropa davlatlari va Yaponiyada:

yuqori texnologiyali hujumlar;

moliyaviy sektorga qaratilgan jinoyatlar;

davlat infratuzilmasiga tahdidlar ustun.

2. Rivojlanayotgan davlatlar Markaziy Osiyo, Afrika va ayrim Osiyo mamlakatlarida:

internet firibgarligi;

shaxsiy ma’lumotlar o‘g‘irlanishi;

kiberxavfsizlik madaniyatining pastligi.

Kiberjinoyatchilikka qarshi kurash ikki yo‘nalishda olib boriladi:

Texnik himoya. Zamonaviy himoya tizimlari nafaqat antiviruslardan, balki Sun’iy Intellekt (AI) va Mashinaviy ta’lim (ML) texnologiyalaridan foydalanadi.

Ular shubhali trafikni real vaqt rejimida tahlil qilib, hujumni u amalga oshishidan oldin to‘xtatadi.

Huquqiy baza. O‘zbekistonda «Kiberxavfsizlik to‘g‘risida»gi Qonun va Jinoyat kodeksidagi tegishli moddalar (masalan, 169 va 278-moddalar) ushbu sohadagi munosabatlarni tartibga soladi. Biroq, kiberjinoyatlar chegara bilmasligi sababli, xalqaro hamkorlik (Interpol, Yevropol) muhim ahamiyatga ega.

Kiberjinoyatlardan qanday himoyalanish kerak?

Shu o‘rnida aytish mumkinki har bir foydalanuvchi amal qilishi kerak bo‘lgan «raqamli gigiyena» qoidalarini keltiramiz:

1. Ikki bosqichli autentifikatsiya (2FA): Barcha ijtimoiy tarmoq va bank ilovalarida ikki bosqichli himoyani yoqing.

2. Murakkab parollar: Bir xil parolni hamma joyda ishlatmang va parollar menejeridan foydalaning.

3. Shubhali havolalar: Notanish kimsalardan kelgan yoki «bepul pul» va’da qiluvchi havolalarga aslo bosmang.

4. Dasturiy ta’minotni yangilash: OS va ilovalarni doimiy yangilab turing, chunki yangilanishlar xavfsizlik teshiklarini yopadi.

Xulosa qilib aytganda, kiberjinoyatchilik — bu tinimsiz davom etadigan «qurollanish poygasi». Bunda faqat texnik vositalar emas, balki insonning hushyorligi va doimiy bilim olib borishi eng kuchli qalqon hisoblanadi.

Kiberjinoyatchilik zamonaviy dunyodagi eng jiddiy tahdidlardan biri hisoblanadi. Uning transmilliy xarakteri, tezkor rivojlanishi va texnologiyalarga bog‘liqligi uni yanada xavfli qiladi. Ayniqsa, raqamlashuv jarayoni jadal kechayotgan mintaqalarda kiberxavfsizlik masalalariga jiddiy e’tibor qaratish zarur.

Kiberjinoyatchilikka qarshi samarali kurashish faqat texnik choralar bilan cheklanmaydi. Bu jarayon qonunchilik, ta’lim, xalqaro hamkorlik va jamoatchilik ongini oshirishni o‘z ichiga olgan kompleks yondashuvni talab etadi.

Shu bois, har bir davlat va jamiyat kiberxavfsizlikni milliy xavfsizlikning ajralmas qismi sifatida qarashi lozim.

Payziyev Abbos Muxammadovich
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti kafedra dotsenti, yu.f.b.f.d.(PhD), dotsent

TRANSMILLIY NARKOTAHDIDLARGA QARSHI KURASHISHNI RAQAMLI DAVR SHAROITIDA TAKOMILLASHTIRISH: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

Аннотация. Ushbu maqolada globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida transmilliy narkotahdidlarning zamonaviy xususiyatlari, ularning kengayishiga ta’sir etuvchi omillar hamda Markaziy Osiyo mintaqasidagi narkovaziyat tahlil qilinadi. Raqamli texnologiyalar, darknet, kriptovalyutalar va yangi psixoaktiv moddalarning tarqalishi bilan bog‘liq muammolar yoritilib, yoshlar orasida giyohvandlik xavfining ortishi alohida ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, xalqaro hamkorlikning ahamiyati, mavjud huquqiy mexanizmlar va ularni takomillashtirish yo‘nalishlari asoslab beriladi. Muallif tomonidan zamonaviy tahdidlarga qarshi samarali kurashish uchun kompleks, innovatsion va muvofiqlashtirilgan yondashuv zarurligi ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: transmilliy narkotahdidlar, narkotrafik, raqamli texnologiyalar, darknet, kriptovalyuta, sintetik giyohvand moddalar, psixoaktiv moddalar, yoshlar, narkojinoyatlar, xalqaro hamkorlik, kiberxavfsizlik, profilaktika.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ БОРЬБЫ С ТРАНСНАЦИОНАЛЬНЫМИ НАРКОУГРОЗАМИ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ЭПОХИ: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ

Аннотация. В статье рассматриваются современные особенности транснациональных наркоугроз в условиях глобализации и цифровой трансформации, а также факторы, способствующие их распространению. Анализируется наркоситуация в Центральной Азии, включая влияние цифровых технологий, даркнета, криптовалют и распространения новых психоактивных веществ. Особое внимание уделяется росту наркотизации среди молодежи. Освещаются вопросы международного сотрудничества,

действующие правовые механизмы и направления их совершенствования. Делается вывод о необходимости комплексного, инновационного и скоординированного подхода к противодействию современным наркоугрозам.

Ключевые слова: транснациональные наркоугрозы, наркотрафик, цифровые технологии, даркнет, криптовалюты, синтетические наркотики, психоактивные вещества, молодежь, наркопреступность, международное сотрудничество, кибербезопасность, профилактика

IMPROVING THE FIGHT AGAINST TRANSNATIONAL DRUG THREATS IN THE DIGITAL ERA: PROBLEMS AND SOLUTIONS

Abstract. This article examines the modern characteristics of transnational drug threats in the context of globalization and digital transformation, as well as the factors contributing to their expansion. It analyzes the drug situation in Central Asia, including the impact of digital technologies, the darknet, cryptocurrencies, and the spread of new psychoactive substances. Particular attention is paid to the increasing drug risks among youth. The paper also highlights the importance of international cooperation, existing legal frameworks, and areas for their improvement. The author emphasizes the need for a comprehensive, innovative, and coordinated approach to effectively counter contemporary drug threats.

Keywords: transnational drug threats, drug trafficking, digital technologies, darknet, cryptocurrencies, synthetic drugs, psychoactive substances, youth, drug-related crime, international cooperation, cybersecurity, prevention.

Bugungi globallashuv sharoitida transmilliy narkotahdidlar insoniyat xavfsizligi, jamiyat barqarorligi va davlatlar taraqqiyotiga jiddiy tahdid solayotgan murakkab muammolardan biriga aylandi. Ayniqsa, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi, transport va logistika tarmoqlarining kengayishi hamda xalqaro aloqalarning chuqurlashuvi natijasida narkotik vositalarning noqonuniy aylanishi yangi, yuqori darajada moslashuvchan va murakkab shakl kasb etmoqda.

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, United Nations Office on Drugs and Crime [1] hisobotlarida qayd etilishicha, 2023 yil holatiga dunyo miqyosida taxminan 316 million nafar aholi giyohvand moddalarni iste’mol qilgan. Ushbu ko‘rsatkich so‘nggi o‘n yillikda aholi soni o‘sish sur’atlaridan ham yuqori darajada ortib borayotganini ko‘rsatib, giyohvandlik muammosining global miqyosda kengayib borayotgani va uning tarqalish darajasi izchil o‘sish tendensiyasiga ega ekanligidan dalolat beradi. Shu bilan birga, 2023 yilda kokain ishlab chiqarish hajmi 34 foizga oshib, 3,7 ming tonnaga yetgani va bu tarixiy rekord darajani tashkil etgani qayd etildi. Bunda narkotik moddalar iste’moli geografiyasida ham sezilarli o‘zgarishlar kuzatilib, asosiy iste’mol markazlari an’anaviy ravishda Shimoliy Amerikadan Yevropaga siljib bormoqda. Xususan, musodara qilingan kokain hajmi Yevropa hududida 202 tonna, Shimoliy Amerikada esa 175 tonnani tashkil etgan bo‘lib, bu birinchi marta Yevropa ko‘rsatkichlari yuqori bo‘lgan holat sifatida qayd etildi.

Mazkur global tendensiyalar fonida Markaziy Osiyo hududi hamon muhim tranzit yo‘nalish sifatida o‘z ahamiyatini saqlab qolmoqda. Shu bilan birga, mintaqadagi narkovaziyat murakkabligicha qolmoqda. Ayniqsa, Afg‘onistondagi joriy etilgan **“ko‘knor taqiqi”** natijasida opiy ishlab chiqarish hajmi keskin kamayib, 6 200 tonnadan 333 tonnaga, ya’ni qariyb 93 foizga qisqargani qayd etilmoqda. Biroq mazkur holat narkotik bozorining to‘liq bartaraf etilganini emas, balki uning tarkibiy o‘zgarishlarga uchrayotganini, jumladan, sintetik narkotiklar ulushi ortib borayotganini ko‘rsatmoqda [2].

Xususan, Surxondaryo viloyati hududidagi “Termiz avtoyo‘l” xalqaro o‘tkazish punkti orqali kirib kelgan yuk avtomashinasi tekshirilganda, yuk orasidagi buyumlar ichiga yashirilgan holda umumiy og‘irligi 190 kg 800 gr bo‘lgan gashish moddasi aniqlandi [3]. Mazkur holat transmilliy narkotrafikning yuqori darajada yashirin va murakkab usullar orqali amalga oshirilayotganini, shuningdek, Markaziy Osiyo hududining tranzit ahamiyati saqlanib qolayotganini yana bir bor tasdiqlaydi.

Transmilliy narkotahdidlar bugungi kunda faqat jinoyatchilikning alohida ko‘rinishi sifatida emas, balki xalqaro xavfsizlikka jiddiy tahdid soluvchi, davlatlar iqtisodiy barqarorligiga putur yetkazuvchi hamda jamiyat salomatligi va aholi

genofondiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi murakkab global fenomen sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ushbu jarayon uyushgan jinoiy guruhlar faoliyati bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ular uchun narkotik savdosi eng yuqori daromad manbalaridan biri hisoblanadi. Shu jihatdan, mazkur tahdidlar global miqyosda muvofiqlashtirilgan va tizimli yondashuvni talab etadi.

Bugungi kunda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev rahbarligida respublikada giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurashish sohasida milliy qonunchilik bazasini zamonaviy xavf-xatarlar asosida takomillashtirishga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, 2025 yil 6 maydagi “O‘zbekiston Respublikasida giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanmasiga chek qo‘yish orqali ularning aholi salomatligi va mamlakatimiz genofondiga salbiy ta’sirini bartaraf etish strategik chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-73 sonli [4] hamda 2025 yil 3 noyabrdagi “Aholi salomatligi va millat genofondini giyohvandlik va narkojinoyatlardan samarali himoya qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-207-sonli [5] Farmonlari bu borada muhim huquqiy asos bo‘ldi.

Amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida normativ-huquqiy hujjatlar axborot texnologiyalari sharoitida sodir etilayotgan jinoyatlarni qamrab olish, jinoiy javobgarlik mexanizmlarini aniq belgilash, profilaktika va reabilitatsiya choralarini huquqiy jihatdan mustahkamlashga qaratilmoqda. Bir so‘z bilan aytganda, mamlakatimizda giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurashishning huquqiy asoslarini raqamli davr talablariga mos ravishda modernizatsiya qilish jarayoni izchil davom etmoqda.

Shu bilan birga, huquqiy bazani tizimli takomillashtirib borilishiga qaramasdan, transmilliy narkotahdidlarga qarshi kurashish sohasida qator tizimli va dolzarb muammolar saqlanib qolmoqda. Ayniqsa, zamonaviy tahdidlarning tez o‘zgaruvchan va murakkab xususiyati ularni barvaqt aniqlash va samarali bartaraf etishni qiyinlashtirmoqda.

Transmilliy jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida qator xalqro standartlar mavjud, jumladan:

BMTning asosiy xalqaro konvensiyalari (asosiy huquqiy standartlar) - narkotik vositalarni ishlab chiqarish, tarqatish va iste’molini qat’iy nazorat qilishni tartibga soladi.

Bugungi kunda transmilliy narkotahdidlarga qarshi kurashishda eng dolzarb xalqaro standartlar, avvalo, raqamli iqtisodiyot va transchegaraviy jinoyatlar sharoitiga moslashtirilgan holda qo‘llanilishi bilan ahamiyatlidir. Xususan, kriptovalyuta orqali moliyalashtirishga qarshi FATF standartlari, transmilliy jinoyatchilikka qarshi Palermo konvensiyasi va tezkor axborot almashinuv mexanizmlari zamonaviy tahdidlarga qarshi kurashda hal qiluvchi o‘rin tutmoqda.

Ammo bugungi kunda sodir etilayotgan narkojinoyatlarbunday standartlarni doimiy takomillashtirish va tizimli ishlarni amalga oshirish lozimligini ko‘rsatmoqdi. Shu nuqtai nazardan, mavjud vaziyatni chuqur tahlil qilish quyidagi asosiy muammolarni alohida ajratib ko‘rsatish imkonini beradi.

1. Raqamli texnologiyalar orqali narkotrafikning kengayishi:

Raqamli texnologiyalar orqali narkotrafikning kengayishi bugungi kunda transmilliy narkotahdidlarning eng xavfli va tez rivojlanayotgan yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Internet, ayniqsa darknet platformalari, ijtimoiy tarmoqlar va messenjerlar narkobiznes uchun yangi “yashirin bozor”ni shakllantirib, sotuvchi va xaridor o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri, anonim va tezkor aloqa o‘rnatish imkonini bermoqda. Bu esa an’anaviy narkotrafik zanjirlarini qisqartirib, huquqni muhofaza qiluvchi organlar uchun aniqlash va nazorat qilishni ancha murakkablashtiradi. Xususan, onlayn muhitdagi psevdo-anonimlik, operatsiya xarajatlarining pastligi va global qamrov imkoniyati jinoiy guruhlarga bozorni kengaytirish va faoliyatni yashirin olib borish imkonini bermoqda. Shu bilan birga, ijtimoiy tarmoqlar orqali giyohvand moddalarni targ‘ib qilish va sotish holatlari, ayniqsa yoshlar orasida, sezilarli darajada oshib borayotgani mazkur muammoning ijtimoiy xavfini yanada kuchaytirmoqda.

2. Kriptovalyutalar orqali moliyalashtirish muammosi:

Kriptovalyutalar orqali moliyalashtirish muammosi transmilliy narkotrafikning zamonaviy va murakkab ko‘rinishlaridan biri sifatida namoyon

bo‘lmoqda. Xususan, Bitcoin, Monero kabi raqamli aktivlar orqali amalga oshirilayotgan moliyaviy operatsiyalar anonimlik va markazlashmaganlik xususiyati tufayli jinoiy daromadlarni yashirish va transchegaraviy o‘tkazishni osonlashtirmoqda. Bu esa an’anaviy bank tizimlari orqali amalga oshiriladigan moliyaviy nazorat mexanizmlarini chetlab o‘tishga imkon berib, “pul yuvish” (money laundering) jarayonlarini yanada murakkablashtiradi. Shu bilan birga, kriptovalyuta tranzaksiyalarining tezkorligi va global xususiyati huquqni muhofaza qiluvchi organlar uchun ularni kuzatish va manbasini aniqlashni qiyinlashtirmoqda. Natijada, narkobiznes moliyaviy jihatdan yanada mustahkamlanib, uning transmilliy tarmoqlari kengayishiga sharoit yaratmoqda.

3. Yoshlar orasida Sintetik va yangi psixoaktiv moddalarning tez tarqalishi va giyohvandlik xavfining ortishi:

Yoshlar orasida sintetik va yangi psixoaktiv moddalarning tez tarqalishi hamda giyohvandlik xavfining ortishi bugungi kunda eng tashvishli tendensiyalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, fentanil, nitazen kabi sun’iy moddalarning arzonligi, oson yashirilishi va kuchli ta’siri ularni yoshlar uchun “oson kirish mumkin” xavfli vositaga aylantirmoqda. Internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali ushbu moddalarning reklama qilinishi, tarqatilishi va hatto “zamonaviy trend” sifatida ko‘rsatilishi yoshlar ongiga salbiy ta’sir o‘tkazmoqda. Shu bilan birga, psixologik omillar — stress, ijtimoiy bosim, o‘zini namoyon qilish istagi — giyohvandlikka moyillikni kuchaytirmoqda. Eng xavfli jihati shundaki, bunday moddalarning tarkibi tez-tez o‘zgarib turadi, bu esa ularning salomatlikka ta’sirini oldindan aniqlashni qiyinlashtiradi va ko‘p hollarda o‘limga olib keluvchi oqibatlarni keltirib chiqaradi.

4. Transmilliy jinoiy guruhlar faoliyatining kuchayishi va xalqaro hamkorlik va muvofiqlashuvning yetarli emasligi:

Transmilliy jinoiy guruhlar faoliyatining kuchayishi hamda xalqaro hamkorlik va muvofiqlashuvning yetarli emasligi bugungi kunda global narkotahdidlarga qarshi kurashdagi eng jiddiy muammolardan biri hisoblanadi. Uyushgan jinoiy tarmoqlar davlat chegaralaridan ustun holda faoliyat yuritib,

narkotrafik, pul yuvish va korrupsiya kabi yo‘nalishlarni birlashtirgan holda yuqori darajada integratsiyalashgan tizimni shakllantirmoqda. Bu esa ularga tez moslashish, yangi yo‘nalishlar ochish va huquqni muhofaza qiluvchi organlar harakatlaridan oldinroq harakat qilish imkonini bermoqda. Shu bilan birga, davlatlar o‘rtasida axborot almashinuvi, huquqiy bazalarning uyg‘un emasligi hamda qo‘shma operatsiyalarni muvofiqlashtirishdagi qiyinchiliklar global kurash samaradorligini pasaytiradi. Natijada, transmilliy jinoiy guruhlar “chegarasiz imkoniyatlar”dan foydalanib, xalqaro xavfsizlikka doimiy tahdid solib kelmoqda va bu holat kuchaytirilgan, yagona va muvofiqlashtirilgan xalqaro strategiyani ishlab chiqish zaruratini yanada dolzarb etmoqda.

Shu bilan birga, Shanxay hamkorlik tashkiloti (keyingi o‘rinlarda ShHT) va Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va ular prekursorlarining qonunga xilof ravishda muomalada bo‘lishiga qarshi kurashish bo‘yicha Markaziy Osiyo mintaqaviy axborot muvofiqlashtirish markazi doirasida mazkur sohada tezkor ma’lumotlar almashinuvini jadallashtirish va ushbu tashkilotlarning imkoniyatlaridan kengroq foydalanish zaruriyatini ko‘rsatmoqda.

Bundan tashqari, mintaqa davlatlarida giyohvandlik va narkojinoyatlar uchun jinoiy javobgarlikni belgilashdagi farqlar transmilliy jinoyatlarga qarshi kurashish samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Masalan, birgina geroin (diasetilmorfin) moddasining noqonuniy muomalasi uchun jinoiy javobgarlik turlicha belgilangan. Bu esa jinoyatchilar tomonidan qonunchilikdagi farqlardan foydalanish ehtimolini yuzaga keltiradi.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurashishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish hamda qarshi kurashishni raqamli davr talablariga moslashtirish maqsadida quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq.

Birinchidan, internet tarmog‘idagi giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurashishda maxsus dasturiy ta’minotni rivojlantirish zarur. Bu borada quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

giyohvandlik vositalari savdosi bo‘yicha yashirin virtual guruhlar va botlarni monitoring qilish va aniqlashga mo‘ljallangan maxsus dasturiy mahsulotlarni ishlab chiqish;

ushbu dasturiy mahsulotlar talablarini “President Tech Award” – eng yaxshi dasturiy mahsulotlar tanloviga kiritish;

dasturchilar va huquqni muhofaza qilish organlari o‘rtasida hamkorlikni kuchaytirish orqali internet makonidagi giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi innovatsion yechimlar va texnologiyalarni yaratish.

Ikkinchidan, Kriptovalyutalar orqali moliyalashtirish muammosini bartaraf etish, avvalo, global moliyaviy nazorat tizimlarini raqamli transformatsiya sharoitiga moslashtirishni talab etadi. Xususan, Bitcoin va Monero kabi raqamli aktivlar orqali amalga oshirilayotgan noqonuniy operatsiyalarni cheklash uchun davlatlar o‘rtasida blokcheyn tranzaksiyalarini monitoring qilish bo‘yicha yagona xalqaro standartlar va integratsiyalashgan tahlil platformalarini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, sun’iy intellekt asosida shubhali tranzaksiyalarni erta aniqlash tizimlarini joriy etish hamda xalqaro huquqni muhofaza qiluvchi organlar o‘rtasida operativ axborot almashinuvini kengaytirish orqali kriptovalyuta orqali pul yuvish va narkotik savdosini moliyalashtirish imkoniyatlarini cheklash.

Uchinchidan, Yoshlar orasida sintetik va yangi psixoaktiv moddalar tarqalishining oldini olish kompleks, profilaktik va institutsional yondashuvni talab etadi. Avvalo, ta’lim tizimida profilaktika ishlarini kuchaytirish, maktab va oliy ta’lim muassasalarida giyohvandlikka qarshi ilmiy asoslangan targ‘ibot dasturlarini joriy etish muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, ota-onalar, pedagoglar va yoshlar bilan ishlovchi mutaxassislarning profilaktik savodxonligini oshirish orqali erta ogohlantirish tizimini samarali ishlatish mumkin. Internet va ijtimoiy tarmoqlardagi ta’sirni cheklash maqsadida raqamli monitoring mexanizmlarini kuchaytirish, giyohvand moddalarni targ‘ib qiluvchi kontentlarni tezkor bloklash va kiberxavfsizlikni ta’minlash ham dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Shu bilan birga, yoshlar uchun psixologik qo‘llab-quvvatlash markazlari, stressni boshqarish va

ijtimoiy reabilitatsiya dasturlarini kengaytirish orqali ularning zararli ta’sirlarga moyilligini kamaytirish mumkin. Eng muhimi, bu sohada davlat, fuqarolik jamiyati va xalqaro tashkilotlar o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish orqali yoshlar orasida sintetik moddalar tarqalishining barqaror oldini olish tizimini shakllantirish zarur.

To‘rtinchidan, Transmilliy jinoiy guruhlar faoliyatining kuchayishi hamda xalqaro hamkorlik va muvofiqlashuvning yetarli emasligi muammosini samarali hal etish uchun, avvalo, giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurashish sohasida xalqaro hamkorlikni yanada kuchaytirish va xalqaro tashkilotlar imkoniyatlaridan keng foydalanish zarur. Bu borada, mintaqaviy va global darajada yagona yondashuvni shakllantirish maqsadida, davlatlar o‘rtasida huquqiy normalarni uyg‘unlashtirish va muvofiqlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, Shanghai Cooperation Organisation doirasida giyohvandlik vositalari, ularning analoglari va psixotrop moddalarning noqonuniy muomalasi uchun jinoiy javobgarlikni belgilashda ularning miqdoriy mezonlarini davlatlar qonunchiligida birxillashtirish (unifikatsiyalash) zarur. Shuningdek, ShHTning tegishli organlari vakolatlarini kengaytirish orqali ularning narkotrafikka qarshi kurashdagi institutsional roli va amaliy ta’sirini kuchaytirish muhim hisoblanadi. Bundan tashqari, Central Asian Regional Information and Coordination Centrening onlayn platformasi orqali giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning noqonuniy aylanishiga oid tezkor, statistik va ilmiy-uslubiy ma’lumotlarni muntazam ravishda kiritib borish tizimini takomillashtirish lozim. Natijada, yagona axborot almashinuvi, huquqiy uyg‘unlashuv va institutsional hamkorlik asosida transmilliy narkotahdidlarga qarshi kurashishning samaradorligini sezilarli darajada oshirish mumkin bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, transmilliy narkotahdidlarga qarshi kurashish bugungi globallashuv sharoitida insoniyat xavfsizligi va davlatlar barqarorligi uchun o‘ta dolzarb masala bo‘lib qolmoqda. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, narkotrafikning raqamlashuvi, sintetik va yangi psixoaktiv moddalarning kengayishi, transmilliy jinoiy guruhlar faolligining ortishi hamda xalqaro hamkorlik va muvofiqlashuvdagi ayrim bo‘shliqlar ushbu sohadagi asosiy chaqiriqlarni tashkil etmoqda. Shu bilan

birga, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, huquqiy bazaning takomillashtirilishi va xalqaro hamkorlikning kengayishi mazkur tahdidlarga qarshi kurashishning yangi bosqichga ko‘tarilayotganini anglatadi. Shu nuqtai nazardan, mazkur muammoni samarali hal etish faqat huquqiy choralar bilan cheklanmasdan, balki ilmiy asoslangan, kompleks va xalqaro miqyosda muvofiqlashtirilgan yondashuvni talab etadi, zero aynan shunday yondashuv orqaligina jamiyat salomatligi va davlatlar barqarorligini ta’minlash mumkin bo‘ladi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. https://ocindex.net/report/2025/section2/?utm_source=chatgpt.com
2. BMT Narkotiklar va jinoyatchilik bo‘yicha boshqarmasining (UNODC) «2025 yilgi Butunjahon narkotiklar to‘g‘risidagi ma’ruzasi» ma’lumotlari asosida.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Narkotiklar va o‘qotar qurollarni nazorat qilish agentligi rasmiy kanali. https://web.telegram.org/a/#-1002408334448
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 06.05.2024 yildagi PF-73-son. https://lex.uz/uz/docs/6912475

[1]O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 03.11.2025 yildagi PF-207-son. https://lex.uz/uz/docs/7818774.

Olimjonov Xushnudbek Maxamadsalim o‘g‘li
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
mustaqil izlanuvchisi
yu.f.b.f.d. (PhD), dotsent

MILLIY GVARDIYA HARBIY XIZMATCHILARINING HUQUQIY HIMOYASINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya: ushbu maqolada Milliy gvardiya harbiy xizmatchilari jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasida xizmat majburiyatlarini barjarishlari, inson, jamiyat va davlat xavfsizligini ta’minlovchi asosiy bo‘g‘inni tashkil etishi, mazkur faoliyatni amalga oshirish jarayoni huquq normalari bilan tartibga solinishi hamda Konstitutsiya, harbiy qonunchilik shuningdek, harbiy nizomlarning talablariga asoslanishi, shu bilan birga, mamlakat mudofaasida harbiy xizmatchilar alohida o‘rin tutishi, ularning o‘ziga xos vazifasi butun jamiyat va davlat manfaatlariga xizmat qilishi, ushbu xizmat ularning huquqiy maqomi va jamiyatdagi mavqeiga bir qator cheklovlar qo‘yishi mumkinligidan kelib chiqib, ularning huquqiy himoyasini takomillashtirish kabi masalalarga to‘xtalib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Milliy gvardiya, harbiy xizmatchi, huquqiy himoya, harbiy qonunchilik, ijtimoiy himoya, normativ-huquqiy hujjat, huquqiy ta’minlash, qonun, farmon, qaror, huquqiy asos, takomillashtirish, inson, jamiyat, davlat.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПРАВОВОЙ ЗАЩИТЫ ВОЕННОСЛУЖАЩИХ НАЦИОНАЛЬНОЙ ГВАРДИИ

Аннотация: в данной статье рассматриваются вопросы совершенствования правовой защиты военнослужащих в обороне страны, учитывая, что военнослужащие Национальной гвардии выполняют свои служебные обязанности в сфере обеспечения общественной безопасности, составляют основное звено, обеспечивающее безопасность личности, общества и государства, процесс осуществления этой деятельности регулируется правовыми нормами и основывается на требованиях Конституции, военного законодательства и военных уставов, при этом учитывая, что военнослужащие занимают особое место в обороне страны, их специфическая задача служит интересам всего общества и государства, и эта служба может налагать ряд ограничений на их правовой статус и положение в обществе.

Ключевые слова: Национальная гвардия, военнослужащий, правовая защита, военное законодательство, социальная защита, нормативно-правовой акт, правовое положение, закон, указ, решение, правовая основа, улучшение, человек, общество, государство.

IMPROVING THE LEGAL PROTECTION OF NATIONAL GUARD SERVICEMEN

Abstract: this article discusses the issues of improving the legal protection of military personnel in the defense of the country, considering that the National Guard military personnel fulfill their service obligations in the field of ensuring public security, constitute the main link ensuring the security of the individual, society and the state, the process of implementing this activity is regulated by legal norms and

is based on the requirements of the Constitution, military legislation and military regulations, at the same time, considering that military personnel occupy a special place in the defense of the country, their specific task serves the interests of the entire society and the state, and this service may impose a number of restrictions on their legal status and position in society.

Key words: National Guard, military serviceman, legal protection, military legislation, social protection, regulatory legal act, legal provision, law, decree, decision, legal basis, improvement, person, society, state.

O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi harbiy xizmatchilari mamlakatda jamoat tartibi saqlash va xavfsizligini ta’minlashda muhim rol o‘ynamoqda. Harbiy xizmatchilarning huquqiy himoyasi nafaqat, ularning shaxsiy erkinliklari va huquqlarini himoya qilish, qolaversa mamlakatni va fuqarolarni xavfsizligini ta’minlashda murakkab mexanizmlardan biridir.

Shu sababli, harbiy xizmatchilarga nisbatan huquqiy himoyani kuchaytirish va ularning huquq, erkinliklarini ta’minlash orqali jamiyatda barqarorlik va xavfsizlikni ta’minlashga xizmat qiladi. Avvalo, harbiy xizmatchilarning huquqiy himoyasi haqida so‘z ketganda, uning nazariy asoslariga to‘xtalib o‘tish maqsadga muvofiqdir.

O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi dastlab, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining 1992-yil 23-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasining Milliy gvardiyasini tashkil etish to‘g‘risida”gi 29-son Qarori bilan “O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risida“gi 1991-yil 31-avgust kunidagi qonuniga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining 3408-son harbiy qismi negizida Milliy gvardiya brigadasi tashkil etilib, mamlakat Mudofaa ishlari vazirligi tasarrufiga berilgan. 2017-yil 4-avgust kunidan boshlab Qurolli kuchlar tarkibidagi mustaqil tuzilma sifatida faoliyat ko‘rsatmoqda[5]. Ushbu normativ-huquqiy hujjatlar Milliy gvardiya bo‘linmasini tashkil etilishi va faoliyat yuritishi uchun yuridik asos bo‘lib xizmat qildi.

Milliy gvardiya harbiy xizmatchilarini huquqiy himoyasining nazariy asoslari inson huquqlarining umumiy nazariy asoslariga tayanib, har bir fuqaro ham, harbiy xizmatchi ham qonunchilikka muvofiq huquqlardan to‘liq foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lishi lozim.

Huquqiy himoyaning nazariy jihatlarida ularning shaxsiy erkinliklari, mehnat qilish huquqlari, ijtimoiy ta’minot olishga bo‘lgan ehtiyojlari mustahkamlanadi. Qonunlar va normativ-huquqiy hujjatlar harbiy xizmatchilarning huquqlari va ularni himoya qilish mexanizmlarini belgilaydi.

Bundan tashqari, Milliy gvardiya harbiy xizmatchilarining huquqiy himoyasining huquqiy asoslariga to‘xtaladigan bo‘lsak, huquqiy himoyani ta’minlash uchun qonunlar va bir necha normativ-hujjatlar tasdiqlangan.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi asosiy yuridik hujjat bo‘lib xizmat qilmoqda. Xususan, Konstitutsiyaning 152-moddasida “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari O‘zbekiston Respublikasining davlat suverenitetini va hududiy yaxlitligini, aholining tinch hayoti va xavfsizligini himoya qilish uchun tuzilishi” belgilangan[1]. Bu norma esa, mamlakatda Milliy gvardiyani tashkil etish uchun huquqiy asos bo‘la oladi. Konstitutsiyada har bir insonning yashash, shaxsiy erkinlik va mehnat qilish kabi huquqlari himoyalanishi belgilangan. Albatta, ushbu normalar harbiy xizmatchilarning ham huquqlarini ta’minlashni kafolatlaydi.

Shuningdek, ushbu bo‘linmada harbiy xizmatchilarning xizmat qilishiga O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 12-sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining harbiy xizmatni o‘tash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi PQ-4447-son qarori yuridik jihatdan fuqarolarni harbiy xizmatchi sifatida mehnat qilish huquqlarini kafolatlab beradi[3]. Bu qaror harbiy xizmatchilar uchun zarur shart-sharoitlarni, qonunlarga to‘la muvofiq huquq va majburiyatlarni belgilaydi. Harbiy xizmatchilarga nisbatan qo‘yiladigan talablar va ularning huquqlari buzilgan taqdirda qabul qilinadigan huquqiy choralar nazarda tutilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining huquqiy maqomi va asosiy vazifalarining huquqiy ta’minlanishi O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil

18-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi to‘g‘risida”gi O‘RQ-647-son Qonuni bilan mustahkamlandi[2]. Ushbu qonunga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari qo‘shinlarining jamoat xavfsizligini ta’minlash va huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasida huquqni muhofaza qilishga doir ayrim vazifalarga ega bo‘lgan maxsus turi ekanligi belgilandi.

Shuningdek, Milliy gvardiyaning asosiy vazifalari etib, jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari, erkinliklari hamda qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish, terrorizmga qarshi kurashishda, shuningdek terrorchilik harakatlarining hamda tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etishda ishtirok etish, tergovga qadar tekshiruvni amalga oshirish, surishtiruv o‘tkazish, jinoyat ishlarini qo‘zg‘atish va ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni yuritish, davlat obyektlarini, o‘ta muhim, toifalangan obyektlarni hamda boshqa obyektlarni, jismoniy va yuridik shaxslarning mol-mulkini qo‘riqlash, qo‘riqlash faoliyati sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirish, huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish, shu jumladan mazkur huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, bartaraf etish, jamoat tartibini saqlash, shu jumladan ommaviy tadbirlar, mitinglar, yig‘ilishlar, namoyishlar o‘tkazilayotganda hamda fuqarolar gavjum bo‘ladigan joylarda jamoat tartibini saqlash, favqulodda holat, alohida davr va terrorchilikka qarshi operatsiyalarni o‘tkazish sharoitlarida huquqiy rejimni ta’minlash, qo‘riqlanadigan shaxslarning xavfsizligini ta’minlashda ishtirok etish, chet davlatlarning rasmiy vakillarini, oliy darajadagi xorijiy delegatsiyalarni kutib olishda va kuzatib qo‘yishda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti ishtirokidagi tantanali tadbirlar chog‘ida rasmiy marosimlarni o‘tkazish, huquqbuzarliklarning oldini olish, ularni aniqlash va ularga chek qo‘yish maqsadida aholi punktlaridagi jamoat joylarida patrullik qilish, O‘zbekiston Respublikasining hududiy mudofaasi tizimida O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarini jangovar qo‘llash rejalari bo‘yicha maxsus vazifalarni hal etish, O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmatining Chegara qo‘shinlariga O‘zbekiston Respublikasining Davlat

chegarasini qo‘riqlash hamda himoya qilishda ko‘maklashish va Milliy gvardiya O‘zbekiston Respublikasining qonunlariga va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlariga muvofiq boshqa vazifalarni ham bajarishi mumkinligi huquqiy jihatdan mustahkamlandi.

Shu bilan birga, mazkur hujjatga asosan, Milliy gvardiyaning harbiy xizmatchilari bu Milliy gvardiya organlarida haqiqiy harbiy xizmatda bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari Milliy gvardiyaning harbiy xizmatchilari ekanligi ko‘rsatib o‘tildi.

Bundan tashqari, Milliy gvardiyaning harbiy xizmatchisi davlat organi vakili sifatida ish yuritishi va davlat himoyasi ostida bo‘lishi, Qonun bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri vakolat berilgan shaxslardan tashqari hech kim Milliy gvardiya harbiy xizmatchisining qonuniy faoliyatiga aralashishga, shuningdek Milliy gvardiyaning harbiy xizmatchisini qonun bilan Milliy gvardiya zimmasiga yuklatilmagan majburiyatlarni bajarishga majburlash huquqiga ega emasligi va Milliy gvardiyaning harbiy xizmatchisi o‘z ish yurituvida bo‘lgan ishlar va materiallarning mohiyati haqida biror-bir tushuntirishlar berishga, shuningdek bunday ishlar hamda materiallarni, shu jumladan fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga daxldor ishlar hamda materiallarni tanishib chiqish uchun qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollardan va tartibdan boshqacha tarzda taqdim etishga majbur emasligi hamda Milliy gvardiyaning harbiy xizmatchilari o‘ziga nisbatan qabul qilinayotgan qarorlar va harakatlar (harakatsizlik) yuzasidan Milliy gvardiyaning yuqori turuvchi mansabdor shaxsiga belgilangan tartibda shikoyat qilish huquqiga ega ekanliklari kabi huquqiy himoyasi kafolatlangan.

Mazkur normativ-huquqiy hujjatlar va huquqiy himoyaning amaldagi holatlari tahlilidan kelib chiqib, Milliy gvardiya harbiy ximatchilarining huquqiy himoyasini samarali amalga oshirish uchun quyidagi mexanizmlarga ajratish zaruriyati borligini ko‘rsatadi.

Xususan, birinchidan, huquqiy bilimlarni yetarli ekanligi va axborot tizimlari orqali harbiy xizmatchilar o‘zlarining huquqlari va majburiyatlarini yaxshi bilishlari

kerak. Shuning uchun huquqiy ta’limni mukammal o‘rgatilishi va axborot tizimida tushuntirilib borilishi muhim rol o‘ynaydi.

Ikkinchidan, murojaatlarni ko‘rib chiqish organlari faoliyatida harbiy xizmatchilar huquqlari buzilgan taqdirda ushbu organlar yoki maxsus komissiyalarga murojaat qilib, shikoyatlarini muddatida ko‘rib chiqishni talab qilish imkoniyatiga ega bo‘lishlari kerak.

Uchinchidan, huquqiy yordam markazlarini tashkil etish orqali harbiy xizmatchilar uchun huquqiy maslahat berish, ularning huquqlari va manfaatlarini himoya qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

To‘rtinchidan, Harbiy sudlar harbiy xizmatchilar uchun maxsus majburiyat va huquqlar bilan bog‘liq holatlarda qonunchilikni amalga oshiradi. Ushbu sudlar harbiy xizmatchilarning huquqlarini himoya qilish, ularga nisbatan qonun buzilishlarni tizimli ravishda aniqlash va hal qilish vazifasini bajaradi.

Harbiy xizmatchilarning huquqiy himoyasi sohasida amalga oshirilayotgan amaldagi holatlar ijobiy ko‘rsatkichlarga ega bo‘lishiga qaramasdan amaliyotda ba’zi bir muammolar va kamchiliklarga duch kelinmoqda. Bularga bir qancha asosiy sabablarni keltirib o‘tish mumkin. Masalan, Qonunchilikdagi ayrim nomutanosibliklar yoki yuridik kolliziyalarni aytish mumkin. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyev 2026-yil 13-yanvar kuni Xavfsizlik Kengashining kengaytirilgan yig‘ilishida “Zamonaviy xavf va tahdidlarning mazmuni ham, ko‘lami ham kundan-kunga o‘zgarib borayotgani, mudofaa va xavfsizlik sohasi oldiga katta vazifalar qo‘yilayotganini inobatga olib, davlatimiz rahbari sakkiz yil oldin qabul qilingan Mudofaa doktrinasi hamda 1997 yilda qabul qilingan Milliy xavfsizlik konsepsiyasini qayta ko‘rib chiqish vaqti kelganini ko‘rsatib o‘tdi”[4].

Shuningdek, harbiy xizmatchilarda huquqiy bilimlarning yetishmasligi holatlari mavjud. Milliy gvardiya harbiy xizmatchilari o‘rtasida o‘tkazilgan anketa so‘rovnoma tahlillariga ko‘ra, ishtirok etgan respondentlarning 50 foizidan ko‘prog‘i o‘zida huquqiy bilimlar yetarli emasligini qayd etishgan.

Shu bilan birga, byurokratiya va amalga oshirishdagi muammolar mavjud. Xususan, huquqiy mexanizmlarni samarasiz ishlashi, ayrim holatlarda byurokratik holatlarni uchrab turishi harbiy xizmatchilarning huquqiy himoyasini to‘liq ta’minlanmasligiga olib kelmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 12-sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining harbiy xizmatni o‘tash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi PQ-4447-son qarorining 247-bandiga muvofiq[3], Kontrakt bo‘yicha harbiy xizmatchilarga navbatdagi ta’tilni berish ularning sog‘lig‘ini yaxshilash, jismoniy va axloqiy-ruhiy kuchini tiklash hamda har tomonlama dam olishining muhim va zarur omili sifatida qaralishi nazarda tutilgan bo‘lsa ham, ayrim holatlarda ta’tilga ruxsat berilmaslik yoki qo‘shimcha yil bo‘yicha hisobotlar talab qilish holatlari uchramoqda.

Mazkur holatlar albatta, bo‘linmalarda harbiy xizmatchilarning huquqiy himoyasini samaradorligi oshirish va huquqiy ta’minlash mexanizmlarini takomillashtirish zaruriyati dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Yuqoridagi fikrlar va tahlillardan kelib chiqib, Milliy gvardiya tizimida harbiy xizmatchilarning huquqiy himoyasini takomillashtirish maqsadida quyidagi taklif va tavsiyalarni ilgari surish maqsadga muvofiq:

birinchidan, Qonunlar va idoraviy hujjatlarni takomillashtirish orqali harbiy xizmatchilarning huquqiy himoyasini muntazam mustahkamlab borishga xizmat qiladi. Xususan, “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi to‘g‘risida”gi Qonunining “Milliy gvardiyaning harbiy xizmatchisini huquqiy himoya qilish” deb nomlangan 33-moddasiga “Harbiy ombudsman” foaliyatini tashkil etish” bo‘yicha qo‘shimcha va o‘zgartish kiritish lozim;

ikkinchidan, harbiy xizmatchilar uchun huquqiy ta’lim tizimini mustahkamlash orqali huquqiy yordam ko‘rsatish shuningdek, harbiy xizmatchilarning huquqiy himoyasi bilan faoliyat olib boruvchi “Harbiy ombudsman” instituti tizimini joriy qilish zaruriyati mavjud;

uchinchidan, huquqiy mexanizmlarning samarali ishlashini ta’minlash uchun harbiy xizmatchilar uchun maxsus huquqiy himoya organlari va markazlar tashkil etish maqsadga muvofiq deb taklif qilamiz.

Mamlaktimizda Milliy gvardiya harbiy xizmatchilarining huquqiy himoyasini takomillashtirish masalalari xalq tinchligi, jamiyatning taraqqiyoti va yurt farovonligi va barqarorligini ta’minlashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Qonunlarning to‘g‘ri va samarali ishlashi, harbiylarning huquqiy ta’minoti, maxsus vakolatli organlar va mexanizmlar orqali ularning huquqlarini himoya qilish jamiyatning yuksalishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. “O‘zbekiston” Toshkent – 2023. – B.114
2. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 18-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi to‘g‘risida”gi O‘RQ-647-son Qonuni. 3-modda // https://web.archive.org/web/20250418033628/https: // www.lex.uz/ru/docs/-5128310
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning 2019-yil 12-sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining harbiy xizmatni o‘tash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi PQ-4447-son qarori. – B.3
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Xavfsizlik Kengashining kengaytirilgan yig‘ilishidagi nutqi. 2026-yil 13-yanvar. – B.4
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining 1992-yil 23-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasining Milliy gvardiyasini tashkil etish to‘g‘risida”gi 29-son Qarori (Hujjat kuchini yo‘qotgan 11.09.2025) // https://lex.uz/uz/docs/-379421 (Murojaat sanasi 02.04.2026)

O‘rinov Odilbek Lazizovich
Ichki ishlar vazirligi Tezkor-qidiruv departamenti
Uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashish
xizmati bosh mutaxassisi.

MINTAQAVIY JINOYATCHILIKNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI (UYUSHGAN JINOYATCHILIK VA ODAM SAVDOSIGA QARSHI KURASH FAOLIYATLARI MISOLIDA)

Annotatsiya. Mazkur maqolada mintaqaviy jinoyatchilikning zamonaviy tendensiyalari, uning transmilliy xususiyati, xususan uyushgan jinoyatchilik va odam savdosi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik ilmiy-amaliy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasida ushbu turdagi jinoyatlarga qarshi kurashish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflar ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: mintaqaviy jinoyatchilik, uyushgan jinoyatchilik, odam savdosi, transmilliy jinoyatchilik, kriminologik tahlil, latent jinoyatchilik, raqamlashuv.

ОСОБЕННОСТИ РЕГИОНАЛЬНОЙ ПРЕСТУПНОСТИ (НА ПРИМЕРЕ БОРЬБЫ С ОРГАНИЗОВАННОЙ ПРЕСТУПНОСТЬЮ И ТОРГОВЛЕЙ ЛЮДЬМИ)

Аннотация. В статье анализируются современные тенденции региональной преступности, её транснациональный характер, а также взаимосвязь между организованной преступностью и торговлей людьми с научно-практической точки зрения. Рассматриваются проводимые в Республике Узбекистан реформы в сфере противодействия данным видам преступлений, существующие проблемы и предлагаются меры по их устранению.

Ключевые слова: региональная преступность, организованная преступность, торговля людьми, транснациональная преступность, криминологический анализ, латентная преступность, цифровизация.

SPECIFIC FEATURES OF REGIONAL CRIME (ON THE EXAMPLE OF COMBATING ORGANIZED CRIME AND HUMAN TRAFFICKING)

Abstract. The article analyzes modern trends in regional crime, its transnational nature, and the interrelation between organized crime and human trafficking from a scientific and practical perspective. It also examines ongoing reforms in the Republic of Uzbekistan aimed at combating these types of crimes, identifies existing challenges, and proposes measures for their improvement.

Keywords: regional crime, organized crime, human trafficking, transnational crime, criminological analysis, latent crime, digitalization

Kirish. Globallashuv sharoitida jinoyatchilikning transformatsiyasi uning mazmun-mohiyati va shakllarini tubdan o‘zgartirmoqda. Zamonaviy jinoyatchilik,

ayniqsa, uyushgan shakllari milliy chegaralardan tashqariga chiqib, transmilliy xarakter kasb etmoqda. Bu esa uning oldini olish va unga qarshi kurashishda an’anaviy yondashuvlarni qayta ko‘rib chiqishni talab etadi.

Mintaqaviy jinoyatchilik tushunchasi bugungi kunda faqat muayyan hudud doirasidagi jinoyatlar yig‘indisi sifatida emas, balki global kriminal tarmoqlarning lokal namoyon bo‘lishi sifatida qaralmoqda. Uyushgan jinoyatchilik va odam savdosi mazkur jarayonning eng xavfli ko‘rinishlari hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili. Uyushgan jinoyatchilik va odam savdosi muammolari xalqaro va milliy darajada ko‘plab olimlar tomonidan o‘rganilgan. Xususan, transmilliy jinoyatchilikning iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlari, uning global xavfsizlikka ta’siri va latent xususiyatlari alohida tadqiq etilgan.

Shu bilan birga, raqamlashuv jarayonlari jinoyatchilikning yangi shakllarini yuzaga keltirib, uning aniqlanishi va oldini olishni murakkablashtirmoqda. Mazkur holat mavjud ilmiy yondashuvlarni yanada takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada quyidagi ilmiy usullardan foydalanildi:

tizimli tahlil;

qiyosiy-huquqiy tahlil;

statistik va kriminologik tahlil;

keys-tahlil (amaliyot misollari asosida).

Ushbu metodlar orqali mintaqaviy jinoyatchilikning zamonaviy holati va tendensiyalari kompleks o‘rganildi.

Tahlil va natijalar. Mintaqaviy jinoyatchilikning xususiyatlari

Tadqiqotlar natijasida zamonaviy mintaqaviy jinoyatchilik quyidagi xususiyatlarga ega ekanligi aniqlandi:

transmilliy tarmoqlar orqali amalga oshirilishi;

yuqori darajada tashkillashganlik;

legal iqtisodiyotga kirib borish;

raqamli texnologiyalardan foydalanish;

latentlik darajasining yuqoriligi.

Uyushgan jinoyatchilik va odam savdosining o‘zaro bog‘liqligi

Odam savdosi uyushgan jinoyatchilikning eng daromadli sohalaridan biri bo‘lib, jinoiy tuzilmalarni moliyaviy jihatdan ta’minlaydi. Bu jarayonda:

qurbonlar ekspluatatsiya qilinadi;

moliyaviy resurslar noqonuniy aylanmaga kiritiladi;

transmilliy jinoiy aloqalar mustahkamlanadi.

Amaliyot tahlili. O‘zbekistonda so‘nggi yillarda aniqlangan jinoyatlar tahlili quyidagilarni ko‘rsatadi:

jinoiy guruhlar tomonidan iqtisodiy obyektlarga bosim o‘tkazilishi;

reyderlik holatlarining uchrashi;

yoshlarning jinoiy faoliyatga jalb qilinishi.

Bu holatlar uyushgan jinoyatchilikning yangi shakllarga o‘tayotganini tasdiqlaydi.

Muhokama. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, mavjud chora-tadbirlarga qaramasdan, quyidagi muammolar saqlanib qolmoqda:

1. Jinoyatlarning raqamlilashuvi va yashirinligi;

2. Idoralararo hamkorlikning yetarli emasligi;

3. Jabrlanuvchilarni aniqlash va himoya qilish mexanizmlarining kamchiligi.

Bu muammolarni hal qilish kompleks va innovatsion yondashuvlarni talab etadi.

Xulosa va takliflar. Tadqiqot natijalariga asosan quyidagi xulosalarga kelindi:

mintaqaviy jinoyatchilik global xavf sifatida shakllanmoqda;

uyushgan jinoyatchilik va odam savdosi o‘zaro bog‘liq tizimni tashkil etadi;

raqamli texnologiyalar jinoyatchilikning yangi bosqichini yuzaga keltirmoqda.

Shu munosabat bilan quyidagi takliflar ilgari suriladi:

Qonunchilikni takomillashtirish va “ekspluatatsiya” tushunchasini kengaytirish;

2. Raqamli nazorat va tahlil tizimlarini joriy etish;

3. Xalqaro hamkorlikni kuchaytirish;

4. Jabrlanuvchilarni himoya qilish va reabilitatsiya qilish tizimini takomillashtirish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Т., 2023.
2. Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодекси. – Т., 2024.
3. United Nations Office on Drugs and Crime (UNODC). Global Report on Trafficking in Persons. – 2024.
4. Shelley L. Human Trafficking: A Global Perspective. – Cambridge University Press, 2010.
5. Albanese J. Organized Crime in Our Times. – Routledge, 2020.
6. Europol. Serious and Organised Crime Threat Assessment (SOCTA). – 2023.

Tursunbayev Dilshod Toshkenbayevich
Toshkent viloyati Ichki ishlar bosh boshqarmasi boshlig‘ining to‘rtinchi mintaqaviy hudud bo‘yicha vakili-markaz boshlig‘i

MINTAQAVIY JINOYATCHILIKA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNING KOMPLEKS MONITORINGI: KRIMINOLOGIK BASHORAT VA OLDINI OLISH MEXANIZMLARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada mintaqaviy jinoyatchilika ta'sir etuvchi omillarni kompleks monitoring qilishning nazariy va amaliy asoslari tahlil etiladi. Ijtimoiy-iqtisodiy, demografik, madaniy va institutsional omillarning jinoyatchilik dinamikasiga ta'siri ko'rib chiqiladi. Kriminologik bashoratlash metodologiyasi, zamonaviy raqamli texnologiyalar asosida monitoring tizimlarini yaratish imkoniyatlari va huquqni muhofaza qilish organlarining oldini olish faoliyatini takomillashtirish yo'llari tavsiya etiladi.

Kalit so'zlar: mintaqaviy jinoyatchilik, kriminologik monitoring, jinoyatchilik omillari, bashoratlash, oldini olish mexanizmlari, hudud, kriminologik tahlil, raqamli texnologiyalar, jinoyatchilik dinamikasi.

КОМПЛЕКСНЫЙ МОНИТОРИНГ ФАКТОРОВ, ВЛИЯЮЩИХ НА РЕГИОНАЛЬНУЮ ПРЕСТУПНОСТЬ: КРИМИНОЛОГИЧЕСКОЕ ПРОГНОЗИРОВАНИЕ И МЕХАНИЗМЫ ПРЕДУПРЕЖДЕНИЯ

Аннотация. В статье анализируются теоретические и практические основы комплексного мониторинга факторов, влияющих на региональную

преступность. Рассматривается воздействие социально-экономических, демографических, культурных и институциональных факторов на динамику преступности. Особое внимание уделяется методологии криминологического прогнозирования, возможностям внедрения современных цифровых технологий в системы мониторинга, а также путям совершенствования профилактической деятельности правоохранительных органов.

Ключевые слова: региональная преступность, криминологический мониторинг, факторы преступности, прогнозирование, механизмы предупреждения, территория, криминологический анализ, цифровые технологии, динамика преступности

COMPREHENSIVE MONITORING OF FACTORS AFFECTING REGIONAL CRIME: CRIMINOLOGICAL FORECASTING AND PREVENTION MECHANISMS

Abstract. The article analyzes the theoretical and practical foundations of comprehensive monitoring of factors influencing regional crime. It examines the impact of socio-economic, demographic, cultural, and institutional factors on crime dynamics. Special attention is given to criminological forecasting methodology, the potential of modern digital technologies in monitoring systems, and ways to improve the preventive activities of law enforcement agencies.

Keywords: regional crime, criminological monitoring, crime factors, forecasting, prevention mechanisms, territory, criminological analysis, digital technologies, crime dynamics

Kirish. Zamonaviy sharoitda jinoyatchilikni oldini olish va unga qarshi kurashish muammosi nafaqat huquqni muhofaza qilish organlarining, balki butun davlat va jamiyatning ustuvor vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda. Ayniqsa, mintaqaviy (hudud) darajasidagi jinoyatchilik tahlili va uni bashoratlash masalasi alohida ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Har bir hududning o'ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy, demografik, madaniy va geografik xususiyatlari mavjud bo'lib, bu xususiyatlar bevosita jinoyatchilik darajasi va turiga ta'sir ko'rsatadi. O'zbekiston

Respublikasida olib borilayotgan demokratik islohot va modernizatsiya jarayonlari doirasida jinoyatchilikka qarshi kurashni ilmiy asosda tashkil etish, kriminologik tadqiqotlarni amaliyotga joriy etish alohida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Kriminologiya tadqiqot instituti tomonidan mintaqaviy jinoyatchilik tendentsiyalarini o'rganish va tahlil etish sohasida faol ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Ushbu maqolada mintaqaviy jinoyatchilika ta'sir etuvchi omillarni kompleks monitoring qilishning metodologik asoslari va amaliy mexanizmlari ko'rib chiqiladi.

Tadqiqotning maqsadi — mintaqaviy jinoyatchilika ta'sir etuvchi omillarni aniqlash, ularni tizimli ravishda monitoring qilish va shu asosda jinoyatchilikni oldini olishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqishdan iborat.

2. Mintaqaviy jinoyatchilik omillarining tasnifi. Kriminologiya fanida jinoyatchilikka ta'sir etuvchi omillar turli mezonlar asosida tasniflanadi. Mintaqaviy kontekstda bu omillarni quyidagi asosiy guruhlar bo'yicha ajratish maqsadga muvofiq:

Birinchi guruh — ijtimoiy-iqtisodiy omillar. Bunga aholi bandligi darajasi, o'rtacha ish haqi va real daromadlar, qashshoqlik indeksi, iqtisodiy tengsizlik darajasi (Jini koeffitsienti), inflyatsiya va narxlarning o'sishi kiradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, yuqori ishsizlik va past turmush darajasi kuzatiladigan hududlarda mulkiy jinoyatlar, ta'magirlik va noqonuniy savdo bilan bog'liq jinoyatlar ko'proq qayd etiladi. Masalan, O'zbekiston mintaqalarini tahlil qilganda, sanoat va iqtisodiy faollik past bo'lgan joylarda yosh jinoyatchilik darajasining nisbatan yuqoriligi kuzatiladi.

Ikkinchi guruh — demografik omillar. Aholining yoshi va jinsi tarkibi, migratsiya jarayonlari, urbanizatsiya darajasi, aholi zichligi va ijtimoiy heterogenlik mintaqaviy jinoyatchilik ko'rsatkichlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Demografik o'tish bosqichini boshidan kechiruvchi, ko'p sonli yosh aholiga ega hududlarda ma'lum turdagi jinoyatlar (huliganlik, jismoniy shikastlash, narkotik moddalar bilan bog'liq jinoyatlar) ko'proq uchraydi.

Uchinchi guruh — madaniy va ijtimoiy normativ omillar. Mahalliy an'analar, diniy e'tiqod, oilaviy qadriyatlar, ijtimoiy nazorat mexanizmlari va mahalla institutining roli bu guruhga kiradi. Kuchli mahalliy ijtimoiy nazorat va an'anaviy normalar saqlanib qolgan hududlarda jinoyatchilik darajasi past bo'lish tendentsiyasi kuzatiladi.

To'rtinchi guruh — institutsional omillar. Huquqni muhofaza qilish organlarining samaradorligi, sud tizimining ishlashi, jinoyatchilikka qarshi kurash infratuzilmasi, mahkumlarni ijtimoiy reabilitatsiya qilish tizimi va fuqarolik jamiyati institutlarining rivojlanish darajasi bu omillar jumlasiga kiradi.

Beshinchi guruh — geografik va ekologik omillar. Hududning joylashuvi (chegara yaqinligi, transport yo'llari), tabiiy resurslar, iqlim sharoiti va ekologik holat ham jinoyatchilik ko'rsatkichlariga ma'lum darajada ta'sir etishi ilmiy adabiyotlarda qayd etilgan.

Mintaqaviy jinoyatchilikni monitoring qilishning metodologik asoslari. Kompleks monitoring — bu muntazam, tizimli va ko'p o'lchovli kuzatuv jarayoni bo'lib, u jinoyatchilik holatini real vaqt rejimida baholash va o'zgarishlarni aniqlash imkonini beradi. Kriminologik monitoring tizimi quyidagi asosiy metodologik tamoyillarga asoslanishi lozim: Ko'p manbali ma'lumot to'plash tamoyili. Samarali monitoring uchun faqat huquqni muhofaza qilish organlarining statistik ma'lumotlari emas, balki fuqarolarning murojaatlari, jabrlanuvchilik so'rovlari (viktimologik tadqiqotlar), ijtimoiy so'rovlar, mahkamalar va mahkumlar haqidagi ma'lumotlar, shuningdek OAV va ijtimoiy tarmoqlardagi ma'lumotlar ham hisobga olinishi zarur. Davriy taqqoslash va tendentsiyalarni aniqlash tamoyili. Monitoring tizimi joriy ko'rsatkichlarni nafaqat o'tgan davrlar bilan, balki boshqa mintaqalar bilan ham taqqoslash imkonini berishi kerak. Bu differentsial tahlil qilish va mintaqaviy xususiyatlarni aniqlashga yordam beradi.

Fanlararo yondashuv tamoyili. Kriminologik monitoring faqat yuridik tadqiqot bo'lib qolmasligi, balki sotsiologiya, iqtisodiyot, psixologiya, demografiya va geografiya fanlari bilan uzviy integratsiyalashgan bo'lishi lozim. Amaliyotga yo'naltirish tamoyili. Monitoring natijalarining bevosita amaliy qarorlar qabul

qilishga xizmat qilishi ta'minlanishi zarur. Buning uchun monitoring natijalari tushunарли va qo'llanilishi oson shaklda taqdim etilishi kerak. Zamonaviy kriminologik monitoring uchun GIS texnologiyalari (geografik axborot tizimlari) alohida ahamiyat kasb etadi. Jinoyatlarning makonda taqsimlanishini kartografik usulda tasvirlash "jinoyatchilik issiq nuqtalari"ni aniqlash, resurslarni maqsadli taqsimlash va profilaktik tadbirlarni muayyan hududlarda to'plash imkonini beradi.

Raqamli texnologiyalar asosida kriminologik monitoring tizimini shakllantirish. Hozirgi kunda sun'iy intellekt, katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash (Big Data) va prediktiv tahlil texnologiyalari kriminologik monitoringni sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish imkonini bermoqda. Bir qator xorijiy tajribalar bu yo'nalishda muhim natijalar berayotganini ko'rsatmoqda.

Prediktiv kriminologiya (oldindan bashoratlash) tizimida mashinali o'qitish algoritmlaridan foydalanish orqali statistik ma'lumotlar, ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlar va geografik omillarning murakkab kombinatsiyasiga asoslanib, muayyan hududda muayyan vaqt oralig'ida jinoyat sodir etilishi ehtimolini bashoratlash mumkin. Bu esa huquqni muhofaza qilish organlarining profilaktik faoliyatini yanada maqsadli va samarali tashkil etish imkonini beradi.

O'zbekiston sharoitida bunday tizimni joriy etish uchun quyidagi infratuzilma elementlari zarur:

— yagona kriminologik ma'lumotlar bazasini yaratish va uni doimiy yangilab turish;

— turli davlat organlari (ichki ishlar, prokuratura, sud, soliq, ish bilan ta'minlash organlari)ning ma'lumotlar bazalarini integratsiyalash;

— mintaqaviy kriminologik markazlar tarmog'ini tashkil etish va ularni markaziy monitoring tizimi bilan bog'lash;

— monitoring natijalarini vizualizatsiyalash va tahlil qilish uchun maxsus dasturiy ta'minot ishlab chiqish.

Mahalliy kontekstda monitoring tizimi nafaqat an'anaviy ro'yxatga olish ko'rsatkichlarini, balki jabrlanuvchilik surveylarini ham tizimli ravishda o'z ichiga olishi lozim. Chunki kriminologiya amaliyoti shuni ko'rsatadiki, jinoyatlarning

muhim qismi rasmiy statistikaga tushmaydi — "latent jinoyatchilik" muammosi O'zbekistonda ham mavjud va uni hisobga olmagan holda monitoring natijalarini to'liq deb bo'lmaydi.

Kriminologik bashoratlashning asosiy usullari. Kriminologik bashorat (prognoz) — bu ilmiy asosda jinoyatchilik holatining kelajakdagi holati, dinamikasi va tendentsiyalarini oldindan aniqlash jarayonidir. Bashoratlash monitoring ma'lumotlari asosida amalga oshiriladi va oldini olish tadbirlari uchun ilmiy asos vazifasini o'taydi. Qisqa muddatli bashorat (1 yilgacha) operativ qarorlar qabul qilish uchun xizmat qiladi va taktik rejalashtirish asosi hisoblanadi. O'rta muddatli bashorat (1—5 yil) strategik rejalarni tuzish va resurslarni taqsimlash uchun ishlatiladi. Uzoq muddatli bashorat (5 yil va undan ko'p) davlat kriminologik siyosatini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Bashoratlashning asosiy metodlari quyidagilar hisoblanadi: ekstrapolyatsiya usuli (o'tgan tendentsiyalarni kelajakka uzaytirish), ekspert baholash usuli, matematik modellash, qiyosiy tahlil (analogiya usuli) va kompleks usul (ularni birlashtirish). Zamonaviy kriminologiyada sun'iy intellekt asosida ishlaydigan prediktiv modellar tobora keng qo'llanilmoqda. Mintaqaviy darajada bashoratlashda quyidagi indikatorlarga alohida e'tibor qaratilishi zarur: ishsizlik darajasining o'zgarishi, narx-navo dinamikasi, migratsiya oqimlari, demografik o'zgarishlar, huquqni muhofaza qilish organlarining kadroviy ta'minlanishi va moddiy-texnik bazasi, shuningdek mahkumlarni ozodlikka chiqarish dinamikasi.

Mintaqaviy jinoyatchilikni oldini olishning kompleks mexanizmlari. Monitoring va bashorat natijalari asosida ishlab chiqiladigan oldini olish mexanizmlari uch darajada amalga oshirilishi lozim: umumiy (ijtimoiy), maxsus (kriminologik) va individual (viktimologik) profilaktika. Umumiy profilaktika doirasida ijtimoiy-iqtisodiy omillarga ta'sir ko'rsatish maqsadida aholi bandligini ta'minlash, ta'lim sifatini oshirish, ijtimoiy muhofaza tizimini kuchaytirish, madaniy-ma'rifiy ishlarni faollashtirish va ko'ngilochar infratuzilmani rivojlantirish kabi kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilishi kerak. Bu chora-tadbirlar

mintaqaning o'ziga xos muammolarini hisobga olgan holda differentsial tarzda tashkil etilishi zarur.

Maxsus kriminologik profilaktika sohasida: jinoyatchilikning "issiq nuqtalariga" yo'naltirilgan joriy nazorat; yashirin jinoyatchilikni aniqlash va unga qarshi kurash; takroriy jinoyatchilikni profilaktika qilish (retsidivizm); uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash mexanizmlarini takomillashtirish kabi tadbirlar muhim ahamiyat kasb etadi. Individual (viktimologik) profilaktika doirasida aholi o'rtasida huquqiy tarbiyani kuchaytirish, jabrlanuvchi bo'lib qolish xavfini kamaytirish bo'yicha ma'lumot tarqatish, elektron va boshqa resurslar orqali aholi bilan doimiy aloqa o'rnatish tavsiya etiladi.

Mahalla instituti — O'zbekistonda jinoyatchilikni oldini olishning o'ziga xos va samarali mexanizmi sifatida alohida e'tiborni talab etadi. Mahalla faolligini kuchaytirish, mahalla profilaktika inspektorlari tizimini takomillashtirish va mahalla kengashlarini monitoring jarayoniga jalb etish mintaqaviy jinoyatchilikka qarshi kurashda muhim natijalar berishi mumkin.

Xorijiy tajriba va O'zbekiston uchun saboqlar. Skandinaviya davlatlarida (Finlyandiya, Shvetsiya, Norvegiya) amalga oshirilayotgan "integratsiyalashgan ijtimoiy profilaktika" modeli jinoyatchilik darajasini sezilarli darajada pasaytirish imkonini bergan. Bu modelda huquqni muhofaza qilish, ijtimoiy xizmatlar, ta'lim va sog'liqni saqlash organlari o'zaro hamkorlikda ishlaydi hamda mahalliy jamoalar faol ishtirok etadi. Buyuk Britaniyada joriy etilgan "Jinoyatchilik va tartibsizliklarni kamaytirish sherikchiliklari" (Crime and Disorder Reduction Partnerships) modeli hududiy hamkorlik asosida profilaktika ishlarini tashkil etishning samarali mexanizmi sifatida tan olingan. Ushbu model O'zbekiston sharoitiga moslashtirilgan holda qo'llanilishi mumkin.

AQShda qo'llaniladigan CompStat tizimi (Kompyuterlashtirilgan statistik tahlil) — politsiya faoliyatini monitoring qilish va boshqarishning zamonaviy modeli sifatida diqqatga sazovordir. Bu tizim jinoyatchilik haritasini real vaqt rejimida yuritish, muammoli hududlarni tezkor aniqlash va resurslarni samarali

taqsimlash imkonini beradi. Xorijiy tajribani O'zbekistonga tatbiq etishda milliy an'analar, madaniy kontekst va mavjud institutsional imkoniyatlarni hisobga olish zarur. Ko'r-ko'rona ko'chirib olish o'rniga, xorijiy modellarning afzalliklarini mahalliy sharoit bilan uyg'unlashtirgan holda moslashtirilgan tizimni joriy etish maqsadga muvofiq.

Xulosalar va tavsiyalar. Amalga oshirilgan tahlil asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

Birinchidan, mintaqaviy jinoyatchilika ta'sir etuvchi omillar murakkab va o'zaro bog'liq tizimni tashkil etadi. Ularni alohida-alohida emas, balki o'zaro aloqadorlikda kompleks tarzda o'rganish zarur.

Ikkinchidan, samarali kriminologik monitoring uchun ko'p manbali ma'lumot to'plash, zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanish va fanlararo yondashuv muhim ahamiyatga ega.

Uchinchidan, kriminologik bashorat monitoring bilan chambarchas bog'liq holda amalga oshirilishi va uning natijalari bevosita amaliy qarorlar qabul qilishga xizmat qilishi zarur.

To'rtinchidan, oldini olish mexanizmlari uch darajada — umumiy, maxsus va individual — kompleks tarzda tashkil etilishi lozim.

Amaliy tavsiyalar sifatida quyidagilar taklif etiladi:

1. O'zbekiston mintaqalarida yagona kriminologik monitoring tizimini joriy etish va uni barcha viloyatlarda faoliyat ko'rsatadigan markazlar tarmog'i bilan ta'minlash;

2. Turli davlat organlari ma'lumotlar bazalarini integratsiyalash asosida yagona kriminologik axborot platformasini yaratish;

3. GIS texnologiyalaridan foydalangan holda mintaqaviy jinoyatchilik xaritasini muntazam yangilab borish va uni huquqni muhofaza qilish organlarining faoliyatini rejalashtirish uchun qo'llash;

4. Mahalla institutini monitoring tizimiga faol jalb etish va mahalla profilaktika inspektorlari faoliyatini yangi texnologiyalar bilan ta'minlash;

5. Kriminologiya tadqiqot instituti va oliy ta'lim muassasalari hamda xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni kengaytirish orqali kriminologik bashoratlash metodologiyasini takomillashtirish;

6. Aholi o'rtasida muntazam ravishda viktimologik so'rovlar o'tkazish va ularning natijalarini rasmiy statistika bilan birga tahlil qilish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining "Jinoyatlarning oldini olish to'g'risida"gi Qonuni. — T.: O'zbekiston, 2017.
2. Kriminologiya: darslik / Umumiy tahriri ostida. — T.: O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi, 2021.
3. Antipov A.N. Regional'naya kriminologiya: problemy i perspektivy. — M.: Nauka, 2019. — 312 b.
4. Sherman L.W. Evidence-Based Policing. — Washington: Police Foundation, 1998. — 14 b.
5. Weisburd D., Telep C.W. The Efficiency of Place-Based Policing // Justice Research and Policy. — 2014. — 16(2). — 16—47 bb.
6. Brantingham P., Brantingham P. Environmental Criminology. — Beverly Hills: Sage, 1981. — 338 b.
7. Felson M., Cohen L.E. Human Ecology and Crime: A Routine Activity Approach // Human Ecology. — 1980. — 8(4). — 389—406 bb.
8. Hollis-Peel M. et al. Guardianship for crime prevention: A critical review of the literature // Crime, Law and Social Change. — 2011. — 56(1). — 53—70 bb.
9. O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti. Mintaqaviy jinoyatchilik tahlili: 2022—2024 yillar hisoboti. — T., 2024.
10. Nishonov M.A. Kriminologik monitoring va bashoratlash metodologiyasi // Huquq va jamiyat. — 2023. — №3. — 45—58 bb.

Rixsimov Komron Abrorovich
O‘zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti, ilmiy xodim tadqiqotchisi

SAMARQAND VILOYATIDA SODIR ETILGAN O‘G‘RILIK JINOYATLARINING KRIMINOLOGIK TAHLILI

Annotatsiya. Mazkur maqolada Samarqand viloyatida sodir etilgan o‘g‘rilik jinoyatlarining kriminologik tahlili amalga oshirilgan bo‘lib, ularning dinamikasi, turlari va hududiy xususiyatlari o‘rganilgan. Tadqiqotda mulkiy jinoyatlar o‘sishiga ta’sir etuvchi kriminogen omillar, ijtimoiy-iqtisodiy sabablar, aholi bandligi darajasi hamda profilaktika tizimining samaradorligi tahlil qilingan. Shuningdek, o‘g‘rilik jinoyatlarining oldini olish va kriminogen vaziyatni yaxshilashga qaratilgan ilmiy asoslantirilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: o‘g‘rilik, mulkiy jinoyatlar, kriminologik tahlil, Samarqand viloyati, jinoyatlarning oldini olish, kriminogen omillar, viktimologik xavfsizlik, yoshlar jinoyatchiligi, jinoyatchilik monitoringi, profilaktika tizimi.

КРИМИНОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ КРАЖ, СОВЕРШЁННЫХ В САМАРКАНДСКОЙ ОБЛАСТИ

Аннотация. В статье рассматривается криминологический анализ краж, совершённых на территории Самаркандской области, с учётом их динамики, видов и территориальных особенностей. Особое внимание уделено выявлению криминогенных факторов, влияющих на рост имущественных преступлений, а также анализу социально-экономических причин, включая занятость населения, уровень профилактической работы и состояние системы охраны имущества. На основе проведённого исследования разработаны научно обоснованные предложения и практические рекомендации, направленные на снижение уровня краж и повышение эффективности профилактики преступлений имущественного характера.

Ключевые слова: кража, имущественные преступления, криминологический анализ, Самаркандская область, профилактика преступности, криминогенные факторы, виктимологическая безопасность, молодежная преступность, мониторинг преступности, цифровизация профилактики.

CRIMINOLOGICAL ANALYSIS OF THEFT CRIMES COMMITTED IN THE SAMARKAND REGION

Abstract. This article provides a criminological analysis of theft crimes committed in the Samarkand region, focusing on their dynamics, types, and territorial characteristics. Special attention is given to identifying criminogenic factors influencing the increase in property-related crimes, as well as examining socio-economic causes such as employment levels, effectiveness of preventive measures, and the state of property protection systems. Based on the conducted

research, scientifically grounded proposals and practical recommendations are developed to reduce theft crimes and improve the effectiveness of crime prevention strategies in the region.

Keywords: theft, property crime, criminological analysis, Samarkand region, crime prevention, criminogenic factors, victimological security, youth crime, crime monitoring, digital prevention systems.

I. O‘g‘rilik jinoyatlarining tendensiyasi va ilmiy tahlili.

a) So‘nggi yillarda (2021-2024 yillar) Samarqand viloyatida an’anaviy usulda sodir etilgan o‘g‘rilik jinoyatlari tendensiyasida bosqichma-bosqich kamayish va 2025-yilda esa keskin o‘sish kuzatilgan.

Jumladan, 2021-2024-yillar davomida o‘g‘rilik jinoyatlari 749 tadan 622 tagacha kamaygan bo‘lsa, 2025-yilda mazkur turdagi jinoyatlar soni 1 195 tani tashkil etgan.

Statistik ko‘rsatkichlarning 2025 yilda keskin o‘sishi viloyat miqyosida o‘g‘rilik jinoyatlarini jilovlash, sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar yetarlicha samara bermaganligini ko‘rsatadi.

b) o‘g‘rilik jinoyatlarining turlari kesimidagi tahlili xonadon va chorva mollari o‘g‘riliklari salmog‘i yuqori ekanligini ko‘rsatmoqda.

Xususan, 2025 yilda Samarqand viloyatida sodir etilgan o‘g‘rilik jinoyatlarining 25,1 foizi xonadon va 20,7 foizini chorva mollari o‘g‘riliklari tashkil etgan. O‘g‘rilikning ushbu turlari 2024-yilning mos davriga nisbatan ikki baravarga ko‘paygan.

Bu o‘z navbatida, xonadonlar va chorva mollarini saqlash joylarida xavfsizlik choralari hamda nazorat mexanizmlari yetarli darajada ta’minlanmagani natijasida mazkur yo‘nalishlar o‘g‘rilik jinoyatlari uchun eng ko‘p kriminogen xavfga ega sohalardan biriga aylanib borayotganini bildiradi.

v) 100 ming aholiga nisbatan o‘g‘rilik jinoyati ayrim shahar-tumanlarda viloyat ko‘rsatkichidan (+27,9) ham yuqori salbiy natija qayd etilib, Samarqand viloyatining respublikadagi kriminogen muhitiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Jumladan, Nurobod (52,1), Samarqand shahri (47,9), Qo‘shrabod (35,6), Paxtachi (35,3), Payariq (30,9) va Samarqand (28,4) tumanlarida 100 ming aholiga nisbatan sodir etilgan o‘g‘irlik jinoyatlari bo‘yicha viloyat ko‘rsatkichlaridan ham yuqori natija qayd etgan.

Ushbu hududlarda aholi zichligining yuqoriligi, urbanizatsiya jarayonlarining jadallashgani hamda profilaktika inspektorlari va mahalla yettiligi tomonidan “xonadonbay” ishlash tizimining samarali yo‘lga qo‘yilmaganligi asosiy sabab bo‘lmoqda.

g) Viloyatda o‘g‘rilik jinoyatlarining salmog‘i yuqoriligi, eng avvalo, ijtimoiy faol qatlam – yoshlar o‘rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasining manzilli yo‘lga qo‘yilmaganligini ko‘rsatadi.

Statistik ma’lumotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, oldini olish mumkin bo‘lgan o‘g‘riliklarning asosiy qismi yoshlar hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Jumladan, viloyat bo‘yicha 243 nafar yoshlar tomonidan 223 ta o‘g‘rilik jinoyatlari sodir etilib, umumiy jinoyatchilikning 28,1 foizi shu toifadagi shaxslar tomonidan amalga oshirilgan.

Shuningdek, jinoyat sodir yetgan yoshlarning 97,1 foizi (236 nafari) o‘rta va o‘rta-maxsus ma’lumotga ega shaxslarni tashkil etib, ularning aksariyati aniq kasb-hunarga ega emasligi yoki muqim ish joyi bilan ta’minlanmaganligi sababli, ularda “tez va oson” daromad topishga bo‘lgan intilishning yuqoriligidan dalolat beradi.

d) Tahlillarga ko‘ra, o‘g‘rilik jinoyatini sodir etgan shaxslarning aksariyatini doimiy daromad manbaiga ega bo‘lmagan va ijtimoiy himoya tizimi bilan to‘liq qamrab olinmagan aholi qatlami tashkil etmoqda.

Xususan, viloyatda o‘g‘rilik jinoyatlarining har to‘rtinchisi (24,4 foizi yoki 146 nafari) mardikorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi shaxslar tomonidan sodir etilganligi hududda norasmiy bandlikning yuqoriligini anglatadi.

Mazkur ko‘rsatkich shuni ko‘rsatadiki, viloyatda o‘g‘rilikning oldini olish uchun faqat “qo‘riqlash texnik vositalari”ga e’tibor qaratish yetarli emas, asosiy yechim mardikor bozorlarini tartibga solish, ushbu shaxslarning raqamli

identifikatsiyasini (ma’lumotlar bazasini) yaratish va ularni bosqichma-bosqich rasmiy bandlikka yo‘naltirish hisoblanadi.

II. O‘g‘rilik jinoyatlarining omillari va ularning ilmiy diagnozi.

O‘tkazilgan tahlillar, o‘rganilgan sud hukmlari, sotsiologik so‘rovlar va ekspertlarning fikrlari natijasida Samarqand viloyatida oldini olish mumkin o‘g‘rilik jinoyatlarini asosiy omillari va ilmiy diagnozi quyidagilar hisoblanadi:

har 100 ming aholiga nisbatan o‘g‘rilikning o‘sishi hududlarda jinoyat uchun qulay ijtimoiy va tashkiliy sharoitlar mavjudligini, profilaktika choralari esa bu o‘zgarishlarga mos ravishda qayta tashkil etilmaganini ko‘rsatadi.

aholi turar joylari va xususiy mulk obyektlarining xavfsizlik tizimi yetarlicha ta’minlanmagani xonadon o‘g‘riliklarining ortishiga sabab bo‘lmoqda. Aholi turar joylarida texnik xavfsizlik vositalari (videokuzatuv, signalizatsiya, domofon, qo‘riqlash tizimlari) yetarli darajada joriy etilmagan hamda mahalla darajasidagi profilaktik nazorat mexanizmlari va aholini mol-mulkini qo‘riqlov qamroviga olishga doir targ‘ibotlar yetarlicha samarali emas.

hayvon o‘g‘riliklarining sezilarli o‘sishi qishloq hududlarida mulk muhofazasi tizimi zaif ekanini ko‘rsatadi. Bu esa qishloq hududlarida chorva mollarini muhofaza qilish tizimi yetarlicha tashkil etilmagani hamda ayrim hollarda jinoyatchilar uyushgan tarzda amalga oshirilayotgan o‘g‘riliklar mavjudligini anglatadi.

jamoat joylardagi o‘g‘riliklar (telefon o‘g‘riligi va kissavurlik) ko‘payishi viktimologik xavf yuqori ekanini anglatadi. Bu esa, jamoat joylarida aholining mulk xavfsizligiga nisbatan ehtiyotkorlik darajasi pastligi, profilaktik nazorat va videokuzatuv tizimlari yetarli darajada qamrab olmaganini ko‘rsatadi.

yirik shahar (Samarqand shahar) muhitida aholi zichligi va iqtisodiy faollik yuqoriligi o‘g‘rilik jinoyatlari uchun kriminogen imkoniyatlarni kengaytirmoqda. Aholi va turistlar oqimi yuqori bo‘lgan shahar hududlarida jamoat joylari, savdo obyektlari va transport infratuzilmasi atrofida kriminogen vaziyat shakllanishi ehtimoli yuqori bo‘lmoqda.

Samarqand va Kattaqo‘rg‘on shaharlari, Qo‘shrabot va Paxtachi tumanlari bir necha yil davomida yuqori ko‘rsatkichlarda qayd etilgani mazkur hududlardagi ayrim

mahallalarda kriminogen omillar uzoq vaqt davomida to‘liq bartaraf etilmasdan qolganini ko‘rsatmoqda.

jinoyatlarning aksariyati yoshlar hissasiga to‘g‘ri kelishi, ular orasida huquqiy ong va ijtimoiy mas’uliyat darajasi yetarli shakllanmagani, ayrim hollarda shoshma-shosharlik asosida qaror qabul qilish va tez moddiy manfaatga intilish kabi omillar mavjudligini namoyon etmoqda.

jinoyatlarning ayrim qismi ish bilan ta’minlangan shaxslar tomonidan sodir etilgani mulkiy jinoyatlar faqat ijtimoiy nochorlik bilan emas, balki oson moddiy manfaatga intilish yoki jabrlanuvchilarning o‘zining jinoyatlarga shart-sharoit yaratib berayotgani bilan izohlash mumkin.

III. Kompleks tahlil, ilmiy xulosa va metodlar asosida kriminogen vaziyat bo‘yicha quyidagilar kriminologik prognoz qilinmoqda:

2026-yil yakuniga kelib Samarqand viloyatida sodir etilgan o‘g‘rilik jinoyatlari soni 11,5 foizga, 100 ming aholi soniga esa 27,9 tadan 29,2 taga ko‘payishi prognoz qilinadi.

O‘g‘rilik jinoyatlari Samarqand va Kattaqo‘rg‘on shaharlari, Urgut , Narpay, Kattaqo‘rg‘on, Nurobod va Paxtachi tumanlarida ko‘payish Qo‘shrabot, Jomboy, Pasdarg‘om, Toyloq, Ishtixon, Oqdaryo, Bulung‘ur, Payariq va Samarqand tumanlarida kamayish tendensiyasi kuzatiladi.

2026-yil yakunida Samarqand viloyatining ayrim mahallalarida o‘g‘rilik jinoyati tendensiyasi o‘sishi ehtimoli mavjud.

Jumladan, Samarqand tumanining “O‘zbekkenti” mahallasi, Urgut tumanining “Jartepa” mahallasi, Payariq tumanining “Do‘stlik” mahallasi, Nurobod tumanining “Mash’al” mahallasi shular jumlasidandir.

IV. O‘g‘rilik jinoyatlarining oldini olish va unga qurashish bo‘yicha ilmiy asoslantirilgan takliflar.

Birinchidan, o‘g‘rilik jinoyatlari eng ko‘r sodir etilgan mahallalarning har biri uchun alohida “manzilli mulkiy xavfsizlik rejasi” ishlab chiqish.

Bunda viloyat IIB tomonidan o‘g‘rilik jinoyati eng ko‘p sodir etilgan mahallalar ro‘yxatini shakllantirish va mazkur hududlarda profilaktika inspektorlari, patrul-post xizmati va jamoatchilik ishtirokida kuchaytirilgan tartibda ish tashkil etish.

Ikkinchidan, xonadon o‘g‘riliklari ko‘p sodir etilayotgan mahallalarda tuman-shahar IIB qo‘riqlash bo‘limlari va “mahalla yettiligi” hamkorlikda aholiga xonadon xavfsizligi bo‘yicha profilaktik tushuntirish ishlari, shuningdek, kirish yo‘laklari va ko‘p qavatli uylar atrofida videokuzatuv vositalarini o‘rnatish bo‘yicha targ‘ibot tadbirlarini o‘tkazish.

Uchinchidan, hayvon o‘g‘riliklarining oldini olish maqsadida tuman-shahar IIB, veterinariya xizmati va mahalla yettiligi bilan hamkorlikda chorva mollarini bozor va savdo nuqtalari orqali noqonuniy sotilishini oldini olishga va tungi vaqtlarda muhofaza qilishga qaratilgan profilaktik reydlar tashkil etish.

To‘rtinchidan, yoshlar ishtirokidagi o‘g‘riliklarni kamaytirish maqsadida ta’lim muassasalari bilan hamkorlikni kuchaytirish, bu borada IIB, maktablar va yoshlar ishlari agentligining hududiy boshqarma (bo‘lim)lari bilan hamkorlikda maktab va kollejlarda “mulkiy jinoyatlar profilaktikasi” (ham jinoyat sodir etish ham undan jabrlanishga oid) mavzusida profilaktik uchrashuvlar va tushuntirish tadbirlari tashkil etish.

Mazkur uchrashuvlarni ta’sirchan shaklda, xususan, JIEMlarda jazo o‘tayotgan voyaga yetmaganlar haqida maxsus videoroliklar namoyish etish, bundan tashqari ularni bevosita JIEMlarga olib borish choralarini ko‘rish lozim.

Beshinchidan, viloyatda 2025-yilda o‘g‘rilik jinoyatlari (ayniqsa xonadon va hayvon o‘g‘riliklari) keskin oshganini inobatga olib, aholining mol-mulkini qo‘riqlash choralarini rag‘batlantirish maqsadida 2026 yilda sinov tariqasida mol-mulkini qo‘riqlash xizmatiga topshirish bo‘yicha ariza bergan fuqarolar va yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun belgilangan to‘lov miqdorining 50 foizi miqdorida chegirma qo‘llash (IIVning roziligi asosida).

Oltinchidan, aholining “viktimologik madaniyatini oshirish”ga qaratilgan axborot kampaniyalarini tashkil etish.

Bunda viloyat IIB matbuot xizmati OAVlar, ijtimoiy tarmoqlar, mahallalarning telegram guruhlari va mahalla faollari yig‘ilishlari orqali fuqarolarga mulk xavfsizligi, shaxsiy ehtiyotkorlik va o‘g‘riliklardan himoyalanish bo‘yicha amaliy tavsiyalar berish.

Yettinchidan, har bir mahalla yettiligi tomonidan hududiy adliya organlari bilan birgalikda aholi o‘rtasida muntazam ravishda o‘g‘rilikni oldini olish va undan jabrlanish ehtimolini kamaytirishga doir turli ta’sirchan banner va flayerlarni tarqatish, flashpoblar tashkil etish orqali alohida “jinoyatchilikka qarshi murosasizlik immuniteti”ni shakllantirish.

Sakkizinchidan, savdo majmualari, bozorlar va aholi gavjum joylarda o‘rnatilgan LED ekranlardan manzilli profilaktika vositasi sifatida samarali foydalanish maqsadida shahar-tuman hokimliklari tomonidan mazkur vositalarning egalari bilan kelishgan holda kunning muayyan vaqtlarida fuqarolarni mulklariga ehtiyotkor bo‘lishga chaqiruvchi, o‘g‘rilik jinoyatlaridan ogohlantiruvchi qisqa ijtimoiy roliklar, videoxabarlar va profilaktik multimedialarni namoyish etib borish.

To‘qqizinchidan, viloyatda mardikor bozorlarini tartibga solish, ushbu shaxslarning raqamli identifikatsiyasini (ma’lumotlar bazasini) yaratish va ularni bosqichma-bosqich rasmiy bandlikka yo‘naltirish.

O‘ninchidan, Samarqand shahri, Nurobod, Qo‘shrabod, Paxtachi, Payariq va Samarqand tumanlarida o‘g‘rilik jinoyatining “Raqamli profili”ni yaratish.

Bunda o‘g‘rilik sodir etilgan vaqt, joy va usullari tahlil qilinib, “jinoyat uchoqlari”ni belgilash hamda kuch-vositalarni butun tuman hududiga emas, balki jinoyat sodir etilishi ehtimoli yuqori bo‘lgan joylarga yo‘naltirish.

Abdumalikov Alisher Abdulazizovich
O’zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti
Mustaqil izlanuvchisi
+998-94-688-26-66
aliwer2666@gmail.com

VOYAGA YETMAGANLAR JINOYATCHILIGINING TUZILISHI, DINAMIKASI VA OLDINI OLISH MUAMMOLARI HAMDA YECHIMLARI FARG‘ONA VILOYATI MISOLIDA

Annotatsiya: Mazkur maqolada Farg‘ona viloyatida voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining tuzilishi, dinamikasi va oldini olish muammolari kriminologik yondashuv asosida tahlil qilingan. Tadqiqot davomida jinoyatchilik ko‘rsatkichlari hududiy va ijtimoiy kesimda o‘rganilib, uning tarkibiy xususiyatlari aniqlangan. Umumiy statistik pasayish qayd etilgan bo‘lsa-da, ayrim hududlarda o‘sish sur’atlari saqlanib qolayotgani asoslab berilgan. Jinoyat sodir etgan voyaga yetmaganlarning asosiy qismi maktab yoshidagi o‘quvchilar ekani ilmiy tahlil asosida ko‘rsatib o‘tilgan. Hududiy konsentratsiya jinoyatchilikning ma’lum shahar va tumanlarda yuqori darajada jamlanayotganini tasdiqlaydi. Tadqiqot natijalari voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining ijtimoiy-pedagogik omillar bilan uzviy bog‘liqligini ochib beradi. Profilaktika mexanizmlarini takomillashtirishda manzilli va tizimli yondashuv zarurligi asoslangan. Ish natijalari Farg‘ona viloyatida voyaga yetmaganlar jinoyatchiligini kamaytirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Kalit so’zlar: voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi, jinoyatchilik tuzilishi, jinoyatchilik dinamikasi, profilaktika, hududiy tahlil, Farg‘ona viloyati, ijtimoiy omillar, maktab o‘quvchilari, kriminologik yondashuv.

СТРУКТУРА, ДИНАМИКА И ПРОБЛЕМЫ ПРЕДУПРЕЖДЕНИЯ ПРЕСТУПНОСТИ НЕСОВЕРШЕННОЛЕТНИХ И ИХ РЕШЕНИЯ НА ПРИМЕРЕ ФЕРГАНСКОЙ ОБЛАСТИ

Аннотация: В данной статье на основе криминологического анализа исследуются структура, динамика и проблемы предупреждения преступности несовершеннолетних в Ферганской области. В ходе исследования показатели преступности изучены в территориальном и социальном разрезе, определены их структурные особенности. Несмотря на общее снижение статистических показателей, в отдельных районах сохраняются темпы роста. Установлено, что основную долю правонарушителей составляют учащиеся школьного возраста. Выявлена территориальная концентрация преступности в отдельных городах и районах области. Результаты исследования подтверждают взаимосвязь

преступности несовершеннолетних с социально-педагогическими факторами. Обоснована необходимость совершенствования профилактических механизмов на основе адресного и системного подхода. Полученные выводы могут быть использованы при разработке практических мер по снижению преступности несовершеннолетних в Ферганской области.

Ключевые слова: преступность несовершеннолетних, структура преступности, динамика преступности, профилактика, территориальный анализ, Ферганская область, социальные факторы, школьники, криминологический подход.

PROBLEMS AND SOLUTIONS FOR THE STRUCTURE, DYNAMICS, AND PREVENTION OF Juvenile Delinquency USING THE EXAMPLE OF THE FERGANA REGION

Abstract: This article examines the structure, dynamics, and prevention issues of juvenile delinquency in the Fergana region based on a criminological analysis. The study analyzes crime indicators in territorial and social dimensions and identifies their structural characteristics. Although an overall statistical decrease has been observed, growth rates remain in certain districts. It has been determined that the majority of offenders are school-aged juveniles. The research also reveals a territorial concentration of juvenile crime in specific cities and districts of the region. The findings confirm the close relationship between juvenile delinquency and socio-pedagogical factors. The necessity of improving preventive mechanisms through a targeted and systematic approach is substantiated. The results of the study can serve as a basis for developing practical measures to reduce juvenile delinquency in the Fergana region.

Keywords: juvenile delinquency, crime structure, crime dynamics, prevention, territorial analysis, Fergana region, social factors, school students, criminological approach.

Kirish. Bugungi kunda voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi zamonaviy jamiyat taraqqiyoti sharoitida eng dolzarb ijtimoiy-huquqiy muammolardan biri hisoblanadi.

Mazkur hodisa nafaqat alohida shaxs xulq-atvori, balki oilaviy muhit, ta’lim tizimi, ijtimoiy nazorat darajasi, iqtisodiy sharoit va yoshlarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasi bilan chambarchas bog‘liq murakkab ijtimoiy jarayondir. Ayniqsa, aholisi zich, yoshlar ulushi yuqori bo‘lgan Farg‘ona viloyati sharoitida voyaga yetmaganlar o‘rtasida huquqbuzarliklarning oldini olish masalasi alohida dolzarblik kasb etadi.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda voyaga yetmaganlar o‘rtasida huquqbuzarliklarning oldini olish, ularni ijtimoiy-huquqiy himoya qilish hamda tarbiyasi og‘ir o‘smirlar bilan manzilli ishlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilandi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 18-martdagi PQ-110-son qarorining 3-bandida o‘quvchilar o‘rtasida huquqbuzarlik holatlariga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, shuningdek, inspektor-psixologlar tomonidan tarbiyasi og‘ir o‘quvchilar bilan ularning yashash joylarida ota-onalari va mahalla faollari ishtirokida manzilli ishlarni amalga oshirish vazifasi aniq belgilab qo‘yilgan [1]. Mazkur norma profilaktika ishlarining faqat nazorat emas, balki ijtimoiy-pedagogik va psixologik yondashuv asosida olib borilishini talab etadi.

Bundan tashqari, 2016-yil 14-sentyabrdagi “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi O‘RQ-406-son Qonun yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish, huquqiy madaniyatini oshirish hamda salbiy omillarning oldini olishni davlat siyosatining muhim yo‘nalishi sifatida belgilaydi [2]. Ushbu qonun voyaga yetmaganlar bilan ishlashning huquqiy asosini mustahkamlab, ularning ijtimoiylashuv jarayonida davlat va jamiyat mas’uliyatini belgilab beradi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ichki ishlar organlarining voyaga yetmaganlar o‘rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasiga oid faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-110-son qarori hamda Ichki ishlar vazirining 350-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan ichki ishlar organlarining voyaga yetmaganlar masalalari bo‘yicha bo‘linmalari faoliyatini tashkil etish nizomi profilaktika tizimini institutsional jihatdan mustahkamlashga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam koʻrsatish markazlari faoliyati esa Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 3-avgustdagi 490-son qaroriga muvofiq amalga oshiriladi [3]. Mazkur qaror reabilitatsiya, ijtimoiy moslashtirish va manzilli yordam mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan boʻlib, profilaktika jarayonining insonparvarlik va tiklov tamoyillariga asoslanishini ta’minlaydi.

Yuqoridagi normativ-huquqiy asoslar shuni koʻrsatadiki, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi masalasi davlat siyosati darajasida muhim strategik ahamiyat kasb etmoqda. Shu bois, Fargʻona viloyati misolida voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining tuzilishi, dinamikasi va oldini olish mexanizmlarini ilmiy tahlil qilish bugungi kunda nihoyatda dolzarbdir. Ushbu tadqiqot ishining dolzarbligi, bir tomondan, yoshlar oʻrtasida huquqbuzarliklarning oldini olish orqali jamiyat barqarorligini ta’minlash zarurati bilan, ikkinchi tomondan esa, amaldagi profilaktika tizimining samaradorligini hududiy kesimda baholash ehtiyoji bilan belgilanadi. Mazkur tadqiqot Fargʻona viloyati misolida mavjud muammolarni aniqlash, ularning sabab va shart-sharoitlarini ilmiy asosda tahlil qilish hamda profilaktika mexanizmlarini takomillashtirish boʻyicha amaliy takliflar ishlab chiqishga qaratilganligi bilan ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining tuzilishi, dinamikasi va uni oldini olish masalalari kriminologiya fanida alohida yoʻnalish sifatida shakllangan boʻlib, mazkur muammo turli hududiy va ijtimoiy sharoitlarda kompleks tadqiq etilgan. Ushbu yoʻnalishda olib borilgan ilmiy izlanishlar jinoyatchilikni faqat statistik koʻrsatkichlar doirasida emas, balki uning ijtimoiy ildizlari, yoshga xos psixologik xususiyatlari hamda profilaktika tizimining tashkiliy mexanizmlari bilan uzviy bogʻliq holda oʻrganish zarurligini asoslaydi.

Xususan, tadqiqotchi Y. I. Kurinova voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining zamonaviy holatini kriminologik jihatdan tavsiflab, uning tarkibiy tuzilishini, asosiy jinoyat turlarini va ularni yuzaga keltiruvchi omillarni tizimli tahlil qiladi [4;45-52-b]. Muallif voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlarda mulkka qarshi jinoyatlar ustunlik qilishini, guruhiy jinoyatlar ulushi yuqoriligini hamda

impulsiv xulq-atvor omili muhim rol o‘ynashini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, u jinoyatchilikni oilaviy nazoratning susayishi, maktab muhitidagi muammolar va salbiy tengdoshlar ta’siri bilan bog‘laydi.Ushbu yondashuv jinoyatchilik tuzilishini ijtimoiy shart-sharoitlar bilan uzviy bog‘lab tahlil qilish zarurligini ko‘rsatadi va Farg‘ona viloyati misolida jinoyatchilik tarkibini o‘rganishda metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Mazkur masalani tizimli tahlil qilgan olim S. G. Ogay voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining holatini dinamik ko‘rsatkichlar asosida tahlil qilib, profilaktika tizimini tashkil etish masalasiga alohida e’tibor qaratadi [5;73-81-b]. Muallif jinoyatchilik darajasining o‘zgarishini ijtimoiy-iqtisodiy omillar bilan bog‘lab, profilaktika samaradorligi ko‘p jihatdan subyektlararo hamkorlik darajasiga bog‘liq ekanini asoslaydi. Ichki ishlar organlari, ta’lim muassasalari va ijtimoiy xizmatlar o‘rtasidagi muvofiqlashtirilgan faoliyat jinoyatchilikni kamaytirishda muhim omil sifatida ko‘rsatiladi. Shu tariqa, jinoyatchilikning dinamikasini tahlil qilish uni oldini olish mexanizmlarini takomillashtirish bilan uzviy bog‘liq ekanligi ilmiy jihatdan asoslanadi.

Jinoyatchilikni yanada chuqurroq o‘rganish maqsadida kriminolog olim S. P. Kozlov voyaga yetmagan qizlar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlar masalasini alohida ko‘rib chiqadi va gender omilining ahamiyatini asoslab beradi [6;58-66-b]. Tadqiqotchi, jinsiy xususiyatlarni inobatga olgan holda jinoyatchilik sabablarini tahlil qilib, voyaga yetmagan qizlar jinoyatchiligi ko‘proq oilaviy nizolar, ijtimoiy himoyasizlik va psixologik moslashuv muammolari bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi. Ushbu tadqiqot jinoyatchilik tuzilishini jins kesimida o‘rganish zarurligini ta’kidlaydi va profilaktika choralarini differensial yondashuv asosida ishlab chiqish lozimligini asoslaydi .

Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligini muayyan hudud materiallari asosida o‘rgangan tadqiqotchi L. S. Golubnichaya muayyan hudud materiallari asosida tadqiqot ishini o‘rganib, uning tuzilishi va dinamikasini ijtimoiy-iqtisodiy sharoit, migratsiya jarayonlari va urbanizatsiya darajasi bilan bog‘liq holda tahlil qiladi [7;101-109-b]. Shu bilan birga olim, jinoyatchilik ko‘rsatkichlarini hududiy

xususiyatlardan ajratib o‘rganish mumkin emasligini asoslab, profilaktika samaradorligi aynan mahalliy sharoitlarni hisobga olgan holda baholanishi lozimligini ko‘rsatadi.

Mamlakatimizda kriminologiya fanini rivojlantirish va jinoyatchilikni ilmiy asosda o‘rganish yo‘nalishida S. S. Niyozova, N. S. Salayev hamda Q. Abdurasulova tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlar muhim ahamiyat kasb etadi. Ular jinoyatchilikni aniqlash, uning darajasi, tuzilishi va dinamikasini baholash, statistik ko‘rsatkichlar asosida tahlil qilish hamda jinoyatlarni keltirib chiqaruvchi sabab va shart-sharoitlarni aniqlash masalalarini chuqur o‘rganganlar [9; 10]. Xususan, jinoyatchilikni aniqlash jarayonida kriminologik tahlilning metodlari, ko‘rsatkichlar tizimi va ularni baholash mezonlari asoslab berilib, jinoyatni individual hodisa emas, balki ijtimoiy jarayon sifatida o‘rganish zarurligi ta’kidlanadi. Q. Abdurasulova esa jinoyatchilik sabablarini ijtimoiy muhit, shaxs omili va huquqiy nazorat mexanizmlari bilan bog‘liq holda tahlil qilib, profilaktika choralarini ishlab chiqishda ilmiy asoslangan yondashuv muhimligini ko‘rsatadi [10;94-102-b]. Mazkur nazariy qarashlar voyaga yetmaganlar jinoyatchiligini o‘rganishda ham alohida ahamiyatga ega, chunki jinoyatchilikning tuzilishi va dinamikasini to‘g‘ri aniqlash, avvalo, uning umumiy kriminologik ko‘rsatkichlarini to‘g‘ri baholashni talab etadi. Shu bois, ushbu mualliflarning ishlari Farg‘ona viloyati misolida voyaga yetmaganlar jinoyatchiligini tahlil qilish, uning hududiy xususiyatlarini aniqlash va oldini olish mexanizmlarini ilmiy asoslashda muhim metodologik manba bo‘lib xizmat qiladi.

Yuqoridagi ilmiy tadqiqotlar voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining tuzilishi va dinamikasini ijtimoiy omillar, psixologik xususiyatlar hamda profilaktika mexanizmlari bilan uzviy bog‘liq holda o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining tuzilishi, dinamikasi va oldini olish mexanizmlarini Farg‘ona viloyati misolida o‘rganish kompleks kriminologik yondashuv asosida amalga oshirildi. Tadqiqot metodologiyasi jinoyatchilikni ijtimoiy-huquqiy hodisa sifatida

tizimli tahlil qilish, uning sabab va shart-sharoitlarini aniqlash hamda profilaktika samaradorligini baholash tamoyillariga tayandi.

Tadqiqotning nazariy-metodologik asosini kriminologiyaning umumiy nazariy qoidalari, jinoyatchilikni o‘rganishning determinatsiya konsepsiyasi, shaxs va muhit o‘zaro ta’siri haqidagi ilmiy qarashlar tashkil etdi. Jinoyatchilik hodisasi statistik ko‘rsatkichlar yig‘indisi sifatida emas, balki ijtimoiy jarayon sifatida talqin qilindi. Shu bois tadqiqotda strukturaviy, dinamik va funksional tahlil usullaridan kompleks tarzda foydalanildi.

Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining tuzilishini aniqlash maqsadida jinoyat turlari, ularning salmog‘i, yosh va jins tarkibi, guruhiy yoki individual sodir etilish holatlari kabi ko‘rsatkichlar tahlil qilindi. Bunda rasmiy statistik ma’lumotlar, hududiy ichki ishlar organlari hisobotlari hamda sud amaliyoti materiallari o‘rganildi. Strukturaviy tahlil jinoyatchilikning ustuvor yo‘nalishlarini aniqlash va ularni ijtimoiy omillar bilan bog‘lash imkonini berdi.

Jinoyatchilik dinamikasini o‘rganishda qiyosiy-tarixiy va statistik tahlil metodlaridan foydalanildi. Turli yillar kesimida jinoyatchilik ko‘rsatkichlarining o‘zgarishi, mavsumiy va hududiy tafovutlar, o‘sish yoki kamayish tendensiyalari aniqlanib, ularning ijtimoiy-iqtisodiy sharoit bilan bog‘liqligi baholandi. Dinamik tahlil profilaktika choralarining samaradorligini baholashda muhim metodik vosita bo‘lib xizmat qildi.

Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligini keltirib chiqaruvchi sabab va shart-sharoitlarni aniqlash maqsadida determinatsion tahlil qo‘llanildi. Bunda oilaviy muhit, ta’lim jarayoni, tengdoshlar guruhi, bo‘sh vaqtni tashkil etish darajasi, mehnat migratsiyasi va ijtimoiy nazorat mexanizmlarining ta’siri kompleks ravishda o‘rganildi. Shuningdek, individual profilaktika samaradorligini baholash uchun inspektor-psixologlar, mahalla faollari va ta’lim muassasalari vakillari faoliyati tahlil qilindi.

Empirik ma’lumotlarni to‘plashda kuzatuv, suhbat va hujjatlarni o‘rganish metodlaridan foydalanildi. Voyaga yetmaganlar bilan ishlovchi mutaxassislar bilan o‘tkazilgan suhbatlar jinoyatchilikka olib keluvchi omillarni amaliy nuqtai nazardan

aniqlash imkonini berdi. Hujjatlar tahlili esa profilaktika mexanizmlarining real ishlash holatini baholashga xizmat qildi.

Shu bilan nirga, tadqiqotda tizimli yondashuv asosida umumiy va maxsus profilaktika choralarining o‘zaro bog‘liqligi tahlil qilindi. Umumiy profilaktika ijtimoiy sharoitni yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlarni, maxsus profilaktika esa xavf guruhidagi voyaga yetmaganlar bilan manzilli ishlash mexanizmlarini o‘z ichiga oladi. Mazkur ikki yo‘nalishning uyg‘unligi jinoyatchilikni kamaytirishning samarali omili sifatida baholandi.

Shu tariqa, tadqiqot metodologiyasi nazariy va empirik yondashuvlar uyg‘unligiga asoslanib, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining tuzilishi va dinamikasini ilmiy asosda aniqlash, uning sabablarini tizimli tahlil qilish hamda Farg‘ona viloyati sharoitida samarali profilaktika mexanizmlarini ishlab chiqishga qaratildi.

Tahlil va natijalar. O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatdiki, 2025-yilda Farg‘ona viloyatida voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar 2024-yilga nisbatan 23,1 foizga kamaygan . Ushbu ko‘rsatkich umumiy dinamikada ijobiy siljish mavjudligini bildiradi, biroq kriminologik jihatdan bunday pasayishni chuqurroq tahlil qilish zarur. Chunki jinoyatchilik faqat umumiy son bilan emas, balki uning hududiy tuzilishi, ijtimoiy tarkibi va o‘sish nuqtalari bilan baholanadi.

Shu bilan birga, hududiy kesimdagi o‘rganishlar natijasida voyaga yetmaganlar jinoyatlarining 54,8 foizi Farg‘ona shahri, Qo‘qon shahri, Marg‘ilon shahri va Quva tumani hissasiga to‘g‘ri kelgani aniqlangan. Bu holat jinoyatchilik viloyat bo‘ylab teng taqsimlanmaganini, aksincha ma’lum markazlarda zichlashganini ko‘rsatadi. Shahar hududlarida aholining zichligi, yoshlar sonining yuqoriligi va ijtimoiy nazorat mexanizmlarining murakkablashuvi jinoyatchilik tuzilmasiga ta’sir ko‘rsatayotgan bo‘lishi mumkin. Shu bois mazkur hududlar profilaktika choralarini kuchaytirish bo‘yicha ustuvor yo‘nalish sifatida qaralishi lozim.

Viloyat bo‘yicha umumiy kamayish qayd etilgan bo‘lsa-da, ayrim tumanlarda salbiy dinamik o‘zgarish kuzatilgan. Xususan, Yozyovon tumanida jinoyatlar 114

foizga, So‘x tumanida 100 foizga, Qo‘shtepa va Toshloq tumanlarida 64 foizga, Dang‘ara tumanida 29 foizga, Marg‘ilon shahrida 8 foizga oshgan. Bu ko‘rsatkichlar umumiy ijobiy fon saqlanib turgan bo‘lsa-da, ayrim hududlarda xavf omillari kuchayganini yoki profilaktika mexanizmlari yetarlicha samarali ishlamayotganini anglatadi. Demak, viloyat bo‘yicha o‘rtacha pasayish real vaziyatni to‘liq aks ettirmaydi, chunki ayrim tumanlarda jinoyatchilik o‘sish sur’atlari yuqori darajada saqlanib qolmoqda.

Shaxsiy tarkib tahliliga ko‘ra, jinoyat sodir etgan voyaga yetmaganlarning 95,9 foizi Farg‘ona viloyati fuqarolari hissasiga to‘g‘ri kelgan . Bu esa jinoyatchilikning asosiy omillari tashqi migratsion ta’sirlar emas, balki viloyatning ichki ijtimoiy muhiti bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi. Viloyat ichida yashovchi voyaga yetmagan jinoyatchilarning 56 foizi yana Farg‘ona shahri, Qo‘qon shahri, Marg‘ilon shahri va Quva tumani hissasiga to‘g‘ri kelgani hududiy risk omillari mavjudligini tasdiqlaydi .

Xususan, ta’lim muassasalari kesimidagi tahlil jinoyatchilik tuzilmasida maktab o‘quvchilari yetakchi o‘rin tutayotganini ko‘rsatadi. Jinoyat sodir etgan voyaga yetmaganlarning 71,9 foizi maktab o‘quvchilari, 19,8 foizi kollej va litsey o‘quvchilari, 8,1 foizi esa o‘qimaydigan va ishlamaydigan yoshlar hissasiga to‘g‘ri kelgan. Bu natija jinoyatchilik asosan umumta’lim bosqichida shakllanayotganini anglatadi. Maktab o‘quvchilari tomonidan sodir etilgan jinoyatlarning 68 foizi Farg‘ona shahri, Qo‘qon shahri, Marg‘ilon shahri, Quva tumani, Toshloq tumani va Qo‘shtepa tumani hissasiga to‘g‘ri kelgani esa aynan shu hududlarda maktab bilan bog‘liq profilaktika choralarini kuchaytirish zarurligini ko‘rsatadi.

Yakuniy tahlillar shundan iboratki, 2025-yilda Farg‘ona viloyatida voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi umumiy ko‘rsatkich bo‘yicha kamaygan bo‘lsa-da, hududiy notekislik, ayrim tumanlardagi keskin o‘sish va maktab yoshidagi o‘quvchilar ulushining yuqoriligi mazkur muammoning dolzarbligini saqlab qolmoqda. Statistik pasayishning o‘zi yetarli emas, muhim jihat uning barqarorligi va hududlar bo‘yicha teng taqsimlanishidir. Shu bois Farg‘ona viloyatida

profilaktika choralari umumiy emas, balki hududiy va ta’lim muassasalari kesimida manzilli hamda tizimli ravishda tashkil etilishi zarur.

Xulosa va takliflar. O‘tkazilgan ilmiy tahlillar natijasida Farg‘ona viloyatida voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi umumiy ko‘rsatkich bo‘yicha kamayish tendensiyasini namoyon etgani aniqlangan bo‘lsa-da, hududiy tafovutlar va ayrim joylarda qayd etilgan o‘sish sur’atlari muammoning dolzarbligini saqlab qolayotganini ko‘rsatadi. Jinoyatchilikning ma’lum hududlarda jamlanishi, shuningdek maktab yoshidagi o‘quvchilar ulushining yuqoriligi mazkur hodisaning ijtimoiy-pedagogik omillar bilan uzviy bog‘liqligini tasdiqlaydi. Statistik pasayish mavjud bo‘lsa-da, uning barqarorligi va hududlar bo‘yicha teng taqsimlanishi hali to‘liq ta’minlanmagan. Shu bois voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi muammosini faqat huquqni muhofaza qilish doirasida emas, balki ijtimoiy institutlar hamkorligida kompleks yondashuv asosida hal etish zarur.

Mazkur xulosalardan kelib chiqib, quyidagi takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiqdir. Hududiy kesimda jinoyatchilik ko‘rsatkichlari yuqori bo‘lgan joylarda maxsus profilaktika dasturlarini ishlab chiqish va ularni tizimli ravishda amalga oshirish zarur. Ta’lim muassasalarida psixologik xizmat samaradorligini oshirish, xavf guruhiga kiruvchi o‘quvchilarni erta aniqlash va ular bilan individual ishlash mexanizmini takomillashtirish lozim. Ota-onalar bilan ma’rifiy hamkorlikni mustahkamlash, oilaviy nazorat va tarbiyaviy mas’uliyatni kuchaytirishga qaratilgan targ‘ibot ishlarini kengaytirish muhimdir.

Bundan tashqari, voyaga yetmaganlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish orqali ularning ijtimoiylashuv jarayonini sog‘lom muhitda olib borish zarur. Sport, madaniyat va kasb-hunar yo‘nalishidagi to‘garaklar faoliyatini kengaytirish profilaktikaning samarali vositalaridan biri bo‘lib xizmat qiladi. Jinoyatchilik dinamikasini muntazam monitoring qilish, statistik ma’lumotlarni chuqur tahlil etish va o‘sish nuqtalarini erta aniqlash tizimini joriy etish orqali tezkor choralar ko‘rish imkoniyati yaratiladi.

Fikrimizni umulashtirib ta’kidlash lozimki, Farg‘ona viloyatida voyaga yetmaganlar jinoyatchiligini kamaytirish barqaror natijaga erishish uchun tizimli,

manzilli va ilmiy asoslangan profilaktika siyosatini izchil davom ettirishni talab etadi. Ijtimoiy institutlar o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash va yoshlar bilan ishlash mexanizmlarini takomillashtirish orqali mazkur muammoni bosqichma-bosqich bartaraf etish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. Ichki ishlar organlarining voyaga yetmaganlar o‘rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasiga oid faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida. PQ-110-son qaror. -Toshkent, 2025.

2. O‘zbekiston Respublikasi. Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida. O‘RQ-406-son Qonun. - Toshkent, 2016.

3.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. Voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko‘rsatishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. 490-son qaror. - Toshkent, 2021.

4. Куринова Я. И. Современная преступность несовершеннолетних: криминологическая характеристика и предупреждение. - Москва: Юрлитинформ, 2011. - 176 с.

5. Огай С. Г. Современное состояние преступности несовершеннолетних и организация ее профилактики. - Москва: Норма, 2003. - 160 с.

6. Козлов С. П. Проблемы предупреждения преступлений несовершеннолетних женского пола. - Санкт-Петербург: Юридический центр Пресс, 2010. - 192 с.

7. Голубничая Л. С. Преступность несовершеннолетних: криминологическая характеристика и проблемы предупреждения. - Хабаровск: ДВЮИ МВД России, 2011. - 210 с.

8. Niyozova S. S., Salayev N. S. Kriminologiya (umumiy qism). - Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2023. - 232 b.

9.Abdurasulova Q. Kriminologiya asoslari. - Toshkent: TDYU nashriyoti, 2020. - 284 b.

10.Shaw C. R., McKay H. D. Juvenile Delinquency and Urban Areas. - Chicago: University of Chicago Press, 1942. - 446 p.

11.Wolfgang M. E., Figlio R. M., Sellin T. Delinquency in a Birth Cohort. – Chicago: University of Chicago Press, 1972. - 327 p.

12.Moffitt T. E. Adolescence-Limited and Life-Course-Persistent Antisocial Behavior: A Developmental Taxonomy., Psychological Review. - 1993. - Vol. 100, No. 4. - P. 674-701.

O’rinova Dilshoda Adxamovna

Farg‘ona viloyati IIB Jamoat xavfsizligi xizmati, “Huquqbuzarliklar profilaktikasi” boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari.

Mustaqil izlanuvchi

UDK 343.533:004.056

Mstoremstore138@gmail.com

Tel:+998903311525

FARG‘ONA VILOYATIDA AYOLLAR JINOYATCHILIGINING HOLATI, TUZILISHI VA DINAMIKASI HAMDA RESPUBLIKA BILAN QIYOSIY TAHLILI

Annotatsiya: Ushbu maqolada Farg‘ona viloyatida ayollar jinoyatchiligining hozirgi holati, uning tarkibi, dinamikasi va hududiy xususiyatlari keng qamrovli tarzda tahlil qilingan. Tadqiqotda 2005-2024 yillar mobaynida ayollar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarning o‘sish va pasayish bosqichlari, jinoyat turlarining ichki tuzilishi, iqtisodiy motivli va maishiy-nizoli huquqbuzarliklar ulushi, shuningdek, ularning sodir etilish vaqti hamda motivlari o‘rganilgan. Farg‘ona viloyati ko‘rsatkichlari O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha shakllangan umumiy tendensiyalar bilan qiyoslanib, ayrim jinoiy toifalarda hududga xos o‘zgarishlar, xususan, iqtisodiy motivli jinoyatlar ulushining qisqarishi, aksincha, maishiy ziddiyatlar, rashk va psixologik tanglikka asoslangan jinoyatlar faollashgani aniqlangan. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, viloyatda ayollar jinoyatchiligi tarkibida ruhiy-ijtimoiy omillarning ta’siri kuchayib bormoqda, bu esa profilaktika tadbirlarini nafaqat huquqiy, balki psixologik va ijtimoiy yo‘nalishlarda ham kuchaytirishni talab etadi. Maqola natijalari ayollar jinoyatchiligini kamaytirishga qaratilgan manzilli, ilmiy asoslangan profilaktik strategiyalarni ishlab chiqish uchun muhim nazariy va amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: ayollar jinoyatchiligi, jinoyat dinamikasi, jinoiy xulq, Farg‘ona viloyati, qiyosiy tahlil.

СОСТОЯНИЕ, СТРУКТУРА И ДИНАМИКА ЖЕНСКОЙ ПРЕСТУПНОСТИ В ФЕРГАНСКОЙ ОБЛАСТИ И ЕЁ СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ С РЕСПУБЛИКАНСКИМИ ПОКАЗАТЕЛЯМИ

Аннотация: В данной статье всесторонне проанализировано современное состояние женской преступности в Ферганской области, ее структура, динамика и территориальные особенности. В рамках исследования изучены этапы роста и снижения преступлений, совершённых женщинами в 2005-2024 годах, внутренняя структура видов преступлений, доля

правонарушений, связанных с экономическими мотивами и бытовыми конфликтами, а также время и мотивы их совершения. Показатели Ферганской области сопоставлены с общими тенденциями, сформировавшимися по Республике Узбекистан, в результате чего выявлены региональные отличия в отдельных категориях преступлений: сокращение доли экономически мотивированных преступлений и усиление преступлений, основанных на бытовых конфликтах, ревности и психологическом напряжении. Проведённый анализ демонстрирует, что в структуре женской преступности области усиливается влияние социально-психологических факторов, что требует совершенствования профилактических мер не только в правовом, но и в социально-психологическом направлении. Полученные результаты служат важной теоретической и практической основой для разработки адресных, научно обоснованных стратегий по снижению женской преступности.

Ключевые слова: женская преступность, динамика преступности, преступное поведение, Ферганская область, сравнительный анализ.

STATE, STRUCTURE AND DYNAMICS OF FEMALE CRIME IN THE FERGANA REGION AND ITS COMPARATIVE ANALYSIS WITH NATIONAL INDICATORS

Abstract: This article provides a comprehensive analysis of the current state of female criminality in the Fergana region, focusing on its structure, dynamics, and territorial characteristics. The study examines the phases of increase and decline in crimes committed by women during 2005-2024, the internal composition of crime types, the share of economically motivated and domestic-conflict-related offenses, as well as the timing and motives behind these crimes. The indicators of the Fergana region are compared with nationwide trends in the Republic of Uzbekistan, revealing region-specific variations in certain crime categories, including a decrease in economically motivated offenses and a rise in crimes driven by domestic disputes, jealousy, and psychological tension. The findings indicate a growing influence of socio-psychological factors on female criminal behavior in the region, suggesting

the need to strengthen preventive measures not only within the legal framework but also through social and psychological interventions. The results of the study provide an important theoretical and practical basis for developing targeted, scientifically grounded strategies aimed at reducing female criminality.

Keywords: female criminality, crime dynamics, criminal behavior, Fergana region, comparative analysis.

Kirish. Bugungi kunda mamlakatimizda jinoyatchilikni oldini olish va huquqbuzarliklar profilaktikasini kuchaytirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, bu jarayonda ayollar jinoyatchiligi masalalarini ilmiy tahlil qilish alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, hududlar kesimida jinoyatlarning tarkibi, sabablari va dinamikasini o‘rganish jinoyatchilikning oldini olish bo‘yicha aniq va manzilli chora-tadbirlarni ishlab chiqish imkonini beradi. Farg‘ona viloyati misolida ayollar jinoyatchiligining holati va respublika ko‘rsatkichlari bilan qiyosiy tahlili hududiy farqlarni aniq belgilashga, ularning shakllanishiga ta’sir etayotgan omillarni chuqur anglashga yordam beradi.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda jinoyatchilikning, xususan ayollar jinoyatchiligining oldini olish bo‘yicha davlat siyosati tizimli mustahkamlanib, profilaktika choralarini kuchaytirishga doir muhim hujjatlar qabul qilindi. Jumladan, 2021-yil 26-martdagi PF-6196-son Farmon jinoyatchilikni hududlar kesimida o‘rganish, gender statistikasini rivojlantirish va xavf guruhidagi shaxslar bilan manzilli ishlash vazifalarini belgilab berdi[1].

Ushbu strategik yondashuvning izchil davomiyligini ta’minlash maqsadida 2025-yil 3-yanvarda “2025 yilda respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini yanada oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-1-son Qaror qabul qilindi. Mazkur hujjat avvalgi profilaktika islohotlarini mantiqan davom ettirib, mahallalarda kriminogen vaziyat barqarorligini ta’minlash, jinoyatchilikni erta bosqichda aniqlash va aholi uchun xavfsiz hayot muhitini yaratishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar dasturini belgilab berdi [2]. Qarorning mazmunida mahalla institutining profilaktikadagi o‘rni yanada kuchaytirilib, joylarda aholi qatlamlari bilan manzilli

ishlash, xavf guruhidagi shaxslarni erta aniqlash, uyma-uy tushuntirish ishlarini takomillashtirish va mahalliy hamkorlik mexanizmlarini kengaytirishga alohida e’tibor qaratilgan. Shu tariqa, normativ-huquqiy islohotlar jinoyatchilikning ildiz omillarini bartaraf etishga qaratilgan tizimli va barqaror yondashuv shakllanayotganini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, 2025-yil 18-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim qarorlariga mahallalarda jinoyatchilikning barvaqt oldini olish tizimi natijadorligini yanada oshirishga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi PQ-253-son Qaror oila-turmush doirasidagi jinoyatlarni oldini olish, zo‘ravonlik holatlarini erta aniqlash hamda profilaktik hamkorlik mexanizmlarini yanada takomillashtirish bo‘yicha mas’ul tashkilotlarga qo‘shimcha vazifalar yukladi [3]. Mazkur hujjat profilaktika sohasidagi institutsional tizimni mustahkamlash, hududlarda xavfsizlikning barqaror modelini yaratish va aholiga bevosita yo‘naltirilgan ishlar samaradorligini oshirishga qaratilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ayollar huquqlarini himoya qilish, gender tenglikni ta’minlash va oilaviy munosabatlarda barqarorlikni mustahkamlashga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar xususan, Oila kodeksi hamda “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash to‘g‘risida”gi Qonun ayollar jinoyatchiligining ijtimoiy-psixologik omillarini chuqur tahlil qilish uchun muhim huquqiy asos yaratadi. Mazkur hujjatlar nafaqat oilaviy nizolar, tazyiq va zo‘ravonlikning oldini olish bo‘yicha kompleks mexanizmlarni belgilab beradi, balki ayollarning huquqiy savodxonligini oshirish, ijtimoiy rolini kuchaytirish va ularga ko‘rsatiladigan davlat qo‘llab-quvvatlash choralarining izchilligini ta’minlaydi.

Tadqiqotchilar Niyozova va Salayev ushbu jarayonning mazmunini sharhlar ekanlar, zo‘ravonlikning oldini olish bo‘yicha davlat siyosati faqat jismoniy tazyiqni bartaraf etishga emas, balki xotin-qizlarga nisbatan huquqbuzarliklarni keltirib chiqaruvchi ijtimoiy, psixologik va iqtisodiy omillarni aniqlash hamda ularni bartaraf etishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar tizimidan iborat ekanini ta’kidlaydilar [4]. Ularning fikricha, ayolning huquqlaridan xabardorligi, ijtimoiy

faolligi va ruhiy barqarorligi kuchaytirilmas ekan, jinoyatchilikning oldini olishda yuqori natijalarga erishish qiyin.

Ayollar jinoyatchiligini o‘rganishda shaxsning ijtimoiy maqomi, oiladagi mavqei va ijtimoiy muhitning ta’sirini aniqlash ham alohida ilmiy yondashuvni talab etadi. L.V. Frank jabrlanuvchi shaxsiga doir o‘z tadqiqotlarida uning jamiyatdagi o‘rni, ijtimoiy rol va dunyoqarashi asosiy determinantlar sifatida shakllanishini qayd etadi [5]. Ushbu nazariy qarashlar ayollar jinoyatchiligining shakllanishida gender sotsializatsiyasi, an’anaviy rollar, oilaviy nazoratning yetishmasligi yoki ortiqligi kabi ko‘plab omillar o‘zaro bog‘liq holda ta’sir ko‘rsatishini anglatadi.

Shuningdek, tadqiqotchi Abdurasulovaning ilmiy izlanishlarida ayollar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarning ichki psixologik ildizlari, xususan, oilaviy ziddiyatlar, tazyiq, zo‘ravonlik, ruhiy tushkunlik, iqtisodiy qaramlik va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning yetishmasligi muhim determinator sifatida ko‘rsatiladi.

Uning fikricha, ayol jinoyat sodir etishiga olib keladigan omillar ko‘pincha ularning psixologik holati, shaxslararo munosabatlaridagi izdan chiqishlar, stress, qo‘rquv, o‘zini himoya qilishga bo‘lgan ehtiyoj yoki jamiyatda o‘z o‘rnini topa olmaslik kabi kompleks holatlar bilan bog‘liq[6]. Shuning uchun, ayollar jinoyatchiligini tahlil qilishda individual-psixologik omillar bilan bir qatorda, ularning keng ijtimoiy muhitini o‘rganish ham zarur.

Mazkur mavzuning ilmiy ahamiyati shundaki, Farg‘ona viloyati misolida o‘tkazilgan tahlillar ayollar jinoyatchiligining tarkibi, asosiy turlari, ularning o‘sish-pasayish dinamikasi va psixologik omillari respublika darajasidagi umumiy ko‘rsatkichlar bilan solishtiriladi. Hududiy farqlar, oilaviy nizolarning o‘ziga xos ko‘rinishlari, ijtimoiy-iqtisodiy sharoit, bandlik darajasi va mahalliy mentalitetning ta’siri aniqlanadi. Bunday qiyosiy yondashuv profilaktika tizimini takomillashtirishda, xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlashning manzilli mexanizmlarini ishlab chiqishda, oilaviy ziddiyatlar va psixologik inqirozlarni oldini olishda ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishga imkon yaratadi. Shuningdek, olingan natijalar ayollar jinoyatchiligini kamaytirishga qaratilgan ijtimoiy-siyosiy strategiyalarni takomillashtirish, gender tenglikni kuchaytirish, mahalliy ijtimoiy xizmatlar

samaradorligini oshirish, ayollarning iqtisodiy mustaqilligini ta’minlash va oilaviy tarbiya tizimida psixologik madaniyatni rivojlantirish uchun nazariy-metodik asos bo‘lib xizmat qiladi.tilgan.

Tadqiqot metologiyasi. Mazkur tadqiqotning metodologiyasi ayollar jinoyatchiligining 2005-2024 yillar oralig‘ida O‘zbekiston va Farg‘ona viloyatidagi o‘zgarishlarini chuqur tahlil qilishga qaratilib, statistik-dinamik tahlil, qiyosiy yondashuv, kriminologik diagnostika va normativ-huquqiy tahlil usullarini o‘z ichiga oladi. Ayollar jinoyatchiligi murakkab ijtimoiy hodisa sifatida ijtimoiy beqarorlik, iqtisodiy tengsizlik, gender diskriminatsiyasi, oilaviy zo‘riqishlar va huquqiy ongning pastligi kabi omillar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgani sababli, tadqiqotda ko‘p omilli metodlar qo‘llanishi ilmiy zarurat hisoblanadi.

Statistik-dinamik tahlil usuli yordamida 2005-2024 yillar oralig‘ida ayollar jinoyatchiligi qanday bosqichlarda o‘zgarib borganini aniqlashga e’tibor qaratildi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, 2005-2007 yillarda ayollar jinoyatchiligi bosqichma-bosqich oshib borgan: 2005-yildan 2006-yilga o‘tish jarayonida jinoyatlar 6,6 foizga, 2007-yilda esa yana 13 foizga ko‘paygan. 2008-2010 yillar davomida esa umumiy o‘sish 40 foizdan ortiqni tashkil etgan bo‘lib, bu davr ayollar orasida sodir etilgan jinoyatlar sonining muntazam ko‘tarilganini ko‘rsatadi. 2011-yilda ma’lum darajada pasayish qayd etilgan bo‘lsa-da, 2012-yilda ko‘rsatkich yana 6 foizga o‘sgan. Ushbu yillardagi tebranishlar iqtisodiy bosimlar, oilaviy ajrimlar va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning sustligi bilan bog‘liq holda talqin qilindi.

Statistik metod shu bilan birga 2013-2016 yillarda ayollar jinoyatchiligida barqaror pasayish bosqichi shakllanganini ko‘rsatdi. Xususan, 2013-yilda jinoyatlar 2,4 foizga kamaygan, 2014-yilda yana 1 foizga pasayish kuzatilgan, 2015-yilda 7,5 foizlik, 2016-yilda esa 5 foizga yaqin pasayish qayd etilgan. Bu davrdagi dinamik kamayish davlat tomonidan olib borilgan gender siyosati, ijtimoiy-ma’naviy islohotlar va ayollar bandligini kengaytirish bo‘yicha dasturlar natijasi sifatida baholandi.

Shu bilan birga, dinamik tahlilning muhim qismi 2017-2019 yillardagi keskin pasayishlarni o‘rganishdan iborat bo‘ldi. 2017-yilda jinoyatlar 14 foizga, 2018-yilda

34 foizdan ortiq, 2019-yilda esa 25 foizdan ko‘proq kamaygani aniqlanib, ushbu yillar ayollar jinoyatchiligi bo‘yicha eng past ko‘rsatkichlar qayd etilgan davr sifatida ilmiy baholandi. 2020-yildan boshlab pandemiya davri natijasida ayollar jinoyatchiligi yana o‘sishga yuz tutdi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, 2021-yilda ayollar jinoyatchiligi 1,6 barobarga oshgan, 2022-yilda esa o‘sish 20 foizdan ortiqni tashkil etgan. Bu ko‘rsatkich pandemiya sharoitida iqtisodiy bosimlarning keskin kuchaygani, ruhiy tushkunlik va oilaviy ziddiyatlarning ortgani bilan bog‘liq tarzda izohlandi. 2023-2024 yillarda esa jinoyatlar qayta kamayish bosqichiga kirib, 2023-yilda 40 foizdan ortiq pasayish, 2024-yilda esa yana bir necha foizlik kamayish qayd etilgan.

Ushbu statistik jarayonlar qiyosiy (komparativ) tahlil orqali Farg‘ona viloyati ko‘rsatkichlari bilan solishtirildi. Respublika miqyosida 2020-2022 yillarda kuzatilgan keskin o‘sish Farg‘ona viloyatida o‘zining analog ko‘rinishda, ammo nisbatan yumshoq shaklda 2021-2023 yillarda namoyon bo‘ldi. Xususan, viloyatda ayollar jinoyatchiligi ulushi 11,5 foizdan 13,6 foizgacha ko‘tarilgan bo‘lib, bu ko‘rsatkichlar respublika darajasidagi keskin sakrashlarga yetmagan bo‘lsa-da, hududda barqaror yuqorilash tendensiyasini ko‘rsatadi. Bu farq viloyatning ijtimoiy-iqtisodiy tarkibi, bandlik darajasi, mahalla institutining faolligi va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarining hududiy xususiyatlari bilan izohlanadi.

Metodologiyaning yana bir tarkibiy qismi kriminologik diagnostika bo‘lib, u orqali ayollar jinoyatchiligiga olib keluvchi psixologik, ijtimoiy va oilaviy omillar tahlil qilindi.Gender stereotiplari, oilaviy tazyiq, zo‘ravonlik, iqtisodiy qaramlik, ruhiy tushkunlik, pandemiya davridagi stress-indikatorlar ayollarning huquqbuzarlikka moyilligi bilan bevosita bog‘liq ekani ilmiy asosda qayd etildi.Bundan tashqari, tadqiqot normativ-huquqiy tahlil yondashuvi asosida Oila kodeksi, “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash to‘g‘risida”gi qonun va gender tenglik siyosati bilan bog‘liq davlat dasturlarining samaradorligini baholashga qaratildi. Ushbu hujjatlar ayollar jinoyatchiligini kamaytirishda muhim institutsional omil bo‘lib, oilaviy ziddiyatlarning oldini olish,

ayollarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish va ularning huquqiy madaniyatini oshirishga xizmat qilishi aniqlangan.

Mazkur metodologik yondashuvlar majmuasi statistik dinamika, qiyosiy tahlil, kriminologik diagnostika va normativ-huquqiy baholash ayollar jinoyatchiligining shakllanish mexanizmlarini chuqur anglash va hududlar kesimida o‘ziga xos farqlarni aniqlash uchun zarur ilmiy asosni yaratdi. Natijada tadqiqotning ilmiy ishonchliligi oshirilib, amaliy tavsiyalar ishlab chiqish uchun puxta metodologik poydevor shakllantirildi.

Tahlil va natijalar. Tahlil va natijalar shuni ko‘rsatadiki, ayollar tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlarni faqat umumiy soni bo‘yicha emas, balki ularning turlari, motivlari va sodir etilish sharoitlari kesimida o‘rganish ham muhim ilmiy xulosalar chiqarish imkonini beradi. Jinoyat turlari bo‘yicha qiyosiy tahlil respublika va Farg‘ona viloyati ko‘rsatkichlari o‘rtasida sezilarli farqlar mavjudligini ko‘rsatadi. Avvalo, iqtisodiy motivli jinoyatlar blokida kuzatilgan tendensiyalar diqqatga sazovordir. Respublika bo‘yicha 2017-2019 yillarda ayollar jinoyatchiligi keskin pasayish bosqichiga kirgan bo‘lsa, Farg‘ona viloyatida ayniqsa 2021-2023 yillar davomida o‘g‘irlik, firibgarlik va talonchilik kabi an’anaviy mulkiy jinoyatlar bo‘yicha 30-40 foizlik pasayish qayd etilgani kuzatildi. Bu holat Farg‘ona viloyatida ayollar jinoyatchiligining iqtisodiy omillar bilan bog‘liq segmenti izchil qisqarib borayotganidan dalolat beradi. Amaliy jihatdan bu jarayon ayollar bandligini oshirish, kichik biznes va tadbirkorlikka jalb etish, ijtimoiy yordam dasturlarining nisbatan samarali yo‘lga qo‘yilishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Natijada, ayollar tomonidan sodir etiladigan klassik mulkiy jinoyatlar ulushi kamayib, jinoyatchilikning iqtisodiy bazasi nisbatan torayib borgan.

Biroq jinoyatlarning boshqa toifalarida aksincha tendensiya kuzatiladi. Respublika miqyosida 2020-2022 yillarda maishiy-nizoli jinoyatlar, oilaviy ziddiyatlar, psixologik bosim va hissiy tanglik ostida sodir etilgan huquqbuzarliklar sezilarli darajada ko‘paygan. Farg‘ona viloyatida ham 2021-2023 yillardagi raqamlar ushbu umumiy yo‘nalishning hududiy analogini ko‘rsatadi: mazkur davrda bezorilik jinoyatlari 100 foizdan ortiq, rashk motividagi jinoyatlar esa 55 foizgacha

o‘sish tendensiyasini namoyon qilgan. Bu ko‘rsatkichlar ayollar jinoyatchiligi tarkibida ruhiy-psixologik zamin kuchayib borayotganini, ya’ni jinoyat sodir etishning asosiy sabablari tobora ko‘proq ichki psixologik zo‘riqish, hissiy beqarorlik, oilaviy nizolar va shaxslararo qarama-qarshiliklar bilan bog‘lanayotganini ko‘rsatadi. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, Farg‘onada ayollar jinoyatchiligi asta-sekin iqtisodiy manfaatga asoslangan jinoyatlardan maishiy, hissiy va psixologik ziddiyatlarga yo‘naltirilgan jinoyat turlariga siljib bormoqda.

Jinoyatlarning sodir etilish vaqti ham tahlil qilinganda muhim xulosalar yuzaga chiqadi. 2021-2023 yillar davrida Farg‘ona viloyatida kunduzgi jinoiy faollik yil sayin 6-24 foiz oralig‘ida qisqarib borgan bo‘lsa, ayrim yillarda kechasi sodir etiladigan jinoyatlar ulushi 10 foizgacha oshgani aniqlangan. Vaqt omili bo‘yicha bunday siljish respublika miqyosida kuzatilayotgan “jinoyatchilikning vaqt ko‘chishi” fenomeniga mos keladi. Ya’ni, ayollar tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlar ko‘proq tungi vaqtlarga, nazorat va ijtimoiy ko‘rinuvchanlik past bo‘lgan sharoitlarga ko‘chib borayotganini ko‘rsatadi. Bu esa, bir tomondan, profilaktika choralarining ko‘proq kunduzgi davrga yo‘naltirilgani, ikkinchi tomondan, tungi vaqtda oilaviy nizolar, maishiy mojarolar va hissiy portlashlar ehtimoli ortishi bilan izohlanishi mumkin.

Shu bilan birga, Farg‘ona viloyati misolida ayollar jinoyatchiligi respublika bo‘yicha kuzatilayotgan umumiy tendensiyalarni takrorlagan holda, bir qator jihatlarda o‘ziga xos xususiyatlarni namoyon etadi. Hududda iqtisodiy holatdagi jinoyatlar asta-sekin qisqarib borayotgani, aksincha, maishiy nizolar, rashk, psixologik tanglik va oilaviy ziddiyatlarga asoslangan huquqbuzarliklarning nisbatan faollashgani ayollar jinoyatchiligida ruhiy-ijtimoiy omillarning ta’siri kuchayib borayotganini bildiradi. Jinoyatlarning sodir etilish vaqtidagi siljishlar ham mazkur jarayonni yanada keskinlashtiradi: kunduzgi huquqbuzarliklar kamaygan bo‘lsa-da, ayrim yillarda tungi jinoyatlar ulushining ortgani ijtimoiy muhitdagi beqarorlik, psixologik himoyaning sustligi va ayrim oilalarda ziddiyatlarning chuqurlashganini ko‘rsatadi.

Xulosa va takliflar. Umuman olganda, O‘zbekiston Respublikasi va Farg‘ona viloyati bo‘yicha olingan tahliliy natijalar ayollar jinoyatchiligiga ta’sir etuvchi omillarning ko‘p qatlamli, murakkab va o‘zaro bog‘liq ekanini yaqqol ko‘rsatadi. Jinoyatchilikka sabab bo‘layotgan asosiy omillar orasida oilaviy ziddiyatlarning kuchayishi, psixologik bosim va hissiy zo‘riqishlar, iqtisodiy qiyinchiliklar, bandlik imkoniyatlarining yetishmasligi, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimlarining ayrim hududlarda samarali ishlamasligi alohida o‘rin tutadi. Aynan shu omillar ayollarni huquqbuzarlikka olib keluvchi sharoitlarni kuchaytiradi, shaxsning qaror qabul qilish jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatadi va ijtimoiy moslashuvning izdan chiqishiga sabab bo‘ladi.

Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ayollar jinoyatchiligini kamaytirish bo‘yicha amalga oshiriladigan choralar faqat huquqiy vositalar bilan cheklanmasligi, balki ijtimoiy-psixologik, iqtisodiy va ma’naviy yo‘nalishlarda uyg‘unlashtirilgan kompleks siyosatni talab etadi. Jinoyatchilikning zamirida ko‘pincha shaxsning ruhiy bosimi, oilaviy nizolar, iqtisodiy qaramlik yoki psixologik yordamning yetishmasligi turgani sababli, profilaktika yondashuvlari ham shaxsning ichki-psixologik holatini chuqur inobatga olgan holda yo‘lga qo‘yilishi lozim. Farg‘ona viloyati misolida aynan maishiy ziddiyatlar va psixologik tanglikka asoslangan jinoyatlarning ko‘payib borayotgani ijtimoiy xizmatlar, psixologik yordam markazlari va oilaviy muammolarni erta aniqlash mexanizmlarini yanada kuchaytirish zarurligini anglatadi.

Shu nuqtai nazardan, ayollar jinoyatchiligi profilaktikasida quyidagi yo‘nalishlar ustuvor ahamiyat kasb etadi; birinchidan, manzilli psixologik yordam tizimini kengaytirish, ya’ni zo‘ravonlik, tazyiq yoki oilaviy nizolarga duch kelayotgan ayollar uchun tezkor va doimiy psixologik ko‘mak mexanizmlarini yaratish; ikkinchidan, ayollar bandligini oshirish, ularni tadbirkorlik, kasb-hunar va mehnat bozoriga faol jalb qilish orqali iqtisodiy qaramlikni kamaytirish; uchinchidan, mahalla, oila va ta’lim muassasalari orqali ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimlarini kuchaytirish, oilaviy barqarorlikni mustahkamlash va nizolarni erta bartaraf etishga qaratilgan profilaktik mexanizmlarni takomillashtirish;

to‘rtinchidan, huquqiy ong va madaniyatni oshirish bo‘yicha targ‘ibot faoliyatini kengaytirish, ayollar uchun huquqiy bilimlarni amaliy ko‘rinishda yetkazish.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, ayollar jinoyatchiligi masalasi jamiyatning ijtimoiy salomatligi, oilaviy barqarorligi va gender tengligi bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, uni bartaraf etish uzoq muddatli, ilmiy asoslangan, kompleks yondashuvni talab etadi. Tadqiqot natijalari shundan dalolat beradiki, individual va manzilli profilaktika choralarini kengaytirish, ayollarni ijtimoiy-iqtisodiy qo‘llab-quvvatlash tizimini kuchaytirish, psixologik yordam infratuzilmasini takomillashtirish va oilaviy nizolarni erta aniqlash bo‘yicha samarali mexanizmlarni yaratish kelgusida ayollar jinoyatchiligining barqaror pasayishiga erishishning eng muhim shartlaridan biridir. Bu yo‘nalishlarning izchil amalga oshirilishi nafaqat Farg‘ona viloyatida, balki umuman mamlakat miqyosida jinoyatchilikni kamaytirish, ayollar manfaatlarini himoya qilish va gender tengligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi PF-6196-son Farmoni “Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini samarali tashkil etish to‘g‘risida”.

2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 3-yanvardagi PQ-1-son Qarori.

3.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 18-avgustdagi PQ-253-son Qarori.

4.Niyozova S.S., Salayev N.S. Kriminologiya. Darslik - Toshkent: Akademiya, 2024. - B. 157

5.ФранкЛ.В. Виктимологияивиктимность. - Душанбе, 1972. - С. 8-12.

6. Abdurasulova M. Kriminologiya.- Toshkent., Adolat., 2007-yil. - B. 26

7.Abdurasulova Q.R. “Ayollar jinoyatchiligining jinoyat huquqiy va kriminologik muammolari”. Diss. Toshkent, 2006.

8.Тарновская П.Н. “Женщины-убийцы”. Антропологическое наследие. СПб., 1902; Воронки. Антропологическое исследование. СПб., 1891.

9.Мурадова Я.Р. “Женская преступность: общефедеральный и региональные аспекты криминологической характеристики, основные направления профилактики (на материалах Краснодарского и Ставропольского краёв)”. Дисс. канд. юрид. наук. Волгоград, 2008.

10.Щербакова Л.М. “Женская насильственная преступность в современной России: криминологические проблемы”. Дисс. канд.юрид. наук. Москва, 2008.

11.Heidensohn, F. The Deviance of Women: A Critique and an Enquiry. The British Journal of Sociology, 19(2), 1968.,164.

12.Leonard, E. A Critique of Criminology Theory: Women, Crime and Society. New York/London: Longman.1982

Umirzakov Begzod Ataboyevich
O‘zbekiston Respubdikasi IIV Akademiyasi
Kriminologiya kafedrasi bogshlig‘i,
yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Jurayev Zoxidjon Ashurovich,
O’zbekiston Respublikasi Kriminologiya instituti
mustaqil tadqiqotchi-izlanuvchisi,
89623674941z@gmail.com
orcid.org/0009-0003-5613-8893
970698303

MINTAQAVIY (HUDUDIY) JINOIYATCHILIK DINAMIKASI VA TENDENSIYALARI: O'G'IRLIK JINOYATI MISOLIDA

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi hududlarida kuzatilayotgan mintaqaviy jinoiyatchilik dinamikasi va tendensiyalari, xususan o'g'irlik jinoyatlari misolida tahlil qilinadi. Maqolada o'g'irlik jinoyatining mintaqaviy xususiyatlari, uning ijtimoiy-iqtisodiy omillarga bog'liqligi, turli hududlardagi ko'rsatkichlar taqqoslanadi va jinoiyatchilikka qarshi kurashda mintaqaviy yondashuvning ahamiyati yoritiladi. Tadqiqot natijalari jinoyatchilikka qarshi profilaktika choralarini takomillashtirish uchun ilmiy-amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: mintaqaviy jinoiyatchilik, o'g'irlik, jinoiyatchilik dinamikasi, tendensiyalar, kriminologik tahlil, profilaktika, huquqiy tartibga solish.

ДИНАМИКА И ТЕНДЕНЦИИ РЕГИОНАЛЬНОЙ (ТЕРРИТОРИАЛЬНОЙ) ПРЕСТУПНОСТИ: НА ПРИМЕРЕ ПРЕСТУПЛЕНИЙ, СВЯЗАННЫХ С КРАЖЕЙ

Аннотация. В данной статье анализируются динамика и тенденции региональной преступности, наблюдаемые на территории Республики Узбекистан, в частности на примере преступлений, связанных с кражами. В статье рассматриваются региональные особенности краж, их зависимость от социально-экономических факторов, проводится сравнение показателей в различных регионах, а также освещается значение регионального подхода в

борьбе с преступностью. Результаты исследования служат научно-практической основой для совершенствования профилактических мер борьбы с преступностью.

Ключевые слова: региональная преступность, кража, динамика преступности, тенденции, криминологический анализ, профилактика, правовое регулирование.

DYNAMICS AND TRENDS OF REGIONAL (TERRITORIAL) CRIME: A CASE STUDY OF THEFT OFFENCES

Abstract. This article analyses the dynamics and trends of regional crime observed across the territory of the Republic of Uzbekistan, with particular focus on theft offences as a case study. The article examines the regional characteristics of theft, its dependence on socio-economic factors, compares indicators across different regions, and highlights the significance of a regional approach in combating crime. The findings of the research serve as a scientific and practical basis for improving preventive measures in the fight against crime.

Keywords: regional crime, theft, crime dynamics, trends, criminological analysis, crime prevention, legal regulation.

I. Kirish. Jinoyatchilik muammosi har qanday davlat uchun dolzarb ijtimoiy hodisa bo'lib, u nafaqat huquqiy, balki ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy jihatlarni ham o'z ichiga oladi. Mazkur muammo turli mintaqalarda o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, mahalliy sharoit, aholining demografik tarkibi, iqtisodiy rivojlanish darajasi va madaniy an'analar bilan bevosita bog'liq holda namoyon bo'ladi.

Mintaqaviy (hududiy) jinoiyatchilik — bu ma'lum bir geografik hudud doirasida sodir etiladigan barcha jinoyatlarning yig'indisi bo'lib, o'ziga xos ijtimoiy, iqtisodiy va demografik xususiyatlari bilan farqlanadi. Kriminologiya fanida mintaqaviy jinoiyatchilikni o'rganish alohida metodologik yondashuv talab etadi, chunki umumiy statistik ma'lumotlar har doim ham mahalliy sharoitni to'liq aks ettira olmaydi.[1]

O'g'irlik jinoyati — mulkiy jinoyatlar orasida eng keng tarqalgan turi bo'lib, deyarli barcha hududlarda yuqori ulushni tashkil etadi. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining **169-moddasi** o'g'irlikni boshqaning mol-mulkini egasiga sezdirmagan holda yashirincha olib qo'yish sifatida ta'riflaydi. Ushbu jinoyat turi aholining turmush darajasi, ijtimoiy tengsizlik va ish bilan ta'minlanganligi kabi ko'rsatkichlar bilan bevosita korrelyatsiya qiladi.[2]

Mazkur maqolaning maqsadi O'zbekiston hududlarida o'g'irlik jinoyatining mintaqaviy dinamikasi va tendensiyalarini kriminologik nuqtai nazardan tahlil qilish, uning kelib chiqish sabablari va shartlarini aniqlash hamda profilaktik choralar samaradorligini oshirishga oid tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

II. Mintaqaviy jinoiyatchilik tushunchasi va uning ilmiy asoslari. Kriminologiya fanida "mintaqaviy jinoiyatchilik" tushunchasi nisbatan yangi bo'lib, XX asrning ikkinchi yarmida shakllana boshlagan. Amerikalik kriminolog Clifford Shaw va Henry McKay ishlab chiqqan "ijtimoiy dezorganizatsiya" nazariyasi mintaqaviy jinoiyatchilikni o'rganishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qildi. Ushbu nazariyaga ko'ra, jinoiyatchilik darajasi ijtimoiy aloqalar zaiflashgan, iqtisodiy qashshoqlik hukm surgan va aholining tez almashinadigan hududlarda yuqori bo'ladi.

Mintaqaviy jinoiyatchilikni o'rganishda ikkita asosiy yondashuv mavjud:

1. birinchisi — makro-kriminologik tahlil bo'lib, u viloyatlar, tumanlar va shaharlar darajasida statistik taqqoslashni o'z ichiga oladi;

2. ikkinchisi — mikro-kriminologik tahlil bo'lib, u alohida mahallalar, ko'chalar va «jinoyat nuqtalari» (crime hotspots) ni aniqlab, ularning shakllanish mexanizmlarini o'rganadi.

O'zbekistonda mintaqaviy jinoiyatchilikning o'ziga xos xususiyatlari bir qator omillar bilan belgilanadi: Toshkent shahar va viloyati bilan boshqa hududlar o'rtasidagi demografik va iqtisodiy tafovutlar; shaharlashish jarayonining notekisligi; mehnat migratsiyasining ijtimoiy oqibatlari; mahalla institutining turli hududlarda har xil darajada faolligi. [3] Ushbu omillarning barchasi o'g'irlik jinoyatining mintaqaviy manzarasini belgilaydi.

Kriminologik adabiyotlarda hududiy jinoiyatchilikni tavsiflovchi asosiy ko'rsatkichlar quyidagilardan iborat: jinoiyatchilik koeffitsienti (100 000 aholiga nisbatan sodir etilgan jinoyatlar soni), jinoyatlarning struktura ko'rsatkichlari (mulkiy, zo'ravonlik, iqtisodiy va boshqa jinoyatlar ulushi), latentlik darajasi va jinoyatlarning yashirilish koeffitsienti.

III. O'g'irlik jinoyatining mintaqaviy xususiyatlari. O'g'irlik jinoyatining umumiy tavsifi quyidagilarni ko‘rib chiqamiz. O'g'irlik O'zbekiston Respublikasida eng ko'p sodir etiladigan jinoyatlar qatoriga kiradi. Kriminologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, mulkiy jinoyatlar umumiy jinoiyatchilik tuzilmasida 40-55 foizni tashkil etib, ularning asosiy qismini o'g'irlik tashkil etadi. O'g'irlikning ijtimoiy xavfliligi shundaki, u nafaqat moddiy zarar yetkazadi, balki fuqarolarning xavfsizlik hissini susaytiradi va ijtimoiy ishonch muhitini buzadi. [4]

O'g'irlik jinoyatlarini mintaqaviy taqsimoti tahlil qilinganda, yirik shaharlarda (Toshkent, Samarqand, Namangan, Andijon) bu ko'rsatkich qishloq hududlariga nisbatan sezilarli darajada yuqori ekanligi kuzatiladi. Bu holat bir necha ob'ektiv omillar bilan izohlanadi: shaharlarda mulkiy nisbatlar katta, aholi zichligi yuqori, anonim ijtimoiy muhit mavjud va potensial qurbonlar ko'proq. Ayniqsa transport tugunlari, bozorlar, tijorat markazlari va turar-joy massivlari o'g'irlik jinoyatlari uchun yuqori xavfli hududlar hisoblanadi.

Mintaqaviy differensiatsiya omillari. Ijtimoiy-iqtisodiy omillar orasida ishsizlik darajasi birinchi o'rinda turadi. Farg’ona vodiysi va Surxondaryo viloyatida kuzatilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ishsizlik 15 foizdan oshgan joylarda o'g'irlik jinoyatlari soni 2-2,5 baravar ko'proq bo'ladi. Shuningdek, mavsumiy xarakter ham muhim rol o'ynaydi: qishloq xo'jaligi mintaqalarida yig'im-terim mavsumidan keyin va qish oylarida o'g'irlik ko'rsatkichlari o'sadi.

Demografik omillar ham mintaqaviy jinoiyatchilikning shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi. 18-29 yoshdagi erkaklar aholisining nisbati yuqori bo'lgan hududlarda o'g'irlik sodir etish ehtimoli statistik jihatdan ko'proq kuzatiladi. Bu narsa kriminologiyada "yoshlar demografiyasi" deb ataluvchi hodisa bilan bog'liq. Bundan

tashqari, mehnat immigratsiyasi natijasida vujudga kelgan ijtimoiy noqulaylik va integratsiya muammolari ham jinoyatchilikka moyillikni oshiradi.

Geografik va infrastruktura omillari ham o'ziga xos rol o'ynaydi. Chegaradosh hududlarda (Surxondaryo, Qashqadaryo, Xorazm, Toshkent viloyati Namangan, Andijon) g'ayriqonuniy tovar almashinuvi o'g'irlik buyumlarini sotish uchun qulay sharoit yaratadi. [5] Shuningdek, qorovul va qo'riqlash xizmatlari zaif bo'lgan masofaviy hududlarda uylardan o'g'irlik ko'proq kuzatiladi.

IV. Jinoiyatchilik dinamikasi: tendensiyalar va tahlil. *Vaqt bo'yicha dinamika*. O'zbekiston Respublikasida so'nggi o'n yil ichida o'g'irlik jinoyatining dinamikasi murakkab xarakter kasb etdi. 2015-2019 yillarda o'g'irlik holatlari nisbiy barqarorlik tendensiyasini ko'rsatdi. 2020 yilda COVID-19 pandemiyasi oqibatida iqtisodiy qiyinchiliklar va ijtimoiy cheklovlar sababli mulkiy jinoyatlar, jumladan o'g'irlik soni keskin oshdi. Bu holat jahon miqyosida ham kuzatilgan bo'lib, u iqtisodiy inqirozlar bilan jinoiyatchilik o'rtasidagi bog'liqlikni yana bir bor tasdiqladi.

2021-2023 yillarda pandemiyadan chiqish davri o'g'irlik statistikasida sezilarli o'zgarishlarni olib keldi. Bir tomondan, iqtisodiy faollik tiklandi va ijtimoiy yordam dasturlari kengaydi, bu esa o'g'irlik ko'rsatkichlarining kamayishiga hissa qo'shdi.[6] Boshqa tomondan, kiberjinoyatchilik va zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda sodir etiladigan o'g'irlik turlari keskin o'sdi. Xususan, bank kartalaridan noqonuniy pul yechish, onlayn firibgarlik va shaxsiy ma'lumotlarni o'g'irlash holatlari mintaqaviy jinoiyatchilikning yangi qirralarini ochib berdi.

Hududiy farqlanish tendensiyalari. Toshkent shahri an'anaviy ravishda o'g'irlik jinoyatlari bo'yicha eng yuqori mutlaq ko'rsatkichlarni qayd etadi, biroq aholiga nisbatan hisoblanganda, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida ham yuqori koeffitsientlar kuzatiladi. Bu farq urbanizatsiya darajasi, ijtimoiy nazorat mexanizmlari va iqtisodiy imkoniyatlar bilan bog'liqdir.

So'nggi yillarda kuzatilayotgan muhim tendensiya shundaki, yirik shahrlarda an'anaviy o'g'irlik kamayib, uning o'rnini elektron va kibervositalar orqali amalga oshiriladigan o'g'irlik egallayapti. Bu holat profilaktika va tergov amaliyotiga yangi

talablar qo'ymoqda. Hududiy jinoiyatchilik kartalarining doimiy yangilanib borilishi va **"issiq nuqtalar"** (hotspot) tahlilining keng qo'llanilishi zaruriyat bo'lib qolmoqda.

Qishloq hududlarida esa o'g'irlik yangi shakllar bilan namoyon bo'lmoqda: fermer xo'jaliklaridan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va texnikasini o'g'irlash, chorva mollarini o'g'irlash holatlari o'sib bormoqda.[7] Bu esa aholining tovar-pul munosabatlariga faol kirishganligi bilan bir qatorda, qishloq joylarida ijtimoiy nazorat mexanizmlarining zaiflashganligi bilan ham bog'liq.

V. Mintaqaviy jinoiyatchilikni profilaktika qilishning asosiy yo'nalishlari. Mintaqaviy jinoiyatchilikni, xususan o'g'irlikni profilaktika qilishda uch asosiy darajada chora-tadbirlar amalga oshirilishi lozim:

- ✓ birlamchi (umumijtimoiy),
- ✓ ikkilamchi (maxsus-kriminologik)
- ✓ uchinchi (individual) profilaktika.

Birlamchi profilaktika doirasida har bir mintaqaning o'ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal etishga qaratilgan kompleks dasturlar ishlab chiqilishi talab etiladi. Xususan, ishsizlik darajasi yuqori bo'lgan hududlarda mehnat bozorini rivojlantirish, yoshlarni kasbiy tayyorlash va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash dasturlarini amalga oshirish katta ahamiyat kasb etadi. Bu borada davlat organlari, mahalla institutlari va fuqarolik jamiyati tashkilotlarining hamkorligi talab etiladi. [8]

Ikkilamchi profilaktika choralariga mintaqaviy «jinoyat xaritalari» ni shakllantirishga asoslangan maqsadli politsiya patrulli xizmati, videokuzatuv tizimlarini kengaytirish va aholining jinoiyatchilik haqida xabar berishini rag'batlantirish kiradi. Shuningdek, jinoyatga uchragan shaxslarga psixologik va yuridik yordam ko'rsatish markaz larini mintaqalarda yaratish ham zarurdir.

Uchinchi darajali profilaktika, ya'ni qayta sodir etishni oldini olish bo'yicha mintaqaviy resotsilashtirish dasturlarini ishlab chiqish ham dolzarb masaladir. Ozodlikdan mahrum qilish jazosini o'tab chiqkan shaxslarni mehnat bilan ta'minlash,

ularni ijtimoiy muhitga qayta integratsiyalash bo'yicha mintaqaviy farqlantirilgan yondashuvlar talab etiladi.

Mahalla institutining jinoyatchilikka qarshi kurashda o'rni alohida e'tirof etilishi lozim. O'zbek jamiyatida tarixan shakllangan mahalla jamoatchiligi nazorati mexanizmi, ayniqsa qishloq hududlarda hali ham kuchli ijtimoiy regulyatsiya funksiyasini bajaradi. Bu institutning imkoniyatlaridan to'liq foydalanish mintaqaviy jinoiyatchilikni kamaytirish yo'lidagi muhim omil bo'la oladi.

VI. Mintaqaviy kriminologik monitoring tizimini takomillashtirish. Mintaqaviy jinoiyatchilik dinamikasini samarali kuzatib borish uchun zamonaviy kriminologik monitoring tizimini yaratish zarur. Bu tizim quyidagi elementlarni o'z ichiga olishi lozim: real vaqt rejimida ma'lumot to'playdigan axborot-tahliliy platforma; viloyatlar va tumanlar bo'yicha taqqoslanadigan standartlashtirilgan jinoiyatchilik ko'rsatkichlari; latent jinoiyatchilikni aniqlashga yo'naltirilgan davriy aholilar so'rovi; jinoyatga moyil hududlarni oldindan bashorat qiluvchi prediktiv tahlil tizimlari.

Xorijiy tajriba, xususan Buyuk Britaniyaning «PredPol» tizimi yoki AQShning «CompStat» metodologiyasi O'zbekiston sharoitida moslashtirib qo'llash mumkin bo'lgan yondashuvlarni taqdim etadi. [9] Biroq ushbu modellarni ko'r-ko'rona ko'chirib olish emas, balki mahalliy hududiy xususiyatlar, huquqiy an'analar va demografik omillarni hisobga olgan holda moslashtirilgan tizim ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

Shuningdek, universitetlar, ilmiy tadqiqot institutlari va ichki ishlar organlari o'rtasida muntazam axborot almashinuvi va qo'shma tadqiqotlar olib borish tizimini yo'lga qo'yish mintaqaviy jinoiyatchilik tahlilining sifatini oshirishga xizmat qiladi. Kriminologik tadqiqotlarni moliyalashtirish va ularning natijalari asosida amaliy qarorlar qabul qilish mexanizmi ham takomillashtirilishi zarur. [10]

VII. Xulosa. Mintaqaviy (hududiy) jinoiyatchilik dinamikasi va tendensiyalarini o'g'irlik jinoyati misolida o'rganish bir qator muhim xulosalarni ilgari surish imkonini beradi.

Birinchidan, o'g'irlik jinoyatining mintaqaviy taqsimoti tasodifiy xarakter kasb etmaydi — u ijtimoiy-iqtisodiy, demografik va geografik omillarning murakkab o'zaro ta'siri natijasida shakllanadi. Bu holat har bir mintaqa uchun moslashtirilgan jinoiyatchilikka qarshi kurash strategiyalarini ishlab chiqish zarurligini ko'rsatadi.

Ikkinchidan, o'g'irlik jinoyatining zamonaviy tendensiyalari uning an'anaviy shakllardan tobora uzoqlashib, texnologik jinoiyatchilik bilan tutashib borayotganini ko'rsatadi. Bu esa profilaktika va tergov sohasida innovatsion yondashuvlarni talab etadi.

Uchinchidan, mintaqaviy jinoiyatchilik monitoring tizimini takomillashtirish, davlat organlari, mahalla institutlari va fuqarolik jamiyati o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish hamda kriminologik tadqiqotlarni amaliy huquqiy siyosat bilan bevosita bog'lash — bular bugungi kunda eng dolzarb vazifalar hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, mintaqaviy jinoiyatchilikka qarshi samarali kurash uchun har bir hudud o'ziga xos «kriminologik portret»iga ega ekanligi tan olinishi va shundan kelib chiqqan holda differensiallashtirilgan siyosat olib borilishi lozim. Faqat shundagina o'g'irlik jinoyatlarini va umuman jinoiyatchilikni kamaytirish bo'yicha qo'yilgan maqsadlarga erishish mumkin bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. — Toshkent: Adolat, 2023.

2. Kriminologiya: darslik / Tahrir hay'ati: A.A. Qodirov va boshqalar. — Toshkent: IIV Akademiyasi, 2022. — 480 b.

3. Hududiy jinoiyatchilik: nazariya va amaliyot / Mas'ul muharrir: R.T. Toshmatov. — Toshkent: O'qituvchi, 2021. — 214 b.

4. Shaw C.R., McKay H.D. Juvenile Delinquency and Urban Areas. — Chicago: University of Chicago Press, 1942.

5. Brantingham P.J., Brantingham P.L. Patterns in Crime. — New York: Macmillan, 1984.

6. Farrington D.P., Welsh B.C. Saving Children from a Life of Crime. — Oxford: Oxford University Press, 2007.

7. O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi. Aholi va demografik ko'rsatkichlar to'plami. — Toshkent, 2023.

8. Nazarov T.N. O'g'irlik jinoyatchiligining kriminologik xususiyatlari // Huquq va jamiyat. — 2022. — №3. — B. 45-52.

9. Yunusov B.A. Mintaqaviy jinoiyatchilik va unga ta'sir etuvchi omillar // Kriminologiya va jinoyatlarning oldini olish. — 2023. — №1. — B. 18-29.
10. Weisburd D., Eck J.E. What Can Police Do to Reduce Crime, Disorder, and Fear? // The ANNALS of the American Academy of Political and Social Science. — 2004. — Vol. 593. — P. 42-65.

Magrubov Mansur Mirkomilovich
O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi xodimi

JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHDA DRONLARLARNI ISHLATISHDA HORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASI

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi kunda xalqaro huquq tizimida va jahon hamjamiyatining normativ huquqiy hujjatlarida uchuvchisiz uchish qurilmalari (dronlar)ning tarifi va ularni tartibga solishning yagona huquqiy hujjati mavjud emasligini o’rganganlik darajasi tahlili haqida so’z boradi.

Kalit so’zlar: Uchuvchisiz uchadigan apparat, dron, havo hududi, shaxsiy hayotga aralashuv, taqiqlangan hududlar, taqiqlangan balandlik.

Yangi avlod texnologiyalarini bugun kashf etilishi yangilikka aylanmay qoldi guyo. Lekin, insonlarni ba’zi bir sohalarda mushkullarini osonlashtirib berayotgan texnologiyalar ham talaygina topiladi.

ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ДРОНОВ В ОБЕСПЕЧЕНИИ ОБЩЕСТВЕННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ

Аннотация. В статье рассматривается уровень изученности и анализируются подходы зарубежных государств к использованию беспилотных летательных аппаратов (дронов) в обеспечении общественной безопасности. Отмечается отсутствие единого международного правового акта, определяющего понятие дронов и регулирующего их применение в рамках международной правовой системы. Также исследуются вопросы правового регулирования, связанные с использованием дронов в воздушном пространстве, возможного вмешательства в частную жизнь, а также установления запретных зон и ограничений по высоте полётов.

Ключевые слова: беспилотный летательный аппарат, дрон, воздушное пространство, общественная безопасность, вмешательство в частную жизнь, запретные зоны, регулирование полётов.

FOREIGN EXPERIENCE IN THE USE OF DRONES FOR ENSURING PUBLIC SAFETY

Abstract. This article examines the level of research and analyzes the approaches of foreign countries to the use of unmanned aerial vehicles (drones) in ensuring public safety. It highlights the absence of a unified international legal framework defining drones and regulating their use within the global legal system. The study also addresses legal issues related to drone operation in airspace, potential intrusion into privacy, as well as the establishment of restricted zones and flight altitude limitations.

Keywords: unmanned aerial vehicle, drone, airspace, public safety, privacy intrusion, restricted zones, flight regulation.

Sun’iy intelekt va nano texnologiyalar shiddat bilan rivojlanib, yangidan yangi texnologiyalar, qurilmalar paydo bo’lmoqda hamda ixtiro qilinmoqda. Yaratilayotgan va ixtiro qilinayotgan yangi qurilmalar oldingi avlodiga nisbatan anchayin aqilli hamda o’lchamlarining kichikligi bilan farq qiladi. Insonlar og’ir mehnatini yengillashtirish hamda ishlab chiqarish sohasini yangi o’rinlarga olib chiqmoqda.

Uchuvchisiz uchish qurilmalari huddi shunday sohalardan biri bo’lib, hozirgi kunda shiddat bilan rivojlanmoqda hamda fuqarolik jamiyatidagi har bir sohaga kirishga ulgurdi. Yaqin o’n yillarda havo hududlarini uchuvchisiz uchish qurilmalari (dronlar) egallab olishi hamda ularni boshqaruvchi operatorlar hamda manfaatdor tomonlar orasidagi mojaroga aylanishi kutilmoqda.

Hozirda dunyoda juda katta qiziqish uyg‘otib, shu bilan birga ishlatilib kelinayotgan dronlar yoki boshqacha qilib aytadigan bo‘lsak kopter(multikopter)larni *(keyingi o‘rinlarda dronlar deb yuritiladi)* turli

davlatlarning hududlarida ishlatishda, qonunchiligida qo‘yiladigan talablar bir biridan farq qiladi.

Dunyo hamjamiyatida turizm, qishloq xo‘jaligi, kinomatografiya arxeologiya, harbiy va boshqa sohalarida asosan dronlarning *trikopter, kvadrokopter, oktokopter* va *geksakopter*lar kabi turlari ancha ommalashgan.

Ushbu dronlar asosan parak(rotor)larning soni, hajmi, tuzilishi, uchish tezligi, uchish masofasi, uchish balandligi, vazni, foto hamda videotasvirga olish, yuk ko‘tarish, boshqarish tizimi va shu kabi boshqa funksiyalari bilan bir biridan farq qiladi. Hozirda dronlarni ishlab chiqarayotgan korxonalar talab va takliflarni hisobga olib, ularni yangi funksiyalar bilan jihozlab, shakl jihatidan ham o‘zgartirib, takomillashtirib borishmoqda.

Bugungi kunda dunyo hamjamiyatida dronlarni ishlab chiqarish bo‘yicha hech qanday yagona shakl, bajarish funksiyalari yoki taktik texnik xususiyatini belgilab beruvchi yagona normativ huquqiy hujjat qabul qilinmagan. Bu esa ishlab chiqaruvchi korxona o‘zi xoxlagan dizaynda va ko‘rinishda ishlab chiqarishi hamda sotishi mumkin degani.

Keling dast avvval, yuqorida ommalashgan dronlar haqida qisqacha to‘xtalib o‘tsak.

Trikopter- bu uch parakka ega bo‘lgan, soatiga 60-70 km. harakat qila oladigan, shu bilan birga o‘ta tez bir yo‘nalishdan boshqa yo‘nalishga xolatini o‘zgartira oladigan uchuvchisiz uchuvchi qurilma. Ushbu turdagi dronlar boshqa dronlarga nisbatan kamroq ommalashgan.

Kvadrokopter- bu to‘rt parakka ega bo‘lgan, hozirda juda ommalashgan, turli vazifalarni bajarish qobilyati va boshqarish jixatidan qulay bo‘lgan uchuvchisiz uchuvchi qurilma. Ushbu dron yordamida hozirda turli foto va video tasvirlar onlayn vaqtda televideniya orqali namoyish qilinsa, xususiy korxonalar, tadbirkorlar hattoki dehqonlar tomonidan o‘z hududlarini nazorat qilish hamda qo‘riqlashda foydalanib kelishmoqda. Hattoki ba’zi bir davlatlar pochta jo‘natmalarini va yuklarni aholiga yetkazish bilan bog‘liq xizmatlarda sinov tariqasida ishlatilib kelinmoqda. Ushbu

turdagi dronlar hozir keng ommalashgan bo‘lib, turli soha vakillari tomonidan faol ishlatilib kelinmoqda.

Geksakopter- oltiparakga ega, tez harakatlanish qobilyatini o‘zida mujassam etgan (masalan, ba’zi bir takomillashtirilgan modellarda uchish tezligi 100-110 km/s yetadi), 25-30 kg.gacha yuk ko‘tarish qobilyatiga ega va 12 km. masofagacha ucha oladigan, o‘lchamlari bilan boshqa dronlardan ajralib turadigan o‘chuvchisiz uchuvchi qurilma.

Ushbu turdagi dronlar ichki yonuv dvigateli bilan jihozlanib, batareyalar bilan jihozlangan dronlarga nisbatan ko‘proq vaqt uchish qobilyatiga ega. O‘z navbatida vazni jixatidan ham nisbatan yuqoridagi ikki turdagi dronlardan og‘irroq hisoblanadi. Hozirgi kunda ushbu turdagi dronlar kinomatografiya va televideniya sohasida turli video va foto tasvirlarni olishda ishlatiladi. Ushbu dronning bir parraig ishlamay qolgan taqdirda ham qo‘llab tushmaydi, operator bilan aloqa yo‘qolgan taqdirda dastlabki uchish nuqtasiga qaytadi. Shu o‘rinda aytib o‘tish joizki, qolgan dronlarning turlariga ham ushbu funksiya hozirda o‘rnatilmoqda.

Oktokopter- sakkiz parakli, katta hajmli o‘chuvchisiz uchuvchi qurilma. Ushbu dron qolgan dronlarning barcha funksiyalari bilan jihozlangan, ancha takomillashtirilgan turi hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda ushbu turdagi dronlar yordamida harbiy ma’lumotlarni yig‘ishda, joylarning topografik haritalarini chizishda, aylanish qobilyatiga ega video va foto kameralarni o‘rnatib joylarning to‘liq panoramasini tasvirga olishda hamda og‘ir yuklarni tashishda ishlatilib kelinmoqda.

Ba’zi ma’lumotlarga qaraganda dushmanni yo‘q qilish uchun ushbu dronlar o‘q otar qurollar bilan ham jihozlanayotgan ekan. [18].

O‘z hududi havfsizligini ta’minlash va dronlarni uchirish tartibini belgilash maqsadida, ba’zi bir davlatlar o‘z qonunchiligida ularga nisbatan qator talablar hamda taqiqlar qo‘ya boshladi.

Masalan, *Bellorussiya* davlatida 100 metr, *Gruziya, Buyuk Britaniya*, *Avstriya*, *Chexiya* va *AQSh* davlatlarida 122 metr, *Avstraliya*da 123 metr balandlikdan

yuqoriga dronlarnio‘chirish mumkin bo‘lmasa, *Vetnam* davlatiga dronlarni olib kirish va ishlatish qonun bilan taqiqlangan. [19]

Turistik sayyohatga chiqishdan oldin tashrif buyuradigan davlatning dronlarni ishlatish va olib kirishga qo‘yilgan talablarini oldindan o‘rganib chiqish tavsiya etiladi. Dunyo davlatlarning qonunchiligida dronlarni olib kirish, ularni ishlatishga qo‘yilgan talablarni o‘rganib chiqib, asosan quyidagi talablar ko‘p davlatlarda asosan kichik farq bilan uchrashi ma’lum bo‘ldi. Bular,

- *Odamlar gavjum joylar va odamlarning ustida uchirish;*
- *Davlat idoralari, jamoat joylari, parklar, istirohat bog‘lari, huquqni muhofaza qilish organlarning ma’muriy binolari yaqinida;*
- *Qo‘riqlovga olingan va toifalangan obyektlar va ularning yaqin xududlarida;*
- *Aeroportlar, temir yo‘l bekatlari, avtoturargohlar va yer osti inshootlarida;*
- *Tungi vaqtlarda (ba’zi davlatlarda);*
- *Xususiy uylarning ustida va ularga 50 metr yaqin masofada;*
- *Jazoni ijro etish muassasalarining usti va yaqinida;*
- *Davlat chegarasiga yaqin joylarda uchirish taqiqlanadi.*

Dronlarni uchirish uchun ko‘p davlatlarda oldindan ariza yozilib ruxsat olinishi belgilab qo‘yilgan. Ayrim davlatlar dronlarni uchirishdan oldin ularni markirovka (belgi) qo‘yilib, uchirishi mumkin bo‘lgan xududlar ro‘yxatlari beriladi. Ko‘p davlatlarning qonunchiligida ro‘yxatdan o‘tmasdan turib uchish uchun ruxsat etilgan dronlarning vazni belgilangan.

Masalan, *Buyuk Britaniya, Armeniya*da 250gr.gacha, I*rlandiya*da 1 kg.gacha, *Tayland, Avstraliya*da 2 kg.gacha, *Kipr*da 3 kg.gacha, *Gruziya, Birlashgan Arab Amirliklari*da 5 kg.gacha, *Xitoy, Singapur*da 7 kg.gacha, *AQSh*da 25 kg.gacha *(har bir shtatda dron ishlatish bo‘yicha alohida o‘z qarori mavjud), Kanada*da 35 km.gacha og‘irlikdagi dronlarni uchirish mumkin. Vazni qonunda belgilangan me’yordan oshib ketgan taqdirda ro‘yxatdan o‘tkazish majburiy hisoblanadi.

Hattoki, ba’zi davlatlarda vazni og‘ir dronlarni uchirish uchun uchuvchilik guvohnomasi talab etiladi.

Ilmiy tadqiqotlarimiz tahliliga ko‘ra yoshi 16 yoki 18ga to‘lmagan fuqarolarga dronlarni uchirish ko‘p davlatlarda taqiqlangan, ayrim davlatlarda esa operator o‘z dronini ko‘rib turishi yoki 500 metr masofadan uzoqqa uchirmasligi belgilab qo‘yilgan bo‘lib, aeroportlarga 5 kmdan 8 km.gacha bo‘lgan masofadan yaqinda uchirish taqiqlangan.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, har bir davlat o‘z xududi va fuqarolarning xavfsizligini ta’minlash uchun o‘z qonunchiligiga dronlarni ishlatish bo‘yicha ma’muriy va jinoiy javobgarliklarni kiritishda davom etishi aniq. Dunyo hamjamiyati esa ommalashib borayotgan uchuvchisiz uchuvchi qurilmalarni ishlatish va ularni ishlab chiqarish bo‘yicha yagona normativ huquqiy xujjat ishlab chiqishi tobora aniq bo‘lib bormoqda. Shuning uchun dronlarni boshqa davlatlarga olib borish va ularni ishlatishdan oldin ushbu davlatlarning qonunchiligi bilan tanishib chiqish maqsadga muvofiq bo’ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Havo Kodeksining 1-bo‘lim, 3-moddasi. https://www.lex.uz
2. Научный вестник крыма, 1 (6) 2017
3. Собрание законадательства РФ. 2010 йил 14-сон, 1649-бет.
4. Российская газета. 2002. № 149-150.
5. Воздушный кодекс Российской Федерации: федер. закон РФ от 19 марта 1997 № 60-ФЗ // СЗ РФ. 24.03.1997. № 12. 1383-бет.
6. FAA Modernization and Reform Act of 2012. Sec. 336. Special rule for model aircraft. http://www.flutopedia.com/refs/Congress_2012_HR658
7. Title 14 CFR Part 107, Small Unmanned Aircraft Systems. https://www.ecfr.gov/cgi-bin/text=pt14.1.107
8. Title 14 CFR Part 101, Moored Balloons, Kites, Amateur Rockets and Unmanned Free Balloons. https://www.ecfr.gov/cgi-bin/text=pt14.1.101
9. Title 14 CFR Part 48 – Registration and Marking Requirements for Small Unmanned Aircraft. https://www.ecfr.gov/cgi-bin/text=pt14.1.48
10. Title 14 CFR Part 47 – Aircraft registration. https://www.ecfr.gov/cgi-bin/text=pt14.1.47
11. Low Altitude Authorization and Notification Capability. USS OperatingRules.https://www.faa.gov/uas/laanc_for_industry/sUAS_LAANC_USS_Rules
12. https: //ec.europa.eu/transport/modes/air/news
13. https://ru.wikipedia.org/wiki
14. https://www.lex.uz
15. https://www.tadviser.ru/index.php

16. https://dronomania.ru/faq/chto-takoe-dron.html
17. https://militaryarms.ru/voennaya-texnika/aviaciya/bespilotnye-letatelnye-apparaty
18. https://www.moyo.ua/news/chem-otlichaetsya-trikopter-kvadrokopter-oktokopter-geksakopter-4-tipa-dronov.html
19. https://4vision.ru/national_rules.

Jurayev Zoxidjon Ashurovich,
O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya instituti
mustaqil tadqiqotchi-izlanuvchisi,
89623674941z@gmail.com
orcid.org/0009-0003-5613-8893970698303

MINTAQAVIY JINOIYATCHILIK DINAMIKASI KONTEKSTIDA O'G'IRLIK JINOYATINING KRIMINOLOGIK TAVSIFI VA UNING OLDINI OLISHNI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'g'irlik jinoyati, uning mohiyati, davlatning iqtisodiy barqarorligiga tahdidi, mulkiy turdagi boshqa jinoyatlar bilan qiyosiy tahlili va jinoyiy-huquqiy jihatdan tahlili yoritilgan.

Kalit so'zlar: o'g'irlik, o'zganing mol-mulki, moddiy zarar, yashirin talontaroj, yo'qotilgan mulk, konstitutsiya, o'zlashtirish va rastrata.

КРИМИНОЛОГИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ПРЕСТУПЛЕНИЯ КРАЖИ В КОНТЕКСТЕ ДИНАМИКИ РЕГИОНАЛЬНОЙ ПРЕСТУПНОСТИ И СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ЕЁ ПРЕДУПРЕЖДЕНИЯ

Аннотация. В данной статье рассматривается преступление кражи, его сущность, угроза экономической стабильности государства, сравнительный анализ с другими имущественными преступлениями, а также уголовно-правовой анализ данного деяния.

Ключевые слова: кража, чужое имущество, материальный ущерб, тайное хищение, утраченное имущество, конституция, присвоение и растрата.

CRIMINOLOGICAL CHARACTERISTICS OF THEFT IN THE CONTEXT OF REGIONAL CRIME DYNAMICS AND IMPROVEMENT OF ITS PREVENTION

Abstract. This article examines the crime of theft, its essence, the threat it poses to the economic stability of the state, a comparative analysis with other property crimes, as well as a criminal-legal analysis of this offense.

Keywords: theft, another person's property, material damage, secret misappropriation, lost property, constitution, embezzlement and misappropriation.

1. Introduction (Kirish). Hozirgi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan sud-huquq sohasidagi islohotlar o'zining ijobiy natijasini bermoqda. Huquq-tartibot idoralari tizimida ham zamon talablaridan kelib chiqqan holda keng qamrovli o'zgarishlar amalga oshirilmoqda va buning natijasida jinoyatchilikka qarshi kurash, uning oldini olish bo'yicha samarali natijalarga erishilmoqda. [1] Ushbu amalga oshirilgan islohotlar davlatimizning taraqqiyoti, jamiyatimiz rivoji va xalqimiz manfaatiga xizmat qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasining yangi Konstitutsiyasi 65-moddasida “Xususiy mulk daxlsizdir. Mulkdor o'z mol-mulkidan qonunda nazarda tutilgan hollardan va tartibdan tashqari hamda sudning qaroriga asoslanmagan holda mahrum etilishi mumkin emas” deb yozilgan. Ushbu norma muhim ahamiyatga ega bo'lib, birinchidan, davlat iqtisodiy siyosatining asosiy tamoyillarini belgilaydi, ikkinchidan iqtisodiy siyosatimizning mazmun-mohiyati, asosiy yo'nalishlarini Konstitutsiya darajasida e'tirof etadi, uchinchidan, O'zbekiston Respublikasining iqtisodiyoti bozor munosabatlariga asoslanganligini huquqiy jihatdan mustahkamlaydi. [2] Insonning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari, shu jumladan mulkini noqonuniy tajovuzlardan himoya qilish huquqni muhofaza qiluvchi organlarning asosiy vazifasi hisoblanadi.

2. Materials and Methods: (Materiallar va usullar). O'zganing mol-mulkini yashirin ravishda talon-taroj qilish o'g'irlik deb hisoblanib, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 169-moddasida ushbu ijtimoiy havfli qilmish uchun jinoyiy javobgarlik belgilangan.

Manbalarda haqqli ravishda ta'kidlaganidek, “o'zganing mulkini yashirin ravishda talon-toroj qilish yoki o'g'irlik iqtisodiyot sohasidagi eng keng tarqalgan jinoyatlardan biridir. Talon-toroj qilishning barcha shakllari ichida o'g'irlik jinoyati

sodir etilish usuli jihatidan eng xavfi kamrog'i deb topilishi mumkin: unda jismoniy yoki ruhiy ta'sir etish qo'llanilmaydi; aybdor uni sodir etishda o'zidagi vakolatlardan va mol-mulkni egallashda aldashdan foydalanmaydi. Aybdor huquqqa xilof va yashirin ravishda, ya'ni boshqa shaxslardan yashirin holda mulkdorning xohish-irodasiga qarshi o'zganing mulkini o'zlashtiradi va uni o'zining mulki sifatida tasarruf eta boshlaydi. Biroq o'g'irlik, statistika ko'rsatishicha, o'zganing mulkini talon-toroj qilishning eng keng tarqalgan usuli bo'lib, bu uning ijtimoiy xavfliligini oshiradi.” [3]

O'g'irlik jinoyatlarining ijtimoiy xavfliligi shundaki, bu turdagi jinoyatlar natijasida shaxsiy va xususiy mulkka moddiy zarar yetkaziladi. Shu bilan birga, jinoyat sodir etgan shaxslarning o'z vaqtida aniqlanmasligi va javobgarlikka tortilishining ta'minlanmasligi, bir tomondan, ularning g'ayriqonuniy boylik orttrishiga, ijtimoiy foydali mehnat bilan shug'ullanmasdan tekinxo'rlarcha hayot kechirishiga imkon yaratsa, boshqa tomondan, bu holatlar jinoyat sodir etgan shaxslar uchun javobgarlik va jazoning muqarrarligi ta'minlanmasligiga, o'g'irlikdan jabr ko'rgan shaxslarga jinoyat natijasida yetkazilgan moddiy zararning qoplanmasligiga va odamlar ongida ichki ishlar organlarining o'z vazifalarini bajarmayotganligi haqida fikr shakllanishiga hamda pirovard-natijada davlat hokimiyatiga nisbatan ishonchning yo'qolishiga olib keladi.[4]

Shu sababli, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 169-moddasida o'g'irlik jinoyati uchun jinoyiy javobgarlik belgilangan bo'lib, ushbu jinoyatning subyekti 14 yoshga to'lgan har qanday aqli raso jismoniy shaxs bo'lishi mumkin.
Ta'kidlash lozimki, mulkni yashirin talon-toroj qilish o'g'irlanayotgan mulkka nisbatan uni tasarruf etish, boshqarish, yetkazib berish yoki saqlash bo'yicha muayyan vakolatlarga ega shaxs tomonidan sodir etilgan bo'lsa, bu qilmish Jinoyat kodeksi 167-moddasi (o'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan talon-toroj qilish) bo'yicha kvalifikatsiya qilinadi. Ushbu moddaning birinchi qismi bo'yicha jinoyiy javobgarlik faqatgina tashkilot, muassasa va korxonalardan hodim tomonidan o'g'irlangan mulkning umumiy qiymati bazaviy hisoblash miqdorining 30

baravaridan yuqori bo'lganda kelib chiqadi. [5] Aks holda shaxs Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 61-moddasiga muvofiq javobgarlikka tortiladi.

Agar ustav fondida davlat ulushi bo'lmagan korxonalar, muassasalar, tashkilotlarning mol-mulkini o'g'irlash, o'zlashtirish, rastrata qilish, mansab lavozimini suiiste'mol qilish yoki firibgarlik yo'li bilan sodir etilgan oz miqdorda talon-toroj qilish ularning hodimi tomonidan sodir etilgan bo'lsa, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 61-moddasiga ko'ra faqat mazkur korxonalar, muassasalar, tashkilotlar rahbarining arizasiga ko'ra javobgarlikka tortish mumkin. Bu yerda necha marotaba mayda o'g'irlik sodir etilganidan qat'i nazar, shaxs faqatgina ma'muriy javobgarlikka tortiladi.[6]

Ko'p hollarda kasbiy ta'limi va daromadning qonuniy manbai bo'lmagan, ota-onasiz qolgan, noqulay oilada tarbiya topgan yoshlar o'g'irlik jinoyatiga qo'l uradi. Ayrim shaxslarning spirtli ichimliklarni muntazam iste'mol qilishi, giyohvandlik vositalari iste'mol qilishga o'rganib qolganligi ularni oson pul topish yo'llarini topishga, ya'ni o'g'irlik jinoyatini sodir etishiga olib kelmoqda.

3. Results: (Tadqiqot natijalari) O'zbek tilining izohli lug'atida "o'g'irlik" va "jinoyat" tushunchalarining lug'aviy ma'nosi quyidagicha izohlangan. **O'g'irlik** — "o'g'irlab qo'lga kiritilgan, jinoyiy yo'l bilan o'zlashtirilgan mulk"; jinoyat — "ayb, gunoh jinoyiy ish, davlat qonunlari bilan belgilangan tartibga xilof va shu qonunlarga asosan javobgarlikka tortishni talab qiladigan, jamoat uchun xavfli xatti-harakat" ma'nolarini bildiradi.

Talon-toroj qilish — bu birovning mulkini o'zining yoki boshqa shaxslarning foydasiga, mulkdorga yoki ushbu mulkning boshqa egasiga zarar keltirib, qonunga zid va haq to'lamasdan undirish. Talon-toroj qilish — bu ko'p ma'noli tushuncha bo'lib, u O'zbekiston Respublikasi Jinoyat qonuniga muvofiq, mulkka qarshi jinoyatlarning ma'lum bir guruhini, ya'ni bosqinchilik (JKning 164-moddasi), tovlamachilik (JKning 165-moddasi), talonchilik (JKning 166-moddasi), o'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan talon-toroj qilish (JKning 167-moddasi), firibgarlik (JKning 168-moddasi), o'g'irlik (JKning 169-moddasi) kabi ijtimoiy xavfli qilmishlarni o'z ichiga qamrab oladi. Talon-toroj qilishning yashirin usuli

deganda, mulk egasi yoki mulk ishonib topshirilgan yoki ixtiyorida turgan shaxsga sezdirmasdan, ular yo'q vaqtda yoxud mulkdor yoki boshqa shaxslar mulkning talon-toroj qilinayotganini tushunmagan vaqtda sodir etilishi tushuniladi.[7]

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining "O'zgalar mulkini o'g'irlik, talonchilik va bosqinchilik bilan talon-taroj qilish jinoyat ishlari bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi qarorida o'g'irlikka quyidagicha ta'rif beriladi: "Jabrlanuvchining yoki boshqalarning yo'qligida yoki ular bor bo'lsada, ularga bildirmasdan o'zganing mol-mulkini yashirin talon-toroj qilish o'g'irlik hisoblanadi. Bordi-yu, jabrlanuvchi yoki boshqalar mol-mulkning olinayotganligini ko'rgan bo'lsada, lekin aybdor bildirmasdan harakat qilyapman deb o'ylagan bo'lsa, bunday qilmishni ham o'g'irlik deb tavsiflash lozim." Shuni ta'kidlash joizki, o'g'irlik uchun o'zganing egaligida bo'lgan mulkni olib qo'yish xosdir. [8] Biroq o'g'irlik aybdorning mulkka nisbatan boshqa muayyan huquqi bo'lgan (masalan, vaqtincha qarab turish) mulkni o'g'irlash va egallashga ham qaratilishi mumkin. Bu yerda ishlab chiqarishda ishchi tomonidan xom ashyoni yoki tayyor mahsulotni, jabrlanuvchi tomonidan vaqtincha qarab turishga tashlab ketilgan mulkni, magazinda kiyib ko'rish uchun olingan mulkni, aravakashga yetkazib berish uchun topshirilgan mulkni o'g'irlash nazarda tutilmoqda.

4. Conclusions: (Xulosalar). Xulosa qiladigan bo'lsak, o'g'irlikda o'zganing mulkiga qaratilgan tajovuz nazarda tutiladi. Shaxs o'z mulkiga nisbatan qonunga xilof qilmishni sodir etsa, bu holat talon-taroj hisoblanmaydi. Shunday holatlar ham uchraydiki, mulk va uning egasi bir shaxs bo'lmaydi (masalan, garov saqlash shartnomasi va hokazolar). Mulkdorning mulk egasidan g'ayriqonuniy ravishda mulkni olishi talon-taroj deb qaralishi mumkin emas. Chunki bunda mulkiy munosabatlarga zarar yetmaydi. Bunday qilmish o'zboshimchalik deb tavsiflanishi mumkin. O'g'irlik natijasida mulk egasining ixtiyoridagi mulkning hajmi va miqdori kamayib, u aybdor egallab olgan ashyo va narsalardan foydalanish va tasarruf qilish huquqidan mahrum bo'ladi. [9]

O'g'irlikni ochiq joyda emas, balki uy-joyga, omborxonaga yoki boshqa xonalarga g'ayriqonuniy ravishda kirib sodir etishning ijtimoiy xavflilik darajasi

yuqori. Buni shunday asoslash mumkin. Birinchidan, ochiq joylarda sodir etilganda, talon-toroj qilinishi mumkin bo'lgan mulkning miqdori cheklangan bo'lib, jinoyatchi o'sha yerda borini oladi. Uy-joyga, omborxonaga va boshqa xonalarga kirib o'g'irlik qilganda esa, jinoyatchining imkoniyatlari kengayib ketadi. Ya'ni, uyda saqlanayotgan qimmatbaho narsalar, zeb-ziynat buyumlari, jamg'arilgan pullarga egalik qilish imkoniyatlari paydo bo'ladi.

Ikkinchidan, o'g'irlik ochiq joyda yuz bersa, jinoyatchining imkoniyatlari kamroq, jabrlanuvchining tajovuzdan qutulib qolish sharoiti kengroq bo'ladi. Ya'ni, jabrlanuvchi mulkni o'zida saqlab qolish uchun qarshilik ko'rsatishi, qochib qutulishi, atrofdagilarning yordamiga tayanishi, himoya qilishni so'rab atrofdagi odamlarga murojaat qilishi, sodir etilgan jinoyat yuzasidan tezkor choralar ko'rish uchun ichki ishlar xodimlariga murojaat qilishi mumkin. [10] Uy-joy, omborxona yoki boshqa xonalarga o'g'ri oralanganda esa aksincha: jabrlanuvchi barcha imkoniyatlardan mahrum bo'lib, chorasiz qoladi. Qolaversa, mazkur holatda o'g'irlikdan bosqinchilik jinoyati ham "o'sib" chiqishi mumkin.

References (Adabiyotlar)

1. Juraev, Z.A., Kriminologicheskaya xarakteristika kraj i sovershenstvovanie ix profilaktiki. “Yurisprudentsiya, pravosudie i gosudarstvo aktualnie voprosi teorii i praktiki” sbornik statey VII Mejdunarodnoy nauchno-prakticheskoy konferentsii, Sostoyavsheysya 25 iyulya 2025 g.

2. Jurayev, Z.A., O’g’rilik - salbiy ijtimoiy hodisa sifatida”, “Siyosatshunoslik, huquq va xalqaro munosabatlar jurnali” (2181-3477) Jild: 04 Nashr: 10 (2025)

3. O’zbekiston Respublikasining 2014 yil 14 maydagi «Huquqbuzarliklar profilaktikasi to’g’risida»gi qonuni //URL: http://www.lex.uz

4. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 2 iyuldagi «Ijtimoiy reabilitatsiya qilish va moslashtirish, shuningdek oilaviy-maishiy zo’rlik ishlatishning oldini olish tizimi takomillashtirishchora-tadbirlari to’g’risida»gi PQ-3827-son qarori // URL: http://www.lex.uz

5. Yemelьkina, N.L., Juraev, Z.A., Prichini i posledstviya pribitiya trudovix migrantov iz Uzbekistana v Rossiyskuyu Federatsiyu s nesovershennoletnimi detimi, Nauka i praktika: aktualьnie voprosi, dostijeniya i innovatsii sbornik statey IV mejdunarodnoy nauchno-prakticheskoy konferentsii, sostoyavsheysya 15 dekabrya 2024 g.

6. 2019 yil 2 sentyabrda qabul qilingan O’zbekiston Respublikasi «Xotin-qizlarni tazyiq va zo’ravonlikdan himoya qilishto’g’risida» Qonuni;

7. Juraev, Z.A., Biologicheskaya xarakteristika nekotorыx lekarstvennыx rasteniy, proizrastayuщix vo flore uzbekistana, Mejdunarodnыy sentr nauchnogo sotrudnichestva «nauka i prosveщenie», Nauka i prosveщenie mejdunarodnыy sentr nauchnogo sotrudnichestva teoriya i praktika sovremennoy nauki sbornik statey XIV mejdunarodnoy nauchno-prakticheskoy konferentsii, sostoyavsheysya 20 dekabrya 2024 g.

8. Astanov I. R. Zo’rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlar va ularni tergov qilishning o’ziga xos jihatlari: O’quv qo’llanma. –T., TDYuU, 2015. – B. 139.
9. Abdurasulova Q.R. Kriminologiya: Darslik. Mas’ul muharrir:yu.f.d., prof. M.H. Rustamboev. – T.: TDYuI nashriyoti, 2008. – B. 163;
10. Predostavlenie uslug politsii, chastь mejvedomstvennogo reagirovaniya na gendrenoe nasilie. Standartnыe operativnыe protsedurы. 2015/ UNFPA, East European Institute for Reproductive Health

Saydaliyev Ilyosbek Sayfiddin o‘g‘li

Namangan Davlat texnika universiteti mustaqil izlanuvchisi
Tel:+998944363202
e-mail: ilyossaydaliyevmoxigul@gmail.com
ORCID iD: https://orcid.org/0009-0009-4209-8820

YOSHLAR O‘RTASIDA HUDUDIY JINOYATCHILIKNING IJTIMOIY OMILLARI VA UNI OLDINI OLISHDA OLIY TA’LIM TIZIMINING RO‘LI (tarbiyasi qiyin talabalar misolida)

Annotatsiya. Mazkur tezisda yoshlar o‘rtasida hududiy jinoyatchilikning ijtimoiy omillari ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Ayniqsa, oliy ta’lim tizimining tarbiyasi qiyin talabalar shakllanishiga ta’sir etuvchi institutsional omillari ochib beriladi. Ta’lim muhiti, akademik raqobat, raqamli makon, pedagogik munosabatlar hamda talabalar jamoasining xulq-atvor shakllanishidagi o‘rni asoslab beriladi. Shu bilan birga, sog‘lom turmush tarzini shakllantirish yoshlar jinoyatchiligini oldini olishning muhim ijtimoiy mexanizmi sifatida talqin qilinadi.

Kalit so‘zlar: hududiy jinoyatchilik, yoshlar, tarbiyasi qiyin talabalar, ijtimoiylashuv, oliy ta’lim, deviant xulq-atvor, sog‘lom turmush tarzi, profilaktika, ijtimoiy omillar.

СОЦИАЛЬНЫЕ ФАКТОРЫ РЕГИОНАЛЬНОЙ ПРЕСТУПНОСТИ СРЕДИ МОЛОДЕЖИ И РОЛЬ СИСТЕМЫ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ В ЕЁ ПРОФИЛАКТИКЕ (на примере студентов с трудным поведением)

Аннотация. В данной работе анализируются социальные факторы региональной преступности среди молодежи с социально-философской точки

зрения. Особое внимание уделяется институциональным факторам системы высшего образования, влияющим на формирование студентов с девиантным и трудным поведением. Рассматриваются роль образовательной среды, академической конкуренции, цифрового пространства, педагогических отношений и студенческого коллектива в процессе социализации и формирования поведенческих моделей. Также подчеркивается, что формирование здорового образа жизни является важным социальным механизмом профилактики молодежной преступности.

Ключевые слова: региональная преступность, молодежь, студенты с трудным поведением, социализация, высшее образование, девиантное поведение, здоровый образ жизни, профилактика, социальные факторы.

SOCIAL FACTORS OF REGIONAL YOUTH CRIME AND THE ROLE OF HIGHER EDUCATION IN ITS PREVENTION

(a case study of students with difficult behavior)

Abstract. This paper analyzes the social factors of regional youth crime from a socio-philosophical perspective. Special attention is given to institutional factors within the higher education system that influence the formation of students with deviant and difficult behavior. The study examines the role of the educational environment, academic competition, digital space, pedagogical relationships, and student communities in shaping behavioral patterns and socialization processes. It is also emphasized that promoting a healthy lifestyle serves as an important social mechanism for preventing youth crime.

Keywords: regional crime, youth, students with difficult behavior, socialization, higher education, deviant behavior, healthy lifestyle, prevention, social factors.

Kirish. Yoshlar o‘rtasida jinoyatchilik muammosi zamonaviy jamiyatda dolzarb ijtimoiy masalalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, hududiy kesimda jinoyatchilikning turlicha namoyon bo‘lishi ushbu jarayonga ta’sir etuvchi omillarni chuqur tahlil qilish zaruratini yuzaga keltiradi.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda huquqbuzarlik va jinoyatchilik holatlari ham ijtimoiy muammolardan biri sifatida saqlanib qolmoqda. Rasmiy statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 2025 yil yanvar–dekabr oylari davomida respublika bo‘yicha jami 155 002 ta jinoyat qayd etilgan bo‘lib, bu ko‘rsatkich 2024 yilga nisbatan 22 704 taga yoki 17,2 foizga oshgan. Shu bilan birga, respublikada jinoyatchilik darajasi har 10 ming aholiga o‘rtacha 40,5 holatni tashkil etgan.

Hududlar kesimida tahlil qilinganda, eng ko‘p jinoyatlar Toshkent shahrida (30 600 ta, jami jinoyatlarning 19,7 foizi) qayd etilgan. Shuningdek, yuqori ko‘rsatkichlar Toshkent viloyati (16 883 ta), Samarqand viloyati (15 998 ta) va Farg‘ona viloyatida (15 257 ta) kuzatilgan[1].

Mazkur statistik ma’lumotlar jamiyatda huquqbuzarlik va deviant xulq-atvor holatlarining mavjudligini, ayniqsa yoshlar o‘rtasida profilaktik chora-tadbirlarni kuchaytirish, sog‘lom turmush tarzini shakllantirish hamda tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirish zarurligini ko‘rsatadi.

Shu nuqtai nazardan, yoshlarning ijtimoiylashuv jarayonida muhim rol o‘ynovchi ta’lim tizimi alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki maktab va oliy ta’lim muassasalari nafaqat bilim beruvchi, balki shaxsning qadriyat pozitsiyasi, xulq-atvori va ijtimoiy mas’uliyatini shakllantiruvchi institutsional muhit sifatida namoyon bo‘ladi.

Tarbiyasi qiyin talabalar fenomeni ko‘p hollarda aynan ijtimoiy muhitga moslashuvdagi murakkabliklar, institutsional nomutanosiblik va qadriyatlar tizimidagi ziddiyatlar bilan bog‘liq holda shakllanadi. Mazkur holat esa ayrim yoshlarning deviant xulq-atvorga moyilligini kuchaytirib, potensial ravishda jinoyatchilikka olib keluvchi omillardan biri sifatida namoyon bo‘lishi mumkin.

Ta’lim muhiti va ijtimoiy ziddiyat. Ta’lim tizimi zamonaviy jamiyatda shaxsning ijtimoiylashuvi va qadriyatlar tizimining shakllanishida muhim institutsional omil hisoblanadi. U nafaqat bilim berish, balki individni ijtimoiy me’yorlar, rollar va jamoaviy munosabatlar tizimiga integratsiya qilish vazifasini

[1] Ўзбекистон Республикаси Миллий статистика қўмитаси. *Ўзбекистон Республикасининг ижтимоий-иқтисодий ҳолати: ҳуқуқбузарликлар статистикаси, 2025 йил январь–декабрь*. — Тошкент, 2025.

ham bajaradi. Shu ma’noda, ta’lim muhiti yoshlarning ijtimoiy subekt sifatida shakllanishida hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Biroq ijtimoiylashuv jarayoni doimo muvozanatli kechavermaydi. Ta’lim tizimidagi institutsional nomutanosibliklar, xususan, adolatsiz baholash amaliyoti, subektiv munosabatlar yoki kommunikativ muhitning yetishmasligi ayrim talabalar uchun ijtimoiy moslashuv jarayonini murakkablashtirishi mumkin. Natijada ularda ichki qarshilik, begonalashuv va normativ muhitga nisbatan befarqlik kabi holatlar yuzaga keladi.

Ijtimoiy nazariyalarga ko‘ra, ayniqsa, madaniy kapital darajasidagi tafovutlar ham muhim ahamiyatga ega. Agar talabalar oilaviy muhitda shakllangan qadriyatlar va tajriba ta’lim tizimida ustuvor hisoblangan me’yorlar bilan mos kelmasa, bu institutsional ziddiyatni yuzaga keltiradi. Bunday holatda talabaning o‘zini baholash darajasi pasayadi va u jamoaviy munosabatlardan chetlasha boshlaydi.

Mazkur jarayonlar esa deviant xulq-atvor shakllanishining ijtimoiy asoslaridan biri sifatida namoyon bo‘lishi mumkin. Chunki ijtimoiy muhitga to‘liq integratsiyalasha olmagan yoshlar muqobil, ko‘pincha normativdan chetga chiqadigan xulq modellariga moyillik bildiradi. Bu esa o‘z navbatida, hududiy jinoyatchilikning shakllanishida potensial xavf omili sifatida qaraladi.

Akademik raqobat va stress ta’siri

Zamonaviy oliy ta’lim tizimida akademik raqobat institutsional muhitning ajralmas qismiga aylangan. Reyting tizimlari, baholash mezonlari va natijaga yo‘naltirilgan ta’lim modeli talabalar o‘rtasida doimiy solishtirish va raqobat muhitini shakllantiradi. Bunday sharoitda ko‘pincha talabaning ijtimoiy qadri uning akademik natijalari orqali baholanadi.

Mazkur holat ayrim talabalar uchun motivatsion omil bo‘lib xizmat qilsa-da, boshqalar uchun kuchli psixologik bosim manbaiga aylanishi mumkin. Doimiy raqobat, muvaffaqiyatga erishish bosimi va muvaffaqiyatsizlikdan qo‘rqish talabalarda ichki xavotir, o‘ziga nisbatan ishonchsizlik va o‘zini qadrsiz his etish holatlarini yuzaga keltiradi.

Ayniqsa, ijtimoiy va iqtisodiy imkoniyatlari cheklangan yoki ijtimoiylashuv jarayonida qiyinchiliklarga duch kelayotgan talabalar bunday muhitda o‘zini “chetda qolgan” sifatida his qilishi mumkin. Bu esa ularning ta’lim muhitiga nisbatan befarqlashuvi, ijtimoiy aloqalardan chetlashuvi va normativ qadriyatlardan uzoqlashuviga olib keladi.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, akademik raqobat faqat bilimni baholash mexanizmi emas, balki talabalar xulq-atvori va ijtimoiy identifikatsiyasiga ta’sir etuvchi muhim ijtimoiy omil sifatida namoyon bo‘ladi. Agar mazkur jarayon inson qadr-qimmati va ijtimoiy adolat tamoyillari bilan uyg‘unlashtirilmasa, u ayrim talabalar orasida ijtimoiy begonalashuv va deviant xulq-atvor tendensiyalarini kuchaytirishi mumkin.

Natijada esa bunday ijtimoiy-psixologik bosim ostida shakllangan beqarorlik ayrim yoshlarning ijtimoiy me’yorlardan chetlanishiga, hatto potensial ravishda huquqbuzarlik yoki jinoyatchilikka moyilligining ortishiga sabab bo‘lishi mumkin.
Raqamli muhit va yoshlar xulq-atvoriga ta’sir

Zamonaviy ijtimoiy muhitning eng muhim xususiyatlaridan biri — raqamli kommunikatsiya vositalarining keng tarqalganligidir. Internet, ijtimoiy tarmoqlar va virtual muloqot platformalari yoshlarning kundalik hayotida yetakchi o‘rin egallab, ularning dunyoqarashi, qadriyat tizimi va ijtimoiy munosabatlariga kuchli ta’sir ko‘rsatmoqda.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda internet va ijtimoiy tarmoqlar aholi hayotida muhim kommunikatsiya vositasiga aylanmoqda. Tadqiqot ma’lumotlariga ko‘ra, mamlakatda 5,35 million nafar ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari mavjud bo‘lib, bu umumiy aholining 15,3 foizini tashkil etadi. Shu bilan birga, ijtimoiy tarmoqlarda faol ravishda kontent yaratayotgan auditoriya taxminan 587 ming nafar faol mualliflarni tashkil qiladi. Telegram messenjeri ham hisobga olinganda esa mamlakatda 3,5 million nafar faol ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari mavjudligi qayd etilgan.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, O‘zbekistonda eng ommalashgan ijtimoiy platformalar qatoriga TikTok va Facebook, shuningdek Instagram, Odnoklassniki,

VKontakte va YouTube kiradi. Shu bilan birga, mamlakatda Telegram eng keng qo‘llaniladigan kommunikatsiya platformalaridan biri hisoblanadi. Ijtimoiy tarmoqlarda asosan o‘zbek va rus tillarida muloqot olib borilishi, ayniqsa Telegram platformasida o‘zbek tilidagi kontent ulushi yuqori ekani kuzatiladi [21].

Manuel Castells tomonidan ishlab chiqilgan “tarmoq jamiyati” konsepsiyasiga ko‘ra, zamonaviy individning ijtimoiy aloqalari global axborot oqimlari orqali shakllanadi [9]. Bu esa real ijtimoiy muhit bilan virtual muhit o‘rtasidagi chegaralarni zaiflashtiradi. Natijada, talabalarning ijtimoiy identifikatsiyasi ikki xil makonda — real va virtual muhitda parallel ravishda shakllanadi.

Biroq raqamli muhitning ta’siri har doim ham ijobiy xarakterga ega emas. Ijtimoiy tarmoqlarda tarqaladigan nazoratsiz axborot oqimi, ommaviy madaniyatning ba’zi elementlari hamda agressiv kommunikatsiya shakllari ayrim hollarda yoshlar ongida normalizatsiya jarayonini buzishi mumkin. Bu esa deviant xulq modellariga nisbatan psixologik barqarorlikni susaytirishi ehtimolini oshiradi.

Ayniqsa, ijtimoiy jihatdan zaif integratsiyalashgan yoshlar uchun virtual muhit “muqobil reallik” vazifasini bajarib, ularni real ijtimoiy institutlardan uzoqlashtirishi mumkin. Shu nuqtai nazardan qaraganda, raqamli muhit hududiy xususiyatga ega bo‘lgan ijtimoiy nazorat mexanizmlarini ham qayta shakllantiruvchi omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Talabalar jamoasi va norasmiy ijtimoiy ta’sir. Oliy ta’lim muassasalarida talabalar o‘rtasidagi norasmiy munosabatlar tizimi ularning xulq-atvori shakllanishida muhim rol o‘ynaydi. Tengdoshlar guruhi ko‘p hollarda individ uchun referent guruh vazifasini bajaradi va unda qabul qilingan me’yorlar shaxsiy qarorlarga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Howard S. Becker ta’kidlaganidek, deviantlik ko‘pincha jamiyat tomonidan “tamg‘alash” jarayoni natijasida shakllanadi. Ya’ni, individning xulq-atvori emas, balki unga nisbatan bildirilgan ijtimoiy munosabat uning keyingi ijtimoiy traektoriyasini belgilab berishi mumkin [15].

Agar talabalar jamoasida ayrim individlarga nisbatan salbiy ijtimoiy stigmatizatsiya qo‘llanilsa, bu ularning o‘z-o‘zini idrok etish tizimiga ta’sir ko‘rsatib, ijtimoiy izolyatsiya va muqobil guruhlarga qo‘shilish tendensiyalarini kuchaytirishi mumkin. Bunday holatlar esa deviant xulq modellarining barqarorlashuviga olib keluvchi ijtimoiy mexanizm sifatida talqin qilinadi.

Shu bilan birga, ijobiy jamoaviy muhit, o‘zaro qo‘llab-quvvatlash va akademik hamkorlik talabalarning institutsional muhitga moslashuvini kuchaytiradi. Demak, talabalar jamoasi ikki tomonlama ta’sirga ega ijtimoiy institut sifatida namoyon bo‘ladi.

Institutsional ishonch va profilaktik mexanizmlar. Ta’lim muassasalarida institutsional ishonch darajasi talabalarning xulq-atvoriga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi muhim omillardan biridir. Agar talabalar ta’lim muassasasini adolatli, shaffof va qo‘llab-quvvatlovchi institut sifatida qabul qilsa, ularda ichki me’yorlarni qabul qilish darajasi ortadi.

Robert K. Mertonning anomiya nazariyasiga muvofiq, maqsadlar va ularga erishish vositalari o‘rtasidagi nomutanosiblik individni institutdan chetlashuvga olib kelishi mumkin [10]. Shu bois ta’lim tizimidagi teng imkoniyatlar va adolatli baholash mexanizmi ijtimoiy barqarorlikning muhim sharti hisoblanadi.

Profilaktik tarbiyaviy mexanizmlar — psixologik xizmat, tyutorlik tizimi, ma’naviy-ma’rifiy faoliyat va huquqiy targ‘ibot — talabalarning ijtimoiy moslashuvini ta’minlashda muhim o‘rin tutadi. Bu mexanizmlar orqali deviant xulq tendensiyalari erta bosqichda aniqlanib, ularni bartaraf etish imkoniyati yaratiladi.

Xulosa. Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, yoshlar o‘rtasidagi hududiy jinoyatchilik muammosi faqat huquqiy yoki kriminologik masala emas, balki keng ijtimoiy-falsafiy mazmunga ega kompleks hodisadir. Uning shakllanishida ta’lim tizimi, raqamli muhit, tengdoshlar ta’siri, institutsional ishonch va ijtimoiy tengsizlik kabi omillar o‘zaro bog‘liq holda ta’sir ko‘rsatadi.

Oliy ta’lim muassasalari esa bu jarayonda ikkilamchi emas, balki strategik ahamiyatga ega institut sifatida namoyon bo‘ladi. Chunki ular nafaqat bilim

beruvchi, balki shaxsning ijtimoiy barqarorligi, qadriyat tizimi va huquqiy ongini shakllantiruvchi muhit hisoblanadi.

Shu bois, tarbiyasi qiyin talabalar bilan ishlashda kompleks yondashuv — pedagogik, psixologik va profilaktik mexanizmlarni uyg‘unlashtirish — yoshlar o‘rtasida deviant xulq va jinoyatchilikning oldini olishda eng samarali yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Parsons, T. (1991). The Social System (2nd ed.). London: Routledge. pp. 157–167. ISBN 0-415-06055-9.
2. Бурдье П., Пассерон Ж.-К. Воспроизводство: элементы теории системы образования / Пер. с фр. А. М. Корбута. — М.: Просвещение, 2007. — С. 191–194.
3. Дюркгейм Э. Моральное воспитание / пер. с фр. А. Б. Гофмана. — М.: Изд. дом Высшей школы экономики, 2021. — С. 48–56, 112–128. — (Социальная теория). ISBN 978-5-7598-2530-2.
4. Бурдье П., Пассрон Ж.-К. Воспроизводство: элементы теории системы образования / Пер. с фр. Н. А. Шматко. — М.: Просвещение, 2007. — С. 85–107. ISBN 5-09-014104-5. УДК 37. ББК 74
5. Гордеева Т. О. Психология мотивации достижения. — М.: Смысл; Издательский центр «Академия», 2006. — С. 102–115, 118–125. ISBN 5-89357-204-1 («Смы сл ») ISBN 5-7695-2584-3 («Акад ем ия »)
6. Роджерс К., Фрейберг Д. Свобода учиться / Пер. с англ. А. Б. Орлова. — М.: Смысл, 2025. — 527 с. — С. 158-165. ISBN 978-5-89357-398-5.
7. Altbach, Philip G. Global perspectives on higher education. — Baltimore: Johns Hopkins University Press, 2016. — P. 59-72. — ISBN 978-1-4214-1926-8.
8. Гидденс Э. Модерн и самоидентичность / Реф. Е.В. Якимовой // Современная теоретическая социология: Энтони Гидденс. Реферативный сборник / Под ред. Ю.А. Кимелева. — М.: ИНИОН РАН, 1995. — (Серия «Социология»). — С. 98–102.
9. Кастельс М. Информационная эпоха: экономика, общество и культура / Пер. с англ. под науч. ред. О. И. Шкаратана. — М.: ГУ ВШЭ, 2000. — 493-496 с. — ISBN 5-7598-0069-8.
10. Мертон, Р. Социальная теория и социальная структура / Роберт Мертон ; [пер. с англ. Е. Н. Егоровой и др.]. — Москва : АСТ : АСТ МОСКВА : ХРАНИТЕЛЬ, 2006. — 243-248 с.с. — ISBN 5-17-029089-6 (ООО «Издательство АСТ»). — ISBN 5-9713-0703-7 (ООО Издательство «АСТ МОСКВА»). — ISBN 5-9762-0143-1 (ООО «ХРАНИТЕЛЬ»). — УДК 316. — ББК 60.5.
11. Роджерс, К. Свобода учиться / К. Роджерс, Дж. Фрейберг ; пер. с англ. А. Б. Орлова. – М. : Смысл ; Культурный центр «Новый Акрополь», 2019. – 180-185 с. – ISBN 978-5-89357-398-5.
12. Дьюи Дж. Демократия и образование: Пер. с англ. — М.: Педагогика-Пресс, 2000. — 24-25 с. — ISBN 5-7155-0773-1. — УДК 37.014.1. — ББК 74.00.
13. Маслоу А. Мотивация и личность. 3-е изд. / Пер. с англ. — СПб.: Питер, 2019. — 62-95 с. — (Серия «Мастера психологии»). — ISBN 978-5-4461-1309-5.
14. Tajfel, H., & Turner, J. C. (1986). The social identity theory of intergroup behavior. In S. Worchel & W. G. Austin (Eds.), Psychology of intergroup relations (p. 16). Chicago: Nelson-Hall.

15. Беккер, Г. Аутсайдеры: исследования по социологии девиантности / Говард Беккер; пер. с англ. Н. Г. Фархатдинова; под ред. А. М. Корбута. — Москва: Элементарные формы, 2018. — 31, 51-54 с. — ISBN 978-5-9500244-2-9.
16. Фуко М. Надзирать и наказывать. Рождение тюрьмы / Пер. с фр. В. Наумова; под ред. И. Борисовой. — М.: Ad Marginem, 1999. — 199–215 с. — ISBN 5-91103-229-6.
17. Гидденс, Э. Социология / Энтони Гидденс ; [инглиз тилидан А. В. Берков ва бошқалар таржимаси]. — 2-нашр. — М. : Едиториал УРСС, 2005. — 155 б. — ISBN 5-354-01093-4. — ББК 60.5.
18. Бандура Теория социального научения / Альберт Бандура; [Пер. с англ. под ред. Чубарь Н.Н.]. — СПб. : Евразия, 2000. —34-60, 120-150 с.с.— ISBN 5-8071-0040-9.
19. Бауман З. Текучая современность / Пер. с англ. под ред. Ю. В. Асочакова. — СПб.: Питер, 2008. — 7-15 с.с. — (Серия «Мастера социологии»). — ISBN 978-5-469-00034-1.
20. Ўзбекистон Республикаси Миллий статистика қўмитаси. *Ўзбекистон Республикасининг ижтимоий-иқтисодий ҳолати: ҳуқуқбузарликлар статистикаси, 2025 йил январь–декабрь*. — Тошкент, 2025.
21. Brand Analytics. *Социальные сети в Узбекистане: цифры и тренды, октябрь 2024 года. —* https://brandanalytics.ru/blog/social-media-uzbekistan-autumn-2024.

Noraliyev Turg‘un Eshmurod o‘g‘li,
Mustaqil tadqiqotchi
E-mail: noraliyevturgun77@gmail.com
+99894209-02-00

JINOYAT PREDMETINING JINOYAT OBYEKTI VA JABRLANUVCHI BILAN O‘ZARO NISBATI: NAZARIY VA AMALIY YONDASHUV

Annotatsiya: Ushbu maqolada jinoyat predmeti tushunchasi, uning jinoyat obyekti va jabrlanuvchi bilan o‘zaro farqi hamda nisbati zamonaviy jinoyat-huquqiy ta’limot asosida keng va chuqur tadqiq etilgan. Uchala kategoriyaning o‘zaro chegarasi aniq belgilab berilgan, ularning jinoiy qilmishni kvalifikatsiya qilish jarayonidagi roli ko‘rsatilgan. Rus, nemis va o‘zbek huquqshunosligi doktrinalariga murojaat qilinib, qiyosiy-huquqiy tahlil o‘tkazilgan. Maqolada jinoyat predmetini jinoyat tarkibining mustaqil belgisi sifatida tan olish zarurati ilmiy jihatdan asoslangan.

Kalit so‘zlar: jinoyat obyekti, jinoyat predmeti, jabrlanuvchi, ijtimoiy munosabatlar, moddiy substrat, jinoyat tarkibi, kvalifikatsiya, obyektiv tomon, huquqiy ne’mat, fakultativ belgi.

СООТНОШЕНИЕ ПРЕДМЕТА ПРЕСТУПЛЕНИЯ С ОБЪЕКТОМ ПРЕСТУПЛЕНИЯ И ПОТЕРПЕВШИМ: ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ И ПРАКТИЧЕСКИЙ ПОДХОД

Аннотация: В данной статье на основе современной уголовно-правовой доктрины всесторонне и глубоко исследуется понятие предмета преступления, его отличие и соотношение с объектом преступления и потерпевшим. Четко определены границы между этими тремя категориями, показана их роль в процессе практической квалификации преступлений. Проведен сравнительно-правовой анализ с опорой на доктрины российского, немецкого и узбекского правоведения. В статье научно обосновано значение предмета преступления как обязательного признака объективной стороны в преступлениях с материальным составом.

Ключевые слова: объект преступления, предмет преступления, потерпевший, общественные отношения, материальный субстрат, состав преступления, квалификация, объективная сторона, правовое благо, факультативный признак.

THE CORRELATION OF THE SUBJECT MATTER OF A CRIME WITH THE OBJECT OF A CRIME AND THE VICTIM: THEORETICAL AND PRACTICAL APPROACH

Abstract: Based on modern criminal law doctrine, this article provides a comprehensive and in-depth study of the concept of the "subject matter of a crime" (*predmet*), as well as its distinction from and relationship with the "object of a crime" and the "victim." The boundaries between these three categories are clearly defined, and their specific roles in the practical qualification of crimes are demonstrated. A comparative legal analysis is conducted with reference to Russian, German, and Uzbek legal scholarship. The article scientifically substantiates the significance of the subject matter of a crime as a key element of the *corpus delicti*.

Keywords: object of a crime, subject matter of a crime, victim, social relations, material substratum, corpus delicti, qualification, objective side, legal good, optional element.

Kirish. Hozirgi kunda jinoyat huquqi nazariyasida jinoyat predmeti, obyekti va jabrlanuvchi tushunchalari o‘rtasidagi aniq chegaralarni belgilash masalasi hanuzgacha murakkab va munozarali yo‘nalishlardan biri bo‘lib qolmoqda. Ushbu muammo, avvalo, jinoyatni to‘g‘ri kvalifikatsiya qilish zarurati bilan chambarchas bog‘liq. Chunki jinoyat predmeti va obyekti o‘rtasidagi o‘zaro nisbatni to‘g‘ri anglash qilmishning huquqiy bahosini aniqlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lib, bu o‘z navbatida aybdorga nisbatan adolatli va qonuniy jazo tayinlanishini ta’minlaydi. Mazkur tushunchalarning noto‘g‘ri talqin qilinishi esa jinoyat tarkibini aniqlashda xatoliklarga, hattoki noto‘g‘ri moddani qo‘llashga olib kelishi mumkin.

Shu bilan birga, amaldagi qonunchilikda jinoyat predmeti va jabrlanuvchi kategoriyalarining ayrim holatlarda bir-biriga yaqin talqin qilinishi huquqiy noaniqliklarni yuzaga keltirmoqda. Ayniqsa, shaxsga qarshi jinoyatlarda jabrlanuvchining bir vaqtning o‘zida ham jinoyat obyekti, ham muayyan ma’noda predmeti sifatida namoyon bo‘lishi masalasi chuqur ilmiy asoslashni talab etadi. Bu esa mazkur institutlarni nazariy jihatdan qayta ko‘rib chiqish va ularning o‘zaro bog‘liqligini aniqroq ochib berishni taqozo etadi.

Sud-tergov amaliyoti ham ushbu masalaning dolzarbligini yaqqol namoyon etadi. Amaliyotda jinoyat predmeti va obyektining noto‘g‘ri talqin qilinishi jinoyat tarkibining mavjud emasligi to‘g‘risida xulosa chiqarishga yoki aksincha, noto‘g‘ri kvalifikatsiyaga sabab bo‘lishi mumkin. Shu bois, ushbu tushunchalarning aniq chegaralarini ishlab chiqish tergov organlari va sudlar faoliyatida muhim uslubiy asos vazifasini bajaradi.

Bundan tashqari, zamonaviy raqamli texnologiyalar jadal rivojlanayotgan sharoitda jinoyat predmetining mazmuni ham kengayib bormoqda. Xususan, virtual aktivlar, raqamli ma’lumotlar va intellektual mulk obyektlari kabi yangi ko‘rinishlar jinoyat predmeti sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bu esa jinoyat huquqi nazariyasida mavjud yondashuvlarni yangicha ilmiy asosda takomillashtirish, shuningdek, qonunchilikni zamon talablariga mos ravishda rivojlantirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Bugungi kunda jinoyat huquqi fanida jinoyat tarkibining to‘rtta elementi — obyekt, obyektiv tomon, subyekt va subyektiv tomon — bir-biri bilan uzviy bog‘liq holda o‘rganiladi. Biroq ushbu elementlar ichida eng ko‘p ilmiy tortishuvlarga sabab bo‘ladigan kategoriya — bu jinoyat predmeti hisoblanadi [1]. Jinoyat predmeti ko‘pincha jinoyat obyekti bilan tenglashtiriladi yoki jabrlanuvchi tushunchasi bilan aralashtiriladi. Holbuki, uchala kategoriya ham o‘zining mustaqil huquqiy tabiatiga ega bo‘lib, ularni o‘zaro farqlash jinoiy qilmishni to‘g‘ri kvalifikatsiya qilish uchun hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Mazkur tadqiqotning ilmiy dolzarbligi shundaki, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida «jinoyat predmeti» tushunchasi mustaqil norma sifatida bevosita belgilanmagan. Shunga qaramay, predmet ko‘plab jinoyat tarkiblarida tavsiflovchi belgi sifatida ishlatiladi. Masalan, o‘g‘irlikda — o‘zganing mol-mulki, kontrabanda jinoyatida esa — qonunda maxsus belgilangan ashyolar (qurol-yarog‘, giyohvandlik vositalari ва h.k.) predmet bo‘lib keladi. Bu esa jinoyat predmetini mustaqil tushuncha (belgi) sifatida nazariy jihatdan chuqur asoslash zarurligini ko‘rsatadi.

Adabiyotlar tahlili. Jinoyat predmeti masalasi ilmiy adabiyotlarda N.I.Korjanskiy, B.S.Nikiforov, A.A.Piontkovskiy, V.Ya.Tatsiychuk kabi olimlar, shuningdek, mahalliy huquqshunoslardan B.A.Karimov va A.S.Yoqubovlar tomonidan atroflicha tadqiq etilgan [2]. Shunga qaramay, jinoyat predmetining obyekt va jabrlanuvchidan aniq chegaralanishi hamon munozarali masala bo‘lib qolmoqda. Jinoyat obyekti muammosi huquqshunoslik fanida uzoq tarixga ega. Xususan, sovet jinoyat-huquqiy doktrinasida obyekt — «jinoyat tajovuz qiladigan ijtimoiy munosabatlar» sifatida ta’riflangan [3]. Mazkur ta’rif A.A.Piontkovskiy va B.S.Nikiforov asarlarida ishlab chiqilgan bo‘lib, sobiq ittifoq respublikalari huquqshunos olimlarining ko‘pchiligiga kuchli ta’sir ko‘rsatgan. Zamonaviy huquqshunoslikda obyekt tushunchasiga nisbatan ikki xil asosiy yondashuv shakllangan: birinchisi — obyektni «ijtimoiy munosabatlar» deb ta’riflash (klassik sovet ta’limoti); ikkinchisi — obyektni «huquqiy ne’mat» (Rechtsgut) yoki «huquqiy manfaat» sifatida belgilash (nemis va anglo-sakson maktablari) [4]. Nemis huquqida «Rechtsgut» (huquqiy ne’mat) tushunchasi XIX asrdan buyon qo‘llanib

kelmoqda va bugungi kunda Yevropa jinoyat huquqi doktrinasining fundamental tushunchalaridan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasining jinoyat-huquqiy ta’limotida obyekt masalasida har ikki yondashuvdan ham foydalanilmoqda. Masalan, B.A.Karimov obyektni ijtimoiy munosabatlar orqali ta’riflasa, A.S.Yoqubov uni huquqiy ne’mat konsepsiyalari orqali bayon etadi. Har ikki yondashuv ham obyektning asosiy xarakteristikasini aks ettiradi: obyekt — jinoyat tajovuz qiladigan va davlat tomonidan himoya qilinadigan huquqiy ne’mat yoki ijtimoiy munosabatdir.

An’anaviy ravishda jinoyat obyekti umumiy, turdosh (rod) va bevosita obyektlarga ajratiladi. Umumiy obyekt — jinoyat qonunchiligi himoya qiladigan barcha ijtimoiy munosabatlar majmuidir. Turdosh (rod) obyekt — bir xil turdagi jinoyatlar guruhi tajovuz qiladigan munosabatlar tizimi. Bevosita obyekt esa muayyan jinoyat tajovuz qiladigan aniq munosabat hisoblanadi [5].

Bevosita obyektni aniqlash jinoiy qilmishni to‘g‘ri kvalifikatsiya qilishning asosiy shartidir. Masalan, o‘g‘irlik jinoyatida bevosita obyekt — mulkchilik munosabatlari bo‘lsa, predmet — o‘g‘irlangan moddiy ashyo (mol-mulk) hisoblanadi. Mazkur tushunchalarni o‘zaro aralashtirish kvalifikatsiya jarayonida jiddiy xatolarga olib kelishi mumkin.

Huquqshunoslik fanida jinoyat predmeti uzoq vaqt davomida obyektning tarkibiy qismi sifatida talqin qilib kelingan. Biroq, N.I.Korjanskiy 1980-yillarda predmetni obyektdan ajratgan holda, uni jinoyat tarkibining mustaqil (fakultativ) belgisi sifatida tan olish zarurligini ilmiy jihatdan asoslab bergan.

N.I. Korjanskiyning fikricha, predmet — «obyektiv dunyoning moddiy ashyosi yoki hodisasi bo‘lib, unga bevosita ta’sir ko‘rsatish orqali muayyan ijtimoiy munosabat buziladi»[6].

Germaniya jinoyat huquqi doktrinasida predmet tushunchasiga mos keladigan atama «Tatobjekt» (jinoyat predmeti harakat obyekti) yoki «Handlungsobjekt» deb yuritiladi. Ushbu kategoriya «Rechtsgut» (huquqiy ne’mat) tushunchasidan aniq farqlanadi [7].

Bu farqlash nemis huquqi kvalifikatsiyasida aniq metodologik ahamiyatga ega. Jinoyat predmeti quyidagi mustaqil belgilar majmui orqali xarakterlanadi:

1) Moddiylik (materiallik): predmet obyektiv dunyodagi moddiy ashyo yoki moddiy shaklga ega hodisadir. Zamonaviy jinoyat huquqida nafaqat moddiy ashyolar, balki mulkiy huquqlar va raqamli ma’lumotlar ham jinoyat predmeti (yoki unga tenglashtirilgan tushunchalar) sifatida tan olinmoqda.

2) Aniqlik: predmet umumiy ko‘rinishda emas, balki jinoyat ta’sirining muayyan obyekt-manzili sifatida belgilanadi.

3) Fakultativlik: jinoyat predmeti jinoyat tarkibining fakultativ (qo‘shimcha) belgisi hisoblanadi. Biroq muayyan moddiy tarkibli jinoyatlarda (masalan, o‘g‘irlik, kontrabanda) u kvalifikatsiyaning majburiy belgisiga aylanadi.

4) Jismoniy mavjudlik: predmet obyektga nisbatan moddiy jihatdan ajralgan bo‘ladi. Jinoyat predmeti tajovuz natijasida jismoniy yo‘q qilinishi yoki shikastlanishi mumkin, biroq jinoyat obyekti bo‘lgan ijtimoiy munosabatlar davlat himoyasida qolaveradi va huquqiy jihatdan tiklanishi mumkin.

Predmetning mustaqil ahamiyati shundaki, u jinoyat obyektivlashgan joyni (moddiy ifodasini) ko‘rsatadi. Agar predmet mavjud bo‘lmasa, jinoyatning obyektiv mavjudligini isbotlash murakkablashadi [8].

Predmet jinoyat tarkibining qaysi elementiga tegishli masalasida jinoyat huquqida ikki xil yondashuv bo`lib, birinchi guruh olimlari A.N.Traynin, va V.N.Kudryavtsevlar jinoyt predmetini obyektning tarkibiy qismi deb hisoblaydi ikkinchi guruh olimlari N.I.Korzhanskiy, G.P.Novosyolovlar [9] uni obyektiv tomonning alohida belgisi sifatida ko'radi. Bugungi kunda ikkinchi guruh olimlarining fikrlari ko‘pchilik tomonidan qo‘llab-quvvatlanmoqda, chunki predmetga ta’sir ko‘rsatish harakati obyektiv tomon doirasida amalga oshiriladi. Bizning fikrimizcha, amaliy jihatdan predmetning obyektiv tomonga tegishliligi kvalifikatsiya jarayonida qulay metodologik asos yaratadi: tegishli harakatni aniqlash va shu harakat qaysi predmetga yo‘naltirilganini tekshirish orqali jinoyat tarkibi aniqlanadi.

Tahlil va natijalar. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 55-moddasiga ko‘ra, jabrlanuvchi — jinoyat natijasida jismoniy, moddiy yoki ma’naviy zarar ko‘rgan jismoniy yoxud yuridik shaxsdir [10]. Biroq jinoyat huquqi doktrinasida jabrlanuvchi kategoriyasi protsessual maqomdan tashqari, moddiy-huquqiy xarakter ham kasb etadi.

Jinoyat-huquqiy ta’limotda jabrlanuvchi masalasiga nisbatan ikki xil yondashuv mavjud: protsessual yondashuv — jabrlanuvchini protsess qatnashchisi deb biladi; moddiy-huquqiy yondashuv — jabrlanuvchini jinoyat predmetining maxsus turi yoki obyektning tarkibiy elementi deb ko‘radi.

N.I. Korjanskiy jabrlanuvchi va predmet o‘rtasida keskin chiziq tortadi: uning fikricha, jinoyat predmeti nafaqat jonsiz ashyolar, balki biologik mavjudotlar (hayvonot va o‘simlik dunyosi) ham bo‘lishi mumkin [11].

Obyekt, predmet va jabrlanuvchi o‘rtasidagi nisbatni tushuntirishda G.P.Novosyolov «mavhum va aniq» sxemasini taklif etgan: obyekt — mavhum huquqiy kategoriya, predmet va jabrlanuvchi esa uning aniq moddiy ifodalaridir [12].

Jinoyat predmetiga ta’sir ko‘rsatish ikki xil oqibatga olib kelishi mumkin: birinchidan, predmetning o‘zi o‘zgarishi (yo‘q qilinishi, shikastlanishi, sifatining o‘zgarishi); ikkinchidan, obyektdagi ijtimoiy munosabatning buzilishi. Bu ikki oqibat har doim bir vaqtda sodir bo‘lavermaydi [13]. Masalan, hujjat soxtalashtirilganda predmet (hujjat) moddiy jihatdan o‘zgaradi, shu bilan birga hujjat aylanishi munosabatlari (obyekt) ham buziladi. Predmetga ta’sir qilinmagan holda obyekt buzilishi ham mumkin. Masalan, tuhmat qilish jinoyatida aniq bir moddiy predmetga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir ko‘rsatilmaydi, biroq shaxsning qadr-qimmati va sha’ni (obyekt) buziladi. Bu esa predmetning fakultativ (qo‘shimcha) belgi ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Jabrlanuvchi jinoyat obyektining tarkibiy elementi hisoblanib, uni moddiy ashyo (predmet) bilan tenglashtirish inson qadr-qimmati tushunchasiga ziddir. Farq quyidagicha: predmet — harakatning moddiy yo‘naltirilgan obyekti, jabrlanuvchi esa — harakatdan zarar ko‘ruvchi subyektdir. Jinoyat-huquqiy ma’noda

jabrlanuvchi — bu jinoyatdan bevosita jismoniy, ma’naviy yoki mulkiy zarar ko‘rgan jismoniy shaxsdir. Yuridik shaxslar esa jinoyatning mulkiy obyekti doirasida jabrlanuvchi (mulkiy zarar ko‘ruvchi) sifatida e’tirof etiladi [14].

Amaliy misolda bu farq talonchilik jinoyati tarkibida yaqqol namoyon bo‘ladi: bunda jabrlanuvchi — jinoyat natijasida o‘zining mulkiy huquqlari yoki jismoniy daxlsizligiga tajovuz qilingan shaxs hisoblansa, jinoyat predmeti — tajovuzning bevosita moddiy manzili bo‘lgan, aybdor tomonidan qonunga xilof ravishda ochiqdan-ochiq talan-toroj qilingan o‘zganing mol-mulkidir. Mazkur ikki kategoriya jinoyat tarkibining obyektiv belgilari sifatida o‘zaro mustaqil huquqiy tabiatga ega bo‘lib, ularning mazmunan to‘g‘ri nisbatda aniqlanishi qilmishni to‘g‘ri kvalifikatsiya qilishning zaruriy sharti hisoblanadi [15].

Sud amaliyotida predmetni obyekt yoki jabrlanuvchi bilan aralashtirib yuborish bir qator kvalifikatsiya xatolariga sabab bo‘ladi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining “O‘zganing mulkini talon-toroj qilish jinoyat ishlari bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi Plenum qarorida ta’kidlanganidek, mol-mulkka oid jinoyatlarda predmetni aniq belgilamaslik jinoyat turiga noto‘g‘ri baho berishga olib keladi [16].

Xususan, quyidagi holatlarda predmetsiz to‘g‘ri kvalifikatsiya qilish mumkin emas:

- O‘g‘irlik va talonchilik farqi: O‘g‘irlik va talonchilikda jinoyat predmeti bir xil (o‘zganing mol-mulki) bo‘lsa-da, ularni farqlovchi asosiy mezon — obyektiv tomonning bajarilish usulidir.

- Narkotik moddalar bilan bog‘liq jinoyatlarda: Narkotik vositalarning miqdori va turi jinoyatni kvalifikatsiya qilishda predmetning zaruriy belgisi sifatida namoyon bo‘ladi.

- Kontrabanda va bojxona jinoyatlarida: Predmet — chegaradan o‘tkazilayotgan tovar; uning qiymati va turi jinoyatning og‘irlik darajasini belgilaydi.

- Hujjatlarni soxtalashtirish jinoyatlarida: Predmet — rasmiy hujjat; predmetning rasmiy yoki norasmiy ekanligi jinoyat tarkibini o‘zgartiradi.

Jabrlanuvchini predmet bilan aralashtirib yuborish, ayniqsa, shaxsga qarshi jinoyatlarda jiddiy oqibatlarga olib keladi. Masalan, o‘g‘irlik paytida kuzatuvchi inson — jabrlanuvchi emas, balki guvohdir. Biroq, agar harakatlar bevosita unga (shaxsga) qaratilsa, u jabrlanuvchiga aylanadi va jinoyat kvalifikatsiyasi talonchilik yoki bosqinchilikka o‘zgarishi mumkin [17].

Germaniya Jinoyat kodeksi (StGB) jinoyat predmetini bevosita «Tatobjekt» atamasi orqali ko‘plab moddalarda belgilaydi. Masalan, 242-paragrafda (o‘g‘irlik) predmet — «boshqa shaxsga tegishli ko‘chma ashyo» sifatida ta’riflanadi. Germaniya doktrinasi Rechtsgut (obyekt) va Tatobjekt (predmet) tushunchalarini o‘zaro aniq farqlaydi [18].

Rossiya Federatsiyasi jinoyat-huquqiy doktrinasida predmet mustaqil kategoriya sifatida to‘liq tan olingan. RF Jinoyat kodeksi sharhlari va o‘quv adabiyotlarida predmet, obyekt va jabrlanuvchi uchta alohida element sifatida tizimli tahlil qilinadi [19].

Anglo-sakson huquq tizimida «actus reus» (jinoiy harakat) elementlari doirasida predmetga mos keladigan tushuncha «object of the act» sifatida ishlatiladi, biroq u kontinental Yevropa tizimidagidek mustaqil kategorial sifat kasb etmaydi [20].

Xulosa. O‘zbekiston jinoyat-huquqiy tizimining takomillashuvi uchun kontinental Yevropa — xususan, nemis va rus maktablari — tajribasini o‘rganish maqsadga muvofiq, chunki O‘zbekiston huquq tizimi tarixan ushbu an’anaga yaqin turadi. Tadqiqot davomida tahlil etilgan muammolar asosida bir qator ilmiy va qonunchilik takliflari shakllantirildi:

1. Jinoyat kodeksining 14-moddasiga (Jinoyat tushunchasi) yoki alohida yangi modda sifatida "Jinoyat tarkibi elementlari va belgilari" qatoriga predmet ta’rifini kiritish. Bu hozirgi ilmiy bahslarni qonunchilik darajasida hal etishga xizmat qiladi.

2. Oliy sud Plenumi qarorlarida obyekt, predmet va jabrlanuvchini farqlash bo‘yicha aniq ko‘rsatmalar berish hamda sudyalar uchun uslubiy qo‘llanmalar ishlab chiqish.

3. Jinoyat huquqi o‘quv dasturlarida predmet va jabrlanuvchiga alohida mavzu ajratish, ularni mustaqil kategoriya sifatida o‘qitish metodologiyasini kuchaytirish.

4. Xorijiy davlatlar — Germaniya va Rossiya Federatsiyasi tajribasini chuqur o‘rganib, predmet institutini milliy huquqqa moslashtirilgan shaklda qonunchilikda mustahkamlash.

Mazkur tadqiqot jinoyat predmeti, obyekt va jabrlanuvchining bir-biridan tubdan farq qiluvchi mustaqil kategoriyalar ekanligini isbotlashga xizmat qiladi. Ularning o‘zaro nisbati huquqiy tizimning mantiqiy yaxlitligini ta’minlash va to‘g‘ri kvalifikatsiyani kafolatlash uchun zarur metodologik asosni tashkil etadi:

1. Jinoyat obyekti — eng keng va mavhum kategoriya bo‘lib, u huquqiy ne’mat yoki ijtimoiy munosabat shaklida namoyon bo‘ladi hamda har doim majburiy element hisoblanadi.

2. Jinoyat predmeti — jinoyat obyektining moddiy ifodasidir, ya’ni harakatning aniq yo‘naltirilgan moddiy obyekti; u jinoyat tarkibida fakultativ (qo‘shimcha) element bo‘lib, faqat qonun maxsus ko‘rsatgan jinoyatlardagina ahamiyat kasb etadi.

3. Jabrlanuvchi predmetdan o‘zining huquq subyekti (inson) ekanligi bilan tubdan farqlanadi.

4. Ushbu uchala kategoriyani to‘g‘ri farqlash jinoiy kvalifikatsiyaning asosi bo‘lib, sud-tergov amaliyotida hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

5. O‘zbekiston jinoyat qonunchiligida predmet institutini mustahkamlash milliy qonunchilikni tizimlashtirish va jinoyat tarkibi nazariyasini rivojlantirishga xizmat qiladi, bu esa adolatli sudlovning muhim kafolatidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Jinoyat huquqi. (Umumiy qism). Darslik. Mas’ul muharrir: y.f.d., prof. M.H. Rustambayev. – T.: TDYU nashriyoti, 2018. – B. 134-138.
2. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga sharh. Maxsus qism. – T.: Adolat, 2017.
3. Курс советского уголовного права. Том 2. Преступление. — М.: Наука, 1970. — С. 115-120.

4. Roxin C. Strafrecht. Allgemeiner Teil. Bd. I. — Munchen: C.H. Beck, 2006. — S. 14–18.
5. Kudryavtsev V.N. Obyektivnaya storona prestupleniya. — Moskva: Gosyurizdat, 1960. — S. 89.
6. Korzhanskiy N.I. Obyekt i predmet ugolovno-pravovoy okhrany. — Moskva: Akademiya MVD SSSR, 1980. — S. 56–59.
7. Wessels J., Beulke W., Satzger H. Strafrecht Allgemeiner Teil. — Heidelberg: C.F. Muller, 2021. — S. 32.
8. Rustambayev M.H. Jinoyat huquqi (Umumiy qism). Darslik. — Toshkent: Toshkent davlat yuridik universiteti, 2021. — B. 165-170.
9. Novosyolov G.P. Uchenie ob obyekte prestupleniya. — Moskva: NORMA, 2001. — S. 97–101.
10. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat protsessual kodeksi. 22.09.1994 y. 55-modda.
11. Korzhanskiy N.I. Ko'rsatilgan asar. — S. 78–80.
12. Новоселов Г.П. Актуальные проблемы учения об объекте преступления. — Екатеринбург, 1998.
13. Roxin C. Strafrecht Allgemeiner Teil. Band I. — München: C.H. Beck, 2006. — S. 342-345.
14. Rashidova N.A. Jinoyat tarkibi nazariyasi. — Toshkent: Adolat, 2019. — B. 145–147.
15. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2015-yil 24-apreldagi “O‘zganing mulkini talon-toroj qilish jinoyat ishlari bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi 10-sonli qarori.
16. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2015-yil 24-apreldagi “O‘zganing mulkini talon-toroj qilish jinoyat ishlari bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi 10-sonli qarori.
17. Yoqubov A.S. Jinoyat sub’ekti va jabrlanuvchi tushunchalarining qiyosiy tahlili // Davlat va huquq. — 2021. — №1. — B. 12-15.
18. Strafgesetzbuch (StGB). §242. Bundesministerium der Justiz. Stand: 2023.
19. Rossiya Federatsiyasi Jinoyat kodeksiga sharh / Otv. red. V.M. Lebedev. — Moskva: Yurayt, 2021. — S. 88–92.
20. Ashworth A., Horder J. Principles of Criminal Law. — Oxford University Press, 2013. — P. 175-180.

Raximova Sitora Alisher qizi
Mirzo Ulug‘bek tumani IIO FMB Tergov bo‘limi tergovchisi
IIV Akademiyasi mustaqil izlanuvchisi.

ATROF TABIIY MUHITNI IFLOSLANTIRISH JINOYATI TARKIBINING SUB’EKTI VA SUB’EKTIV TOMON XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada atrof-tabiiy muhitni ifloslantirish jinoyatining subyekti va subyektiv tomon xususiyatlari tahlil qilinadi. Atrof tabiiy muhitni ifloslantirish jinoyati uchun javobgarlikka tortilishi mumkin bo‘lgan shaxslar doirasi, ularning huquqiy maqomi, shuningdek ayb shakllari, jinoyatning motiv va maqsadlari ilmiy-huquqiy nuqtai nazardan ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: atrof muhitni ifloslantirish, jinoyat subyekti, subyektiv tomon, ayb shakli, ekologik xavfsizlik.

ЮРИДИЧЕСКАЯ ПРИРОДА ПРЕСТУПЛЕНИЯ ЗАГРЯЗНЕНИЯ ОКРУЖАЮЩЕЙ ПРИРОДНОЙ СРЕДЫ

Аннотация. В данной статье анализируются особенности субъекта и субъективной стороны преступления, связанного с загрязнением окружающей природной среды. Рассматриваются круг лиц, которые могут быть привлечены к ответственности за загрязнение окружающей среды, их правовой статус, а также формы вины, мотивы и цели преступления с научно-правовой точки зрения.

Ключевые слова: загрязнение окружающей среды, субъект преступления, субъективная сторона, форма вины, экологическая безопасность.

LEGAL NATURE OF THE CRIME OF ENVIRONMENTAL POLLUTION

Abstract. This article analyzes the characteristics of the subject and the subjective aspect of the crime of environmental pollution. It examines the range of persons who may be held liable for environmental pollution, their legal status, as well as the forms of guilt, motives, and purposes of the crime from a scientific and legal perspective.

Keywords: environmental pollution, subject of crime, subjective aspect, form of guilt, environmental safety.

Jinoyatning subyektiv belgilarini aniqlash muammosi jinoyat qonunchiligini to‘g‘ri qo‘llashda katta ahamiyatga ega bo‘lgan dolzarb vazifalardan biridir. Umumiy qoidaga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksning 17-moddasi 1-qismiga binoan, atrof tabiiy muhitni ifloslantirish jinoyatining subyekti faqat 16 yoshga to‘lgan jismoniy shaxslardir. Shu munosabat bilan ayrim mualliflar tomonidan ekologik jinoyatlar uchun jinoiy javobgarlik yoshini pasaytirish haqida takliflar bildirilmoqda. Masalan, B.B. Tangiyev [1] shunday yozadi: «Agar qonun

chiqaruvchi ushbu ro‘yxatni tuzishda aybdor o‘z qilmishi va uning oqibatlari ijtimoiy xavfliligini anglashi faktidan kelib chiqqanligini hisobga olsak, unga ekologik jinoyatlarni ham kiritish mutlaqo adolatli bo‘lar edi. Umumiy ta’lim tarbiyasiga ega bo‘lgan 14 yoshga to‘lgan shaxs tabiatga, tabiiy boyliklarga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish deganda nimani tushunish kerakligini anglashi va ushbu sohadagi huquqbuzarliklarning jiddiy oqibatlarini to‘g‘ri baholay olishi lozim». B.B. Tangiyevning fikricha, “Atrof tabiiy muhitni ifloslantirish”, “Ekinzor, o‘rmon yoki boshqa dov-daraxtlarga shikast yetkazish yoki ularni nobud qilish” kabi jinoyatlar uchun 14 yoshdan jinoiy javobgarlikni joriy etish asosli bo‘ladi.

Shu sababli, atrof tabiiy muhitni ifloslantirgan shaxslar uchun jinoiy javobgarlikka tortish yoshining quyi chegarasini pasaytirish maqsadga muvofiqligi haqida savol tug‘iladi. Bu savolga javob berishdan oldin, biz jinoyatchi shaxsi muammosiga, ekologik jinoyatlarni, shu jumladan atmosfera ifloslanishini sodir etgan shaxslarning ijtimoiy-demografik xususiyatlarini o‘rganish va umumlashtirishga oid kriminologik tadqiqotlarga to‘xtalib o‘tishimiz kerak.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining Atrof tabiiy muhitni ifloslantirish jinoyati bo‘yicha umumlashma ma’lumotiga ko‘ra [2], ekologik jinoyatlar uchun hukm qilingan 310 nafar shaxsning: 42,4 % — 29 yoshdan 50 yoshgacha bo‘lganlar; 27,6 % — 50 yoshdan oshganlar; 18,2 % — 25 yoshdan 29 yoshgacha bo‘lganlar; 11,5 % — 18 yoshdan 25 yoshgacha bo‘lgan shaxslarni tashkil etadi. Ya’ni, ushbu jinoyatlarning aksariyati 70 % qadriyatlar tizimi shakllangan, o‘z qilmishi uchun javobgarlik chorasini anglaydigan va tabiatni muhofaza qilish qonunchiligi talablarini mensimaslikka yo‘l qo‘yadigan ijtimoiy yo‘nalishi belgilangan shaxslar tomonidan sodir etiladi.

Shunday qilib, hozirgi vaqtda atrof tabiiy muhitni ifloslantirganlik uchun jinoiy javobgarlik yoshini 14 yoshgacha pasaytirish uchun kriminologik jihatdan asoslangan zarurat ko‘rinmayapti. Shu o‘rinda aynan atrof tabiiy muhitni ifloslantirganlik uchun yuridik shaxslarning javobgarligi masalasini ham ko‘rib chiqish maqsadga muvofiqdir. O‘bekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 17-moddasiga binoan jinoyat subyekti faqat jismoniy shaxs bo‘lishi mumkin. Biroq,

zamonaviy sharoitda yuridik shaxslarni ekologik jinoyatlar uchun jinoiy javobgarlikka tortish masalasi tez-tez ko‘tarilmoqda. E.N. Jevlakov, B.B. Tangiyev, A.V. Namchuk va boshqa bir qator olimlar bu g‘oyani qo‘llab-quvvatlaydilar.

Bu nuqtayi nazar tarafdorlarining asosiy dalillari quyidagilardan iborat: Birinchidan, xalqaro tajribani ko‘rib chiqsak, AQSH, Buyuk Britaniya, Fransiya va boshqa mamlakatlarda yuridik shaxslarning jinoiy javobgarligi mavjud. Ikkinchidan, javobgarlikning muqarrarligini ta’minlash bu jinoyatlarga qarshi kurash samaradorligini oshiradi, ayniqsa konkret aybdor jismoniy shaxsni topish qiyin bo‘lgan hollarda. Uchinchidan, iqtisodiy ta’sir qilish ya’ni yuridik shaxslarga nisbatan qo‘llaniladigan ko‘p millionli jarimalar (jismoniy shaxslarga nisbatan qo‘llaniladigan kichik jarimalardan farqli o‘laroq) ekologik zararni qoplash va korxona uchun atrof-muhitga zarar yetkazishni iqtisodiy jihatdan foydasiz qilib qo‘yish imkonini beradi. Taklif etilayotgan yuridik shaxslarning jinoiy javobgarligi institutini joriy etish bo‘yicha qonun loyihasi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi tomonidan bir necha marotaba muhokama ham qilingan edi.

Bundan tashqari, statistik va kriminologik tadqiqotlarga ko‘ra, havo ifloslanishi bo‘yicha javobgarlikka tortilgan shaxslar umumiy miqdorining 94 foizini[3] xo‘jalik yurituvchi subyektlarning mansabdor shaxslari tashkil etadi. Agar jinoyatchining ijtimoiy-demografik qiyofasini tuzadigan bo‘lsak, ishonch bilan aytish mumkinki, bu — o‘rta yoshdagi, ma’lumotli va doimiy daromadga ega bo‘lgan erkak kishidir (an’anaviy ayollar faoliyat yuritadigan sohalar — balansida statsionar chiqindi manbalari bo‘lgan ijtimoiy, ta’lim, tibbiyot muassasalari va shu kabilar bundan mustasno).

Shuni ham aytib o‘tish lozimki, yosh belgisidan tashqari, JKning 196-moddasida nazarda tutilgan qilmishni sodir etgan shaxs, JKning 17-moddasida ko‘rsatilgan jinoyat subyektining barcha belgilariga, shu jumladan aqli rasolikka ham ega bo‘lishi kerak. RF JK 19-moddasida jinoyat subyekti faqat jismoniy shaxs bo‘lishi mumkinligi aniq belgilab qo‘yilgan. Biroq, aynan ekologik jinoyatlar uchun yuridik shaxslarni jinoiy javobgarlikka tortish masalasi zamonaviy sharoitda tez-tez ko‘tarilmoqda. Masalan, ekologik jinoyatlar, shu jumladan atmosferani

ifloslantirganlik uchun yuridik shaxslarning jinoiy javobgarligini joriy etish imkoniyati haqida E.N. Jevlakov, B.B. Tangiyev [4], A.V. Namchuk, P.U. Ismailova[5], Ye.V. Vinogradova, N.L. Romanova va boshqa mualliflar yozishgan.

Yuqorida aytib o‘tilganidek, ekologik jinoyatlar tarkiblarining aksariyatida qilmish muayyan qoidalarni buzishdan iborat bo‘ladi. Binobarin, obyektiv tomonning bunday ta’rifi, qoida tariqasida, ushbu qoidalarga rioya etish zimmasiga yuklatilgan shaxslarning javobgarligini nazarda tutadi. Boshqacha aytganda, bu holatda ham jinoyatning maxsus subyekti mavjud bo‘ladi [6].

Ushbu nuqtayi nazar tarafdorlarining asosiy dalili shundan iboratki, AQSH, Buyuk Britaniya, Fransiya va ba’zi boshqa davlatlarda bir qator jinoyatlar, jumladan ekologik jinoyatlar uchun yuridik shaxslarning jinoiy javobgarligi belgilangan. Shunga ko‘ra, bizning davlatimizga ham ulardan o‘rnak olish taklif etilmoqda, chunki bu ushbu jinoyatlarga qarshi kurash samaradorligini oshirish va jazoning muqarrarligini kuchaytirish imkonini beradi. Masalan, amaliyotda jinoyat tarkibining boshqa elementlari mavjud bo‘lib, jinoyat subyektini aniqlashda muammolar yuzaga kelgan hollarda, bu olimlarning fikricha, muammoni yuridik shaxslarning ekologik jinoyatlar uchun jinoiy javobgarligini joriy etish orqali hal qilish mumkin. Zero, yuridik shaxsning faoliyat ko‘rsatish davomiyligi uning rahbarining umridan ancha uzoq bo‘lishi mumkin.

Xususan bir qator huquqshunos olimlar atrof tabiiy muhitni ifloslantirish jinoyatini maxsus subyekt tomonidan sodir etiladigan jinoyatlar sirasiga kiritadilar. Masalan, S.I.Golubev [7] atrof tabiiy muhitni ifloslantirish jinoyatini subyektini tavsiflar ekan, jinoyat subyekti maxsus ekanligini ta’kidlaydi: bu 16 yoshga to‘lgan, aqli raso, qurilmalar, tozalash va boshqa inshootlar hamda obyektlardan foydalanish uchun mas’ul bo‘lgan yoki atmosferaga ifloslantiruvchi moddalarni chiqarib yuborish qoidalarini buzishga yo‘l qo‘ygan shaxsdir. Yu.A.Timoshenko [8] qayd etishicha, ushbu jinoyatning subyekti 16 yoshga to‘lgan shunday shaxski, uning zimmasiga normativ-huquqiy yoki huquqni qo‘llash hujjatlari bilan turli ishlab chiqarish faoliyati turlarini amalga oshirishda, yoxud statsionar va ko‘chma qurilmalar, inshootlar yoki boshqa obyektlardan, shu jumladan transport

vositalaridan foydalanishda atrof muhitga ifloslantiruvchi moddalar chiqarilishini nazorat qilish va tartibiga rioya qilish majburiyatlari yuklangan. Ye.V. Vinogradov [9] ham atmosfera ifloslanishi subyektini xuddi shunday belgilaydi.

M.X.Rustamboyevning fikriga ko‘ra atrof tabiiy muhitni ifloslantirish jinoyatining subyekti 16 yoshga to‘lgan har qanday aqli raso jismoniy shaxs bo‘lishi mumkin [10].

Yuqoridagilarga ko‘ra, fikrimizcha, jinoyatning subyekti 16 yoshga to‘lgan aqli raso shaxs bo‘lishi mumkin. Shuningdek, mazkur jinoyatning subyekti ham umumiy, ham maxsus bo‘lishi mumkin. Chunki, atrof-tabiiy muhitni ifloslantirish jinoyati mansabdor shaxs, tijorat yoki boshqa tashkilotda boshqaruv funksiyalarini bajaruvchi shaxs tomonidan sodir etilishi nafaqat bu shaxsning, balki u sodir etgan jinoyatning ham ijtimoiy xavflilik darajasini sezilarli darajada oshiradi. Bu, shu jumladan, atrof-muhitga yanada jiddiy zarar yetkazish uchun sharoit yaratilishi sabablidir. Shuningdek, bu holatni tabiat obyektlarining ifloslanishi bilan bog‘liq jinoyatlar tarkibining kvalifikatsion belgilarini qurishda hisobga olish kerak edi.

Shu bilan birga, Masalan, A.G. Knyazev, D.B. Churakov va A.I. Chuchayevlar [11] o‘zlarining 2009-yildagi «Ekologik jinoyatlar» nomli monografiyasida ushbu jinoyatning subyekti 16 yoshga to‘lgan shaxsdir, deb yozishadi. O.N.Kuznetsovaning fikricha esa, ko‘rilayotgan jinoyat atmosfera ifloslanishining subyekti ham umumiy, ham maxsus subyekt belgilariga ega bo‘lgan insondir [12]. Ya’ni, odatda bu tegishli (ko‘pincha mahalliy) hujjatlar bilan zimmasiga atrof-tabiy muhitni hamda atmosferaga ifloslantiruvchi moddalar chiqarilishini nazorat qilish va tartibiga rioya qilish, statsionar va ko‘chma qurilmalar, inshootlar va boshqa obyektlardan foydalanish majburiyati yuklangan shaxsdir. Jinoyat subyektlari mansabdor yoki mansabdor bo‘lmagan shaxslar bo‘lishi mumkin.

Shu o‘rinda Q.Abdurasulovaning “maxsus subyektning alomatlari bo‘lmagan hollarda bir qadar boshqacha vaziyat yuzaga keladi. Ba’zi bir hollarda bu jinoyat mutlaqo mavjud emasligini bildirsa, boshqa hollarda jinoiy javobgarlik boshqa moddalar bo‘yicha mavjud bo‘ladi, ya’ni faqat jinoyat-huquqiy kvalifikatsiya

o‘zgaradi. Birinchi holatda, masalan, mansabdor shaxs bo‘lmagan shaxsning pora olishi mazkur jinoyat uchun jinoiy javobgarlikni istisno etadi, chunki faqat mansabdor shaxsgina ushbu jinoyatning subyekti bo‘lishi mumkin [13] degan fikrlarini keltirish o‘rinlidir. Shu bilan birga, huquqshunos olimlar tomonidan, qoida tariqasida, jinoyat subyektini aynan maxsus deb belgilash uchun jinoyat qonunchiligi normalarida uning belgilari ko‘rsatilgan bo‘lishi lozimligi ta’kidlanadi. Yoki bu belgilar normaning mazmunidan kelib chiqishi mumkin.

Biroq, JKning 196-moddasi 1-qismi dispozitsiyasida aniq bir maxsus subyekt belgilari ko‘rsatilmagan. Bizning fikrimizcha, ushbu holatda maxsus subyektning bo‘lishi majburiy deb qat’iy aytib bo‘lmaydi. Chunki, nazarimizda, bu bevosita JKning 196-moddasi dispozitsiyasidan kelib chiqmaydi.

Masalan, JKning 230-moddasi («Bila turib aybsiz kishini jinoiy javobgarlikka tortish»), 231-moddasi Adolatsiz hukm, hal qiluv qarori, ajrim yoki qaror chiqarish) va 234-moddasi («Qonunga xilof ravishda ushlab turish, qamoqqa olish yoki hibsda saqlash») holatlarida JK va JPK normalarini tizimli talqin qilish orqali ushbu jinoyatlarning maxsus subyektlari faqat surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sud ekanligi haqida xulosaga kelish mumkin. Shunday qilib, bizningcha, JK 196-moddasi 1-qismi dispozitsiyasini yuqoridagidek cheklangan tarzda talqin qilish va aynan maxsus jinoyat subyekti mavjudligini belgilash majburiyati, bir qator holatlarda atmosferani ifloslantirishda aybdor bo‘lgan, ammo majburiy qo‘shimcha belgilarga ega bo‘lmagan shaxslarning qonunda belgilangan javobgarlikdan qutulib qolishiga olib kelishi mumkin. Biz tomonimizdan so‘rov o‘tkazilgan prokuratura va tergov organlari xodimlarining aksariyati 64 foizi ham shu fikrda; shu bilan birga, ularning 66 foizi JKning 186-moddasi dispozitsiyasiga jinoiy javobgarlikni og‘irlashtiruvchi malakalovchi belgi sifatida «jinoyatning mansabdor shaxs tomonidan sodir etilishi»ni kiritish talab etilmaydi, deb hisoblaydilar.

Atrof muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish sohasidagi jinoyatlarning subyektiv tomoni bilan bog‘liq muammolar, umuman olganda, jinoiy jazolanadigan qilmishlarning boshqa guruhlariga xos bo‘lgan muammolar bilan bir xil. Bu muammolar aybning shakli va turini aniqlash, motiv va maqsadga tavsif

berish hamda ularning muayyan jinoyat tarkibidagi ahamiyatiga taalluqlidir. Bular orasida birinchisi alohida ahamiyatga ega, negaki O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi qabul qilinganidan buyon adabiyotlarda ko‘plab ekologiya sohasidagi jinoyatlarga aybning qaysi shakli xos ekanligi to‘g‘risida yagona fikr shakllanmadi, vaholanki, uni baholashdagi xatoliklar oqibatlari ayon. Ma’lumki, jinoyatning subyektiv tarkibi aybdorning huquqlariga bevosita yoki bilvosita daxl qiluvchi ko‘plab jinoyat-huquqiy institutlar bilan bog‘liqdir. Qolaversa, jinoyatning subyektiv tomoni mazmunini aniqlash obyektiv tomonini aniqlashga qaraganda ancha murakkabroq jarayondir. Shuni ta’kidlash lozimki, jinoyat tarkibining bu belgilari o‘zaro chambarchas bog‘liq.

Fikrimizcha atrof-tabiiy muhitni ifloslantirish jinoyati ham qasddan, ham ehtiyotsizlik oqibatida sodir etilishi mumkin. Garchi ba’zi mualliflar bu harakatlar faqat ehtiyotsizlik oqibatida sodir etilishini ta’kidlasalar ham. Masalan, A.I. Chuchayev suvlarning, atmosferaning va dengiz muhitining ifloslanishi faqat ehtiyotsizlik shaklini nazarda tutadi [14]deb yozadi. A.A. Gariyeev esa atrof-tabiiy muhitni ifloslantirish jinoyati ko‘pincha ehtiyotsizlik oqibatida, ya’ni atrof-muhitni muhofaza qilish qoidalariga rioya qilmaslik, xavfsizlik choralarini yetarli darajada ta’minlamaslik natijasida sodir etiladi deb ta’kidlaydi [15].

D.A.Bezborodovning fikriga ko‘ra atrof tabiiy muhitni ifloslantirish jinoyatining subyektiv tomoni atrof-muhitni muhofaza qilish qoidalarini buzishga nisbatan ham ehtiyotsizlik, ham qasddan sodir etilgan ayb bilan tavsiflanishi mumkin. Jinoyatning oqibatlariga nisbatan esa ayb jinoiy o‘z-o‘ziga ishonish yoki jinoiy beparvolik shaklidagi ehtiyotsizlik hisoblanadi [16].

Yu.I.Isakova esa, ekologik jinoyatlar tabiatga hamda insonga sezilarli darajada zarar yetkazadi. Bunday qilmishlarning salbiy oqibatlari har doim ham darhol namoyon bo‘lavermaydi va ma’lum vaqt o‘tgach, halokatli, orqaga qaytarib bo‘lmaydigan oqibatlarga olib kelishi mumkin. Shu munosabat bilan, huquqbuzarlarga (jumladan, potensial huquqbuzarlarga) nisbatan jamiyat va davlat ta’sirini kuchaytirish, ushbu sohada muhofaza tadbirlari va nazorat samaradorligini

oshirish zarur. Shuningdek, atrof-muhitni, tabiiy obyektlar va resurslarni qayta tiklashga qaratilgan chora-tadbirlarni nazarda tutish ham muhim hisoblanadi [17].

Bu borada A. V. Shtefan, ekologik jinoyatlarda jinoyatning subyektiv tomoni muammosi — jinoiy qilmishni sodir etayotgan shaxsning psixologik munosabati alohida rol o‘ynaydi [18] deb fikr bildiradi. A.V.Shtefanning fikriga bir qator huquqshunos olimlar qarishi fikr bildirib, ularning ta’kidlashicha, atrof tabiiy muhitni ifloslantirish jinoyati ham qasddan, ham ehtiyotsizlik orqasida sodir etilishi mumkin. Shu bilan birga, shaxsning qilmishga va uning oqibatlariga nisbatan qasdi aniqlashtirilmaydi hamda shaxsning munosabati muhim emas.

Shu o‘rinda, A.I. Rarog haqli ravishda shunday deb qayd etadi: “qonun chiqaruvchi aybning muqobil shakliga ega bo‘lgan jinoyatlar konsepsiyasiga qaytdi: agar jinoyat tavsifida aybning shakli ko‘rsatilmagan va bu holat jinoyatning qonunchilikdagi tavsifi usullaridan yaqqol kelib chiqmasa, u ham qasddan, ham ehtiyotsizlik orqasidan sodir etilishi mumkin” [19].

A.A.Otajonovning fikriga ko‘ra, “atrof tabiiy muhitni ifloslantirish jinoyatining subyektiv tomoni ijtimoiy xavfli qilmishga nisbatan egri qasd yoki ehtiyotsizlik bilan tavsiflanadi, jinoiy oqibatga nisbatan faqat ehtiyotsizlikdir ” [20].

Yuqoridagi fikrlarni tahlil qilib aytish mumkinki, subyektiv tomon - bu jinoyat belgisi hisoblanib, ijtimoiy xavfli qilmishni botiniy (kishi ruhiyatida) shakllanishi hisoblanadi. Subyektiv tomon obyektiv tomon bilan uzviy bog‘langan. Shuningdek, subyektiv tomon bilan mazmuni jinoyatning to‘la jamoat uchun xavfli bo‘lgan ruhiy munosabatini tashkil etadi. Unga qarashli aqli jihatidan oldindan uylangan atrofdagilarga aloqada irodasi va his-tuyg‘ulari orqali jinoyatni sodir etadi. O‘ziga xos xususiyatidan aqliy munosabatni va to‘la faoliyatiga tegishli va hujum natijasida ayb xususiyati shakllari va turlari. Atrofga bo‘lgan munosabat tusini va butunligini ko‘rsatadi. Bu vaqtda, subyektiv tomondan jinoyat belgisiga ayb, motiv va maqsadga e’tibor beriladi. Ayb subyektiv tomondan bajarilishi shart bo‘lgan o‘zgani tashkil etadi. Bu belgilangan tamoyilda va JKning 9-moddasida jinoyat huquqi tamoyili sifatida mustahkamlangan. JKning umumiy qismida ayb va uning

shakli yig‘indisi ko‘rsatilgan. Aybning umuman yo‘qligi va jinoyat tarkibining yo‘qligi uning shakli yo‘qligidan dalolat beradi.

Shundan kelib chiqib aytadigan bo‘lsak, JKning 196-moddasida nazarda tutilgan jinoyat qasddan sodir etilganda, shaxs o‘z harakatlari yoki harakatsizligi ekologik oqibatlarga olib kelishini anglagan holda va bu oqibatlar kelib chiqishini xohlagan yoki ularga ongli ravishda yo‘l qo‘ygan bo‘ladi. Ehtiyotsizlik orqasida sodir etilganda esa, shaxs o‘z harakatlari yoki harakatsizligi zararli ekologik oqibatlarga olib kelishi mumkinligini oldindan bilgan, ammo buning oldini olish uchun yetarli chora ko‘rmagan (o‘ziga bino qo‘yish) yoki bunday oqibatlar kelib chiqishi mumkinligini oldindan ko‘ra bilishi kerak bo‘lgan va ko‘ra olishi mumkin bo‘lgan, ammo buni qilmagan (beparvolik). Aynan Jinoyat kodeksi 196-modda birinchi qismida belgilangan jinoyat yuqorida sanab o‘tilgan harakatlarning birini sodir etish va odamlarning ommaviy ravishda kasallanishi, hayvonlar, parrandalar yoki baliqlarning qirilib ketishi yoki boshqa og‘ir oqibatlarning yuzaga kelishi paytidan boshlab tamom bo‘lgan jinoyat deb topiladi.

Biz ko‘rib chiqayotgan Jkning 196-moddasining huquqiy majburiy tusga ega bo‘lgan “Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish sohasidagi jinoyatlar va boshqa huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlar bo‘yicha sud amaliyoti haqida”gi Oliy sudi Plenumining qarorining 2 bandida Tabiatni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasidagi munosabatlar O‘zbekiston Respublikasining “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi, “Atmosfera havosini muhofaza qilish to‘g‘risida”gi, “O‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”gi, “Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”gi, “Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to‘g‘risida”gi qonunlari, yer, suv, yer osti boyliklari to‘g‘risidagi qonun hujjatlari, shuningdek, boshqa qonun hujjatlari bilan tartibga solinishi, 15-bandida esa, agar JKning 14-bobi moddalarida ayb shakli ko‘rsatilmagan bo‘lsa, tegishli atrof-muhitga qarshi jinoyatlar ham qasddan, ham ehtiyotsizlik oqibatida sodir etilishi mumkinligi qayd etilgan. Bu hollarda ayb shakli harakatning mazmuni, uni sodir etish usuli va obyektiv tomonning boshqa belgilari asosida aniqlanishi lozimligi to‘g‘risida

tushuntirishlaridan kelib chiqib, aytish mumkinki, tabiiy muhit obyektlarining ifloslanishi bilan bog‘liq jinoyatlar tarkibida motivlar va maqsadlar majburiy belgilar sifatida ko‘rsatilmagan.

Shu bilan birga, ular jazoni individuallashtirishda hisobga olinishi kerak. Ularning eng xarakterli motivlari tamagirlik, shaxsiy manfaatdorlik, mansabparastlik niyatlari, maqsadlari esa moddiy foyda olish, reja (topshiriq)ni bajarish, xizmatda ko‘tarilish va boshqalardir. Xuddi shuningdek, jinoyat subyekti bo‘lgan mansabdor shaxs harakati yoki harakatsizligini qilmish kvalifikatsiyasida inobatga olishda idoraviy normativ hujjatlar, yo‘riqnoma va ustavlar hisobga olinishi lozim. Subyektning jinoiy javobgariligi masalasini hal etishda aynan ekologik xavfsizlik normalari va talablariga rioya etish uning vakolatiga kiradimi yoki yo‘qmi.

Xulosa qilib aytganda ekologiya xavfsizligiga oid normalar va talablarni buzish jinoyati ekologik xavfsizlik, atrof-tabiiy muhit, tarbiyaga, umuman olganda insoniyat va o‘simlik hamda hayvonot dunyosiga qarshi qaratilgan jinoyat bo‘lib, mazkur jinoyatlarning sodir etilishi nafaqat bitta odam, bitta davlat, balki bashariyatga xavf tug‘dirib chiqarishi mumkin.

Shu munosabat bilan O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 196-moddasi birinchi qismi dispozitsiyasini aniqlashtirish ya’ni “boshqacha og‘ir oqibatlarga sabab bo‘lsa” mazmuniga yuqorida havola qilingan qonunlarda ham Plenum qarorida ham to‘liq tushuntirish berilmaganligini inobatga olib, “Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish sohasidagi jinoyatlar va boshqa huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlar bo‘yicha sud amaliyoti haqida”gi Oliy sudi Plenumining qaroriga 196-moddaning boshqacha og‘ir oqibatlarga sabab bo‘lsa” to‘liq sharh berib mazmunini izohlash lozim bo‘ladi.

Xususan, “boshqa og‘ir oqibatlar” deganda, odamlar o‘limi bilan bir qatorda suv, yer, atmosfera havosining uzoq muddatga tiklanmaydigan holatda buzilishi, o‘nlab odamlar nobud bo‘lishi bilan bir qatorda atrof-muhitga hamda odamlar sog‘lig‘i yoki hayoti uchun tuzatib bo‘lmas darajada ziyon yetkazilishi, tevarak-atrofdagi uylar va boshqa inshootlar vayron qilinishi (portlashi, yonib ketishi, qulab

tushishi) va h.k.lar tushunilishi lozim. Shuni nazarda tutish lozimki, atrof tabiiy muhitni ifloslantirish jinoyati natijasida ikki yoki undan ortiq odamga o‘rtacha og‘ir va/yoki og‘ir shikast yetkazilganligi faktining o‘zi qilmishni «boshqa og‘ir oqibatlar» belgisi bo‘yicha kvalifikatsiya qilish uchun asos bo‘lmaydi degan normani kiritish taklif etiladi.

Shunday qilib, xulosa qilish mumkinki, atrof-tabiiy muhitni ifloslantirish jinoyati juda yuqori darajadagi ijtimoiy xavflilik bilan tavsiflanadi, chunki ular odamlarning, Yer yuzidagi barcha tirik mavjudotlarning hayotiy faoliyati asoslariga tajovuz qiladi. Har yili atrof-tabiiy muhitning yomonlashuvi, tabiatga texnogen ta’sir nafaqat mahalliy, mintaqaviy, balki global miqyosdagi salbiy o‘zgarishlarga ham olib keladi. Qonun chiqaruvchi, bizning fikrimizcha, atrof-muhitning ifloslanishi bilan bog‘liq jinoyatlar tarkibini ekologik jinoyatlarning umumiy tarkiblaridan keyin joylashtirishi butunlay asoslidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Тангиев Б.Б. Экокриминалогия. Парадигма и теория. Методология и практика правоприменения...Москва 2022г С. 252.
2. Ўзбекистон Республикаси Олий судининг статистик маълумоти 2025 йил 25 декабрь ҳолатига манбаа e.sud.uz интерактив портали
3. Ўзбекистон Республикаси статистика қўмитаси маълумоти
4. Тангиев Б.Б. Криминалогия: Контроль и противодействие экологической преступности. – СПб.: Издательство Р. Асланова «Юридический центр Пресс», 2005. С. 10.
5. Исмаилова П.У. Противодействие загрязнению атмосферы (региональный аспект). С. 167. 2 Виноградов В.П. Указ. соч. С. 41; Исмаилова П.У. Противодействие загрязнению атмосферы (региональный аспект). С. 167.
6. В теории уголовного права вопрос о том, каким элементом состава преступления детерминированы дополнительные признаки специального субъекта преступления, является спорным. Ряд авторов полагают, что они обусловлены объектом преступления (см., например: Устименко В.В. Специальный субъект преступления. Харьков, 1989. С. 71; Семенов С.А. Специальный субъект преступления: генезис и история. Владимир, 2001. С. 14; Бачурин Э.А. Специальный субъект преступления: автореф. дис. ... канд. юрид. наук. Красноярск, 2005. С. 15); другие исходят из того, что на их наличие может оказывать влияние объективная сторона состава преступления, в частности характер деяние или способ его совершения (см., например: Орымбаев Р. Специальный субъект преступления. Алма-Ата, 1977. С. 46; Тимошенко Ю.А. Субъекты экологических преступлений. М., 2017. С. 35-36). Нормы об экологических преступлениях, на наш взгляд, доказывают правоту последних.
7. Голубев С. И. Технико-юридические проблемы отражения в законе последствий экологических преступлений // Вестник Волжского университета им. В. Н. Татищева. 2020. Т. 1. № 3 (96).
8. Тимошенко Ю. А. Конструирование уголовно-правовых норм об ответственности за экологические преступления: проблемы теории и практики: дисс. ... д-ра юрид. наук. М., 2019.

9. Виноградов В.П. Деятельность Волжской межрегиональной природоохранной прокуратуры по надзору за исполнением законодательства об охране окружающей природной среды // Экологическое право, 2001, № 2. С. 41; Исмаилова П.У. Противодействие загрязнению атмосферы (региональный аспект). С. 167.
10. Рустамбоев М.Х. Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодексига шарҳ. Махсус қисм. – Тошкент: “Адолат”, 2025. – 104-105 б.
11. Экологические преступления: науч.-практич. пособие / А.Г. Князев, Д.Б. Чураков, А.И. Чучаев; под ред. А.Г. Князева. С. 56–57.
12. Кузнецова Н.Ф. Проблемы квалификации преступлений: Лекции по спецкурсу «Основы квалификации преступлений» / науч. ред. В.Н. Кудрявцев. – М.: Городец, 2007. С. 206.
13. Абдурасулова.Қ Махсус субъектли жиноятларни квалификация қилиш масалалари- Жамиятваинновациялар–Обществоиинновации–Society and innovationsIssue – 4No4(2023) / ISSN 2181-1415
14. Чучаев А.И. Экологические преступления // Сундуров Ф.Р., Талан М.В. Уголовное право России. Особенная часть. – М.: Статут, 2012. – С. 528.
15. Гариеев А.А. Экологические преступления: уголовно-правовое противодействие М.: Зерцало. 2017. – с 12
16. Д. А. Безбородов, А. В. Зарубин, Р. М. Кравченко [и др.] Экологические преступления в таблицах : учебное пособие /; под общ. ред. А. Н. Попова. — СанктПетербург : Санкт-Петербургский юридический институт (филиал) Университета прокуратуры Российской Федерации, 2022. — 75, [1] с.
17. Исакова, Ю. И. Особенности квалификации экологических преступлений / Ю. И. Исакова М. В. Пчельников // Правовой порядок и правовые ценности : сб. науч. ст. III Нац. науч.-практ. конф. — Ростов-на-Дону : Изд. центр ДГТУ, 2022. — С. 63–66.
18. Штефан, А. В. Об особенностях развития экологической преступности // Виктимология. 2020. С. 86–87
19. Уголовное право России. Общая часть / под ред. А.И. Рарога. М., 2008. С. 139.
20. А.А.Отажонов Жиноятларни квалификация қилиш: ИИВ олий таълим муассасалари учун дарслик / Р.Кабулов, И.А.Соттиев ва бошқ. – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2012. – 291 б.

Bekmurodova Umida Abdusamad qizi
Shayxontohur tumani Ichki ishlar organlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi huzuridagi Tergov bo‘limi Tahlil va nazorat bo‘linmasi, katta tergovchisi
E-mail: nadinkaz.uz@gmail.com

JINOYAT QONUNINING DAVLAT HUDUDIDAN TASHQARIDA AMAL QILISHI HAQIDAGI ILMIY G‘OYALAR EVOLYUTSIYASI

Annotatsiya. Maqolada jinoyat qonunining makonda amal qilishi haqidagi ilmiy g‘oyalar, ularning kelib chiqish tarixi va evolyutsiyasi ko‘rib chiqildi. Aniqlanadiki, yuridik ta’limotlarda davlat hududidan tashqarida jinoiy xatti-harakatlar sodir etgan shaxslarga nisbatan milliy jinoyat qonunining amal qilishi

masalasi tarixiy-huquqiy jihatdan mustaqil ilmiy muammo sifatida hanuz ko‘rib chiqilmagan. Davlat hududidan tashqarida jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan jinoyat qonunchiligining amal qilishi masalalarini huquqiy tartibga solish jinoyat huquqining boshqa biron-bir masalasidan farqli o‘laroq, mamlakatning siyosiy-huquqiy tarixining kamida ikki muhim jihati bilan chambarchas bog‘liqdir: birinchidan, xalqaro munosabatlarning rivojlanish darajasi va holati, davlatning jahon siyosatidagi maqomi va roli bilan; ikkinchidan, davlat suvereniteti va uning amal qilishi to‘g‘risidagi tasavvurlarning rivojlanishi bilan. Davlatlar o‘rtasidagi xalqaro aloqalar qanchalik mustahkam bo‘lsa, davlatlar o‘rtasidagi ishonch darajasi qanchalik yuqori bo‘lsa, jinoyat qonunida uning normalarining hududiy va universal amal qilishi prinsipi shunchalik ko‘proq qo‘llaniladi va aksincha, xalqaro vaziyat qanchalik murakkab bo‘lsa va davlatlar o‘rtasida ziddiyatlar qanchalik ko‘p bo‘lsa, milliy qonunchilikda fuqarolik prinsipi boshpana va ekstraditsiya instituti bilan birgalikda shunchalik faol qo‘llaniladi. Mazkur maqolada Jinoyat qonunining makonda amal qilishi haqidagi ta’limotlarning paydo bo‘lishi, ushbu huquqiy normaning qadimgi turli davlatlarda qo‘llanilishi, xususan Qadimgi O‘zbekiston hududida qo‘llanilishi borasidagi tarixiy ma’lumotlar tadqiq etildi.

Kalit so‘zlar: Jinoyat qonuni, davlat hududidan tashqarida jinoiy xatti-harakatlar sodir etgan shaxslarga nisbatan milliy jinoyat qonunining amal qilishi, davlat hududidan tashqarida jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan jinoyat qonunining amal qilishining ilk ko‘rinishlari, Qadimgi sharq davlatlari, “Avesto”, Qadimgi rus davlati, Xonliklar davri, Rossiya imperiyasi davri, Sovet ittifoqi davri, O‘zbekiston SSR, xalqaro hamkorlik, ilk shartnomalar, hududiylik tamoyili, fuqarolik tamoyili, jinoiy javobgarlik.

ЭВОЛЮЦИЯ НАУЧНЫХ ПРЕДСТАВЛЕНИЙ О ПРИМЕНЕНИИ УГОЛОВНОГО ЗАКОНА ЗА ПРЕДЕЛАМИ ТЕРРИТОРИИ ГОСУДАРСТВА

Аннотация. В статье рассматриваются научные концепции о территориальном действии уголовного закона, история их возникновения и эволюция. Установлено, что в юридических учениях вопрос о применении

национального уголовного закона в отношении лиц, совершивших преступные деяния за пределами территории государства, до сих пор не рассматривался в качестве историко-правовой самостоятельной научной проблемы. Правовая регламентация вопросов действия уголовного законодательства в отношении лиц, совершивших преступления за пределами территории государства, как никакой иной вопрос уголовного права, тесно связана, как минимум, с двумя важнейшими аспектами политико-правовой истории страны: во-первых, с уровнем развития и состоянием международных отношений, статусом и ролью России в мировой политике; и во-вторых, с развитием представлений о государственном суверенитете и пространстве его действия. Чем теснее международные связи, чем выше уровень доверия между странами, тем большей популярностью в уголовном законе пользуется принцип территориального и универсального действия его норм, и наоборот, чем сложнее международная обстановка и чем больше противоречий между государствами, тем активнее в национальном законодательстве используется принцип гражданства в его действии по кругу лиц в совокупности с институтом убежища и выдачи. В данной статье исследуются исторические данные о возникновении учений о применении уголовного закона в пространстве, применении этой правовой нормы в различных древних государствах, в частности, на территории Древнего Узбекистана.

Ключевые слова: Уголовный закон, действие национального уголовного закона в отношении лиц, совершивших преступные деяния за пределами территории государства, первые проявления действия уголовного закона в отношении лиц, совершивших преступления за пределами территории государства, государства Древнего Востока, “Авесто” Древнерусское государство, период ханств, период Российской империи, период Советского Союза, Узбекская ССР, международное сотрудничество, первые договоры, принцип территориальности, принцип гражданственности, уголовная ответственность.

EVOLUTION OF SCIENTIFIC IDEAS ABOUT THE APPLICATION OF CRIMINAL LAW OUTSIDE THE TERRITORY OF THE STATE

Annotation. The article examines scientific ideas about the spatial validity of criminal law, their history of origin and evolution. It is established that in legal doctrines, the issue of the application of national criminal law to persons who have committed criminal acts outside the territory of the state has not yet been considered as a historically and legally independent scientific problem. The legal regulation of the issues of the application of criminal legislation to persons who have committed crimes outside the territory of the state, unlike any other issue of criminal law, is closely related to at least two important aspects of the political and legal history of the country: firstly, the level and state of development of international relations, the status and role of the state in world politics; secondly, the development of ideas about state sovereignty and its implementation. The stronger the international relations between states, the higher the level of trust between states, the more the principle of territorial and universal application of its norms is applied in criminal law, and conversely, the more complex the international situation and the more conflicts between states, the more actively the principle of citizenship is applied in national legislation in conjunction with the institution of asylum and extradition. This article examines the emergence of doctrines about the spatial application of criminal law, the application of this legal norm in various ancient states, in particular, historical data on its application in the territory of Ancient Uzbekistan.

Key words: Criminal law, the application of national criminal law to persons who committed criminal acts outside the territory of the state, the first manifestations of the application of criminal law to persons who committed crimes outside the territory of the state, states of the Ancient East, "Avesta," the Ancient Russian state, the period of khanates, the period of the Russian Empire, the period of the Soviet Union, the Uzbek SSR, international cooperation, the first treaties, the principle of territoriality, the principle of citizenship, criminal liability.

Davlat hududidan tashqarida jinoiy xatti-harakatlar sodir etgan shaxslarga nisbatan milliy jinoyat qonunining amal qilishi masalasi tarixiy-huquqiy jihatdan

mustaqil ilmiy muammo sifatida hanuz ko‘rib chiqilmagan. Shunga qaramasdan, mazkur masalani tadqiq etishga nisbatan katta ehtiyoj mavjud bo‘lib, zero qonunchilikning rivojlanish tarixi nafaqat zamonaviy savollarga javob beradi va turli ijtimoiy-siyosiy sharoitlarda bir tipdagi huquqiy vaziyatlarni hal etishning namunalarini mujassam etadi, balki ushbu vaziyatlarni huquqiy tartibga solishning bo‘lajak dinamikasiga nisbatan to‘liq asoslangan prognostik mulohazalarni shakllantirish imkonini beradi. Yuqorida ta’kidlangan ijtimoiy jarayonlar prizmasi orqali milliy jinoyat huquqining tarixiy manbalarini ko‘rib chiqar ekanmiz, birinchi navbatda, jinoyat qonunchiligining amal qilish makonini belgilovchi jinoyat-huquqiy normalarning evolyutsiyasining mohiyatini ochib beradigan qarashlarni yetarli tarzda shakllantirish mumkin. Biz ilgari surayotgan gipotezaning mazmuni xalqaro munosabatlar holati bilan mamlakat hududidan tashqarida jinoiy xatti-harakatlar sodir etgan shaxslarga nisbatan milliy jinoyat qonunini qo‘llash darajasi o‘rtasidagi ma’lum korrelyatsiyaning mavjudligidan iborat: xalqaro aloqalar qanchalik mustahkam bo‘lsa, davlatlar o‘rtasidagi ishonch darajasi qanchalik yuqori bo‘lsa, jinoyat qonunida uning normalarining hududiy va universal amal qilishi prinsipi shunchalik ko‘proq qo‘llaniladi va aksincha, xalqaro vaziyat qanchalik murakkab bo‘lsa va davlatlar o‘rtasida ziddiyatlar qanchalik ko‘p bo‘lsa, milliy qonunchilikda fuqarolik prinsipi boshpana va ekstraditsiya instituti bilan birgalikda shunchalik faol qo‘llaniladi. Quyida bayon etiladigan material asosan ushbu tezisni asoslash va isbotlashga bag‘ishlangan.

O‘zbekiston hududi qadimdan Sharq sivilizatsiyasining markazlaridan biri bo‘lgan. Qadimgi Baqtriya, So‘g‘d, Xorazm va boshqa davlatlarda jinoyat huquqi elementlari mavjud bo‘lgan. Arxeologik topilmalar va yozma manbalarda mulkni himoya qilish, shaxsga qarshi jinoyatlar uchun jazolar qo‘llanilgani qayd etiladi [1]. Shuningdek, Zardushtiylik davridagi “Avesto”da ham huquqiy normalar, xususan, jinoyat va jazolarga oid qoidalar o‘z aksini topgan. Bu davrdagi qonunchilikda jinoyatning asosiy predmeti sifatida diniy qoidalarni buzish, jamiyat osoyishtaligini izdan chiqarish va mulkni talon-taroj qilish ko‘rilgan [2]. “Avesto”da jinoyat va jazo masalalari xar tomonlama tartibga solinganligini ko‘ramiz. Jinoyat subyektlari

sifatida odam xam, xayvon xam etirof etilgan. Jinoyat subyektlari tushunchasi asosida shaxsning biron-bir dinga mansubligi yotadi. Odamlar jinoyat subyektlari sifatida dindor-mazdaparastlar va boshqa fikrlovchilarga bo‘lingan.

Qadimgi sharq davlatlarining manbalarida jinoyat va jazo o‘sha davrlardagi shariat qoidalariga asoslangan bo‘lib, ularda makon bo‘yicha amal qilish kabi tushunchalar yoritilmagan.

Qadimgi davrlarda davlatlar o‘z chegaralari doirasida hududiy prinsip asosida jinoyatchini jazolash huquqiga ega bo‘lishiga qaramay, har bir davlat ixtiyoriy, shartnoma tartibida jinoyatchining fuqaroligini ham inobatga olishga intilgan va bunda fuqarolik prinsipi belgilaydigan asoslarga tayanib harakat qilgan. Shundan kelib chiqib – eng keng tarqalgan jinoyatlar uchun ikkala tomon uchun ham kelishilgan jinoiy jazolarning turlari va miqdori belgilangan.

Huquqiy vaziyatning o‘ziga xosligi tufayli jinoyat qonunining makon doirasida amal qilishi masalalari mamlakat ichida jinoyat-huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi hujjatlarda ko‘rib chiqilmagan. Masalan, “Rus Haqiqati”da Rusning tub aholisi boshqa davlat hududida jinoyat sodir etadigan vaziyat yoritilmagan. Manbada Rus hududidan tashqarida jinoyat sodir etgan, ammo uning hududida bo‘lgan chet elliklarni ekstraditsiya qilish haqida ham hech narsa aytilmagan. Shu bilan birga, ba’zi zamonaviy tadqiqotchilar manbaning Kengaytirilgan tahriri 3-moddasida nazarda tutilgan Verv, ya’ni qotillikni sodir etgan shaxsni izlab topish va uni topshirish yoki knyazga jarima to‘lash majburiyatini zamonaviy ekstraditsiyaning ilk ko‘rinishi sifatida baholaydilar [3, B.57].

Jinoyat-huquqiy masala orqali qaralganda mamlakat ijtimoiy va siyosiy tarixining muhim jihatlarini aks ettiruvchi vaziyat ham ko‘zga tashlanadi. Mamlakat hududining mustahkamlanishi va o‘sib borishi davrida, shu bilan bog‘liq ravishda davlatning xalqaro maydondagi mavqeining mustahkamlanishida mamlakatdan tashqarida jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan jinoyat qonunining amal qilishi davlat suverenitetining ajralmas tarkibiy qismi sifatida tushunilgan hamda xalqaro munosabatlarda boshqa davlatlar tomonidan e’tiroz bildirilmagan. Shu bilan birga,

davlat rahbariga shaxsan qaram alohida aholi qatlamining shakllanishi va barcha fuqarolarning davlat rahbariga qaramlik munosabatlarining ekstrapolyatsiyalashuvi (huquqlar va majburiyatlar majmui bilan fuqarolikning ma’lum bir davlatga tegishlilik sifatida tushunilishi) qayerda jinoiy xatti-harakatlar sodir etilganidan qat’iy nazar barchaga nisbatan milliy jinoyat qonunining amal qilishini talab etgan. Bu parallelizm va ziddiyat ko‘p jihatdan jinoyat qonunchiligining amal qilish chegaralarini belgilash dinamikasini belgilaydi.

Xonliklar davrida (Buxoro amirligi, Xiva va Qo‘qon xonliklari) jinoyat va jazo masalalari asosan islom huquqi — shariat va mahalliy urf-odatlar — adat (odat) asosida tartibga solingan. Jinoiy javobgarlik tizimi diniy normalarga tayangan bo‘lib, jazolarning qattiqligi bilan ajralib turgan.

XIX asrning boshlarida “davlat hududidan tashqaridagi jinoyat sodir etish” tushunchasi hozirgidek qat’iy bo‘lmagan. Jinoyatchi qayerga qochmasin, u shariat qonunlari oldida yoki jabrlanuvchining qasosi oldida javobgar hisoblangan.

Xonliklar davrida (XVIII–XIX asrning birinchi yarmi) davlat hududidan tashqarida sodir etilgan jinoyatlar uchun javobgarlik masalasi hozirgi zamonaviy xalqaro huquqdan tubdan farq qilgan. O‘sha paytda “ekstraditsiya” (jinoyatchini topshirish) tizimi qat’iy qonunlar bilan emas, balki siyosiy kelishuvlar, qonli qasos va diniy birdamlik prinsiplari asosida hal etilgan.

Agar jinoyatchi (masalan, qotil) bir xonlik hududida jinoyat qilib, boshqa xonlikka qochib o‘tsa, jabrlanuvchining qarindoshlari uni ta’qib qilish huquqiga ega bo‘lgan.

Jinoyatchi boshqa davlat hududida topilsa, da’vogarlar o‘sha yerdagi mahalliy hokim yoki qoziga murojaat qilishgan. Agar ikki davlat o‘rtasida tinchlik bo‘lsa, mahalliy hokimiyat jinoyatchini ushlab berishi yoki shariat bo‘yicha jazolanishini ta’minlashi mumkin edi.

Xonliklar o‘rtasida siyosiy kelishuvlar muhim rol o‘ynagan. Agar qochib o‘tgan shaxs oddiy jinoyatchi emas, balki siyosiy raqib (masalan, taxtga da’vogar beklar) bo‘lsa, uni qaytarish davlatlararo muzokaralar predmetiga aylangan. Ko‘pincha kuchliroq xonlik (masalan, Buxoro amirligi) kuchsizroq xonlikdan o‘z

jinoyatchisini qaytarishni talab qilgan. Rad etish esa urush chiqishiga sabab bo‘lishi mumkin edi.

Jinoyatchi qayerda sodir etganidan qat’i nazar, ushlangan joyidagi qozi uni shariat asosida sud qilishi mumkin edi. Chunki shariat qonunlari chegara bilmaydigan ilohiy qonunlar deb ko‘rilgan. Agar shaxs “musulmon davlati” (Dor ul-Islom) ichida bir shahardan ikkinchisiga qochsa, u baribir javobgarlikdan ozod etilmagan.

Rossiya imperiyasi yoki Eron fuqarolari xonliklar hududida jinoyat sodir etsa yoki ularga nisbatan jinoyat qilinsa, bu masalalar elchilar va maxsus vakillar orqali hal qilingan.

XIX asr o‘rtalariga kelib, Rossiya bilan tuzilgan shartnomalarda rus fuqarolarini Rossiya sudlariga topshirish (eksterritoriallik huquqi) kabi bandlar paydo bo‘la boshlagan.

XIX asr ikkinchi yarmida Turkiston Rossiya imperiyasi tarkibiga kiritilgach, bu hududda Rossiya qonunlari joriy etildi. Jinoyat huquqi sohasida Rossiya imperiyasining 1845-yilgi Jinoyat kodeksi va keyingi qonunlari qo‘llanilgan. Shunga qaramay, mahalliy sudlarda shariat va odat huquqi normalari ham amalda bo‘lib qolgan. Mazkur davr ikki huquqiy tizim – rus imperiyasi qonunlari va mahalliy huquqiy an’analar uyg‘unligida kechdi.

Fikrimizcha, mamlakat xududidan tashqarida jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan jinoyat qonunining amal qilishi masalalarini baholashda asosiy yondashuvlarning umumiy sharhini berish zarur, chunki ularning barchasi yuridik fanda o‘tgan asrda paydo bo‘lgan va bugungi kunga qadar barcha zamonaviy yechimlar u yoki bu darajada aynan o‘sha davrda shakllantirilgan va keyinchalik faqat zamonaviylashtirilgan yoki umumlashtirilgan.

Jinoyat qonunining amal qilish chegaralarini mazmunan ilmiy asoslash asosan, jinoyat qonuni amal qilishining hududiy yoki fuqarolik prinsiplariga mos ravishda bir-biriga qarama-qarshi bo‘lgan ikki konsepsiyaga asoslangan.

Ularning biriga ko‘ra, makon doirasida kim tomonidan jinoyat sodir etilishidan qat’iy nazar, davlat o‘ziga bo‘ysundirilgan butun hududda suveren

huquqlar va jinoyat yurisdiksiyasiga ega. Ushbu konsepsiyaning mohiyatini F.List juda aniq ifodalagan. Uning yozishicha: “Xalqaro huquqning hududiy suverenitet prinsipidan kelib chiqqan holda, biz har bir davlat o‘z hududida sodir etilgan barcha jazolanadigan harakatlarga o‘z milliy jinoyat huquqini qo‘llashi kerak degan xulosaga kelamiz. ... Chet elda sodir etilgan ta’qib etish va jazolash sodir etilgan joy davlatiga topshirilishi kerak” [4, B.103].

Mazkur maqolada biz jinoyat qonunining tarixiy dinamikasi masalasiga qaytamiz. Ma’lumki, XX asrning boshlanishi mamlakat tarixida siyosiy vaziyatlar bilan kechdi va monarxiyaning qulashi hamda iqtisodiy va mafkuraviy jihatdan boshqa prinsiplarga asoslangan yangi hokimiyat tartibining o‘rnatilishi bilan yakunlandi. 1917-yildan keyin Sovet hokimiyatining o‘rnatilishi bilan O‘zbekistonda ham sovet jinoyat qonunchiligi joriy qilindi.

Rossiyada mafkuraviy jihatdan o‘zini jahon hamjamiyatiga qarshi qo‘ygan, dunyodagi birinchi ishchi va dehqonlarning sotsialistik davlati sifatida kommunistik turmush tarzi qadriyatlarini ilgari suruvchi, himoya va targ‘ib qiluvchi davlat shakllandi. Ushbu holat mazkur davlat chegarasidan tashqarida jinoiy harakatlar sodir etgan shaxslarga nisbatan jinoyat qonunining amal qilishi kabi nisbatan xususiy masalani hal qilishga ta’sir ko‘rsatmay iloji yo‘q edi, chunki jinoyatning tushunchasi ham, qonun tomonidan himoya qilinadigan qadriyatlar ham, shaxsning fuqaroligi haqidagi tasavvur ham – bularning barchasi nafaqat inqilobgacha bo‘lgan davr bilan solishtirganda tub o‘zgarishlarga uchragan, balki jahon inqilobiy harakatida ishchilar sinfi gegemonligini o‘rnatish bayrog‘i ostida qarama-qarshilik va kurash nishoni bo‘lgan boshqa burjua davlatlarining shu kabi institutlariga ochiq ravishda qarshi qo‘yildi.

VSIK (Всероссийский централный испольнителный комитет) ning 15.03.1918 y. “Boshpana huquqi to‘g‘risida”gi dekreti o‘z mamlakatida yoki boshqa mamlakatda siyosiy jinoyatlar uchun ta’qib qilinayotgan chet ellik fuqarolarni ekstraditsiya qilmaslik prinsipini e’lon qildi, buning ostida inqilobiy sharoitda bunday shaxslarning davlat tartibiga qarshi istalgan chiqishlari tushunilishi mumkin edi. Dekretda quyidagilar ko‘rsatildi: “O‘z vatanidan siyosiy yoki diniy jinoyatlar

uchun ta’qib qilinayotgan har qanday chet ellik fuqaro Rossiyaga kelganda bu yerda boshpana huquqidan foydalanadi. Bunday shaxslarni ular fuqarosi bo‘lgan davlatlar talabi bo‘yicha ekstraditsiya qilish amalga oshirilmaydi. U yoki bu davlat hukumati tomonidan bunday shaxslarni ekstraditsiya qilish to‘g‘risida talab qo‘yilgan holatda u Xalq komissarlari kengashi tashqi ishlar komissariatining ish yurituviga o‘tadi, komissariat uni jinoyatni kvalifikatsiya qilish uchun sudga yuboradi: siyosiy yoki diniy xarakterga egami yoki umumjinoyat harakati xarakteriga egami. Jinoyatning xarakteriga qarab ekstraditsiya masalasi bo‘yicha xulosa chiqariladi” [5, B.23].

Albatta, boshpana huquqi, siyosiy jinoyatchilarni ekstraditsiya qilishni ta’qiqlash va deportatsiya sovet tuzumining ixtirosi emas, ular qonunchilikda ilgari ham ma’lum bo‘lgan, lekin ushbu muammoga ustuvor e’tibor ko‘rsatish va siyosiy jinoyat tushunchasi hamda turmush tarzining inqilobiy talqini bu yerda, shubhasiz, jinoyat qonunining amal qilish chegaralari instituti tarixida muhim belgi sifatida qayd etilishga loyiqdir.

Sovet davlatining qolgan davlatlar hamjamiyatiga mafkuraviy va siyosiy qarshiligi uning o‘z jinoyat yurisdiksiyasini mamlakat chegarasidan tashqariga tarqatish imkoniyatlarini sezilarli darajada chekladi. Shuning uchun ilk sovet jinoyat qonunlarida jinoyat-huquqiy normalar amal qilishining faqat hududiy prinsipi e’lon qilingani va sovet hududi chegarasidan tashqarida jinoyat sodir etgan shaxslarga ularni qo‘llash imkoniyati haqida hech narsa aytilmagani hayratlanarli emas.

Tan olish kerakki, sovet hokimiyatining birinchi yillari va o‘n yilliklarida fan va huquq tizimi jinoyat qonunining amal qilishi borasidagi ta’limotning rivojlanishiga ko‘p yangilik olib kelmadi; mutaxassislarning sa’y-harakatlari asosan sovet huquqining o‘ziga xosligi va uning qoidalarini burjuaziya huquqiga qarshi qo‘yishni (ba’zan sun’iy) asoslashga qaratildi. Masalan, N.D.Durmanov jinoyat qonunining makon doirasida amal qilishining “burjua prinsiplarini” tanqid qilib, ular quyidagilarga olib kelishini yozgan: “personallik prinsipi imperialistik davlatlar fuqarolarini o‘sha davlatlardagi jinoyat qonunlarining ta’siri va mahalliy yurisdiksiyadan chiqarishga asos bo‘ladi; hududiylik prinsipi davlat fuqarolarining chet elda sodir etgan jinoyatlari uchun jazodan qutulib qolishga olib keladi; reallik

prinsipi jinoyat qonunlarining amal qilish chegaralarini cheksiz kengaytiradi va amaliy jihatdan davlat suvereniteti prinsipi bilan moslashmaydi, imperialistik davlatlarning agressiv manfaatlariga zarar yetkazuvchi harakatlar sodir etgani bahonasida boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashuvini asoslaydi; kosmopolitik prinsip burjuaziya davlatlari o‘rtasidagi chuqur qarama-qarshiliklarni yashiradi” [6, B.142].

A.A.Gersenson shunday tan oladi: “Sovet fuqarolarining chet elda sodir etgan jinoyatlari uchun javobgarligi masalasini hal qilish uchun birinchi navbatda sovetcha sotsialistik huquqiy tartib va burjuaziya huquqiy tartibining prinsipial, sifat farqlaridan kelib chiqish kerak ... Chet el qonunlari bo‘yicha jinoyat hisoblanuvchi harakat sovet qonunlari bo‘yicha jazolanmaydigan bo‘lishi mumkin va aksincha, chet elda jinoyat hisoblanmaydigan harakat sovet qonunlari bo‘yicha jinoyat va jazo loyiq bo‘lishi mumkin. Aniqki, chet elda jinoyat deb tan olingan, lekin SSSR da bunday hisoblanmaydigan harakat sodir etgan sovet fuqarosi SSSRga qaytganda jinoiy ta’qibga duchor bo‘lishi mumkin emas. Umumiy qoidaga ko‘ra sovet fuqarosi chet elda sodir etilgan jinoyat uchun faqat harakat sovet tuzumi asoslariga, chet el davlatlari bilan diplomatik munosabatlarga, shuningdek sovet fuqarolarining manfaatlariga tajovuz qilgan holatdagina jinoiy javobgarlikka tortiladi. Sovet fuqarosi chet elda sodir etgan jinoyatlar uchun, agar bu xalqaro shartnoma va bitimlarda nazarda tutilgan bo‘lsa, shuningdek u tomonidan sodir etilgan harakat garchi Sovet davlati yoki alohida sovet fuqarolarining manfaatlariga qarshi qaratilmagan bo‘lsa ham, shaxsni harakati ijtimoiy xavfli deb tavsiflasa (masalan, chet elda qotilik, yirik firibgarlik va x.k.), jinoiy javobgarlikka tortiladi. Chet elda jinoyat sodir etgan va SSSR da bo‘lib turgan chet el fuqarolari quyidagi holatlarda jinoiy javobgarlikka tortiladi: 1) bu alohida davlatlar yoki ularning guruhlari bilan xalqaro konvensiya, shartnoma yoki bitimlarda nazarda tutilganda; 2) jinoiy harakat chet elda sodir etilgan yoki tayyorlangan, jinoyat oqibatlari esa SSSR da yuz bergan holatda”.

1922-yilda RSFSR (Rossiya Sovet Federativ Sotsialistik Respublikasi) Jinoyat kodeksi asosida O‘zbekistonda ham jinoyat qonunchiligi shakllandi. Chunki

ushbu kodeks Buxoro va Xorazm Xalq Respublikalari hududiga ham joriy qilindi [7, B.405]. 1926-yil 16-iyunda O‘zbekiston SSRning birinchi Jinoyat kodeksi qabul qilinib [8], 1926-yil 1-iyuldan amalga kiritilgan (bu kodeks o‘sha davrda Tojikiston ASSR da ham amal qilgan).

O‘zbekiston SSRning 1926-yildagi Jinoyat kodeksining birinchi bo‘limi “Jinoyat kodeksining amaliy qoidalari” deb nomlangan bo‘lib, unda jinoyat qonunining amal qilish doirasi, ya’ni SSR fuqarolari va horijiy mamlakatlar fuqarolarining O‘zbekiston hududida qilgan jinoyatlari uchun javobgarlik kabi normalar bayon qilingan.

Xususun O‘zbekiston SSR JKning 1-moddasida “SSR Ittifoqi territoriyasida turuvchi hamma shaxslar eksterritorial huquqdan foydalanuvchi chet el grajdanlari hisoblanmaganida, o‘zlarining O‘zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi territoriyasida qilgan jinoyatlari uchun O‘zSSR Jinoyat kodeksi bo‘yicha mas’uliyatga tortiladilar” [8, B.1] deb ko‘rsatilgan bo‘lib, unga ko‘ra O‘zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi territoriyasida bo‘lgan chet el fuqarolari hisoblanmagan shaxslar O‘zbekiston hududida sodir etgan jinoyatlari uchun O‘zSSR Jinoyat kodeksi bo‘yicha javobgarlikka tortilishi belgilangan.

Kodeksning 2-moddasiga ko‘ra, “Eksterritorial huquqdan foydalanuvchi chet el grajdanlarining jinoiy javobgarligi to‘g‘risidagi masala diplomatik yo‘l bilan hal qilinadi”.

Agar Ittifoqdosh respublikalarning fuqarolari O‘zbekiston SSR hududida sodir etgan jinoyatlari O‘zSSR sudlari tomonidan ko‘riladigan bo‘lsa, jinoyat sodir etilgan joyning qonunlari bo‘yicha javobgarlikka tortilishlari qat’iy qoida tariqasida qabul qilingan.

Mazkur SSR Jinoyat kodeksida O‘zbekiston fuqarolarining chet davlatlarda sodir qilgan jinoyatlari uchun javobgarlik masalasi borasida quyidagi norma belgilangan:

O‘zSSR JKning 3-moddasi:

“SSR Ittifoqining grajdanlari chet mamlakatlarda qilgan jinoyatlari uchun, ular O‘zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasining territoriyasida ushlangan yoki sudga va yoxud tergovga berilgan taqdirda, shu Kodeksning ta’siri ostiga kiradilar”.

Yuqoridagi normaga amal qilmaslik Jinoyat kodeksining quyidagi 4-moddasiga havola kilinadi: “Shu kodeksning 1 va 3 statyalarni amaldan qoldirish faqat SSR Ittifoqining chet el davlatlar bilan qilgan maxsus kelishishi tartibidagina mumkin”.

Ushbu normaning belgilab qo‘yilishi o‘sha davrlarda ham O‘zbekiston SSRning boshqa chet el mamlakatlari bilan jinoyat qonunchiligi doirasida hamkorligi mustahkam bo‘lganligidan dalolat beradi.

Sovet tarixida jinoyat qonunining amal qilish chegaralari institutining keyingi rivoji XX asr o‘rtasidagi yirik huquqiy islohotlar bilan bog‘liq.

Ular ikki muhim jinoyat-huquqiy aktning paydo bo‘lishi bilan belgilandi – 1958 yildagi SSSR Jinoyat qonunchiligi asoslari va 1960 yilgi RSFSR JK.

Jinoyat qonunchiligi asoslarining 5-moddasiga muvofiq, chet elda jinoyat sodir etgan SSSR fuqarolari ular jinoiy javobgarlikka tortilgan yoki sudga topshirilgan ittifoqdosh respublika hududida amal qiluvchi jinoyat qonunlari bo‘yicha jinoiy javobgarlikka tortiladi. Xuddi shunday asoslarda SSSR da yashovchi va SSSR xududidan tashqarida jinoyat sodir etgan fuqaroligi yo‘q shaxslar ham javobgarlikka tortadilar. Shu bilan birga, agar ko‘rsatilgan shaxslar sodir etilgan jinoyatlar uchun chet elda jazo olgan bo‘lsalar, sud ular uchun belgilangan jazoni tegishli ravishda yengillashtirishi yoki aybdorni jazoni o‘tashdan to‘liq ozod qilishi mumkin. Chet el fuqarolari SSSR xududidan tashqarida sodir etgan jinoyatlari uchun xalqaro bitimlarda nazarda tutilgan holatlarda sovet jinoyat qonunlari bo‘yicha javobgarlikka tortiladilar . 1960-yildagi RSFSR JK sining 5-moddasi ham shunday predskripsiyalarni o‘z ichiga olgan.

Yuridik fan vakillari (Y.I.Lyapunov) ushbu normalarni tahlil qilar ekan, SSSR chegarasidan tashqarida jinoyat sodir etgan SSSR fuqarolari va fuqaroligi yo‘q shaxslar ular tomonidan sodir etilgan harakatlar sodir etilish joyi qonunlari bo‘yicha jinoyatmi yoki yo‘qligidan qat’iy nazar, sovet kodeksi bo‘yicha javobgarlikka

tortilishini yozgan. Ittifoq chegarasidan tashqarida jinoyat sodir etgan chet ellik fuqarolarga kelsak, ular sovet qonunlari bo‘yicha faqat davlatimizning xalqaro bitimlari belgilagan cheklangan jinoyatlar doirasi uchun universal prinsip asosida javobgarlikka tortilishi mumkin edi, boshqa barcha holatlarda esa sodir etilgan harakat sovet jinoyat qonuni me’yorlari bo‘yicha jinoyatmi yoki yo‘qligidan qat’iy nazar ular manfaatdor chet el davlatiga ekstraditsiya qilinishi kerak edi [9, B.69-70].

Keyinchalik O‘zbeksitonda 1959-yilda yangi Jinoyat kodeksi qabul qilinib, unda sovet mafkurasi asosida jinoyat va jazolar belgilandi. Bu kodeksda davlatga qarshi jinoyatlar eng og‘ir jinoyatlar sifatida ko‘rilgan. Shuningdek, iqtisodiy jinoyatlar, mulkka qarshi jinoyatlar ham qattiq jazolangan [10, B.2].

Biz ko‘rib chiqayotgan huquqiy predskripsiyalar shu shaklda o‘tgan asrning oxirigacha, 22.09.1994 yildagi 2012-XII-son Qonuni bilan yangi O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining qabul qilingunga qadar mavjud edi, unga ko‘ra quyidagi qoidalar belgilandi: 12-moddasi “O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, shuningdek O‘zbekistonda doimiy yashovchi fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar, basharti boshqa davlat hududida sodir etgan jinoyat uchun o‘sha davlat sudining hukmi bilan jazolangan bo‘lmasalar, ushbu Kodeks bo‘yicha javobgarlikka tortiladilar. O‘zbekiston fuqarosi chet el davlati hududida sodir etgan jinoyati uchun, agar xalqaro shartnomalar yoki bitimlarda boshqacha hol nazarda tutilmagan bo‘lsa, ushlab berilishi mumkin emas. Chet el fuqarolari, shuningdek O‘zbekiston hududida doimiy yashamaydigan fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar O‘zbekiston hududidan tashqarida sodir etgan jinoyatlari uchun faqat xalqaro shartnomalar yoki bitimlarda nazarda tutilgan hollardagina ushbu Kodeks bo‘yicha javobgarlikka tortiladilar” [11, B.2].

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Аванесов Г.А. История государства и права зарубежных стран. – Москва: Норма, 2015.

2. Avesto. – Toshkent: Sharq, 2001.

3. Лоба В.Е., Малахов С.Н. Уголовное право Древней Руси XI–XII вв. (по данным Русской Правды). – Армавир: РИО АГПА, 2011. – С. 57.

4. Учебник уголовного права. Общая часть / пер. с 12–го перераб. изд. Ф. Ельяшевич; с предис. авт. и М.В. Духовского. – М.: Тип. А. Мамонтова, 1903. – С. 103.

5. Сборник документов по истории уголовного законодательства СССР и РСФСР. 1917 – 1952 / сост. А.А. Герцензон; под ред. И.Т. Голякова. – М.: Гос. изд. юрид. лит., 1953. – С. 23.

6. Уголовное право. Общая часть. Учебник / ред.: А.А. Герцензон, Б.С. Ошерович, А.А. Пионтковский. – Изд. 2-е, перераб. и доп. – М.: Изд. НКЮ СССР, 1939. – С. 142.

7. Сулаймонова Х.С. История советского государства и право Узбекистана. II жилд. –Тошкент: Ўз ССР ФА, 1960. 405-406 ст.

8. Уголовный кодекс Узбекской ССР 1926 г. – Ташкент, 1926.

9. Уголовное право. Часть Общая. Учебник / под ред. Н.И. Загородникова, С.В. Бородина. – М.: Юрид. лит., 1966. – С. 69 – 70.

10. Уголовный кодекс Узбекской ССР 1959 г. – Ташкент, 1959.

11. O‘zbekiston Repsublikasi Jinoyat kodeksi. – Toshkent, Yuridik adabiyotlar publish. 2025. – B. 2.

Narbayeva Nodira Jumanazarovna
O’zbekiston Respublikasi Kriminologiya instituti
mustaqil tadqiqotchisi

ZAMONAVIY JAMIYATDA JINOYATCHILIKKA TA’SIR QILUVCHI OMILLAR

Annotatsiya: Ushbu maqolada jinoyatchilikning yuzaga kelishiga ta’sir etuvchi asosiy omillar – ijtimoiy, iqtisodiy, psixologik va huquqiy jihatlar tahlil qilinadi. Shuningdek, jinoyatchilikning oldini olishga doir ilmiy yondashuvlar va zamonaviy kriminologik nazariyalar ko‘rib chiqiladi.

Kalit sózlari: Jinoyatchilik, kriminologiya, ijtimoiy omillar, iqtisodiy tengsizlik, ishsizlik, kambag‘allik, psixologik omillar, huquqiy tizim, jinoyatchilik sabablari, ijtimoiy muhit, deviant xulq, ta’lim darajasi, jinoyatchilik dinamikasi, profilaktika, jinoyatchilikni oldini olish.

FACTORS INFLUENCING CRIME IN MODERN SOCIETY

Annotation. This article analyzes the main factors influencing the emergence of crime - social, economic, psychological, and legal aspects. It also examines scientific approaches and modern criminological theories regarding crime prevention.

Keywords: Crime, criminology, social factors, economic inequality, unemployment, poverty, psychological factors, legal system, causes of crime, social

environment, deviant behavior, education level, crime dynamics, prevention, crime prevention.

ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА ПРЕСТУПНОСТЬ В СОВРЕМЕННОМ ОБЩЕСТВЕ

Аннотация. В данной статье анализируются основные факторы, влияющие на возникновение преступности - социальные, экономические, психологические и правовые аспекты. Также будут рассмотрены научные подходы и современные криминологические теории по предупреждению преступности.

Ключевые слова: Преступность, криминология, социальные факторы, экономическое неравенство, безработица, бедность, психологические факторы, правовая система, причины преступности, социальная среда, девиантное поведение, уровень образования, динамика преступности, профилактика, предотвращение преступности.

Jinoyatchilik turli shakl, belgi va ko‘rinishlarga ega bo‘lgan murakkab hodisadir. Ushbu masalaga oid ilmiy manbalarni tahlil qilish uning mazmun-mohiyatini chuqurroq anglash va to‘g‘ri tushunishga yordam beradi. Jinoyatchilik odatda ommaviy xususiyatga ega bo‘lib, jamiyat va inson manfaatlariga jiddiy ijtimoiy xavf tug‘diradi. Shu bilan birga, u amaldagi jinoyat qonunchiligida jinoyat sifatida e’tirof etilgan harakatlar yoki harakatsizliklar yig‘indisi sifatida namoyon bo‘ladi. Jinoyatchilikning mohiyati shundan iboratki, u faqat obyektiv hodisa bo‘lib qolmay, balki ijtimoiy xarakterga ham ega. Ya’ni, u bevosita jamiyat hayoti, uning qonunlari hamda axloqiy me’yorlari bilan chambarchas bog‘liqdir.

Jinoyatchilikni har tomonlama tahlil qilish kriminologiyada eng muhim vazifalaridan biridir. Chunki jinoyatchilikni faqat rasmiy statistik ma’lumotlar asosida baholash, uning haqiqiy ko‘lamini to‘liq aks ettirmaydi. O‘zbekistonlik kriminolog olima Q.R.Abdurasulova bu borada shunday deydi: “Kriminologik tahlil jarayonida statistik ma’lumotlar muhim manba bo‘lib xizmat qiladi, biroq ular jamiyatdagi barcha huquqbuzarlik holatlarini to‘liq qamrab olmaydi.

Jinoyatchilikning yashirin qismi — ijtimoiy nazoratdan chetda qolgan, ammo real ijtimoiy xavf tug‘diruvchi hodisadir’’[1]

Olimaning ushbu fikri jinoyatchilik tahlilida faqat “aniqlangan jinoyatlar” bilan cheklanib qolmaslik, balki latent jinoyatchilikni ham inobatga olish zarurligini ko‘rsatadi. Chunki yashirin jinoyatlar tizimdagi kamchiliklarni, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning faoliyati samaradorligi va ijtimoiy nazorat mexanizmlarining yetuklik darajasini aks ettiradi. Shu bois, jinoyatchilikni to‘liq tahlil qilishda rasmiy statistikaga qo‘shimcha tarzda sotsiologik so‘rovlar, anonim

ma’lumot yig‘ish usullari, kriminologik monitoring va xalqaro solishtirma tadqiqotlardan foydalanish zarur.

Bu borada rus olimi G.M.Minkovskiy shunday yozadi: “Kriminologik tahlil jinoyatchilikni faqat ko‘rinadigan shaklda emas, balki yashirin qatlamlarda ham o‘rganishga qaratilgan bo‘lishi kerak, chunki faqat shundagina jamiyatdagi real jinoyat holati haqida to‘liq tasavvur hosil bo‘ladi’’ [2]

Jinoyatchilik jamiyatning ijtimoiy barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi murakkab hodisa hisoblanadi. U nafaqat huquqiy, balki iqtisodiy, ijtimoiy va psixologik omillar bilan ham chambarchas bog‘liqdir. Kriminologiya fanida jinoyatchilikni yuzaga keltiruvchi sabablar ko‘plab nazariyalar asosida o‘rganiladi.[3]

Bugungi globallashuv sharoitida jinoyatchilikning yangi shakllari paydo bo‘lib, uning oldini olish yanada murakkablashmoqda. Shu sababli jinoyatchilikka ta’sir qiluvchi omillarni kompleks o‘rganish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Jinoyatchilikning eng muhim determinantlaridan biri ijtimoiy muhit hisoblanadi. Shaxsning shakllanishida oila, maktab, do‘stlar muhiti va jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar muhim rol o‘ynaydi. Nosog‘lom oila muhiti, ota-onaning ajrashishi, bolaga e’tiborsizlik yoki zo‘ravonlik holatlari shaxsning deviant xulqini shakllantirishi mumkin. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, jinoyatchilarning katta qismi bolalikda ijtimoiy muammoli oilalarda tarbiya topgan.[4]

Ta’lim darajasining pastligi yoki maktabdan uzilish jinoyatchilikka moyillikni oshiradi. Ta’lim shaxsda huquqiy ong va ijtimoiy mas’uliyatni shakllantiruvchi

asosiy vositadir. Jamiyatda daromadlar notengligi, kambag‘allik va ishsizlik jinoyatchilik darajasining oshishiga bevosita ta’sir qiladi. Ayniqsa, iqtisodiy imkoniyatlar cheklangan hududlarda mulkiy jinoyatlar ko‘proq uchraydi. Iqtisodiy sharoit jinoyatchilik dinamikasini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Ishsizlik fuqarolarni noqonuniy daromad topishga undashi mumkin. Ayniqsa yoshlar orasida bandlik muammosi jinoyatchilik xavfini oshiradi.[5]

Kambag‘allik nafaqat moddiy yetishmovchilikni, balki ijtimoiy izolyatsiyani ham keltirib chiqaradi. Bu esa jinoyat sodir etishga psixologik turtki bo‘lishi mumkin. Norasmiy iqtisodiyotning kengayishi korrupsiya va iqtisodiy jinoyatlar uchun zamin yaratadi. Bu holat davlat nazoratini susaytiradi.

Shaxsning psixologik holati jinoyatchilik xulqini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Impulsivlik, agressivlik, empatiya yetishmasligi kabi psixologik holatlar jinoyatga moyillikni oshiradi. [6]

Ba’zi ruhiy buzilishlar (psixopatiya, shizofreniya va boshqalar) shaxsning ijtimoiy normalarni buzishiga olib kelishi mumkin. Biroq barcha ruhiy kasallar jinoyatchi bo‘lib qolmaydi.

Doimiy stress, hayotiy muvaffaqiyatsizliklar va ijtimoiy bosim jinoyatga olib keluvchi psixologik zamin yaratadi. Huquqiy tizim va davlat institutlarining samaradorligi jinoyatchilik darajasiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Qonunlarning samarali ishlamasligi yoki jazolarning muqarrarligi pastligi jinoyatchilikni kuchaytiradi. Korrupsiya huquqiy tizimga bo‘lgan ishonchni susaytiradi va jinoyatlarning yashirin qolishiga olib keladi. Profilaktika va reabilitatsiya tizimining zaifligi jinoyatchilikning takrorlanishiga sabab bo‘ladi. Kriminologiyada jinoyatchilikni tushuntiruvchi bir nechta nazariy yondashuvlar mavjud. Bu nazariyaga ko‘ra, jamiyatdagi ijtimoiy tartibsizlik va institutlarning zaifligi jinoyatchilikni kuchaytiradi.

R. Merton tomonidan ishlab chiqilgan ushbu nazariya jamiyatdagi maqsadlar va ularga erishish vositalari o‘rtasidagi nomutanosiblik jinoyatga olib kelishini ta’kidlaydi. Jinoyatchilik ijtimoiy muhitda o‘rganilgan xulq sifatida qaraladi. Ya’ni, inson jinoyatni boshqalardan o‘rganishi mumkin.[7]

Xulosa. Jinoyatchilik murakkab ijtimoiy hodisa bo‘lib, uning yuzaga kelishiga bir nechta omillar – ijtimoiy, iqtisodiy, psixologik va huquqiy omillar birgalikda ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu omillarni chuqur o‘rganish jinoyatchilikning oldini olish strategiyalarini ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega. Jinoyatchilik holati tushunchasiga tor va keng ma’noda yondashish mumkin. Keng ma’nodagi yondashuvda jinoyatchilik holati nafaqat uning darajasini, balki tarkibi va dinamikasini ham o‘z ichiga oladi. Tor ma’noda esa bu tushuncha muayyan davr yoki tarixiy bosqichda jinoyatchilik darajasini ifodalaydi. Jamiyat barqarorligi ko‘p jihatdan undagi insonlarning o‘zaro hamjihatlikda, tinch va osoyishta hayot kechirishiga bog‘liq. Bu omillar jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy hamda madaniy-ma’naviy rivojiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Xususan, oilalardagi sog‘lom muhit, qarindosh-urug‘lar o‘rtasidagi ahillik, ta’lim-tarbiya muassasalaridagi ijobiy ijtimoiy-ma’naviy muhit hamda yoshlar o‘rtasidagi sog‘lom munosabatlar turli salbiy holatlarning oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdurasulova.Q.R. “Kriminologiya”, Toshkent: “Adolat” nashriyoti, 2007.
2. Минковский.Г.М. “Криминология”, Москва: Норма, 2005, С. 112.
3. Криминология: Учебник / Под ред. В.Н. Кудрявцева. – Москва: Норма, 2018.
4. Farrington D.P. “Childhood risk factors and risk-focused prevention”. Oxford University Press, 2017.
5. Akers R.L. Social Learning and Social Structure. – Routledge, 2013.
6. World Bank. Crime and Poverty Report. – Washington DC, 2020.
7. UNODC. Global Study on Homicide. – United Nations, 2023.

Samatova Dilrabo Yusufovna
Oila va gender ilmiy-tadqiqot instituti doktoranti

IJTIMOIY REINTEGRATSIYA: JAZONI O‘TAB CHIQQAN AYOLLAR BILAN ISHLASHNING DOLZARB YO‘NALISHLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada jazoni o‘tab chiqqan xotin-qizlarning jamiyatga qayta moslashuvi jarayoni kompleks ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida

tahlil qilinadi. Reintegratsiya jarayoniga ta’sir etuvchi asosiy omillar, xususan, ijtimoiy stigma, bandlik muammolari, oilaviy munosabatlar, psixologik holat va huquqiy savodxonlik darajasi o‘rganiladi. Tadqiqotda jazoni o‘tab chiqqan ayollarning jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiyalashuvi uchun psixologik yordam, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va iqtisodiy mustaqillik muhim omil ekani asoslab beriladi. Shuningdek, oila, jamiyat va davlat institutlarining hamkorligi reintegratsiya samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etishi ko‘rsatib o‘tiladi.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy reintegratsiya, jazoni o‘tab chiqqan ayollar, ijtimoiy moslashuv, stigma, bandlik, psixologik yordam, oilaviy muhit, retsidiv, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, huquqiy savodxonlik.

СОЦИАЛЬНАЯ РЕИНТЕГРАЦИЯ: АКТУАЛЬНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ РАБОТЫ С ЖЕНЩИНАМИ, ОТБЫВШИМИ НАКАЗАНИЕ

Аннотация. В статье рассматривается процесс социальной реинтеграции женщин, отбывших наказание, как сложное социально-психологическое явление. Анализируются ключевые факторы, влияющие на успешную адаптацию, включая социальную стигматизацию, проблемы занятости, семейные отношения, психологическое состояние и уровень правовой грамотности. Обосновывается значимость комплексного подхода, включающего психологическую помощь, социальную поддержку и обеспечение экономической самостоятельности. Особое внимание уделяется роли семьи, общества и государственных институтов в обеспечении эффективной реинтеграции и снижении уровня рецидивной преступности.

Ключевые слова: социальная реинтеграция, женщины после лишения свободы, социальная адаптация, стигма, занятость, психологическая помощь, семейные отношения, рецидив, социальная поддержка, правовая грамотность.

SOCIAL REINTEGRATION: KEY DIRECTIONS IN WORKING WITH WOMEN RELEASED FROM IMPRISONMENT

Abstract. This article examines the process of social reintegration of women released from imprisonment as a complex socio-psychological phenomenon. It analyzes the main factors influencing successful adaptation, including social stigma, employment challenges, family relationships, psychological condition, and the level of legal awareness. The study substantiates the importance of a comprehensive approach that includes psychological support, social assistance, and economic independence. Particular attention is given to the role of family, society, and state institutions in enhancing the effectiveness of reintegration and reducing recidivism.

Keywords: social reintegration, formerly incarcerated women, social adaptation, stigma, employment, psychological support, family environment, recidivism, social support, legal awareness.

Jazoni o‘tab chiqqan xotin-qizlarning jamiyatga qaytishi murakkab va ko‘p bosqichli ijtimoiy-psixologik jarayon hisoblanadi. Ozodlikka chiqqandan so‘ng ayollar nafaqat huquqiy jihatdan, balki ijtimoiy, iqtisodiy va ruhiy jihatdan ham yangi muhitga moslashish zarurati bilan yuzlashadilar. Ko‘pincha ular jamiyat tomonidan salbiy qarashlar, ya’ni stigma bilan to‘qnash keladilar. Bu esa ularning ishga joylashishi, ijtimoiy munosabatlarni tiklashi hamda o‘ziga bo‘lgan ishonchini shakllantirishiga to‘sqinlik qiladi. Bandlik masalasi ham muhim muammolardan biri hisoblanadi. Ko‘plab ish beruvchilar sudlanganlik holatini hisobga olib, bunday ayollarni ishga qabul qilishdan bosh tortishadi. Natijada iqtisodiy qiyinchiliklar yuzaga keladi va bu o‘z navbatida ijtimoiy moslashuvni qiyinlashtiradi. Bundan tashqari, ayrim hollarda oilaviy munosabatlar buziladi, yaqinlar tomonidan ishonchsizlik yoki rad etish holatlari kuzatiladi. Bu esa ayollarda tushkunlik, xavotir va ijtimoiy izolyatsiyani kuchaytiradi.

Psixologik jihatdan ham ozodlikdan keyingi davr murakkab kechadi. Jazoni o‘tab chiqqan ayollarda stress, qo‘rquv, kelajakka ishonchsizlik kabi holatlar tez-tez uchraydi. Ayrim tadqiqotlarda bunday ayollarning qariyb yarmida moslashuv bilan bog‘liq psixologik qiyinchiliklar kuzatilishi qayd etilgan. Shu sababli reintegratsiya jarayonida psixologik yordam, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va bandlikni ta’minlash

o‘zaro uyg‘un holda olib borilishi zarur. Reintegratsiya jarayonini samarali tashkil etish nafaqat ayolning o‘zi uchun, balki jamiyat uchun ham muhimdir. Chunki ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash mavjud bo‘lgan holatlarda qayta jinoyatchilik darajasi sezilarli kamayadi, ayollarning ijtimoiy faolligi ortadi va oilaviy barqarorlik mustahkamlanadi. Shu bois jazoni o‘tab chiqqan xotin-qizlarni jamiyatga qayta moslashtirish masalasi bugungi kunda ijtimoiy siyosatning muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda.

1. Jadval

Jazoni o‘tab chiqqan ayollar reintegratsiyasiga ta’sir etuvchi asosiy omillar

№	Omil	Muammo mazmuni	Reintegratsiyaga ta’siri	Tavsiya etiladigan choralar
1	Ijtimoiy stigma	Jamiyatda salbiy qarashlar	Ijtimoiy izolyatsiya kuchayadi	Ma’rifiy targ‘ibot, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash
2	Bandlik muammosi	Ish topishdagi qiyinchilik	Iqtisodiy qaramlik ortadi	Kasb-hunar kurslari, ishga joylashtirish
3	Oilaviy munosabatlar	Oila tomonidan rad etish	Psixologik tushkunlik kuchayadi	Oila bilan psixologik suhbatlar
4	Psixologik holat	Stress, xavotir, qo‘rquv	Moslashuv sekinlashadi	Psixologik maslahat va treninglar
5	Huquqiy savodxonlik	Huquqlarni bilmaslik	Ijtimoiy faollik pasayadi	Huquqiy maslahat va treninglar

Oilaviy muhit jazoni o‘tab chiqqan ayollarning ijtimoiy moslashuvida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Ozodlikka chiqqandan so‘ng ayol eng avvalo o‘zining eng yaqin ijtimoiy muhitiga – oilasiga qaytadi. Agar oila tomonidan ijobiy qabul qilinsa, bu uning psixologik barqarorligini tiklashda muhim omil bo‘ladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, oilasi tomonidan qo‘llab-quvvatlangan ayollarning qariyb 70–75% i jamiyatga tezroq moslashadi. Aksincha, oilaviy rad etish holatlarida ijtimoiy izolyatsiya kuchayib, qayta jinoyat sodir etish xavfi 30% gacha ortishi mumkin. Oilaviy muhitda yuzaga keladigan muammolar ko‘pincha ishonchsizlik, ijtimoiy bosim va iqtisodiy qiyinchiliklar bilan bog‘liq bo‘ladi. Ayrim kuzatuvlarga ko‘ra, jazoni o‘tab chiqqan ayollarning 40–50% ida oila bilan munosabatlarni tiklashda

qiyinchiliklar kuzatiladi. Bu esa ayollarda tushkunlik, xavotir va ijtimoiy faollikning pasayishiga olib keladi. Shu sababli reintegratsiya jarayonida oila bilan tizimli ishlash zarur. Psixologik maslahatlar, oila a’zolari bilan mediatsiya suhbatlari, o‘zaro ishonchni tiklashga qaratilgan treninglar samarali natija beradi. Tadqiqotlarga ko‘ra, oila bilan ishlash dasturlarida ishtirok etgan ayollarning ijtimoiy moslashuv darajasi 1,5 baravar yuqori bo‘ladi.

Bundan tashqari, bolali ayollar uchun oilaviy qo‘llab-quvvatlash yanada muhim hisoblanadi. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, jazoni o‘tab chiqqan ayollarning qariyb 60% i farzandli bo‘lib, ularning oilaviy tiklanishi bolalarning psixologik holatiga ham bevosita ta’sir qiladi. Oila tomonidan qo‘llab-quvvatlash mavjud bo‘lgan holatlarda ayollarning ijtimoiy faolligi 65% gacha oshishi kuzatiladi. Jazoni o‘tab chiqqan ayollar uchun ish bilan ta’minlanish reintegratsiyaning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Iqtisodiy mustaqillik ayolning jamiyatga qayta moslashuvi, o‘ziga bo‘lgan ishonchi va ijtimoiy faolligini oshiradi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, jazoni o‘tab chiqqan ayollarning taxminan 60–70% i ozodlikka chiqqach ish topishda qiyinchiliklarga duch keladi. Bandlik muammosining asosiy sabablari sifatida sudlanganlik, kasbiy malakaning pastligi va ijtimoiy stigma ko‘rsatiladi. Ishsiz qolgan ayollarda iqtisodiy qaramlik kuchayib, ijtimoiy moslashuv jarayoni sekinlashadi. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, ish bilan ta’minlangan ayollarda qayta jinoyatchilik darajasi 20% dan kam bo‘lsa, ishsiz ayollarda bu ko‘rsatkich 35–40% gacha yetishi mumkin. Kasb-hunar o‘rgatish dasturlari muhim natijalar bermoqda. Amaliy kuzatuvlarga ko‘ra, kasb-hunar kurslarini tamomlagan ayollarning 50–55% i bir yil ichida ish bilan ta’minlanadi. Kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash dasturlarida ishtirok etgan ayollarning esa daromad manbai barqarorlashib, ijtimoiy moslashuv darajasi 60% gacha oshadi. Iqtisodiy mustaqillik ayollarning psixologik holatiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Tadqiqotlarga ko‘ra, daromad manbaiga ega bo‘lgan ayollarda o‘ziga ishonch darajasi 1,7 baravar yuqori bo‘ladi. Shu bilan birga, ular jamiyatda faolroq ishtirok etib, oilaviy barqarorlikni mustahkamlashga hissa qo‘shadilar. Jazoni o‘tab chiqqan ayollarning psixologik holati reintegratsiya jarayonining eng muhim omillaridan biri

hisoblanadi. Ozodlikdan so‘ng ular ko‘pincha stress, xavotir, qo‘rquv, o‘ziga ishonchsizlik va ijtimoiy moslashuvdagi qiyinchiliklarni boshdan kechiradilar. Ayrim tadqiqotlarda jazoni o‘tab chiqqan ayollarning taxminan 50–55% ida kuchli stress holatlari, 40% ga yaqinida esa depressiv belgilar kuzatilishi qayd etilgan. Bu psixologik muammolar ayollarning jamiyatga moslashuvini sekinlashtiradi va ijtimoiy faolligini pasaytiradi.

Psixologik yordam reintegratsiya jarayonida muhim vosita hisoblanadi. Individual psixologik maslahatlar ayollarning shaxsiy muammolarini aniqlash va ularni hal etishga yordam beradi. Guruh treninglari esa ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish, muloqot madaniyatini shakllantirish va o‘zaro qo‘llab-quvvatlash muhitini yaratishda samarali hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, psixologik yordam dasturlarida qatnashgan ayollarning ijtimoiy moslashuv darajasi 1,5 baravar yuqori bo‘ladi.

Motivatsion treninglar ham muhim ahamiyatga ega. Ular ayollarda kelajakka ishonchni oshiradi, maqsad qo‘yish va unga erishish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Amaliy kuzatuvlarga ko‘ra, psixologik treninglarda ishtirok etgan ayollarning 60% ida o‘ziga bo‘lgan ishonch darajasi oshgan, 55% ida esa ijtimoiy faollik kuchaygani aniqlangan. Bundan tashqari, ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish ham muhimdir. Muloqot qilish, nizolarni hal etish, stressni boshqarish kabi treninglar ayollarning jamiyatga tezroq moslashuviga yordam beradi. Psixologik qo‘llab-quvvatlash mavjud bo‘lgan holatlarda qayta jinoyatchilik xavfi 20–25% ga kamayishi ham qayd etilgan. Shu sababli reintegratsiya dasturlarida psixologik yordam majburiy komponent sifatida qaralishi lozim. Reintegratsiya jarayonida jamiyatning ijobiy munosabati hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi. Jazoni o‘tab chiqqan ayollarga nisbatan ijtimoiy stigma, salbiy qarashlar va ishonchsizlik ularning jamiyatga moslashuviga jiddiy to‘sqinlik qiladi.

Tadqiqotlarga ko‘ra, jazoni o‘tab chiqqan ayollarning 45–50% i jamiyat tomonidan salbiy munosabatni boshdan kechiradi. Bu esa ularning ish topishiga, ijtimoiy munosabatlarni tiklashiga va faol hayotga qaytishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Jamiyat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mavjud bo‘lgan holatlarda reintegratsiya

jarayoni ancha samarali kechadi. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, ijtimoiy qo‘llovga ega bo‘lgan ayollarning 65% i barqaror hayotga qaytadi. Aksincha, jamiyat tomonidan rad etilgan ayollarda ijtimoiy izolyatsiya kuchayib, qayta jinoyatchilik xavfi 30% gacha oshishi mumkin. Mahalla, jamoatchilik tashkilotlari va ijtimoiy xizmatlar hamkorligi muhim ahamiyatga ega. Axborot-ma’rifiy tadbirlar, seminarlar va ijtimoiy loyihalar orqali jamiyatda bag‘rikenglik muhitini shakllantirish mumkin. Amaliy tajribalar shuni ko‘rsatadiki, jamoatchilikni jalb qilgan reintegratsiya dasturlarida ishtirok etgan ayollarning ijtimoiy faolligi 60% gacha oshadi. Ommaviy axborot vositalari ham bu jarayonda muhim rol o‘ynaydi. Ijobiy misollarni yoritish, muvaffaqiyatli reintegratsiya holatlarini targ‘ib qilish jamiyatda ijobiy munosabatni shakllantiradi.

Tadqiqotlarga ko‘ra, ijtimoiy ma’rifiy kampaniyalar o‘tkazilgan hududlarda salbiy stereotiplar 25–30% ga kamaygan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimova G. I. Ijtimoiy reabilitatsiya va reintegratsiya asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020. – 156 b.
2. Abdullayeva M. Xotin-qizlarni ijtimoiy himoya qilishning psixologik jihatlari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019. – 142 b.
3. Ismoilov R., Qodirova D. Jazoni o‘tab chiqqan shaxslarni ijtimoiy moslashtirish masalalari. – Toshkent: Adolat, 2021. – 128 b.
4. Giddens A. Sotsiologiya. – Toshkent: Sharq, 2018. – 832 b.
5. Bandura A. Social Learning Theory. – New York: Prentice Hall, 1977. – 247 p.
6. United Nations Office on Drugs and Crime. Handbook on Women and Imprisonment. – Vienna: UNODC, 2014. – 120 p.
7. Travis J., Petersilia J. Reentry Reconsidered: A New Look at an Old Question // Crime & Delinquency. – 2001. – Vol. 47. – № 3. – P. 291–313.
8. Qodirov A. Ijtimoiy ish asoslari. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2022. – 176 b.

Egamberdiyeva Durdona
Toshkent davlat pedagogika universiteti 4 kurs talabasi

VOYAGA YETMAGAN SHAXSLAR DELIKT JAVOBGARLIGIGA OID QONUNCHILIKNING TIZIMLI TAHLILI

Annotatsiya. Mazkur maqolada voyaga yetmagan shaxslarning delikt javobgarligiga oid milliy qonunchilik tizimli ravishda tahlil qilinadi. Unda 14

yoshgacha bo‘lgan shaxslarning delikt layoqatsizligi, 14–18 yosh oralig‘idagi voyaga yetmaganlarning javobgarlik asoslari hamda ularning ota-ona, vasiy va muassasalar bilan bog‘liq huquqiy mas’uliyati yoritiladi. Shuningdek, zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlarning fuqarolik-huquqiy mohiyati, adolat va profilaktik funksiyasi hamda amaliyotdagi muammolar ilmiy asosda tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: voyaga yetmaganlar, delikt javobgarlik, fuqarolik huquqi, zarar yetkazish, ota-ona javobgarligi, vasiylik, huquqiy layoqat, delikt layoqat, profilaktika, huquqiy tizim.

СИСТЕМНЫЙ АНАЛИЗ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА О ДЕЛИКТНОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ НЕСОВЕРШЕННОЛЕТНИХ ЛИЦ

Аннотация. В данной статье проводится системный анализ национального законодательства, регулирующего деликтную ответственность несовершеннолетних лиц. Рассматриваются вопросы неделиктоспособности лиц до 14 лет, особенности ответственности несовершеннолетних в возрасте от 14 до 18 лет, а также правовая ответственность родителей, опекунов и учреждений. Особое внимание уделяется гражданско-правовой природе обязательств вследствие причинения вреда, их превентивной и справедливой функции, а также существующим проблемам правоприменительной практики.

Ключевые слова:

несовершеннолетние, деликтная ответственность, гражданское право, причинение вреда, ответственность родителей, опека, правоспособность, деликтоспособность, профилактика, правовая система

SYSTEMATIC ANALYSIS OF LEGISLATION ON TORT LIABILITY OF MINORS

Abstract. This article provides a systematic analysis of national legislation regulating the tort liability of minors. It examines the incapacity of children under 14 years of age, the liability framework for minors aged 14 to 18, and the legal

responsibility of parents, guardians, and institutions. The study also explores the civil-law nature of damage compensation obligations, their preventive and justice-oriented functions, as well as existing challenges in law enforcement practice.

Keywords: minors, tort liability, civil law, damage compensation, parental responsibility, guardianship, legal capacity, delict capacity, prevention, legal system

Hozirgi murakkab zamonda dunyoning ko‘plab mamlakatlarida voyaga yetmaganlar o‘rtasida jinoyat sodir etilishi dinamikasi o‘sib borishi tashvish uyg‘otmoqda. Shu bois voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining oldini olish, uning samarali huquqiy mexanizmlarini yaratish o‘ta dolzarblik kasb etmoqda.

Voyaga yetmaganlar bilan individual ishlash, ularning umumiy va delikt javobgarligini belgilovchi qonunchilikning mazmun-mohiyati tahliliga tizimli yondashish, bunda yosh xususiyatlarini, ruhiy va kriminologik (shuningdek viktimologik) jihatlarini inobatga olish muhimdir.

Voyaga yetmagan shaxslar tomonidan sodir etilgan huquqbuzarliklar uchun yuridik javobgarlik belgilashda milliy qonunchiligimizda alohida e’tibor bilan differensial yondashiladi. Ayniqsa, ularning muomala layoqati masalalariga jiddiy e’tibor qaratiladi.

Alohida ta’kidlash joizki, O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasida inson huquqlari, ayniqsa, muomalaga layoqatsiz yoki imkonyati cheklangan, shuningdek, voyaga yetmagan shaxslarning huquqiy himoyasi ustuvor yo‘nalish etib belgilangan. Konstitutsiyaning 19-moddasida insonning huquq va erkinliklari bevosita amal qilishi, 55-moddasida esa har bir shaxsga o‘z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish huquqi kafolatlangan. Shu nuqta’i nazardan, zarar ko‘rgan shaxsning huquqlarini tiklash bilan bir qatorda, zarar yetkazuvchi subektning (voyaga yetmagan yoki muomalaga layoqatsiz shaxsning) huquqiy holatini to‘g‘ri baholash bugungi kunda o‘ta dolzarbdir.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksida voyaga yetmaganlar hamda muomalaga layoqatsiz deb topilgan shaxslar tomonidan yetkazilgan zarar uchun javobgarlikning o‘ziga xos tartibi belgilangan. Amaldagi O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 57-bobi (Zarar yetkazishdan kelib

chiqadigan majburiyatlar) ushbu masalalarni tartibga soladi. Biroq, zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, xususan:

- Voyaga yetmaganlarning internet orqali va jamiyatni raqamlashtirish muhitida yetkazayotgan zararlari;

- Ruhiy holati buzilgan shaxslarni nazorat qilishda vasiylik va homiylik organlarining mas’uliyati;

- Zarar yetkazuvchi shaxsning o‘z harakatlarini idora qila olmaslik holatini (insanitas) tibbiy-huquqiy jihatdan aniqlashdagi muammolar qonunchilikni yanada takomillashtirishni talab yetmoqda. Biroq, amaliyotda zararni qoplash majburiyatining kimning zimmasiga yuklatilishi, ota-onalar, vasiylar yoki homiylarning javobgarlik darajasi, shuningdek, muassasalar javobgarligi bilan bog‘liq masalalarda turli talqinlar va muammolar uchrab turadi.

Amaldagi qonunchilikka muvofiq, zarar yetkazuvchi shaxsning yoshi va ruxiy holatining delikt qobiliyati haqida gapirganimizda shaxsning o‘z harakatlari uchun javob bera olish qobiliyati (delikt layoqati) uning yoshi va ruxiy rivojlanishiga bevosita bog‘liq:

Deliktga layoqatsiz davr: 14 yoshga to‘lmagan shaxslar qonun oldida deliktga layoqatsiz deb topiladi, chunki ular o‘z harakatlarining ijtimoiy va huquqiy oqibatlarini to‘liq anglash darajasida bo‘lmaydilar.

Layoqatsizlikning huquqiy oqibati: 14 yoshga to‘lmaganlar tomonidan yetkazilgan zarar uchun javobgarlik subyekti ularning ota-onalari, vasiylari yoki nazorat qiluvchi muassasalar hisoblanadi.

Psixofizik holat: Shaxsning ruhiy holati uning aybini aniqlashda muhim ahamiyat kasb yetadi; agar shaxs zarar yetkazayotgan paytda o‘z harakatini idora qila olmaydigan holatda bo‘lsa, bu javobgarlikdan ozod qilish yoki uni boshqa shaxslarga yuklash uchun asos bo‘lishi mumkin. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ushbu institut jamiyat hayotida ko‘p qirrali vazifalarni bajaradi: Yekvivalentlik vazifasi: Delikt majburiyatlari orqali huquq buzilishidan oldingi holat tiklanadi; masalan, sog‘lig‘iga zarar yetgan shaxsning davolanish xarajatlari qoplanishi uning huquqiy va moddiy holatini "nol" nuqtaga qaytaradi.

Profilaktik va tarbiyaviy ahamiyati: Javobgarlikning muqarrarligi va zararning to‘liq qoplanishi prinsipi potensial huquqbuzarlarni zararli harakatlardan tiyib turadi, jamiyatda huquqiy madaniyatni oshiradi.

Mutlaq huquqlar himoyasi: Delikt instituti mulk huquqi, umrbod yegalik qilish huquqi va xo‘jalik yuritish kabi mutlaq huquqlarning daxlsizligini ta’minlovchi asosiy qalqondir. Olingan natijalar shuni tasdiqlaydiki, fuqarolik huquqida delikt javobgarligi — bu shunchaki jazo chorasi emas, balki jamiyatdagi ijtimoiy adolatni tiklovchi, shaxsning qadr-qimmati va mulkini asrovchi universal huquqiy mexanizmdir. 14 yoshgacha bo‘lgan voyaga yetmaganlarning deliktga layoqatsizligi esa gumanizm tamoyiliga asoslangan bo‘lib, javobgarlikni ularning tarbiyasi va nazorati uchun mas’ul bo‘lgan shaxslarga yuklaydi.

Voyaga yetmagan va muomalaga layoqatsiz fuqarolar tomonidan yetkazilgan zarar uchun javobgarlik. Mazkur delikt majburiyatining umumiy qoidasi yetkazilgan zararni qoplash majburiyatini to‘liq muomala layoqatlilar (delikt majburiyatlari bo‘yicha yesa to‘liq delikt layoqatlilik) zimmasiga yuklash hisoblanadi. Biroq hayotda qisman muomala layoqatlilar, shuningdek, to‘liq delikt layoqatiga yega bo‘lmaganlar va o‘z harakatining oqibatlarini tushuna olmaydiganlar tomonidan yetkazilgan zararlar ko‘p uchraydi. Mazkur vaziyatlarda yetkazilgan zarar ham bosh delikt tamoyiliga muvofiq qoplanishi lozim.

Voyaga yetmaganlar tomonidan yetkazilgan zarar uchun javobgarlik. 14 yoshga to‘lmagan voyaga yetmaganlar o‘zlari yetkazgan zarar uchun javobgar bo‘lmaydilar. Ta’kidlash lozimki, delikt javobgarlikka nisbatan qonun voyaga yetmaganlarni ikki guruh — 6 yoshgacha va 6 yoshdan 14 yoshgacha ajratib ko‘rsatmaydi va ularning ikkalasini ham deliktga layoqatsiz deb topadi. Biroq 6 yoshdan 14 yoshgacha bo‘lgan fuqarolarning to‘liq deliktga layoqatsizligi bu yoshda bolalarning o‘z harakatlari oqibatini to‘liq tushunib yetmasligi hisoblanadi.

Fuqarolik huquqida fuqarolarning muomalaga layoqatliligi, odatda ikkiga bo‘linadi. Birinchisi bitimga layoqatlilik deb nomlansa, ikkinchisi – delikt layoqatlilik deyiladi. Delikt layoqatlilik shaxsning o‘z harakatlari bilan boshqa shaxsga yetkazgan zarari uchun javobgar bo‘lishida namoyon bo‘ladi. O‘n to‘rt

yoshgacha bo‘lgan voyaga yetmaganlar yesa delikt layoqatiga yega bo‘lmaydilar. Ular tomonidan yetkazilgan zarar ham o‘zlari tomonidan emas, balki boshqa shaxslar tomonidan to‘lanadi.

Fuqarolik Kodeksining 993-moddasiga muvofiq, o‘n to‘rt yoshgacha bo‘lgan voyaga yetmagan (kichik yoshdagi bola) tomonidan yetkazilgan zarar uchun uning ota-onasi (farzandlikka oluvchilari) yoki vasiylari, agar zarar ularning aybi bilan yetkazilmaganligini isbotlay olmasalar, javobgar bo‘ladilar. Ota-ona yoki vasiyning bu vaziyatdagi aybi ularning o‘n to‘rt yoshgacha bo‘lgan voyaga yetmagan bolaga yetarli darajada e’tiborli va mas’uliyatli bo‘lmaganliklarida ko‘rinadi. Vasiyning o‘z zimmasiga yuklangan majburiyatlarni insofsizlik yoki e’tiborsizlik bilan bajarishi uning yetkazilgan zarardagi aybi sifatida baholanadi va u vasiyligi ostidagi shaxs yetkazgan zararni qoplashi lozim bo‘ladi.

O‘n to‘rt yoshdan o‘n sakkiz yoshgacha bo‘lgan voyaga yetmaganlar yetkazilgan zarar uchun umumiy asoslarda mustaqil javobgar bo‘ladilar.

O‘n to‘rt yoshdan o‘n sakkiz yoshgacha bo‘lgan voyaga yetmaganning zararni qoplash uchun yetarli mol-mulki yoki boshqa daromad manbalari bo‘lmagan taqdirda, zarar to‘lig‘icha yoki uning yetishmagan qismi voyaga yetmaganning ota-onasi (farzandlikka oluvchilari) yoki vasiysi tomonidan, agar ular zarar o‘zlarining aybi bilan yetkazilmaganligini isbotlay olmasalar, to‘lanishi lozim.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksida belgilab qo‘yilganidek, -“O‘n to‘rt yoshgacha bo‘lgan voyaga yetmagan (kichik yoshdagi bola) tomonidan yetkazilgan zarar uchun uning ota-onasi (farzandlikka oluvchilari) yoki vasiylari, agar zarar ularning aybi bilan yetkazilmaganligini isbotlay olmasalar, javobgar bo‘ladilar”.

Qonunning adolatli tomoni shundaki, u "Zarar yetkazildimi, demak u qoplanishi kerak" tamoyiliga asoslanadi. Bola kichik yoshda bo‘lgani uchun uni qamoqqa olib bo‘lmaydi yoki jarimaga tortib bo‘lmaydi, lekin zarar ko‘rgan odamning aybi yo‘q-ku? Shuning uchun qonun javobgarlikni bolaning "egalariga" (ota-ona yoki muassasa) yuklash orqali ijtimoiy adolatni tiklaydi.

Fikrimizcha, voyaga yetmagan shaxslar jinoyatchiligining umumiy sabablari quyidagilardir:

- Voyaga yetmagan bolani nazoratsiz qoldirish;
- Xulq-atvoriga befarq bo‘lish;

Xavfli asboblarni (masalan, gugurt yoki pnevmatik qurol) bola qo‘li yetadigan joyda qoldirishdir.

Ota-onalar ko‘pincha "bolam maktabda ekan, u yerda nima qilsa maktab javobgar" deb o‘ylashadi. Qonun buni qisman tasdiqlaydi. Bu o‘qituvchilar va tarbiyachilarni har bir daqiqa uchun hushyor bo‘lishga undaydi. Bu yesa, o‘z navbatida, ta’lim muassasalarida xavfsizlik darajasini oshiradi.

Oxirgi bandda keltirilgan, ota-ona vafot yetgan yoki nochor bo‘lib, bola boyib ketgan holatda zararni boladan undirish imkoniyati — bu qonunning juda moslashuvchan (elastik) ekanligini ko‘rsatadi. Bu "hech qanday zarar javobsiz qolmasligi kerak" degan oliy maqsadni anglatadi.

Yuqorida keltirilgan qoidalar jamiyatda "jamoaviy mas’uliyat" madaniyatini shakllantiradi. Bola — bu shunchaki shaxs emas, u kattalarning tarbiyasi va nazorati mahsulidir.

Milliy qonunchiligimizda 16--18 yoshga to‘lmasdan jinoyat sodir qilgan shaxslarning yuridik javobgarligi masalalari ham to‘liq tartibga solingan.

Shunday qilib, voyaga yetmagan shaxslar delikt javobgarligiga oid qonunchilikni tizimli tahlil etish – uni mantiqan mukammal bo‘lishiga, amaliyotda samarali ishlaydigan huquqiy normalar va mexanizm yaratilishiga xizmat qiladi, deb hisoblaymiz.

Xalilova Zarnigor Zafar qizi
Bosh prokuratura huzuridagi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi tergov faoliyati magistranti, Toshkent, e-mail:zarnigorxalilova74@gmail.com

OJIZ AHVOLDAGI SHAXSLARNI JINOYAT-HUQUQIY HIMOYA QILISHNING IJTIMOIY-HUQUQIY ZARURATI

Annotatsiya. Maqolada ojiz ahvoldagi shaxslarni jinoyat-huquqiy muhofaza qilishning ijtimoiy-huquqiy zarurati tahlil etilgan. Muallif O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va Jinoyat kodeksi normalari, xorijiy doktrinal qarashlar hamda xalqaro huquqiy hujjatlar asosida ojiz ahvol tushunchasining mohiyatini, uning asosiy mezonlarini va huquqni qo’llash amaliyotidagi muammoli jihatlarini o’rganadi. Tadqiqot doirasida hayotga qarshi, jinsiy va mulkka qarshi jinoyat tarkiblaridagi ojizlik belgisining farqli mohiyati, uyqu, hushsizlik hamda tonik immobilizatsiya kabi holatlarning huquqiy baholanishi ko’rib chiqilgan. Maqola yakunida milliy qonunchilikni takomillashtirishga doir nazariy xulosa va amaliy takliflar ilgari surilgan.

Kalit so’zlar: ojiz ahvol, jinoyat-huquqiy muhofaza, jabrlanuvchi, jinoyat tarkibi, iroda erkinligi, tonik immobilizatsiya, ijtimoiy himoya, huquqni qo’llash amaliyoti, kvalifikatsiyalovchi belgi.

СОЦИАЛЬНО-ПРАВОВАЯ НЕОБХОДИМОСТЬ УГОЛОВНО-ПРАВОВОЙ ЗАЩИТЫ ЛИЦ, НАХОДЯЩИХСЯ В БЕСПОМОЩНОМ СОСТОЯНИИ

Аннотация. В статье анализируется социально-правовая необходимость уголовно-правовой защиты лиц, находящихся в беспомощном состоянии. Автор исследует сущность понятия беспомощного состояния, его основные критерии и проблемные аспекты правоприменительной практики на основе норм Конституции и Уголовного кодекса Республики Узбекистан, зарубежных доктринальных подходов и международно-правовых актов. В рамках исследования рассматривается различная правовая природа признака беспомощности в составах преступлений против жизни, половой неприкосновенности и собственности, а также дается правовая оценка таким состояниям, как сон, бессознательное состояние и тоническая иммобилизация. В заключении предлагаются теоретические выводы и практические рекомендации по совершенствованию национального законодательства.

Ключевые слова: беспомощное состояние, уголовно-правовая защита, потерпевший, состав преступления, свобода воли, тоническая иммобилизация, социальная защита, правоприменительная практика, квалифицирующий признак.

THE SOCIO-LEGAL NECESSITY OF CRIMINAL LAW PROTECTION OF PERSONS IN A HELPLESS CONDITION

Annotation. The article analyzes the socio-legal necessity of criminal law protection of vulnerable persons. The author examines the essence of the concept of vulnerability, its main criteria, and problematic aspects in law enforcement practice based on the norms of the Constitution and the Criminal Code of the Republic of Uzbekistan, foreign doctrinal views, and international legal instruments. Within the framework of the research, the distinctive nature of the sign of vulnerability in crimes against life, sexual integrity, and property is considered, as well as the legal assessment of such conditions as sleep, unconsciousness, and tonic immobility. In conclusion, the article presents theoretical findings and practical recommendations aimed at improving national legislation.

Keywords: vulnerable condition, criminal law protection, victim, elements of crime, freedom of will, tonic immobility, social protection, law enforcement practice, qualifying feature.

Zamonaviy huquqiy davlat sharoitida jamiyatning ijtimoiy jihatdan eng zaif qatlami — ojiz ahvoldagi shaxslarni jinoyat-huquqiy muhofaza qilish masalasi alohida dolzarblik kasb etmoqda. O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 19-moddasida inson huquqlari va erkinliklari oliy qadriyat sifatida e’tirof etilgan bo’lib, davlat har bir fuqaroning, ayniqsa, o’zini mustaqil himoya qila olmaydigan shaxslarning hayoti, sog’lig’i, shaxsiy daxlsizligi va boshqa huquqlarini ta’minlash majburiyatini oladi.

Mazkur konstitutsiyaviy qoida ojiz ahvoldagi jabrlanuvchilarga nisbatan sodir etiladigan jinoyatlar uchun kuchaytirilgan jinoiy javobgarlikni belgilashning

ijtimoiy-huquqiy asosini tashkil etadi. O’zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining bir qator moddalarida, jumladan, 97-moddaning 2-qismi “v” bandi, 118-modda, 119-modda kabi normalarda ojiz ahvol og’irlashtiruvchi yoki konstruktiv belgi sifatida mustahkamlangan. Biroq ushbu tushunchaning yagona, qonuniy belgilangan ta’rifi mavjud emasligi huquqni qo’llash amaliyotida qator nazariy va amaliy muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Jinoyat huquqi doktrinasida ojiz ahvol tushunchasi uzoq vaqtdan beri ilmiy bahs-munozaralar predmeti bo’lib kelmoqda. Ushbu kategoriyaning mohiyatini ochib berish uchun avvalo uning asosiy mezonlarini aniqlab olish talab etiladi.

Taniqli rus huquqshunosi L. Konyshevaning ta’rificha: “Ojiz — shunday jismoniy yoki psixik holatdagi jabrlanuvchi hisoblanadiki, unda u sodir etilayotgan harakatlarning xususiyati va ahamiyatini tushuna olmaydi yoxud aybdorga qarshilik ko’rsatish holatida bo’lmaydi” [9, b. 45]. Ushbu ta’rifdan kelib chiqib, ojiz ahvol ikki asosiy mezon orqali aniqlanadi: birinchidan, sodir etilayotgan harakatning xususiyati va ahamiyatini anglash qobiliyati hamda ikkinchidan, jinoiy tajovuzga faol qarshilik ko’rsatish qobiliyati.

O.V. Mixaylovskaya o’z tadqiqotida ojiz ahvoldagi shaxsning jinoyat-huquqiy muhofazasi masalasini kompleks tahlil qilib, bir qator asosiy jinoyat tarkiblarida mazkur belgi konstruktiv belgi sifatida, boshqalarida esa kvalifikatsiyalovchi belgi sifatida namoyon bo’lishini ta’kidlaydi [11]. Bu farq jabrlanuvchining huquqiy maqomini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

K.A. Barysheva ushbu masalaning ko’p qirrali ekanligini ta’kidlab, quyidagi xulosaga keladi: “Ojiz ahvol belgisining barcha jinoyat tarkiblariga nisbatan amal qiladigan qonuniy mustahkamlangan umumiy ta’rifi mavjud emas” [2, b. 120]. Olimaning pozitsiyasiga ko’ra, mazkur belgining baholash xarakteridagi tushuncha bo’lib qolishi sud amaliyotida noaniqliklarga va turlicha yondashuvlarga olib kelmoqda.

Ojiz ahvoldagi shaxslarni maxsus jinoyat-huquqiy tartibda muhofaza qilish zarurati bir qator ijtimoiy omillar bilan asoslanadi.

Birinchidan, mazkur toifadagi shaxslar — voyaga yetmaganlar, keksa yoshdagilar, jismoniy yoki ruhiy nuqsoni bo'lgan insonlar, og'ir kasallikda yotganlar — jamiyatning ijtimoiy jihatdan zaif qatlamini tashkil etadi. Zamonaviy huquqiy davlat konsepsiyasidan kelib chiqib, davlat o'zining ijtimoiy funksiyasi doirasida bunday shaxslarning hayoti, sog'lig'i, jinsiy daxlsizligi va boshqa konstitutsiyaviy huquqlarini umumiy tartibga nisbatan kuchaytirilgan tartibda himoya qilishi shart.

Ikkinchidan, ojiz ahvoldagi shaxsga qarshi sodir etiladigan jinoyat o'zgacha ijtimoiy xavflilikka ega bo'ladi. V. Shiyan ushbu masalaning muhim jihatlarini ochib berib, quyidagi xulosaga keladi: "Ojiz ahvol qo'rquv va emotsional shok natijasida yuzaga kelishi mumkin va bu natijada jabrlanuvchi aybdorga qarshilik ko'rsatmaydi. Tergov-sud amaliyoti materiallarining tahlili shuni ko'rsatadiki, bu holat asosan voyaga yetmaganlarga xosdir" [14]. Olimning ushbu pozitsiyasi ojizlik tushunchasining nafaqat turg'un, balki situativ xarakterga ham ega ekanligini ko'rsatadi.

Uchinchidan, ojiz shaxsga qarshi tajovuz jinoyatchining o'zini nisbatan xavfsiz his qilishiga va jinoyatni osonroq sodir etish niyatiga bog'liqdir. Yu.M. Antonyanning qayd etishicha, "qotillikda ojizlik — bu hayotga bo'lgan tajovuzga jismoniy qarshilik ko'rsatish qobiliyatining yo'qligi bilan bog'liq. Bu yerda jabrlanuvchining iroda erkinligi emas, balki jismoniy tezkor himoya qobiliyati asosiy ahamiyatga ega" [1, b. 112]. Shu sababli hayotga qarshi jinoyatlarda ojiz ahvol aybdorning niyatini va qilmishning xavflilik darajasini belgilaydigan asosiy omil hisoblanadi.

Ojiz ahvoldagi shaxslarni himoya qilishning huquqiy zarurati nafaqat milliy, balki xalqaro miqyosda ham e'tirof etilgan. Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2006-yilda qabul qilingan Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyasi, 1989-yildagi Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyasi, shuningdek, Ayollarga nisbatan barcha kamsitish shakllarini tugatish to'g'risidagi konvensiya va boshqa xalqaro hujjatlar ishtirokchi davlatlar zimmasiga ijtimoiy zaif qatlamni muhofaza qilish majburiyatini yuklaydi.

A.I. Korobeev jinsiy jinoyatlarda ojiz ahvolning o’ziga xos mohiyatini quyidagicha ochib beradi: “Jinsiy jinoyatlarda ojiz ahvol birinchi navbatda jabrlanuvchining iroda erkinligi yo’qligi bilan bog’liq. Jismoniy qarshilik ko’rsata olmaslik emas, balki ongli rozilik bera olmaslik hal qiluvchi mezondir” [10, b. 187]. Olimning bu pozitsiyasi jinsiy jinoyatlarda ojizlik tushunchasini hayotga qarshi jinoyatlardagidan farqli talqin qilish zaruratini ko’rsatadi.

Xorijiy huquq tajribasini o’rganish ham muhim ahamiyatga ega. Germaniya Federativ Respublikasi Jinoyat kodeksining 177-paragrafi jinsiy jinoyatlardagi ojizlikni alohida va keng ta’riflab, bu tushunchaga “o’zini himoya qila olmaslik” (Schutzlosigkeit) holatini ham kiritadi [16]. Nemis huquqshunoslik doktrinasiga ko’ra, bunday differensial yondashuv har bir jinoyat tarkibining xususiyatlarini hisobga olib, huquqiy aniqlikni ta’minlashga xizmat qiladi.

Ojiz ahvoldagi shaxslarni jinoyat-huquqiy muhofaza qilish amaliyotida qator murakkab masalalar uchraydi. Bu holat, ayniqsa, uyqu, mastlik va hushsizlik kabi holatlarni baholashda yaqqol namoyon bo’ladi.

E.B. Doronina o’z dissertatsion tadqiqotida uyqu holatini ojiz ahvol sifatida baholash masalasini chuqur tahlil qilib, qotillik va jinsiy xususiyatli jinoyat tarkiblarida bu belgining turlicha talqin qilinishi ilmiy jihatdan asoslangan ekanligini isbotlab beradi [5]. Fiziologik yondashuv nuqtai nazaridan oddiy uyqu va farmakologik hushsizlik bir xil holat emas: oddiy fiziologik uyquda miyaning ba’zi qismlari faol holatda qoladi va sensor tizim ishlab turadi; farmakologik hushsizlikda esa narkoz yoki kuchli tinchlantiruvchi dorilar ta’sirida inson sensor va iroda tizimlari butunlay o’chiriladi.

Isbot masalasi jinoyat qonunchiligida alohida ahamiyatga ega. M.P. Pronina tergov va sud amaliyotidagi keng tarqalgan kamchilikni ko’rsatib o’tadi: “Jabrlanuvchining uxlab yotganligi haqidagi bayonoti ob’ektiv dalillar bilan tasdiqlanmasa, ayblov asosi yetarli bo’lmaydi. Ojiz ahvoldan foydalanish fakti har doim ob’ektiv dalillar bilan tasdiqlanishi lozim” [12]. Bu pozitsiya aybsizlik prezumpsiyasi prinsipidan kelib chiqib, jinoyat protsessining fundamental talabi hisoblanadi.

D.J. Bulikeeva sub’ektiv tomon masalasida o’zining aniq pozitsiyasini bayon etadi: “Ayblanuvchi uchun jabrlanuvchining ojiz ahvolda ekanligi aniq bo’lishi kerak — bu sub’ektiv tomonning majburiy belgisi. Agar aybdor jabrlanuvchining haqiqiy ahvolini bilmagan bo’lsa, u ojiz ahvoldan foydalanganlik uchun javobgarlikka tortilmaydi” [3, b. 55]. Ushbu yondashuv aybdorning irodaviy munosabatini hisobga olishni taqozo etadi.

Biroq bu pozitsiya ijtimoiy adolat nuqtai nazaridan muayyan muammoli jihatga ega. Agar aybdor jabrlanuvchining yashirin nogironligi, boshlang’ich bosqichdagi demensiyasi yoki yengil aqliy zaifligini bilmagan bo’lsa, qilmish oddiy qotillik yoki tajovuz sifatida kvalifikatsiya qilinadi. Vaholanki, jabrlanuvchi ob’ektiv ravishda nochor bo’lib, unga qilingan tajovuz ijtimoiy xavflilik jihatidan yuqoriroq darajada bo’lib qolmoqda. Bu vaziyatda davlat tomonidan alohida muhofaza qilinadigan toifalarning himoyasi aybdorning “bilish darajasi”ga bog’lanib qolishi konstitutsiyaviy tenglik prinsipi va davlatning ijtimoiy vazifasi bilan bevosita bog’liq masalani yuzaga keltiradi.

Qo’shimcha omillarning ta’sirini tahlil qilgan E.A. Zaytseva quyidagi xulosaga keladi: “Uyquning o’zi nomusga tegishda ojizlik yaratmasa-da, uyqu holatidagi shaxsning qo’shimcha tarzda alkogol ta’sirida bo’lishi, uxlatuvchi dorilar berilishi yoki psixologik shok holatida bo’lishi haqiqiy ojizlikni yuzaga keltiradi” [6]. Bu pozitsiya sud amaliyotida har bir ishning individual xususiyatlarini hisobga olish zaruratini ko’rsatadi.

Zamonaviy viktimologiya fanida “tonik immobilizatsiya” yoki “muzlab qolish reaksiyasi” deb ataluvchi hodisa keng o’rganilgan. A. Möller, H.P. Söndergaard va L. Helström tomonidan o’tkazilgan tadqiqot natijalariga ko’ra, “jinsiy tajovuz qurbonlarining qariyb 70 foizida to’liq yoki qisman tonik immobilizatsiya kuzatiladi — bu ongli qaror emas, balki miyaning avtomatik himoya reaksiyasidir” [15, p. 932]. Mazkur ilmiy dalil sud amaliyotida hisobga olinishi zarur: jabrlanuvchining aktiv qarshilik ko’rsatmaganligi yakka o’zida rozilik belgisi bo’lib xizmat qila olmaydi.

A.N. Ignatov jinoyat huquqidagi baholash tushunchalari bo’yicha quyidagi muhim pozitsiyani ilgari suradi: “Jinoyat huquqidagi baholash tushunchalari har bir jinoyat tarkibining ob’ekti va xususiyatlariga muvofiq talqin qilinishi kerak. Ojiz ahvolni barcha jinoyatlarga bir xil ta’rif bilan qo’llash huquqiy noaniqlikka olib keladi” [7, b. 234]. Bu yondashuv differensial talqinlash zaruratining nazariy asosini tashkil etadi.

L.V. Inogamova-Xegay mazkur pozitsiyani yanada rivojlantirib, ojizlikning tarkiblar kesimidagi mohiyatini quyidagicha izohlaydi: “Jinsiy jinoyatlarda ojizlik — iroda erkinligining yo’qligi, mulk jinoyatlarida — mulkni himoya qila olmaslik, hayotga qarshi jinoyatlarda — jismoniy himoya qila olmaslik. Bu uch xil mohiyat bir xil qoidaga bo’ysundirilishi mumkin emas” [8, b. 156]. Ushbu pozitsiya huquqiy tartibga solishda har bir jinoyat tarkibi uchun ojiz ahvolning o’ziga xos mezonlarini belgilash maqsadga muvofiqligini ko’rsatadi.

Rus huquqshunosi N.Yu. Skripchenko o’z tadqiqotlarida sudlarning ilmiy doktrinada ishlab chiqilgan yondashuvlarni yetarlicha inobatga olmasligini hamda sud qarorlaridagi bir xillikning yo’qligini ushbu sohadagi asosiy muammo sifatida ko’rsatadi [13]. Olimaning fikricha, Oliy sud Plenumi tomonidan ojiz ahvol tushunchasiga nisbatan yagona, barcha jinoyat tarkiblari uchun umumiy bo’lgan tushuntirish qabul qilinishi zarur.

D.J. Gostkovaning qiyosiy-huquqiy tadqiqotlarida ojizlik tushunchasining doktrinal talqini va huquqni qo’llash amaliyoti o’rtasidagi tafovutlar ko’rsatilgan bo’lib [4], olima mazkur farqlarni bartaraf etishning konseptual yo’llarini taklif etadi.

O’tkazilgan ilmiy-nazariy tahlil asosida quyidagi xulosalar shakllantirildi.

Birinchidan, ojiz ahvoldagi shaxslarning jinoyat-huquqiy muhofazasi zamonaviy huquqiy davlatning ijtimoiy funksiyasidan kelib chiqadigan ob’ektiv zaruratdir. Davlat jamiyatning ijtimoiy zaif qatlamini kuchaytirilgan tartibda himoya qilish majburiyatini oladi va bu majburiyat O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, ratifikatsiya qilingan xalqaro shartnomalar hamda ijtimoiy adolat prinsipidan kelib chiqadi.

Ikkinchidan, ojiz ahvol tushunchasining yagona qonuniy ta’rifi mavjud emasligi sud amaliyotida bir xil bo’lmagan yondashuvlarni keltirib chiqarmoqda. Har bir jinoyat tarkibi uchun — hayotga qarshi jinoyatlarda, jinsiy jinoyatlarda, mulkka qarshi jinoyatlarda — ojiz ahvolning o’ziga xos mezonlarini qonuniy yoki rasmiy sharh orqali belgilash maqsadga muvofiqdir.

Uchinchidan, “aybdor uchun aniq ma’lum bo’lgan” sharti talqinini qayta ko’rib chiqish zarurati mavjud. Tashqi (ekzogen) ochiq ojizlik holatlarida (yosh, jismoniy nogironlik kabi aniq ko’rinadigan belgilar) bu shartni prezumpsiya sifatida qabul qilish, yashirin (endogen) ojizlikda esa (yashirin kasalliklar, boshlang’ich demensiya) sud-psixologik yoki sud-psixiatrik ekspert xulosasi asosida individual baho berish maqsadga muvofiqdir.

To’rtinchidan, O’zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining tegishli moddalariga ojiz ahvolning aniq huquqiy ta’rifini kiritish hamda ushbu islohotni O’zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi qarorlari bilan uyg’un tarzda rivojlantirib borish zarur. Bunda jahon huquqiy tajribasi, jumladan, Germaniya va boshqa rivojlangan davlatlarning qonunchilik tajribasini ijodiy o’zlashtirish katta ahamiyat kasb etadi.

Beshinchidan, ojiz ahvoldagi shaxslarni jinoyat-huquqiy muhofaza qilish institutini rivojlantirish — bu shunchaki huquqiy texnika masalasi emas, balki davlatning ijtimoiy-huquqiy mohiyatini, insonparvarlik, adolat va tenglik prinsiplarini amalda ro’yobga chiqaruvchi fundamental institutdir. Aynan mazkur institutning takomillashtirilishi jamiyatdagi eng zaif qatlamning haqiqiy himoyasini ta’minlaydi va huquqiy davlat g’oyasini real mazmun bilan boyitadi.

Adabiyotlar

1. Антонян Ю.М. Преступность и психические аномалии. — М.: Наука, 1987. — 208 с.

2. Барышева К.А. Коллизии определения наличия признака беспомощности потерпевшего в некоторых составах преступлений // Право. Журнал Высшей школы экономики. — 2016. — № 4. — С. 118–128.

3. Буликеева Д.Ж. Проблемы применения квалифицирующего признака «иное лицо, заведомо для виновного находящееся в беспомощном состоянии» // Вестник Челябинского государственного университета. — 2013. — № 17 (308). — С. 54–57.

4. Гостькова Д.Ж. Беспомощность потерпевшего: теоретические взгляды и правоприменительная практика // Law Enforcement Review. — 2023. — Т. 7, № 2. — С. 125–134.

5. Доронина Е.Б. Беспомощное состояние потерпевшего в структуре состава убийства: теория, закон, практика: дис. … канд. юрид. наук. — Екатеринбург, 2004. — 177 с.
6. Зайцева Е.А. Некоторые подходы к толкованию понятия «беспомощное состояние» в насильственных половых преступлениях // Вестник Волгоградской академии МВД России. — 2016. — № 2 (37).
7. Игнатов А.Н. Уголовное право России. Общая часть. — М.: Норма, 2010. — 560 с.
8. Иногамова-Хегай Л.В. Квалификация преступлений против личности. — М.: Проспект, 2011. — 248 с.
9. Конышева Л. Понятие психически беспомощного состояния жертвы преступления // Российская юстиция. — 1999. — № 4. — С. 45–47.
10. Коробеев А.И. Преступления против личности по уголовному праву России. — СПб.: Юридический центр Пресс, 2008. — 320 с.
11. Михайловская О.В. Лицо, находящееся в беспомощном состоянии, как конструктивный признак основных составов преступлений // Вестник экономической безопасности. — М.: ФГКУ «ВНИИ МВД России», 2018.
12. Пронина М.П. Коллизии интерпретационных положений Особенной части Уголовного кодекса Российской Федерации в части определения критериев оценочного признака потерпевшего «беспомощное состояние» // Юридическая техника. — 2019. — № 13.
13. Скрипченко Н.Ю. Беспомощное состояние потерпевшего: доктринальное определение и правоприменительная практика. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/bespomoschnoe-sostoyanie-poterpevshego-doktrinalnoe-opredelenie-i-pravoprimenitelnaya-praktika
14. Шиян В. Беспомощное состояние потерпевшего как объективный признак в преступлениях против личности, совершаемых с применением насилия // Отрасли права. — 2015.
15. Möller A., Söndergaard H.P., Helström L. Tonic immobility during sexual assault – a common reaction predicting post-traumatic stress disorder and severe depression // Acta Obstetricia et Gynecologica Scandinavica. — 2017. — Vol. 96, No. 8. — P. 932–938.
16. Roxin C. Strafrecht. Allgemeiner Teil. Band I. — München: C.H. Beck, 2006.

Ibragimov Ahmadullox Ilhomjon o'g'li
Huquqni muhofaza qilish akademiyasi,
“Tergov faoliyati” yo'nalishi tinglovchisi
E-mail: ahmadilloibragimov060@gmail.com

SIRTDAN EHTIYOT CHORASINI TANLASH INSTITUTINING QONUNCHILIK BO'SHLIQLARI VA TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasi jinoyat protsessual qonunchiligida sirtdan ehtiyot chorasini tanlashga oid tizimli bo'shliqlar va amaliyotdagi muammolar tahlil etilgan. Amalda deyarli barcha holatlarda — jinoyat og'irligidan qat'i nazar — sirtdan qamoqqa olish ehtiyot chorasini tanlashga majbur

bo'linishi, JPKning 242-moddasidagi sanktsiya chegarasiga to'g'ri kelmaydigan jinoyatlarda ham shu choraning qo'llanilishi, garov, tilxat va kafillik mexanizmlari uchun nazorat tizimining mavjud emasligi muammolarning asosiy sabablari sifatida aniqlandi. Germaniya, Frantsiya, Buyuk Britaniya va AQSH tajribasi o'rganilgan holda, JPKga sirtdan muqobil ehtiyot choralarini tanlash tartibini belgilovchi yangi normalar kiritish maqsadga muvofiqligi asoslandi va aniq qonunchilik takliflari ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: sirtdan ehtiyot chorasi, qamoqqa olish, muqobil ehtiyot chora, garov, tilxat, shaxsiy kafillik, jinoyat protsessual qonunchiligi, qonunchilik bo'shlig'i, xorijiy tajriba, probatsiya, elektron kuzatuv.

LEGISLATIVE GAPS IN THE INSTITUTION OF DETENTION AS A PREVENTIVE MEASURE AND WAYS TO IMPROVE IT

Abstract: This article systematically examines the legislative gaps and practical shortcomings related to the institution of selecting preventive measures in absentia within the criminal procedure law of the Republic of Uzbekistan. It is established that in practice, courts are compelled to apply pretrial detention in absentia in almost all cases, regardless of the severity of the offence — including cases where the sanctions provided under the Criminal Code do not meet the threshold established by Article 242 of the CPC. The absence of a supervision mechanism for bail, written commitment of good behaviour, and personal surety is identified as a root cause that renders alternative measures ineffective in practice. Drawing on the legislative experience of Germany, France, the United Kingdom, and the United States, the article substantiates the necessity of introducing into the CPC a dedicated norm governing the procedure for selecting alternative preventive measures in absentia and puts forward specific legislative proposals to that end.

Keywords: preventive measure in absentia, pretrial detention, alternative preventive measures, bail, written commitment, personal surety, criminal procedure law, legislative gap, foreign experience, probation, electronic monitoring.

ПРОБЕЛЫ В ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВЕ ИНСТИТУТА ИЗБРАНИЯ МЕРЫ ПРЕСЕЧЕНИЯ В ВИДЕ ЗАКЛЮЧЕНИЯ ПОД СТРАЖУ И ПУТИ ЕГО СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ

Аннотация: В настоящей статье систематически проанализированы законодательные пробелы и практические недостатки, связанные с институтом заочного избрания мер пресечения в уголовно-процессуальном законодательстве Республики Узбекистан. Установлено, что на практике суды вынуждены применять заочное заключение под стражу практически во всех случаях — вне зависимости от тяжести совершённого преступления, — включая случаи, когда санкция статьи Уголовного кодекса не соответствует порогу, установленному статьёй 242 УПК. Отсутствие механизма контроля за исполнением залога, подписки о надлежащем поведении и поручительства выявлено в качестве основной причины, обусловливающей неэффективность альтернативных мер на практике. С учётом законодательного опыта Германии, Франции, Великобритании и США в статье обосновывается необходимость включения в УПК отдельной нормы, регулирующей порядок заочного избрания альтернативных мер пресечения, и формулируются конкретные нормативные предложения.

Ключевые слова: заочная мера пресечения, заключение под стражу, альтернативные меры пресечения, залог, подписка о надлежащем поведении, личное поручительство, уголовно-процессуальное законодательство, законодательный пробел, зарубежный опыт, пробация, электронный мониторинг.

Kirish. Shaxs erkinligi va daxlsizligi — huquqiy davlat qurishning asosiy o'lchovlaridan biri. Jinoyat protsessual huquqida ehtiyot choralari ayblanuvchining surishtiruv yoki tergovdan bo'yin tovlashini, haqiqatni aniqlashga to'sqinlik qilishini oldini olish maqsadida qo'llaniladi. Biroq bu maqsadga erishish uchun har doim ham qamoq zarur emas — ko'pincha kamroq cheklovchi muqobil choralar bu vazifani bajarishga qodir.

Sirtdan ehtiyot chorasini tanlash masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Ayblanuvchi tergov yoki suddan yashiringan va uning turgan joyi noma'lum bo'lgan holatlarda amaliyotda deyarli yagona yechim sifatida sirtdan qamoqqa olish qo'llanilmoqda. Bu hol JPKning 242-moddasida belgilangan sanktsiya chegarasidan past bo'lgan jinoyatlar bo'yicha ham takrorlanmoqda. Jumladan, Jinoyat kodeksining 109-moddasi (qasddan badanga yengil shikast — maksimal 1 yil ozodlikdan mahrum etish), 112-moddasi (zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish — maksimal 1 yil axloq tuzatish ishlari) va 140-moddasi (haqorat — maksimal 2 yil axloq tuzatish ishlari) bo'yicha ishlarda ham sirtdan qamoq ehtiyot chorasi tanlanmoqda. Bunday yondashuv jazoning mutanosibligi printsipiga zid bo'lib, inson huquqlari sohasidagi xalqaro standartlardan — xususan, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning 9-moddasidan — chetga chiqishga olib keladi.

Mazkur muammoning asosiy sababi qonunchilikda sirtdan muqobil ehtiyot choralarini tanlash imkonini beruvchi hech qanday normaning mavjud emasligidadir. JPKning 243-moddasi sirtdan faqat qamoqqa olishni nazarda tutadi, 365-modda ham shu yechimni ko'rsatadi. Natijada sud va tergov organlari uchun ikkinchi yo'l ochiq emas — amaliyot yagona qolipga tushib qolgan.

Maqolada amaldagi huquqiy asoslar tahlil etilgan, muqobil ehtiyot choralar — garov, tilxat va kafillik — uchun nazorat mexanizmidagi tizimli bo'shliqlar ko'rsatilgan, Germaniya, Frantsiya, Buyuk Britaniya va AQSH tajribasi o'rganilgan hamda mavjud kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan aniq qonunchilik takliflari ishlab chiqilgan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. O'zbekiston huquqshunosligida ehtiyot choralari masalasi G.To'lagonova, D.M.Qurbonov, S.A.Abdug'afforov va M.Abdug'afforov asarlarida yoritilgan. Ularda asosan garov va tilxatning qonuniy asoslari, shaxsiy kafillikning o'ziga xos jihatlari ko'rsatib o'tilgan. Ammo sirtdan muqobil ehtiyot chorasi instituti alohida tadqiqot ob'ekti sifatida o'rganilmagan — bu soha hanuz xoli holda qolmoqda.

Xorijiy adabiyotda F.Dyunkel (Germaniya elektron kuzatuv tizimi), E.Barton va boshqalar (muqobil choralarning global tahlili, UNODC), OSCE ODIHR ekspert forumlari materiallari muqobil ehtiyot choralarning samaradorligini tasdiqlovchi keng empirik ma'lumotlar keltiradi. Xususan, 2021 yilgi UNODC hisoboti shuni ko'rsatadiki, rivojlangan nazorat mexanizmi bo'lgan davlatlarda sirtdan muqobil choralar qo'llanilganda protsessual majburiyatlarga rioya etish darajasi 75–85 foizdan pastga tushmaydi.

Tadqiqotda quyidagi usullardan foydalanildi:

- normativ-huquqiy tahlil — JPKning 242, 243, 249, 250, 251 va 365-moddalari, JKning 109, 112, 127¹ va 140-moddalari;
- qiyosiy-huquqiy usul — Germaniya (StPO §112, §116), Frantsiya (JPK 138-modda), Buyuk Britaniya (Bail Act 1976), AQSH (Bail Reform Act 1984) qonunchiligi;
- tizimli tahlil — amaliyotdagi muammolarning sabab-oqibat zanjirini aniqlash;
- prognozlash — taklif etilayotgan normativ o'zgarishlarning kutilgan samarasini baholash.

Natijalar va muhokama. I. Sirtdan ehtiyot chorasini tanlashning amaldagi huquqiy asoslari va ularning chegaralari

JPKning 243-moddasi 8-qismiga muvofiq, qidiruv e'lon qilingan ayblanuvchiga nisbatan qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash to'g'risidagi iltimosnoma uning ishtirokisiz ko'rib chiqiladi. O`zbekiston Respublikasi JPKning 365-moddasining 4-qismida esa qidirilayotgan ayblanuvchi topilgan taqdirda sudning ajrimi bilan unga nisbatan qamoqqa olish ehtiyot chorasi qo'llanilishi mumkinligi belgilangan.

Mazkur ikkala normani birgalikda tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, qonun sirtdan faqat qamoqni nazarda tutadi. Sirtdan garov, tilxat yoki kafillik tanlash imkonini beruvchi yagona norma mavjud emas. Bu — qonunchilikdagi aniq

bo'shliq. Natijada tergov organlari va sudlar uchun amalda ikkinchi yo'l mavjud bo'lmay, "sirtdan qamoq" standart amaliyotga aylanib ketgan.

Ushbu bo'shliqning oqibatlari ayniqsa jinoyat og'irligi masalasida yaqqol ko'rinadi. JPKning 242-moddasiga ko'ra, qamoq qasddan sodir etilgan jinoyatlar uchun uch yildan ortiq, ehtiyotsizlik oqibatida sodir etilgan jinoyatlar uchun besh yildan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum etish sanktsiyasi nazarda tutilgan ishlar bo'yicha qo'llaniladi. Biroq amaliyotda bu chegara ko'pincha e'tiborsiz qoldirilmoqda. Jinoyat kodeksining 109-moddasi (badanga qasddan yengil shikast — maksimal 1 yil ozodlikdan mahrum etish), 112-moddasi (zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish — sanktsiyada ozodlikdan mahrum etish nazarda tutilmagan), 127¹-moddasi (tilanchilik — maksimal 1 yil) va 140-moddasi (haqorat — maksimal 2 yil axloq tuzatish ishlari) bo'yicha jinoyatlar sanktsiyasida 242-modda belgilagan chegara mavjud emas yoki undan past. Shunga qaramasdan, amaliyotda bu jinoyatlar bo'yicha ham sirtdan qamoq ehtiyot chorasi tanlanmoqda. Jazoning mutanosibligi printsipi bunday yondashuvni to'g'ridan to'g'ri inkor etadi.

II. Muqobil ehtiyot choralari nazorat mexanizmidagi tizimli bo'shliq

JPKning 242¹-moddasi uy qamog'i uchun nazorat tizimini batafsil belgilaydi: ijro etuvchi organ — ichki ishlar organi; tekshirish davriyligi — kunduzi bir marta, tunda bir marta; elektron kuzatuv vositalarini qo'llash imkoniyati; taqiqlar ro'yxati. Biroq 249-modda (garov), 250-modda (tilxat) va 251-modda (shaxsiy kafillik) uchun: ijro etuvchi organ ko'rsatilmagan, nazorat davriyligi belgilanmagan, majburiyatlar buzilganligini aniqlash va rasmiylashtirish tartibi yo'q. "Munosib xulq-atvorda bo'lish" iborasi umumiy xarakterga ega bo'lib, uning aniq huquqiy mazmuni mustaqil norma bilan belgilanmagan.

Yana bir muhim nuqta: 249-moddada garov bayonnomasida JPKning 46 va 48-moddalariga havola beriladi, ammo bu moddalar aslida protsessual statusni umumiy tavsiflab, ayblanuvchiga qo'yiladigan aniq taqiqlar ro'yxatini bermaydi. Shu bois, nazorat mexanizmidagi ushbu tizimli bo'shliq muqobil choralarni amaliyotda "ishlamaydigan" — ya'ni faqat qog'ozdagi norma — holiga keltiradi.

Sudlar esa o'zlari uchun ishonchliroq va nazoratni ta'minlash osonroq bo'lgan uy qamog'ini yoki to'liq qamoqni tanlashga moyil bo'ladi.

Mazkur muammolarni quyidagi jadvalda tizimli ko'rish mumkin:

Aniqlangan muammo	Amaldagi holat	Taklif etilayotgan yechim
Sirtdan muqobil chora normasi mavjud emas	Amalda yagona yechim — sirtdan qamoq	JPKga 243²-modda kiritish
Garov, tilxat, kafillikda nazorat tizimi yo'q	Majburiyatlar bajarilishi amalda tekshirilmaydi	Probatsiya xizmati inspektori oyiga kamida 2 marta nazorat qilsin
Jinoyat og'irligi va qamoq o'rtasida nomutanosiblik	Yengil jinoyatlarda ham sirtdan qamoq tanlanmoqda	242-moddaga mutanosiblik printsipini mustahkamlash
Ekstraditsiya jarayonidagi ziddiyat	Xorijda ushlangan shaxs zarur bo'lmagan xarajatlar yuki ostida	"Sirtdan garov" mexanizmini qonunga kiritish

III. Xorijiy davlatlar tajribasi

Xorijiy davlatlar tajribasini o'rganish shuni ko'rsatadiki, muqobil ehtiyot choralarning amalda samara berishi uchun uchta zaruriy shart bajarilishi lozim: birinchidan, aniq nazorat tizimi; ikkinchidan, jinoyat og'irligiga nisbatan mutanosiblik printsipi; uchinchidan, majburiyatlar buzilgan taqdirdagina jiddiyroq choraga o'tish mexanizmi. Quyida ko'rilayotgan davlatlarning har birida ana shu uchta shart amalda ishlamoqda.

Germaniyada Jinoyat protsessual kodeksining §112 moddasi qamoq uchun aniq chegara belgilab, §116 moddasi esa "yumshatilgan qamoq" institutini nazarda tutadi — ya'ni sud shartli ozodlik, garov yoki nazorat ostida yashashni birinchi navbatda ko'rib chiqishga majbur. Bunda asoslanmagan qamoq ajrimini chiqarish

sud uchun yuridik xavf tug'diradi. Jinoyat og'irligi va sanktsiya chegarasiga mutanosiblik printsipi BVerfG (Federal konstitutsiyaviy sud) qarorlari orqali mustahkamlangan.

Frantsiyada sudgacha nazorat vazifasi ixtisoslashgan SPIP — Service pénitentiaire d'insertion et de probation (Jazoni ijro etish va probatsiya xizmati) inspektorlari zimmasiga yuklatilgan. Inspektorlar ayblanuvchi bilan oyiga kamida ikki marta uchrashadi, belgilangan majburiyatlarga rioya etilishini tekshiradi va sudga muntazam hisobot beradi. JPKning 138-moddasi 20 ta muqobil chora turini sanab, sud ushbulardan ishning holatiga mos bittasini tanlashi shart qilib belgilangan.

Buyuk Britaniyada 1976 yilgi Bail Act (Garov to'g'risidagi qonun) sirtdan muqobil ehtiyot chorasini tanlashning huquqiy asosi bo'lib, sud qamoqni asoslashga majbur — aksi holda garov yoki tilxat berish standart yechim hisoblanadi. Jinoyat og'irligi past bo'lgan holatlarda qamoq tanlash huquqiy nuqtai nazardan noo'rin deb baholanadi.

Qo'shma Shtatlarda 1984 yilgi Bail Reform Act va uning keyingi o'zgartirishlari garov summasini bozor narxidan emas, shaxsning moliyaviy imkoniyatidan kelib chiqib belgilashni talab etadi. Ayrim shtatlarda pul garovidan butunlay voz kechilib, elektron kuzatuv va probatsiya nazorati muqobil chora sifatida keng joriy etilgan. Ushbu islohotlar o'tkazilgan shtatlarda SIZO aholisi 30–40 foizga qisqargan, bunda protsessual majburiyatlarga rioya etish darajasi esa pasayganligi aniqlanmagan.

Xulosa va takliflar. O'tkazilgan tahlil uch muhim xulosaga olib keldi.

Birinchi xulosa. O'zbekiston Respublikasi JPKida sirtdan muqobil ehtiyot chorasini tanlashga oid norma umuman mavjud emas. 243-modda faqat sirtdan qamoqni nazarda tutadi, 365-modda ham ayni shu yechimni ko'rsatadi. Bu — tizimli qonunchilik bo'shlig'i bo'lib, amaliyotda yagona yechim sifatida "sirtdan qamoq" inertsiyasini shakllantirib qo'ygan.

Ikkinchi xulosa. Garov, tilxat va kafillik uchun ijro etuvchi organ, tekshirish davriyligi va buzilishni rasmiylashtirish tartibi belgilanmagan. JPKning 242¹-moddasida uy qamog'i uchun batafsil tartibga solingan ushbu masalalar muqobil choralarning har biri uchun ham aniq belgilanishi zarur.

Uchinchi xulosa. Germaniya, Frantsiya, Buyuk Britaniya va AQSH tajribasi ko'rsatmoqdaki, muqobil choralar faqat qonunda yozilishi bilan emas — ularning ishlashini ta'minlovchi nazorat mexanizmi, mutanosiblik printsipi va aniq protsessual tartib mavjudligi orqali amalda samara beradi.

Ushbu xulosalar asosida O'zbekiston Respublikasi JPKiga quyidagi o'zgartishlar kiritilishi tavsiya etiladi:

1. JPKga 243²-modda "Qidiruvdagi ayblanuvchiga nisbatan sirtdan muqobil ehtiyot choralarini tanlash tartibi" nomi bilan kiritilsin. Mazmun: ayblanuvchi yashiringan va u sodir etgan jinoyat JPKning 242-moddasidagi sanktsiya chegarasiga to'g'ri kelmasa, sud sirtdan garov, tilxat yoki kafillik tanlashga vakolatli bo'lsin; shaxs ushlangan vaqtdan boshlab 24 soat ichida ajrim unga e'lon qilinishi majburiy sifatida belgilanishi lozim.

2. JPKning 249, 250 va 251-moddalariga qo'shimcha kiritilsin: ijro etuvchi organ (probatsiya xizmati yoki ichki ishlar organi), nazorat davriyligi (oyiga kamida ikki marta), majburiyatlar buzilganligini aniqlash va rasmiylashtirishning aniq protsessual tartibi, "munosib xulq-atvorda bo'lish" umumiy iborasi o'rniga esa ayblanuvchi zimmasiga yuklanadigan majburiyatlarning batafsil ro'yxati.

3. JPKning 242-moddasiga mutanosiblik printsipini mustahkamlovchi norma kiritilsin: jinoyat sanktsiyasida uch yil va undan past ozodlikdan mahrum etish nazarda tutilgan yoki umuman nazarda tutilmagan ishlarda sirtdan qamoq faqat shaxsning O'zbekistonda doimiy yashash joyi yo'qligi yoki ilgari qo'llanilgan ehtiyot chorasini buzgani isbotlangan taqdirdagina qo'llanilsin.

4. 245-moddaga "sirtdan garov" mexanizmini kiritish: xorijda ushlangan shaxsga nisbatan sirtdan garov chorasi belgilangan bo'lsa, ekstraditsiya so'rovi "muqobil chora qo'llanilgan shaxs" maqomida yuborilishiga imkon yaratilsin; bu

islohot ekstraditsiya jarayonini tezlashtiradi va davlatning SIZO saqlash xarajatlarini kamaytiradi.

Mazkur takliflarning amalga oshirilishi O'zbekistonda sirtdan qamoq ehtiyot chorasini 30–40 foizga qisqartirish, SIZO yuklamasini yengillatish, davlat xarajatlarini tejash va xalqaro huquqiy standartlar — xususan, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning 9-moddasiga — muvofiqligini ta'minlash imkonini beradi. Bundan tashqari, mazkur islohot jinoyat protsessini insonparvarlashtirish va shaxs erkinligini hurmat qilish yo'lidagi keng sud-huquq islohotlari zaminida mantiqiy davom etadi.

Adabiyotlar / References

1. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi (2024 yilgi o'zgartirishlar bilan). — https://lex.uz.
2. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi (2024 yilgi o'zgartirishlar bilan). — https://lex.uz.
3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (2023 yilgi tahrir). — https://lex.uz.
4. To'lagonova G. Jinoyat protsessida ehtiyot choralarining qo'llanishi muammolari: o'quv qo'llanma. — Toshkent: TDYUI, 2009.
5. Qurbonov D.M. Ehtiyot choralarini qo'llashda qonuniylikka rioya etish // Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies. — 2023. — №4.
6. Abdug'afforov M. Qamoqqa olish ehtiyot chorasini qo'llashning milliy-huquqiy tahlili. — Toshkent: O'zMU, 2021.
7. Dünkel F. Electronic Monitoring in Germany. — EMEU Research Report, 2016.
8. Code de procédure pénale (Frantsiya Jinoyat-protsessual kodeksi), 138-modda.
9. Bail Act 1976 (Buyuk Britaniya). — https://www.legislation.gov.uk.
10. Barton E. et al. Review of Alternatives to Incarceration Efforts Worldwide. — UNODC, 2021.
11. UNODC. Global Prison Population and Trends. — 2025.
12. OSCE ODIHR. Ninth Expert Forum on Criminal Justice for Central Asia. — 2025.

Nazirjonov Nodirshoh Ne’matjon o‘g‘li
Huquqni muhofaza qilish akademiyasi magistranti

INTERNET TARMOG‘I RESURSLARIDA SAQLANAYOTGAN RAQAMLI MA’LUMOTLARNI QAYD QILISHNING KRIMINALISTIK JIHATLARI: NAZARIY-HUQUQIY TAHLIL

Annotatsiya: Ushbu maqolada internet tarmog‘i resurslarida saqlanayotgan isbotlovchi ma’lumotlarni kriminalistik qayd qilish masalalari ko‘rib chiqilgan.

Muallif elektron-raqamli izlarning tushunchasi va tasnifini tahlil qilgan, ushbu izlarning paydo bo‘lish mexanizmini ochib bergan hamda tergov harakatlari doirasida isbotlovchi ma’lumotlarni qayd qilishning amaliy algoritmini ishlab chiqqan. Tadqiqotda O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi, «Axborotlashtirish to‘g‘risida»gi, «Elektron hujjat aylanishi to‘g‘risida»gi va «Kiberxavfsizlik to‘g‘risida»gi qonunlar muqoyasali tahlil qilingan. Xulosada OAKning tergov organlari uchun internet-makonda isbotlovchi ma’lumotlarni qayd qilish bo‘yicha samarali yondashuv takliflari bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: elektron-raqamli iz, isbotlovchi ma’lumot, qayd etish, internet tarmog‘i, kiberxavfsizlik, jinoyat-protsessual huquq, kompyuter ekspertizasi, IP-manzil, log-fayl, tergov harakati.

FORENSIC ASPECTS OF RECORDING DIGITAL INFORMATION STORED IN INTERNET RESOURCES: A THEORETICAL AND LEGAL ANALYSIS

Abstract: This article examines issues related to the forensic recording of evidentiary information stored in Internet resources. The author analyzes the concept and classification of electronic-digital traces, reveals the mechanism of their formation, and develops a practical algorithm for recording evidentiary information within the framework of investigative actions. The study also provides a comparative analysis of the Criminal Procedure Code of the Republic of Uzbekistan, as well as the Laws “On Informatization,” “On Electronic Document Management,” and “On Cybersecurity.” In the conclusion, the author proposes effective approaches for investigative authorities to record evidentiary information in cyberspace.

Keywords: electronic digital trace, evidentiary information, recording, Internet network, cybersecurity, criminal procedural law, computer forensics, IP address, log file, investigative action.

КРИМИНАЛИСТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ФИКСАЦИИ ЦИФРОВОЙ ИНФОРМАЦИИ, ХРАНЯЩЕЙСЯ В РЕСУРСАХ ИНТЕРНЕТА: ТЕОРЕТИКО-ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы криминалистической фиксации доказательственной информации, хранящейся в ресурсах сети Интернет. Автор анализирует понятие и классификацию электронно-цифровых следов, раскрывает механизм их формирования, а также разрабатывает практический алгоритм фиксации доказательственной информации в рамках следственных действий. В исследовании проведён сравнительный анализ Уголовно-процессуального кодекса Республики Узбекистан, а также законов «Об информатизации», «Об электронном документообороте» и «О кибербезопасности». В заключении автор предлагает эффективные подходы для следственных органов по фиксации доказательственной информации в киберпространстве.

Ключевые слова: электронно-цифровой след, доказательственная информация, фиксация, сеть Интернет, кибербезопасность, уголовно-процессуальное право, компьютерная экспертиза, IP-адрес, лог-файл, следственное действие.

Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi jamiyatning barcha sohalariga, jumladan huquqni muhofaza qilish tizimiga ham jiddiy ta’sir ko‘rsatmoqda. O‘zbekiston Respublikasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) tobora keng tarqalayotgani, internet foydalanuvchilar soni oshib borayotgani natijasida jinoiy faoliyatning yangi shakllari paydo bo‘lmoqda. Agentlik ma’lumotlariga ko‘ra, 2025-yilda O‘zbekistonda internet foydalanuvchilar soni mamlakat aholisining 80 foizidan oshgan.

Kiberjinoyatlar sonining o‘sishi tergov organlari va sud-kriminalistika xizmatlari oldiga prinsipial yangi vazifalar qo‘yadi. Xususan, internet tarmog‘i resurslarida saqlanayotgan isbotlovchi ma’lumotlarni aniqlash, saqlash va qayd qilish masalalari alohida dolzarblik kasb etmoqda. Ushbu masalaning o‘ziga xos

jihati shundaki, raqamli ma’lumotlar o‘ta oson o‘zgartiriladi, o‘chiriladi yoki ularga noto‘g‘ri ma’lumotlar kiritiladi.

R.S.Belkin yozganidek, «qayd etish (fiksatsiya) — bu aniqlangan daliliy ma’lumotlarni, ularni aniqlash va mustahkamlash sharoitlarini, vositalarini va usullarini belgilangan qonuniy shakllarda aks ettirishga doir harakatlar tizimi»dir [1]. Ushbu tushuncha yangi texnologiyalar davrida ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan, balki yangicha mazmun kasb etgan.

O‘zbekiston Respublikasida axborot-kommunikatsiya sohasidagi jinoyatlarga oid qonunchilik asosi shakllangan bo‘lsa-da, tergov amaliyotida raqamli izlarni qayd qilishga doir metodik tavsiyalar hali yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Mazkur maqolada ushbu bo‘shliqni to‘ldirishga doir nazariy-amaliy tahlil beriladi.

Internet-makonda jinoiy faoliyatni tergov qilishda asosiy kriminalistik obyekt — elektron-raqamli iz hisoblanadi. Ushbu tushuncha bugungi kungacha kriminalistika fanida turli izohlar berilib kelingan. V.A. Mesheryakov «virtual iz» deb nomlagan obyektni «kibernetik fazodagi har qanday o‘zgarish, jinoyat voqeasiga bog‘liq va kompyuter axborot tizimida raqamli shaklda aks etgan» [2] deb ta’riflaydi.

V.B.Vexov esa «elektron-raqamli iz»ni «kriminalistik ahamiyatga molik har qanday kompyuter axborotidir, ya’ni elektromagnitik o‘zaro ta’sir yoki signallar orqali material tashuvchida saqlangan yoki aloqa kanallari orqali uzatilgan ma’lumotlar» [3] deb ta’riflagan. Mazkur ta’rif amaliy qo‘llanish nuqtayi nazaridan qulaydir.

Tadqiqotlarni umumlashtirish asosida elektron-raqamli iz quyidagicha ta’riflanishi mumkin: elektron-raqamli iz — bu kompyuter texnikasidan foydalanish orqali ikkilik mashina kodi tizimini yaratish yoki o‘zgartirish, nusxalash, o‘chirish yoki bloklash natijasida elektromagnitik o‘zaro ta’sir yoki signallar vositasida ifodalangan kriminalistik ahamiyatli axborot bo‘lib, u material tashuvchisiz mavjud bo‘la olmaydi.

Elektron-raqamli izlarni tasniflashda ularning huquqiy ahamiyati va amaliy ahamiyatidan kelib chiqish zarur. Axborot turi bo‘yicha quyidagi guruhlar ajratiladi:

a) tizimli va amaliy dasturiy ta’minot fayllari — operatsion tizim komponentlari, konfiguratsiya fayllari, vositachi dasturlar;

b) jurnal fayllari (log-fayllar) — dasturiy ta’minot va texnik vositalarning avtomatik ro‘yxatga olish protokollari;

v) foydalanuvchi faoliyatidan hosil bo‘lgan fayllar — brauzer tarixi, kesh ma’lumotlari, elektron xatlar, messendjer xabarlari;

g) autentifikatsiya va maxfiylik ma’lumotlari — foydalanuvchi hisoblariga kirish ma’lumotlari, raqamli imzolar;

d) operativ xotira va almashinuv fayllaridagi ma’lumotlar.

Joylashuvi bo‘yicha elektron-raqamli izlar jabrlanuvchi va gumonlanuvchining texnik vositalarida, aloqa operatorlari va internet-provayderlar serverlarida, xosting-kompaniyalarda saqlanadi. Saqlash manbai bo‘yicha qattiq disk va SSD disklarda, EVM operativ xotirasida, simli va simsiz aloqa tizimlarida mavjud bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasining «Axborotlashtirish to‘g‘risida»gi Qonuni (2003-yil 11-dekabr) axborot resurslarini va ularni muhofaza qilishni tartibga soladi. Qonunning 3-moddasida axborot tizimi va axborot resursi tushunchalari berilgan bo‘lib, bu tushunchalar elektron-raqamli izlarning huquqiy maqomini aniqlashda muhim asos vazifasini o‘taydi [4].

Internet-makonda izlarning paydo bo‘lish mexanizmini tushunish tergov harakatlarini samarali tashkil etish uchun zarurdir. Raqamli izlarning paydo bo‘lishi sun’iy ravishda yaratilgan muhitlarda sodir bo‘ladi: elektron axborot tashuvchilarida, axborot-telekommunikatsiya tarmoqlarida, aloqa kanallarida va axborot tizimlarida.

Internet tarmog‘ida ma’lumot almashinuvi TCP/IP protokollari asosida amalga oshiriladi. Har bir tarmoq sessiyasi IP-manzillar, vaqt belgisi, uzatilgan ma’lumotlar hajmi va turli xizmatlar ko‘rsatkichlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar qatori orqali avtomatik ravishda ro‘yxatga olinadi. Aynan ushbu «raqamli iz» keyinchalik isbotlovchi ahamiyat kasb etadi.

N.N.Lisov ta’kidlaganidek, «fiksatsiya harakatlarini bajarish maxsus texnik vositalar tizimini qo‘llashni talab etadi... bu faoliyat fragmentining mohiyati jinoiy faoliyatning subyekti ta’sir ko‘rsatgan obyektlar holatining o‘zgarish mexanizmlarini va ularning qayta kodlashni aks ettirishdan iborat» [5] deya fikr bildirgan. Bu fikr raqamli iz uchun to‘liq taaluqli hisoblanadi.

Jinoyat sodir etilishida internet tarmog‘ini qo‘llash chog‘ida izlarning hosil bo‘lishi quyidagi texnik jarayonlar orqali amalga oshadi. Veb-server log-fayllari har bir HTTP/HTTPS so‘rovni, shu jumladan so‘rov vaqti, so‘rov qiluvchi IP-manzili, brauzer turi va boshqa meta-ma’lumotlarni aks ettiradi. Elektron pochta xabarlari o‘tish jarayonida bir nechta serverlar orqali mavjud xizmat ko‘rsatuvchilar tizimida iz qoldiradi. Ijtimoiy tarmoqlar va messendjerlar foydalanuvchi faoliyati to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘z serverlarida ushlab turadi.

Seansni yakunlash yoki ma’lumotni o‘chirishga uringanda ham izlarning bir qismi tizimda saqlanib qolishi mumkin. Masalan, operativ xotiradagi ma’lumotlar (RAM Forensics) kompyuter o‘chirilgandan so‘ng ham qisman tiklanishi mumkin. Shu boisdan tergov harakatlari tez va tizimli ravishda amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir.

2024-yil 22-noyabrda O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksiga kiritilgan qo‘shimcha o‘zgartirishlar isbotlovchi ma’lumotlar to‘g‘risidagi normalarni izchil tartibga soladi. JPKning 85-88-moddalarida isbotlash tushunchasi va turlari belgilangan; elektron axborot tashuvchilardagi ma’lumotlar ham isbotning to‘g‘ri va mustaqil turi sifatida ko‘rsatilgan.

JPKning 91-moddasiga binoan «elektron ma’lumotlar» alohida isbot turi sifatida ajratilgan. Bu ijobiy qadam bo‘lib, u tergov organlari va sudlarga internet-makonda aniqlangan axborotni tegishli jarayonlar orqali isbotlovchi kuchga ega bo‘lgan hujjat sifatida rasmiylashtirishga imkon beradi. Shu o‘rinda aytish joizki, yangi JPK 2024-yilgacha amal qilgan eski kodeks normalari bilan solishtirilganda raqamli isbotlarni tartibga solish bobida sezilarli darajada takomillashgan.

«Elektron hujjat aylanishi to‘g‘risida»gi Qonun (2004-yil 29-aprel) raqamli imzo va elektron hujjatlarning huquqiy ahamiyatini belgilaydi. Mazkur Qonunning

7-moddasiga koʻra, elektron hujjat qogʻoz hujjat bilan tenglashtiriladi, agar u belgilangan tartibda raqamli imzolangan va tasdiqlangan boʻlsa. Bu norma tergov davomida internet-resurslardan olingan ma’lumotlarni rasmiylashtirishda asos vazifasini oʻtaydi [6].

«Kiberxavfsizlik toʻgʻrisida»gi Qonun (2022-yil) axborot-kommunikatsiya infratuzilmasini muhofaza qilish va kibertahdidlarga qarshi kurashishning institutsional tamoyilini belgilaydi. Ushbu Qonunning 4-bobida tergov organlarining kiber voqealar boʻyicha axborot almashinish va hamkorlik qilish tartibi koʻzda tutilgan.

Oʻzbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 278–280-moddalari kompyuter axborotiga noqonuniy kirish, zararli dasturlar yaratish va tarqatish, axborot-kommunikatsiya tizimlarini buzish uchun jinoiy javobgarlikni nazarda tutadi. Ushbu moddalar doirasidagi jinoyatlarni tergov qilishda elektron-raqamli izlarni qayd qilish markaziy oʻrin tutadi.

A.A. Aubakirova fikriga koʻra, isbotlovchi ma’lumotlarni qayd qilish tushunchasida «fiksatsiya vositalariga koʻrsatma» boʻlishi shart [7]. Bu yondashuv raqamli muhit sharoitida ayniqsa dolzarbligi ayon boʻladi, chunki elektron-raqamli izlarni aniqlash va mustahkamlash jarayoni maxsus texnik vositalarsiz mumkin emas.

Isbotlashda ahamiyatga molik boʻlgan asosiy qayd qilish obyektlariga quyidagilar kiradi: IP-manzillar va MAS-manzillar — tarmoqda foydalanuvchini identifikatsiya qiluvchi texnik identifikatorlar; log-fayllar — dasturiy ta’minot va tarmoq vositalarining avtomatik roʻyxatga olish protokollari; keshlangan ma’lumotlar — brauzer, messendjer va boshqa ilovalar tomonidan avtomatik saqlangan ma’lumotlar; foydalanuvchi sessiyalari tarixi — tarmoq xizmatlari serverida saqlanadigan kirish va faoliyat ma’lumotlari; fayllarning fizik manzillari, nomlari va ular toʻgʻrisidagi meta-ma’lumotlar.

Ushbu ma’lumotlarni qayd qilish uchun turli texnik vositalardan foydalaniladi. Birinchi guruhga maxsus dasturiy vositalar kiradi: UFED (Universal Forensic Extraction Device) — mobil qurilmalardan ma’lumot olish uchun; XRY

— telefon va planshet sud-kriminalistika tadqiqoti uchun; OSForensics — kompyuter tizimi tadqiqoti uchun majmuaviy vosita; EnCase va FTK (Forensic Toolkit) — jinoyat tadqiqoti uchun keng tarqalgan dasturiy vositalar.

Ikkinchi guruhga o‘chirilgan, o‘zgartirilgan yoki shikastlangan ma’lumotlarni tiklash dasturlari kiradi: R-Studio, EaseUS Data Recovery, Ontrack Easy Recovery va boshqalar. Bu vositalar tergov uchun muhim bo‘lgan axborotni tiklashda keng qo‘llaniladi.

Kontent-tahlil (content analysis) ham alohida ahamiyatga ega: u matnli va grafik axborotning mazmunini rasmiylashtirilgan tarzda o‘rganishga, ijtimoiy tarmoqlar, forumlar va bloglarda jinoiy xarakterdagi ma’lumotlarni aniqlashga imkon beradi.

O‘zbekiston Respublikasining JPKsiga muvofiq, isbotlovchi ma’lumotlarni qayd qilish ko‘zdan kechirish tergov harakati chog‘ida bayonnoma shaklida amalga oshiriladi. JPKning 135–141-moddalari tergov harakatlari bayonnomalariga qo‘yiladigan umumiy talablarni belgilaydi: vaqt, joy, ishtirokchilar, qo‘llanilgan vositalar va aniqlangan holatlar majburiy aks ettirilishi kerak.

Internet-makonda dalillarni qayd qilishning asosiy shakllari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

a) hodisa sodir bo‘lgan joyini ko‘zdan kechirish bayonnomasi — tergov joyidagi kompyuter, mobil qurilma, Wi-Fi router, modem va boshqa texnik vositalarni tasvirlash; monitor ekranining chop etilgan nusxalari (skrinshotlar) hamda foto- va videoyozuv.

b) elektron axborot tashuvchilarni olib qo‘yish bayonnomasi — jinoiy ish bo‘yicha ahamiyatli bo‘lishi mumkin bo‘lgan barcha raqamli axborot tashuvchilarni (qattiq disklar, flesh-kartalar, optik disklar) tavsiflash.

v) tintuv bayonnomasi — gumonlanuvchi, ayblanuvchining yashash joyi, ish joyi yoki ofis, server xonalarini tintish davomida topilgan raqamli ashyoviy dalillarni aks ettirish.

g) telekommunikatsiya xizmatlari shartnomalari va xizmat koʻrsatish hisoblarini olib qoʻyish protokoli — internet-provayderlar va mobil aloqa operatorlaridan abonent ulanishlari protokollari, autentifikatsiya maʼlumotlari.

d) koʻzdan kechirish bayonnomasi — jinoiy ish materiallariga qoʻshilgan elektron manbalardan olingan maʼlumotlarni tadqiq etish va tasvirlash.

Tergov organi harakatlar algoritmida dastlab internet-resursni aniqlab, uni WHOIS xizmati orqali identifikatsiya qilishi zarur. Keyingi bosqichda domen-roʻyxatchiga va xosting-provayderga soʻrovnoma yuboriladi. Parallel ravishda internet-provayderdan aniq vaqt oraligʻi uchun log-fayllar talab etiladi. Jinoiy ish doirasida sud ajrimiga asosan aloqa kanallaridagi maʼlumotlar va elektron pochta xabarlari ham olinadi.

Oʻzbekiston Respublikasi JPKda tergov organi yoki sudning asoslangan qarori asosida aloqa operatorlari va xizmat koʻrsatuvchilardan abonent va ulanish maʼlumotlarini olish mexanizmi nazarda tutilgan. Bunda tergov organi asoslangan qaror qabul qilib, tegishli provayderga rasmiy soʻrovnoma yuborishi shart.

Kompyuter ekspertizasi (sud kompyuter-texnik ekspertizasi) internet tarmogʻi orqali sodir etilgan jinoyatlarni isbotlashning asosiy vositalaridan biri hisoblanadi. Ye.R.Rossinskaya va A.I.Usov taʼkidlaganidek, «kompyuter-texnik ekspertizasi axborot xavfsizligi bilan bo-lii jinoyat ishlaridagi isbotlash jarayonida oʻziga xos oʻrin tutadi» [8].

Kompyuter ekspertizasi doirasida quyidagi masalalar hal etiladi: kompyuter tizimida aniq vaqt oraligʻida qanday operatsiyalar bajarilganini aniqlash; oʻchirilgan maʼlumotlarni tiklash; xabarlar va fayllarning almashinuv tarixi va manbasini aniqlash; zararli dasturiy taʼminotning mavjudligini aniqlash va uning funksional tahlili; mualliflikni aniqlash (atributsiya).

Oʻzbekiston Respublikasida sud-kriminalistika ekspertizasini tashkil etish «Sud ekspertizasi toʻgʻrisida»gi Qonun (2010-yil 01-iyun) asosida amalga oshiriladi. JPKning 172-187-moddalari ekspertiza tayinlash, oʻtkazish va xulosani baholashning protsessual tartibini belgilaydi.

Tergov organi uchun ekspertiza tayinlashda quyidagi talablarga rioya etish zarur: ekspertizaga taqdim etiladigan obyektlarni (kompyuter, telefon, axborot tashuvchi va boshqalar) tegishli ravishda olib qo‘yish va muqovalash; dastlabki ko‘zdan kechirish mustaqil o‘tkazilmasligi, zero bu kompyuterni ishga tushirish ma’lumotlarni o‘zgartirishi yoki yo‘qotishi mumkinligi; ekspertga aniq va bir ma’noli savollar berish.

Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, tergov davomida texnik obyektlar bilan noto‘g‘ri muomala qilish natijasida daliliy ma’lumotlar yo‘qolishi yoki ishlatib bo‘lmas holatga tushishi mumkin. Masalan, kompyuterni olib qo‘yish davomida dastlab uni ishga tushirish, tezkor (operativ) xotiradagi ma’lumotlarni batamom o‘chirib tashlaydi. Shu boisdan xam tergov organi kriminalistik tadqiqotning texnik jihatlarini yaxshi tushunishi zarur.

Internet-resursni ko‘zdan kechirish — raqamli isbotlovchi ma’lumotlarni qayd qilishning eng muhim harakatlaridan biridir. Ushbu harakatni JPKning tegishli normalariga rioya etgan holda o‘tkazish zarur. Birinchi bosqichda tergov organi isbotlovchi ahamiyatga molik internet-resursni aniqlaydi va uning hozirgi holatini mustahkamlaydi. Resursning internet-manzili (URL), kirish sanasi va vaqti, tergov organining harakatlari batafsil ko‘zdan kechirish protokoliga yoziladi. Ikkinchi bosqichda resursni texnik identifikatsiya qilish maqsadida WHOIS xizmatidan foydalaniladi. Bu orqali domen egasi, ro‘yxatdan o‘tish sanasi, xosting-provayder va server joylashuvi to‘g‘risidagi ma’lumotlar olinadi. Uchinchi bosqichda qayd qilish amalga oshiriladi: ekran suratlari (skrinshotlar) olinadi, videoyozuv o‘tkaziladi, zarur holatda veb-arxivlash xizmatlari (masalan, web.archive.org) orqali resursni arxivlash vazifasi bajariladi. To‘rtinchi bosqichda tegishli organlarga — domen-ro‘yxatchiga, xosting-provayderga, ijtimoiy tarmoq moderatoriga — rasmiy so‘rovnomalar yuboriladi. Ushbu so‘rovnomalarda tergov organi jinoiy ish raqami va sanasini, so‘ralayotgan ma’lumotlar ro‘yxatini aniq ko‘rsatishi lozim. Beshinchi bosqichda aloqa operatori yoki bankdan ma’lumot olish zarur bo‘lsa, sud ajrimiga asoslangan tergov harakati yoki so‘rovnoma rasmiylashtiriladi. JPKning 169-171-

moddalariga koʻra, tergov organi sud ajrimi asosida aloqa sirini tashkil etuvchi maʼlumotlarga kirish huquqiga ega.

Alohida ahamiyatga ega masala — resurs oʻchirilgan yoki maʼlumotlar oʻzgartirilgan holatda. Bunda izlov tizimlar keshidan, “web.archive.org” xizmatidan yoki xosting-provayderning arxiv nusxalaridan foydalaniladi. Ushbu harakatlar ham bayonnomada aks ettirilishi shart.

Tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, tergov amaliyotida elektron-raqamli izlarni qayd qilishda tizimli xatolar uchrab turadi. Mazkur xatolarni tasniflash va ularning oldini olish tadbirlarini belgilash muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Birinchi guruh xatolar — protsessual xatolar: protokolda IP-manzil, vaqt belgisi, kirish usuli va boshqa texnik maʼlumotlarning toʻliq aks etmasligi; tergov harakatiga ixtisoslashgan mutaxassisni jalb etmaslik; sud sanksiyasisiz aloqa sirini tashkil etuvchi maʼlumotlarni olish — bunday holatda ushbu maʼlumotlar isbotlovchi kuchini yoʻqotadi.

Ikkinchi guruh xatolar — texnik xatolar: kompyuterni dastlabki ishga tushirish natijasida tezkor (operativ) xotiradagi maʼlumotlarni yoʻqotish; ashyoviy dalillarni tegishli ravishda qadoqlamaslik, bu kriminalistik maʼlumotlarning shikastlanishiga olib keladi; elektron tashuvchilarni magnit manbaʼlari yoniga joylashtirish.

Uchinchi guruh xatolar — metodik xatolar: IP-manzilni identifikatsiyalashda provayderga soʻrovnoma yubormaslik; maʼlumotlarning protsessual zanjirini (chain of custody) buzish, yaʼni ashyoviy dalillarni olish, saqlash va tekshirishning izchil hujjatlashmasligi.

Ushbu xatolarning oldini olish uchun tergov organi kompyuter kriminalistikasi boʻyicha ixtisoslashgan mutaxassis-kriminalistni jalb etishi, elektron axborot tashuvchilarni olib qoʻyishda «dead-box forensics» (ishlamayotgan kompyuterdagi maʼlumotlar tadqiqoti) tamoyillariga amal qilishi lozim. Oʻzbekiston Respublikasida ushbu sohadagi mutaxassislarni tayyorlash va malakasini oshirish masalasini Oʻzbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi, Ichki

ishlar vazirligi akademiyasi va al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari Universiteti bilan hamkorlikda rivojlantirish zarur.

Internet jinoyatlari koʻp hollarda transmilliy xarakter kasb etadi: jinoyatchi Oʻzbekistonda, jabrlanuvchi boshqa davlatda boʻlishi yoki aksincha boʻlishi mumkin. Bunday vaziyatda tergov va isbotlovchi ma’lumotlarni qayd qilish xalqaro huquqiy yordam mexanizmlarini faollashtirishni taqazzo etadi.

Oʻzbekiston Respublikasi MDH, SHHT va boshqa xalqaro tashkilotlar doirasidagi kiberjinoyatchilikka qarshi kurashish toʻgʻrisidagi kelishuvlar ishtirokchisidir. JPKning 66-bobida xalqaro huquqiy yordam masalalari tartibga solingan; raqamli dalillar mamlakat xuquq normalariga muvofiq toʻplangan va rasmiylashtirilgan holda boshqa davlatlar sud organlari tomonidan ham qabul qilinishi mumkin.

Xosting-provayder chet mamlakatda joylashgan holatda ma’lumot olish uchun davlatlararo ikki tomonlama yoki koʻptomonlama shartnomalar asosida yordam soʻrash maktublari (rogatory letters) yuboriladi. Shu boisdan tergov organi internet-resursning aniq joylashuvi va tegishli yurisdiksiyani dastlabki bosqichdayoq aniqlashi lozim.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalar chiqarildi.

Birinchidan, elektron-raqamli izlar — axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib sodir etilgan jinoyatlarni tergov qilishda asosiy kriminalistik obyekt boʻlib, ularni qayd qilish oʻziga xos texnik, protsessual va metodik talablarni nazarda tutadi.

Ikkinchidan, Oʻzbekiston Respublikasi JPKga 2024-yilda kiritilgan qoʻshimcha va oʻzgartirishlar raqamli dalillarni protsessual rasmiylashtirishga doir normalarni takomillashtirgan, elektron ma’lumotlarni mustaqil isbot turi sifatida mustahkamlagan. Biroq internet-makonda tergov harakatlarini oʻtkazishga doir batafsil metodik tavsiyalar ishlab chiqish zarurati mavjud.

Uchinchidan, internet-resurslardagi ma’lumotlarni qayd qilishda protsessual zanjir (chain of custody) prinsipiga qat’iy amal qilish, barcha harakatlarni bayonnomada batafsil aks ettirish va ixtisoslashgan mutaxassislarni jalb etish zarur.

Mazkur tadqiqot natijalariga asoslangan holda quyidagi takliflar beriladi:

1. O‘zbekiston Respublikasining Bosh prokuraturasi va Ichki ishlar vazirligi tomonidan «Internet tarmog‘i resurslarida saqlanayotgan isbotlovchi ma’lumotlarni qayd qilish bo‘yicha amaliy qo‘llanma» ishlab chiqilsin.

2. JPKning 172-187-moddalarini takomillashtirish orqali kompyuter kriminalistikasi ekspertizasi bo‘yicha aniq me’yoriy talablar belgilansin.

3. Tergov organlari uchun kompyuter kriminalistikasi bo‘yicha ixtisoslashgan malaka oshirish kurslari muntazam tarzda tashkil etilsin.

4. Kiberjinoyatlar to‘g‘risidagi Budapesht konvensiyasiga qo‘shilish masalasi maqsadga muvofiqligi nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqilsin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Белкин Р.С. Курс советской криминалистики. Частные криминалистические теории. 2-жилд. — Москва: Академия МВД СССР, 1978. — 95-б.

2. Мещеряков В.А. Преступления в сфере компьютерной информации: основы теории и практики расследования. — Воронеж: ВГУ, 2002. — 104-б.

3. Вехов В.Б. Основы криминалистического учения об исследовании и использовании компьютерной информации средств её обработки: монография. — Волгоград: ВА МВД России, 2008. — 94-б.

4. Ўзбекистон Республикасининг «Ахборотлаштириш тўғрисида»ги Қонуни. — 2003 йил 11 декабрь, № 560-II // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси. — 2003. — № 12. — 119-модда.

5. Лысов Н.Н. Фиксация доказательств в уголовном процессе: учебное пособие. 1-қисм. — Нижний Новгород, 1998. — 74-б.

6. Ўзбекистон Республикасининг «Электрон ҳужжат айланиши тўғрисида»ги Қонуни. — 2004 йил 29 апрель, № 562-II // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси. — 2004. — № 5. — 45-модда.

7. Аубакирова А.А. Фиксация доказательств в криминалистике и судопроизводстве: дис. … канд. юрид. фан.: 12.00.09. — Алматы: Қозоғистон Республикаси, 1999. — 29-б.

8. Россинская Е.Р., Усов А.И. Судебная компьютерно-техническая экспертиза. — Москва: Право и закон, 2001. — 14-б

Ro‘ziyeva Gulsanam Sultonmurodovna
O‘zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti Maxsus-kasbiy fanlar kafedrasi dotsenti, s.f.b.f.d., (PhD) podpolkovnik

RAQAMLI MAKONDA HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTIKASINI TASHKIL ETISHNING ZAMONAVIY VA SAMARALI MEXANIZMLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada raqamli makonda huquqbuzarliklar profilaktikasini tashkil etishning huquqiy va texnologik mexanizmlari, xususan, qonunchilik asosida vakolatli organlarning strategik vazifalari hamda muhim axborot infratuzilmasi ob’ektlarini himoya qilish masalalari tizimli tahlil qilinadi. Shu bilan birga, mahalla darajasida profilaktika inspektorlarining faoliyatini raqamlashtirish, sun’iy intellekt va Big Data texnologiyalari yordamida kiberjinoyatlarni prognoz qilish hamda aholining viktimologik himoyasini ta’minlashning zamonaviy istiqbollari ilmiy asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: kiberxavfsizlik, huquqbuzarliklar profilaktikasi, raqamli patrul, muhim axborot infratuzilmasi, sun’iy intellekt, Big Data, blokcheyn, kiberviktimologiya, raqamli mahalla.

СОВРЕМЕННЫЕ И ЭФФЕКТИВНЫЕ МЕХАНИЗМЫ ОРГАНИЗАЦИИ ПРОФИЛАКТИКИ ПРАВОНАРУШЕНИЙ В ЦИФРОВОМ ПРОСТРАНСТВЕ

Аннотация. В данной статье проводится системный анализ правовых и технологических механизмов organizatsii профилактики правонарушений в цифровом пространстве, в частности, стратегических задач компетентных органов на основе законодательства и вопросов защиты объектов критической informatsionной инфраструктуры. Наряду с этим, научно обоснованы современные перспективы цифровизatsii деятельности инспекторов профилактики на уровне махалли, прогнозирования киберпреступлений с помощью технологий искусственного интеллекта и Big Data, а также обеспечения виктимологической защиты населения.

Ключевые слова: кибербезопасность, профилактика правонарушений, цифровой патруль, критическая информatsionная инфраструктура, искусственный интеллект, Big Data, блокчейн, кибервиктимология, цифровая махалля.

MODERN AND EFFECTIVE MECHANISMS FOR ORGANIZING THE PREVENTION OF OFFENSES IN THE DIGITAL SPACE

Abstract. This article provides a systematic analysis of the legal and technological mechanisms for organizing crime prevention in the digital space, specifically focusing on the strategic tasks of competent authorities based on legislation and the issues of protecting critical information infrastructure objects. Furthermore, it scientifically substantiates modern prospects for digitalizing the activities of prevention inspectors at the mahalla level, forecasting cybercrimes using Artificial Intelligence and Big Data technologies, and ensuring the victimological protection of the population.

Keywords: cybersecurity, crime prevention, digital patrol, critical information infrastructure, artificial intelligence, Big Data, blockchain, cyber-victimology, digital mahalla.

Bugungi kunda axborot texnologiyalari inson hayotining ajralmas qismiga aylandi. Biroq, virtual makon kengaygani sari, kiberjinoyatchilikning yangi va murakkab turlari ham jadal rivojlanmoqda. So‘nggi yillarda dunyo miqyosida, xususan O‘zbekistonda ham bank kartalari va masofaviy xizmatlar bilan bog‘liq huquqbuzarliklar soni sezilarli darajada oshdi. Bu holat nafaqat iqtisodiy zarar yetkazadi, balki jamiyatning ijtimoiy va siyosiy barqarorligiga ham jiddiy xavf soladi. Endilikda an’anaviy profilaktika usullari raqamli tahdidlarga qarshi yetarli bo‘lmay qoldi. Shu bois, zamonaviy texnologiyalar, sun’iy intellekt va tizimli huquqiy mexanizmlarni qo‘llagan holda kibermakonda xavfsizlikni ta’minlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi.

Zamonaviy dunyoda axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi va jamiyat hayotining barcha sohalariga raqamli vositalarning kirib kelishi kibermakonda

xavfsizlikni ta’minlash masalasini davlat siyosatining eng ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylantirdi. O‘zbekiston Respublikasida bu sohadagi munosabatlarni tartibga soluvchi asosiy huquqiy poydevor sifatida O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 15-apreldagi «Kiberxavfsizlik to‘g‘risida»gi O‘RQ-764-sonli qonuni xizmat qilmoqda. Ushbu hujjat kibermakonda shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarini tashqi va ichki tahdidlardan himoya qilishning yaxlit tizimini yaratishga qaratilgan.

Kiberxavfsizlik sohasidagi yagona davlat siyosati bevosita O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan belgilanadi [1]. Bu esa sohaning strategik ahamiyati naqadar yuqori ekanligini va umumdavlat miqyosidagi boshqaruv tizimiga ega ekanligini anglatadi. Davlat va jamiyat boshqaruviga axborot-kommunikatsiya tizimlarini keng joriy etish ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirishning muhim shartidir. Raqamli transformatsiya jarayoni nafaqat qulaylik yaratadi, balki davlatning boshqaruv funksiyalarini himoya qilish bo‘yicha yangi mas’uliyat yuklaydi. Demak, kiberxavfsizlik raqamli iqtisodiyotning xavfsizlik kamari bo‘lib, usiz barqaror rivojlanishga erishib bo‘lmaydi.

«Kiberxavfsizlik to‘g‘risida»gi qonunga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati kiberxavfsizlik sohasidagi vakolatli davlat organi sifatida belgilangan. Vakolatli organ sifatida ushbu tuzilma sohadagi normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish, kiberxavfsizlik hodisalari yuzasidan tezkor-qidiruv tadbirlarini o‘tkazish va kiberhujumlarning oldini olish kabi keng qamrovli vazifalarni bajaradi.

Tadqiqotlarga ko‘ra, huquqni muhofaza qilish organlari kiberjinoyatchilikning dinamik o‘sishiga mos ravishda o‘z usullari va vositalarini muntazam takomillashtirib borishlari lozim [2]. Darhaqiqat, kibertahdidlarning transchegaraviy va o‘ta o‘zgaruvchan tabiati vakolatli organlardan nafaqat kuzatuvchi, balki texnologik jihatdan bir qadam oldinda bo‘luvchi islohotchi rolini talab qiladi. Bundan ko‘rinadiki, Davlat xavfsizlik xizmatining vakolatlari faqat ma’muriy nazorat bilan cheklanmay, sohaning ilmiy-texnik rivojini belgilab beruvchi strategik markaz vazifasini ham o‘taydi.

Davlat siyosatining yana bir muhim jihati bu kiberxavfsizlik tizimini yaratishda mahalliy ishlab chiqaruvchilar ishtirokining ustuvorligidir. O‘zbekiston Respublikasining «Kiberxavfsizlik to‘g‘risida»gi qonunining 8-moddasida davlat organlari uchun tovar va xizmatlar xarid qilishda mahalliy mahsulotlarga ustuvorlik berilishi mustahkamlab qo‘yilgan. A.A. Gadjiyevaning ilmiy qarashlariga ko‘ra, kiberjinoyatchilikka qarshi kurashda jinoiy-huquqiy instrumentlardan samarali foydalanish va qonunchilikdagi bo‘shliqlarni to‘ldirish lozim[3]. Bundan xulosa qilish mumkinki, texnologik suverenitetga erishish va mahalliy dasturiy ta’minotlarni qo‘llab-quvvatlash kiberxavfsizlikning huquqiy himoyasi bilan uyg‘unlashishi kerak. Tashqi texnologik bog‘liqlikni kamaytirish davlatning raqamli barqarorligini ta’minlashning eng samarali yo‘lidir.

Milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga moslashtirish masalasi ham strategik ahamiyatga ega. Qonunchilikda O‘zbekiston Respublikasining kiberxavfsizlikni ta’minlashda xalqaro hamkorlik uchun ochiqligi prinsipi alohida qayd etilgan [4]. Tadqiqotlar ham shuni ko‘rsatadiki, jahon kiberjinoyat indeksida (WCI) mamlakatlarning o‘rnini o‘rganish va xorijiy tajriba asosida qonunchilikni doimiy takomillashtirib borish zarur [5]. Demak, milliy xavfsizlikni ta’minlashda faqat ichki resurslarga tayanish kifoya emas, xalqaro axborot almashinuvi va global kiberxavfsizlik standartlariga integratsiyalashuv davr talabidir.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining 2014-yil 14-maydagi «Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida»gi O‘RQ-371-sonli qonuni kibermakondagi huquqbuzarliklarning oldini olishda boshqa davlat organlari, jumladan Ichki ishlar vazirligi va boshqa tuzilmalarning ham o‘zaro hamkorlik qilishini nazarda tutadi [6]. Profilaktika inspektorlarining raqamli jinoyatlarni aniqlashdagi roli jamiyatda kiber-madaniyatni shakllantirish bilan bevosita bog‘liq. Kiberxavfsizlikning huquqiy mexanizmi nafaqat yuqori texnologik himoyani, balki quyi bo‘g‘indagi ijrochilarning huquqiy va raqamli savodxonligini ham ta’minlashi shart.

Kiberxavfsizlik sohasidagi huquqiy islohotlar faqatgina bitta qonun bilan cheklanib qolmay, barcha davlat idoralarining tizimli hamkorligini va milliy

manfaatlarni xalqaro me’yorlar bilan uyg‘unlashtirishni taqozo etadi. Davlat siyosatining qat’iy belgilangani esa raqamli kelajakning ishonchli himoyasini kafolatlaydi.

Zamonaviy raqamli makonda davlatning barqarorligi bevosita muhim strategik va ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega bo‘lgan tizimlarning himoyalanganlik darajasiga bog‘liq. Qonunchilik hujjatlarida muhim axborot infratuzilmasi tushunchasiga aniq ta’rif berilgan bo‘lib, u davlat boshqaruvi, mudofaa, bank-moliya, energetika va sog‘liqni saqlash kabi hayotiy muhim sohalarda qo‘llaniladigan axborot tizimlari majmuini anglatadi [7].

Ushbu tizimlarni himoya qilishning birinchi va eng muhim bosqichi ularni toifalash hisoblanadi. Muhim axborot infratuzilmasi ob’ektlari o‘z ahamiyatiga ko‘ra yuqori, o‘rta va past darajadagi toifalarga bo‘linadi. Vakolatli davlat organi ushbu ob’ektlarni toifalash mezonlarini belgilaydi va ularning haqqoniyligini tekshiradi. R.R. Alimovaning fikricha, axborot tizimlarini muhimlik darajasiga ko‘ra ajratish resurslarni to‘g‘ri taqsimlash va eng zaif nuqtalarga e’tibor qaratish imkonini beradi[8] Darhaqiqat, barcha tizimlarni bir xil darajada himoya qilish iqtisodiy jihatdan samarasiz bo‘lishi mumkin. Demak, toifalash mexanizmi xavfsizlikni tizimli va manzilli tashkil etishning poydevori bo‘lib xizmat qiladi.

Toifalash jarayoni yakunlangach, ob’ektlar Muhim axborot infratuzilmasi ob’ektlarining yagona reestriga kiritiladi. Ushbu reestr vakolatli davlat organi tomonidan yuritiladi va undagi ma’lumotlar doimiy ravishda yangilab boriladi. Ilmiy tadqiqotlarga ko‘ra, yagona reestrning mavjudligi davlat miqyosidagi kibertahdidlarni monitoring qilish va ularga tezkor javob qaytarish uchun markazlashgan ma’lumotlar bazasini yaratadi [9]. Bundan kelib chiqadiki, reestr nafaqat ro‘yxatga olish vositasi, balki milliy kiberhimoya tizimining xaritasi vazifasini ham bajaradi. Bu esa inqirozli vaziyatlarda qaysi ob’ektlarga birinchi navbatda yordam berish zarurligini aniqlash imkonini beradi.

Kiberhimoyaning tashkiliy mexanizmida texnik vositalarni majburiy sertifikatlash alohida o‘rin tutadi. Qonunchilikka binoan, muhim axborot infratuzilmasi ob’ektlarida qo‘llaniladigan apparat va dasturiy vositalar majburiy

tartibda sertifikatlashtirilishi shart [10]. Sertifikatlanmagan yoki xorijiy maxfiy imkoniyatlari bo‘lgan qurilmalardan foydalanish texnologik tuzoqqa aylanishi mumkin. Shubhasiz, texnik vositalarning xavfsizlik talablariga muvofiqligini tekshirish tizimning ichki zaifliklarini minimallashtiradi. Demak, sertifikatlash jarayoni tizimga begona va zararli elementlar kirib qolishining oldini oluvchi filtr vazifasini o‘taydi.

Kiberaudit va attestatsiya tizimi esa ob’ektning amaldagi himoyalanganlik holatini baholashning tashkiliy mexanizmidir. Muhim axborot infratuzilmasi ob’ektlari muntazam ravishda kiberxavfsizlik talablariga muvofiqlik yuzasidan ekspertiza va attestatsiyadan o‘tkazilishi lozim. A.A. Gadjiyevaning fikricha, kiberaudit jarayoni faqatgina texnik ko‘rik emas, balki tizimdagi tashkiliy choralarning samaradorligini sinovdan o‘tkazishdir [11]. Demak, texnik ko‘rsatkichlar qanchalik yuqori bo‘lmasin, ularni boshqaruvchi personalning malakasi va ichki siyosatning sifati muhim ahamiyatga ega. Bundan xulosa qilish mumkinki, muntazam baholash va attestatsiya tizimi muhim axborot infratuzilmasi ob’ektlarini doimiy ravishda takomillashib borishga va yangi turdagi tahdidlarga tayyor turishga undaydi.

Muhim axborot infratuzilmasi ob’ektlarini toifalash, reestrga kiritish va texnik vositalarni sertifikatlash milliy kiberxavfsizlikning tashkiliy asosini tashkil etadi. Ushbu mexanizmlarning izchil amal qilishi davlatning muhim tizimlarini tashqi va ichki raqamli tajovuzlardan himoya qilishda yuqori samaradorlikni ta’minlaydi.

Zamonaviy texnologiyalarning jamiyat hayotiga chuqur kirib borishi huquqni muhofaza qilish organlari, xususan, profilaktika inspektorlari zimmasiga yangi vazifalarni yuklamoqda. O‘zbekiston Respublikasining 2014-yil 14-maydagi «Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida»gi O‘RQ-371-sonli qonuniga muvofiq, ichki ishlar organlari huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi asosiy bo‘g‘in hisoblanadi. Bugungi kunda ushbu faoliyatning eng muhim yo‘nalishi – «raqamli mahalla» konsepsiyasini joriy etish va profilaktika inspektorlarini kibermakondagi o‘ziga xos patrulga aylantirishdir.

Profilaktika inspektorlarining aholi bilan ishlashdagi roli endilikda faqat bevosita muloqot bilan cheklanmaydi. Tadqiqotlarga asosan, kiberjinoyatchilikning oldini olishda profilaktika inspektorlari nafaqat jismoniy joylarda, balki virtual muhitda ham faol ishtirok etishlari zarur [12]. Demak, inspektorning o‘z mahallasidagi ijtimoiy tarmoq guruhlarida bo‘lishi va aholi bilan elektron aloqa tizimlari orqali muloqot qilishi zamonaviy profilaktikaning ajralmas qismidir. Bundan kelib chiqadiki, «mahallabay» ishlash tizimi raqamli makonga ko‘chishi kerak, chunki aksariyat firibgarlik va boshqa jinoyatlar aynan shu yerda boshlanadi.

Hududiy dasturlarni raqamlashtirish profilaktika tizimining samaradorligini oshiruvchi asosiy omildir. Qonunchilikda mahalliy davlat hokimiyati organlariga huquqbuzarliklar profilaktikasi bo‘yicha hududiy dasturlarni tasdiqlash vakolati berilgan [13]. Kiberxavfsizlikni ta’minlashda huquqni muhofaza qilish tizimini raqamlashtirish, xususan, mahalla darajasidagi ma’lumotlar bazalarini yagona tizimga integratsiya qilish zarur. Shubhasiz, raqamlashtirilgan hududiy dasturlar profilaktika inspektoriga o‘z hududidagi kriminogen vaziyatni masofadan tahlil qilish va potensial xavflarni barvaqt aniqlash imkonini beradi. Demak, raqamli patrul – bu faqat texnik vosita emas, balki ma’lumotlarga asoslangan strategik boshqaruv usulidir.

Kiberviktimologiya, ya’ni fuqarolarning kiberjinoyat jabrlanuvchisiga aylanib qolishining oldini olish choralari bugungi kunda eng dolzarb masaladir. «Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida»gi qonunning 44-moddasida viktimologik profilaktika chora-tadbirlari sifatida aholiga nizolarni hal etish usullarini o‘rgatish va jabrlanuvchilarni himoya qilish belgilangan. T. Mirzoevning ta’kidlashicha, kiberjinoyatlarning oldini olish strategiyalarida aholining raqamli savodxonligini oshirish va kibergigiena qoidalarini singdirish markaziy o‘rin tutishi lozim[14]. Darhaqiqat, aksariyat fuqarolar oddiy xavfsizlik qoidalarini bilmasligi tufayli firibgarlar tuzog‘iga tushmoqda. Demak, profilaktika inspektori har bir xonadonda bank kartasi kodini kimgadir berish – bu uy kalitini o‘g‘riga berish bilan teng ekanligini tushuntirishi shart. Bundan ko‘rinadiki, viktimologik profilaktika bu kibermakondagi eng mustahkam qalqondir.

«Raqamli mahalla» konsepsiyasini joriy etish esa barcha yuqoridagi elementlarni birlashtiradi. Tadqiqotlarga koʻra, profilaktika inspektorlari faoliyatidagi yangi yondashuvlar zamonaviy axborot tizimlaridan foydalangan holda aholi xavfsizligini kafolatlashi lozim [15]. Oʻzbekiston Respublikasining 2016-yil 16-sentabrdagi «Ichki ishlar organlari toʻgʻrisida»gi OʻRQ-407-sonli qonuni va Oʻzbekiston Respublikasining 2022-yil 15-apreldagi «Kiberxavfsizlik toʻgʻrisida»gi OʻRQ-764-sonli qonuni doirasida profilaktika inspektorlarining vakolatli organlar bilan kibertahdidlar boʻyicha axborot almashishi yoʻlga qoʻyilishi kerak. Profilaktika inspektorining faoliyati nafaqat mahalla koʻchalarida, balki raqamli makonda ham izchil davom etishi shart. Faqatgina «raqamli patrul» tizimi va viktimologik profilaktika choralarining uygʻunligi fuqarolarni zamonaviy kibertahdidlardan ishonchli himoya qila olishi mumkin.

Zamonaviy kibertahdidlarning murakkablashib borishi huquqni muhofaza qilish organlaridan nafaqat an’anaviy usullarni, balki eng ilgʻor innovatsion texnologiyalarni qoʻllashni taqozo etmoqda. Oʻzbekiston Respublikasining «Kiberxavfsizlik toʻgʻrisida»gi qonunida kiberxavfsizlikni ta’minlashda yagona davlat tizimini joriy etish va zamonaviy texnik vositalardan foydalanish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Bugungi kunda sun’iy intellekt (AI), katta ma’lumotlar (Big Data) va blokcheyn texnologiyalari kiberjinoyatchilikka qarshi kurashning asosiy vositalariga aylanib bormoqda.

Sun’iy intellekt yordamida axborot oqimlarini monitoring qilish va kiberhujumlarni oldindan prognoz qilish tizimning proaktiv himoyasini ta’minlaydi. A. Eshqobilov va F.T. Gʻaniyevlarning fikricha, sun’iy intellekt va katta ma’lumotlarni tahlil qilish vositalari yordamida kiberjinoyatchilarni aniqlash va ularning harakatlarini oldindan bashorat qilish mumkin [16]. Darhaqiqat, AI algoritmlari tarmoqdagi millionlab tranzaksiyalar va ma’lumotlar almashinuvini soniyalar ichida tahlil qilib, shubhali faollikni inson aralashuvisiz aniqlash imkoniga ega. Demak, sun’iy intellekt nafaqat hujumni qaytarish, balki uning yuzaga kelish ehtimolini minimallashtirishda ham beqiyos ahamiyat kasb etadi. Bundan kelib

chiqadiki, kelajakda kiberxavfsizlik tizimi to‘liq avtonom ravishda o‘zini o‘zi himoya qiladigan intellektual mexanizmga aylanadi.

Big Data texnologiyasi esa kiberjinoyatchilik tendensiyalarini tahlil qilishda keng imkoniyatlar ochadi. Ilmiy tadqiqotlarga ko‘ra, katta ma’lumotlar yordamida profilaktika inspektorlari va vakolatli organlar kiberjinoyatlarning dinamikasini kuzatish va kelgusida sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan huquqbuzarliklarni prognoz qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar[17]. Kibermakonda axborotni to‘plash va tahlil qilish jarayoni jinoyatlarni sodir etish sabablarini chuqurroq o‘rganishga xizmat qiladi. Shubhasiz, katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilish orqali jinoyatchilarning raqamli izlarini topish va ularning sxemalarini fosh etish ancha osonlashadi. Demak, Big Data bu faqat statistik to‘plam emas, balki kiberjinoyatchilikka qarshi kurashning strategik razvedka vositasidir.

Blokcheyn texnologiyasini xavfsizlik tizimiga integratsiya qilish esa ma’lumotlarning yaxlitligi va o‘zgarmasligini ta’minlashning eng istiqbolli yo‘lidir. R.R. Alimovaning ta’kidlashicha, kibertahdidlarga qarshi turishda blokcheyn texnologiyasidan keng foydalanish zarur. Blokcheynning markazlashtirilmagan tabiati ma’lumotlarni soxtalashtirish yoki ruxsatsiz o‘zgartirish imkonini deyarli yo‘qqa chiqaradi[18]. Fikrimizcha, blokcheyn texnologiyasini davlat reestrlari va muhim axborot infratuzilmasi ob’ektlariga joriy etish inson omili bilan bog‘liq xavflarni keskin kamaytiradi. Zero, blokcheyn zanjiridagi ma’lumotni buzish uchun butun tizimni ishdan chiqarish talab etiladi, bu esa kiberjinoyatchilar uchun texnik jihatdan imkonsizdir.

Shu bilan birga, innovatsion texnologiyalarni joriy etishda kadrlar salohiyatini rivojlantirish ham muhimdir. O‘zbekiston Respublikasining «Kiberxavfsizlik to‘g‘risida»gi qonunining 32-moddasida kiberxavfsizlik sohasida ilg‘or texnologiyalarni joriy etish va kadrlar tayyorlashga ko‘maklashish davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi belgilangan. Huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarining AI va Big Data vositalari bilan ishlash ko‘nikmalarini oshirish kiberjinoyatchilardan bir qadam oldinda bo‘lishning asosiy shartidir. Demak, texnologiya qanchalik mukammal bo‘lmasin, uni boshqaruvchi mutaxassisning

malakasi hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lib qolaveradi. Sun’iy intellekt, Big Data va blokcheyn texnologiyalarining uyg‘unlikda qo‘llanilishi O‘zbekistonning raqamli suverenitetini yangi bosqichga olib chiqadi. Bu istiqbolli mexanizmlar nafaqat kibermakondagi huquqbuzarliklarni aniqlash, balki ularni ildizi bilan bartaraf etish uchun mustahkam texnologik zamin yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, raqamli makonda huquqbuzarliklar profilaktikasini tashkil etish kompleks yondashuvni talab qiladigan ko‘p qirrali jarayondir. Mustahkam huquqiy asoslarning yaratilishi, muhim axborot infratuzilmasi ob’ektlarining toifalanishi va Davlat xavfsizlik xizmatining muvofiqlashtiruvchi roli ushbu tizimning poydevorini tashkil etadi. Shu bilan birga, mahalla darajasida profilaktika inspektorlarining «raqamli patrul» sifatidagi faoliyati va aholining viktimologik himoyasi jinoyatchilikning oldini olishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Sun’iy intellekt, Big Data va blokcheyn kabi innovatsion texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etish esa tahdidlarni barvaqt aniqlash va texnik suverenitetni ta’minlash imkonini beradi. Faqatgina zamonaviy texnologiyalar, malakali kadrlar va xalqaro hamkorlikning uyg‘unligi O‘zbekistonning kibermakondagi xavfsizligini yangi bosqichga olib chiqishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 15-apreldagi "Kiberxavfsizlik to‘g‘risida"gi O‘RQ-764-sonli qonuni 10-moddasi
2. Усачев С. И., Алиев Т. Ф. Киберпреступност: современное состояние и актуалные способы противодействия // Искусство правоведения. The art of law. 2023. №1 (5).
3. Гаджиева Айша Ансаровна Современная киберпреступност и проблемы ее профилактики // Проблемы экономики и юридической практики. 2023. №2.
4. O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 15-apreldagi "Kiberxavfsizlik to‘g‘risida"gi O‘RQ-764-sonli qonuni 9-moddasi
5. Shokirov Bekzod Sherzod O‘g‘li Kiberjinoyatchilik sohasidagi jinoyatlar uchun javobgarlikni takomillashtirish // EJLFAS. 2024. №6.
6. O‘zbekiston Respublikasining 2014 yil 14 maydagi "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida"gi O‘RQ-371-sonli qonuni
7. O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 15-apreldagi "Kiberxavfsizlik to‘g‘risida"gi O‘RQ-764-sonli qonuni 3-moddasi
8. Рената Равилевна Алимова Борба с киберпреступностью в Республике Узбекистан. Киберпреступност как вид мошенничества // CARJIS. 2022. №2.
9. Осипенко А. Л. Об участии органов внутренних дел в системе обеспечения кибербезопасности Российской Федерации // Общество и право. 2018. No 3 (65). С. 35–43.
10. O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 15-apreldagi "Kiberxavfsizlik to‘g‘risida"gi O‘RQ-764-sonli qonunining 19-moddasi

11. Гаджиева Айша Ансаровна Современная киберпреступност и проблемы ее профилактики // Проблемы экономики и юридической практики. 2023. №2.
12. Abdulla Eshqobilov, Farrux G‘aniyev Profilaktika inspektorlarining kiberjinoyatchilikni oldini olish faoliyati // CAJMRMS. 2025. №6.
13. O‘zbekiston Respublikasining 2014-yil 14-maydagi "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida"gi O‘RQ-371-sonli qonunining 8-moddasi
14. Mirzoyev T. "Kiberjinoyatchilik va uning oldini olish strategiyalari". — Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va huquq instituti nashriyoti, 2021.
15. Mustafaev R. "Profilaktika inspektorlari va ularning faoliyatidagi yangi yondashuvlar". — Тошкент: Ўзбекистон Республикаси ИИВ академияси нашриёти, 2022.
16. Abdulla Eshqobilov, Farrux G‘aniyev Profilaktika inspektorlarining kiberjinoyatchilikni oldini olish faoliyati // CAJMRMS. 2025. №6.
17. Гаджиева Айша Ансаровна Современная киберпреступност и проблемы ее профилактики // Проблемы экономики и юридической практики. 2023. №2.

Pulatov Bekzod Adilbayevich
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti mustaqil izlanuvchisi

JINOYAT QONUNCHILIGIDA BLANKET NORMALAR SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHINING TARIXIY-HUQUQIY TAHLILI

Annotatsiya: Maqolada O‘zbekiston jinoyat qonunchiligi rivojlanish tarixida blanket normalar shakllanishining retrospektiv tahlili bayon etilgan. Muallif jinoyat-huquqiy normalarni tuzishda blanket usulining paydo bo‘lishini iqtisodiy munosabatlarning murakkablashuvi va huquqiy fikr taraqqiyoti bilan bog‘laydi. Tadqiqotda 1845-yildagi Nizom, 1922, 1926 va 1960-yillardagi Jinoyat kodekslari hamda mustaqillik davri qonunchiligi qiyosiy o‘rganilgan. Blanket normalarni qo‘llashdagi qonunchilik texnikasi usullari va hozirgi kundagi mavjud muammolar (normativ hujjatlarning beqarorligi, talqin qilishdagi qiyinchiliklar) tahlil qilinib, ularni takomillashtirish bo‘yicha takliflar ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: Jinoyat qonunchiligi, blanket norma, retrospektiv tahlil, qonunchilik texnikasi, dispozitsiya, iqtisodiy jinoyatlar, tarixiy rivojlanish, huquqiy vorisiylik.

ИСТОРИКО-ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ ФОРМИРОВАНИЯ И РАЗВИТИЯ БЛАНКЕТНЫХ НОРМ В УГОЛОВНОМ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВЕ

Аннотация: В статье представлен ретроспективный анализ формирования бланкетных норм в истории развития уголовного законодательства Узбекистана. Автор связывает появление бланкетного способа конструирования уголовно-правовых норм с усложнением экономических отношений и прогрессом правовой мысли. В исследовании сравниваются Уложение 1845 года, Уголовные кодексы 1922, 1926 и 1960 годов, а также законодательство периода независимости. Анализируются методы законодательной техники применения бланкетных норм и современные проблемы (нестабильность нормативных актов, трудности толкования), выдвигаются предложения по их совершенствованию.

Ключевые слова: Уголовное законодательство, бланкетная норма, ретроспективный анализ, законодательная техника, диспозиция, экономические преступления, историческое развитие, правопреемственность.

HISTORICAL AND LEGAL ANALYSIS OF THE FORMATION AND DEVELOPMENT OF BLANKET NORMS IN CRIMINAL LEGISLATION

Abstract: The article presents a retrospective analysis of the formation of blanket norms in the history of the development of the criminal legislation of Uzbekistan. The author links the emergence of the blanket method of constructing criminal legal norms with the growing complexity of economic relations and the progress of legal thought. The study provides a comparative analysis of the Code of 1845, the Criminal Codes of 1922, 1926, and 1960, as well as the legislation of the independence period. The methods of legislative technique in applying blanket norms and current challenges (instability of regulatory acts, interpretation difficulties) are analyzed, and suggestions for their improvement are put forward.

Keywords: Criminal legislation, blanket norm, retrospective analysis, legislative technique, disposition, economic crimes, historical development, legal succession.

Blanket normalarning paydo bo‘lishi va taqiqni kazuistik usulda shakllantirishdan voz kechish iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishi, jamiyat

tuzilmasining differensiatsiyasi, davlat tuzilishi shaklining o‘zgarishi va qonunchilik tizimining murakkablashuvi, sanoat inqilobining ta’siri va huquqiy fikr taraqqiyoti bilan bog‘liq. Biz buni quyidagi davrlarga bo‘lgan xolda ko‘rib chiqamiz. Sovet jinoyat qonunchiligida (1917-1922 yillar) taqiqni qurishning blanket usuli keng qo‘llanilmagan. U bir qator normativ-huquqiy hujjatlarda boshqa sohaga oid so‘zlardan foydalanish yoki Sovet hokimiyati dekretlari bilan belgilangan qoidalar va cheklovlarga havolalar shaklida uchraydi.

RSFSR Jinoyat kodekslari (1922 va 1926 yillar) matnlarining tahlili boshqaruv tartibiga qarshi, mansabdorlik, xo‘jalik, mulkiy, harbiy jinoyatlar, tabiatni muhofaza qilish, xalq salomatligi, jamoat xavfsizligi va tartibi qoidalarini buzishga qarshi jinoyatlar tarkibini shakllantirishda blanket normalardan foydalanishda muayyan tendensiyani aniqladi. Bunda ikkala kodeksda ham blanket tarzda tasvirlangan jinoyatlar tarkibi soni deyarli bir xil bo‘lgan: RSFSR Jinoyat kodeksining 1922 yilgi va 1926 yilgi dastlabki tahrirlarida mos ravishda 98 va 94 ta.

Birinchi jinoyat kodekslarida blanketlik qoidalarni, ruxsatnomalarni, normativ aktlar tomonidan yuklatilgan mansab yoki boshqa majburiyatlarni buzish yoki bajarmaslikka havolalarda, alohida jinoyat tarkiblarini tavsiflovchi va boshqa qonunchilik sohalariga murojaat etishni talab qiluvchi atamalarni (“shartnoma”, "mansabdor shaxs" tushunchalari) qo‘llashda, harakatlarning noqonuniyligini ko‘rsatishda namoyon bo‘ladi.

RSFSR Jinoyat kodeksining 1960 yilgi tahririda blanket dispozitsiyalar soni 115 taga yetgan, bu umumiy jinoiylashgan harakatlar sonining ortishi fonida, asosan, xo‘jalik jinoyatlari va jamoat xavfsizligi, jamoat tartibi va aholi salomatligiga qarshi jinoyatlar hisobiga amalga oshgan.

Fikrimizcha, RSFSR Jinoyat kodeksining 1922 yilgi, keyinchalik barcha keyingi tahrirlari matnlarining tahlili qonun chiqaruvchi tomonidan kodifikatsiya qilingan aktlarda blanket normalardan “ongli ravishda” foydalanilganligini ko‘rsatadi. Bu “onglilik”, birinchi navbatda, Maxsus qismda tasvirlangan blanket normalar va jinoiylashgan harakatlarning umumiy sonining proporsional nisbatda taxminan teng qo‘llanilishida namoyon bo‘ladi.

Blanketli dispozitsiyadan foydalanish faqat jinoyat qonunini tuzishning bunday shakli tasodifiy xususiyatga ega bo‘lmay, balki tarixiy istiqbolga ega bo‘lgan taqdirdagina amaliy ahamiyat kasb etadi [1]. N.I.Pikurovning nuqtayi nazariga qo‘shilib, O‘zbekiston jinoyat qonunchiligida blanket dispozitsiyalarning paydo bo‘lishi va rivojlanishining tarixiy qonuniyatlarini ko‘rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Shuni ta’kidlash joizki, qonunchilik texnikasi usuli sifatida blanket dispozitsiyadan foydalanish Qadimgi Rus huquqi (IX-XII asrlar), feodal tarqoqlik davridagi Rus huquqi (XII-XIV asrlar) va Rus markazlashgan davlatining shakllanish davrida (XIV asrning ikkinchi yarmi - XVI asrning birinchi yarmi) xos bo‘lmagan. Bu holat huquq tizimining yetarli darajada rivojlanmaganligi, shuningdek, ijtimoiy munosabatlarning kamligi va soddaligi bilan izohlanadi. Bunday munosabatlarni huquqiy tartibga solish atigi bitta yoki bir nechta normativ-huquqiy hujjatlar bilan amalga oshirilgan.

Qonun chiqaruvchi blanket dispozitsiyalardan foydalanishga uringan Jinoyat huquqining ilk manbasi sifatida 1775-yildagi Pyotr I ning Harbiy artikulini ko‘rsatish mumkin (masalan, 35-modda). Biroq, ularning qo‘llanilishi ko‘p jihatdan tasodifiy xususiyatga ega edi. Shu sababli, mazkur normativ hujjat qonun chiqaruvchining jinoyat-huquqiy normalarni tuzishda blanket dispozitsiyadan foydalanish to‘g‘risidagi maqsadli qaroridan dalolat bermaydi.

O‘zbekiston jinoyat qonunchiligida qonunchilik texnikasining asosiy usullaridan biri bo‘lgan blanket dispozitsiyasining paydo bo‘lishi XIX asrning ikkinchi yarmiga to‘g‘ri keladi. Bu davr yangi iqtisodiy (burjua) huquqiy munosabatlar tartibini belgilovchi ko‘plab nizomlarning vujudga kelishi bilan xarakterlanadi. Shu sababli, qonun chiqaruvchida blanket dispozitsiyasidan foydalanish zarurati tug‘ildi. Uning mohiyati shundan iborat ediki, jinoyat qonunida (1845-yilgi Jinoiy va axloq tuzatish jazolari to‘g‘risidagi Nizom, bundan keyin - Nizom) faqat biron-bir nizomda mustahkamlangan qoidalarning umumiy nomi va ularni buzganlik uchun jazo ko‘rsatilgan edi. Xususan, Nizomning Maxsus qismi boblarga bo‘lingan 11 bo‘limdan iborat edi. Blanket dispozitsiyali normalarning

mutlaq ko‘pchiligi "Xazina mulki va daromadlariga qarshi jinoyatlar va huquqbuzarliklar to‘g‘risida"gi VII bo‘limda hamda "Jamoat obodonchiligi va tartibiga qarshi jinoyatlar va huquqbuzarliklar to‘g‘risida"gi VIII bo‘limda joylashgan edi.

VII bo‘lim quyidagi boblarni o‘z ichiga olgan: "Tanga ustavlarining buzilishi haqida" (II bob), "Gerbli qog‘oz ustavlarining buzilishi haqida" (III bob), "Kon ustavlarining buzilishi haqida" (IV bob), "Tuz ustavlarining buzilishi haqida" (V bob), "Ichimlik yig‘imi va aksiz bo‘yicha qoidalarning buzilishi haqida" (VI bob), "Bojxona ustavlarining buzilishi haqida" (VIII bob), "Davlat o‘rmonlari ustavlarining buzilishi haqida" (IX bob, VII bo‘lim). Masalan, Qonunlar to‘plami oltin, kumush yoki platina konlarini ishlatish uchun ruxsat guvohnomalarini olishda, qonunga ko‘ra bunday guvohnomalarni berishga to‘sqinlik qiladigan sabablarni yashirganlik uchun javobgarlikni belgilagan (593-modda).

Biroq biz o‘rgangan blanket dispozitsiyali jinoyat-huquqiy normalarning eng ko‘p qismi VIII bo‘limda joylashgan bo‘lib, u quyidagi boblarni o‘z ichiga olgan: "Xalq salomatligini muhofaza qiluvchi qarorlarga qarshi jinoyatlar va huquqbuzarliklar to‘g‘risida" (I bob), "Xalq oziq-ovqat ta’minotiga oid qarorlarni buzish to‘g‘risida" (II bob), "Shahar va qishloqlarda obodonlashtirish va xo‘jalik qoidalarini buzish to‘g‘risida" (VII bob), "Qurilish ustavi qoidalarini buzish to‘g‘risida" (VIII bob), "Kredit to‘g‘risidagi qarorlarni buzish haqida" (XII bob), "Savdo ustavlarini buzish to‘g‘risida" (XIII bob), "Fabrika, zavod va hunarmandchilik sanoati ustavlarini buzish to‘g‘risida" (XIV bob) va boshqalar. Xususan, mansabdor shaxslarning zahira omborlarida yoki maxsus qurilgan o‘ralarda, yoxud g‘aramlarda mavjud qoidalarga muvofiq yetarli miqdorda g‘alla bo‘lmaganligi uchun javobgarligi belgilangan edi (901-modda). Hukumatning ruxsatisiz yoki qonunda belgilangan qoidalarga rioya qilmasdan xususiy bank ochish jinoiy jazo hisoblanardi (1152-modda). T.Yu. Pogosyanning ta’kidlashicha, "amaliyotda ko‘pincha XIII bob qoidalari qo‘llanilgan bo‘lib, unda tegishli ravishda savdo huquqiga oid qarorlar, savdo yuritish qoidalari, savdo jamiyatlari, shirkatlar va kompaniyalar to‘g‘risidagi qarorlar, savdo muassasalari ustavlarining buzilishi

haqida so‘z yuritilgan". Masalan, 1169-moddada qonunga ko‘ra bunga huquqi bo‘lmagan shaxslarning savdo faoliyati yuritganligi uchun javobgarlik belgilangan edi. XIV bob esa, o‘z navbatida, tegishli ruxsatnomasiz turli zavodlar, fabrikalar va manufakturalar tashkil etishni jinoiy harakat deb topgan (1346-1351-moddalar).

Shunday qilib, Nizomning ko‘rib chiqilgan bo‘limlarida belgilangan jinoyatlarning obyektiv tomoniga xos aniq belgilarni faqat tegishli ustavlar, qoidalar va qarorlarga murojaat qilish orqali aniqlash mumkin edi.

1903-yil 22-martda qabul qilingan yangi Jinoyat kodeksi, zamondoshlarining fikricha, "shubhasiz, jinoyat qonunchiligini rivojlantirishda katta qadam bo‘ldi"[2]. Ushbu normativ hujjatning Maxsus qismi tahlili jinoyat-huquqiy normalarni shakllantirishda blanket dispozitsiyalardan foydalanish bo‘yicha vorisiylik mavjudligini ko‘rsatadi. 1845-yilgi Jinoiy va axloq tuzatish jazolari to‘g‘risidagi nizom singari, 1903-yilgi yangi Jinoyat nizomi ham dispozitsiyalarida boshqa normativ hujjatlarda (ustav, qaror) belgilangan qoidalarning buzilishini ko‘rsatuvchi normalarni o‘z ichiga olgan. Bunga misol sifatida quyidagi boblarni keltirish mumkin: XVI bob "Hunarmandchilik va savdo ustidan nazorat qilish to‘g‘risidagi qarorlarni buzish haqida", XVIII bob "Qurilish ishlarini olib borish hamda aloqa yo‘llari va vositalaridan foydalanish to‘g‘risidagi qarorlarni buzish haqida".

Bundan tashqari, buzilishi javobgarlikka sabab bo‘ladigan qoidalarning o‘zini ko‘rsatishdan tashqari, Nizomda "belgilangan tartib" (masalan, 311-modda qimmatli qog‘ozlar chiqarish to‘g‘risidagi qoidalarni buzganlik va qimmatli qog‘ozlar uchun blanklarni belgilangan tartibda tayyorlamaganlik uchun javobgarlikni nazarda tutgan), "tegishli ruxsatnoma" (310-modda tegishli ruxsatnomasiz zavod, fabrika, dorixona yoki boshqa sanoat yoki savdo muassasasini tashkil etganlik uchun, 324-modda - ochishga ruxsat etilmagan savdo yoki sanoat jamiyati yoki shirkati nomidan har qanday turdagi qimmatli qog‘ozlarga obuna ochganlik uchun, jamoat muassasasi yoki savdo yoki sanoat jamiyati yoki shirkati nomidan har qanday turdagi qimmatli qog‘ozlarni bunday qog‘ozlarni chiqarish uchun tegishli ruxsatnomasiz chiqarganlik uchun, 325-modda esa tegishli ruxsatnomasiz sug‘urta jamiyati nomidan sug‘urta operatsiyalarini amalga oshirganlik uchun javobgarlikni belgilagan) kabi blanket

belgilar ham qo‘llanilgan. Ta’kidlash joizki, zamonaviy Rossiya qonun chiqaruvchisi ham xuddi shu yo‘ldan bormoqda, u esa o‘z navbatida "noqonuniy" yoki "g‘ayriqonuniy" kabi blanket belgilardan foydalanmoqda.

1919-yil 12-dekabrda RSFSR Adliya xalq komissarligining qarori bilan Jinoyat huquqi bo‘yicha Rahbariy qoidalar qabul qilindi. Ular mohiyatiga ko‘ra sovet jinoyat qonunchiligining Umumiy qismi hisoblanib, jinoyat-huquqiy doktrinaning ayrim vakillarining fikricha, sovet jinoyat huquqi rivojlanish tarixida muhim bosqich bo‘ldi.

RSFSR Adliya xalq komissari o‘rinbosari P.I. Stuchka "Sovet adliyasining uchinchi yili" nomli nashr etilmagan maqolasida Rahbariy asoslarni o‘tish davri proletar huquqini kodifikatsiyalashning muhim bosqichi sifatida baholagan. "Qisqa tezislarda, - deb yozgan edi u, - sovet kriminalistini burjua kriminalistidan tubdan farqlaydigan jihatlar bayon etiladi" .

Ushbu dissertatsiya tadqiqotida belgilangan vazifalarni hal etish uchun 1919-yilgi Rahbariy asoslar alohida ahamiyatga ega emas, chunki ular o‘z matnida blanket dispozitsiyalarni o‘z ichiga olmaydi. Biroq, mazkur me’yoriy hujjatni e’tibordan chetda qoldirish mumkin emas, chunki uning ko‘plab qoidalari va institutlari RSFSR 1922-yilgi Jinoyat kodeksida va SSSR 1958-yilgi jinoyat qonunchiligi Asosiy qoidalarida rivojlantirilgan, shuningdek, ularni nazariy o‘rganish uchun qonunchilik asosi bo‘lib xizmat qilgan.

Ushbu dissertatsiyada o‘rganilayotgan iqtisodiy faoliyat sohasidagi jinoyatlar uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi jinoyat-huquqiy normalarning blanket dispozitsiyalari nuqtayi nazaridan, RSFSR 1922-yilgi JK alohida ilmiy qiziqish uyg‘otadi, chunki IV bob "Xo‘jalik sohasidagi jinoyatlar"ning 16 ta jinoyat tarkibidan 11 tasida blanket dispozitsiya qo‘llanilgan.

Shuni ta’kidlash joizki, ushbu normativ hujjatda blanket dispozitsiyalarni shakllantirish uchun qo‘llanilgan qonunchilik texnikasi usullari zamonaviy usullarga o‘xshash bo‘lib, ularning o‘ziga xos xususiyati jinoyat tarkibining alohida (yoki barcha) elementlari tarkibiy qismlarini blanket umumlashtiruvchi belgilar yordamida tavsiflashdan iborat.

Taqqoslash uchun aytish kerakki, zamonaviy Rossiya qonun chiqaruvchisi blanket belgilarni tavsiflashda ko‘pincha "noqonuniy" (RF JK 170, 180, 1854 - moddalari va boshqalar), "ruxsatsiz" (RF JK 181-moddasi), "g‘ayriqonuniy" (RF JK 169-moddasi) kabi umumlashtiruvchi belgilardan foydalanadi, bu esa RSFSR 1922-yilgi JKga mutlaqo xos bo‘lmagan.

Ta’kidlash lozimki, RSFSR 1922-yilgi Jinoyat kodeksida ham, Rossiya Federatsiyasining 1996-yilgi Jinoyat kodeksida ham jinoyat tarkibining obyektiv belgilarini talqin qilish uchun muayyan normativ hujjatga murojaat qiladigan normalar mavjud. Masalan, RSFSR JKning 132-moddasida

1922-yilda ish beruvchi tomonidan Mehnat qonunlari kodeksi va tarif to‘g‘risidagi umumiy nizomda belgilangan ish kuni davomiyligi, qo‘shimcha ish soatlari, tungi ish, ayollar va o‘smirlar mehnati, ish haqi to‘lash, ishga qabul qilish va ishdan bo‘shatish qoidalarini, shuningdek mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha maxsus me’yorlarni buzganligi haqida so‘z yuritilgan edi... O‘z navbatida, Rossiya Federatsiyasi Jinoyat kodeksining 330¹-moddasi chet el agenti vazifasini bajaruvchi notijorat tashkilotlarining reyestriga kiritish uchun zarur bo‘lgan hujjatlarni taqdim etishdan qasddan bo‘yin tovlaganlik uchun javobgarlikni belgilaydi. Bu reestr 1996-yil 12-yanvardagi "Notijorat tashkilotlar to‘g‘risida"gi 7-FZ-sonli Federal qonunining 13.1-moddasi 10-bandida nazarda tutilgan.

Biroq, asosan, 1922-yilgi JK normalari dispozitsiyalarida jinoyat tarkibi belgilarini talqin qilish uchun zarur bo‘lgan "jinoiy bo‘lmagan" hujjatlar eng umumiy shaklda tilga olingan (ushbu xususiyat zamonaviy Rossiya qonun chiqaruvchisiga ham yaxshi ma’lum). Masalan, JK 97-moddasida tovarlarni chet elga olib kirish yoki chet elga olib o‘tish to‘g‘risidagi qonunlar va majburiy qarorlarni buzish jinoyat deb topilgan; JK 136-moddasida davlat monopoliyalarini amalga oshirishni tartibga soluvchi nizomlarni buzish haqida so‘z yuritilgan; JK 139-moddasida maxsus taqiq yoki cheklov mavjud bo‘lgan mahsulotlar, materiallar va buyumlarni kasb sifatida sotib olish va sotish uchun javobgarlik belgilangan, JK 140-moddasida esa vinolar, aroqlar va umuman spirtli ichimliklar hamda tarkibida spirt bo‘lgan moddalarni tegishli ruxsatnomasiz sotish maqsadida tayyorlash uchun

javobgarlik belgilangan.

Butunrossiya Markaziy Ijroiya Qo‘mitasining 1926-yil 22-noyabrdagi qarori bilan RSFSRning 1926-yildagi yangi Jinoyat kodeksi qabul qilindi.

1926-yilgi RSFSR JK Maxsus qismini tahlil qilganimizda shunday xulosaga keldikki, 182 ta jinoyat tarkibidan 69 tasida (37,9%) qonun chiqaruvchi obyektiv tomon belgilarini tavsiflashda dispozitsiyaning blanket shaklidan foydalangan. Bunda mazkur tavsif turli usullarda amalga oshirilgan: blanket dispozitsiyalarning ko‘p qismida obyektiv tomon belgilarini aniqlashtirish uchun murojaat qilish lozim bo‘lgan normativ-huquqiy hujjatlar doirasi belgilangan (masalan, JK 59-11-moddasi davlat monopoliyalarini amalga oshirishni tartibga soluvchi qoidalarni buzishni jinoiy deb hisoblagan, JK 100-moddasi aksiz solig‘i yoki maxsus patent yig‘imi to‘g‘risidagi qoidalarni buzganlik uchun javobgarlikni, JKning 185-moddasi bosma asarlarni ko‘paytirish va nashr etish uchun belgilangan qoidalarni, shuningdek foto-kino-senzura qoidalarini buzganlik uchun javobgarlikni nazarda tutgan va hokazo). JKning 133-moddasi xususiy shaxslar hamda davlat yoki jamoat muassasalari va korxonalarining mas’ul shaxslari tomonidan mehnatni qo‘llashni tartibga soluvchi qonunlarni, shuningdek mehnatni muhofaza qilish va ijtimoiy sug‘urtalash to‘g‘risidagi qonunlarni buzganlik uchun javobgarlikni belgilagan. Shu sababli, ushbu jinoyat tarkibining mohiyatini tushunish uchun sovet huquqni qo‘llovchilari, xususan, 1922-yildagi RSFSR Mehnat qonunlari kodeksining normativ ko‘rsatmalariga murojaat qilishlari zarur bo‘lgan.

Ba’zi hollarda tartibga soluvchi huquq sohasining me’yoriy hujjati to‘g‘ridan to‘g‘ri ko‘rsatilmagan, balki eng umumiy shaklda tilga olingan (masalan, JKning 60-moddasi belgilangan muddatda soliqlar yoki majburiy ish haqi sug‘urtasi bo‘yicha yig‘imlarni to‘lamaganlik uchun javobgarlikni nazarda tutgan... Demak, "belgilangan muddat" blanket belgisi ushbu muddatni tartibga soluvchi muayyan me’yoriy hujjat mavjudligini anglatadi). 599-moddada esa, aksincha, obyektiv tomonning belgilarini ochib beradigan normativ-huquqiy hujjat to‘g‘ridan to‘g‘ri ko‘rsatilgan. Jumladan, Bojxona ustavining 261-moddasida sanab o‘tilgan alomatlar bilan murakkablashgan kontrabanda jinoiy javobgarlikka tortiladigan qilmish

sifatida e’tirof etilgan.

Shuningdek, o‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, blanket dispozitsiyali normalarning eng yuqori konsentratsiyasi II bob "Boshqaruv tartibiga qarshi jinoyatlar"da - 37 ta jinoyat tarkibi (jami jinoyat tarkiblarining 20,3 foizi - bu yerda va keyingi o‘rinlarda), VIII bob «Xalq salomatligi, jamoat xavfsizligi va tartibini muhofaza qiluvchi qoidalarni buzish»da - 11 ta jinoyat tarkibi (6 foiz), VI bob

«Shaxsning hayoti, sog‘lig‘i, erkinligi va qadr-qimmatiga qarshi jinoyatlar»da - 7 ta jinoyat tarkibi (3,8 foiz) va V bob "Xo‘jalik jinoyatlari"da - 5 ta jinoyat tarkibi (2,7 foiz) kuzatilgan.

1926-yildagi RSFSR Jinoyat kodeksida blanket dispozitsiyalar mavjudligini sovet davrining yetakchi huquq nazariyotchilari ham ta’kidlab o‘tishgan. Xususan, A.A. Piontkovskiy va V.D. Menshagin shunday deb yozishgan: "JKning 59-12-moddasida ushbu jinoyat tarkibining blanket dispozitsiyasi berilgan: modda valyuta operatsiyalari qoidalarining buzilishi haqida so‘z yuritadi. JK 59-12-moddasi bo‘yicha qanday ijtimoiy xavfli qilmishlar javobgarlikka tortilishi mumkinligini aniqlash uchun SSSRda valyuta operatsiyalarini tartibga soluvchi amaldagi qonun hujjatlariga murojaat qilish lozim. Bunday qonunchilikka, avvalo, SSSR MIQ va XKSning 1937-yil 7-yanvardagi "Valyuta boyliklariga oid bitimlar va chet el valyutasidagi to‘lovlar to‘g‘risida"gi qarori kiradi."

1958-yildan boshlab sovet jinoyat qonunchiligi rivojlanishining yangi bosqichi boshlandi. O‘sha yilning 25-dekabrida SSSR va ittifoqdosh respublikalarning Jinoyat qonunchiligi asoslari qabul qilindi, shundan so‘ng respublika Jinoyat kodekslarini isloh qilish jarayoni boshlandi va bu 1959-1961-yillar davomida amalga oshirildi. Asoslardan tashqari, umumittifoq jinoyat qonunchiligiga davlat jinoyatlari uchun jinoiy javobgarlik to‘g‘risidagi qonun (1958-yil) va harbiy jinoyatlar uchun jinoiy javobgarlik to‘g‘risidagi qonun (1958-yil) ham kirardi.

SSSRning 1958-yil 25-dekabrdagi (1990-yil 2-aprel tahriridagi) "Davlat jinoyatlari uchun jinoiy javobgarlik to‘g‘risida"gi Qonunining II bobi (Boshqa davlat jinoyatlari)da 20 ta jinoyat uchun javobgarlik belgilangan bo‘lib, shulardan 4

tasi iqtisodiyot sohasidagi quyidagi qilmishlar uchun javobgarlikni o‘z ichiga olgan: kontrabanda (15-modda), urush davrida majburiyatlarni bajarishdan yoki soliqlarni to‘lashdan bo‘yin tovlash (19-modda), soxta pul yoki qimmatli qog‘ozlar tayyorlash yoki sotish (24-modda), valyuta operatsiyalari qoidalarini buzish (25-modda). Ushbu jinoyatlar uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi normalarni shakllantirishda sovet qonun chiqaruvchisi blanket dispozitsiyadan foydalangan.

Xususan, kontrabanda, ya’ni tovarlar yoki boshqa qimmatliklarni SSSR Davlat chegarasi orqali noqonuniy tarzda olib o‘tish uchun javobgarlik belgilashda "noqonuniy" degan blanket belgi qo‘llanilgan. Bu holat buyumlarni maxsus yashirin joylarda saqlash, bojxona va boshqa hujjatlardan firibgarlik yo‘li bilan foydalanish, yirik miqdorda, kontrabanda bilan shug‘ullanish uchun uyushgan guruh tomonidan, yoki mansabdor shaxs tomonidan xizmat mavqeidan foydalangan holda sodir etilishi, shuningdek, portlovchi moddalar, giyohvand moddalar, kuchli ta’sir qiluvchi va zaharli moddalar, qurol-yarog‘, o‘q-dorilar va harbiy anjomlar kontrabandasi uchun ham tegishli edi. Bu belgi, avvalo, sovet qonunchiligi

masalan, tovarlarni SSSR Davlat chegarasi orqali olib o‘tish bilan bog‘liq "qonuniy" harakatlarni belgilaydigan me’yoriy hujjatga ega edi. Bunday hujjatlar quyidagilardan iborat edi: 1991-yil 26-martda SSSR Oliy Kengashi tomonidan tasdiqlangan 2052-1-sonli SSSR Bojxona kodeksi, uning II bo‘limida

SSSR bojxona chegarasi orqali tovarlar va boshqa buyumlarni olib o‘tish tartibi, SSSRning 1982-yil 24-noyabrdagi "SSSR davlat chegarasi to‘g‘risida"gi qonuni va boshqalar belgilangan edi.

Shuningdek, masalan, urush davrida majburiyatni bajarishdan yoki soliq to‘lashdan bo‘yin tovlash tarkibining obyektiv tomoni belgilarini aniqlash uchun soliq turlari va ularni to‘lovchi subyektlar doirasini aniqlash zarur edi. Shu sababli, sovet huquqni qo‘llovchilari quyidagi me’yoriy hujjatlarga murojaat qilishgan: SSSRning 1990-yil 23-apreldagi 1443-1-sonli "SSSR fuqarolari, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslardan olinadigan daromad solig‘i to‘g‘risida"gi Qonuni (bu qonun mazkur soliqni to‘lovchilar doirasini, shuningdek soliqqa tortiladigan va tortilmaydigan daromadlarni va hokazolarni belgilagan), SSSRning

1990-yil 14-iyundagi 1560-1-sonli "Korxonalar, birlashmalar va tashkilotlardan olinadigan soliqlar to‘g‘risida"gi Qonuni. tashkilotlar" (to‘lovchilar doirasini va soliq turlarini belgilagan: foyda solig‘i, aylanma solig‘i, eksport va import solig‘i, kolxozchilar ish haqi fondiga solinadigan soliq, iste’molga yo‘naltiriladigan mablag‘lar o‘sishiga solinadigan soliq, daromad solig‘i va boshqalar), SSSR Oliy Kengashi Prezidiumining 1943-yil 30-apreldagi (1987-yil 23-apreldagi tahriri) "Aholidan olinadigan daromad solig‘i to‘g‘risida"gi Farmoni (shuningdek, to‘lovchilar doirasini, uni to‘lashdan ozod qilish asoslarini va boshqalarni belgilagan), SSSR Oliy Kengashi Prezidiumining 1941-yil 21-noyabrdagi (1972-yil 25-dekabrdagi tahriri) "SSSRning bo‘ydoq, yolg‘iz va farzandsiz fuqarolaridan olinadigan soliq to‘g‘risida"gi Farmoni (soliq miqdorini, uni undirishni to‘xtatish asoslarini va boshqalarni belgilagan).

RSFSRning yangi Jinoyat kodeksi 1960-yil 27-oktyabrda qabul qilingan. Uning mualliflari ko‘pchilik jinoyat-huquqiy normalarni shakllantirishda Rossiya qonunchiligiga allaqachon ma’lum bo‘lgan blanket dispozitsiyasidan keng foydalanganlar.

1960-yilgi RSFSR JK Maxsus qismida mustahkamlangan jami 280 ta jinoyat tarkibidan 124 tasi (44,2%) blanket dispozitsiyasi yordamida tuzilgan. Shuningdek, 1960-yilgi RSFSR JK Maxsus qismining tahlili shuni ko‘rsatdiki, blanket dispozitsiyalari yordamida tuzilgan eng ko‘p normalar VI bob «Xo‘jalik jinoyatlari»da - 29 ta jinoyat tarkibi (10,3%), X bob «Jamoat xavfsizligi, jamoat tartibi va aholi sog‘lig‘iga qarshi jinoyatlar»da - 23 ta jinoyat tarkibi (8,2%), I bob "Davlat jinoyatlari"da - 15 ta jinoyat tarkibi (5,3%) mavjud.

1926-yilgi RSFSR Jinoyat kodeksidagi kabi, qonun chiqaruvchi blanket belgilarini tavsiflashning turli usullarini qo‘llagan. Ba’zi hollarda sovet qonun chiqaruvchisi "noqonuniy" degan blanket belgisidan foydalangan. Masalan, JK 155-moddasida o‘zganing tovar belgisidan noqonuniy foydalanganlik uchun javobgarlik belgilangan, JK 158-moddasida esa spirtli ichimliklarni noqonuniy tayyorlash, sotish va saqlash jinoyati belgilangan.

Shunga qaramay, qonun chiqaruvchi ko‘pincha obyektiv tomonning

belgilarini aniqlashtirish uchun murojaat qilish lozim bo‘lgan huquqning tartibga soluvchi tarmog‘iga oid normativ hujjatlar doirasini belgilagan.

Xususan, 1960-yilgi RSFSR JKning 88-moddasi valyuta operatsiyalari qoidalarini buzganlik, shuningdek valyuta boyliklari yoki qimmatli qog‘ozlar bilan chayqovchilik qilganlik uchun javobgarlikni nazarda tutgan. N.A. Belyayev va M.D. Shargorodskiy "RSFSR JKning 88-moddasi blanket dispozitsiyaga ega" ekanligini ta’kidlaganlar [3].

Valyuta, valyuta boyliklari va qimmatli qog‘ozlar mazkur jinoyatning predmeti hisoblanadi. Ularning ro‘yxatini o‘z ichiga olgan qonun hujjatlari quyidagilar edi: SSSR Ministrlar Sovetining 1948-yil 25-oktyabrdagi "Valyuta va valyuta boyliklarini chegaradan olib chiqish, olib kirish, o‘tkazish va jo‘natish tartibi to‘g‘risida"gi qarori, SSSR Moliya vazirligining 1949-yil 1-apreldagi mazkur qarorni qo‘llash bo‘yicha yo‘riqnomasi, SSSR Davlat bankining Ustavi va boshqalar. Ko‘rsatilgan hujjatlarda valyuta, valyuta boyliklari va qimmatli qog‘ozlarning ta’rifi, shuningdek qonuniy deb e’tirof etilgan valyuta boyliklari bilan bog‘liq harakatlar keltirilgan.

Bundan tashqari, ayrim fuqarolar tomonidan yer qa’ridan qazib olingan oltin yoki boshqa qimmatbaho metallar yoki qimmatbaho toshlarni davlatga topshirish qoidalarini buzish (JK 167-moddasi), sanoat korxonasidan sifatsiz, standartlarga yoki texnik shartlarga mos kelmaydigan mahsulotni bir necha marta yoki ko‘p miqdorda chiqarish jinoiy jazoga tortiladigan qilmish deb topilgan.

Bunday mahsulotlarni direktor, bosh muhandis yoki texnik nazorat bo‘limi boshlig‘i, shuningdek boshqa lavozimlarni egallab turgan, biroq ko‘rsatilgan shaxslarning vazifalarini bajaruvchi shaxslar tomonidan chiqarish (JK 157-moddasi), shuningdek maxsus taqiqlangan kasblar bilan shug‘ullanish, agar bu kasblar bilan shug‘ullanganligi uchun avval ma’muriy jazo qo‘llanilgan bo‘lsa, ham jinoiy javobgarlikka tortishga asos bo‘ladi.

1994 yilda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining birinchi Jinoyat kodeksi jinoyat-huquqiy normalarni tuzishda blanket usulini qo‘llashning bir asrdan ortiq an’analariga sodiq qoldi. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksining

1994 yildagi dastlabki tahririning Maxsus qismini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, qonunchilik texnikasining ushbu usuli keng qo‘llanilgan, chunki 255 ta normadan 165 tasi blanket dispozitsiyalar yordamida tuzilgan bo‘lib, bu ularning umumiy sonining 65 foizini tashkil etadi. Tuzilishning blanket usuli nuqtayi nazaridan eng ko‘p uchraydigan jinoyat-huquqiy normalar iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi normalar (41 ta norma, bu 16% ni tashkil etadi) va ekologik sohadagi qilmishlarning jinoiyligi va jazoga sazovorligini belgilovchi normalardir (aniqrog‘i, Rossiya Federatsiyasi Jinoyat kodeksining 26-bobidagi barcha normalar (6,6%) blanket dispozitsiyalardan foydalangan holda tuzilgan).

1994 yil 22 sentyabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi mustaqil O‘zbekiston jinoyat qonunchiligining poydevorini yaratdi. Ushbu kodeksda blanket normalarning ilk shakllari mavjud bo‘lib, ular asosan iqtisodiyot, ekologiya, transport va axborot xavfsizligi sohalaridagi jinoyatlarga taalluqli edi. Masalan, JK 189-moddasi "Savdo yoki xizmat ko‘rsatish qoidalarini buzish", JK 202-moddasi "Ekologiya xavfsizligi talablarini buzish", JK 254-moddasi "Transport harakati yoki undan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish" kabi moddalar o‘z dispozitsiyalarida boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga havola qiluvchi blanket xususiyatga ega edi.

Bu davrda blanket normalarning qo‘llanilishi ma’lum bir qiyinchiliklarni keltirib chiqardi. Xususan, havola qilinayotgan normativ hujjatlarning tez-tez o‘zgarib turishi, ayrim hollarda esa ularga to‘liq havola berilmaganligi huquqni qo‘llash amaliyotida noaniqliklar tug‘dirdi. Sudlar va huquqni muhofaza qiluvchi organlar bunday normalarni qo‘llashda tarkib topayotgan ijtimoiy munosabatlarning murakkabligi va mavjud maxsus qoidalarning o‘zgaruvchanligi bilan to‘qnash keldilar.

Blanket normalarning rivojlanish dinamikasi (2000-yillar)

2000-yillarda O‘zbekiston Respublikasi jinoyat qonunchiligini takomillashtirish bo‘yicha bir qator o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi. Bu davrda blanket normalarning soni va ularning qamrov doirasi kengaydi. Xususan, kiberjinoyatchilik, korrupsiya, noqonuniy migratsiya kabi yangi turdagi jinoyatlar

paydo bo‘lishi bilan bog‘liq holda, ularga javobgarlik belgilovchi normalar ham blanket xususiyatga ega bo‘ldi. Masalan, JK 205-modda "Hokimiyat yoki mansab vakolatini suiiste’mol qilish" va JK 209-modda "Mansab soxtakorligi" kabi moddalar dispozitsiyasida mavjud qonunchilikka va idoraviy normativ hujjatlarga havolalar ko‘paydi.

Bu davrda blanket normalarni qo‘llashdagi muammolarni hal etish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumi qarorlarida tegishli tushuntirishlar berildi. Mazkur tushuntirishlar jinoyat tarkibini aniqlashda blanket normalarga havola qilingan boshqa qonun va normativ-huquqiy hujjatlarning aniq ko‘rsatilishi, ularning jinoiy qilmish sodir etilgan paytdagi tahririni inobatga olish zarurligini ta’kidladi.

Hozirgi kundagi holat va blanket normalarni takomillashtirish yo‘nalishlari (2010-yildan Hhozirgi kungacha)

2010-yillardan boshlab, O‘zbekiston Respublikasida huquqiy islohotlar jadallashdi. "Harakatlar strategiyasi" doirasida jinoyat-huquqiy tizimni insonparvarlashtirish, liberallashtirish va jinoyat qonunchiligini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi. Bu jarayonda blanket normalarning ahamiyati yanada oshdi, chunki zamonaviy jinoyatchilikning murakkab shakllari (masalan, kiberjinoyatchilik, terrorizm, noqonuniy valyuta muomalasi) maxsus bilim va qoidalarni talab qiladi.

Hozirda O‘zbekiston Respublikasi JKda blanket normalarning soni sezilarli darajada ko‘p va ular jinoyatlarning aksariyat turlariga tegishli. Masalan, JK 228-modda "Hujjatlar, shtamplar, muhrlar, blankalar tayyorlash, ularni qalbakilashtirish, sotish yoki ulardan foydalanish" hamda JK 244-modda "Jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga tahdid soluvchi materiallarni tayyorlash, saqlash, tarqatish yoki namoyish etish" kabi moddalarda blanket dispozitsiya mavjud.

Biroq, blanket normalarni qo‘llashda hali ham ayrim muammolar mavjud. Ular quyidagilardan iborat:

Havola qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarning beqarorligi: Ko‘pgina vazirliklar va idoralarning normativ hujjatlari tez-tez o‘zgarib turishi, jinoyat

qonunchiligini qo‘llashda noaniqliklarni keltirib chiqaradi.

Huquqiy bo‘shliqlar: Ayrim hollarda, jinoiy javobgarlikni belgilovchi normalar mavjud bo‘lsa-da, ularga asos bo‘luvchi maxsus qoidalar yetarlicha aniq belgilanmagan bo‘lishi mumkin.

Ta’vil muammolari: Blanket normalarni to‘g‘ri va aniq talqin qilish, xususan, jinoiy qilmishning obyektiv tomonini to‘liq aniqlashda murakkabliklar yuzaga keladi.

Bu muammolarni hal etish uchun quyidagi yo‘nalishlarda ish olib borish zarur:

Normativ-huquqiy bazani unifikatsiyalash va mustahkamlash: Jinoyat qonunchiligiga havola qiluvchi normativ hujjatlarning barqarorligini ta’minlash va ularni doimiy ravishda monitoring qilish.

Jinoyat qonunchiligi va boshqa sohalar qonunchiligi o‘rtasidagi o‘zaro aloqani mustahkamlash: Qonun ijodkorligi jarayonida blanket normalarning aniq va ravshan bo‘lishini ta’minlash.

Huquqni qo‘llash amaliyotini takomillashtirish: Sudlar va huquqni muhofaza qiluvchi organlar uchun blanket normalarni qo‘llash bo‘yicha aniq va yagona tavsiyalar ishlab chiqish.

Shunday qilib, O‘zbekiston Respbublikasi jinoyat qonunchiligi rivojlanish tarixida blanket normalar shakllanishining retrospektiv tahlili bir qator xulosalar chiqarish imkonini berdi.

Birinchidan, O‘zbekiston jinoyat qonunchiligida blanket dispozitsiyasining paydo bo‘lishi va jinoyat qonunlarida undan foydalanishning asta-sekin ko‘payish tendensiyasi huquqiy munosabatlarning murakkablashuvi, tabaqalanishi, ixtisoslashuvi, sifat jihatidan yangi huquqiy munosabatlarning vujudga kelishi va ularning yuqori dinamikasi bilan belgilanadi.

Ikkinchidan, milliy qonun chiqaruvchi tarixiy rivojlanishning turli bosqichlarida blanket belgilarni tavsiflashning turli usullaridan foydalangan: huquqning tartibga soluvchi tarmog‘i normativ hujjatini eng umumiy shaklda eslatish; obyektiv tomonning belgilarini aniqlashtirish uchun murojaat qilish lozim

bo‘lgan normativ-huquqiy hujjatlar doirasini belgilash; muayyan normativ hujjatga murojaat etish; "g‘ayriqonuniy", "noqonuniy" va boshqa blanket belgilardan foydalanish; huquqning boshqa tarmog‘i atamalaridan foydalanish va hokazo.

Uchinchidan, dispozitsiyaning blanket shakli 1845-yildagi Jinoiy va axloq tuzatish jazolari to‘g‘risidagi nizomdan boshlab, 1960-yildagi RSFSR Jinoyat kodeksigacha bo‘lgan 100 yildan ortiq davr mobaynida qonunchilik texnikasining eng ustuvor usullaridan biri bo‘lib kelgan.

Фойдаланган адабиётлар

1. Пикуров Н.И. Квалификация преступлений при бланкетной форме диспозиции уголовного закона (с конкретизацией запрета в административном праве): дисс. ... канд. юрид. наук. М., 1982. С. 14.

2. Евангулов Г.Г. Уголовное уложение. СПб., 1903. С. 92.

3. Курс советского уголовного права. Часть особенная. Т. 3. / Под. ред. Н.А. Беляева, М.Д. Шаргородского Л., 1973. С. 312.

Normanov Oxunjon Eshnazar o‘g‘li
Toshkent shahar IIBB YHXB inspektori Jamoat havfsizligi unversiteti mustaqil izlanuvchisi

TRANSPORT VOSITALARI HARAKATI YOKI ULARDAN FOYDALANISH XAVFSIZLIGI QOIDALARINI BUZISH JINOYATINI O‘XSHASH JINOYATLARDAN FARQLASH MASALALARI

Annotatsiya : Ushbu maqolada transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish jinoyatini to‘g‘ri kvalifikatsiya qilish, uni o‘xshash jinoyatlardan farqlash bilan bog‘liq nazariy va amaliy muammolar yoritilgan. Yo‘l-transport hodisalarida sababiy bog‘lanishni aniqlash, qoidabuzarlik va oqibat o‘rtasidagi huquqiy aloqani belgilash, ayb shaklini to‘g‘ri baholash masalalari atroflicha tahlil qilinadi. Sud-tergov amaliyotidagi ziddiyatlar, ekspertlar o‘rtasidagi turli qarashlar, qonunchilikdagi blanket normalarning to‘liq ochib berilmaganligi oqibatida yuzaga keladigan qiyinchiliklar misollar asosida ko‘rsatib berilgan. JK 266-moddasining mohiyati, jinoyat tarkibining obyekt, obyektiv va subyektiv tomonlari, javobgarlikning chegaralari hamda harbiy, mehnat xavfsizligi bilan bog‘liq o‘xshash jinoyatlardan farqlovchi jihatlar huquqiy nuqtayi nazardan

yoritilgan. Maqolada Oliy sud Plenumi qarorlari va amaldagi qonunchilik talablari asosida kvalifikatsiya muammolarini bartaraf etish bo‘yicha xulosa va takliflar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: transport jinoyatlari, harakat xavfsizligi, foydalanish qoidalari, sababiy bog‘lanish, yo‘l-transport hodisasi, jinoyatni kvalifikatsiya qilish, subyektiv tomon, obyektiv tomon, xavfsizlik qoidalari, sud amaliyoti, tergov muammolari.

ВОПРОСЫ РАЗГРАНИЧЕНИЯ ПРЕСТУПЛЕНИЯ, СВЯЗАННОГО С НАРУШЕНИЕМ ПРАВИЛ БЕЗОПАСНОСТИ ДВИЖЕНИЯ ИЛИ ЭКСПЛУАТАЦИИ ТРАНСПОРТНЫХ СРЕДСТВ, ОТ СХОДНЫХ ПРЕСТУПЛЕНИЙ.

Аннотация: В статье рассматриваются теоретические и практические вопросы квалификации преступления, связанного с нарушением правил безопасности движения или эксплуатации транспортных средств, а также его отличие от сходных составов преступлений. Подробно анализируются проблемы установления причинной связи, юридической оценки противоправных действий водителя, формы вины и характера наступивших последствий. На конкретных примерах раскрыты противоречия следственно-судебной практики, возникающие вследствие недостаточной определённости бланкетных норм и различий в экспертных подходах. Особое внимание уделено содержанию ст. 266 УК Республики Узбекистан, её объекту, объективной и субъективной сторонам, а также критериям разграничения данного состава с воинскими и трудовыми преступлениями. На основе норм законодательства и разъяснений Пленума Верховного суда приведены выводы и предложения, направленные на совершенствование практики квалификации.

Ключевые слова: транспортные преступления, безопасность движения, правила эксплуатации, дорожно-транспортное происшествие, квалификация преступления, субъективная сторона, объективная сторона, правила безопасности, судебная практика, проблемы следствия.

ISSUES OF DISTINGUISHING THE CRIME OF VIOLATING TRAFFIC SAFETY OR VEHICLE OPERATION RULES FROM SIMILAR CRIMES

Abstract: This article examines the theoretical and practical issues related to the legal qualification of crimes involving the violation of traffic safety rules or the rules for operating vehicles, as well as the distinctions between this offence and similar crime categories. The study provides an in-depth analysis of causation, the legal assessment of unlawful driver behavior, the forms of guilt, and the evaluation of harmful consequences. Contradictions found in investigative and judicial practice—often caused by the incomplete interpretation of blanket legal norms and inconsistent expert opinions—are illustrated with practical examples. Special attention is given to Article 266 of the Criminal Code of the Republic of Uzbekistan, including its object, objective and subjective elements, and criteria for distinguishing this crime from military and occupational safety offences. Based on legislative norms and Supreme Court guidelines, the paper offers conclusions and recommendations aimed at improving the accuracy and consistency of legal qualification.

Keywords:traffic-related crimes, traffic safety, vehicle operation rules, causation, road traffic accident, crime qualification, subjective element, objective element, safety rules, judicial practice, investigative issues.

Jinoyat huquqida transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish jinoyatini qonuniy va adolatli jinoiy-huquqiy baholash huquqni qo‘llash faoliyatining muhim yo‘nalishi hisoblanadi. Bu, ayniqsa, yo‘l-transport jinoyatlari bilan bog‘liq bo‘lgan tarkiblarni ajratish amaliyoti ziddiyatli ko‘ringanda, ham ularning blanket xususiyati, ham ularning rasmiy talqinining yetarli emasligi sababli dolzarbdir. Shubhasizki, yo‘l harakatining aybdor ishtirokchilari harakatlarini bir xilda malakalash yo‘l harakati xavfsizligiga jinoiy-huquqiy ta’sir samaradorligini oshirishning muhim vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Bugungi kunda umumiy yo‘l-transport hodisalari sonining har uchdan biri jinoyat hisoblanadi, va ularning soni so‘nggi o‘n yil ichida deyarli 15% ga oshgan. Shu bilan

birga, rasmiy statistik ma’lumotlarga ko‘ra, Jinoyat kodeksining 266-moddasida nazarda tutilgan jinoyatlarning umumiy jinoyatchilik tuzilmasidagi ulushi atigi 2-6% ni tashkil etsa-da [1], ularning ko‘lami va oqibatlarining og‘irligi ko‘pincha shaxs va jamoat xavfsizligiga qarshi boshqa jinoyatlardan yetkazilgan jismoniy zararni oshirib yuboradi.

Ma’lum qilinishicha, 2023-yilda Jinoyat kodeksining 266-moddasida (transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish) nazarda tutilgan jinoyatni sodir etganlikda aybli deb topilib, 3 325 nafar shaxs sudlangan. Shundan 635 nafariga ozodlikdan mahrum qilish jazosi, 2 690 nafariga ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq bo‘lmagan jazolar tayinlangan. 2024-yilning 1-yarmida 1 601 nafar shaxs sudlanib, ularning 551 nafariga ozodlikdan mahrum qilish jazosi, 1 050 nafariga ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq bo‘lmagan jazolar tayinlangan.

Oliy Majlis Senatining Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo‘mitasi taqdim etgan ma’lumotlariga ko‘ra, 2024-yilning besh oyida sodir bo‘lgan yo‘l-transport hodisalarining 53,7 foizi piyoda va velosipedchilar bilan bog‘liq holatlar hissasiga to‘g‘ri kelgan. 2024-yilning birinchi yarmida (yanvar—iyun oylari) 9 839 ta yo‘l-transport hodisasi sodir bo‘lgan, buning oqibatida 9 209 nafar fuqaro jarohatlangan va 2 282 nafar inson bu yorug‘ olamni erta tark etgan. Solishtirish uchun, 2020-yilning birinchi yarmida jami 2388 ta yo‘l-transport hodisasi sodir etilgan. Shundan 383 tasi bolalar, 1154 tasi piyodalar va 101 tasi velosiped ishtirokida qayd etilgan. Yuqoridagi raqamlar shuni ko‘rsatmoqdaki, joriy yilning birinchi yarmida sodir bo‘lgan YTHlar soni, 2020-yilga qaraganda deyarli 4 barobarga oshgan. Bunda avariyalar ko‘rsatkichlarining o‘sish sur’ati mamlakat transport vositalarining ko‘payish sur’atidan ancha yuqori bo‘lib, yo‘l-transport hodisalarining qariyb 80 foizi haydovchilar tomonidan yo‘l harakati qoidalarining buzilishi oqibatida sodir etilmoqda.Ushbu holatga olimlar e’tiborini ilgarigi tadqiqotlarda ham qaratishgan bo‘lib, unda ham yo‘l-transport hodisalarining asosiy qismi haydovchilar aybi bilan sodir bo‘lishi ta’kidlangan [2].

Transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzganlik uchun jinoiy javobgarlik Jinoyat kodeksining 260—269moddalari dispozitsiyasida ko‘rsatilgan:

1.Temir yo‘l, dengiz, daryo yoki havo transportining harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish (O‘zR JK 260-moddasi).

2.O‘zbekiston Respublikasining samoviy hududidan qonunga xilof ravishda (ruxsatsiz) foydalanish (O‘zR JK 260¹-moddasi)

3. Mast holdagi shaxsning transportvositasini boshqarishiga yo‘l qo‘yish (O‘zR JK 261-moddasi).

4. Transportni ta’mirlash yoki uni foydalanishga chiqarish qoidalarini buzish (O‘zR JK 262-moddasi).

5. Temir yo‘l, dengiz, daryo, havo transportivositasi yoki aloqa yo‘llarini yaroqsiz holatga keltirish (O‘zR JK 263-moddasi).

6. Havo kemasidan foydalanish vaqtida lazer nurini yo‘naltirish orqali xalaqit berish (O‘zR JK 263¹-moddasi).

7.Temir yo‘lning harakatlanadigan tarkibini, havo, dengiz yoki daryo kemasini olib qochish yoki egallab olish (O‘zR JK 264-moddasi). 8. Xalqaro uchish qoidalarini buzish (JK 265-moddasi).

9. Transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoydalarini buzish (JK 266-moddasi).

10. Transport vositasini olib qochish (JK 267-moddasi). 11. Transportning xavfsiz ishlashini ta’minlashga doir qoidalarni buzish (JK 268-moddasi).

12. Avtomobil yo‘llaridan foydalanish va ularni qo‘riqlash qoydalarini buzish (JK 269-moddasi). Jinoyat kodeksining 260—263¹, 266, 268-269-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlarning muqarrar alomati, transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarining buzilishi natijasida badanga o‘ta og‘ir yoki og‘ir shikast yetkazilishi, odamlarning halok bo‘lishi, halokatlar yuz berishi yoxud boshqa og‘ir oqibatlarning kelib chiqishidir [3]. «Odamlar o‘limi» deganda, sodir bo‘lgan transport hodisasi oqibatida ikki yoki undan ortiq odamlarning halok bo‘lishi; «halokat» deganda, shunday hodisa tufayli atrof muhitga, insonlarning

sog‘lig‘i va hayoti uchun xavfli bo‘lgan jiddiy ziyon yetkazilishi, insonlarning halok bo‘lishiga sababchi bo‘lgan temir yo‘l, dengiz, daryo yoki havo transportlarining, shuningdek ko‘pchilikni tashishga mo‘ljallangan jamoat transportlari (avtobus, trolleybus va shu singarilar)ning avariya bo‘lishi; «boshqa og‘ir oqibatlar» deganda esa, yo‘l-transport hodisasi natijasida odam o‘lishi bilan birgalikda yana bir qancha kishilarning og‘ir tan jarohatlari olishlari, poyezd, kema yoki samolyotlar harakati tizimining uzoq muddatga izdan chiqishi, tashiladigan yuklarga juda ko‘p miqdorda ziyon yetkazilishi, atrofdagi uyjoy va boshqa inshootlarning buzilishi, (portlashi, yonib ketishi, vayron bo‘lishi) bilan bog‘liq juda ko‘p miqdorda ziyon yetkazilishi kabi holatlar tushuniladi.

Mazkur toifadagi jinoyatlar (transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish) garchi ehtiyotsizlik natijasida sodir qilinsa-da, yo‘llarda baxtsiz hodisalar yuz berishi oqibatida fuqarolarning hayoti va sog‘lig‘i xavf ostida qolishi hamda jabrlanuvchining oilasi og‘ir ahvolga tushib qolishi sababli tergov va sudlar tomonidan ushbu toifadagi ishlarni ko‘rishda alohida yondashuv talab qilinadi.

JKning 266-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan jinoyat qonunda badanga o‘rtacha og‘ir yoki og‘ir shikast yetkazilishi sifatida ko‘rsatilgan oqibatlar kelib chiqqan paytdan tugallangan hisoblanadi. Harakat xavfsizligi va transport vositalaridan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzgan shaxs yetkazilgan zararli oqibatlar uchun qoidabuzarlik bilan oqibatlar o‘rtasida sababiy bog‘lanish mavjud bo‘lgan holdagina javob beradi. Qoida buzilmagan holda bunday aloqa istesno etiladi (masalan, piyoda o‘z ehtiyotsizligi tufayli mashina orqa g‘ildiragi ostiga tushib qoladi yoki o‘z joniga qasd qilib o‘zini mashina ostiga otadi). Harakatlanayotgan transport hamda jabrlangan shaxs o‘rtasida jismoniy bog‘liqlik mavjudligi hali sababiy bog‘lanish mavjudligidan dalolat bermaydi, chunki bunday toifaga oid jinoyatlarda u normativ xususiyatga ega. Normativlik tufayli sababiy bog‘lanish jismoniy bog‘liqlik umuman ro‘y bermagan hollarda ham mavjud bo‘lishi mumkin.

Haydovchi o‘z noto‘g‘ri harakatlari bilan to‘g‘ri harakatlanishga xalaqit berishi natijasida harakatning boshqa ishtrokchilari uchinchi shaxslarga zarar yetkazishga majbur bo‘lgan hollarda ham, yetkazilgan zarar uchun ham javobgar bo‘ladi. Masalan, qarama-qarshi yo‘nalish qatoriga chiqib olgan haydovchi ro‘paradan kelayotgan transport haydovchisi uchun to‘siq paydo qiladi, u to‘qnashishning oldini olish yoki to‘xtash imkoniga ega bo‘lmay, trotuardagi piyodani urib yuboradi.

Bunda birinchi haydovchi oqibatlar uchun javob berishi lozim. Bu holatda ikkinchi haydovchi harakatlari oxirgi zarurat qoidalariga ko‘ra yoki aybsiz holda zarar yetkazish sifatida kvalifikatsiya qilinadi. Haydovchining zararli oqibatlar bilan bevosita bog‘liq harakatlari, harakatning boshqa ishtrokchilarining qoidabuzarligi tufayli shartlangan bo‘lishiga qaramay, ushbu oqibatlarning sababi sifatida ishtrok etadi. Yo‘l harakati qoidalarida, xususan, qoidabuzarliklarning oldini oladigan talablar mavjud. Masalan, ularda haydovchi boshqa shaxslar tomonidan yo‘l qo‘yilgan o‘zga qoidabuzarliklarga nisbatan qanday ish tutishi kerakligi ko‘rsatilgan. Bu qoidalar buzilgan ekan, demak, aybdor yetkazilgan zarar uchun javob berishi shart. Hususan, qarama-qarshi transport vositasi chirog‘idan ko‘zi qamashgan haydovchi mashinani to‘xtatmasdan, shu holat bilan bog‘liq tarzda piyodani urib yuborsa, JKning 266-moddasi bo‘yicha javobgarlikka tortiladi, shuningdek transport vositasini boshqarish borasidagi harakatlari kelib chiqqan oqibatlar bilan sababiy bog‘lanishda bo‘lmagan boshqa haydovchi esa yo‘l harakati qoidalarini buzganligi uchun ma’muriy javobgarlikka tortilishi lozim.

Sababiy bog‘lanish masalasini hal etishda haydovchida zararli oqibatning oldini olishning texnik imkoniyati mavjudligi hisobga olinadi. Bunday imkoniyat bo‘lmay, xavfli vaziyat u emas, harakatning boshqa ishtrokchilari tomonidan keltirib chiqarganligi ma’lum bo‘lsa, u holda JKning 266-moddasi bo‘yicha javobgarlik istesno etiladi. Haydovchi ko‘zi ko‘rmasdan piyodani urib yuborgan holda uning harakatlari, agar u mashinani to‘xtatish yoki chetga burib yuborish imkoniga ega bo‘lmagan bo‘lsa, kelib chiqqan oqibatlarning sababi emas. Xavfli holatni uning o‘zi keltirib chiqargan bo‘lsa, zararli oqibatlarning oldini olishga texnik imkon yo‘qligi

yuridik ahamiyatga ega emas. Jinoyatning subyektiv tomoni kelib chiqqan oqibatlarga nisbatan ehtiyotsiz munosabat bilan tavsiflanadi. Shaxs harakat xavfsizligi yoki transport vositasidan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buza turib, bu inson sog‘lig‘iga og‘ir yoki o‘rtacha og‘ir shikast yetkazishi mumkinligini anglaydi, biroq assosiz ravishda ularning oldini olishiga ishonadi yoki transport vositasini boshqarayotgan shaxs harakat xavfsizligi yoki transport vositasidan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzib, zararli oqibatlar kelib chiqishini ko‘ra bilmaydi. Qasddan zarar yetkazish (o‘ch olish maqsadida piyodani urib yuborish) shaxsga qarshi jinoyatni tashkil etadi. Aybdor transport vositasi yordamida jamoatchilik tartibini buzar ekan, qilmish qo‘shimcha ravishda bezorilik sifatida kvalifikatsiya qilinishi mumkin.

Aybdorning transport harakati yoki undan foydalanish xavfsizligiga qarshi qaratilgan jinoiy harakatlari natijasida JKning ayni bir moddasining turli qismlarida nazarda tutilgan jinoyat alomatlari yuz bergan bo‘lsa, qilmish JKning 33-moddasi talabi asosida shu moddaning og‘irroq jazo belgilangan qismi bilan kvalifikatsiya qilinadi. Shu bilan birgalikda, ushbu jinoyatlar qonunda ko‘rsatilgan oqibatlar kelib chiqishi bilan tamomlangan deb hisoblanishi nazarda tutilib, turli vaqtda sodir etilgan yo‘l-transport hodisalari alohida-alohida kvalifikatsiya qilinishi lozim.

Transport vositasini boshqarayotgan va o‘n olti yoshga to‘lgan aqli raso shaxs jinoyatning subyekti bo‘lishi mumkin. Bunda u transport vositasini o‘zboshimchalik bilan yoki birovning ruxsati bilan boshqarganligi, unda transport vositasini boshqarish huquqini beradigan guvohnoma bor-yo‘qligi ahamiyatga ega emas. Biroq bu holda transportni boshqarishni boshqa shaxslarga berishga yo‘l qo‘ygan avtomashina egalari javobgarlikka tortilishi kerak. Jinoyatning subyekti deb, shuningdek, harbiy xizmatchilar ham tan olinishi kerak, ammo bunda ular harakat xavfsizligi qoidalarini yoki harbiy bo‘lmagan transport vositasidan foydalanish qoidasini buzgan bo‘lishlari shart, aks holda ularning harakatlari JKning 298-moddasi bo‘yicha kvalifikatsiya qilinadi.

Sud-tergov amaliyotida harakat xavfsizligi yoki transport vositasidan foydalanish xavfsizligi qoidalarining haydovchi-instruktor hamda shogird

tomonidan yo‘l qo‘yilgani va zararli oqibatlarni keltirib chiqargan buzishni kvalifikatsiya qilishda muayyan muammolar paydo bo‘ladi. Umumiy qoidaga binoan, shogird tomonidan ikki tomonlama boshqariladigan amaliyot vaqtida yo‘l qo‘yilgan avariya uchun instruktor javob beradi. Ammo qoidabuzarlik shogird tomonidan instruktor ko‘rsatmalarini ongli tarzda bajarmaslik va maxsus qoidalarni qo‘pol buzish oqibati ekanligi aniqlansa, JKning 266-moddasi bo‘yicha shogird javobgarlikka tortiladi.

Agar transport vositasidan foydalanish jarayonida jumladan, transportga yuk ortish-tushirish, transport vositasini ta’mirlash, qurilish, qishloq xo‘jaligi ishlari va boshqa turdagi ishlarni bajarishda texnik xavfsizligi yoki mehnatni muhofaza qilish qoidalarini buzish natijasida badanga o‘rtacha og‘ir yoki og‘ir shikast yetkazilgan, odam o‘limi yoki boshqa og‘ir oqibatlar kelib chiqqan bo‘lsa, mazkur qoidalarga rioya etilishi uchun mas’ul shaxsning harakatlari JKning 257-moddasi bo‘yicha kvalifikatsiya qilinishi lozim.

Yo‘l harakati va transport vositalaridan foydalanish qoidalarini buzilishini harbiy mashinani boshqarish va ulardan foydalanish qoidalarini buzishdan farqlash lozim. Harbiy xizmatchi tomonidan jangovar, maxsus yoki transport mashinalarini boshqarish va ulardan foydalanish qoidalari buzilgan taqdirda, qilmish JKning 298-moddasi bilan kvalifikatsiya qilinadi. Agar yo‘l transport hodisasi harbiylashtirilmagan mashinani boshqargan harbiy xizmatchining aybi bilan yoki harbiy mashinani boshqargan harbiy bo‘lmagan shaxsning aybi bilan sodir etilsa, qilmish JKning 266-moddasi bilan kvalifikatsiya qilinishi lozim.

Foydalanish qoidalarining buzilishi, masalan, qo‘pol yuklarni tashish, nomaqbul joyda tashlab ketish, boshqarishni nomuvofiq shaxsga ishonib topshirish, mashinani zaif trosda tortib yurish, moslashtirilmagan transport vositasida odam tashish qoidalarida ifodalanishi mumkin. Umumiy ehtiyot choralarining buzilishi natijasida yuzaga kelgan, zararli oqibatlar keltirib chiqargan haydovchining noto‘g‘ri harakatlari foydalanish qoidalarining buzilishi deb e’tirof etilmaydi. Bu hollarda aybdorning harakatlari muayyan ishlarni amalga oshirish, xavfsizlik texnikasi, mehnatni muhofaza qilish qoidalarining buzilishi sifatida yoki hayot va

sog‘liqqa qarshi qaratilgan jinoyat deb kvalifikatsiya qilinadi. Masalan, mashinaga benzin quyishda haydovchi ehtiyotsizligi tufayli benzin dvigatel ustiga to‘kildi va boshqaruv vaqtida elektr o‘t oldirish tizimi buzuqligi natijasida uchqundan avtomashina alanga ichida qoldi va yo‘lovchi halok bo‘ldi.Bu holda qilmish ehtiyotsizlik oqibatida o‘limga olib kelgan deb JKning 102-moddasi bo‘yicha kvalifikatsiya qilinishi mumkin.

Agar shaxs ixtisoslashgan transport vositasida (avtokran, ekskovator, skreper, va taqozolarda) ishlay turib, mashinadan o‘zga transportga xos bo‘lmagan maqsadda foydalanilganida zarar yetkazgan, masalan, avtokranda elektr liniyasi ostida yuk tushirish ishlarini belgilanganidan yaqinroq masofada amalga oshirib, natijada ishchilardan biri elektr tokidan halok bo‘lgan holda ham jinoyat tarkibi mavjud emas. Bu kabi xavfsizlik texnikasiga rioya qilmaslik hollari mashina yurib ketayotganida ham ro‘y berishi mumkin, masalan, avtokran haydovchisi ilgakka ilingan yukni joyidan joyga ko‘chirishda uni silkitib yuradi va ishchi badaniga og‘ir shikast yetkazadi. Mazkur holatlarda harakat xavfsizligi va foydalanish xavfsizligi qoidalari buzilmaganligi sababli JKning 266-moddasi bo‘yicha javobgarlik istisno etiladi. Transport vositalarini boshqarish va ulardan foydalanish qoidasi buzilgan bo‘lmasda, lekin qonunda ko‘rsatilgan oqibatlar kelib chiqsa, buni baxtsiz hodisa natijasida aybsiz holda zarar yetkazish deb topish kerak.

Ikkinchidan, jinoyatlarni farqlashdagi yana bir muhim mezon subyekt hisoblanadi. JK 266-moddasining subyekti umumiydir, ya’ni transport vositasini boshqarish huquqiga ega bo‘lgan (hamda ushbu moddaning kvalifikatsiyalovchi belgilari mavjud bo‘lganda, masalan, mast holatda boshqarish) 16 yoshga to‘lgan har qanday jismoniy shaxs jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin. Bu nafaqat professional haydovchilar, balki shaxsiy transport vositasini boshqarayotgan fuqarolarni ham o‘z ichiga oladi. Jinoyat kodeksi 263, 267-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlarning subyekti o‘n to‘rt yoshga to‘lgan, har qanday jismoniy shaxs hisoblanadi. Aksincha, Yo‘l harakati qoidalari [4]ning 1-bobiga ko‘ra, dvigatelining ish hajmi 50 sm3dan oshmaydigan yoki elektrodvigatelining quvvati 4 kilovattdan oshmaydigan, konstruktiv tezligi esa soatiga 50 kilometrdan oshmaydigan ikki yoki

uch (to‘rt) g‘ildirakli transport vositalarini (moped, (osma yurgizgichli (dvigatelli) velosiped), mokika, skuter hamda xuddi shunday tavsiflarga ega bo‘lgan kvadrosikl (kvadrosikl), tritsikl hamda yo‘lning qatnov qismida harakatlanishga moslashtirilgan boshqa transport vositalarini boshqarib borayotgan shaxs JK 266-moddasida nazarda tutilgan jinoyat subyekti bo‘lishi mumkin emas.

Aksincha, JK 268-moddasining subyekti maxsus bo‘lib, bu jinoyat ot-ulov transportini boshqarib borayotgan, shuningdek, velosipedchilar, aravacha, chana, bolalar hamda nogironlar aravachalarini tortib (yurgizib) borayotgan va yo‘l harakati yoki transport vositalaridan foydalanish qoidalarini buzishga yo‘l qo‘ygan shaxslar, tomonidan sodir etilishi mumkin. agar bunda ehtiyotsizlik orqasida badanga o‘rtacha og‘ir yoki og‘ir shikast yetkazilgan yoxud odam o‘lgan bo‘lsa, buning uchun asoslar mavjud bo‘lgan taqdirda, JK 268-moddasi bo‘yicha javobgar bo‘ladi.Agar yo‘l harakati va transport vositalaridan foydalanish qoidalarini buzish bir necha turdagi transport vositasi haydovchilarining jinoiy harakatlari bilan sababiy bog‘lanishda bo‘lsa, bunday holda ular transport vositasi turidan kelib chiqib, tegishlicha, JK 266 yoki 268-moddasi bo‘yicha javobgarlikka tortiladilar.

Shuningdek, Jinoyat kodeksi 261-moddasida nazarda tutilgan jinoyat subyekti tashkilot, korxona, muassasa rahbarining buyrug‘i bilan transport vositasini boshqarishga ruxsat berish majburiyati yuklatilgan shaxs, shuningdek, shaxsiy transport egasi hisoblanadi. Jinoyat kodeksi 260-moddasida nazarda tutilgan jinoyat subyekti temir yo‘l, dengiz, daryo yoki havo transporti harakati xavfsizligini tashkil etish bilan bog‘liq xodimlar (masalan, harakat xizmati, havo aloqasini boshqarish markazi, dispetcherlik xizmati xodimlari, katta shturman, parvozlar rahbari), shuningdek, transport vositasini bevosita boshqaruvchi xodimlar (kema komandiri (kapitani) va shturmani, mashinist va uning yordamchisi va boshqalar) bo‘lishi mumkin. Misol uchun, Taksi haydovchisi S. mast holatda mashina boshqarib, yo‘l-transport hodisasiga sabab bo‘ldi va yo‘lovchisi D. vafot etdi. S. professional haydovchi bo‘lsa-da, uning jinoyati JK 266-moddasi bilan kvalifikatsiya qilinadi, chunki u yo‘l transporti vositasi bilan bog‘liq qoidalarni buzgan. Bu yerda uning

"professional"ligi moddani 260-moddaga o‘zgartirmaydi, chunki u temir yo‘l, havo yoki suv transporti bilan bog‘liq maxsus mas’uliyatga ega emas.

Uchinchidan, jinoyatlarni farqlashdagi obyektiv tomoni va oqibatlari bo‘yicha, Jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishda obyektiv tomon va uning oqibatlarini to‘g‘ri baholash hal qiluvchi ahamiyatga ega.JK 266-moddasining obyektiv tomoni transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish qoidalarini buzishdan iborat. Bu qoidabuzarlik turli shakllarda namoyon bo‘lishi mumkin: tezlikni oshirish, yo‘l belgilariga rioya qilmaslik, manevr qilish qoidalarini buzish, mast holatda boshqarish va boshqalar. Jinoyatning tarkibi moddiy bo‘lib, uning yuzaga kelishi uchun Jinoyat kodeksida ko‘rsatilgan oqibatlar (masalan, og‘ir tan jarohati yetkazish, o‘lim) kelib chiqishi shart.Transport vositasining texnik holati, uning nosozligi yoki undan foydalanishdagi kamchiliklar bilan bog‘liq. Masalan, ta’mirlash sexi xodimi tomonidan transport vositasining tormoz tizimining noto‘g‘ri ta’mirlanishi oqibatida yo‘l-transport hodisasi yuz bersa, haydovchi nosoz transport vositasini boshqarganligi sababli baxtsiz hodisaga uchrasa, uning harakatlari 262-moddaga muvofiq baholanishi mumkin.JK 262-modda (Transportni ta’mirlash yoki uni foydalanishga chiqarish qoidalarini buzish) obyektiv tomon jihatidan farqlanadi. Bu yerda qoidabuzarlik JK 268-modda (Transportning xavfsiz ishlashini ta’minlashga doir qoidalarni buzish) ham o‘xshash jinoyatlardandir, ammo uning subyekti haydovchi bo‘lmagan shaxslar (masalan, yo‘lovchilar) tomonidan transport xavfsizligini buzish holatlarini qamrab oladi. Agar yo‘lovchi avtobus harakati paytida haydovchini chalg‘itsa va bu hodisaga olib kelsa, uning harakatlari 268-modda bo‘yicha kvalifikatsiya qilinishi mumkin.

Misol uchun, Avtobus parkining mexanigi F. tormoz tizimi nosoz bo‘lgan avtobusni texnik ko‘rikdan o‘tkazib, "soz" deb xulosa berdi. Bir necha kundan keyin bu avtobus YTHga uchrab, yo‘lovchilarga og‘ir tan jarohatlari yetdi. Bu holatda YTHga mexanik F.ning harakatlari (texnik qoidalarni buzishi) sabab bo‘lganligi uchun u JK 262-moddasi bo‘yicha javobgarlikka tortiladi. Haydovchi YTH paytida qoidalarni buzmagan, balki nosoz transport vositasini boshqargan.

To‘rtinchidan, Ayb Shakli bo‘yicha o‘xshash jinoyatlardan farqlash

Transport jinoyatlari, odatda, ehtiyotsizlik (beparvolik yoki o‘ziga ishonish) orqali sodir etiladi. Ehtiyotsizlik transport jinoyatlarining muhim belgisidir. Shaxs o‘z harakatlarining xavfli ekanligini anglamagan yoki ularning oldini olish mumkinligiga asossiz ravishda ishongan holda sodir etadi. Qasddan sodir etilgan harakatlardan farqlash: Agar shaxs qasddan transport vositasidan jinoiy maqsadlarda (masalan, odamni qasddan urib yuborish) foydalansa, bu holat JKning boshqa moddalari (masalan, 97-modda - Qasddan odam o‘ldirish yoki 104-modda - Qasddan badanga og‘ir shikast yetkazish) bo‘yicha kvalifikatsiya qilinadi. Bunday hollarda transport vositasi jinoyat sodir etish quroli sifatida qabul qilinadi, transport xavfsizligi qoidalarini buzish esa jinoyatning obyektiv tomoniga kirmaydi. Misol: Shaxs X. o‘z dushmani Z.ni ko‘rib qolib, qasddan mashinasini Z. tomon burib, uni urib yubordi va Z. vafot etdi. Bu holatda X.ning harakatlari JK 97-moddasi (Qasddan odam o‘ldirish) bilan kvalifikatsiya qilinadi, chunki transport vositasi jinoyat quroli sifatida qasddan foydalanilgan. Bu yerda transport harakati qoidalarini buzish ikkilamchi ahamiyatga ega va jinoyatning asosiy mohiyatini belgilamaydi. Shuning uchun ham JK 266-moddasida nazarda tutilgan oqibatlarga sabab bo‘lgan harakatlari, yuzaga kelgan oqibatlar va ayb shaklidan kelib chiqqan holda, shaxsga qarshi jinoyatlar yoki ishlarni amalga oshirish qoidalarini buzish uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi Jinoyat kodeksining tegishli moddalari bo‘yicha kvalifikatsiya qilinishi lozim bo‘ladi [5].

Фойдаланилган адабиётлар

1. https://daryo.uz/k/2024/07/22/ozbekistonda-transport-vositalaridan-foydalanish-xavfsizligi-qoidalarini-buzgani-uchun-qamalganlar-soni-ochiqlandi

2. Лукянов В. В. Йўл ҳаракати хавфсизлиги. М., 2010. 35-38-бетлар;

3. Рустамбоев М.Х. Ўзбекистон Республикаси Жиноят ҳуқуки курси 5 Т. 1-2 том.— Т.: ILM ZIYO, 2010.

4. “Йўл ҳаракати тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Қонуни.

5. Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг «Транспорт ҳаракати ёки ундан фойдаланиш хавфсизлигига қарши жиноятларга оид ишлар юзасидан суд амалиёти тўғрисида»ги 2015 йил 26 июндаги 10-сонли карори.

Шохбек ХОДЖАЕВ Музаффарович

магистрант Правоохранительной академии Республики Узбекистан

ИНСТИТУТ СОУЧАСТИЯ В ПРЕСТУПЛЕНИИ В УГОЛОВНОМ ПРАВЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН: ПРОБЛЕМЫ КВАЛИФИКАЦИИ СЛОЖНЫХ ФОРМ И СРАВНИТЕЛЬНО-ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА

Аннотация: Данная статья посвящена анализу института соучастия в преступлении по Уголовному кодексу Республики Узбекистан с акцентом на проблемы квалификации сложных форм соучастия. Автор рассматривает дискуссионные вопросы разграничения простой и сложной форм соучастия, роли предварительного сговора, распределения функций между участниками, а также соотношения понятий «группа лиц по предварительному сговору» и «сложное соучастие».

Ключевые слова: соучастие в преступлении, сложное соучастие, группа лиц по предварительному сговору, предварительный сговор, распределение ролей, исполнитель, организатор, подстрекатель, пособник.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JINOYAT HUQUQIDA JINOYATDA ISHTIROKCHILIK INSTITUTI: MURAKKAB SHAKLLARNI KVALIFIKATSIYA QILISH MUAMMOLARI VA XORIJIY TAJRIBANING QIYOSIY-HUQUQIY TAHLILI

Annotatsiya: Ushbu maqola jinoyat huquqida ishtirokchilik institutini tahlil qilishga bag‘ishlangan bo‘lib, unda murakkab ishtirokchilik shakllarini kvalifikatsiya qilish muammolariga alohida e’tibor qaratiladi. Muallif oddiy va murakkab ishtirokchilik shakllarini ajratish, oldindan til biriktirishning roli, ishtirokchilar o‘rtasida vazifalarning taqsimlanishi, shuningdek, “oldindan til biriktirgan shaxslar guruhi” va “murakkab ishtirokchilik” tushunchalarining o‘zaro munosabati kabi bahsli masalalarni ko‘rib chiqadi.

Kalit so‘zlar: jinoyatda ishtirokchilik, murakkab ishtirokchilik, oldindan til biriktirgan shaxslar guruhi, oldindan til biriktirish, rollarni taqsimlash, jinoyatcni bajaruvchi, tashkilotchi, dalolatchi, yordamchi.

THE INSTITUTION OF COMPLICITY IN CRIME IN THE CRIMINAL LAW OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN: PROBLEMS OF QUALIFICATION OF COMPLEX FORMS AND COMPARATIVE LEGAL ANALYSIS OF FOREIGN EXPERIENCE

Abstract: This article is devoted to the analysis of the institution of complicity in crime under the Criminal Code of the Republic of Uzbekistan, with a focus on the issues of classifying complex forms of complicity. The author examines debated issues concerning the differentiation between simple and complex forms of complicity, the role of prior conspiracy, the distribution of functions among participants, as well as the relationship between the concepts of “a group of persons by prior conspiracy” and “complex complicity.”

Keywords: complicity in crime, complex complicity, a group of persons by prior conspiracy, prior conspiracy, distribution of roles, perpetrator, organizer, instigator, accomplice.

Институт соучастия в преступлении является составной и неотъемлемой частью системы уголовного закона. Поэтому его цели и задачи определяются в соответствии с целями и задачами уголовного законодательства. Вместе с тем институт соучастия обладает и своими специфическими особенностями: его закрепление в законе создает правовую основу для привлечения к уголовной ответственности не только лиц, непосредственно совершивших преступление, но и других участников, создавших условия для его совершения; данный институт определяет пределы ответственности участников преступления; разработанные в его рамках критерии позволяют индивидуализировать назначение наказания лицам, принимавшим участие в совершении преступления в той или иной степени, в соответствии с принципами законности, гуманизма и справедливости.

Следует отметить, что нормы, закрепляющие институт соучастия в преступлении в Общей части Уголовного кодекса, являются универсальными для любых случаев совершения преступления несколькими лицами. Поэтому положения Общей части Уголовного кодекса, регулирующие данный институт, должны обеспечивать решение всех вопросов, связанных с квалификацией преступлений, совершённых в соучастии, и установлением ответственности за них.

В качестве практического примера можно привести приговор Яккасарайского районного суда по уголовным делам города Ташкента от 28 февраля 2025 года, согласно которому руководитель ООО «BROUNITED» Т. Азимов был признан виновным в совершении хищения природного газа путём незаконного вмешательства в работу газоизмерительного оборудования и повреждения пломб, что позволило в период с 2 по 19 июля 2024 года незаконно использовать 388 705 м³ природного газа общей стоимостью 699 669 000 сумов. Суд квалифицировал его действия по пункту «а» части 4 статьи 169 Уголовного кодекса Республики Узбекистан и, применив статью 57 УК, назначил наказание в виде двух лет исправительных работ. Одновременно суд оправдал С. Шагулямову, указав, что факт заключения договора аренды между ООО «NAK ABSOLUTE» и ООО «BROUNITED», а также наличие имущественной связи между сторонами не подтверждают её участия в преступлении, поскольку в ходе судебного разбирательства не были установлены предварительный сговор, согласованные действия либо распределение ролей между обвиняемыми. Суд особо отметил, что для признания сложного соучастия необходима совокупность достоверных доказательств, подтверждающих не только объективную связь между лицами, но и наличие общего преступного умысла, направленного на достижение преступного результата [1]. Данная судебная практика показывает, что при квалификации сложного соучастия решающее значение имеет установление конкретной роли каждого участника и доказанность их совместного умышленного участия в совершении преступления.

В соответствии с частью третьей статьи 29 Уголовного кодекса, участие двух или более лиц в совершении преступления по предварительному сговору признаётся сложным соучастием[2]. Вместе с тем в юридической литературе сложное соучастие, как правило, рассматривается как такое, которое предполагает распределение ролей (функций) между участниками преступления. В частности, М.Х. Рустамбаев отмечает: “сложное соучастие характеризуется распределением обязанностей между совместно действующими лицами, направленностью их деятельности, а также наличием наряду с исполнителем организатора, подстрекателя, пособника либо, по крайней мере, одного из них [3]”.

М. Усмоналиев и П. Бакунов также подчёркивают, что сложное соучастие предполагает: участие двух или более лиц в совершении определённого преступления; предварительный сговор между членами группы; возможность участия в сложном соучастии наряду с исполнителями также организатора, подстрекателя или пособника [4]. Вместе с тем для признания преступления совершённым в сложном соучастии вовсе не обязательно участие организатора, подстрекателя или пособника: группой по предварительному сговору может быть признана и такая форма сложного соучастия, когда преступление совершается только исполнителями, но при наличии предварительного сговора между ними.

В настоящее время такую точку зрения поддерживают также Р. Кабулов и А.А. Отажонов [5]. Кроме того, как подчёркивает С. Ниёзова, “совершение преступления по предварительному сговору двумя или более исполнителями признаётся преступлением, совершённым группой лиц”[6]. Однако с этим утверждением согласиться нельзя, поскольку автор, давая определение понятию совершения преступления группой лиц, фактически смешивает простую, сложную и организованную формы соучастия. Предварительный сговор является признаком сложного соучастия и не требуется при простой форме соучастия, тогда как ведение преступной деятельности является признаком организованной группы.

Следует отметить, что сложная форма соучастия не получила прямого отражения в Особенной части Уголовного кодекса. Хотя большинство авторов подчёркивают, что квалифицирующий признак “совершение преступления группой лиц по предварительному сговору”, содержащийся в Особенной части Уголовного кодекса, по своему содержанию охватывает сложное соучастие. Действительно, исходя из определения сложного соучастия, приведённого в законе, можно прийти к выводу, что оно охватывается признаком “совершение преступления группой лиц по предварительному сговору”, установленным в Особенной части Уголовного кодекса. Поскольку законодатель раскрывает сложное соучастие как участие двух или более лиц в совершении преступления по предварительному сговору.

Вместе с тем, поскольку законодатель связал совершение преступления группой лиц по предварительному сговору с логикой “объединения в группу”, в литературе высказываются различные подходы к толкованию содержания данного признака. В частности, одни авторы считают, что если у каждого участника, совершающего преступление по предварительному сговору группой лиц, имеется преступный умысел на совершение преступления и предварительный преступный сговор, возникший до начала реализации объективной стороны преступления, при этом объективная сторона состава преступления выполняется хотя бы одним исполнителем, а остальные участники действуют в распределённых ролях, то такое деяние следует признавать совершённым группой лиц по предварительному сговору.

Другие исследователи утверждают, что группа лиц по предварительному сговору имеет место только тогда, когда объективная сторона состава преступления выполняется как минимум двумя исполнителями, действующими по предварительной договорённости. Ещё одна группа авторов отмечает, что действия участника, не выполняющего объективную сторону преступления непосредственно, могут быть оценены как участие в группе по предварительному сговору лишь в том случае, если в

совершении преступления фактически участвовали по меньшей мере два исполнителя.

